“Saddi Iskandariy” dostoni. Iskandar – adolatli va ma’rifatparvar ideal podsho obrazi. U shoh va olim. Dostonda Iskandarning tug‘ilishi, yoshlik yillari, ta’lim-tarbiyasi, Faylaqusning vafoti va Iskandarning taxtga chiqishi, Iskandarning Doro bilan to‘qnashuvi, Eronni egallab olib, u yerda adolat o‘rnatishi, Kashmirga yurish qilib, zolim Malluni yengishi, Hind shohi va Chin xoqoni bilan do‘stona bitishuvi, Mag‘ribda vahshiylarga qarshi jangi, Qirvon o‘lkasida ya’juj va ma’jujlarning yo‘lini to‘sish uchun sad barpo etishi hamda dengiz sayohati Iskandar sarguzashtlarining asosini tashkil etadi.

Olimlar obrazi. Naqumojis (Nikomaxos-Arastuning otasi) – Iskandarning murabbiysi va ustozi. Arastu (Aristotel), Filotun – Aflotun (Platon), Suqrot (Sokrat), Asqalinus (Iskilinus), Buqrot (Gippokrat), Hurmus (Germes) va Faysog‘urs (Pifagor)lar.

Dostonning xotimasida yetti olim tilidan aytilgan so‘zlar doston mazmunini takomillashtiradi: podsho elga mushfiq va marhamatli bo‘lishi – Arastu (Aristotel); sipohni lutfi bilan shod, raiyatni adli bilan obod qilishi – Filotun – Aflotun (Platon); ulusning osoyishtaligi uchun kurashmog‘i – Suqrot (Sokrat); yaramas kishilarga nisbatan siyosat qo‘llashi, qattiqqo‘l bo‘lishi – Buqrot (Gippokrat);

og‘zi, so‘zi, ko‘ngli va ko‘zi pok – Faysog‘urs (Pifagor); himmatli va saxovatli bo‘lishi – Hurmus (Germes), lutfli, adolatli bo‘lishi kerak - Asqalinus (Iskilinus).

Bonu – mushfiq va mehribon ona, tadbirli va tajribali davlat arbobi hamda zakovatli olima. Suyukli farzandi Iskanfdarning o‘limidan qattiq iztirob chekadi. Iskandarning ishlarini davom ettirib, adolat bilan Rumni boshqaradi.

Lu’bati Chin – mislsiz jasoratli qiz. Iskandar qo‘shinlari Mag‘ribda vahshiylar boshlig‘i bilan yakkama-yakka jang qilishga botinolmay turganda, niqoblangan Lu’bati Chin maydonga kiradi, jasorati, chaqqonligi va kuch-quvvati bilan vahshiylar boshlig‘ini yengadi, shu bilan u Iskandar qo‘shinini mag‘lubiyat va sharmandalikdan qutqarib qoladi.

Xulosa. Alisher Navoiy ijodini intellekt xaritalari yordamida o‘rganish – ta’lim jarayonida o‘quvchilarning tasavvur va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali usullardan biridir. Ushbu maqolada ko‘rsatib o‘tilganidek, har bir insonning intellektual imkoniyatlari o‘ziga xos bo‘lib, ularni yuzaga chiqarish uchun zamonaviy yondashuvlar talab etiladi. Intellekt xaritalari mavzuni chuqur anglash, asosiy g‘oyalarni tizimlashtirish va ularni bir-biri bilan mantiqiy bog‘lashga imkon beradi. Ayniqsa, Navoiydek ulug‘ mutafakkirning “Xamsa” asarini intellekt xaritalari orqali tahlil qilish, nafaqat adabiy bilimlarni chuqurlashtiradi, balki o‘quvchilarning fikrlash madaniyatini, estetik didini va tahliliy yondashuvini ham rivojlantiradi. Demak, ta’limda intellekt xaritalaridan foydalanish nafaqat metodik yangilik, balki pedagogik zarurat hamdir. Bu esa zamonaviy ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. To‘liq asarlar to‘plami. 10 jildlik: 6-jild. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2011. – 808 b.
2. Alisher Navoiy. To‘liq asarlar to‘plami. 10 jildlik: 7-jild. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2011. – 696 b.
3. Alisher Navoiy. To‘liq asarlar to‘plami. 10 jildlik: 8-jild. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2011. – 712 b.
4. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik, birinchi jild. – Toshkent: Fan, 1983. – 527 b.
5. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik, sakkizinchi jild. - Toshkent: Fan, 1992 yil.
6. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik, to‘qqizinchi jild. - Toshkent: Fan, 1992 yil.
7. Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik, o‘ninchi jild. - Toshkent: Fan, 1992 yil.
8. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik, o‘n birinchi jild. - Toshkent: Fan, 1992 yil.
9. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik, o‘n to‘rtinchi jild. – Toshkent: Fan, 1998. – 238 b.
10. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. To‘rt jild (I, II, III, IV jildlar). Fozilov E.I. tahriri ostida. – Toshkent: Fan, 1983 (Ps.656; 644; 624; 636).
11. A.G.Ganiev, S.N.Tashev. PSYCHOLOGY AND EDUCATION. (2021) 58(1), ISSN: 00333077; “The role of “Imagination” in the process of “Creative thinking”.

TOG'AY MUROD IJODIDA DAVR VA INSON MUAMMOSI

Boliqulova M. A.
Samarqand davlat chet tillari instituti
Sharq tillari fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: ***Pardayeva I.M.***
Samarqand davlat chet tillari instituti dotsenti

Tayanch so'zlar: milliy tuyg'u, imperiya siyosati, sho'rolar hukumati, sovet kishisi, ruhiy kechinma, vatan mehri, mehnatkashlik, ayollar, erksiz jamiyat, badiiy ifoda, tahlil va talqin.
Ключевые слова: национальный гнет, имперская политика, советская власть, духовный опыт, крестьянин, патриотизм, труд, женщины, бесправное общество, анализ и интерпретация.
Key words: national oppression, imperial policy, Soviet government, spiritual experience, peasant, patriotism, labor, women, powerless society, analysis and interpretation.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada "Otamdan qolgan dalalar" romanidagi Dehqonqul obrazi ramziy-fojiaviy obraz sifatida mavzusida so'z boradi va o'zbek naqadar sodda, tanti xalq bo'lganligi ularni ruslar qo'lida qanchalik ezilganligi, quldek yashagani, o'z haq-huquqi, erkini yo'q bo'lganligi ochib berilgan. Shu bilan birga yozuvchining asar tilining go'zalligi, shuningdek, shevalarni mahorat bilan o'z o'rnida qo'llaganligi yoritilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматривается образ Дехканкула в романе «Поля, оставленные моим отцом» как символический и трагический образ, раскрывается, насколько простым и скромным был узбекский народ, как его притесняли русские, как он жил как раб, как его лишали прав и свободы. При этом подчеркивается красота языка писателя и его умелое использование диалектов.
SUMMARY:
This article discusses the image of Dehkankul in the novel "The Fields Left by My Father" as a symbolic and tragic image, and reveals how simple and humble the Uzbek people were, how they were oppressed by the Russians, how they lived like slaves, and how they lost their rights and freedom. At the same time, the beauty of the writer's language, as well as his skillful use of dialects in their place, are highlighted.

Kirish. Milliy asaniyotimizning XX asr oxirgi choragi rivojida Tog'ay Murodning munosib o'rni bor. U ellik besh yillik ijodiy faoliyati davomida bir necha hikoya, to'rt qissa, ikki roman yaratdi, jahon adabiyotidan tarjimalar

qildi, adabiy-tanqidiy maqolalar yozdi. Yozuvchi qoldirgan adabiy meros mindoro jihatdan u qadar ko'p emas. Ammo uning qissa va romanlari o'ziga xos badiiyati, til va ifoda tarzi, "adabiy aholi" safiga olib kirgan hech qaysi adibnikiga o'xshamaydigan tirik odamlari – personajlari bilan davr adabiyotida yorqin iz qoldirdi.

Ilk romani "Otamdan qolgan dalalar" Tog'ay Murod ijodidagina emas, milliy adabiyotimiz tarixida muhim hodisa bo'ldi. Bu asarni yozishga kirishar ekan, yozuvchi o'zini, o'zining hayot haqidagi bilim, tasavvurlarini qayta tanqidiy taftishdan o'tkazdi. Shu paytga qadar amal qilgan ijodiy aqidalariga sodiq qolgan holda qishloq hayoti, oddiy odamlar turmushini o'zgacha nigoh bilan anglash yo'lini tutdi. Mustabid tuzum sharoitida oddiy zahmatkash mehnat ahki ayni o'sha noyob fazilatlari – to'g'riso'zligi, mehnatkashligi, halolligi, odob-andishasi tufayli xor-u zor bo'layotganligini adub chuqur alam-iztirob, nadomatlar bilan kuyib-yonib tasvirlaydi. Asarda ijtimoiy ruh – pafos keng ko'lam kasb etadi.

"Endi qonim o'z g'animlarim uchun qaynamaydi. Yo'q, o'z g'animlarim o'z yo'lida qoldi. Endi qonim... olamjahon g'animlarim uchun qaynaydi. Endi qonim... qudratli g'animlarim uchun qaynaydi...

– Men o'zbek xalqiga haykal qo'yaman!

Men ana shunday shaxt bilan olamjahon g'animlarim sari shaylandim" – yozuvchining romanni yozish oldidagi, jarayonidagi holat-kayfiyati ana shunday bo'lgan.

"Otamdan qolgan dalalar" muallifi boshqa bir o'rinda bu asarni yozishdan ko'zlagan maqsadi ustida to'xtalib, yana ham aniqroq qilib: "Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zosi – Ozod O'zbekiston uchun bitdim... Ko'nglimda el-yurtim yo'lida nimaiki dardim bor – barini ushbu romanning asosiy ruhi –pafosi aniq-ravshan ifodalangan. Bu roman Alloh in'om etgan eng ulug' ne'mat – mustaqilligini, erkini boy bergan, bosqinchilar bo'yunturug'ini bo'yniga ilgan el-yurt boshiga tushgan balo-ofatlar, mislsiz xo'rliklar, istibdod iskanjasida qolgan xalq chekkan zahmatlar tufayli adib dilidagi oh-armon, nola-fig'on, salkam bir asr davom etgan imperiya zulmi, zug'umiga qarshi zo'r nafrat – isyon kabi yang yangraydi.

Metodlar. Tarixdan ma'lumki, o'lkaning taraqqiyparvar kishilari hali rus chorizmi bosqimi boshlanmasdan burunroq bo'lg'usi mudhish hodisalar dahshatini oldindan his etganlar, aniq ko'rganlar, odamlarni bu dahshatdan ogohlantirganlar. Afsuski, o'sha chigal tarixiy sharoitda bu mudhish balo-ofatning oldini olish imkoni bo'lmagan. Parokandalik, ma'naviy inqiroz, jaholat dardiga mubtalo yurt manfur zotlar hamlasiga dosh berolmadi, muqaddas o'lka shafqatsiz kelgindilar oyog'i ostida toptaldi. Zulm va zug'um haddan oshdi, xalq necha bor qo'zg'aldi, xalqning adolat, erk, ozodlik yo'lidagi har bir harakati shafqatsizlarcha bostirildi.

Nihoyat, inqilobiy o'zgarishlar davri keldi. Yurtning erkparvar o'g'lonlari, adiblari inqilobiy o'zgarishlarga katta umid bog'ladi, biroq bu orzu-umidlar ham ro'yo, sarob bo'lib chiqdi. Milliy zulm munofiqona va yanada shafqatsiz tus oldi, yurtda bosh ko'tarib yuradigan o'g'lonlarning boshi ketdi, o'lkaning mehnatkash fuqarosi esa mehnatdan boshqani bilmaydigan oddiy ijrochiga, ulusning aqli, vijdoni, ko'zi, qulog'i bo'lishiga da'vat etilgan ayrim zilolilari, adiblari totalitar tuzum siyosatining malayi – maddohiga aylantirildi...

Shunisi kishiga taskin beradiki, mislsiz zulm, zug'umlar iskanjasida ham milliy istiqlol, erk, ozodlik g'oyalari tug'ilib shakllanaveradi. Istiqlol kunlariga kelib chin ijodkorlar uchun ko'ngilda el-yurt yo'lida nimaiki dardi bo'lsa – barini to'kib solish imkoni paydo bo'ldi... Qisqasi, "Otamdan qolgan dalalar" istiqlol davrining adabiyotimizdagi ilk xayrli samaralaridan biridir. Imperiya siyosatini, mustabid totalitar tuzum mafkurasi mohiyatini bu qadar oshkora, keskin fosh etadigan asarning bizda o'sha kezlari chiqishini tasavvur etish qiyin. Garchi muallif roman ustidagi ishini 1986-yili boshlagan bo'lsa-da, 1991 – istiqlol yilida intihosiga yetkazgani, asar 1993-yili dunyo yuzini ko'rgan tasodifiy emas.

Natijalar va metodlar. Roman markazida Dehqonqul taqdiri turadi; asar voqealari hayoti, taqdir-qismati, ruhiy dunyosi, ona-Yer, kindik qoni to'kilgan muqaddas tuproq bilan mustahkam bog'liq, o'zbekning ramzi degulik mehnatkash inson – bosh qahramon Dehqonqul tilidan so'zlab beriladi. Dehqonqul hikoyasini o'z sarguzashtlaridan emas, balki ancha naridan – bobosi Jamoliddin, otasi surxoni Aqrab tarixidan boshlaydi. Chunki Bobo va Ota tarixini eslamay va so'zlamay turib, Dehqonqul qismati, xarakteri ma'no-mohiyatini anglash, anglatish qiyin.

Bobo – Jamoliddin – Oqpodsho istilosi shohidi. U – tug'ma mehnatkash dehqon, imon-e'tiqodi butun shaxs. Muallif Qodiriydan, uning mashhur qahramoni Obid ketmondan ilhomlanib, Jamoliddin mehnatkashligini uning ketmoni dovrug'i orqali ta'riflaydi. Bir qarashda mehnatkash bosh ko'tarmaydigan, toat-ibodatdan boshqasini bilmaydigan bandai mo'mindek ko'ringan bu odam yurt taqdiri haqida ham o'ylaydi, o'zining vatan tuyg'usini, imon-e'tiqodini, insonlik sha'nini baland tutadi, yurtning pokiza tuprog'i, tiniq oqib turgan suvlari besharm, befahm kelgindilar tomonidan bulg'anganini ko'rganida o'zini qo'yarga joy topolmaydi; sodda olomon taqdir va zulmga qarshi bosh ko'targanida beixtiyor ular safida bo'ladi; oxiri shafqatsizlik, xo'rlik, tahqir-nadomatlarga toqat qilolmay, bosqinchilar oyog'i yetmas yerlarni qo'msab, qanchalar og'ir bo'lmasin, tug'ilgan yurti – go'zal Farg'onani tashlab bosh olib ketadi...

Ota surxoni Aqrab – qizil imperiya saltanatining tarkib topish davri guvohi. U – qo'li gul bog'bon.

"Otamiz qasamish chop nihol bo'ladi.

Otamiz qaramish daraxt shig'il-shig'il bo'ladi.

Otamiz kesmish tok shokila-shokila bo'ladi.

Otamiz qirqmish gul shoda shoda bo'ladi", deydi iftixor ila Dehqonqul. Shu bilan barobar, ota – Aqrabda ham ona- Vatan, fuqarolik tuyg'usi baland, yurtning mustaqilligi, ozodligi deb Qizil ofatga qarshi jangga kiradi, el-yurtiga, ona zaminiga, oilasi, farzandlariga cheksiz sadoqatini namoyon etib, e'tiqodi, matonati bilan yovlarni ham lol qoldirib, mardona turib jon tasl etadi...

Mana endi gal Dehqonqul ta'rifiga keldi. Dehqonqul – sho'rolar davrining odami. Xo'sh, Dehqonqul Ota va Bobosidan nimalarni meros qilib oldi? "Sotsialistik hayot tarzi" sharoitida u nimalarga erishdi-yu, nimalarni boy berdi? Dehqonqulga ota-bobosidan faqat mehnatkashlik xislatigina o'tgan, xolos. Ota-bobolarga xos yurtsevarlik, erksevarlik, insoniy g'urur, o'zlikni anglash hissi unda butunlay barham topgan.

Dadil aytish mumkinki, Dehqonqul obrazi – o'zbek adabiyotida jiddiy badiiy kashfiyot bo'ldi. Dehqonqul sovet davri adabiyotida zavq-shavq bilan qalamga olingan mehnat qahramonlariga parodiya tariqasida yaratilgan. U – totalitar tuzum, Qizil imperiya siyosati tarbiylab yetishtirgan "mehnat kishisi", "yangi inson" timsoli, mustabid hokimiyat munofiqona mafkurasining tirik qurboni. Dehqonqul sho'rolar hukumatining deyarli tengdoshi. Yozuvchi adabiyotimizda urf bo'lgan yo'ldan bormaydi, qahramon taqdiri orqali davrni, "sotsialistik jamiyat tarixini ifodalash"ni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi. Sovet hokimiyati yillarining "muhim pallalari" atayin chetlab o'tiladi, fuqarolari urushi yillarida aqlini tanigan bolakay 60-yillarda ham bolakayligicha qolaveradi. Bu hol o'quvchisiga aslo "mantiqsizlik" bo'lib tuyulmaydi. Yozuvchimi birinchi galda Dehqonqulni qul, mute qilib shakllantirgan hayotiy omillar qiziqtiradi.

Dehqonqulni, avvalo, Lenin ishiga, partiyaga, sho'rolar hukumatiga, ulug' og'aga hurmat, sadoqat ruhida tarbiyalashgan, unga Leninni ota, Krupskayani ona deb o'rgatishgan, o'lan-laparlarni emas, "partiya-sovet qo'shiqlari"ni tinglab, aytib tili chiqqan, uyqudan turganda ham, uyquga yotishdan oldin ham, to'y-u marakalarda ham partiya, dohiy, ulug' og'aga ta'zim, salom bilan yo'g'rilgam madhiyalar qulog'iga quyilgan; yurti dunyoda eng ozod, hur, to'q-farovon ekaniga 80-yillarga borib kommunizmda yashashiga chippa-chin ishontirishgan... U bora-bor so'z bilan amaliyot orasidagi ziddiyatni sezgan, ko'rgan; tengdoshlari qaatori o'qishni paxta dalalaridagi, zaharli ximikatlar yomg'iri ostidagi "hur mehnat" gashti nima ekanjni go'dakligidayoq tanigan, shu "shonli mehnat"ga mehr-muhabbat ruhida voyage yetgan. Salgina bo'lsin, bu mashaqqatlardan o'zini chetga olganida "bosmachining", "sovet tuzumi dushmaning o'g'li" deb haqorat

qilingan; bu xildagi dag'dag'alar ko'ngildagi qarshilik ko'rsatish tuyg'usini butunlay so'ndirgan...

Xulosa. Aslida buning nimasi yomon? Mehnat insonni ulug'laydi, deymizku! Shunchalar fidoyi mehnatkash inson Dehqonqul nega ko'zimizga qahramon emas, ayanchli bir kimsa bo'lib ko'rinadi, o'quvchida faxr-iftixor emas, o'tkinchi-nadomat, achinish tuyg'usini qo'zg'atadi. Butun gap mana shunda. U kim uchun, nima uchun betinim ter to'kayotganini, holi ne kechayotganini o'ylab ham ko'rmaydi. U karaxt bir holga tushib qolgan. Tevarak-atrofda, hayotda nimalar bo'layotganini, haq va nohaq ishlar, adolatsizliklar, yaqin kishilari, ayoli, farzandlari hol-ahvoli uni mutlaqo qiziqtirmaydi. Idealogiyaning qip-qizil munofiqona yolg'onlariga aslo parvo qilmaydi, bema'ni ko'rsatmalariga qarshilik bildirmaydi, bildirolmaydi; munofiq qalamkashlarning dala shiyponlari haqidagi munofiqona ocherki ham, moskvalik kinochilarning mash'al brigada hayotiga bag'ishlangan boshdan oyoq qurilgan kartinasi ham uni ajablantirmaydi, aksincha, kartinadagi soxta rolni aktyorlar kabi hech qiynalmay ijro etib beradi. O'zining, hamqishloqlarining o'ta nochor, ayanchli turmushini ko'rib, bilib turib ham

Muncha shirin ekan bu Sovet davroni,

Mamnun yashar har inson – yo'qdir armoni...

singari tuturiqsiz qo'shiqlarni beparvo tinglayveradi. Mash'al brigadier bo'la turib, qo'li qisqaligidan, mototsikl olishga qurbi yetmaganidan, ayolining oddiy so'rovlarini bajo keltirolmayotganidam, bugina emas, qozoni go'sht ko'rmayotgani, bolalari to'yib ovqat yemayotganligidan iztirobga tushmaydi. Markazga, ko'rkkengashga ijaraga olingan kiyimlarni kiyib boshidan or qilmaydi. Kengashdagi ishtiroki ham ma'lum, to'rdagilar chapak chalsa, u ham chapak chaladi, to'rdagilar oyoqqa tursa, u ham oyoqqa turadi...

To'g'ri, unda ham goho ota-bobodan qolgan g'urur andak uch beradi; biroq u shaharga borib, to'r shlyapa bilan baxmal so'zana sotib olish-u telbalarcha baxmal so'zanini shartta yirtib oyog'iga paytava qilib o'rash, teleekranda ko'ringan. Amerika prezidentiga boshidagi shlyapasini olib silkitishdan nariga o'tmaydi. Bu qo'li ochiq, mehmondo'st, tanti o'zbek yemay-ichmay, topganini mehmoni oldiga qo'yadi, mehmoni oyog'i ostiga qo'y so'yib keriladi, ammo mehmonlar uchun bozordan olib kelgan ikki dona xurmoni deb, yetim o'g'ilchasini urib og'zini qonga belaydi.

Xo'sh, bu xildagi telbalarcha tantilik, qullarcha erksiz mehnat, sho'rolarga sadoqat, ma'naviy karaxtlik, qaramlik, mutelik tufayli u nimalarga erishdi?! Oddiy orzulari ushlamagan vafodor ayoli turmush sitamlari, mashaqqatlaridan to'yib joniga qasd qiladi, o'ziga o't qo'yadi, to'yib ovqag yemay oyoqqa turgan o'g'lonlari(o'g'lonlaridan brining ismi Qulmat) ochofat, mute, nogiron-dardmand

bo'lib yetishmoqda; o'zi esa halol fidokorona mehnatlari evazuga yulg'ich, poraxo'r deb ayblanib, qamoqqa olinadi, aytib ado bo'lmas qiynoq, xo'rliklarga griftor etiladi, uni o'z tezagini o'ziga yeyishga majbur etadilar, erkaklik sha'nini toptaydilar... Bu sho'rlik banda shu darajaga borib yetganki, uni qamoqqa olib ketayotganlarida ham daladagi ishini, paxta terimini o'ylaydi, qamoqdagi azob-uqubatlar paytida ham "lenincha adolat"ga umid bog'laydi, shuncha xo'rliklardan keyin ham dalasiga, mehnat quchog'iga qaytish xayoli bilan nafas oladi...

Qisqasi, Dehqonqul qismati, karaxt holati, mute tabiati tasviri – imperiya siyosati, "sotsialistik hayot tarzi" millatni, milliy tuyg'u, qadriyatlarni toptashga qaratilgan, chiroyli shirolarga o'ralgan munofiqona kommunistik mafkura ustidan chiqarilgan zo'r aybnomadir. Mustaqilligini yo'qotgan, o'zligidan uzoqlashgan, fikrlashdan to'xtagan mute, itoatkor kimsalarning oxir-oqibat keladigan manzili – shu! Yozuvchi Dehqonqul qismati orqali shu fikr-g'oyani o'quvchini larzaga solar bir tarzda ifoda etgan. Shu tariqa bu asari, aniqrog'i, Dehqonqul obrazi orqali yozuvchi o'zi niyat qilganiday, o'zbek xalqining, aniqorg'i, sho'ro davri yetishtirgan o'zbek dehqonining o'ziga xos haykalini yaratadi.

"Otamdan qolgan dalalar" 1994-yili istiqlol davri o'zbek adabiyotining ilk yetuk namunasi sifatida Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi, o'quv darsliklaridan munosib o'rin oldi. Roman asosida yaratilgan film Buxoroda o'tkazilgan milliy kinofestivalda bosh sovrin bilan taqdirlandi; Turkiyaning Istanbul shahrida butun dunyodan mashhur kinoshunoslar, aktyor, kinodramaturglar tashrif buyurgan anjumanda "Otamdan qolgan dalalar" filmini tomoshabinlar tik turib o'n besh daqiqa olqishladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. - Toshkent: Sharq nashriyoti, 2009.

2. “MEN QAYTIB KELAMAN” Tog‘ay Murod zamondoshlari xotirasida. To‘plovchi: Ma’suma Ahmedova T.: 2008

3. Karimov I. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

4. G‘aniyev Sh. “Tog‘ay Murod ijodida inson va zamon muammosi”, Filologiya masalalari, 2015, №2, b. 45–50.

5. Qodirov, N. “O‘zbek nasrida tarix va shaxs masalasi”, Adabiyotshunoslik risolalari, Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti, 2017.

6. Rasulova M. “Tog‘ay Murodning ‘Otamdan qolgan dalalar’ romanida badiiy tipajlar”, O‘zbek tili va adabiyoti, 2020, №3, b. 60-65

7. Hoshimov O. “Zamonaviy o‘zbek adabiyoti taraqqiyoti haqida”, Adabiy meros va zamonaviylik, Toshkent: Fan, 2003.

INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI GASTRONOMIK METAFORALARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI (XXI ASR BADIIY MATNLARI TAHLILI ASOSIDA)

Kurbaniyazova M.R.

Tayanch so‘zlar: gastronomik metafora, lingvomadaniyat, ingliz tili, qoraqalpoq tili, madaniy tafovut, badiiy matn, metaforik semantika, milliy o‘ziga xoslik.
Ключевые слова: гастрономическая метафора, лингвокультура, английский язык, каракалпакский язык, культурные различия, художественный текст, метафорическая семантика, национальная идентичность.
Key words: gastronomic metaphor, linguaculture, English language, Karakalpak language, cultural differences, literary text, metaphorical semantics, national identity.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada ingliz va qoraqalpoq tillaridagi gastronomik metaforalarning lingvomadaniy xususiyatlari o‘rganiladi. XXI asr badiiy matnlaridagi til birliklari asosida olib borilgan tahlil, gastronomik obrazlarning nafaqat semantik, balki madaniy va milliy qarashlar bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Metaforalar orqali ifodalangan madaniyatlararo tafovut va o‘xshashliklar, til va tafakkur o‘rtasidagi aloqalar kontekstida tahlil qilinadi.
РЕЗЮМЕ:
В статье исследуются лингвокультурные особенности гастрономических метафор в английском и каракалпакском языках. Анализ на основе языковых единиц в художественных текстах XXI века показывает, что гастрономические образы не только семантические, но и напрямую связаны с культурными и национальными воззрениями. Межкультурные различия и сходства, выраженные посредством метафор, анализируются в контексте взаимоотношений языка и мышления.
SUMMARY:
The article examines the linguocultural features of gastronomic metaphors in English and Karakalpak languages. The analysis based on linguistic units in fiction texts of the 21st century shows that gastronomic images are not only semantic, but also directly related to cultural and national views. Intercultural differences and similarities expressed through metaphors are analyzed in the context of the relationship between language and thinking.

Kirish. Har qanday tilning boyligi, avvalo, uning obrazlilik, ifoda vositalarining xilma-xilligi, ramziy va metaforik birliklar bilan chambarchas bog‘liq. Tilning bu ko‘rinishlari ayniqsa badiiy adabiyotda, xalq og‘zaki ijodida, kundalik nutqda o‘zining eng yorqin ifodasini topadi. Ayniqsa, gastronomik

metaforalar - ya’ni ovqat, taom, pishirish, lazzat, ta’b bilan bog‘liq ifodalar - til va madaniyat kesishgan joyda joylashgan dolzarb tildan foydalanish shakllaridandir.

Gastronomik metaforalar orqali insonlar his-tuyg‘ularini, ijtimoiy munosabatlarini, dunyoqarashlarini obrazli ifoda etadi. Ular milliy tafakkur shakli, mentalitet va madaniy qadriyatlarning lingvistik aksi bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, ingliz va qoraqalpoq tillaridagi bunday metaforalar qiyosiy jihatdan o‘rganilganda, bu ikki xalqning madaniy asoslari, til orqali ifodalangan dunyoqarashi o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar yaqqol ko‘rinadi.

XXI asrda yozilgan badiiy asarlarda bunday metaforik birliklar ko‘payib borayotgani, tilning zamonaviy holati va yangilanayotgan madaniy tendensiyalar bilan uyg‘unlashayotganini ko‘rsatadi. Metaforalarning bu darajadagi ishlatilishi, ularni oddiy semantik birlik emas, balki lingvomadaniy fenomen sifatida o‘rganishni taqozo etadi. Mazkur maqola ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, ingliz va qoraqalpoq tillaridagi gastronomik metaforalarning struktura, semantika va madaniy asoslarini o‘rganishga qaratilgan.

Tadqiqotda asosiy urg‘u badiiy matnlarda uchraydigan gastronomik metaforik ifodalar tahliliga qaratilgan bo‘lib, ularning asosiy g‘oyaviy ma’nosi, obrazlilik darajasi va madaniy nuqtai nazardan ahamiyati ochib beriladi. Gastronomik metaforalar – til va madaniyatning birlashgan ifodasi bo‘lib, ularning o‘rganilishi lingvomadaniyatshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Tilshunoslar tilni inson tafakkuri, hissiyotlari, dunyoqarashi bilan bog‘liq tarzda o‘rganishda metaforik ifodalarni muhim asos sifatida ko‘rsatadilar. Ayniqsa, gastronomik metaforalar inson faoliyatining kundalik, hayotiy jihatlarini aks ettirgani uchun til orqali madaniy kodlarni yetkazuvchi vosita sifatida alohida o‘ringa ega.

Ingliz tilida “sweet deal” (shirin kelishuv), “spicy personality” (achchiq — ya’ni qiziqarli fe’l-atvor), “he's full of beans” (u juda faol, quvvatli) kabi iboralar inson shaxsiyati, his-tuyg‘usi yoki ijtimoiy hodisalarni tasvirlashda bevosita ovqat, lazzat, taom bilan bog‘langan ifodalardir. Bunday metaforalar orqali voqelikni baholash, ijtimoiy muomala shakllanadi.

Qoraqalpoq tilida ham gastronomik metaforalar xalq mentaliteti va madaniy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq. Masalan, “et binen qızarıp, qayn binen tazarıp bol” iborasi ko‘p hollarda insonning ruhiy tozaligi, ijobiy tarbiyasini ifodalaydi. “Süt deygen jılılıq” ifodasi esa mehr, onalik, himoya tushunchalari bilan uyg‘unlashadi. Bu yerda “süt” – shunchaki ichimlik emas, balki madaniy va psixologik obraz sifatida aks etadi.

Gastronomik metaforalarning semantik bazasi keng bo‘lib, ular ko‘pincha konnotativ (yashirin) ma’noga ega. Shirin, nordon, achchiq, tuzli kabi ta’m ifodalari inson tabiatiga yoki voqea-hodisaga nisbatan baho berishda ishlatiladi. Masalan, ingliz tilida “bittersweet memory” – ya’ni “achchiq-shirin xotira” iborasi hissiyotlarning murakkabligiga ishora qiladi. Qoraqalpoq tilida esa shunga o‘xshash tarzda “achıq-tatlı dúýge” (achchiq-shirin tuyg‘u) iborasi his-tuyg‘ularning chalkashligiga dalolat beradi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida gastronomik metaforalar ko‘proq individual tajriba va psixologik holatlar bilan bog‘liq bo‘lsa, qoraqalpoq tilida ular ijtimoiy qadriyatlar, urug‘-aymoq madaniyati, an’anaviy dunyoqarash bilan uyg‘unlashgan. Bu ikki til madaniyatida metaforik ifodalarning yo‘nalishi, kontekstdagi roli va semantik og‘irligi farqlanadi.

Shuningdek, metaforalarning badiiy matnlardagi ishlatilishi ham ularning madaniy vazifasini kengaytiradi. Ingliz adabiyotida romantik va dramaviy janrlarda gastronomik metaforalar ko‘p qo‘llaniladi. Masalan, zamonaviy ingliz yozuvchilaridan biri Jeanette Winterson o‘z romanlarida taom va lazzat metaforalari orqali sevgi, yo‘qotish va o‘zini anglash kabi mavzularni ochib beradi. U “The Passion” asarida “Love is a hunger that no bread can satisfy” (Sevgi bu – hech bir non to‘ydira olmaydigan ochlik) deb yozadi. Bu yerda “non” oddiy oziq emas, balki umid, taskin, yetishish ramzidir.

Qoraqalpoq adabiyotida esa gastronomik metaforalar ko‘proq xalq turmush tarzi, mehr-oqibat, shukronalik va musibatlarga sabr kabi qadriyatlar bilan bog‘liq. Jumladan, qoraqalpoq yozuvchisi Berdakh she’rlarida “ash – xalq dardi, qalb yeg‘i” sifatida ishlatiladi. Taom va dard birlashtirilgan obraz orqali xalqning yurakdagi kechinmalari ifodalanadi.

Lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan qaralganda, har bir xalq gastronomik metaforalar orqali o‘zining madaniy modelini shakllantiradi. Masalan, ingliz tilida “you are what you eat” iborasi insonning kimligi uning iste’mol qiladigan ovqati orqali ifodalanishini ko‘rsatsa, qoraqalpoq xalq maqolida “et ash bası — barlıq jaslıq bası” (go‘shtli taom hayotning boshi) iborasi hayot mazmuni, jamiyatda mo‘l-ko‘lchilik va birlik ramzi sifatida xizmat qiladi.

Metaforalarning madaniyatlararo tahlili o‘zaro anglashuvni yaxshilash, tarjimada to‘g‘ri yondashuvni tanlash, til va tafakkur o‘rtasidagi nozik bog‘liqliklarni aniqlash imkonini beradi. Tarjima jarayonida, ayniqsa, bunday metaforalarni to‘g‘ri tushunmaslik madaniy noaniqliklarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, lingvistik kompetensiyadan tashqari, madaniy kompetensiya ham zarur bo‘ladi.

Metafora va madaniyat o‘zaro bog‘liq hodisalar bo‘lib, ularning lingvistik izohi xalq mentalitetining ko‘zgusidir. Til orqali ifodalanayotgan ovqat va lazzat obrazlari faqat estetik emas, balki tarixiy-madaniy, psixologik va sotsial funksiyalarga ham ega. Bu xususiyatlarni hisobga olish lingvistik tadqiqotlarda, tarjima nazariyasida, til o‘rgatish metodikasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Til — bu inson tafakkuri va madaniyatining in’ikosi bo‘lib, u orqali xalqning hayot tarzi, qadriyatlari va dunyoqarashi ifodalanadi. Gastronomik metaforalar esa bu jarayonda o‘ziga xos vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi bunday metaforalar faqat semantik obrazlar emas, balki har ikki xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy tafakkurini ifodalovchi muhim lingvomadaniy birliklardir.

O‘rganilgan badiiy matnlar, maqollar, zamonaviy iboralar va adabiy obrazlar shuni ko‘rsatadiki, gastronomik metaforalar ikki xalq tilida ham hissiyotlarni ifodalash, shaxsiy xususiyatlarni ta’riflash, ijtimoiy hodisalarni baholashda faol ishlatiladi. Ingliz tilida bu ifodalar ko‘proq individual psixologiya va zamonaviy shaxsga xos tasvirlar orqali aks etsa, qoraqalpoq tilida ular ko‘proq kollektiv qadriyatlar, urf-odatlar va an’anaviy dunyoqarash bilan bog‘liq.

Metaforik birliklarning tahlili orqali aniqlanishicha, gastronomik metaforalar ko‘pincha madaniy o‘ziga xoslik, hissiy holat, ijtimoiy muomala, ta’lim-tarbiya, shaxsiy fazilatlar va jamiyatdagi mavqe kabi tushunchalarni ifodalaydi. Bu esa ularni faqat tilshunoslik emas, balki madaniyatshunoslik, tarjima nazariyasi, sotsiologiya kabi fanlar uchun ham dolzarb tadqiqot obyekti bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz va qoraqalpoq tillaridagi gastronomik metaforalarning shakllanishida biologik asoslar bilan bir qatorda madaniy, tarixiy va ma’naviy omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Shu bois bunday ifodalarni chuqur tahlil qilish, ularni madaniyatlararo kommunikatsiyada to‘g‘ri qo‘llash, til o‘rgatish va tarjimada e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Bu mavzuni tadqiq qilish orqali til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik yanada chuqurroq tushuniladi. Ayniqsa, til o‘rganishda yoki tarjimada metaforalarning lingvomadaniy xususiyatlarini anglash ikki xalq o‘rtasidagi madaniy tafovutlarni ko‘priklashga xizmat qiladi.

Kelgusida bu mavzuni boshqa turkiy tillar yoki boshqa roman-german tillar bilan qiyosiy o‘rganish, gastronomik metaforalarning tarixiy ildizlarini, gender yoki yosh jihatlariga ko‘ra qo‘llanish uslublarini tadqiq qilish istiqbolli yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodida va

zamonaviy media tilida bu turdagi metaforalarning shakllanishi va o‘zgarishi ham alohida e’tibor talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmedov A. Til va madaniyat uyg‘unligi: lingvomadaniyatshunoslik asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Berdax. She’rlar to‘plami. Nukus: Qoraqalpoq nashriyoti.
3. G‘ulomov A. Metaforik ifodalar va ularning tarjima muammolari. Toshkent: O‘qituvchi.
4. Crystal D. Til ensiklopediyasi. (Ingliz tilidan tarjima). Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
5. Fauconnier J., Turner M. Tafakkurning konseptual uyg‘unligi. (Tarjima maqola, Filologiya jurnali).
6. Goatly A. Metafora va yashirin mafkura. (Tilshunoslikda metafora tahlili).

MAKTAB ADABIY TA’LIMIDA DRAMATIK ASARLARNI O‘QITISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI

Bozorova G.R.
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch so‘zlar: drama, davlat ta’lim standarti, kompetensiya, jahon dramaturgiyasi, syujet, kompozitsiya, eksplitsit va implitsit fikrlar.
Ключевые слова: драма, государственный образовательный стандарт, компетентность, мировая драматургия, сюжет, композиция, явные и неявные идеи.
Key words: drama, state educational standard, competence, world drama, plot, composition, explicit and implicit ideas.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada maktab adabiy ta’limida dramatik asarlarni o‘qitishning mavjud holati tahlil qilingan hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье анализируется современное состояние преподавания драматических произведений в школьном литературном образовании, разрабатываются предложения и рекомендации.
SUMMARY:
The article analyzes the current state of teaching dramatic works in school literary education, and develops proposals and recommendations.

Kirish. Nasriy va she’riy asarlar o‘qish uchun mo‘ljallangan bo‘ladi, ammo dramatik asarlar, ko‘rsatish, namoyish etish uchun yozilgan badiiy asar hisoblanadi, shu ma’noda mazkur turga xos aksarlarni o‘qitishda bunga alohida e’tibor qaratish zarur. Adabiyot bo‘yicha davlat ta’lim standarti talablariga muvofiq, dramatik asarlarni o‘rta maktabda o‘rganish tizimli yo‘lga qo‘yilgan, ammo ularga ajratilgan dars soatlari dramatik asarlarni to‘la anglab yetishga kamlik qiladi. Adabiyot o‘qitishga qo‘yilgan umumiy talablar dramatik asarlarni o‘qitishga ham asos bo‘ladi.

Adabiyot faniga oid kompetensiyalar:

Ak 1: asarning asosiy va ikkilamchi g‘oyasini (g‘oyalarini) aniqlaydi va munosabat bildiradi, bunda adabiyot va boshqa fanlardan olgan bilimlariga, shu

jumladan, asar yaratilgan kontekst (tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, adabiy) haqidagi bilimlariga hamda o‘z hayotiy tajribasiga tayanadi;

Ak 2: asardagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) ilg‘aydi, asardan xulosalar chiqaradi va bu xulosalarini asoslab beradi;

Ak 3: asarning syujetini tushunadi, syujet elementlarini ajratadi va asarning qurilishiga munosabat bildiradi;

Ak 4: muallif qo‘llagan badiiy tasvir va ifoda vositalarini, shuningdek, lingvistik (leksik, grammatik, fonetik) xususiyatlarni tahlil qiladi hamda ularni asarda qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadni, ularning o‘quvchiga ta’sirini tushuntirib beradi;

Ak 5: asardagi obrazlarni tahlil qiladi, ularga munosabat bildiradi hamda munosabatini matn, boshqa manbalar va hayotdan olingan misollar yordamida asoslab beradi;

Ak 6: asarning turli talqinlarini (masalan, kino, teatr, tasviriy san’atdagi talqinlarini) solishtirib, o‘xshash va farqli jihatlarini aytadi, munosabat bildiradi;

Ak 7: o‘qilgan asarlar tahlili (shu jumladan, qiyosiy tahlili) asosida ijodiy va tahliliy matnlar yaratadi, bunda turli lingvistik va ekspressiv vositalardan o‘rinli foydalanadi hamda mantiqiy izchillikka rioya qiladi.

Mazkur ko‘nikmalarni baholash indikatorlari dramatik asarlarni o‘qitishga ham tatbiq qilinadi. Keyingi yillarda adabiy ta’lim mazmuni tez-tez o‘zgarmoqda. Daramatik asarlar tanlash bilan bog‘liq yonashuvlar ham almashib turibdi. Ayniqsa, uzoq yillardan buyon o‘qitib kelinayotgan “padarkush” dramasi maktab dasturidan chiqarib tashlangan. Aslida u o‘zbek adabiyotidagi birinchi drama bo‘lgani uchun ham, qolaversa, ilmsizlik qoralanib, ma’rifat ulug‘langani uchun ham o‘qitilishi, o‘quvchilar orasida keng va zamonaviy yondashuvlar asosida muhokama qilinishi zarur edi.

Muhokama. 8-sinf Maqsud Shayxzoda. “Jaloliddin Manguberdi” tragediyasi m. Shayxzodaning o‘zbek dramaturgiyasi taraqqiyotida tutgan o‘rni. “Jaloliddin Manguberdi” – o‘zbek dramaturgiyasining yetuk namunasi. Asarda mo‘g‘il istilochilariga qarshi kurashgan xalq qahramoni obrazi va unga xos bo‘lgan vatanparvarlik sifatlarining tasviri. Asar qahramoni haqidagi tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning o‘zaro munosabati. Matn ustida ishlash. Tragediyadagi falsafiy ruh va til jozibadorligi. Badiiy asar tahlili. Tragediya haqida nazariy ma’lumot kabilar berilgan.

9-sinfda Abdulla Oripov. “Sohibqiron” dramasi Abdulla Oripovning hayoti va ijodi to‘g‘risida qisqacha ma’lumot. Abdulla Oripov – zamonaviy o‘zbek she’riyatining zabardast vakili. “Sohibqiron” dramasida Amir Temur ruhiy holatining mohirona tasviri. Asar matni ustida ishlash. Sohibqiron va

Amir Husayn, Sulton Boyazid, amirlar, o‘g‘illariga munosabatining ishonarli yoritilishi aks etgan .

Shuningdek, Sharof Boshbekovning “Temir xotin” dramasi berilgan. Sharof Boshbekovning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Dramada aks etgan mustabid davrining ijtimoiy turmush tarzi. Asardagi Qo‘chqor va Qumri obrazlari orqali millatimizga xos fazilat va nuqsonlarning ko‘rsatilishi. Dramada hayotda uchrab turadigan kulguli voqealarning mahorat bilan tasvirlanishi, real turmushning ochib berilishi. Matn ustida ishlash. Asar tilining o‘ziga xosligi masalalari o‘rganiladi.

Jahon daramaturgiyasi namunalari ham 9-sinf o‘quvchilarga taqdim qilingan:

“Gamlet” tragediyasi. Vilyam Shekspirning hayoti va ijodi to‘g‘risida qisqacha ma’lumot. “Gamlet” asarida insoniy tuyg‘ular, oila sha’ni bilan bog‘liq muammolarning tig‘iz konfliktlar asosida badiiy talqin etilishi. Gamlet obrazida aks etgan inson ruhiyatining murakkab jihatlari. Asarda Gamlet, Ofeliya va boshqa qahramonlarning o‘zaro munosabatlari. Matn ustida ishlash. Asarda burch va muhabbat, sadoqat mavzularining tutash tasviri kabi mavzularni qamrab olgan.

10-sinf adabiyot dasturiga Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon” dramasi kiritilgan .

11-sinfda abdurauf fitrat. “Abulfayzxon” dramasi. Abdurauf Fitratning hayoti va ijodiy faoliyati. Abdurauf Fitrat – ma’rifatparvar. Uning milliy teatr san’ati rivoji yo‘lidagi sa’y-harakatlari. “Abulfayzxon” – ilk o‘zbek realistik dramasi. Dramadagi asosiy qahramonlar talqini. Asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari va ma’rifiy ahamiyati kabilar yoritilgan.

Keltirilgan ma’lumotlardan shuni anglash mumkinki, 9-sinf adabiyot dasturiga dramatik asarlar nisbatan ko‘proq kiritilgan. Qolgan sinflarda bittadan asar berilgan xolos. 10–11-sinflarda “Abulfayzxon” daramasining birdek kiritilishi maqsadga muvofiq emas, uzoq yillar davomida maktablarda o‘qitib kelingan “Padarkush” daramasi 10-sinfda qoldirilganda bunday takrorlanishning oldi olingan bo‘lar edi. Qolaversa, Behbudiyning “Padarkush” dramasi bugun ham o‘z dolzarbligini yoqotmagan, keyingi o‘zgarishlarda mazkur asarni 10-sinfga kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Drama adabiyotning bir turi va uning o‘ziga xos xususiyati mavjud. U sahnalashtirish uchun mo‘ljallangan va hayotning adabiy shakli, bu yerda qahramonlarning xarakterlari tavsiflovchi emas, balki nutq tili bilan yaratilgan. Muallifning undagi pozitsiyasi yanada aniqroq va uni aniqlash o‘quvchidan e’tibor va fikrlashni talab qiladi. O‘quvchi yozuvchi-muallifning yordamisiz harakat joyini tasavvur qilishi kerak. Vaqt, qahramonlar yashaydigan muhit,

ularning tashqi qiyofasini, gapirish va tinglash usullarini, harakatlari va imo-ishoralarini tasavvur qiling. Shu bilan birga, har bir aktyorning harakatlari va so‘zlari orqasida nima yashiringanligini tushunish va his qilish kerak. Dramatik asarning markazida hayotiy ziddiyat mavjud bo‘lib, uning yechimi qahramonlarning bir-biri bilan, sharoitlar bilan, o‘zlari bilan keskin kurashida namoyon bo‘ladi.

Dramaturg hayotiy ziddiyatlar eng keskin bo‘lgan syujetlarni yaratadi. Sinfda drama ustida ishlashdan oldin uni mustaqil o‘qish kerak. O‘qishdan oldin bir yoki ikkita savol berish tavsiya etiladi:

Sizga, ayniqsa, nima yoqdi?

Drama nomini qanday tushundingiz?

Siz kimni asosiy qahramonlar deb hisoblaysiz?

Dastlab, darsdan tashqari vaqtda dramani ovoz chiqarib o‘qishni tashkil qilish foydalidir: matnni o‘qituvchining o‘zi o‘qishi mumkin, ba’zida yozuv yoki video yozuvlarni jalb qiladi. O‘qishda o‘qituvchi izohlarga, belgilar ro‘yxatiga e’tibor beradi, ya’ni dramani o‘qish kerakligini va ba’zida teatr xotiralariga murojaat qilish kerakligini ko‘rsatadi. Kirish darslarida quyidagilar bayon etiladi:

Drama ustida ishlashni maktab o‘quvchilarini butun dramaga murojaat qilishdan boshlash, uni tushunishga yordam berish, uning asosiy mojarosini, uning paydo bo‘lishini his qilish tavsiya etiladi. Bu asarning nomi haqida savol bo‘lishi mumkin. Agar drama nima uchun “Temir xotin” deb nomlanganiga to‘liq javob berilsa, kelajakda drama mojarosini tushunishga yo‘l ochiladi.

Maktabda dramatik asarni o‘rganish juda ko‘p xususiyatlarga ega. Dramaturg o‘z qahramonlarining hayoti va xarakterlari haqida gapirmaydi, balki ularni amalda namoyish etadi. Muallifning xarakteristikasi, qahramonlarning portretlari, voqealar haqidagi rivoyatlarning yo‘qligi o‘quvchilarning dramani idrok etishini murakkablashtiradi. Shuning uchun, bir tomondan, maktab o‘quvchilarini dramaning o‘ziga xos xususiyati bilan maxsus adabiyot turi sifatida tanishtirishga imkon beradigan, boshqa tomondan, ularga o‘rganilayotgan namunalarda sahna uchun mo‘ljallangan asarlarni ko‘rishga yordam beradigan va shuning uchun talab qiladigan ish usullari va shakllarini izlash kerak. O‘quvchi tomonidan ko‘proq tasavvur va kuch talab etiladi.

Dramaning eng muhim xususiyati – bu harakatning kontsentratsiyasi va xarakter nutqiy bayonotining ahamiyati. Ushbu xarakterli xususiyatlarning barchasi, qoida tariqasida, dramatik asarning yuzaki o‘quvchilari bo‘lgan o‘quvchilar tomonidan qabul qilinmaydi. Ko‘pincha o‘qituvchi dramani o‘rganish darslarida nafaqat o‘quvchini, balki tomoshabinni ham tarbiyalashi kerak.

Drama darslarining metodologiyasida birinchi navbatda ifodali va sharhlangan o‘qish, so‘ngra rollar bo‘yicha tayyorlangan o‘qish, dramaning sahna tarixi haqida suhbat, voqealar va personajlarni tahlil qilish kerak. Dramaning epizodlari va belgilarini tahlil qilish va talqin qilish jarayonida maktab o‘quvchilarining tasavvurini rivojlantirish, darsning hissiy kayfiyatini va yaratilish holatini ko‘rsatish ayniqsa muhimdir.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, “maktab o‘quvchilari hatto o‘rta maktabda ham yomon o‘qiydilar, ko‘pincha o‘zlarining tasavvurlari bilan drama matnini noto‘g‘ri to‘ldiradilar... Ular mualliflik ko‘rsatmalaridan, aktyorlar ro‘yxati, remarkalar, dekoratsiya tavsifi va harakat muhitidan foydalanmaydilar. Qoida tariqasida, ular epizodik va sahnadan tashqari belgilarga e’tibor bermaydilar, qahramonlarning qiyofasini, gapirish, harakat qilish uslubini, sahnani “ko‘rmasliklarini” va hokazolarni juda aniq tasavvur qilmaydilar. Shuning uchun, avval sinfda bir nechta boblarni birgalikda o‘qish va shundan keyingina o‘quvchilarni butun asarni o‘qishga taklif qilish maqsadga muvofiqdir.

Tahlil va metodlar. Epik va lirik asarlarni o‘rganishda ishlatiladigan suhbat usuli dramaturgiya uchun ham samaralidir. Aksariyat metodistlar uni asosan harakatning rivojlanishini tahlil qilishda, mojaroni, muammolarni va dramatik asarlarning mafkuraviy ma’nosini tushuntirishda qo‘llashni maslahat berishadi. Bunga qo‘shilish mumkin, chunki suhbat asar matnini keng o‘rganish, asar ustida mustaqil ishlash natijasida o‘quvchilar tomonidan olingan faktlardan foydalanish imkonini beradi. Dramatik asarlarni tahlil qilishda o‘quvchilarning

asar matni bo‘yicha mustaqil ishi alohida ahamiyatga ega. Aktyorlarning nutqi va harakatlarini tahlil qilish o‘quvchilarga ularning xarakterlarining mohiyatini tushunishga va ularning tasavvurida ularning tashqi qiyofasi to‘g‘risida aniq tasavvur yaratishga yordam beradi. Bunday holda, o‘quvchilar tomonidan ma’lum bir hodisani yoki dramatik asar sahnasini tahlil qilish ma’lum darajada aktyorning roldagi ishiga o‘xshaydi. Ba’zan o‘quvchilar tasavvurini faollashtirish uchun siz tarixiy va kundalik sharhga murojaat qilishingiz kerak. Bu dramada tasvirlangan davrdan uzoq bo‘lgan o‘quvchilar kerakli g‘oyalar va bilimlarga ega bo‘lmagan va o‘z tasavvurlarida drama qahramonining tashqi qiyofasi tafsilotlarini qayta tiklay olmaydigan holatlarda amalga oshiriladi.

Boshqa tadqiqotchilar va o‘qituvchilar nuqtayi nazaridan, harakatlar ustida ishlashga o‘tishdan oldin, o‘quvchilar ongida umuman drama g‘oyasi paydo bo‘lishi kerak. Shuning uchun birinchi savollar maktab o‘quvchilarining e’tiborini butun asarga qaratishi, uni tushunishga yordam berishi kerak. Ushbu darsda berilgan savollar o‘quvchilarni asosiy ziddiyatni, uning paydo bo‘lishini his qilishiga yordam berishi kerak. Bu, masalan, dramaning nomi haqida savol bo‘lishi mumkin. Dramatik asarni o‘rganishning dastlabki bosqichida, asosiy mojaroni aniqlash bilan bir vaqtda, go‘yo o‘quvchilar aktyorlar bilan birinchi tanishuvi, ular kurashda qanday rol o‘ynashi kerak. Dramatik asarda boshlanish va oxirning o‘zaro bog‘liqligi dramaga umumiy qarashning paydo bo‘lishiga yordam beradi. Sinf e’tiborini drama qamrab olgan vaqtga qaratish juda muhimdir. Biz sahnada ko‘rgan narsalar har doim sodir bo‘ladi. Tomoshabinning vaqti va dramaning harakat vaqti bir-biriga mos keladi, ammo hodisalar, harakatlar orasida kunlar, haftalar va ba’zan yillar o‘tadi.

Mojaroning paydo bo‘lishi, uning asl sabablari, mavjud munosabatlarning asoslari, belgilarning kelib chiqishi odatda dramadan tashqarida sodir bo‘ladigan hayotiy hodisalar bilan bog‘liq. Alohida harakatni tahlil qilishga tayyorgarlik ko‘rayotganda, o‘qituvchi o‘zi uchun u ustida ishlashning markaziy muammosini aniqlaydi. Ushbu muammoni hal qilish uchun hodisalar tanlanadi va asosiy savollar qo‘yiladi. Albatta, harakatlar ishi tushunarsiz so‘zlarni va tarixiy sharhlarini tushuntirishni o‘z ichiga oladi, ammo bularning barchasi asosiy vazifaga bo‘ysunadi. Shuning uchun, batafsil tahlil qilish uchun qanday hodisalarni ta’kidlash kerakligi haqida o‘zingizga aniq hisobot berishingiz kerak. Sinfda o‘qish uchun hodisalarni tanlash o‘qituvchining fikriga ko‘ra, butun dramani o‘rganishda ham, individual harakatlar ustida ishlashda ham hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalarga bog‘liq. Ushbu tanlov o‘qituvchini butun o‘yinni o‘rganishga oldindan tayyorlash jarayonida aniqlanadi. Aynan

Rol ijrochilarining tashqi ko‘rinishi qahramonlar haqidagi vizual g‘oyangizga qanchalik mos keladi?

Qaysi sahnalarda aktyorlar qahramonlarning asosiy xususiyatlarini to‘liq va aniq ochib berishadi?

Aktyorlar bizning e’tiborimizni qanday tashqi ifoda vositalari bilan qaratadilar?

Asar dizaynini ochishda musiqa, manzara va yorug‘lik qanday rol o‘ynadi?

Drama o‘qishning noqulay jihati qaysi?

o‘sha paytda o‘qituvchi qaysi darsda va nima uchun ba’zi hodisalarni o‘qishga murojaat qilish kerakligini belgilaydi.

O‘quvchilarni drama matniga kirishga undaydigan uslubiy metodlardan biri bu xayoliy sahnalarni yaratishdir. Boshqacha qilib aytganda, tahlil jarayonida ular belgilarni harakatning ma’lum bir nuqtasida qanday joylashtirishlari, ularning pozitsiyalari, imo-ishoralari, harakatlarini tasavvur qilishlari haqida o‘ylashga taklif qilinadi. Shu bilan birga, o‘qituvchi maktab o‘quvchilari alohida harakat ustida ishlayotganda, uni butunning bir qismi sifatida qabul qilishiga, harakatning rivojlanishida, drama finaliga o‘tish harakatida ma’lum bir o‘rinni egallashiga ishonch hosil qiladi. Syujetning asosiy elementlari qanday amalga oshirilishini va individual harakatlarda qanday tayyorlanishini tushunishlari uchun: ekspozitsiya, syujet, kulminatsiyaga ajratish muhim. Bolalarning harakatning rivojlanishini kuzatishi aktyorlarning belgilariga chuqur kirib borishdan ajralmas bo‘lishi kerak. Barcha o‘zgaruvchan vaziyatlarda xarakterning xatti-harakatlarini, harakatlarini, tajribalarini kuzatib, maktab o‘quvchilari asta-sekin turli xil belgilar xarakterining mohiyatini aniqlaydilar. Pyesani tahlil qilishda qahramonlarning nutqlari mazmunini aniqlash katta ahamiyatga ega.

Qahramonlar nutqining subtekstini aniqlash ustida ishlaganda teatrga tashrif buyurish, film yoki dramani tomosha qilish orqali dramatik asarlarni o‘rganish bilan yakunlash kerak. Dramani muhokama qilish o‘rganilayotgan asarning sahna tarixini va o‘zbek teatri tarixidan ba’zi ma’lumotlarni o‘rganishni talab qilishi mumkin. Ammo teatrga tashrif buyurish va dramani ko‘rishning ko‘pincha imkoni bo‘lmasligini ham inobatga olish zarur. Keyin yakuniy

darslarda siz o‘quvchilarni o‘zbek teatri tarixidagi eng muhim faktlar bilan tanishtirishingiz mumkin. Metodistlar bu haqda o‘z asarlarida yozishgan. Ushbu ma’lumotni dramaturgiya asarlarini o‘rganishni o‘z ichiga olgan ma’ruzalarda yetkazish yaxshidir. O‘quvchilarni sahnada o‘zbek dramaturgiyasi asarlarini sahnalashtirish, ushbu asarning teatrdagi hayoti tarixi, o‘zbek dramaturgining ijodi dramaturgiyaning shakllanishi va rivojlanishiga ta’siri bilan tanishtirish yaxshi samara beradi. Ko‘rilgan drama haqida suhbatni yakunlab, o‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi savollarni taklif qiladi:

Shunday qilib, dramatik asarlarni o‘rganishda qo‘llaniladigan ish usullari va usullari epik va lirik asarlarni tahlil qilishda qo‘llaniladigan usul va usullardan farq qilmaydi, ammo ularning nisbati biroz boshqacha.

Har bir dramatik asarni o‘rganish bir qator ketma-ket bosqichlardan iborat. Bularga quyidagilar kiradi:



Kirish darslari o‘quvchilarni badiiy asarni idrok etishga tayyorlaydi, ularda yozuvchiga va uning ijodiga qiziqish uyg‘otadi, asarning asosiy ijtimoiy-tarixiy va axloqiy-estetik muammolariga e’tibor qaratadi.

O‘qish – bu o‘quvchining badiiy matn bilan bevosita uchrashuvi, ona tillarida adabiyotni o‘rganish bo‘yicha oldingi barcha ishlar davomida shakllangan hayotiy va o‘qish tajribasi asosida asarning mafkuraviy-majoziy tizimini dastlabki idrok etishdir.

Tahlil o‘quvchilarning asar haqidagi dastlabki g‘oyalarini chuqurlashtiradi, ularga o‘qish taassurotlarini tushunish imkoniyatini beradi, asarning paydo bo‘layotgan shaxsga axloqiy va estetik ta’sirining ta’lim va tarbiya imkoniyatlarini amalga oshiradi. Muammo shundaki, adabiy asarni tahlil qilish o‘quvchi va yozuvchi o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi, o‘quvchi taassurotidagi subyektivlikning o‘zboshimchaliklarini yo‘q qiladi va shu bilan birga san’at asariga jonli, shaxsiy munosabatni saqlaydi.

Yakuniy darslar asarning yaxlit o‘qish g‘oyasini qayta yaratadi, kengroq madaniy doiradagi estetik qadriyatlar tizimiga o‘rganilgan narsalarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa. Har bir dars davomida o‘quvchilar drama qahramonlarining tanish va yangi xususiyatlariga duch kelishadi, bu esa har bir qahramonni turli tomonlardan ko‘rib chiqishga va o‘tgan materialni yaxshiroq o‘rganishga imkon beradi.

Dramatik asarda muallifning pozitsiyasi boshqa turdagi asarlarga qaraganda ko‘proq yashirin bo‘ladi. Shu maqsadda o‘qituvchi o‘quvchilar e’tiborini muallifning aktyorlar uchun aytgan so‘zlariga jalb qilish va yozuvchining o‘z qahramonlariga qanday munosabatda bo‘lishini o‘ylab ko‘rishi kerak.

Dramatik turga mansub asarlarni o‘qitish nasriy va she’riy asarlarni o‘qitishdan biroz farq qiladi, shu ma’noda bunday asarlarni o‘qitishda o‘zgacha yondashuv, usul va metodlarni qo‘llash talab qilinadi. Adabiy ta’limda dramatik asarlarni o‘qitishda dars, sinfxonaning o‘zi yetarli bo‘lmasligi aniq, shu ma’noda o‘quvchilarni drama to‘garaklari va teatrlarga olib borish orqali ularni mazkur janrdagi asarlarni teran tushunishga undash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo‘ldoshev Q. va boshq. Adabiyot. Umumta’lim maktablarining 9-sinflari uchun darslik. –T.: O‘zbekiston. 2019. 368 b.

2. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot. Umumta’lim maktablarining 10-sinflari uchun darslik. –T.: RTM. 2022. 314 b.

3. Bozorova, G.R. (2022). Effective ways to teach the life and creativity of Muhammad Yusuf in school literature education. Международный журнал языка, образования, перевода, 3(2).

4. Bozorova, G., & Eshniyazova, M. Zahiriddin muhammad Bobur hayoti va ijodini o‘rganishda interaktiv metodlardan foydalanish. Lteachin anguage, 156.

5. Kz Abduvahobovna. New trends and modern approaches to foreign language teaching (teaching uzbek language for russian groups). American journal of interdisciplinary research and development 16, 160-163.

6. GR Bozorova. O‘zbek tilida nutqiy savodxonlikni oshirishning dolzarb masalalari. Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi 23 (2), 145-150.

7. G Bozorova. Milliy ruh-millat ko‘zgusi. Til ta’limining uzviyligini ta’minlashda innovatsion texnologiyalar: muammo va yechimlar respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. 2021.

8. GR Bozorova. Turfa zakovatlar nazariyasi asosida o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish. “Veterinariya sohasini rivojlantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘rni” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 2023

9. Bozorova Gulruh Ravub qizi. Methods of teaching dramatic works in secondary schools modern educational system and innovative teaching solutions: a collection of scientific works of the International scientific conference (23th December 2024) – France, Paris : "CESS", 2023. Volume 2.

10. Бозорова Гулруҳ Равуб қизи. Адабий таълимда драматик асарларни ўқитиш педагогик муаммо сифатида. “Milliy qadriyatlar dialektologik atlasi – tarixni o‘rganishda muhim manba” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. Navoiy, 2024.

BADIIY ASAR TILI VA INDIVIDUAL USLUB

Shofqorov A.M.
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti

Tayanch so‘zlar: badiiy asar, badiiy til, individual uslub, uslubiy vosita, stilistik vazifa, takroriy so‘z, badiiy takror, fonetik takror, leksik takror, grammatik takror.
Ключевые слова: художественное произведение, художественный язык, индивидуальный стиль, стилистический прием, стилистическая задача, повторяющееся слово, художественный повтор, фонетический повтор, лексический повтор, грамматический повтор.
Key words: artistic work, artistic language, individual style, stylistic device, stylistic task, repeated word, artistic repetition, phonetic repetition, lexical repetition, grammatical repetition.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada badiiy asar tili va individual uslub haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, badiiy tasviriy vositalarning qo‘llanishi, xususan, takror va uning stilistik xususiyatlari, takrorning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi yoritilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье рассматривается язык художественного произведения и индивидуальный стиль. Также освещаются вопросы использования художественных средств выразительности, в частности повтора и его стилистических особенностей, а также изучение повтора в узбекском языкознании.
SUMMARY:
The article discusses the language of a work of art and individual style. It also covers the use of artistic means of expression, in particular, repetition and its stylistic features, and the study of repetition in Uzbek linguistics.

Til jamiyatda kishilar o‘rtasidagi munosabatni ta’minlaydi, ma’lum axborotlarni etkazadi. Shuningdek, kishi ruhiyatiga ta’sir etadi, estetik zavq beradi va madaniy taraqqiyot bilan bog‘liq holda rivojlanib boradi. “Til xalq, millat ruhining betakror va hech bir zamon xira tortmas ko‘zgusidir. Har bir tilda shu til egasi bo‘lgan millatning sa’jiyasi, ruhiyati aks etadi”. [10; 11-12-b.]

Har qanday adib ijodini ilmiy jihatdan o‘rganish faqat adabiyotshunoslikning o‘rganish obyekti bo‘lib qolmay, tilshunoslikning ham bevosita o‘rganish obyektidir. “Individual uslubni o‘rganish asar matnini tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazardan batafsil tahlil qilish hamda yozuvchining xususiy lisoniy faoliyatini aniqlash uchun muhimdir. Bu turdagi tahlil har bir

muallifning til tizimidan foydalanish uslubini aniqlash, uning asar g‘oyaviy mazmunini yoritishda, voqelikni badiiy bayon qilishda til vositalarini qo‘llash mahoratini o‘rganish uchun xizmat qiladi”. [3; 8-b.] Bu esa adib ijodini filologik nuqtayi nazardan o‘rganishni taqozo etadi. “Badiiy matn badiiy-estetik butunlik sifatida nihoyatda murakkab, serqatlam hodisa. Badiiy matnda ifodalangan asosiy g‘oya-fikr-mazmunni tushunish shunchaki ish emas, balki ancha qiyin va murakkab ijodiy jarayondir. Badiiy asarda mutlaqo o‘ziga xos, goh ochiq, goho yashirin tarzda namoyon bo‘ladigan mazmunning ma’nosini to‘g‘ri anglash ma’naviy-madaniy, aqliy-hissiy va lisoniy-estetik faoliyat natijasida mumkin bo‘ladi”. [15; 3-4-b.] Bunda, asosan, ijodkorning tildan foydalanish mahorati, o‘ziga xos topilmalar yarata olishi, badiiy san’atlar va tasviriy vositalarni to‘g‘ri va o‘z o‘rnida qo‘llay olishi kabilar diqqat markazida bo‘ladi.

Badiiy asar tili va individual uslubni o‘rganish muayyan yozuvchi yoki shoirning til birliklaridan foydalanishdagi mahoratini belgilashdan iborat. “Badiiy asar tili badiiyatini o‘rganish o‘zbek tilshunosligining ham hozirgi kundagi munozarali va dolzarb masalalaridan biridir. Bugungi kunda badiiy ijodkorlar mahoratini belgilash uning til unsurlaridan foydalanish borasidagi mohirligi mezoni bilan ham bevosita bog‘liq ekanligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda”. [9; 3-b.] Badiiy nutq obrazli nutqdir. Ijodkor badiiy asarda so‘z vositasida obraz yaratadi. Shuning uchun ham badiiy san’atlarning, tasviriy vositalarning mahorat bilan qo‘llanishi asarning badiiyligini ta’minlaydi. Badiiy san’atlarning yuzaga kelishi tilning uslubiy imkoniyatlari bilan bog‘liq. Shu sababli badiiy san’atlarning tadqiq etilishi tilshunoslikning ham eng muhim o‘rganish obyektidir. Badiiy san’atlar adabiyotshunoslikda, asosan, o‘zbek mumtoz adabiyoti matnlari asosida kengroq tadqiq etilgan bo‘lib, ularning lisoniy va stilistik xususiyatlari o‘zbek tilshunosligida nisbatan kam o‘rganilgan.

Badiiy asarda qo‘llangan til birliklari boshqa uslublardagiga nisbatan uslubiy vazifa bajarishi, emotsional-ekspressivlik vazifasining yuqoriligi bilan farqlanib turadi. Bu badiiy asar matnidagi badiiy tasviriy vositalarning o‘ziga xos semantik-stilistik xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Badiiy tasviriy vositalarning badiiy matndagi uslubiy vazifasi alohida o‘rganishni taqozo etadi. “Muayyan badiiy tasvir vositalarini o‘rganish yozuvchining badiiy til mahoratini, xalq tilidagi ifoda vositalarining boyligini ko‘rsatish imkonini beradi”. [9; 3-b.] Har bir yozuvchi yoki shoir til vositalaridan o‘ziga xos shaklda foydalanib, individual uslubini yaratadi. “Har bir davrda ijod etgan shoir va yozuvchilar, hatto bir davrda yashagan ijodkorlarning ham so‘zga, tilga munosabati bir xil emas”. [11; 125-b.]

Shu ma’noda har bir ijodkorning badiiy tasviriy vositalardan foydalanish mahorati o‘ziga xos bo‘lib, bu har bir badiiy tasviriy vositaning qo‘llanishida namoyon bo‘ladi.

Biz ushbu maqolada badiiy asarda, xususan she’riyatda takrorning qo‘llanishi bilan bog‘liq individuallik haqida fikr yuritamiz.

Takror haqida gap borar ekan, lug‘aviy-nutqiy hodisa bo‘lgan takrorni (takroriy so‘zni) badiiy usul, badiiy san’at turi bo‘lgan takrordan farqlash lozim bo‘ladi. Takroriy so‘z leksema xarakteriga ega bo‘lib, asosan, nominativ vazifa bajaradi va nutqda biror voqea-hodisa, harakatning miqdoriy ko‘pligini anglatadi: kula-kula so‘zladi, to‘da-to‘da bo‘lib keldi, ishlay-ishlay charchadi.

Takroriy so‘z bilan takrorlash usuli kommunikativ vazifasi, ma’no va strukturasi, matnda qo‘llanish xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi. Takroriy so‘z leksema, ya’ni bitta so‘z yonma-yon qaytariladi, takrorlanadi. Takroriy so‘z aynan bir so‘zning ikki bor talaffuz qilinishidan yuzaga keladi, bunday so‘zlar orasiga defis qo‘yiladi, talaffuzda engil pauza bilan ajraladi. Takroriy so‘z ham badiiy tilda ma’lum uslubiy vazifa bajaradi, ammo bu tip so‘zlarning asosiy vazifasi miqdoran ko‘plik ifodalovchi so‘z shaklini yuzaga keltirish va uning nomi bo‘lib kelishidir. Badiiy usul, badiiy san’at sirasidagi takrorlar nutq (matn) da turli o‘rinlarda keladi. Badiiy takror vazifasida asosiy vosita tovush, so‘z, so‘z birikmasi, ma’lum ibora, gap, hatto butun bir misra (misralar) bo‘lishi mumkin. Badiiy takror nutqda badiiy-uslubiy, emotsional-ekspressiv, badiiy-estetik, obrazlilik vazifalarini o‘taydi. Takroriy so‘z o‘z xarakteriga ko‘ra leksema (so‘z)ga yaqin turadi, takror esa sintaktik va frazeologik birliklarga mansubdir.

Takroriy so‘zlarni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda takroriy so‘zlarni badiiy-uslubiy takrorlardan farqlashga oid fikrlar uchraydi. Masalan, Z.O‘rinboyev bu masalaga oid kuzatishlarini yakunlab chizmaga tushirar ekan takroriy so‘zni badiiy-uslubiy takrordan farqlaydi va unga tavtologiya, pleonazm, parallellar (parallelizm), qofiya (rifma) va radif kirishini ta’kidlaydi. [12; 18-b.] Z.O‘rinboyev tadqiqotida tildagi takror hodisasi (reduplikatsiya), uning ko‘rinishlari, takroriy so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning o‘xshash va farqli tomonlari o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotda o‘zbek tilidagi takroriy so‘zlar leksik va morfologik sathlarda keng tahlil qilingan.

Yuqorida ko‘rsatilgan tadqiqotlarda takror hodisasi lingvistik va lingvopoetik planda tadqiq etilgan. Badiiy tasviriy vosita sifatida o‘rganilganida ham ko‘proq ma’lum bir davr bilan bog‘liq holda yoritilgan. Vaholanki, ijodkorning takrordan foydalanishi, unga uslubiy ma’no yuklay olish mahorati o‘ziga

xos bo‘lib, bu esa har bir ijodkorning badiiy tasviriy vositalarni qo‘llay olish mahoratini alohida tadqiqot obyekti sifatida tahlil qilishni taqozo etadi.

Har bir badiiy tasviriy vositadan yozuvchi yoki shoir o‘z ijodida unumli foydalanadi. “She’riyat tili tadqiq qilinganda uning o‘ziga xos xususiyatlari alohida e’tiborga olinadi, ya’ni poeziya tilining adabiy jinslar va poetik janrlar, musiqiylik, stilistik vositalari, morfologiya va sintaksis bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xosliklari qayd qilinadi”. [1; 355-b.] Takror ham badiiy asarda, xususan, she'riyatda ko‘p qo‘llanadigan uslubiy vositalardan biridir.

“Takror – stilistik ko‘rinishlardan biri bo‘lib, bir so‘zni yoki bir necha so‘zni, ba’zan esa ma’lum satrni atayin qaytarish”. [2; 300-b.] Aslida takror hamma uslublarda ham qo‘llanadi. “Chunki har bir uslubda ma’noni ta’kidlab, alohida ajratib, ba’zan bo‘rttirib ko‘rsatishga ma’lum o‘rinlarda diqqatni jalb qilishga ehtiyoj bor. Bu ehtiyojni qondirish uchun ko‘pchilik tomonidan oson qabul qilinadigan, fikr yuritilayotgan sohada yoki kundalik turmushda faol ishlatiladigan til birliklari takroriy qo‘llanadi”. [8; 54-b.] Lekin badiiy asardagi takrorlar emotsional-ekspressivligi, stilistik xususiyatlari, badiiy-estetik qimmati, obrazliligi bilan farqlanib turadi, ijodkorning o‘ziga xos uslubini keltirib chiqaradi. Ayniqsa, poetik nutqda takrorning o‘ziga xos stilistik xususiyatlari mavjud bo‘lib, bu she’riyatdagi o‘ziga xosliklarni namoyon qiladi hamda tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

S.Karimov badiiy til (matn)ning lisoniy belgilarini tadqiq qilar ekan, badiiy tilda so‘z san’ati turlarining ahamiyati haqida to‘xtaladi va takror hodisasining mohiyati yuzasidan quyidagi fikrlarni bildiradi: “Takrordan boshqa funksional uslublarda ham foydalanishni inkor etmagan holda, uning qo‘llanish doirasi badiiy uslubda jiddiy ravishda kengayib borishini ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. Badiiy asarda, barcha stilistik vositalarda bo‘lgani kabi, takrorning zimmasiga ham nutqiy vositalarga xos emotsional bo‘yoq, alohida ohang, joziba berish vazifasi yuklanadi. Shuning uchun ham ijod jarayonida ularga murojaat qilish qalamkashdan maxsus tayyorgarlikni talab qiladi va ana shunday ijodiy mehnat mevasi bo‘lgan takrorlargina badiiy uslub uchun chinakam stilistik usul sifatida xizmat qiladi.

Lafziy san’atlardan biri sifatida takror (takrir, mukarrir) adabiyotimizda an’anaviy xarakterga ega”. [8; 38-b.].

Takror hodisasi funksional jihatdan poetik nutqda ko‘proq uchrasa-da, u boshqa badiiy janrlar tilida ham mavjud. Chunonchi, Bekmurod Yo‘ldoshev Said Ahmad asarlari tili va uslubini tadqiq qilib, ular tilida takrorning uch xil turi, ya’ni sintaktik tuzilmalar (struktura) takrori, uyushiq bo‘laklar parallelizmi,

sintaktik parallelizmning takror bilan qo‘shilib kelishini aniqlagan. [14; 10-11-b.]

G.Yaxshiyeva o‘zbek tilidagi fonografik vositalar haqida fikr yuritar ekan, umuman, nutqda, jumladan, badiiy tilda uchrab turadigan nima-ga-a-a?, kimsa-a-an?, ona-a, sizga xa-a-at, yo‘-o‘-o‘-q, mmmenga, kkkimga?, e-sh-sh-shak kabi hodisalarni fonologik cho‘ziqlik, cho‘ziq aytish, cho‘ziq talaffuz, ikkilanish, ikkilantirib yozilish, cho‘ziq va baland talaffuz, ochiq va yopiq bo‘g‘inlardagi cho‘zilish, tovushning ikkilantirilishi, ikkilantirib talaffuz qilish, emotsional cho‘ziqlik kabi tushunchalar bilan ataydi. [13; 12-17-b.]

Keltirilgan holatlarda tovush cho‘zib aytilayotgan, shunga ko‘ra ikkilantirib yozilayotgan bo‘lishi mumkin, ammo mana shu cho‘ziqlik qanday usulda amalga oshirilgan? Masalan, nima-ga-a-a?, yo‘-o‘-o‘-q kabilarda bir tovush (a, o‘)ning cho‘zilishimi yoki aynan bir tovushning mustaqil takrorimi, deyilgan savol tug‘iladi. Fikrimizcha, keltirilgan holatlarda a va o‘ tovushlari takror talaffuz qilinmoqda, aniq qilib aytilsa, bitta tovushni takror holda aytish asosida cho‘ziqlik yuzaga kelmoqda. G.Yaxshiyevaning quyidagi fikrlarida “undoshning birdan ortiq takrori” iborasining qo‘llanishi ham bizning nuqtayi nazarimizni quvvatlaydi: “So‘z boshidagi undosh tovushning ikkilantirilishi personajga xos nutqiy kamchilik yoki uning o‘ta hayajonlanganligini ifodalasa, so‘z oxiridagi undoshning birdan ortiq takrori shu so‘zning cho‘ziq talaffuzini bildiradi”. [13; 15-16-b.]

G.Yaxshiyeva fonetik imkoniyatlar vositasida yuzaga keluvchi takror haqida quyidagilarni yozadi: “Tovush yozuvi (звукозапись)ning ikki ko‘rinishi mavjud: a) assonans; b) alliteratsiya.

Bularning har ikkalasida ham tovush va ma’no birligi asosida obraz yaratiladi.

Alliterasiya ahamiyat berilishi lozim bo‘lgan so‘zlarga kishi diqqatini tortadi, uni o‘ziga xos shaklda talaffuz qilishga undaydi. Bu usulda yaratilgan she’rlarning so‘z shakli ularni esda tez va uzoq saqlanib qolish imkonini beradi”. [5; 22-b.]

A.Haydarov badiiy matnning fonostilistik vositalarini tadqiq qilar ekan, shunday yozadi: “Til fikr anglatish quroli bo‘lish bilan birga, insonlarga hissiy ta’sir qilish vositasi hamda bu ta’sir so‘zlardagi asosiy (denotativ) ma’noga asoslangan qo‘shimcha (konnotativ) ma’nolar vositasida amalga oshadi. Konnotativ ma’no komponentlarini tashkil qiluvchi “bo‘yoqdor” fonetik vositalarda kuchli ifodalanadi” [6; 7-8-b.]

Fonostilistik vositalar orqali g‘azablanish, ma’yuslik, ikkilanish, piching, ironiya, mensimaslik va qo‘shimcha ma’nolar yuzaga chiqadi. Bular,

A.Haydarovning ta’kidlashicha, tovushlar qiyofasini o‘zgartirib aytish, tovush orttirish yoki tushirish, alliterasiya, geminasiya, talaffuzda tovushlarni ikkilantirish va boshqalar orqali yuzaga keladi. [6; 8-b.] Bular umuman to‘g‘ri, ammo diqqat qilinsa, qayd qilingan usullarning asosiy qismi tovush takrori orqali yuzaga keladi: baqirma-a-a!, ke-etdi-i-i!!!, yo‘qo-o-ol!, o‘-o‘-o‘! ming la-a-a'nat, nima-a-larr deyapsan?, o‘la-ayy! kabi.

Misollarga diqqat qilinsa, keltirilgan hodisalar aynan bir tovushni takror aytish orqali amalga oshmoqda. Demak, bu o‘rinda takror hodisasining (usulining) ahamiyati yaqqol ko‘rinib turibdi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy adabiyot tilida uchraydigan takror usuli ham umumiy badiiy san’atlarning, badiiy matnning funksional va xarakterli belgilaridan biridir. Takrorni yuzaga keltiruvchi, u uchun lisoniy-moddiy asos rolini o‘tovchi lisoniy birliklar aktuallashgan til vositasi jumlasiga kiradi. Badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash ham muhim hisoblanadi. Bunday vositalarning semantik, stilistik mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanish mexanizmlarini aniq tasavvur qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adabiyot nazariyasi. Adabiy asar. Birinchi jild. – T.: Fan, 1978. – B. 416.

2. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati / Tuzuvchilar: H.Homidiy, Sh.Abdullaeva, S.Ibrohimova. – T.: O‘qituvchi, 1967. – B. 300.

3. Boymirzayeva S. Oybek prozasining lingvostilistik tadqiqi: Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – Samarqand, 2004. – B. 22.

4. Буранова М. Структурно-семантические особенности редупликативных слов в английском и узбекском языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1982. – С. 18.

5. Глазырина С.А. Стилистические и текстообразующие функции повтора словообразовательных единиц: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1993. – С. 24.

6. Haydarov A. Badiiy matnning fonostilistik vositalari: Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – T., 2008. – B. 22.

7. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand: SamDU, 1994. – B. 72.

8. Karimov S. O‘zbek tilining badiiy uslubi: Filol. fanlari doktori ... diss. avtoref. – T., 1993. – B. 50.

9. Keldiyorova G. O‘zbek badiiy nutqida antiteza (E.Vohidov she'riyati misolida): Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – T., 2000. – B. 26.

10. Mahmudov N. Til. – T.: Yozuvchi, 1998. – B. 40.

11. Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. – T.: Fan, 1977. – B. 152.

12. Уринбаев З. Лингвистическая природа редупликатsій в современном узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1982. – С. 18.

13. Yaxshiyeva G. O‘zbek tilida fonografik uslubiy vositalar: Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – T., 1997. – B. 12-17.

14. Юлдашев Б. Язык и стиль произведений Саида Ахмада: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1979. – С. 16.

15. Yuldashev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fanlari doktori ... diss. avtoref. – T., 2009. – B. 48.

TARJIMA NAZARIYASIDA PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLAR VA NEYROLINGVISTIK DASTURLASHNING ILMIY-ASOSIY OMILLARI

Temirbekova A.O.
Filologiya fanlari bóyicha falsafa doktori(PhD)
NDPI

Tayanch so‘zlar: tarjima nazariyasi, psixolingvistika, neyrolingvistik dasturlash, tarjimonlik kompetensiyasi, kognitiv faoliyat, bashorat mexanizmi.
Ключевые слова: теория перевода, психолингвистика, нейролингвистическое программирование, переводческая компетенция, когнитивная деятельность, механизм прогнозирования.
Key words: translation theory, psycholinguistics, neurolinguistic programming, translation competence, cognitive activity, predictive mechanism.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada tarjima jarayoniga psixolingvistika va neyrolingvistik dasturlash nuqtai nazaridan yondashiladi. Tarjimonlik kompetensiyasining tarkibiy qismlari, tarjima faoliyatidagi kognitiv va emotsional mexanizmlar, shuningdek, neyrolingvistik dasturlash modelining tarjima sifatiga bo‘lgan ta’siri ilmiy asosda tahlil etilgan. Tadqiqotda tarjima nazariyasining psixologik modellashtirilishiga oid yondashuvlar, xususan, Yu.Nayda va A.R.Luriya qarashlari muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье процесс перевода рассматривается с точки зрения психолингвистики и нейролингвистического программирования. На научной основе проанализированы компоненты переводческой компетенции, когнитивные и эмоциональные механизмы в переводческой деятельности, а также влияние модели нейролингвистического программирования на качество перевода. В исследовании подходы к психологическому моделированию теории перевода, в частности, взгляды Ю.Найды и А.Р.Лурии, служат важной методологической основой.
SUMMARY:
This article approaches the translation process from the perspective of psycholinguistics and neurolinguistic programming. The components of translation competence, cognitive and emotional mechanisms in translation activity, as well as the influence of the neurolinguistic programming model on translation quality are analyzed on a scientific basis. In the study, approaches to the psychological modeling of translation theory, in particular, the views of Yu.Nayda and A.R.Luria, serve as an important methodological basis.

Kirish. Tarjima – bu faqatgina tilning grammatik va leksik birliklarini boshqa tilga ko‘chirish emas, balki ikki til va ikki madaniyat o‘rtasidagi ko‘prikni ilmiy, psixologik va kognitiv jihatdan qurish jarayonidir. Bugungi globallashuv davrida tarjimonlik faoliyati zamonaviy tilshunoslikning turli yo‘nalishlari – psixolingvistika, neyropsixologiya, madaniyatshunoslik, kommunikatsiya nazariyalari va hatto sun’iy intellekt asosidagi tarjima tizimlari bilan kesishmoqda. Shunday murakkab va ko‘p qatlamli faoliyatni mukammal o‘rganish uchun uni faqatgina lingvistik nuqtai nazardan emas, balki inson tafakkuri va nutq faoliyati bilan bog‘liq fanlar doirasida ham tahlil qilish zarurati tug‘iladi.

Psixolingvistika – bu til va tafakkur o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni o‘rganuvchi fan sifatida tarjima jarayonining ichki mexanizmlarini ochib berishda muhim rol o‘ynaydi. Chunki tarjima qilish – bu avvalo idrok, tushunish, eslab qolish, assotsiatsiya qilish, qayta tuzish va ifoda etish kabi psixik faoliyat bosqichlaridan iborat murakkab kognitiv jarayondir. Shu bois, tarjimonlik kompetensiyasini shakllantirish va baholashda psixolingvistik yondashuvlar dolzarb hisoblanadi. Psixolingvistika, xususan Yu.Nayda, A.R.Luriya, L.S.Vigotskiy kabi olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariyalar tarjima jarayonini inson idrokining bosqichma-bosqich faoliyati sifatida modellashtirishga asos bo‘lgan.

Shuningdek, so‘nggi yillarda tarjima faoliyati va umumiy nutqiy kompetensiyani takomillashtirishda neyrolingvistik dasturlash (NLD) nazariyasining yondashuvlari ham ilmiy e’tiborni tortmoqda. NLDga ko‘ra, inson miyasi, tili va xulq-atvori o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, bu elementlar ustida ongli ishlash orqali kommunikativ samaradorlikka erishish mumkin. Tarjima faoliyatida esa bu nazariya tarjimonning o‘zini idrok etish darajasini oshirish, stress holatlarida faoliyat yurita olish, madaniyatlararo tafovutlarni ongli ravishda anglash va uni ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirishda qo‘llanilishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola tarjima nazariyasi, psixolingvistika va neyrolingvistik dasturlash (NLD) o‘rtasidagi ilmiy va amaliy aloqalarni tahlil qilish, tarjimonlik kompetensiyasining kognitiv-psixologik asoslarini yoritish hamda tarjima jarayonining zamonaviy psixologik modellari asosida tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada ilmiy-nazariy qarashlar, tarjima amaliyotidan misollar va zamonaviy metodologik yondashuvlar orqali ushbu fanlararo yo‘nalishning dolzarbligi va istiqbollari ko‘rib chiqiladi.

Tarjimonlik faoliyati nafaqat tilshunoslik, balki psixologiya, neyrobiologiya, pedagogika va kommunikatsiya nazariyalari bilan ham chambarchas bog‘liq. Bugungi globallashuv sharoitida tarjimonning faoliyati nutqiy, mantiqiy, madaniy va psixologik omillarni uyg‘un holda o‘zlashtirishni talab qiladi. Ayniqsa, tarjima nazariyasida psixolingvistikaning o‘rni sezilarli darajada ortib

bormoqda. Shu bilan birga, oxirgi yillarda neyrolingvistik dasturlash (NLD) usullarining tarjima kompetensiyasi shakllanishiga ta'siri bo'yicha ham ilmiy izlanishlar kuchaymoqda. Ushbu maqolada tarjima faoliyatining psixolingvistik xususiyatlari hamda neyrolingvistik dasturlash modeli orqali tafakkur va tilning o'zaro bog'liqligi o'rganiladi.

Uslublar. Ushbu tadqiqot tarjima nazariyasi, psixolingvistika va neyrolingvistik dasturlash (NLD) fanlari kesishmasida amalga oshirilgan bo'lib, u kompleks, fanlararo (interdisciplinary) yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy metodologik yondashuv va tahlil usullaridan foydalanildi:

1. Deskriptiv-analitik usul

Mazkur usul yordamida tarjima nazariyasi va psixolingvistika yo'nalishidagi ilmiy manbalar, xususan Yu.Nayda, L.V.Sherba, A.A.Leontyev, L.S.Vigotskiy, A.R.Luriya va boshqa olimlarning asarlari tahlil qilindi. Bu uslub tarjima jarayonining psixologik va kognitiv bosqichlarini aniqlash, tarjimonlik kompetensiyasining tarkibiy qismlarini tavsiflashda muhim rol o'ynadi.

2. Komparativ (taqqoslov) tahlil usuli

Psixolingvistik va tarjima nazariyasidagi qarashlar o'zaro solishtirildi, ayniqsa tarjima faoliyatidagi idrok, eslab qolish, assotsiatsiya qilish va qayta kodlash jarayonlari turli modellar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, tarjimaning turli shakllari (og'zaki, yozma, sinxron va boshqalar) doirasidagi psixologik mexanizmlar o'zaro taqqoslab o'rganildi.

3. Kognitiv modellashtirish usuli

Tarjima jarayonining kognitiv modeli sifatida Yu.Nayda tomonidan taklif etilgan "idrok – tahlil – kodlash – yaratish" modeli asosida tarjimaning ichki psixik mexanizmlari modellashtirildi. Bu model tarjimonning nutqiy va tafakkuriy faoliyat bosqichlarini aniq ko'rsatishga xizmat qildi.

4. Neyropsixologik interpretatsiya yondashuvi

Neyrolingvistik dasturlashga oid nazariy manbalar (Bendler, Grinder va ularning zamonaviy izdoshlari) asosida tarjimada ong, nutq va xatti-harakatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar psixolingvistik doirada tahlil qilindi. Ayniqsa, NLD asosida shakllangan "fikrlash tili" nazariyasi tarjimonlik kompetensiyasining psixologik asoslarini tahlil qilishda qo'llandi.

5. Tajriba va kuzatuvga asoslangan yondashuv

O'quv muassasalari va tarjima faoliyati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar ishtirokida olib borilgan noformal suhbatlar, tarjima jarayonida kuzatilgan psixologik holatlar, og'zaki va yozma tarjimalardagi stress holatlar, bashorat mexanizmlari faoliyati bo'yicha individual holatlar umumlashtirib, tahlil qilindi.

6. Matn tahlili va diskursiv yondashuv

Tarjimonning matnga bo‘lgan munosabati, konnotativ-ma'no jihatlari, madaniy interpetatsiyalar kabi omillar matnlararo tahlil orqali o‘rganildi. Diskursiv yondashuv orqali esa tarjimonning individual uslubi va ruhiy-psixologik holatining tarjima sifati bilan bog‘liqligi o‘rganildi.

Natijalar. Tadqiqot davomida tarjima nazariyasi, psixolingvistika va neyrolingvistik dasturlash (NLD) yo‘nalishlarining o‘zaro kesishgan nuqtalarini aniqlash orqali bir qator muhim ilmiy-amaliy natijalarga erishildi:

1. Tarjima jarayonining psixolingvistik modeli aniqlandi

Tahlil natijasida tarjima jarayoni murakkab kognitiv va psixologik bosqichlardan iboratligi qayd etildi. Yu.Nayda tomonidan ishlab chiqilgan model asosida quyidagi asosiy bosqichlar aniqlandi:

- Idrok qilish (asliy matnni tushunish);
- Tahlil qilish (mazmuniy va semantik bo‘linmalar asosida);
- Qayta kodlash (ma’lumotni boshqa til vositalarida ifodalash);
- Reproduksiya (yangi tilda tabiiy matn hosil qilish).

Ushbu bosqichlarning har biri alohida psixik va nevrologik jarayonlar bilan uyg‘un holda kechadi, ayniqsa sinxron tarjimada ular bir vaqtda amalga oshadi.

2. Turli tarjima turlarida psixologik mexanizmlar farqlanishi isbotlandi

- Og‘zaki tarjima, ayniqsa sinxron tarjimada:
- Ishlash tezligi yuqori bo‘lishi;
- Idrok va ifodalash deyarli bir vaqtning o‘zida kechishi;
- Bashorat qilish (anticipatsiya) strategiyasi faol ishlatilishi aniqlandi.
- Yozma tarjimada esa: Diqqat va tahlilga ko‘proq vaqt ajratilishi;

O‘z-o‘zini nazorat qilish va matnni tahrirlash imkoniyati mavjudligi;

Mantiqiy va sintaktik konstruksiyalarni mukammal shakllantirish imkoniyati aniqlangani natijasida psixologik bosim darajasi pastroq bo‘lishi kuzatildi.

3. Tarjimonda shakllanadigan “tarjimachilik kompetensiyasi” psixologik va lingvistik mezonlarga asoslanishi ko‘rsatildi

- Kompetensiya tarkibiga quyidagilar kiritildi:
- Receptiv komponent – asliy matnni chuqur tushunish qobiliyati;
- Reproduktiv komponent – yangi tilda adekvat va mantiqan to‘g‘ri ifoda qilish;
- Lingvistik bilimlar – ikkala til tizimini mukammal bilish;

Madaniyatlararo kompetensiya – madaniy kontekstni anglash va yetkazish malakasi.

Shuningdek, bu kompetensiyalar asosan psixolingvistik jarayonlar orqali shakllanishi ta’kidlandi.

4. Neyrolingvistik dasturlash elementlarining tarjima jarayoniga ta’siri aniqlashtirildi

- NLDning asosiy nazariyasi – til, idrok va xatti-harakatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik konsepsiyasi tarjima faoliyatida ham dolzarb ekanligi quyidagicha asoslandi:
- Tarjimachining o‘z ongidagi ichki tilni boshqarish qobiliyati (metatil);
- Ong osti tasavvurlarini faollashtirish orqali bashorat mexanizmini kuchaytirish;

Stressga bardoshlilikni oshirishda NLD texnikalari (ankerlash, reframing, vizualizatsiya)dan foydalanish foydali bo‘lishi mumkin.

5. Tarjima sifatiga ta’sir etuvchi psixologik omillar tizimlashtirildi

Quyidagi omillar tarjimaning muvaffaqiyatli kechishini belgilashi aniqlandi:

- Diqqat va xotiraning faolligi;
- Til va madaniyatlararo sezuvchanlik;
- Stressga chidamlilik va o‘z-o‘zini nazorat qilish;
- Ijodiy tafakkur va bashorat qilish qobiliyati.

Muhokama. Tadqiqot natijalari tarjima jarayonini faqatgina lingvistik asosda emas, balki psixolingvistik va neyropsixologik yondashuvlar orqali ham chuqurroq tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. An’anaviy tarjimashunoslikda asosan til tizimlari o‘rtasidagi formal-mantiqiy muvofiqliklar tahlil qilingan bo‘lsa, psixolinguistika va neyrolingvistik dasturlashning bu jarayonga qo‘shilishi tarjimaning inson miyasi va ongidagi murakkab idrok-tushunish, kodlash-va dekodlash mexanizmlarini yoritish imkonini beradi.

1. Tarjima va nutq faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlik.

Tarjima faoliyati, aslida, yuqori darajadagi nutq faoliyatining kognitiv shaklidir. Bu faoliyatda tarjimon avval asliy matnni anglab, uning semantik strukturasini o‘z ongida qayta tuzadi va so‘ng uni boshqa til vositalarida ifodalaydi. Bu jarayon “nutqning ichki bosqichi” va “tashqi bosqichi” kabi klassik psixolingvistik tushunchalar bilan bevosita bog‘liq. Nutq faoliyatining har bir elementi (idrok, tahlil, ishlab chiqish va ifoda) tarjima faoliyatida muhim ahamiyatga ega.

2. Kognitiv yuklama va stress omilining farqlanishi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, og‘zaki (ayniqsa, sinxron) tarjimada tarjimonning xotira, diqqat va tezkor bashorat qilish (anticipatsiya) kabi psixik funksiyalari yuqori yuklama ostida ishlaydi. Bu esa stressga chidamlilikni muhim omilga aylantiradi. Yozma tarjimada esa vaqt omili nisbatan yumshoq bo‘lib, tafakkurga chuqurroq murojaat qilishga imkon beradi. Shunday qilib, har ikki holatda ham tarjimaning sifati tarjimonning psixologik holati va individual xususiyatlariga bevosita bog‘liq bo‘lib chiqmoqda.

3. Tarjimachilik kompetensiyasining ko‘p komponentli tuzilmasi.

Kompetensiyaning nafaqat til va madaniyatlararo ko‘nikmalardan, balki psixologik barqarorlik, analitik tafakkur, idrokning aniqligi va emotsional barqarorlikdan iborat bo‘lishi tarjimon tayyorlash jarayonlarida ham yangi yondashuvlarni talab etadi. Shu ma’noda, tarjimonga faqat grammatik va semantik bilimlar emas, balki idrokiy, emotsional va strategik kompetensiyalarni ham o‘rgatish zarur.

4. Neyrolingvistik dasturlash yondashuvining dolzarbligi.

NLD nazariyasida inson tafakkurini “dasturlash mumkin” degan g‘oya ilgari suriladi. Bu, tarjimon misolida olinsa, quyidagicha izohlanadi: agar tarjimon o‘z shaxsiy tafakkur tizimini, ichki nutqni boshqarishni va ijobiy emotsional holatni mustahkamlay olsa, u yanada samarali, ravon va ishonchli tarjima amalga oshira oladi. NLDda qo‘llaniladigan metodlar (vizualizatsiya, reframing, angorlashtirish) tarjimonda stressni kamaytirish, fikrni tizimli shakllantirish va muqobil ifoda shakllarini tez topish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

5. Ilmiy adabiyotlar bilan taqqoslash.

Mazkur tadqiqot natijalari ilgari o‘tkazilgan ayrim psixolinguistik va tarjimashunoslik tadqiqotlari bilan uyg‘unlikda ekanligi aniqlandi. Jumladan, Yu.Nayda (1964) tarjimaning psixologik modelini yaratishda tarjima jarayonini semantik anglash va rekonstruksiya qilish sifatida tushuntirgan bo‘lsa, zamonaviy NLD yondashuvi bu jarayonda shaxsning ichki ong modeli va nevrologik holatini ham hisobga olishni taklif qiladi. Shuningdek, Mona Beyker, A. Neubert, K. Malmkjær kabi olimlar ham tarjima sifati ko‘proq tarjimonning ichki strategiyalari va emotsional holatiga bog‘liqligini ta’kidlaganlar.

Tarjimashunoslik va psixolingvistika o‘rtasidagi bog‘liqlik tarjima faoliyatini inson idroki, eslab qolish, assotsiatsiya, mental bashorat va emotsional fon kabi omillar orqali tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, Yu.Nayda tomonidan ilgari surilgan tarjimaning psixologik modeli amaliy jihatdan o‘zini oqlagan.

Shu bilan birga, neyrolingvistik dasturlashning lingvistik va psixologik nuqtai nazardan baholanishi hali to‘liq isbotlanmagan bo‘lsa-da, uning tarjimonlik kompetensiyasini rivojlantirishdagi motivatsion rolini inkor qilib bo‘lmaydi. Ammo NLD bo‘yicha ilmiy asoslangan tadqiqotlar yetarli emas, bu esa uning nazariy kuchini cheklaydi.

Xulosa. Ushbu maqolada tarjimashunoslik va psixolingvistika fanlarining kesishgan nuqtalarida yuzaga keladigan dolzarb masalalar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida tarjima jarayonining faqat lingvistik emas, balki psixologik, kognitiv va neyropsixologik omillar bilan chambarchas bog‘liqligi asoslab berildi.

Ayniqsa, tarjimoning inson idroki, eslab qolish, stressga bardoshlilik, emotsional muvozanat va bashorat qilish kabi murakkab psixik mexanizmlarga tayanishi uning murakkab kognitiv faoliyat ekanligini ko‘rsatdi.

Psixolingvistik yondashuv tarjima jarayonining ichki bosqichlarini – idrok, semantik tahlil, kodlash va qayta kodlash, ifoda va baholash kabi elementlarni aniqlash imkonini berdi. Ayniqsa, tarjimachi kompetensiyasini faqat til va madaniyat doirasidagina emas, balki emotsional barqarorlik, strategik fikrlash, tezkor orientatsiya, stressni boshqarish va anticipatsion (oldindan sezish) qobiliyatlar bilan to‘ldirish zaruriyati aniqlandi. Bu kompetensiyalar tarjimachi tayyorlashda yangi pedagogik va psixopedagogik yondashuvlarni talab qiladi.

Neyrolingvistik dasturlash (NLD) yondashuvi esa tarjimachi shaxsiyatining psixo-kognitiv imkoniyatlarini o‘rganishda yangi ufqlar ochadi. NLDning asosiy tamoyillariga tayangan holda, tarjimachi o‘z ichki tilini anglash, tafakkurini “dasturlash”, ijobiy holatlarni shakllantirish va o‘z faoliyatini ongli boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu yondashuv ayniqsa og‘zaki va sinxron tarjimalarda katta ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, mazkur maqola doirasida ilgari surilgan nazariy qarashlar Yu.Nayda, V.Комиссаров, Mona Beyker, G. Шютц ва boshqa olimlarning konseptual g‘oyalari bilan qiyosiy tahlil qilinib, ular bilan uyg‘unlikda yoki farqli jihatlarda yoritildi.

Shunday qilib, ushbu tadqiqot tarjima jarayonining psixolingvistik va neyropsixologik asoslarini ilmiy asosda yoritish, tarjimachi kompetensiyasini ko‘p komponentli tizim sifatida talqin etish, shuningdek, tarjimashunoslikni interdisiplinar (ko‘p fanli) yondashuvlar asosida qayta ko‘rib chiqish zaruratini ochib berdi. Keyingi tadqiqotlarda bu yondashuvlar asosida amaliy eksperimentlar va tarjima sifati bilan bog‘liq diagnostik metodlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nida E. (1964). Toward a Science of Translating. Leiden: Brill.
2. Luria A.R. (1970). The Working Brain. Penguin Books.
3. Vigotskiy L.S. (1934). Myshlenie i rech. Moskva.
4. Bandler R., Grinder, J. (1975). The Structure of Magic I & II. Science and Behavior Books.
5. Jakobson R. (1960). Closing Statement: Linguistics and Poetics. Style in Language.
6. Lisenko A.V. (2021). Psixolingvistika va tarjima jarayoni. T.: Fan.
7. O‘zbekistonda tarjima nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami, 2023.

SO‘ZLARNI TURKUMLARGA AJRATISH MEZONLARI

Embergenova M.A.
Nukus davlat pedagogika instituti Qoraqalpoq tili kafedrasi dotsenti

Tayanch so‘zlar: so‘z turkumlari, tasnif mezonlari, semantik yondashuv, morfologik tahlil, sintaktik funksiya, so‘z-gaplar, paradigma, holat kategoriyasi.
Ключевые слова: классы слов, критерии классификации, семантический подход, морфологический анализ, синтаксическая функция, слова, парадигма, падежная категория.
Key words: word classes, classification criteria, semantic approach, morphological analysis, syntactic function, words-statements, paradigm, case category.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada so‘zlarni turkumlarga ajratish mezonlari ko‘p yillardan buyon tilshunoslikda muhokama markazida bo‘lib kelayotgan dolzarb masala sifatida yoritiladi. An’anaviy uch mezon – semantik, morfologik va sintaktik belgilar asosida yaratilgan tasnif tizimining afzalliklari va kamchiliklari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Xususan, so‘z-gaplar, modal birliklar va holat bildiruvchi leksemalar misolida mavjud mezonlarning yetarli emasligi va ularni takomillashtirish zarurati asoslab beriladi. Zamonaviy yondashuvlar, jumladan, morfem tuzilishi, paradigma a’zolari, sintagmatik va paradigmatik aloqalar asosida ilgari surilgan yangi qarashlar taqqoslab tahlil qilinadi.
РЕЗЮМЕ:
В статье рассматриваются критерии деления слов на категории — актуальный вопрос, который уже много лет находится в центре дискуссий в лингвистике. На основе научных источников анализируются преимущества и недостатки системы классификации, созданной на основе трех традиционных критериев – семантических, морфологических и синтаксических признаков. В частности, обоснована неадекватность существующих критериев и необходимость их совершенствования в случае слов, модальных единиц и лексем, обозначающих статус. Сравниваются и анализируются современные подходы, в том числе новые взгляды, выдвинутые на основе структуры морфем, членов парадигмы, синтагматических и парадигматических отношений.
SUMMARY:
This article discusses the criteria for dividing words into categories as a topical issue that has been at the center of discussion in linguistics for many years. The advantages and disadvantages of the classification system created on the basis of three traditional criteria - semantic, morphological and syntactic signs - are analyzed based on scientific sources. In particular, the inadequacy of the existing criteria and the need to improve them are substantiated on the example of words-statements, modal units and lexemes denoting cases. Modern approaches, including morpheme

structure, paradigm members, syntagmatic and paradigmatic relations, are compared and analyzed with new views put forward.

Kirish. So‘zlarni turkumlarga ajratishning uch mezonli nazariyasi ko‘plab tanqidlarga qaramay yashab kelayotganligining qator sabablari bor. Bu tasnif o‘zining aprior tabiatidan kelib chiqib, ya’ni formal logikaning tasnif qat’iy, qoldiqsiz bo‘lishi haqidagi tamoyillarga asoslanib har qanday so‘zshaklni muayyan bir turkumga joylashtirish imkonini beradi.

Adabiyotlar sharhi. Ammo diqqat bilan qaralganda bu turkumlarning ko‘p hollarda aprior qarashlar natijasida zo‘rma-zo‘raki ajratilganligi ko‘rinib qoladi. I.G.Miloslavskiy fikricha: *«...mantiqiy kamchiliklari tufayli an’anaviy tasnif mantiqan birga olinishi lozim bo‘lgan narsalarni ham ajratib yuboradi.*

Masalan, maktab grammatikasi miqdor, jamlovchi va tartib sonlarni semantik asosga ko‘ra bir turkumga yig‘ib tartib sonlarni sintaktik va morfologik o‘xshashligiga qaramay sifatlardan ajratib yuboradi» [1].

So‘zlarni turkumlarga ajratishda, shuningdek, turli turkumlarga parchalab yuborilgan, ammo sintaktik mohiyat e’tibori bilan yagona guruhga jamlash zarurati ko‘rinib qoladigan holatlar ham uchraydi.

Masalan, o‘z vaqtida rus tilida «sostoyanie» turkumini ajratish lozimmi yoki yo‘qligi katta munozaraga sabab bo‘lgan edi [2]. Bunday so‘zlar turli turkumlarda uchrashi (masalan, otda: nedosug, len; sifatda: rad, gorazd; ravishda: skuchno, veselo...), ammo sintaktik mohiyati bir xil ekanligiga I.G.Miloslavskiy alohida e’tibor bergan [3].

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Keyingi davr o‘zbek tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlar ana shu xil so‘zlarning o‘zbek tilida ham mavjudligi va tabiatan rus va boshqa slavyan tillaridagi ayrim tilshunoslar ajratuvchi «sostoyanie» turkumiga yaqin kelishini ko‘rsatdi.

So‘z-gaplar tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqotlar o‘zbek tilshunosligida anchagina bo‘lib, xususan, bu borada ish olib borgan tadqiqotchilardan B.O‘rinboev, E.Shodmonov, S.Usmonov, R.Sayfullaev, G‘.Zikrillaev kabilarni sanab o‘tish lozim. Yangi qarashlar asosida yaratilgan R.Bobokalonovning tadqiqoti ancha diqqatga sazovor. Bu xil birliklar talqinida u ancha ilgari ketgan. Shu paytgacha ma’lum qarashlarda so‘z-gaplarning asosan funksional- sintaktik tomoniga e’tibor berilgan bo‘lsa, R.Bobokalonov ham funksional, ham semantik jihatiga e’tibor bilan yondashadi.

Semantik-funksional shakllangan so‘z-gaplar kesimlik ko‘rsatkichlari (Rm) ni ololmasa-da, gap bo‘lib kelaveradi. Chunki Rm ifodalovchi ma’nolar (N, M, R, T) so‘z gaplarning semantik strukturasida mujassamlangan bo‘ladi *«... bu ma’nolarning yetakchiligi va bo‘rttirilganligi quyidagi darajalardadir:*

1.Modallarda – (M N R T); 2. Undovlarda – (T M N R); 3. Tasdiq-inkorlarda – (N R T M); 4. Taklif-xitoblarda – (R T M N).

S F Sh S G tarixiy kategoriya bo‘lib, bunday gaplar doimiy taraqqiyotdadir. Shuning uchun sof so‘z-gaplar, so‘z-gaplashgan, so‘z- gaplashayotgan, so‘z-gapsimon kabi turlarga egadir».

Tadqiqotchining fikricha, bunday birliklar mazmuniy tizimida kesimlik ma’nolari alohida sema sifatida mavjudligi bilan, kesimlik ma’nolari Rm vositasida kiritiluvchi boshqa leksemalardan tubdan farq qiladi: *«Shu bois tilning leksik va grammatik sathlari birliklari orasida ularning o‘rni o‘ziga xosdir. Bu xoslik shundaki, tilimizdagi leksemalarning juda ko‘pchiligi xoslangan sintaktik funksiyaga ega emas. Chunonchi, ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe’l, taqlidlar kabi so‘z turkumlarining sintaktik qobiliyati gapning istagan bir bo‘lagi vazifasida kela olishi bilan belgilansa, bog‘lovchi, ko‘makchi, qisman yuklamalarning sintaktik mohiyati sintaktik aloqani ifodalashda ko‘rinsa, so‘z-gaplar shunday leksemalar guruhini tashkil etadiki, ular gap (yoki uning markazi) vazifasida kelishga xoslangan. Shuning uchun o‘zbek tilida so‘z turkumlarini mustaqil so‘zlar, yordamchi so‘zlar va so‘z-gaplar sifatida uch katta guruhga ajratish ma’qul»*.

Demak, u so‘zlarni turkumlarga ajratishda, o‘zi alohida ajratib ko‘rsatmasada, «kesimlikni ifodalash» belgisini ham kiritadi. Ya’ni leksemalar kesimlikni ifodalashda maxsus ko‘rsatkichlarga muhtoj va muhtoj emasligiga ko‘ra ikki guruhga ajralishi mumkin ekan. Bunday ko‘rsatkichlarga muhtoj bo‘lmagan birliklar IO tarzida aynan o‘sha rus tilshunoslari «sostoyanie» turkumi deb atagan kategoriyaga yaqin keladi. Ammo rus tilshunosligida «sostoyanie» yoki holat turkumining ajratilish- ajratilmasligi oxiri hammaga maqbul yechimga kelmaganidek, o‘zbek tilshunosligida ham bunday yechim yo‘q.

Faqat bu emas, boshqa ko‘plab «taklif etilgan» so‘z turkumlari ham an’anaviylari darajasida keng tarqalmadi va tan olinmadi. Masalan, Ye.S.Smushkevich ingliz tilida modal so‘zlar, T.I.Smolyanskaya fransuz tilida determinativ, R.Qo‘ng‘urov va A.Tixonov o‘zbek tilida tasviriy so‘zlar alohida- alohida turkum ekanligini ko‘rsatib o‘tgandilar.

Buning, albatta, o‘z sabablari bor. Eng birinchi ob’ektiv sabab so‘zlarni turkumlarga ajratish mezonlarining o‘zi hammaga ma’qul variantda ishlab chiqilmagan. Yuqorida aytib o‘tilgan mantiqiy noizchilliklardan tashqari hatto bu mezonlar miqdori borasida ham tilshunoslarni hamfikr deb bo‘lmaydi.

Masalan, A.Ya.Bauder klassiklashib qolgan uchta mezonga o‘zining oltita mezonini qarshi qo‘yadi:

– so‘zning morfologik kategoriyalari;

– so‘z shakllari tizimi (paradigmatika plani);

– boshqa guruhdagi (turkumdagi) birliklar bilan aloqasi (sintagmatika plani);

– gapdagi vazifasi;

– so‘zning morfem tuzilishi;

– so‘zning farqlovchi ma’nosi.

Uning fikricha, ushbu mezonlar universal bo‘lib, ular asosida rus tilida quyidagi so‘z guruhlarini ajratish mumkin:

– nominativ so‘zlar guruhi (predmetni anglatuvchi so‘zlar; jarayonni anglatuvchi so‘zlar: sifatdosh, ravishdosh; belgini bildiruvchi so‘zlar: sifat, ravish; holat kategoriyasi; miqdor bildiruvchi so‘zlar). Ularning funksional o‘rinbosari olmoshlar bo‘lishi mumkin;

– sub’ektiv – relyativ so‘zlar sinfi (sub’ektiv – modal so‘zlar (modal so‘zlar), sub’ektiv – emotsional so‘zlar (undovlar));

– ob’ektiv – relyativ so‘zlar sinfi (yuklamalar, ko‘makchilar, bog‘lovchilar).

Aslida so‘zlarni turkumlarga ajratish mezonlari, umuman so‘z turkumlari va bevosita so‘zga bo‘lgan qiziqish o‘tgan – XX asrning 50-yillaridan boshlab benihoya kuchaygan edi. Bu qiziqishning, aniqrog‘i, haqiqiy ilmiy tadqiqotlar oqimining paydo bo‘lishini haqli ravishda *«Til haqidagi yangi ta’limot» 1952 yilda tilshunoslik masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan munozaradan so‘ng sobiq sovet tilshunosligidagi hukmron mavqedan ketgach, tilshunoslikning eng muhim masalalari bo‘yicha yirik ilmiy anjumanlar o‘tkazish, olimlarning diqqat markazini o‘n yillarcha ishlanmay qolib ketgan o‘tkir lisoniy muammolarga qaratish harakati boshlan...»*ganligi bilan bog‘lash mumkin.

Xususan, 1954 yilda SSSR FA Tilshunoslik institutida o‘tkazilgan munozara ham shu jumladandir. Ushbu anjumanda so‘zga chiqqan olimlar so‘z turkumlariga doir qator muammolar bilan bir qatorda so‘zlarni turkumlarga ajratish mezonlari ham yetarli darajada ishlanmaganiga alohida e’tibor berdilar.

Xususan, E.V.Sevortyan so‘zlarni turkumlarga ajratishda an’anaviy uch mezon tarafdori ekanligini ko‘rsatdi. T.A.Bertagaev va T.S.Sharadzemidze morfologik mezonga, O.P.Sunik grammatik xususiyatga, V.M.Jirmunskiy genetik tomonga alohida e’tibor lozimligini ta’kidlab o‘tadilar.

So‘z turkumlarini ajratish mezonlari borasida munozara ikkinchi – 1965 yili Leningradda o‘tkazilgan anjumanda ham yechimini topmadi. Turli taniqli olimlar so‘zlarni turkumlarga ajratishning turli mezonlarini taklif qilib chiqdilar. Masalan, V.M.Jirmunskiy quyidagi mezonlarni zaruriy deb hisoblaydi:

1) leksik-semantik ma’nolari;

2) grammatik belgilari;

3) tarixiy genetik xususiyatlari.

O.P. Sunik an’anaviy mezonlarni tanqid qiladi va yana asosan grammatik mezonlarga urg‘u beradi. Uning fikricha, so‘zlarni turkumlarga jamlashda aynan

ularning umumiy grammatik jihatlari asos bo‘ladi, formal va leksik- semantik jihatlari esa ahamiyatsizdir.

Aynan semantik mezonni birinchi navbatga qo‘ygan qarashlar ham mavjud. Bu sohada M.V.Panovning fikrlari diqqatga sazovor. Uning fikrlaridagi original jihat shundaki, u qo‘shimchalarga alohida e’tibor bilan qaraydi. Shuningdek, odatda nazarda tutilganidek, ularning shakllanishiga emas, mazmuniga sinchkovlik bilan yondashadi. Rus tilining tabiatdan kelib chiqib qaralganda, uning fikrlari, darhaqiqat, ancha asosli. Jumladan trus, trusit, truslivыy so‘z shakllari umumiy o‘zakka ega bo‘lsa-da, bitta so‘z turkumiga kira olmaydi. Yoki, aksincha, pisali – puchalo, sonnыy – tolknu, morojenoe – bolshoy so‘zlari bir xil grammatik shaklga (-l-, -n-, -oe) ega bo‘lsa-da, turli turkumlarga kiradi. Bu esa qo‘shimchalarning ham so‘zlarning turkumlarga taqsimlanishidagi o‘rni, aynan semantik xususiyatiga ko‘ra, anchagina ekanini ko‘rsatadi [4]. Uning tasnifi poydevorida nominatsiya jarayonidagi vazifa yoki umumiy ma’no turadi. U protsessuallik, belgilik, ob’ektga bevosita va bilvosita munosabat kabi funksiyalarni ajratadi. Boshqa qator farqlar esa so‘z turkumlari tasnifi uchun ahamiyatli emas, deb hisoblaydi. Qo‘shimchasida yuqorida ko‘rsatilgan belgilar bo‘lmasa, bu holat ot turkumiga ishora qiladi. Biroq, ko‘rinadiki, bunda ot (imya suщestvitelnoe) turkumi nihoyatda kengayib, xususan, son ham uning doirasiga kirib ketadi.

M.V.Panovning ushbu qarashlari A.M.Peshkovskiyning shu sohadagi qarashlariga juda o‘xshash. O‘z vaqtida A.M.Peshkovskiy ham rus tilida so‘z turkumlarini ajratishga funksional-semantik jihatdan yondashgan edi. Uning fikricha, rus tilida to‘rtta mustaqil so‘z turkumi: ot, sifat, fe’l, ravish – bor. jihatdangina qonuniydir. Chunki «naperegonki» ravish sifatida ot – predmet (beg) ga bog‘lana olmaydi. Bunday holatlar, ya’ni ravish otning – premetning belgisi bo‘lib kelgan holatlar juda ko‘p uchraydi.

O‘zbek tilida ham xuddi shu holatni ko‘rish mumkin. Ravish va sifatlarning o‘zaro bir-birlarining vazifalarida kela olishlariga tilshunoslar doimo e’tibor berishgan [5].

Natijalar. O‘zbek tilida ham xuddi shu holatni ko‘rish mumkin. Ravish va sifatlarning o‘zaro bir-birlarining vazifalarida kela olishlariga tilshunoslar doimo e’tibor berishgan1.

Ko‘rinadiki, semantik jihat asos qilib olinganda (mantiqan yagona mezonning tasnifga tatbiq etilishi juda qonuniy bo‘lsa-da), muammolarning mavjud bo‘lmasligi uchun faqat shu yetarli emasligi sezilib qoldi.

Shunga ko‘ra boshqa xil mezonlar tasnifning to‘la-to‘kis bo‘lishiga imkon yaratadi, degan xulosaga kelish mumkin. Xususan, morfologik mezon. I.G.Miloslavskiy tasnifning morfologik tamoyili ikki xil bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi:

1. Bir xil morfologik kategoriyalar jamligi.

2. Paradigma a'zolarining bir xilligi.

Birinchi xil holatda leksemalarni tasniflash uchun ularda bir xil morfologik kategoriyalarning aks etishi asos qilib olinadi.

Xususan, o'zbek tilida daraxt, odam, koinot leksemalari kelishik, son, egalik kategoriyalarini aks ettira olishi bilan bitta turkumga kiradi va,

masalan, daraja ko'rsatishi bilan farq qiluvchi sifatga qarama-qarshi qo'yiladi. Ammo bu o'rinda ham muayyan qiyinchiliklar tug'iladi. Bu muammoli holatlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

1. Bir guruhga tushish shubhasizdek tuyulgan leksemalar morfologik kategoriyalarni aks ettirishda o'zaro mos kelmay qolishi.

2. Bir leksemaning turli so'zshakllari turlicha morfologik o'zgarishlarga uchray boshlaganda.

3. Leksemaning yagona so'zshakli bo'lganda.

Xulosa va munozara. An'anaviy mezonlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularni ayrim-ayrim holda ham, birgalikda ham qo'llash yetarlicha natija bermaydi va so'z turkumlarining ontologiyasini ochib berishda yetarli emas.

H.G'.Ne'matov shu kabi jihatlarni hisobga olib quyidagicha xulosaga keladi: *«...so'z turkumlarining semantik, morfologik va sintaktik jihatlari bir-biridan kelib chiqmaydi va birlik hosil qilmaydi. Bu xususiyatlardan har biri so'z turkumining alohida olinishida tekshiruv asosi bo'lishi mumkin, ya'ni so'z turkumlarining uch qator: semantik, sintaktik, morfologik belgiga ko'ra oppozitsiyalarini ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Ana shu holatdagina formal mantiqning tasnif asosi yagona bo'lishi haqidagi rioya qilinishi til faktlariga dialektik mantiq metodlarini tatbiq qilishning zaruriy sharti bo'lgan asosiy qoidasi buzilmaydi»* [7].

O'zbek tilshunosligida ushbu qarash maxsus tadqiqotlarda rivojlantirildi va bunday tadqiqotlar hozir ham davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Милославский И. Г. Морфологические категории современного русско го языка. – М.: Просвещение, 1981. – С.41.

2. Исаченко А. В. О возникновении и развитии «категории состояния» в славянских языках // ВЯ. – 1955. – №6. Шапиро А. В. Естҳ ли в русском языке категория состояния как часть речи // ВЯ. – 1955. – №2.

3. Bobokalonov R. R. O'zbek tilida semantik-funksional shakllangan so'z-gaplar: Filol. fanlari nomzodi... dis. avtoref. – Toshkent, 2000. – 19 b.

4. Панов М. В. О частях речи в русском языке. – Научные доклады высшей школы // Филолог. наука. – 1960. – №4. – С. 60-71.

5. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 1975. – B. 271-272, 528.

6. Nurmonov A. va boshq. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. – B. 149-150.

7. Нигматов Х. Г. Функционалная морфология тюркоязычных памятников XI – XII в.в. – Тошкент: Фан, 1989. – С. 26.

TURLI TILLARDAGI BIR XIL SEMANTIK MAZMUNGA EGA ISMLAR

Abduhakimova M.K.
Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: semantik mazmun, tillararo o'xshashlik, etimologiya, antropologiya, ismlar, madaniy kontekst, tilshunoslik, konnotatsiya, lingvistik tadqiqot, o'xshash ma'no.
Ключевые слова: семантическое содержание, межъязыковое сходство, этимология, антропология, имена, культурный контекст, лингвистика, коннотация, лингвистические исследования, сходное значение.
Key words: semantic content, cross-linguistic similarity, etymology, anthropology, names, cultural context, linguistics, connotation, linguistic research, similar meaning.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada "Turlı tillardagi bir xil semantik mazmunga ega ismlar" mavzusi muhokama qilinadi. Maqola turli tillarda mavjud bo'lgan va bir xil yoki o'xshash ma'noga ega bo'lgan ismlarni tahlil qiladi. Ismlarning semantik mazmuni, ularning etimologiyasi va madaniy kontekstda qanday o'zgarishi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, bunday ismlarning tilshunoslik va antropologiya sohalaridagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Tillararo o'xshashliklar va farqlar, shuningdek, bunday ismlarning qo'llanilishidagi konnotatsiyalar ham muhokama qilinadi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье обсуждается тема «Имена с одинаковым семантическим содержанием в разных языках». В статье анализируются имена, существующие в разных языках и имеющие одинаковое или схожее значение. Обсуждается семантическое содержание имен, их этимология и то, как они меняются в культурном контексте. Также рассматривается значение таких названий в области лингвистики и антропологии. Также обсуждаются межъязыковые сходства и различия, а также коннотации в использовании таких названий.
SUMMARY:
This article discusses the topic "Names with the same semantic content in different languages". The article analyzes names that exist in different languages and have the same or similar meaning. It discusses the semantic content of names, their etymology and how they change in cultural context. It also examines the significance of such names in the fields of linguistics and anthropology. Cross-linguistic similarities and differences, as well as the connotations in the use of such names, are also discussed.

Kirish. Turli tillardagi bir xil semantik mazmunga ega ismlar - bu til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini ko'rsatuvchi muhim fenomen. Bunday ismlar ko'pincha qiyosiy tahlil va tarjima jarayonlarida ko'zga tashlanadi. Tillar orasidagi bu olib keladigan o'xshashliklar, bir qator sabablar bilan izohlanadi, masalan, tarixiy aloqalar, madaniy o'xshashliklar yoki universal insoniy tajribalar. Turli tillarda bir xil ma'noga ega bo'lgan ismlar ko'plab sohalarda qo'llaniladi.

Masalan, ko‘plab xalqlar o‘z tarixlarida qahramonlarga yoki diniy shaxslarga o‘xshash ismlar bergan. Bu kabi misollarga Misr, Gretsiya, va Rimdagi qadimiy mitologiyalardagi shaxslar kiritiladi. Misol uchun, "Zeus" (yunon) va "Yupiter" (rim) nomlari bir xil semantik mazmunga ega, ya'ni, ulardan har biri osmon va sharaf, rahbariyat bilan bog‘liqdir. Yana bir misol, “ahmad” ismi. Bu ism turli tillarda, masalan, arabcha, turkcha, forscha va hatto o‘zbek tilida ham keng tarqalgan bo‘lib, "maqtovga sazovor" ma’nosini anglatadi. Bu ismlar orasidagi o‘xshashliklar, ularning boshlang‘ich ma’nosidan kelib chiqadi va ta’lim, diniy e’tiqod va madaniy o‘zaro aloqalar orqali tarqalgan. Turli tillardagi bir xil semantik mazmunga ega ismlarning o‘rganilishi, tilshunoslar uchun juda qiziqarli va foydali ma’lumotlarni taqdim etishi mumkin. Bunday ismlar, tilning barcha jihatlarini - fonetik, morfologik va sintaktik - har tomonlama o‘rganishga yordam beradi. Nilufar, Lotus, San’ato kabi ismlar, turli madaniyatlarda o‘xshash ma’noga ega, lekin ularning talaffuzlari va yozilishi farqlanadi, bu esa ularning madaniy kontekstiga qarab o‘zgaradi. Bundan tashqari, bunday ismlar tarjima jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Tarjimon uchun bir xil semantik mazmunga ega so‘zlarni tanlash, ayniqsa, madaniyatlararo muloqotda muhimdir. Masalan, "muhabbat" so‘zi turli tillarda juda ko‘p sinonimlarga ega, lekin semantik mazmuni bir xil. Bu holat til va madaniyat o‘rtasida uzviy aloqalar mavjudligini ko‘rsatadi. Bunda tilshunoslar uchun o‘rganish jarayoni yanada kengayadi. Ular bunday semantik sifatlarini tekshirish orqali, tillarning qanday ijtimoiy va madaniy kontekstlarda tarqalishini tahlil qilishlari mumkin. Bu esa o‘z navbatida, har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning madaniy kontekstlar bilan o‘zaro ta’sirini tushunishga yordam beradi. Shu bois, turli tillardagi bir xil semantik mazmunga ega ismlar, nafaqat tilshunoslik sohasida, balki boshqa sohalarda ham, masalan, psixologiya va madaniyatshunoslikda, ko‘plab tadqiqotlar olib borishda muhim ahamiyatga ega. Ular boshqa xalqlardan, madaniyatlardan va tillardan kelgan tajribalarni tushunishda ko‘makchi bo‘ladi. Turlilar bir xil semantik mazmunga ega bo'lgan ismlar – bu, ayniqsa, o‘zaro bog‘liq yoki bir-biriga ta’sir etuvchi kontseptsiyalar, g‘oyalar yoki fikrlar orqali bog‘lanadigan nomlardir. Bu xil ismlar, odatda, o'xshash ma’nolarni, hissiyotlarni yoki mavzularni ifodalashda ishlatiladi. Bunday nomlar tili va madaniyatda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning semantik ma'nolari bir-birini to‘ldiradi. Misol uchun, “yaqinda” va “tez orada” kabi so‘zlar, vaqtning o‘zgarishi va yaqinligini tasvirlaydi, lekin ularning konteksti bir xil – vaqtni o‘lchash va unga taalluqli his-tuyg‘ularni ifodalaydi. Xuddi shunday, “tinchlik” va “sulh” so‘zlari ham bir xil ijtimoiy va siyosiy kontekstda ishlatilishi mumkin, ammo har biri o‘ziga xos nuqtai nazar yoki kontekstni hisobga oladi. Bunday semantik izomorfizmlarni o‘rganish, albatta,

til va tilshunoslik, psixologiya, madaniyatshunoslik kabi sohalarda qiziqarli natijalarga olib keladi.

Adabiyotlar tahlili. Turli tillardagi bir xil semantik mazmunga ega ismlar mavzusida O‘zbekiston va chet el olimlari ko‘plab tadqiqotlar olib borgan. Ushbu bilim sohasida bir necha taniqli olimlar ish yuritgan.

O‘zbek olimlari orasida: Abdulaziz Qodirov - O'zbekiston Milliy Universitetining tilshunoslik fakulteti professorlaridan biri bo‘lib, u tillararo semantika va talqin sohalarida tadqiqotlar olib boradi. Uning ishlarida turli tillardagi sinonimlar va ularning madaniy kontekstdagi ta’siri keng o‘rganilgan. Dilfuza Xudoyberdiyeva - O‘zbekiston Milliy Universitetida o‘qituvchi sifatida til va madaniyat doirasida ko‘plab maqolalar yozdi. U globalizatsiya jarayonida tillar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni tadqiq qilishga qiziqadi. Jasur Abdurazzokov - O‘zbekistonda psixolingvistika sohasida faol ishlaydigan olim. U turli tillardan kelib chiqayotgan semantik o‘xshashliklar, xususan, ismlar va ularning madaniy ahamiyatini tahlil qiladi.

Chet el olimlari orasida: Evy Elisabeth Schmitt - Germaniyada til va madaniyat tadqiqotchisi, u ko‘plab maqolalarida tilshunoslik va antropologiya aloqalarini o‘rganadi. Uning ishlari turli tillardagi semantik ko‘tarishlarni tahlil qilishga qaratilgan. Anna Wierzbicka - Avstraliyalik lingvist, u semantik tahlillar va leksikografiya sohasida mashhur. Uning "Natural Semantic Metalanguage" konsepsiyasi til o‘rtasidagi o‘xshashliklarni ochib berishga yordam beradi. Geoffrey Leech - Britaniyalik lingvist, u til va semantika, shuningdek, madaniy lingvistika borasida muhim tadqiqotlar olib boradi. Uning ishlari turli tillar va madaniyatlarda bir xil semantik mazmunga ega ismlarning o‘rganishiga bag‘ishlangan. Ushbu olimlar turli tillardagi ismlarning semantik tarkibini o‘rganish va ularning madaniy kontekstda ahamiyatini aniqlashda muhim hissa qo‘shgan. Ularning tadqiqotlari, tilshunoslik va madaniyatshunoslik o‘rtasidagi aloqalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Turli tillardagi ismlarning semantik o‘xshashligini o‘rganish. Ismlarning ma’no jihatdan qanday umumiylik yoki farqlarni ko‘rsatishini aniqlash. O‘zbek va xorijiy tillarda semantika, leksikologiya va kontrastiv tilshunoslik sohasidagi ilmiy manbalarni o‘rganish. Ilgari olib borilgan tadqiqotlar va nazariyalar bilan tanishish. Maqsadga muvofiq tillardan semantik jihatdan bir xil mazmunga ega bo‘lgan ismlarni tanlab olish. Lug‘atlar, korpuslar, ma’naviy madaniyat manbalari, so‘zlarni kontekstda qo‘llanishini yig‘ish. Olingan ma’lumotlar asosida semantik o‘xshashliklar va farqlarni aniqlash. Madaniy kontekstning ta’sirini ko‘rsatish. Tilda bir xil semantik mazmunga ega ismlarning madaniy va lingvistik ahamiyatini umumlashtirish. Kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash.

Tahlil va natijalar. Ismlar, har qanday tilning asosiy leksik birliklari bo‘lib, ularning ma’nosi, konteksti va qo‘llanilishi tildagi semantik boylikni ifodalaydi. Har bir tilda mavjud bo‘lgan ismlar va ularning ma’nolari aqlli ravishda turli xil shakllarda tashkil etiladi. Ushbu maqolada men bir xil semantik mazmunga ega bo‘lgan ismlarni turli tillarda tahlil qilib, ularning mohiyatini, o‘zaro munosabatlarini va qo‘llanish kontekstini ko‘rsatib beraman. Ismlar o‘ziga xos semantik mazmunga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, "suv" so‘zi ko‘plab tillarda (o'zbek tilida "su", ingliz tilida "water", fransuz tilida "eau") bir xil mazmunga ega: u suyuq holatda mavjud bo‘lgan va hayot uchun zarur bo‘lgan moddani anglatadi. Har bir tilning o‘z grammatik qoidalari va fonetik xususiyatlari mavjud, lekin ularning semantik mazmuni bitta: suv hayotni qo‘llab-quvvatlovchi asosiy modda sifatida qabul qilinadi. Turli tillardagi ismlar, odatda, o'sha tilga mansub madaniyat va an'analarni aks ettiradi. Misol uchun, o‘zbek tilidagi "bosh" so‘zi (inglizchada "head") nafaqat anatomik biror narsani anglatadi, balki boshqa kontekstlarda ham ko‘plab ma’nolarni o‘z ichiga olgan. Bosh so'zi jamiyatda rahbarlik, fikr yuritish va boshqaruvni ifodalovchi bir holat sifatida qo‘llaniladi. Aynan shu jihat ismlarning semantik boyligini ko‘rsatadi. Turli tildagi ismlar ko‘plab ko‘chma ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, "oy" so‘zidan farqli o‘laroq (Uzoqdan keladigan yorug‘lik manbai sifatida), ingliz tilida "moon" so‘zi san’at, romantik va doimiylik tushunchalari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bunday ko‘chma ma’nolar tilning semantik jihatdan boyligini oshiradi va ularni o‘rganish jarayoni tilda mavjud bo‘lgan o‘xshashliklar va farqlarni ko‘rsatadi. Ba’zi ismlar tovushlarni ifodalovchi onomatopoeik so‘zlardan oluşadi va bu ko‘rsatilgan semantik mazmunni kuchaytiradi. Masalan, o‘zbek tilidagi "chika" (quvnoq ovoz) va ingliz tilida “buzz” (asalarilarning tovushi) so‘zlari o'zlariga xos tovushlarni anglatadi. Ular ma’lum bir jarayon yoki voqeani ifodalashda yordam beradigan qulay kontekstni taqdim etadi. Turli tillardagi bir xil semantik mazmonga ega bo‘lgan ismlarning qiyosiy tahlili orqali ularning yaratilishida madaniyatning ahamiyati namoyon bo'ladi. Misol uchun, o‘zbek va ingliz tillarida “shahar” (city) so‘zi nafaqat joy-lashishni anglatadi, balki muntazam ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy faoliyatlar bilan bog‘liq jarayonlarni ham o‘z ichiga oladi. Raqobatni, qiyinchiliklarni, taraqqiyotni va o'zgarishlarni ifodalovchi shahar so‘zi, ikki til o'rtasidagi barqaror munosabatlarni ko'rsatadi. Turli tillardagi bir xil semantik mazmunga ega ismlar o‘rganilganda, bizning yurtimiz va jamiyatimizni to‘g‘ri anglashimizga yordam beruvchi ko‘plab davomiy madaniy va til aloqalariga duch kelamiz. O'zaro munosabatlar, bo'linishlar va erishilgan farqliliklar, jamiyatimizda o'rganilmagan lahzalarni ochishimizga yordam berishi mumkin, ular esa kelajakda yanada chuqur tahlil qilishimizga olib keladi. Turli tillardagi ismlarning semantik tahlili, birlashuv, farqlilik va o'sish umidlarini

keltirib chiqaradi. Ular orqali biz tildagi boylikni, madaniyat va an'analarni yanada yaxshiroq tushunamiz va ko'proq ulanishlar o'rnatamiz. Shuningdek, ismlarning mazmuni va ular o'rtasidagi bog'lanishlar, insoniyatning umuminsoniy tajribasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa. Odamlar o‘z fikrlaridagi va hissiyotlaridagi o‘zgarishlarni ifodalashda bunday sinonimlardan foydalanish orqali bir xil ma’noni turli xil shakllarda taqdim etishga harakat qiladilar. Shu bilanoq, tildagi ismlarning bunday xilma-xilligi ular tahlil qilinayotgan kontekstga ko‘ra o‘zgarishi mumkin. Semantik izohlar o‘rganilganda, shuningdek, metaforik va mantiqiy bog‘lanishlar ham izlanadi. Masalan, “yo'l” va “sariq” so'zlari, o'zaro bog'liq bo'lgan ko‘plab ma'nolarda ishlatilishi mumkin: biri sayohat va o'tish haqida, ikkinchisi esa rang va estetika haqida. Bu bog‘lanishlar odamlar orasida madaniy va fikriy aloqalarni rivojlantiradi, shuningdek, umumiy ma’noni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Turlilar bir xil semantik mazmunga ega bo‘lgan ismlar, til va kommunikatsiya jarayonlarida ko‘plab ahamiyat kasb etadi. Bular tilning boyliklarini, fikrlar va hissiyotlar o‘rtasidagi aloqalarni to‘g‘ri tushunishga yordam beradi. Semantik izlanishlar esa bizning tildagi ifodalarimizni yanada aniq va ma’noli qilishga o‘rganishda muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, ular tili o‘rganish, adabiyot va san’at kabi sohalarda murakkab g‘oyalarni tushunishga yordam beradi. Ishonch bilan ayta olamizki, bir xil semantik mazmunga ega ismlar, tilning kuchi va go'zalliklarini namoyon etadi. Bu esa, avvalambor, madaniyatingiz, yurtingiz, tarixingiz va an’analaringiz haqida ko‘proq ma'lumot olish imkonini beradi. Shu bilan birga, bunday ism va tushunchalar orqali o'zaro anglashuv va tushunish jarayonini yanada boyitish mumkin. Barcha bu omillar, oxir-oqibat, kelajakdagi til va madaniyat rivojlanishining poydevorini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduqodirov M. (2015). "Til va mantiq: Semantika asoslari". O'zbekiston Milliy Universiteti.

2. Axmedova, S. (2018). "O'zbek tilida sinonimlar va ularning semantik jihatlari". O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.

3. Mirzaeva D. (2016). "Leksikologiya va semantika: O'zbek tilidagi o'ziga xosliklar". Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti.

4. Nurmurodov R. (2017). "Grammatika va semantika: O'zbek va rus tillari taqqoslash". Tashkent: O'zbek Adabiyotini Tadqiq Qilish Markazi.

5. Salimov F. (2019). "Tilshunoslik asoslari: Semantika va leksikologiya". Fan va Texnologiyalar Universiteti.

6. Tashkent N. (2020). "Semantika nazariyasi va uning amaliyotda qo'llanilishi". O'zbekiston Davlat Sharqshunoslik Institute.

7. Yusupov A. (2014). "O'zbek tilida sinonim va antonimlar tahlili". O'zbekiston Milliy Universiteti.

SON KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING PRAGMATIK TAHLILI

Botirova V.
Andijon davlat chet tillari instituti magistranti

Tayanch so'zlar: pragmatika, semantik yuklama, kinoya, mubolag'a, baholash, emotsional-ekspressivlik, illokutiv va perlokutiv maqsad.
Ключевые слова: прагматика, семантическая нагрузка, ирония, преувеличение, оценочность, эмоционально-экспрессивность, иллокутивная и перлокутивная цель.
Key words: pragmatics, semantic load, irony, exaggeration, evaluativeness, emotional expressiveness, illocutionary and perlocutionary purpose.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqola o'zbek tilidagi son qismli frazeologik birliklarning pragmatik ya'ni tag ma'nolarini yoritishga qaratilgan. Bunda son komponentli iboralarning kommunikativ vazifasidan tashqari, emotsional-ekspressiv yuklamasi ham mavjudligi tadqiq qilinadi. Ularning emotsional-ekspressivlilik xususiyatlari kinoya, mubolag'a, urg'u berish, hazil yoki e'tiroz singari pragmatik ma'nolari haqida so'z yuritiladi. Ana shu ma'nolar turli xil misollar orqali tahlil qilinib, son asosli frazeologik birliklarning pragmatika orqali stilistik, va madaniy yuklamalari ochib beriladi.
РЕЗЮМЕ:
Целью данной статьи является пролить свет на прагматические, т. е. глубинные значения числовых фразеологизмов в узбекском языке. Помимо коммуникативной функции числовых фразеологизмов, изучается, имеют ли они также эмоционально-экспрессивную нагрузку. Их эмоционально-экспрессивные свойства обсуждаются с точки зрения прагматических значений, таких как ирония, преувеличение, акцент, юмор или возражение. Эти значения анализируются на различных примерах, а стилистическая и культурная нагрузка числовых фразеологизмов раскрывается через прагматику.
SUMMARY:
The aim of this article is to shed light on the pragmatic, i.e. deep meanings of numeral phraseological units in the Uzbek language. In addition to the communicative function of numeral phraseological units, it is studied whether they also have an emotional-expressive load. Their emotional-expressive properties are discussed in terms of pragmatic meanings, such as irony, exaggeration, emphasis, humor or objection. These meanings are analyzed using various examples, and the stylistic and cultural load of numeral phraseological units is revealed through pragmatics.

Kirish. Frazeologizmlar tildagi millatning o'ziga xosligini, tarixi, hayot tarzini lo'nda ifodalovchi tilning yorqin bezagi desak, yanglishmaymiz. Ular yildan-yilga og'izdan og'izga o'tib, millatlarning ongiga singib, ularning

tilidan mustahkam joy olgan. Frazeologizmlar nafaqat tilning milliy, madaniy va emotsional qatlamini, balki mantiqiy qatlamini ham namoyon qiladi. Son komponentli frazeologizmlar esa miqdor orqali iboraning ta'sir va ifoda kuchini yanada orttirishga xizmat qiladi. Ularning pragmatik vazifalarini o'rganish, qay maqsadlarda ishlatilishini aniqlashda turtki bo'ladi.

"O'zbek tilining frazeologik lug'ati" asoschisi Shavkat Rahmatullayev o'z asarlarining birida frazeologik birliklarning emotsional, baholovchi va funksional yuklamasi haqida ta'kidlab, ularni xalq og'zaki ijodining mahsuli sifatida tahlil qilgan .

Metodologiya va adabiyotlar sharhi. Maqola yozish jarayonida kompleks yondashuvlardan foydalanildi. Ya'ni, kontekst orqali tahlil qilish (kontekstual tahlil), taqqoslash usuli hamda matndan ajratib olish (deskriptiv yondashuv)lar qo'llanildi. Kontekst bo'yocha tahlil qilinganda, son asosli frazeologik birliklar turli matnlarda qanday yuklama bilan qo'llanilishi, taqqoslash usulida o'zbek tilidagi iboralar bilan boshqa chet tillardagi frazalarning stilistik, semantik va pragmatik jihatdan o'xshashliklari va farqlari, deskriptiv yondashuvda esa matndan ajratib olingan holda ularning ma'nosi xususida tahlil qilinadi.

Frazeologik birliklar bo'yicha turli xorij va o'zbek olimlari izlanishlar olib borib, muhim hissa qo'shganlar. Ulardan biri tilshunos R.Moon frazeologizmlarning kontekst ichida qanday ma'no kasb etishidan tashqari ularning metaforik (o'xshatish) hamda baholovchi singari qo'shimcha yuklamalari borligini o'rgangan. U yana ta'kidlaydiki, frazeologik birliklarning semantikasini o'rganishda kontekst hamda nutq vaziyati muhim ahamiyatga ega .

Boshqa bir tilshunos olim J.Sinclair frazeologizmlarni o'rganishda korpus lingvistikasini taklif qilib, aynan son orqali beriladigan mubolag'a, umumlashtiruvchi va ko'chma ma'nolariga e'tibor qaratgan .

O'zbek olimlaridan Qodirova G. O'zbek tilidagi frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlarini chuqur o'rganib, ularning illokutiv va perlokutiv kuchini va ularning kommunikativ o'rni haqida izlanishlar olib borgan . Bundan tashqari, frazeologizmlarning badiiy nutqdagi ifoda vositasi sifatidagi o'rni, ularning stilistik imkoniyatlari bo'yicha izlanishlar olib borgan boshqa bir o'zbek olimasi N.Mahmudova frazeologizmlarning kontekstdagi semantik yukalamasi katta ekanligi va stilistik boyitish katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tgan .

Muhokama va natijalar. Pragmatika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan biri bo'lib, ushbu termin o'tgan asrning 30-yillarida Charlis Morris tomonidan fanga kiritilib, semiotikani anglab yetish uchun sintaktika va

stilistikadan tashqari pragmatikaning o'rni katta ekanligini ta'kidlanadi. Uning fikricha pragmatika falsafa nuqtayi nazaridan o'rganilib, foydalanuvchilarning munosabatining ta'sirini o'rganuvchi soha sifatida baholanadi .

Son komponentli frazeologizmlar esa tarkibida son ishtirok etgan murakkab birikmalardir. Raqamlar ko'p yillar davomida faqatgin matematika sohasining aspekti sifatida o'rganilgan, ammo tilshunoslikda, ayniqsa, frazeologik iboralar tarkibida qo'llanilishi ularning o'z ma'nosidan tashqari qo'shimcha boshqa ma'nolarni, xususan, bo'rttirish, kinoya, umumlashtirish, istehzo kabi mazmunlarda pragmatik yuklama vazifalarini bajaradi. Ular vositasida so'zlovchi matematik ifodani emas, o'z munosabatini bildiradi, baho beradi. Misol uchun, "ming afsus", "bir umr" va "yetti uxlab tush ko'rish", "o'n marta aytmoq", "yuz marta aytmoq", "ming marta aytmoq" singari iboralarda axborot yetkazish bilan bir qatorda emotsional ta'sir etish, urg'u berish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Son tarkibli iboralar quyidagi asosiy vazifalarini bajarishini ko'rib chiqamiz: kinoya, mubolag'a (bo'rttirish, baholovchilik hamda emotsional expressivlik. Kinoya yoki ironiya yuklamasini bildiradigan frazeologizmlarda gapda bevosita ya'ni to'g'ridan-to'g'ri mano yetkazish emas, aksincha, bilvosita ma'no ustunlik qiladi. Masalan, "Boshini ikkita qilish" iborasida insonlarni turmush qurishlari yoki uylantirish ma'nosida qo'llaniladi. Agar bu ibora to'g'ridan-to'g'ri tushunilsa, bu iboradan tushuniladigan mazmun maqsadga muvofiq bo'la olmaydi. Yana bir boshqa misol "Bir tiyinlik foyda ko'rmaslik" iborasida biror bir ish yoki insondan hech nafi tegadigan emasligi nazarda tutililadi. Iboradagi "foyda" so'zi biznesdagi, sotuvchilikdagi foyda, daromad ma'nosini chetlab o'tib, majoziy ma'noda foyda, naf ma'nosiga ko'chib o'tadi.

Mubolag'a yoki giperbola funksiyasida frazeologik birliklarning pragmatik ifodalanishi ko'rib chiqadigan bo'lsak, ularda son orqali biror bir vaziyatning miqyosi oshirib ko'rsatiladi. Masalan, "marta aytdim" iborasida juda ko'p takrorlangan holat, ogohlantirish yoki da'vat ma'nosi yetkaziladi. Bunda so'zlovchi rostdan ham bir gapni ming marta aytganligi emas, balki takrorlayverib darg'azab bo'lganligi tushuniladi.

Frazeologizmlardagi sonlar biror bir inson yoki predmetga nisbatan baholash fuksiyasini ham amalga oshiradi. Bu baholash ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Misol tariqasida "Bir tiyinga arzimaydigan odam" iborasini keltirsak, unda insonning qanchalik qadrsiz ekanligi salbiy baholash orqali uzatiladi. "Bir so'zli odam" iborasida esa insonning o'z so'zida tura olishi, ishonchliligi, gapidan qaytmasligi nazarda tutiladi.

Emotsional-ekspressivlikni kuchaytirishda sonli frazeologizmlar so'zlovchining his-tuyg'ularini kuchli, ta'sirchan tarzda ifodalashiga yordam beradi. "Bir og'iz so'z aytmay" iborasida jimgina, befarq ranjigan holatni bildiradi. "Uch karra afsus qildim" yoki "Ming marta afsuslandim" deganda afsusning kuchli darajasini, pushaymonlikni ifodalanadi.

Frazeologik birliklardagi son komponentlar ko'pincha noaniqlik, mubolag'a, xalqona umumlashtirish kabi semantik yuklamalar bilan boyitiladi. Bu birliklar so'zlovchi nutqida illokutiv va perlokutiv maqsadga xizmat qilib, adresatga kuchli ta'sir o'tkazishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillardan shuni ko'rsatadiki, numerativli frazeologizmlar nafaqat grammatik birlik, balki kommukikativ-pragmatik vosita sifatida ham faol ishtirok etadi hamda bu birliklar orqali illokutiv niyat, ya'ni maslahat berish, tanbeh yoki ogohlantirish ifodalansa, perlokutiv ta'sirda tinglovchiga emotsional ta'sir o'tkazish ma'nolarini ham tashiydi. Bunday frazeologizmlar badiiy adabiyotda, turli nutq uslublarda, xalq og'zaki ijodida, publitsistik uslub va kundalik muloqotlarda keng qo'llaniladi.

Xulosa. Son komponentli frazeologizmlar o'zbek tilining lingvopragmatik tizimida muhim o'rin tutadi. Ular ma'lum bir semantik yuklama bilan cheklanib qolmay, balki nutqda turli kommunikativ maqsadlarni amalga oshirishda xizmat qiladi, jumladan, baholovchilik, kinoya, mubolag'a, umumlashtirish va emotsional-ekspressivlik kabi pragmatik vazifalarni bajaradi. Ular asosan real ma'nodan yiroq bo'lib, majoziy ma'noni ifodalaydi. Bundan tashqari, son komponentli frazeologizmlar ma'lum bir kontekstda illokotiv va perlokutiv maqsadga ega bo'lib, adressatga ongli va ongsiz tarzda ta'sir o'tkazib, ular xalq og'zaki ijodida, publitsistik, badiiy va so'zlashuv uslublarida keng foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullayev Sh., O'zbek tilining frazeologik iboralari. – T.: Fan. Toshkent, 1979.
2. Moon R., Fixed expressions and isioms in English: A Corpus-based approach, Oxford University Press, 1998.
3. Sinclair J., Corpus, Concordance, Collocation. Oxford Oxford University Press, 1991.
4. Qodirova G., Til birliklarining pragmatik tahlili. University nashriyoti, Toshkent, 2011.
5. Mahmudova N., Stilistik birliklar va ularning nutqiy xususiyatlari, O'zbekiston nashriyoti, Toshkent, 2003.
6. Morris Ch., Signification and Significance. A study of relations of signs and values. Cambridge, Massachusets: The M.I.T Press, 1964.

К ВОПРОСУ ОБ АДЕКВАТНОСТИ ПЕРЕВОДА ТЕОНИМОВ «АЛЛАХ, ТЕНГРИ, БОГ» НА РУССКИЙ ЯЗЫК В «БАБУРНАМЕ»

Алтмишева Ё.М.
Андижанский государственный
институт иностранных языков, доцент

Tayanch so‘zlar: diniy atama, Alloh, Tengri, xudo, adekvatlik, muvofiqlik, jadval, Qur’on.
Ключевые слова: религиозный термин, Аллах, Тенгри, бог, адекватность, соответствие, таблица, Куръан.
Key words: religious term, Allah, Tengri, God, adequacy, correspondence, table, Quran.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqola islomda mavjud bo‘lgan va lisoniy manzarada muhim o‘rin egallagan diniy so‘zlarning rus tilidagi tarjimalarida qayta yaratilishining adekvatligini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda xususan, “Alloh, Tengri, xudo” teonimlarini rus tiliga tarjima qilishning adekvatligi bilan bog‘liq ayrim masalalar ko‘rib chiqilgan. Asosiy e’tibor diniy terminlar atamasi tarjimasini tahliliga hamda religionumni to‘g‘ri qo‘llash masalasiga qaratilgan.
РЕЗЮМЕ:
Данная статья посвящена анализу адекватности перевода религиозной лексики, занимающий видное место в языковой картине, представленной в исламе и ретранслированной в русских переводах. В ней рассмотрены некоторые проблемы адекватности перевода на русский язык теонимов, в частности «Аллах, Тенгри, бог». Основное внимание уделено анализу перевода религиозных терминов и рекомендации по использованию данного религионима.
SUMMARY:
This article is devoted to the analysis of the adequacy of the translation of religious vocabulary, which occupies a prominent place in the ling It examines some issues of the adequacy of the translation of theonyms into Russian, in particular “Allah, Tengri, God”. The main attention is paid to the analysis of the translation of religious terms and recommendations for the use of this religious name.

Анализ адекватности перевода теонимов, занимающий видное место в языковой картине, представленной в исламе и ретранслированной в русских переводах, является актуальным в условиях повышения роли ислама в мировом сообществе. Основной задачей является определение тех понятий, которыми мы будем оперировать в процессе работы, а именно

исламская лексика. Понятия специальная лексика и терминологическая лексика (терминология) часто использовались в исследованиях ученых – узбекских и российских – (Дадабаев Х.А., Умархуджаев М.И.[7], Гринев-Гриневич С.В. и др.) практически как синонимы. Смешение понятий также наблюдается в работе В.С. Гринева-Гриневича: «Специальная лексика — совокупность лексических единиц (в первую очередь терминов) специальных областей знания, образующая особый пласт лексики» [3].

Словарь М.Э.Умархуджаева «Diniy atamalar va iboralar lug‘ati», в котором не ограничивается автор специальной лексикой одной религии и о чем свидетельствуют статьи словаря. Например: ajr, animizm, Vatikan, otashparast, samo’ и т.д. В словаре Ж.Омонтурдиева и А.Омонтурдиева “Толковый словарь духовно-религиозных терминов” [5] наряду с узбекским звучанием исламских терминов было предложено арабские варианты произношения, чем заслуживает внимание читателя. Религиозным терминам и фразам посвящен «Английско-узбекский словарь социально-религиозных терминов» Д.Рахимжанова и О.Мавланова [6].

Нужно отметить, что переводчик при воссоздании религиозной картины ислама использует готовые представления из своей религиозной практики. Транслятор при этом часто обращается к семантической компенсации, используя названия концептов из других религий. Это в первую очередь свойственно для выявления фактов, характерных для речи представителей страны языка источника и чуждых для другого языка. При переводе исламизмов встречаются сложности: из-за отсутствия прямых аналогов, многозначности исламских терминов, культурных и исторических различий между мусульманами и немусульманами и др.

По результатам сравнительного анализа становится ясным, что неточности в переводе «Бабурнаме» меркнут по отношению к мастерству переводчика, воссоздавшего дух эпохи, идиостиль автора, имён и атрибутов Аллаха. М.Салье точно передаёт смысл обращений к Аллаху с нулевым использованием Его имени. Содержание этих фраз и сочеаний понятно любому мусульманину, но восприятие смысла у русскоязычного читателя вызывает затрудения. Сравним: «(*Alloh, tengri, xudo* – А.Ё.) *sahladi, hech yeriga ozore yetmadi»* [2; с.124] / «… бог его сохранил, и ему нигде ничего не повредило» [1; с. 95]. Или же: *«Bu hushomadni inonib, bo ‘yniga fo ‘ta solib,* (*Allohga, tengriga, xudoga* – А.Ё.) *shukrlar qilibtur»* [2; с.134]. / «[Зуннун] поверил этой лести, повязал вокруг шеи полотенце и возблагодарил Аллаха» [1; с.104].

Сравним картины изображения качеств Аллаха и их передачу: *«Yuz shukr de* (Allohga, tengriga, xudoga – А.Ё.), Boburki, karimu g‘affor» (Щедрейщий, Прощающий и Скрывающий грехи – А.Ё.)» [2;с.211]. / «Сто раз будь благодарен, Бабур, ибо господь всепрощающий» [1; с.172]. В этом фрагменте настроение автора переходит переводчику. *«Yuz shukr de (Allohga, tengriga, xudoga* – А.Ё.)» мастер передаёт содержание религионима точь-в-точь, и читателю это понятно «Сто раз будь благодарен (Аллаху, тенгри, богу – А.Ё.).

Однако допущена неточность в передаче имени Аллаха ***Karim***. Мы упомянули выше о значении теонима как *Щедрый (Щедрейший)*. Понятно, что речь идет об Аллахе, но желательно подобрать более подходящий термин вместо термина ***господь***. Наш вариант перевода данного стиха:

«Сто раз будь благодарен, Бабур, Щедрейший, Прощающий Дал тебе Синд, Хинд и большое царство».

Случаи нулевого использования термина (т.е., без включения самого религионима) в передаче обращения ко Всевышнему имеет место в авторском тексте: *«Tengri taoloning inoyati bor ekandur, manga yangi boshdin jon bag‘ishladi. Muning shukrini ne til bilan qilg‘aymen»* [2; с. 218]. Для точной передачи дефиниции исламизма переводчик добавляет в контент отсутствующий религионим: «По милости великого господа случилось так, что мне снова дарована была жизнь. ***Благодарение Аллаху***, сейчас нет и следа болезни» [1; с.178].

Замена религионима ***Аллах*** в переводе на термин ***господь*** мы считаем не совсем адекватным исходя: 1) из этимологии данного термина (происхождение слова господь в этимологическом онлайн-словаре Фасмера М.: **Госпóдь**. Общеслав. Старое сложение *gostъ* (см. гость) и **podъ* < **potis*, идентичного лат. *pos* «могущий», латышск. *pats* «муж», *potēs* в греч. *despotēs* (см. деспот), *patti* в др.-прус. *waispatti* «госпожа» и т. д. *Господь* исходно — муж, хозяин (дома), принимающий гостей, посещение которых требовало жертвенного животного (ср. лат. *hostia* «жертвоприношение»). В значении «бог» — заимств. из ст.-сл. яз.); 2) русское «господь» восходит к общеславянскому корню gospodь, который представляет собой сложение индоевропейских основ gost (гость) и potis (могущий), то есть «полновластный хозяин»,«владыка». Известно, что первоначально слово «господь» означало «муж, хозяин, принимающий гостей, которые приносили ему в дар животного, драгоценности». В древнерусском *«господин»* – мужчина, глава семьи, властитель и производные от этого слова *госпожа, господствовать»*; 3) в христианстве имеется молитва, называ-

емая молитва Иисусова – обращение к Иисусу Христу (Иса алайхиссалам в Коране). Существует ее полная форма: «Господи, Иисусе Христе, Сыне Божий, помилуй мя грешнаго» [9]. Наблюдаем неточную передачу исламизма в «Бабурнаме»: *«… meni tanimadi yo urush iztirobidinmu edi, betahoshi yalang bozumga-o‘q qilich soldi, Tengri inoyati edi, sari mo‘yi kor qilmadi.*

Agar tig‘i olam bijunbad zi joy,

Naburrad rage to naxohad Xudoy.

Men bu duoni o‘qub erdim, aning xosiyatidin edikim, Tengri taolo bu mazarratni daf’ qildi va bu mutavvajjih bo‘lg‘on baloni raf’ qildi» [2; c.150] / «… не узнал меня и с размаху ударил шашкой по обнаженной руке. По милости божией, я ни на волос не пострадал.

Меч может сдвинуть мир со своего места,

Но не порежет ни жилки, пока не захочет господь.

Я [в то время] читал одну молитву, из-за которой господь (Бог – А.Ё.) — велик он! — и отвратил тогда от меня зло и устранил надвигающуюся беду» [1; с.118]. Дефиниции термина «господь» многозначны, имеет производные, в христианских молитвах уптребляется как обращение к (пророку) Иисусу Христосу (Иса алайхиссалам). Так как эти два теонима имеют разные дефиниции, то невозможно заменить словом **«Господь»** религионимы **«Аллах, Тенгри, худо, Илох»**. В современной русской языковой картине мира слово «господь» в основном используется в качестве обращения к Иисусу Христу, и у русскоязычного читателя с христанским, православным вероубеждением ассоциируется с образом Иисуса (пророка Исы – мир ему). Мы считаем, что в данном случае лексема «господь» употреблена неверно и требует корректировки. Это говорит о том, что транслятору необходимо знать вероубеждения народов мира, уметь анализировать и аутентично передавать религиозные действия персонажей произведения, выразить свое отношение к воззрениям представителей другой религии. В нашем исследовании мы часто встречаем в переводе устойчивые сочетания с компонентом Аллах, Бог. Во избежание тавтологии М.Салье использовал синонимы теонима Аллах, как поступил автор сочинения Бабур: *“Tengri taolo inoyati bila” [2; c.58] / «с божьей помощью» [1; c.58]; “Tengri taolo inoyati bila” [2; c.58] /«По милости всевышнего господа» [1; c.58]; “Tengri taolo” [2; c.43]/ «Аллах всевышний» [1; c.26]; “Tengri taolo” [2; c.150] /«господь — велик он! » [1; c.123]; “Tengri taoloning fazl karami bilan ” [2;c.72]/ «Великий господь по своей милости и благости» [1; c.87]; “Tengri raxmatiga bordi”[2; c.38]/ «отпра-*

вилась к милости Аллаха» *[1; с. 19]; "Tengri raxmatiga bordilar" [2;с..39]/ «преставилась к божьей милости» [1; с.21].*

Здесь наблюдается, что при передаче фразеологизмов с религиозным компонентом *Alloh, Tengri, xudoy, rob* и др. (бог, Владыка, всевышний, господь и др.) семантика устойчивых сочетаний сохранена. В тексте перевода встречаются разные варианты обращений к Аллаху и их переводов.

В результате статистического анализа, проведенного в нашем исследовании, выявлена высокая частотность религионима *Alloh, tengri, xudo(y), rob, iloh, yazdon – Аллах, господь, бог, Творец, создатель*, включая фразеологические единицы, в структуре которых использовано данное слово.

Таким образом, в результате анализа употребления слова Аллах и его смысловых вариаций при передаче на русский язык, проведенным в нашем исследовании, выявлена аутентичность трансляции содержания исламизма Аллах.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Бабур Захириддин Мухаммад. «Бабурнаме» (Записки Бабура). Перевод Салье М./ Общ.ред-я и доработка В.Рахмонова. – Ташкент: «Шарқ», 2008. – 242 с.

2. Бобур З.М. Бобурнома. А. Абдурашидов, Б.Алимовва бошқ. // П. Шамсиев, С. Мирзаев ва Э.Мано (Япония) нашрлари асосида. Қайта нашрга тайёрл.: С.Ҳасанов//Мас. муҳ.: В.Раҳмонов. – Т.: «Шарқ», АК, 2002. – 336 б.

3. Гринев-Гриневич С.В. Терминоведение: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Академия, 2008. – с.5.

4. Евангелие от Матфея. Synodal Translation of the Holy Bible in Russian Public Domain Language: русский (Russian). – 2022. – 28:19.

5. Омонтурдиев Ж., Омонтурдиев А. Маърифий-ирфоний истилоҳлар луғати. –Тошкент:Mumtoz so'z, 2014. – 252 б.

6. Раҳимжонов Д, Қодиров А., Собиров Д., Мавлонов О., Жўраев Ҳ. Инглизча-ўзбекча диний-ижтимоий истилоҳлар луғати. – Тошкент: Mavoraunnahr,2011. – 160 б.

7. Умархўжа М.Э. Диний атамалар ва иборалар. – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – 220 б.

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ЛЕКСИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ: СУЩНОСТЬ, СТРУКТУРА И ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ (НА ПРИМЕРЕ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА ДЛЯ СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ ТУРИЗМ)

Шабидинова З.И.
Преподаватель кафедры немецкого языка ЧДПУ

Tayanch so'zlar: leksik kompetentsiya, nemis tili, turizm, kasb-hunar ta'limi, turizm terminologiyasi, talabalar, muloqot usullari.
Ключевые слова: лексическая компетенция, немецкий язык, туризм, профессиональное обучение, туристическая терминология, студенты, коммуникативные методики.
Key words: lexical competence, German language, tourism, vocational training, tourism terminology, students, communication methods.

РЕЗЮМЕ:
Maqola “Turizm” yo‘nalishi talabalarida nemis tili bo‘yicha kasbiy leksik kompetensiyani shakllantirish masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. “Leksik kompetentsiya” tushunchasining nazariy asoslari, kasbiy yo‘naltirilgan kadrlar tayyorlash xususiyatlari, turizm sohasidagi leksik birliklarning turlari ko‘rib chiqiladi. Oliy kasbiy ta'lim sharoitida kompetentsiyani rivojlantirishga yordam beradigan uslubiy tavsiyalar va amaliy vazifalar taklif etiladi. Asosiy e'tibor kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli platformalar va haqiqiy materiallardan foydalanishga qaratiladi.
РЕЗЮМЕ:
Статья посвящена исследованию вопросов формирования профессиональной лексической компетенции по немецкому языку у студентов направления «Туризм». Рассматриваются теоретические основания понятия «лексическая компетенция», особенности профессионально ориентированного обучения, типы лексических единиц в туристической сфере. Предлагаются методические рекомендации и практические задания, способствующие развитию компетенции в условиях высшего профессионального образования. Делается акцент на использовании коммуникативных технологий, цифровых платформ и аутентичных материалов.
SUMMARY:
The article is devoted to the study of the issues of formation of professional lexical competence in the German language among students majoring in "Tourism". The theoretical foundations of the concept of "lexical competence", features of professionally oriented training, types of lexical units in the tourism sector are considered. Methodological recommendations and practical tasks are offered to promote the development of competence in the context of higher professional education. Emphasis is placed on the use of communication technologies, digital platforms and authentic materials.

Введение. Профессиональная лексическая компетенция является ключевым компонентом языковой подготовки студентов, обучающихся по направлению «Туризм». В современных условиях глобализatsii туристической индустрии и расширения международных контактов владение иностранными языками становится неотъемлемой частью профессионального успеха. Особенно востребованными являются специалисты, владеющие немецким языком, учитывая популярность немецкоговорящих стран (Германия, Австрия, Швейцария) как туристических направлений и деловых партнёров. В этой связи возрастает необходимость системного формирования у студентов умений оперировать специализированной туристической лексикой [1; с. 15–16]

1. **Теоретические аспекты профессиональной лексической компетенции.** В конце 90-х годов XX века в методике преподавания иностранных языков все более ярко проявляется тенденция, признанная исследователями первостепенной, - значимость лексики, как средства коммуникации, и роль объема словарного запаса для становления иностранной коммуникативной компетенции учащихся.

Понятие «лексическая компетенция» входит в структуру коммуникативной компетенции и означает способность правильно использовать и воспринимать слова и устойчивые словосочетания в устной и письменной речи. Согласно Н.Г. Савиной, профессиональная лексическая компетенция формируется на основе тематически организованной лексики, связанной с будущей профессией обучающихся [2; с. 34–36].

А.Б.Витоль писал: «…как не построишь дом без кирпича, так и не овладеешь языком, не усвоив необходимого количества слов».

Присутствие специальных заданий, ориентированных на оценку умений использования лексики в различных видах речевой деятельности, во всех формах международных экзаменов также свидетельствует о признании исключительной важности владения лексическим материалом.

Достижение высокого уровня развития лексической компетенции проявляется в том, что человек с легкостью использует большой лексический запас как при непосредственном, так и при опосредованном общении, адекватно употребляя фразеологические обороты, пословицы, поговорки, типичные для речи носителей языка.

Компетенция включает в себя:

- знание предметной терминологии;
- умение применять лексику в профессиональном контексте;
- знание грамматических и синтаксических конструкций, характерных для профессиональной речи;

- навыки распознавания и использования клише, часто употребляемых в профессиональной коммуникации.

В туристической сфере немецкий язык отличается богатством устойчивых выражений и специализированных терминов, отражающих культурные и правовые особенности ведения бизнеса. Поэтому овладение лексикой требует системного подхода.

2. **Особенности формирования у студентов направления «Туризм».** Развитие коммуникативной компетенции осуществляется благодаря формированию навыков и умений осуществления рецептивных и продуктивных видов речевой деятельности, в основе которых всегда лежит умение использовать соответствующие коммуникативной ситуации лексические единицы. Следовательно, развитие лексической компетенции является одной из главных задач в освоении иностранного языка. Лексика определяется как совокупность всех слов языка, его словарный состав. Ее составляют лексические единицы - слова и словосочетания. При этом основным компонентом лексического состава языка является именно слово, имеющее внешнюю и внутреннюю сторону. Под внешней или чувственной стороной слова понимается его зрительное или слуховое восприятие, а также артикуляторное или моторно-графическое представление. Внутренний или смысловой аспект слова связан с его семантикой и значением. При этом под воздействием речевой ситуатsii слово может приобретать дополнительный имплицитный смысл.

Особенность подготовки студентов по направлению «Туризм» заключается в том, что они осваивают иностранный язык не только как средство межличностного общения, но и как инструмент профессионального взаимодействия. Это требует введения в учебный процесс контекстуализированных заданий, максимально приближённых к реальным условиям деятельности в сфере туризма [3; с. 42].

На начальном этапе акцент делается на освоении базовой туристической терминологии: названия мест размещения, транспортных средств, объектов показа. Далее вводится лексика, связанная с обслуживанием клиентов, оформлением документов, маркетингом турпродукта, особенностями культурной коммуникатsii. Обязательным элементом является обучение лексическим клише для телефонных разговоров, проведения экскурсий, деловой переписки.

Кроме того, важно учитывать психолингвистические особенности студентов. Они лучше усваивают лексику, когда она вводится в интерактивной форме - через кейсы, деловые игры, симуляции рабочих ситуатsiй, использование видео и аудио.

3. **Структура профессиональной лексики в туризме.** Профессиональная туристическая лексика на немецком языке условно делится на несколько групп:

- **Общеупотребимая лексика, связанная с туризмом** (Hotel, Reise, Flug, Buchung);
- **Терминология гостиничного сервиса** (Einzelzimmer, Rezeption, Halbpension);
- **Экскурсионная лексика** (Führung, Sehenswürdigkeit, Eintrittspreis);
- **Лексика деловой переписки** (Anfrage, Bestätigung, Reservierung);
- **Устойчивые выражения:** „Wie kann ich Ihnen behilflich sein?“, „Das ist im Preis inbegriffen.“

Умение различать эти группы, использовать их в соответствующих контекстах и переключаться между формальными и неформальными регистрами языка является важным аспектом профессиональной подготовки [4; с. 59].

4. **Методические подходы к обучению.** Для формирования лексической компетенции эффективно используются следующие подходы:

- **Коммуникативный подход**, при котором студенты учатся применять лексику в реальных речевых ситуатsiях (диалоги, ролевые игры, проекты);
- **Контекстуальный подход**, предполагающий использование текстов и ситуатsій, приближённых к профессиональной среде;
- **Интерактивные технологии**, включая онлайн-платформы (Hueber, Cornelsen), мобильные приложения, видеоуроки, симуляторы;
- **Интердисциплинарный подход**, объединяющий лексическое обучение с курсами маркетинга, менеджмента, регионоведения [5; с. 99–102].

Важно также развивать навыки самооценки и саморефлексии — через портфолио, глоссарии, самостоятельные проекты.

5. **Примеры практических заданий.**

1. **Перевод терминов и клише с контекстуализатsіей:** Переведите и составьте предложения: „Vollpension“, „Anmeldung“, „Flughafentransfer“„Last-Minute-Angebot“, „Reiseroute“.

2. **Составление рекламного текста:** Напишите краткое описание турпродукта для немецкоязычного туриста (до 100 слов), используя не менее 10 терминов из темы «Активный отдых».

3. **Диалоговая практика:** Сыграйте ситуатsію: турист прибыл в отель и выясняет детали бронирования. Один студент — клиент, второй — админи-

стратор. Используйте фразы: „Haben Sie eine Reservierung?“, „Möchten Sie bar oder mit Karte bezahlen?“ и т.д.

4. **Анализ аутентичного текста:** Прочитайте отрывок с сайта туристической компании и ответьте на вопросы. Выделите глаголы, используемые в рекламной informatsii (z.B. erleben, genießen, entdecken).

6. **Значение цифровых ресурсов.** Цифровые ресурсы играют важную роль в лексическом обучении. Платформы типа DeutschTour, Cornelsen Digital, Lingolia, Goethe-Institut предоставляют аутентичные тексты, видеоуроки, тесты и интерактивные упражнения. Они позволяют:

- регулярно повторять лексику;
- слушать и воспринимать речь носителей;
- участвовать в виртуальных экскурсиях;
- формировать индивидуальные траектории обучения.

Это особенно ценно в условиях дистанционного или смешанного формата образования [5; с. 103].

Заключение. Формирование профессиональной лексической компетенции у студентов направления «Туризм» требует комплексного и целенаправленного подхода. Необходимо сочетать теоретическую подготовку с практической деятельностью, использовать разнообразные методики и ресурсы, адаптированные к нуждам туристической индустрии. Особое внимание следует уделять систематической работе с лексикой, созданию мотиватsionной среды и формированию у студентов готовности к реальному профессиональному общению. Это способствует повышению качества подготовки специалистов и их конкурентоспособности на рынке труда [6; с. 144].

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам. – М.: АРКТИ, 2004. – 192 с.

2. Савина Н.Г. Профессионально ориентированное обучение иностранному языку. – СПб.: Лань, 2015. – 168 с.

3. Костина И.В. Немецкий язык для туристической сферы. – М.: Академия, 2012. – 208 с.

4. Erle C., Rodi F. Tourismus – Deutsch für den Beruf. – München: Hueber, 2020. – 136 S.

5. Müller M. Deutsch im Tourismus: Wortschatz und Übungen. – Berlin: Cornelsen, 2019. – 128 S.

6. Шевелева Л.А. Формирование профессиональной иноязычной лексической компетенции студентов. – Казань: Казанский университет, 2021. – 190 с.

7. Shabidinova, Z. I. (2023). Genetic analysis of neosemantism of german youth. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 4(03), 264-270.

8. Shabidinova, Z. I. (2024). Professional lexical competence of students in the field of tourism. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(05), 272-277.

ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННОЕ ОБУЧЕНИЕ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

Канлыбаева Э. М.
преподаватель
Нукусского Государственного Педагогического Института

J.ismli student - Biziń qońsımız jayın satıp, Nókistegi kishirayonlardıń birinen tazadan jay izley baslaǵan. Jigit aǵası jay satıp alaman degenshe úyinde waqtınsha jasap turıwları ushın múmkinshilik jaratıp bergen. Aradan bir yarım ay ótkende sol úydegi aǵalı-ininiń jánjellesip atırǵanlıǵı qońsılarǵa esitilgen. Qońsılar táwellege baradı. Gáplerinıń mazmunı boyınsha inisi óz jigit aǵasına satılǵan jaydıń aqshasınıń joq bolıp ketiwinen gúmanlanıp, amanat sıpatında saqlap beriwdi ótinish etedi. Jigit aǵasıda pullardı saqlap beriwdi wáde etip, inisinen alıp, seyfine salıp qoyadı. Inisi úy alatuǵın bolıp kelisip kelgen kúni óziniń pulların jigit aǵasınan soraydı. Jigit aǵası pullardı beredi. Inisi sanap kórse 4,5 million aqsha kemis shıǵadı. «Qalǵanı qáne» degeninde «úyde jasaǵanlarıńız ushın kvartira haqımdı alıp qaldım» deydi uyalmastan. Qońsı-qobalar jigit aǵasınıń bul islegen isiniń nadurıslıǵın aytsa da aǵası 4,5 million puldı qaytarıp bermegen. Jánjelden keyin olar bir-birleri menen júz kórmes bolıp ketken. Amanatqa qiyanet etiwge ádetlengen jigit aǵası «Kreditimdi ózim jawaman» dep jáne bir inisin isendirip, onıń atına bankten 5 million, áyeliniń inisinde isendirip onıń atınanda 5 million kredit alıp óz kreditlerin tólemegen. Kreditti alıp bergenlerdiń ózleri «aǵasınıń kreditin» jabıwǵa májbúr bolǵan. Degen menen aǵasınıń shańaraǵı jaqsılanıp kete bermegen. Ózleriniń jayın satıp ózinikinen 10-15 barabar pásirek úydi satıp alıwǵa májbúr bolǵan….

Bul máselelerdi esitkenimizden keyin jáne dástanǵa múrajat ettik. Dástan mazmunı boyınsha Alpamıstıń sálem xat amanatın kóterip ushqan qońır ǵaz amanatqa qıyanet etpew kerekligin túsinedi hám ózinen basqa ǵazlarǵa bildiredi. Ol saǵımlanıp kóringen kólge pesinde jetiwine qaramastan

«Túseyin dese bolmadı,
Qanatında xatı bar,
Alpamistiń ati bar.
Tússem párim eziler,
Jazǵan xatı ósher dep…
Bir aylanba qoltıqqa,
Qos párin qıyıp tasladı» [2,58].

Ǵaz Alpamıstıń amanatın qarındası Qansulıwǵa tapsırıw sharapatına da miyasar boladı.

…Dástanda unamsız qaharman Shekamannıń anası aqıllı ana hám tarbiyashı. Sonlıqtan da ol óz sózinde

«Atsań sen bolarsań qan qarızdar,
Sen bererseń amanattıń zawalın» [2,57].

dep amanat kóterip ushqan ǵazdı atpaw kerekligin óz ulına uqtırmaqshı boladı. Lekin Shekaman óz bilgeninen qaytpaydı. Nátiyjede óziniń ǵazǵa qarap atqan oǵı ǵazǵa tiymesten aylanıp kelip ózine qadaladı.

…Qalmaqqa bende bolǵan Gúlpashınnıń ǵárip kempir ǵarrıları Alpamıs penen Barshınǵa sálem jollaǵandı maqul kóredi. Tayshıxannıń qarwanın kórip quwanıp, olar menen ushırasıp, olarǵa isenip óziniń «amanat» tapsırajaqlıǵın, amanattı aman jetkerse, amanatınıń kárwandı aman saqlaytuǵınlıǵına isendiredi.

Kárwanda óz gezeginde jolı Alpamıstıń eliniń ústinen túskenligi sebepli, ata-anasın saǵınıp jurgen Barshınǵa «Mine amanatıń dep» [2,46] tapsırıp, jónine kete beredi.

Seminar jumısı barısında studentler aytqan waqıyalar menen dástan waqıyaları salıstırılıp studentlerdiń amanat máselesinde belgili bir toqtamǵa keliwleri ushın óz pikir hám usınısların salıstırmalı túrde bayanlaw islerine múmkinshilikler jaratıldı. Studentlerdiń bunday salıstırmalı analizlewlerge qızıǵatuǵınlıǵıda belgili boldı. Olardıń bul qızıǵıwshılıqları professor-oqıtıwshılardı da jumıs barısında xalıq dástanları materiallarınan keńirek paydalanıp barıwdıń zárúrligin uqtırǵanday boldı.

Juwmaqlap aytqanda «Ádep-ikram tárbiyası» temasında alıp barılǵan seminar jumısı materialların qaraqalpaq xalq dástanı “Alpamıs”tağı amanat hám amanatqa qiyanet máseleleri menen salıstırmalı túrde alıp barıw studentlerdiń pikirlew qábiletin keńeytiw múmkinshiligin jarattı. Dástan materiallarınan Ulıwma pedagogika páninen ótkeriletuǵın lekciya, ámeliy hám seminar jumıslarında orınlı paydalanıp barıw, studentlerdiń dıqqat-itibarın ózine tez tartatuǵınlıǵı belgili boldı. Sebebi – dástan mazmunında kishkeneliginen baslap jaslarǵa ádep-ikram tárbiyasın beriw, amanat, isenim hám basqada unamlı pazıyletler sáwlelendirilgenligi, amanatqa qiyanet islemeytuǵın insanlardıń júziniń jarıq, iymanınıń pútin bolatuǵınlıqları kórsetilgen. Ol jaslardıń amanatqa qiyanet etpewlerine shaqırıp turıwshı haqıyqıy pedagogikalıq dástanlar qatarınan sózsiz orın iyeleydi.

PAYDALANILǴAN ÁDEBIYATLAR:

1. Айымбетов Қ. Халық даналығы – Нөкис: «Bilim», 2022, 3-бет.
2. Алпамыс / Қарақалпақ фольклоры. 1-том. Нөкис. «Қарақалпақстан» - 2007.
3. Базарбаев Ж., Дәўлетова Қ. Әдептаныў. Нөкис «Қарақалпақстан» -1993.
4. Наўрыз Жапақов: Еске түсириўлер, илимий мийнетлери (Дүзиўшилер Т.Мәмбетниязов, Х.Сейитов, И.Қурбанбаев, У.Жапақова. Худ. А.Әметов) – Нөкис, «Билим», 1990. 412-бет.

BO‘LAJAK TEXNOLOGIK TA’LIM O‘QITUVCHILARINI TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH: NAZARIY-AMALIY JIHAT

Kurmanov A.P.
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Texnologik ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

Tayanch so’zlar: tadbirkorlik kompetensiyasi, pedagogik ta’lim, texnologik ta’lim, kasbiy tayyorgarlik, innovatsiya, loyiha-tadqiqot faoliyati.
Ключевые слова: предпринимательская компетентность, педагогическое образование, технологическое обучение, профессиональная подготовка, инновации, проектно-исследовательская деятельность.
Key words: entrepreneurial competence, pedagogical education, technological training, professional training, innovation, project-research activity.

РЕЗЮМЕ:
Shiddat bilan rivojlanayotgan jamiyat va innovatsion iqtisodiyot sharoitida ta’lim tizimida o‘quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning roli ortib bormoqda. Bu borada bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda, ular nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni berishlari, balki tadbirkorlik madaniyatining tashuvchilari bo‘lishlari kerak. Maqolada bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarida tadbirkorlik kompetentligini shakllantirishning nazariy asoslari ochib berilgan, ularning kasbiy tayyorgarligi mazmuniga tadbirkorlik komponentini integratsiyalash usullari va modellari tahlil qilingan, ushbu yo‘nalishni rivojlantirishning asosiy muammolari va istiqbollari aniqlangan.
РЕЗЮМЕ:
В современных условиях динамично развивающегося общества и инновационной экономики в системе образования возрастает роль формирования предпринимательских компетенций у обучающихся. В этой связи особое внимание уделяется подготовке будущих учителей технологического обучения, которые должны не только передавать профессиональные знания и навыки, но и быть носителями предпринимательской культуры. В статье раскрываются теоретические основы формирования предпринимательской компетентности у будущих педагогов технологии, анализируются методики и модели интеграции предпринимательского компонента в содержание их профессиональной подготовки, выявляются основные проблемы и перспективы развития данного направления.
SUMMARY:
In today's dynamically developing society and innovative economy, the role of forming entrepreneurial competencies in students in the education system is increasing. In this regard, special attention is paid to the training of future teachers of technological education, who should not only convey professional knowledge and skills, but also be bearers of entrepreneurial

culture. The article reveals the theoretical foundations of forming entrepreneurial competence in future technology teachers, analyzes the methods and models of integrating the entrepreneurial component into the content of their professional training, and identifies the main problems and prospects for the development of this area.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyot yuqori darajadagi noaniqlik, globallashuv va jadal texnologik taraqqiyot bilan tavsiflanadi, bu esa ta’lim tizimidan kadrlar tayyorlashga yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Ta’lim oluvchilarda nafaqat fanga oid bilimlarni, balki universal kompetensiyalarni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etib, ular orasida tadbirkorlik ko‘nikmalari ajralib turadi.

Maktab o‘quvchilarining texnik va tadbirkorlik savodxonligini shakllantirishda texnologiya fani o‘qituvchilari asosiy o‘rinni egallaydi. Ular nafaqat kasbiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni, balki loyiha va innovatsion faoliyatni tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirishni ta’minlaydigan nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lib xizmat qiladi. Demak, bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tadbirkorlikka samarali tayyorlash pedagogik ta’limning strategik vazifasiga aylanmoqda.

1. Texnologiya o‘qituvchilarini tadbirkorlikka tayyorlashning nazariy asoslari

1.1. Tadbirkorlik kompetensiyasi tushunchasi va tuzilmasi

Tadbirkorlik kompetensiyasi innovatsion va tijorat loyihalarini muvaffaqiyatli yaratish, rivojlantirish va boshqarishga qaratilgan integratsiyalashgan bilim, ko‘nikma, shaxsiy fazilatlar va motivatsiyalar majmuasidir. Pedagogik kontekstda u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- tadbirkorlikning iqtisodiy va huquqiy asoslarini bilish;
- biznes-rejalarni tuzish va amalga oshirish qobiliyati;
- mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish uchun texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasi;
- ijodiy fikrlash va innovatsion g‘oyalarni yaratish qobiliyati;
- kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari.

1.2. Texnologiya o‘qituvchisida tadbirkorlik kompetentligining o‘ziga xos xususiyatlari

Texnologiya o‘qituvchisi o‘ziga xos tadbirkorlik ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak, bu unga nafaqat o‘quv jarayonini tashkil etish, balki talabalarda tadbirkorlik faoliyatiga qiziqishni rag‘batlantirish, loyihalarni boshqarish va innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu quyidagilarni nazarda tutadi:

- texnologik ta’lim mazmunini biznes ta’limi elementlari bilan integratsiyalash;

- zamonaviy raqamli va ishlab chiqarish vositalari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- jamoada ishlash va yetakchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish.

1.3. Tayyorgarlikka nazariy yondashuvlar

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashda tadbirkorlik kompetentligi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- natijaviy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan kompetensiyaviy yondashuv;
- talabalarni amaliy va loyiha faoliyatiga faol jalb etishni nazarda tutuvchi faoliyatli yondashuv;
- vaziyatli o‘qitish, bunda nazariyani o‘rganish haqiqiy tadbirkorlik holatlari va vaziyatlarini tahlil qilish bilan birga keladi.

2. Pedagogik ta’lim tizimida tadbirkorlik kompetentligini shakllantirish xususiyatlari.

2.1. Ta’lim dasturlarining tuzilishi va mazmuni

Texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlashda tadbirkorlik komponentini amalga oshirish uchun o‘quv rejasiga quyidagilarni o‘z ichiga olgan fanlar va modullarni kiritish zarur:

- iqtisodiyot va tadbirkorlik asoslari;
- loyihalarni boshqarish va biznes-rejalashtirish;
- innovatsion texnologiyalar va raqamli vositalar;
- tadbirkorlik faoliyatining huquqiy jihatlari.

Ta’limning fanlararo aloqadorligi va amaliyotga yo‘naltirilganligiga alohida e’tibor qaratiladi.

2.2. O‘qitish metodlari va shakllari

Tayyorgarlikning samarali usullari quyidagilar hisoblanadi:

- loyihaviy ta’lim, bunda talabalar tadbirkorlikka yo‘naltirilgan o‘z texnologik loyihalarini ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar;
- bozorni o‘rganish, raqobatni tahlil qilish va innovatsiyalarni ishlab chiqishni o‘z ichiga olgan tadqiqot faoliyati;
- tadbirkorlik voqeligini modellashtiruvchi simulyatsion biznes-o‘yinlar;
- biznes muammolarini hal qilish tajribasini beruvchi haqiqiy kompaniyalar va o‘quv ustaxonalaridagi amaliyot.

2.3. Murabbiylik va biznes bilan hamkorlikning roli

Muvaffaqiyatli tayyorgarlikning muhim omili oliy o‘quv yurtlarining tadbirkorlik tuzilmalari bilan o‘zaro hamkorligi, tajribali tadbirkorlarning ta’lim jarayonida murabbiy sifatida ishtirok etishi, mahorat darslari va amaliyotlarni o‘tkazishdir.

3. Amaliy amalga oshirish: modellar va misollar

3.1. "Texnologiya va tadbirkorlik" integrativ kursi modeli

Ushbu kurs doirasida talabalar zamonaviy texnologiyalar (3D modellashtirish, robototexnika, dizayn) va tadbirkorlik faoliyati asoslari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Kursga quyidagilar kiradi:

- iqtisodiyot va biznes asoslari bo‘yicha nazariy mashg‘ulotlar;
- amaliy laboratoriya ishlari;
- texnologik mahsulotlarni ishlab chiqish va ilgari surishga qaratilgan loyiha faoliyati.

3.2. Pedagogika oliy ta’lim muassasasi negizidagi biznes-inkubator namunasi

Pedagogika universitetlari qoshida tashkil etiladigan biznes-inkubatorlar talabalar va maktab o‘quvchilarining startaplarini amalga oshirish uchun platforma bo‘lib xizmat qiladi. Bu yerda talabalar murabbiylar rahbarligida quyidagilarni o‘rganadilar:

- biznes g‘oyalarni ishlab chiqish;
- prototiplar yaratish;
- investitsiyalarni jalb qilish va mahsulotlarni sotish.

3.3. Успешные кейсы

O‘zbekistonda va xorijda texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlashda tadbirkorlikni integratsiyalashning muvaffaqiyatli misollari mavjud. Masalan, Finlyandiyada pedagogik dasturlar tadbirkorlik bo‘yicha majburiy modullarni o‘z ichiga oladi, bunda asosiy e’tibor ijodiy sohalarga qaratiladi. Rossiyada bir qator universitetlar ta’lim startaplarini yaratish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirmoqda.

4. Rivojlanish muammolari va istiqbollari

4.1. Muammolar

- o‘qituvchilarning tadbirkorlik fanlarini olib borishga yetarlicha tayyor emasligi;
- amaliy mashg‘ulotlar va stajirovkalarni tashkil etish uchun cheklangan resurslar;
- talabalarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun tizimli qo‘llab-quvvatlash va motivatsiyaning yo‘qligi;
- biznes hamjamiyati bilan integratsiyaning pastligi.

4.2. Istiqbollar

- raqamli platformalar va onlayn kurslarni rivojlantirish;
- dual ta’lim va murabbiylik dasturlarini kengaytirish;
- oliy ta’lim muassasalariaro va xalqaro hamkorlik tarmoqlarini yaratish;
- grantlar, tanlovlar va akseleratsiya dasturlari orqali motivatsiyani oshirish.

Xulosa. Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash pedagogik ta’limni modernizatsiyalashning asosiy elementi hisoblanadi. Ushbu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun nazariy tayyorgarlikni faol amaliy faoliyat bilan birlashtirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va o‘quv dasturlariga biznes komponentlarini kiritish zarur. Faqat shu yo‘l bilangina maktab o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini samarali rivojlantira oladigan va zamonaviy jamiyatning chaqiriqlariga moslasha oladigan raqobatbardosh pedagoglarni shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аникина Е. В. Формирование предпринимательской компетентности у студентов педагогических вузов // Педагогика. – 2020. – № 4. – С. 34–42.

2. Иванов П. С. Инновационные подходы в подготовке учителей технологии // Вестник образования. – 2019. – № 12. – С. 57–65.

3. OECD. Entrepreneurship Education at School: Good Practices and Policies. – Paris, 2018.

4. Смирнова Т. А. Методика формирования предпринимательских навыков у студентов педагогических специальностей // Современное образование. – 2021. – № 3. – С. 23–30.

NUTQIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

Nuriddinova O‘.V.
Yangi asr universiteti Maktab va maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Tayanch so‘zlar: matnlar tahlili, ona tili o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati, til o‘rganish, og`zaki va yozma nutq, nutqiy faoliyat, so`z, gap, matn.
Ключевые слова: анализ текста, мыслительные навыки носителей языка, изучение языка, устная и письменная речь, речевая деятельность, слово, предложение, текст.
Key words: text analysis, thinking skills of native speakers, language learning, oral and written speech, speech activity, word, sentence, text.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada ona tili darslarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda innovatsion metodlardan foydalanish hamda matnlar tahlilini tashkil etishda texnologiyalardan foydalanish, o`quvchilarda og`zaki va yozma nutqni rivojlantirish, ta’lim berisning zamonaviy metodlaridan foydalanishning ahamiyatli jihatlari yoritilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье освещаются важные аспекты использования инновационных методов развития речевой компетенции на уроках родного языка, использования технологий организации анализа текста, развития устной и письменной речи учащихся, использования современных методов обучения.
SUMMARY:
The article highlights important aspects of the use of innovative methods for developing speech competence in native language lessons, the use of technologies for organizing text analysis, developing students' oral and written speech, and the use of modern teaching methods.

Ona tili darslarida ko‘proq matn tarkibi va mazmuniga mos tayanch so‘zlar va sintaktik birliklardan foydalanib matnni tuzish va yozish asosiy vazifalardan biri sanaladi. Matn mazmuniga mos bo‘lmagan so‘zlarni, muayyan gaplarni mustaqil ravishda mulohazalash orqali topib unga izoh berishi hamda matnni mantiqiy izchillik asosida davom ettira olishi u o‘quvchining so‘z boyligi va ravon munosabat bildirish qobiliyati rivojlanganidan dalolat beradi. O‘ziga xos xususiyatlarini o‘quvchilar o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan gaplar bilan bironta matnni solishtirish asosida o‘rganadi. Matn ustidagi ishlar o‘quvchilarning imlo

savodxonligi, og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish bilan birga, ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini hosil qilish uchun ham yordam beradi[7;67-b].

Shuningdek, o‘qituvchi ona tili darslarida mashq va topshiriqlaridagi to‘qima gaplarda va badiiy matnlarda keltirilgan iboralar ustida ishlashga vaqt ajratishi lozim. Sababi, o‘quvchilarni matnda qo‘llanilgan iboralarni so‘z birikmasi yoki qo‘shma so‘zlardan aniq farqlay olishi, so‘zlarning leksik ma’nosi, so‘zlarning ma’no nozikliklari, shevaga xos so‘zlar va nutq uslublariga oid matnlar tuzish hamda mazkur barqaror birikmalarning statik holatda ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi bilishi ulardagi egallangan bilimlar saviyasida namoyon bo‘ladi.

O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini badiiy, ilmiy, rasmiy matnlarni yozdirish orqali rivojlantirish ulardagi fikr ketma-ketligi, fikriy mantiqlik, stilistik me’yorlar, punktuatsion qoidalar va matn turiga xos leksik, grammatik, morfemik birliklar tanlashga asos bo‘ladi. Yozma muloqot matni bu ta’kidlangan fikr sanaladi. Yozma muloqot matni mazmunan aniq ifoda qilingan. Tilshunoslikda matnning lisoniy birlik sifatida e’tirof etilishi natijasida ona tili dasturlariga matn va matn turlari bo‘yicha mavzular kiritildi.

Jahon tilshinosligida ta’riflanishicha, matn-nashr etilgan asar; mazmuniy tugallikka ega bo‘lgan yirik sintaktik birlik; xabarlar yig‘indisi; nutq shakli, mazmunan izchillikka ega bo‘lgan bir necha sodda yoki qo‘shma gaplar yig‘indisidir. Y.O.Sidorov matnning semantik xususiyatiga alohida to‘xtaladi hamda uni bir necha xil butunliklardan iborat bo‘lgan sintaktik hodisa, deb ataydi[6;73-b].

Ijodiy tafakkurni o‘stirish uchun o‘qituvchi darslikdagi grammatik, nutqiy va mantiqiy fikrlash faoliyati bilan shug‘ullanishga o‘rgatmog‘i, asosiy e’tiborni matn tuzishga, shuningdek, matn ustida ishlashga o‘rgatishga qaratib, matn bilan ishlashning turli ijodiy usullarini o‘ylab topishi zarur. Ana shundagina o‘quvchilar ona tili darslarida izlanadilar, mustaqil fikrlaydilar, tafakkur qilishga o‘rganadilar.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarini matnli o‘qitishga o‘rgatish orqali ularda ijodiylik, yaratuvchilikni hosil qilish mumkin. Ijod qilishga undashni talab qilishdan maqsad o‘quvchining tafakkurini yanada teran bo‘lishga odatlantirish, o‘rganganlarini mushohada bilan tatbiq qilishga, tizimga solishga, mustaqil ravishda muhokama qilishga o‘rgatishdan iboratdir. Ana shu maqsadda nazariy bilimlar berish hamda uni mustahkamlashda quyidagicha noananaviy usuldan foydalanish mukin:

M.Saidovning ta’kidlashicha, “Interpretatsion aktivlik o‘qituvchidan information-izlanuvchanlik metodlarini talab qiladi va u o‘quvchida ma’lum darajada ijodiy faoliyatni ta’minlaydi”[5;24-b]. Ona tili o‘qituvchisi dars

jarayonida fanlarni o‘zaro integratsiya qilish orqali turli metodlarni qo‘llar ekan, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi rivojlanadi.

N.Abdurahmonovning “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi”[1;56-b] asarida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish hamda badiiy asarlardan olingan matnlar ustida ishlashning ijobiy natijalari haqida fikr yuritilgan. Ayonki, “Ona tili” darsliklarida ilmiy, rasmiy, publitsistik matnlar bilan birga badiiy matnlar ham o‘rin olgan. K.Mavlonovaning e’tiroficha, “Badiiy matnning til xususiyatlarini o‘rganishdan ko‘zlanadigan asosiy maqsad o‘quvchilarni so‘z ishlatish mahorati bilan tanishtira borish va ularda shunday mahorat ko‘nikmalarini shakllantirishdir”[3;30-b].

Bizningcha, badiiy matn o‘quvchilarning so‘zni ishlatish va matnga mos so‘zlarni tanlab qo‘llash ko‘nikmalari hosil bo‘ladi. Ularda matn mazmuniga mos leksik birliklarning ma‘nolari va farqli jihatlarini bilgan holda so‘z qo‘llash mahorati shakllanib boradi. Buning natijasida og‘zaki va yozma savodxonlik darajalarining o‘sish ko‘rsatkichi rivojlanadi.

G.Yaxshiboyeva ilmiy tadqiqot ishida fonetik uslubiy vositalarini va nutq shakllari xususiyatlarini og‘zaki nutq[8;17-b] orqali ifodlashni ma’qul ko‘radi:

“Rasmlardan foydalanish orqali matn tuzing”, “kichik hikoya yarating”, “matn mazmuni rasmga qarab davom ettiring” kabi topshiriqlar o‘quvchilarning ijodkorligini, xayolot dunyosini o‘stiradi. Bunday sitivatsiyada rasmdan, tabiat tasviridan zavqlanish, tasavvurini yoritish, go‘zallikdan bahra olish, qiziqarli ta-assurotlarni xotirlash, go‘dakligini eslash damlari va uni bayon qilish qiziq mashg ‘ulotga aylanadi. Rasm tasviriga oid o‘qituvchining topshiriq va savollari, dars jarayonidagi muhokamaga sabab bo‘lgan o‘rinlar tinglanadi, bildirilgan fikrlar mantiqiy, hayot haqiqatiga mos bo‘lishi e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Olima N.Alavutdinovaning fikricha, “Rasm asosida ijodiy matn yaratishga tayyorgarlik jarayoni, bizning nazarimizda, bosqichli ravishda tashkil qilinishi kerak: birinchi bosqichda, matn yaratishdan avval surat asosida suhbat o‘tkazilib, lug‘at yaratilib, ikkinchi bosqichda lug‘atdagi so‘zlar ishtirokida lug‘at diktanti o‘tkazish (so‘z zaxirasini boyitish va savodxonlikni oshirish maqsadida) kerak. Yakunlovchi –uchinchi bosqichda lug‘atdagi o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan so‘zlarni iboralar, ularning ma’nodoshlari bilan almashtirish, uyadoshlar qatorini tuzish yuzasidan mustaqil ish tashkil qilish”[2;69-b], o‘qituvchining mohirlik bilan qo‘ygan savollari yordamida o‘quvchilar yangi hodisalar, tabiat manzaralarini tasavvur qilishlari mumkin. Biroq bu ish nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchi uchun ham murakkab sanaladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning fantaziyasini diqqat bilan tinglaydi, ular asosli bo‘lishi, haqiqatga mos kelishini kuzatib boradi. Xatolarni ustalik bilan to‘g‘rilab borishi, nima uchun shunday

bo‘lishi yoki bo‘lmasligini tushuntirishi, hikoyachi nutqini to‘g‘ri yo‘naltirib turishi o‘quvchilarga ilhom va ishonch bag‘ishlaydi.

Ma’lumki, yuqori sinf o‘quvchilarining olgan bilimlari, hosil bo‘lgan ko‘nikma va malakalari matn turlarini erkin, mustaqil holda yaratishidan aniq bo‘ladi. Biroq o‘quvchilar badiiy matnga qaraganda ilmiy va rasmiy matnni belgilangan qoida asosida xato va kamchiliksiz yozishi mushkul sanalib, ba’zi murakkabliklarga duch kelishi tabiiy jarayondir. O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi metodlar va ilg‘or zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash ulardagi kreativlikni, ijodiy tafakkurni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

The board texnologiyasi. Bu texnologiyani bajarishda sinfdagi o‘quvchilar 4 guruhga bo‘linadi:

1-guruh – tinglovchi; 2-guruh – so‘zlovchi; 3-guruh – o‘quvchi; 4-guruh –yozuvchi.

Har bir guruhga o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, badiiy tafakkurini, yozma nutq savodxonligini va muloqot qilish madaniyatini rivojlantirish uchun ularning yoshi va psixologiyasiga mos to‘rtta matn tayyorlanadi. Aytish joizki, ushbu mavzular o‘quvchilarning insoniy fazilatlari hayoti davomida ba’zi razillik, ishyoqmaslik, mehnatni qadrlamaslik, halol yashamaslikning salbiy oqibatlari haqida fikr-mulohazalar bildirishi ularning inson sifatida boshqalarga namuna bo‘lishiga yetaklaydi. Shu o‘rinda K.Mavlonovaning fikri asoslidir: “Badiiy matn ifodali o‘qilib uning estetik qiymatini aniqlashga doir savollar berilib, javoblar olingandan keyin uning til xususiyatlarini tahlil qilish ishlariga kirishiladi. Ushbu jarayon uch yo‘nalishdagi ta’limiy tadbirlar shaklida amalga oshiriladi:

Asosiy g‘oya, muhim fikr, zaruriy ma’lumot, fikrni dalillash, ish qog‘ozlari bilan ishlash, ko‘nikmalarni egallash bilan bir qatorda o‘zaro bir-biriga murojaat qilish, dialogik matn yaratish, matn tarkibidagi gaplarni bog‘lanishli tarzda ifodalash, tafakkur salohiyatini mantiqqa yo‘naltirish kabi xususiyat jamlanadi. Xususan, rasmiy matnni yozish jarayonida o‘quvchilarning badiiy tafakkuri rivoj topmaydi, balki so‘zni rasmiy matn mazmuniga xos ixcham, aniq, lo‘nda va tanlangan so‘zlar ichida shu matn mazmuniga mosini badiiylik, emotsional-eksprissivlik ma’no kasb etuvchi so‘zlar bo‘lmasligi lozim[3;23-b].

Ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini matn turlari orqali rivojlantirish borasida ular egallashi lozim bo‘lgan malakalarni hosil qilish bo‘yicha quyidagi omillar nazarda tutiladi:

– Matn turlari tarkibidagi leksik sintaktik birliklarning farqlay olishga odatlantirish;

– Mantdagi so‘zlarning ma’no-mazmunini sinchkovlik bilan o‘qish;

– Sinfdoshlari bilan interaktiv tarzda so‘z ma’nosini izohlash;

– Ilmiy matnga dalillash asosida olimlar, tilshunoslar, psixologlarning ilmiy qarashlarini keltirishga ko‘maklashish;

– Turli matn yaratishda kurgazmali, tabiat tasviri, manzarali tasvirlar, oilaviy muhit bilan bog‘liq rasmlar qo‘llash;

– Tilning lisoniy xususiyatlari va uning keng imkoniyatlaridan unumli foydalanishga yo‘naltirish. O‘zbek xalqining adabiiy merosi. Xalq og‘zaki ijodi, milliy qadriyatlar aks etgan maqollar, hikmatli so‘zlardan berish va birgalikda muhokama qilish.

I.M.Podgayeskaya mashq va topshiriqlarni bajarish jarayoni o‘quvchilarda dastavval qiziqish uyg‘otish kerakligini ta’kidlaydi. Amaliy ahamiyati aniq seziladigan bilimlar ana shunday ruhiy holatni yuzaga keltiradi. Muallifning fikricha, “...metodik jihatdan qiziqish deganda o‘quvchilarda o‘quv fanidan o‘tilayotgan bilimlarni bilib olish istagini uyg‘otadigan va o‘quv faniga bo‘lgan ishtiyoqni rag‘batlantirib turadigan bir emotsional munosabat tushuniladi. Tashqaridan qaraganda bu munosabat tirishqoqlikda, qiziquvchanlikda namoyon bo‘ladi”[4;4-b]. O‘quvchilarda qiziqish uyg‘otish uchun ularni rag‘batlantirish, ya’ni motivatsiya berish lozim, deb o‘ylaymiz. Xususan, o‘zi yaxshi ko‘rgan kitobini sovg‘a sifatida berish, ularning fanni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytirish uchun eng bilimdon o‘quvchi, eng zukko o‘quvchi, eng ifodali o‘qigan o‘quvchi, bugungi darsning eng yaxshi muloqot qilgan o‘quvchisi nominatsiyasi bilan taqdirlagani bo‘yicha yozuvli kartochkalarning berilishi ularning ruhiyatini ko‘taradi va qiziqishini orttiradi.

Grammatik birliklar bilan ishlash metodi. Bunda o‘quvchilardan o‘qituvchi tomonidan berilgan gaplar jamlanmasidan ma’lumotnoma matni va ijodiy-tavsifiy matnga xos xususiyatlarni aniqlab ikki ustunga yozishlarii so‘raladi.

I. ma’lumotnoma matniga xos xususiyatlar:

II. ijodiy-tavsifiy matnga xos xususiyatlar:

1. Ilmiy, publitsistik va badiiy matnlar, insho ma’lumotnoma matnining ko‘rinishlaridir

2. Dalillar so‘zlovchi yoki yozuvchining shaxsiy munosabati, nuqtayi nazari asosida ifodalanadi; badiiy-tasviriy vositalar qo‘llanilishi mumkin.

3. So‘zlovchi axborotni o‘z nuqtayi nazarisiz, xolis bayon qiladi.

4.Rasmiy matnlar ijodiy- tavsifiy matnga misol bo‘la oladi.

5. Bunday matn obrazlilik va bo‘yoqdorlikdan, badiiy-tasviriy vositalardan xoli bo‘ladi

6. Voqea-hodisa yoki holat haqida oddiy axborot beriladi.

O‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda badiiy matnni qayta hikoya qilib, berilgan topshiriqni bajarishi, o‘zining shaxsiy munosabatini bildirishi va o‘ziga kerakli hayotiy, qat’iy xulosaga kelishi uchun boshqa matn turlari singari mazkur matnning elementar jihatlariga ham e’tibor berishi talab qilinadi.

Shuni aytish joizki, umumiy o‘rta ta’lim maktabida, ayniqsa, ona tili darslarida ilmiy, badiiy va rasmiy matnda qo‘llaniladigan turli leksik birliklardan o‘rinli foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘nikma hosil qilish va sintaktik birliklarni matn mazmuniga mos tanlashni mantiqiy fikr ketma-ketligini ifodalashni o‘rgatish ulardagi izchil fikrlashni takomillashtirishga yordam beradi.

Ona tili darslarida tilshunoslikning sintaksis bo‘limini o‘qitishdan ko‘zlangan asosiy maqsad fonetika, leksikologiya, morfemika, morfologiya, leksikografiya bo‘limi bo‘yicha egallangan bilimlar nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda asos vazifasini bajarishi nuqtayi nazaridan yondashishni o‘rgatish maqsadga muvofiq ekanligini uqtirish lozim. Shu bilan bir qatorda, matn turlariga tanlanadigan birliklarni ongli ravishda tanlab, yozishni o‘rgatish, o‘quvchilarda mantiqiy va kreativ fikrlashni o‘stirish o‘qituvchining diqqat markazida bo‘lmog‘i muhim ahamiyat kasb etadi.

Mening mantiqiy mulohazam metodi. 8-sinf o‘quvchilarining gap va uning turlarini o‘rgatish ularning bayon turlari, matn (hikoya, tasviriy, muhokama) lar va inshoni oddiy va murakkab reja asosida yozish va fikrini og‘zaki hikoyalashlarida maqbul metodlardan biri sanaladi. Bunda o‘quvchilar quyidagi matndan hikoya matni yaratish topshirig‘i berildi.

“Oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q”, deydilar. Chindan ham shunday. Oldimizdan oqqan suvni uvol qilsak – chidaydi. Qo‘limizni yuvsak – chidaydi. Betimizni chaysak – chidaydi. Boringki, oyog‘imizni yuvsak ham chidaydi. … Oldimizdan oqqan suvga tupursak, cho‘p tiqib loyqalatsak, boshidan mag‘zava ag‘darsak… Oldimizdan oqqan suvning gunohi nima o‘zi?!

Innovatsiyalar ikki yo‘nalishda paydo bo‘ladi: 1) ta’limning zamon talablariga ko‘ra yirik ko‘lamli maqsad va vazifalari, shulardan kelib chiqadigan ta’limning umumiy mazmuni, asosiy yondashuv va tamoyillarini belgilash; 2) bevosita ta’lim-tarbiya jarayonini (ta’lim va tarbiya vositalari, metod va usullari, mashg‘ulot, dars strukturasi komponentlarini) takomillashtirish.

Shuning uchun ongli ravishda diqqat qilgan holda rasmni kuzatish va shu kuzatishlar asosida tasviriy matn yaratish o‘quvchilarning nutqiy kompetensiya elementlari rivojiga yordam beradi, xususan, insoniy fazilatlar shakllanishi tasvirli rasmlar asosida shakllanib boradi.

Ona tili darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o‘stirish jarayonida ta’lim texnologiyalarini qo‘llash o‘quvchilarda o‘quv fanini o‘zlashtirish, kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqish va motivatsiyani kuchaytiradi, o‘quv-bilish faolligini yuzaga keltiradi. Shu sababli o‘qituvchilar ona tili mashg‘ulotlarida matn turlari ustida ishlash orqali nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarni tanlashga hamda dars jarayonida foydalanishga e’tibor qaratishlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдураҳмонов Н. Ўзбек тили ўқитиш методикаси.1979. –Б.176

2. Алавутдинова Н. Г. Она тили дарсларида ижодий фикрлаш кўникмасини шакллантириш методикаси (5-синф мисолида): Пед.фан.ном. ...дисс.- Тошкент, 2008. – Б.69

3. Мавлонова К. Она тили фанини адабиёт фани билан бадиий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш. Пед.фан. ном. ... дисс. –Тошкент, 2019. – Б.30

4. Подгаэтская И.М. Воспитани у учашихся интереса к изучения русского язика.: Просвешение, 1985. –С 4.

5. Саидов М. Ўрта мактабларнинг 5 синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси. Пед. Фан.ном. дисс. автореф. –Т., 2000

6. Сидоров Е.О. Проблемы речевой системности, –М.,Наука, 1987. С.198

7. Qurbonova M. “ Matn tilshunosligi” – Toshkent. Universitet, 2014. –B.138

8. Яхшибоева.Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар: Филол. фан. ном... дисс. –Т.,1996.17-18 б.(–132б)

TALABALARNING KO‘NGILLI IJTIMOIY-METODIK HARAKATLARI ASOSIDA INKLYUZIV VA UY TA’LIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISH TEXNOLOGIYALARI

Bekimbetova G.R.
Ajiniyoz nomidagi NDPI Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Tayanch so'zlar: inklyuziv ta’lim, nogiron bolalar, ijtimoiy-metodik harakatlar, hamkorligini va motivatsiya, platformalar.
Ключевые слова: инклюзивное образование, дети с ограниченными возможностями, социально-методические действия, сотрудничество и мотивация, платформы.
Key words: inclusive education, children with disabilities, social and methodological actions, cooperation and motivation, platforms.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada talabalarning ko'ngilli ijtimoiy-metodik harakatlari asosida inklyuziv va uy ta'limi samaradorligini oshirish texnologiyalari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'limga jalb qiluvchi interaktiv platformalar, ta'lim metodlari haqida aytib o'tilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье представлена информация о технологиях повышения эффективности инклюзивного и домашнего образования на основе добровольных социально-методических действий студентов. В частности, были упомянуты интерактивные платформы и методы обучения, которые вовлекают учащихся с ограниченными возможностями в образование.
SUMMARY:
The article provides information on technologies for improving the effectiveness of inclusive and home education based on students' voluntary social and methodological actions. In particular, interactive platforms and teaching methods that involve students with disabilities in education were mentioned.

O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha muhim ishlar olib borilmoqda. UNICEF va Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamkorligida inklyuziv maktablar modellashtirilmoqda. Ushbu loyihalar doirasida yangi standartlar va mexanizmlar sinovdan o‘tkazilib, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori bilan 2020-2025 yillarda inklyuziv ta’limni

rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Bu dastur pedagoglar malakasini oshirish va ta’lim muassasalarini zamonaviy jihozlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrdagi 638-son qaroriga ilova «Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi to‘g’risida»gi Nizom inklyuziv ta’lim jarayonini faollashtiradi.

Inklyuziv va uy ta’limi samaradorligini oshirishga qaratilgan texnologiyalarni ishlab chiqish, ayniqsa, talabalarning ko‘ngilli ijtimoiy-metodik harakatlari asosida amalga oshirilganda, zamonaviy ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi. Quyida ushbu soha bo‘yicha ilmiy ma’lumotlar va amaliy yondashuvlar O‘zbekiston kontekstida va xalqaro tajribalar asosida keltiriladi. Xosh, inklyuziv ta’lim nima, ta’lim jarayonidagi ahamiyati qanday?! Savollariga javob beramiz.

Inklyuziv ta’lim nogiron bolalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish hamda umumta’lim maktablarini nogiron bolalarga moslashtirishni ko‘zda tutadigan, ijtimoiy adolat va tenglikni bosh maqsad qilib olgan jarayondir.

Inklyuziv ta’lim hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta’lim olishini anglatadi.Umuman olganda, inklyuziv ta’lim umumiy ta’limni rivojlantirish jarayoni bo‘lib, barcha uchun ta’lim mavjudligini nazarda tutadi, bu alohida ehtiyojli bolalarning ta’lim olish imkoniyatini ta’minlaydi.

Biz ilmiy taqiqotimizda, Respublikasida inklyuziv ta’lim va imkoniyati cheklangan bolalar ta’lima va ularning statikstik holati o‘rganildi. Sog’liqni saqlash vazirligidan olingan ma’nbalarga ko‘ra Qoraqalpog’iston Respublikasida imkoniyati cheklangan bolalar va uy ta’limida sog’ligi sababli ta’lim olayotgan o‘quvchilar holati va ulardagi imkoniyatlar o‘rganildi.

Qoraqalpog’iston Respublikasida nogironligi bor, imkoniyatı cheklangan yoshlar demografik ko‘rsatkichi 9083 bolani tashkil etadi. (1-rasm)



Demak, o‘rganilgan tadqiqotlar natijasida ushbu imkoniyati cheklangan bolalarni ta’lim jarayoniga jalb etish, ularda sog’lom turmush tarziga amal qiluvchi iliq psixologgik muhit yaratishga

doir metodikalar ishlab chiqildi. Inklyuziv ta'lim barcha bolalar, shu jumladan, nogironligi bo'lgan yoki maxsus ehtiyojlarga ega bolalarni umumiy ta'lim jarayoniga qo'shishni nazarda tutadi. Ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlash uchun turli texnologiyalar qo'llaniladi:

O'zaro yordam tizimlari (Peer Tutoring): O'quvchilarning bir-biriga yordam berishi orqali ta'lim natijalarini yaxshilashga xizmat qiluvchi usul. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zaro o'qitish inklyuziv sinflarda o'quvchilarning hamkorligini va motivatsiyasini oshiradi. Masalan, nogironligi bo'lgan bolalar uchun bu usul qo'shimcha yordam sifatida samarali hisoblanadi.

Uy ta'limidagi bolalar va ular bilan olib boriladigan texnologiyalarni biz uy ta'limi (homeschooling) bolalarning maktabdan tashqarida, uy sharoitida ta'lim olishini anglatadi. Tahlillarga ko'ra, maktab yoshidagi bolalarning 80 foizi internet va ijtimoiy tarmoqlarda faol. Bu jarayonda qo'yidagi raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar orqali olib borishda Onlayn Platformalar maqsadga muvofiqdir.

Onlayn Platformalarning pedagogik-psixologik ahamiyati qo'yidagicha olib borish mumkin. Masalan, xalqaro miqyosda Homeschool.com kabi platformalar uy ta'limi bilan shug'ullanayotgan oilalarga o'quv materiallari, resurslar va qo'llab-quvvatlash tarmoqlarini taqdim etadi. Bu platformalar oilalarga tajriba almashish va yangi metodikalarni o'rganish imkonini beradi.

Shuningdek, Respublikamizda uy ta'limi rasmiy qo'llab-quvvatlanmasa-da, ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bu sohada imkoniyatlar ochmoqda. Masalan, "eduportal.uz" kabi onlayn platformalar o'quv materiallari va metodik qo'llanmalar taqdim etib, uy ta'limi bilan shug'ullanayotgan oilalarga yordam berishi mumkin.

Talabalarning ko'ngilli harakatlari ta'lim muhitidagi muammolarni hal qilishda va yangi texnologiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Bu harakatlar quyidagi innovatsion loyihalar asosida amalga oshirilishi mumkin.

Xalqaro tajribadaga asoslanadigan bo'lsak, AQShda talabalar o'zlarining innovatsion g'oyalarini amalga oshirish uchun hackathonlarda ishtirok etadilar. Bu tadbirlar orqali ta'lim texnologiyalari, masalan, mobil ilovalar yoki onlayn platformalar yaratiladi. O'zbekiston bo'ylab barcha OTMlar hamkorligida talabalar uchun shunday tanlovlar tashkil etilishi mumkin.

Talabalar inklyuziv sinflar uchun o'zaro o'qitishni qo'llab-quvvatlovchi mobil ilova yoki uy ta'limi uchun resurslar almashish platformasini ishlab chiqishlari mumkin. Masalan, ushbu platformada homeschooling oilalari o'quv materiallarini yuklash, tajriba almashish va o'qituvchilar bilan bog'lanish imkoniyatiga ega bo'lardi.

Ammo, talabalarning ko‘ngilli harakatlari asosida maxsus texnologiyalar ishlab chiqish bo‘yicha aniq tadqiqotlar hali cheklangan. Shu sababli, bu yo‘nalishda yangi loyihalar va ilmiy izlanishlar zarur.

Xulosa sifatida, talabalarning ko‘ngilli ijtimoiy-metodik harakatlari asosida inklyuziv va uy ta’limi samaradorligini oshirish uchun quyidagi imkoniyatlar mavjud:

Inklyuziv Ta’limi uchun qo‘yidagi takliflar berishimiz mumkin:

O‘zaro yordam tizimlari va raqamli texnologiyalar orqali o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga integratsiyasini oshirish.

Uy ta’limi uchun:

Onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlar yordamida resurslar almashish va oilalarni qo‘llab-quvvatlash.

Talabalarning ko‘ngilli ijtimoiy-metodik harakatlari asosida inklyuziv va uy ta’limi samaradorligini oshiris tashabbuslariga qo‘yidagi takliflarni keltirib o‘tish mumkin:

innovatsion loyihalar orqali ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish.

Demak, O‘zbekistonda bu sohada olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari va davlat dasturlari ushbu jarayonni rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Kelajakda talabalarni faol jalb qilgan holda yangi texnologiyalarni yaratish ta’lim tizimining samaradorligini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 638-сон 12.10.2021. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida (lex.uz)

2. https://uz.goodinternet.org/uz/sections/osmirlar/talim-va-men/inklyuziv/

3. https://president.uz/oz/lists/view/8071

4. Inklyuziv ta’lim. 60111500– Qaraqalpaq tili hám ádebiyatı bakalavr tálim baǵdarı studentleri ushın oqıw qollanba. Seytkasımov D.B., Bekimbetova G.R., Qaypenova T.O., Pirniyazova G.N., Nietullaev N.S.

TALABALARINING DISKURSIV KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASI

Dauletnazarova A.K.
Ajiniyoz nomidagi NDPI tayanch doktoranti

Tayanch so'zlar: diskursiv kompetentsiya, dialogik replika, nutq ko'nikmalari, kommunikativ matn, nutqiy muloqot, mulohaza.
Ключевые слова: дискурсивная компетентность, диалогическое повторение, речевые навыки, коммуникативный текст, речевое общение, рассуждение.
Key words: discursive competence, dialogic repetition, speech skills, communicative text, speech communication, reasoning.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi talabalarning disskursiv kompetentsiyasini rivojlantirishda haqida va ushbu soxada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilingan.
РЕЗЮМЕ:
В этой статье рассказывается о педагогике в развитии дискурсивной компетентности студентов высших учебных заведений и анализируются научные исследования, проведенные в этой области.
SUMMARY:
This article describes pedagogy in the development of discursive competence of students of higher educational institutions and analyzes scientific research conducted in this field.

Jahon amaliyotida axborot kommunikatsion texnologiyalarning taraqqiyoti mamlakatlarning har tomonlama raqobatdoshligini oshirishi, katta oqimdagi axborotlarni to'plashi va umumlashtirishi, boshqaruvni strategik darajada tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratib berishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining diskursiv kompetentsiyasini xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Discours lotinchadan "discursus" – "chapga va o'ngga yugurish, harakat, aylanma harakat, suhbat, gaplashuv" – nutq, til faoliyati jarayoni, internet tizimi orqali gapirish uslublari sanalishi ma'lum.

Tadqiqotchilar diskursiv kompetentsiya muammolarini o'rganish bo'yicha O.I.Kucherenko, N.P.Golovinalar, professional nutq qobiliyatini shakllantirish

bo‘yicha E.V.Musnitskaya, talabalarining nutq ko‘nikmalari bo‘yicha A.I.Ivanchenkolar tomonidan tadqiq etilgan.

Jahon tadqiqotlarida diskurs tahlil muammolarini tadqiq etishga Z.Klemensevich, U.Mukarovskiy, O.Essen, N.Yu.SHvedova, M.L. Mixlina T.G.Vinokur olimlar diskurs xususiyatini o‘rgangan bo‘lsa-da pedagogik ta’limda maktab sinfxonasidagi diskurs holati va uning baholasha muammolari tadqiq etilmagan.

Tadqiqotchilardan S.Boymirzaeva, L.Raupova, B.O‘rinboev, A.H.Hazratqulov va G.Toirova kabi olimlar diskurs, kommunikativ matn, nutqiy muloqot tushunchalari bilan bog’liq tadqiqotlarni amalga oshirishgan.

Tadqiqotchi G.Bekimbetova diskursiv kompetensiya (og‘zaki yoki yozma nutqni rivojlantirish, gaplarni tuzish qobiliyati kiradi. Buning uchun turli sintaktik va semantik vositalardan foydalanish, boshqa insonning fikrlarini, xabarlarni tushinish qobiliyati) deya hisoblaydi.

Talabalarga teran bilim, shu bilan birga, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, ijodiy va yondashuv ko‘nikmalarni rivojlantirishga imkoniyat beradi. Shu jumladan, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida ijodiy energiyani ochib berishi bilan yetakchi bo‘lib, bu talabalarding faolligini oshirishga va hamma uchun o‘quv natijalarini yaxshilashga olib keldi.

S.N.Mitina bo‘lajak o‘qituvchining nutq qobiliyatini shakllantirish muammosini tadqiq qilishda shaxsiy kommunikativ mahoratdan tashqari, tahlil qilinadigan tushunchaga tilshunoslikning asosiy tushunchalarini bilishni ham kiritadi.

Amerikalik tadqiqotchi Z.Xarrisning «Diskurs tahlil» nomli maqolasida ushbu atama ilk bor muomalaga kiritilgan. Bugungi ilmiy jamoatchiligimizda “dialog” atamasiga “diskurs” tushunchasini yaqinroq tutish odat tusiga aylangan. Ammo, diskurs atamasi so‘zlashuv nutqidagi mavjud yuqori hajmli fraza, shu boisdan, u mavjud frazalar bilan o‘zaro aloqadorlik haqidagi yo‘nalish hisoblanadi. Aksincha, diskursiv tahlil natijasida til birligi bo‘lgan gapning yangi o‘ziga xos lingvistik qirralari sifatida ham o‘rganilgan.

L.Raupovaning 2010 yilda nashr qilingan “Dialogik nutqning diskursiv talqini” nomli monografiyasi diologik nutqda ifoda planiga ko‘chadigan mazmun va shakllarni diskurs sifatida namoyon etilishini sohaga qiziquvchilarga taqdim sifatida qabul qilish mumkin.

E.V.Soyfer tomonidan berilganligini kuzatdik: "Nutq kompetentsiyasi, boshqacha aytganda, diskursiv, turli xil nutq turlarini yaratish va tushunish qobiliyati bilan bog’liq”. Bundan tashqari, diskurs "muloqotning ishtirokchilari (va ularning xususiyatlari), shuningdek, xabarni ishlab chiqarish va idrok etish

jarayoni to‘g’risida tushuncha beradigan ijtimoiy kontekstni o‘z ichiga olgan murakkab kommunikativ hodisa" sifatida tushuniladi.

Diskurslarda ya’ni nutq kompetentsiyasida muayyan shaxs to‘plangan sub’ektiv mazmunni amalga oshiradi, tahlil qiladi va refleks natijalarini tarjima qiladi, o‘zini va shaxsiy tajribasini tartibga soladi. Shu boisdan nutq kompetentsiyasi ayrim manbalarda “diskursiv kompetentsiya” deb ham ataladi. Biznincha disskursiv kompetentsiyaning asosi nutq kompetentsiya hosoblsnsdi. Bu bo’yicha L.I.Kirilina nutq kompetentliligini maqsad, soha, muloqot vaziyatiga mos nutq xulq-atvorining o‘z dasturlarini yaratish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui qamrab olishini ta’kidlagan holda, nutq kompetentsiyasining shakllanishidagi quyidagi lisoniy omillarni ajratib ko‘rsatadi:

a) nutq tilshunosligining asosiy tushunchalari – uslublar, nutq turlari, tavsifning tuzilishi, mulohaza, rivoyat, matndagi so‘zlar va jumlalarni bog’lash usullarini bilish;

b) matnni tahlil qilish mahorati va malakasi;

v) muloqot ko‘nikmalari –adresat va uslubni hisobga olgan holda muloqotning turli sohalari va vaziyatlariga nisbatan nutqiy muloqot ko‘nikma va malakalari.

N.N.Romanova va A.V.Filippovaning qayd etishicha, nutq mahorati tushunchasida, "ushbu tilda nutqning erkin amaliy muloqot, ham dialog shaklida, ham monolog shaklida to‘g’ri, ravon va dinamik gapira olishimiz, eshitiladigan va o‘qiladigan nutqni yaxshi tushunishimiz, shu jumladan, har qanday funktsional uslubda nutqni ishlab chiqarish va tushuna olish lozim. Nutq kompetentsiyasi til kompetentsiya, nutqning keng amaliyoti, turli janrdagi o‘qish adabiyotlarining katta hajmi bilan bog’liq va kommunikativ kompetentsiyani aniqlaydi.

Disskurs haqida professor V.I.Tolstix odam «o‘zining hayotdagi o‘rni va qobiliyatining qay darajada ekanligini to‘la anglab etishi uchun dialogik diskursga ehtiyoj sezadi. Xuddi mana shu ehtiyoj shaxsning aniq bir xarakter, aniq bir tip sifatida shakllanishiga yordam beradi» deya ta’kidlab o‘tgan.

Birmingem universiteti professorlari Sinclair va Coulthard (matn davomida – Sinklear, Kaulfardlarning diskurs o‘qituvchi-o‘quvchi so‘zlashuvi modeli sifatida qarab universitetda maktab darslaridagi so‘zlashuv diskursni tahlil qilib, dastlabki tadqiqot sifatida maktab sinfxonalarida diskurs strukturasi o‘rganildi.

Bizning nazarimizda, nutq kompetentsiyasining xarakterli mohiyati diskurs xususiyatga egali va o‘rganuvchilarning verbal (og’zaki) xatti-harakati sifatlarini aks ettirishligidan iborat. Nutq kompetentsiyasi bir vaqtning o‘zida professional faoliyatda ichki tajriba uchun aks ettirish va ishga tushirish me-



xanizmi sifatida xizmat qiladi. Insonning kontseptual va hissiy tajribasi, asosan, belgi, ishora kommunikatsiyalari orqali namoyon bo‘ladi, uzatiladi va qabul qilinadi. Bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarinining disskursiv kompetentsiyasini rivojlantirishda nutqini idrok etish, nutq faoliyatining mantiqiy va ekspressiv shakllari, sheriklariga ta’siri va boshqa jarayonlarda namoyon bo‘ladi.

Biz pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi talabalarning disskursiv kompetentsiyasini rivojlantirishda quyidagi xususiyatlarini belgilash maqsad qilindi. (1-rasm)

Demak, biz talabalarning disskursiv kompetentsiyasini rivojlantirishda qo‘yidagi takliflarni berish mumkin:

a) pedagogika oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonni shunday tashkil etish kerakki, unda talabaning nutq kompetentligini shakllantirish jarayoni samaraliroq bo‘lsin;

b) nutq kompetentligini muvaffaqiyatli shakllantirish nafaqat nutq faoliyatiga oid maxsus fanlarini o‘rganishda, masalan, “O‘qituvchi nutq madaniyati” fani kabi, balki o‘quv rejasiga muvofiq talabalar tomonidan o‘rganiladigan barcha boshqa fanlarning asosiy vazifalaridan biri bo‘lishi kerak;

v) kelajakdagi o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligidagi har qanday akademik intizom talabalarning nutq faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi zarur.

Xullas, bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvichlarining disskursiv kompetentsiyasiga doir mulohazalar asosida quyidagi xulosalarga kelamiz:

1. Disskursiv kompetentsiya nutq-fikrlash faoliyati, lug’at boyligi, intellektual va salohiyati, kompetentli milliy kadr darajasiga etkazishga lisoniy omil sifatida xizmat qiladi.

2. Bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘kituvchilarining niyatlari, fikr-mulohazalari, ichki kechinmalarini muayyan maqsadlarda ifodalash uchun faqat o‘zigagina xos va mos nutq qobiliyatidan samarali foydalanishi, talabalarning kommunikativ qobiliyatinining buyuk siymosi.

3. Disskursiv kompetentsiya mazmun-mohiyatiga ko‘ra, muayyan bilimni egallash, axborotni olish va uzatish, kommunikativ aloqa va rag’batlantiruvchi (motivatsiya) vazifalarni bajaradi. B vazifalar o‘zaro bir-biri bilan bog’liqlikda bo‘ladi, muayyan nutqiy jarayonda esa biri ikkinchisiga o‘tishi ham mumkin.

FOYDALAINILGAN ADABIYOTLAR:

1. Klemensievicz Z. Zarus ksladni polskiej, Warszawa, 1957
2. Mucarousky U. Dialog a monolog w “Lesty filologicke”, Praha, 1940. - № 6.
3. Essen O. Grundzuge der hochdeutschen Satzintonation, Hamburg
4. Шведова Н.Ю. Очерки по синтаксису русской разговорной речи: Автореф. дисс … д-ра филол.наук. - М.: 1958.
5. Михлина М.Л. Из наблюдений над синтаксисом диалогической речи: Автореф. дисс ... канд. филол.наук. - Л.: 1955.
6. Винокур Т.Г. О некоторых синтаксических особенностях диалогической речи в современном русском языке. :Автореф. дисс ... канд. филол.наук. - М.: 1953.
7. Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шаклланти-рувчи категориялар. Филол. фан. д-ри дис. автореф. – Тошкент, 2010. – Б. 21; Раупова Л. Диалогик дискурсдаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи. Филол. фан. док-ри. ... дис. – Тошкент, 2012. – Б. 53.
8. Ўринбоев Б. Ўзбек тили сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари. – Тошкент, 1974.
9. Ҳазратқулов А.Ҳ. Диалогик нутқ синтаксисининг баъзи хусусиятлари (диалогик бирлик ҳақида методологик кўргазма). – Қарши, 1978. – Б. 36; Тоирова Г. Нутқий мулоқотнинг лисоний вербал ва лисоний новербал воситалари хусусида (саломлашиш мисолида) // БухДУ илмий ахбороти, 2018. – № 1. – Б. 67-74.
10. Bekimbetova G.R. Diskursiv kompetensiya asosida talabalarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi // Ilm sarchashmalari. – Urganch davlat universitetining ilmiy-nazariy, metodik jurnali. 2023, -№9. –B.83-85. (13.00.00; №31).
11. Зимняя И.А. Психологические аспекты обучения говорению на иностранном языке. М., МГУ, 1998, с. 142.
12. Митина С.Н. Проектирование в формировании речевой компетенции будущего учителя // Высшая школа. 2004. № 5. С. 32-35.
13. Harris Z.S. Analyse du discours // Languages, 1969. – №13. – P. 8-45
14. Dubois J., Giacomo M. et al. Dictionnaires de linguistique. – Paris: Larousse, 1973. – 516 p
15. Раупова Л. “Диалогик нутқнинг дискурсив талқини”. - Т.: 2010.
16. Сойфер Э.В. Создание и восприятие дискурса в условиях управляемого общения на иностранном языке // Казанская лингвистическая школа: традиции и современность. Казань, 2003. С.70-75
17. Жуманазаров Умид Умирзакович. Таълимни рақамлаштириш муҳитида бўлажак инглиз тили ўқитувчиларининг лингвистик компетенциясини ривожлантириш. педагогика фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган ДИССЕРТАЦИЯ. Жиззах – 2021.25-б
18. Кирилина Л. И. Современные технологии обучения русскому языку как средство повышения каче-ства образования в условиях модернизации и профессиональная компетентность учителя // Современные наукоемкие технологии. 2005. № 6. С. 82-88
19. Романова Н. Н., Филиппов А. В. Словарь. Культура речевого общения: этика, прагматика, психология. М., 2010. С. 174.
20. Толстих В.И.С чего начинается личность: сборник. -М., 1984. - С.99.
21. Sinclair, J. McH., and R. M. Coulthard. 1975. Towards an Analysis of Discourse. -Oxford: Oxford University Press. - 265 p.

MULTIMEDIYA VOSITALARIDAN FOYDALANIB DARS SIFATINI OSHIRISHNING AFZALLIKLARI

Vakilova N.Z.
ATMU Boshlang‘ich ta’lim 2-kurs talabasi

Tayanch so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, multimediya vositalari, dars sifati, interaktiv ta’lim, texnologiyalar.
Ключевые слова: начальное образование, мультимедийные средства, качество урока, интерактивное обучение, технологии
Key words: primary education, multimedia tools, lesson quality, interactive learning, technologies.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida multimediya vositalaridan foydalanishning afzalliklari yoritilgan. Multimediya vositalarining dars jarayoniga ijobiy ta’siri, ularning o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otishi, tushunchalarni chuqurroq anglashga yordam berishi hamda dars samaradorligini oshirishi tahlil qilingan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматриваются преимущества использования мультимедийных средств в процессе начального образования. Проанализировано положительное влияние мультимедиа на образовательный процесс, пробуждение интереса у учащихся, улучшение понимания учебного материала и повышение эффективности уроков.
SUMMARY:
This article explores the advantages of using multimedia tools in primary education. It analyzes the positive impact of multimedia on the learning process, including increasing student engagement, improving comprehension of concepts, and enhancing lesson effectiveness.

Bugungi kunda ta’lim sohasida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning mavzuni tezroq va yaxshiroq tushunishi uchun multimediya vositalaridan foydalanish juda muhimdir. Multimediya vositalari yordamida darslar yanada qiziqarli, jonli va interaktiv shaklga kiradi.

Multimedia atamasining lug‘aviy ma’nosi [multimedium] (yoki ingl. multimedia) kabi ikkita so‘z yig‘indisidan tashkil topgan bo‘lib, multi - ko‘p, media - muhit ma’nosini anglatadi. Atama ilmiy va o‘quv adabiyotlarida “ko‘p

vositalilik", "multimedia muhiti", "ko'p qatlamli muhit", "multimedia - bittadan ko'p bo'lgan mediadir", "mahsulot tashuvchi vosita", "ma'lumot tashuvchi vosita" kabi talqin qilinib kelinmoqda, hatto ayrim adabiyotlarda hozirgacha multimedianing aniq ta'rifi mavjud emasligi ham e'tirof etilgan. Hozirgi davrda multimedia atamasi ko'p qirrali bo'lib, turli xil tushunchalarni ifodalashga tatbiq etilib kelinmoqda. Masalan, multimedia texnologiyasi, multimedia mahsuloti, multimediali kompyuter, multimedia dasturi, multimedia didaktik vositasi va boshqalar shular jumlasidandir.

"Multimedia" tushunchasining adabiyotlarda yoritilgan bir nechta tarifini keltiramiz: "Multimedia - deganda turli shakldagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi", "Multimedia - bir vaqtning o'zida turli ko'rinishdagi axborotlardan: matn, grafika, tovush va boshqalardan foydalanishni ko'zda tutgan foydalanuvchi interfeysining animatsiyasi", " Multimedia - bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida axborotning an'anaviy va original turlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir", "Multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir", "Multimedia - bu maxsus texnologiya bo'lib, dasturiy va texnik moddiy ta'minot asosida kompyuterda bir vaqtning o'zida matnli, tasviriy axborotni tovushli va harakatli holda (hattoki videofilm holatida) ifodalash imkoniyatidir", "Multimedia - tasvirli ma'lumotlar bilan ishlashga qodir bo'lgan vosita hisoblanadi" "Odatda multimedia deganda turli shakldagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi", "Multimedia - kompyuter tizimida matn, tovush, videotasvirni va turli animatsiyalarni mujassamlashtirish imkonini beruvchi zamonaviy axborotlar texnologiyasidir".

Multimediya vositalari - bu axborotni matn, grafik, audio, video va animatsiya orqali yetkazishga xizmat qiluvchi texnologik vositalardir.

Multimediya vositalarining afzalliklari juda ko'p bo'lib, boshlang'ich ta'limda multimediya vositalaridan foydalanish quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi. O'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Yangi bilimlarni tez va samarali o'zlashtirishga yordam beradi. O'quvchilarning tasavvur va xotirasini rivojlantiradi. Darslar ko'rgazmali va interaktiv bo'ladi. O'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammo yechishga oid ko'nikmalar shakllanadi.

Afsuski, ayrim ta'lim muassasalarida texnik jihozlar va multimediya vositalari bo'yicha metodik ta'minot yetarli emas yoki o'qituvchilar multimedia texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmaga ega emaslar. Bu muammoni hal qilish uchun o'qituvchilarni malaka oshirish

kurslariga jalb qilish, maktablarni texnik jihozlar bilan ta’minlash, multimediya vositalaridan maqsadli va samarali foydalanishni o‘rgatish zarur boshlang‘ich ta’limda multimediya vositalaridan foydalanish dars jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali qilishi mumkin. Bu esa o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirib, ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Shu sababli, zamonaviy o‘qituvchi har bir darsga multimediya yondashuvini olib kirishi maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida raqamlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish bo‘yicha izchil islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, multimedia vositalaridan foydalanish orqali ta’lim samaradorligini oshirish bo‘yicha qator choralar ko‘rilmoqda. Maktablarda interaktiv doskalar, planshetlar, proyektorlar, elektron darsliklar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. “Digital ta’lim”, “Elektron jurnal”, “Maktab TV” kabi loyihalar multimediya ta’limining amaliy ifodasidir. Biroq, aksariyat hollarda texnik baza yetarli darajada emasligi yoki o‘qituvchilarning bu boradagi ko‘nikmalari sustligi bois multimedia vositalaridan to‘liq foydalanilmaydi. Ta’lim muassasalari o‘rtasida bu boradagi imkoniyatlar notekis taqsimlangan. Xalqaro tajribaga murojaat qilsak, Finlyandiya ta’lim tizimida multimediya vositalari asosiy o‘quv resurslaridan biri hisoblanadi. O‘quvchilar sinfda ham, uyda ham onlayn platformalar orqali bilim oladilar. Har bir dars multimediya kontenti bilan boyitilgan va o‘qituvchilar zamonaviy texnologiyalarni samarali qo‘llashga muntazam o‘qitilib boriladi. Janubiy Koreya esa dunyoda eng ilg‘or raqamli ta’lim tizimiga ega davlatlardan biri bo‘lib, u yerda darslarning aksariyati elektron resurslar asosida olib boriladi. Maxsus ta’limiy ilovalar, sun’iy intellekt asosidagi baholash tizimlari faol ishlatiladi. AQShda esa multimediya vositalari o‘quvchilarning individuallashtirilgan ta’limiga xizmat qiladi. Masalan, har bir o‘quvchi o‘z qiziqishi va bilim darajasiga qarab onlayn kurslar, video darslar, ta’limiy o‘yinlar orqali bilim oladi. Ushbu davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, multimediya texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun texnik bazani doimiy yangilab boorish va o‘qituvchilarni maxsus kurslarda tayyorlash yoki muntazam o‘z ustida ishlashlari juda muhim sanaladi.

Multimediya vositalaridan samarali foydalanish uchun o‘qituvchilarning pedagogik va texnologik ko‘nikmalari muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich ta’limda dars jarayonini boyitish, o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undash hamda mavzularni tushunarli yetkazish uchun quyidagi tavsiyalarni e’tiborga olish zarur:

Multimediya dars ishlanmasini oldindan tayyorlash

Har bir dars uchun mavzuga mos videoroliklar, animatsiyalar, grafiklar, audio materiallar yoki testlar tayyorlab qo‘yilishi lozim. Bu o‘quvchilarning e’tiborini jalb qilishga va mavzuni yaxshiroq tushunishiga xizmat qiladi.

Interaktiv vositalardan foydalanish

Kahoot, Wordwall, Quizizz, Nearpod kabi bepul interaktiv platformalarda darslarni jonlantirish mumkin. Ushbu vositalar yordamida:

Matematika darsida “tez javob” testlari

Ona tili darsida so‘z topish o‘yinlari

Tabiiy fanlarda “to‘g‘ri noto‘g‘ri” viktorinalar tashkil qilish mumkin.

Raqamli texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish

Agar maktabda texnik baza cheklangan bo‘lsa, har bir darsga emas, haftasiga kamida 1–2 darsga multimediya elementlarini qo‘shib borish tavsiya etiladi. Bu ham ta’sirli, ham real yondashuv bo‘ladi.

Mavzularni vizual materiallar bilan boyitish

Rasmlar, jadvallar, diagrammalar, audio hikoyalar o‘quvchilarda mavzuga nisbatan tushunchani mustahkamlaydi. Ayniqsa, yosh bolalar uchun ko‘rgazmali yondashuv katta ahamiyatga ega.

Texnologik ko‘nikmalarni rivojlantirish. O‘qituvchilar doimiy ravishda multimedia vositalaridan foydalanishni o‘rgatuvchi treninglarda, onlayn kurslarda ishtirok etishlari zarur. Bu esa ularning dars samaradorligini oshiradi va yangi texnologiyalarga moslashuvchanlikni ta’minlaydi.

O‘quvchilarni ham jalb qilish. O‘quvchilarning o‘zlari ham taqdimotlar tayyorlash, videoroliklar tahlil qilish yoki multimediali topshiriqlar bajarish orqali darsda faol ishtirok etadilar. Bu esa ularning ijodkorligi va mas’uliyatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda multimedia vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini jonlantiradi, ularning darsga nisbatan qiziqishini oshiradi hamda mustaqil fikrlash, axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Multimediali darslar o‘quvchining eshitish, ko‘rish, harakat orqali bilimlarni tez va samarali o‘zlashtirishiga yordam beradi. Biroq, bu vositalardan to‘laqonli foydalanish uchun o‘qituvchilarning texnologik savodxonligi, ta’lim muassasalarining texnik ta’minoti va sifatli o‘quv resurslarining mavjudligi muhim omillardandir.

Kuzatishlar shuni kor’satadiki, 80-90 % bolalar kompyuter o‘yinlarini o‘ynashga qiziqishar ekan. Bundan dalolat beradiki yosh bolalarni qiziqishlariga qarab turli xildagi didaktik o‘yinlar, mashg‘ulotlar, rangli tas’virdagi chizmalarni ko‘rsatish orqali ularning dunyoqarashini, axloqiy madaniyatini shakllantirish, topshiriqlar orqali ularning olgan bilimlarini xotirasida mustahkam saqlanib

qolishiga erishish mumkin ekan. Buning uchun har bir o‘qituvchisi yaratilgan electron qo‘llanmalar, multimediali ilovalar bilan tanishib chiqishi, ulardan dars jarayonini tashkil qilishda unumli foydalana olishi lozim.

Xorijiy tajribalar, xususan Finlyandiya, Janubiy Koreya va AQShda multimedia vositalarining ta’limdagi keng qo‘llanilishi shuni ko‘rsatadiki, bu vositalar orqali o‘quvchilarda chuqur tushunish, mustaqil izlanish va amaliy bilimlar shakllanishi mumkin. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham bu borada bosqichma-bosqich ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarda raqamli ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” PQ-289-son qarori
3. Rasulova N. “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi”, Toshkent, 2021
4. www.uzedu.uz - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi rasmi sayti

TALABALARDA ANALITIK MUSHOHADA QILISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING AHAMIYATI

Arziyeva S.I.
NDKTU "Oliy matematika va AT" kafedrasi v.b. dotsenti

Tayanch so'zlar : pedagogika, ta'lim, texnologiya, qobiliyat, diagnostika.
Ключевые слова: педагогика, образование, технологии, способности, диагностика.
Key words: pedagogy, education, technology, ability, pedagogical diagnostics.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada talabalarda analitik mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda pedagogik diagnostikaning ahamiyati o'rganilgan. Shuningdek, hozirgi davrda yoshlarning kasbiga oid bilimlarini hayotda qo'llashlari uchun keng imkoniyatlar berilganligi, ushbu vazifaning ta'minlanishi ta'lim sifatini oliy darajada ko'tarishi mumkinligi haqida izchil va puxta fikrlar yoritib berilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье исследуется значение педагогической диагностики в развитии аналитического мышления у студентов. Кроме того, последовательно и обоснованно раскрыты идеи о том, что в настоящее время молодёжи предоставлены широкие возможности для применения профессиональных знаний на практике, и что обеспечение данной задачи может существенно повысить качество образования.
SUMMARY:
This article explores the significance of pedagogical diagnostics in developing students' analytical thinking abilities. Furthermore, it presents a coherent and well-substantiated discussion on how, in the current era, young people are provided with broad opportunities to apply their professional knowledge in real-life contexts, and how fulfilling this task can significantly enhance the quality of education.

Professional ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar o'zining pedagogik faoliyatida pedagogik diagnostika bilan shug'ullanishlari lozimligi bugungi kun talablaridan biridir. Har qanday faoliyat zamirida ham amalga oshirilgan ishlarning pirovard maqsadi, vazifalari va kutilgan natijalari bo'ladi. Faoliyat natijalarini sarhisob qilish, amaliy xulosalar yasash–bo'sh yoki muvaffaqiyatli o'rinlarni belgilab olish, faoliyatning keyingi bosqichlarida uni hisobga olish diagnostika deyiladi. Pedagogik diagnostika talabaning o'zlashtirishi,

oʻqishdagi qiyinchiliklarini, uning oʻqishiga ta'sir qilayotgan ijtimoiy, oilaviy omillarni oʻrganishga yoʻnaltirilgandir.

Diagnostika natijalari esa ta'lim-tarbiya jarayonini toʻgʻri rejalashtirish, yoʻl qoʻyilgan xatolarni tuzatish, psixologik-pedagogik profilaktika ishlarini olib borish imkonini beradi. Bugungi kunda psixologik pedagogik diagnostikaning oʻrni, ahamiyati qanchalik katta ekanini hech kim inkor qilmaydi. Individual yondashish, oʻquvchi va talabalarning individual xususiyatlarini oʻrganish shart ekanligi bir qancha davlat hujjatlarida aks ettirilgan.

Pedagogik diagnostika pedagogika va psixologiya fanlarining oraligʻidagi soha boʻlib, talaba shaxsini, uning individual xususiyatlari, rivojlanish dinamikasi va ularga ta'sir qiluvchi omillarni oʻrganadi. Pedagogika diagnostika ta'lim samaradorligi, ish mazmuni, olib borilgan pedagogik faoliyatni tahlil qilishda katta ahamiyatga ega boʻlib, ilgʻor ta'lim muassasalarida bu ish uslubi muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilmoqda, yutuqlar mustahkamlanib, yoʻl qoʻyilgan kamchilik va nuqsonlarni tahlil qilish asosida bosh strategik yoʻnalishlar belgilab olinmoqda.

Taniqli pedagogik olim Macherman pedagogik diagnostikani "Oʻquvchi oʻzlashtirishi bilan, oʻquv materialini toʻgʻri tanlash, maqsadni toʻgʻri yoʻnaltirish mezonidir" deb hisoblaydi. Aslida pedagogik diagnostika oʻquv materialini bilish jarayonining asosini tashkil etib, maqbul pedagogik xulosaga kelishga zamin yaratadi. Shu boisdan ham, pedagogik diagnostika: birinchidan, oʻquvchiga individual ta'lim berishni jadallashtiradi; ikkinchidan, davlat va jamiyatning ta'limga qoʻygan talablaridan kelib chiqib, oʻquvchi bilimini toʻgʻri, adolatli baholashni ta'minlaydi; uchinchidan, ishlab chiqilgan ta'limiy mezon, kriteriyalari orqali oʻquvchining sinfdan sinfga oʻtishda, mutaxassislikka qabul qilinishida minimal talablarga javob berishini belgilaydi.

Pedagogik diagnostika yordamida ta'lim-tarbiya jarayoni toʻgʻri tahlil etiladi va uning samaradorligi toʻgʻri baholanadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogik diagnostika orqali ta'lim obyekti, ta'limiy tushunchalar qay darajada oʻzlashtirilganligi tahlil etiladi, butun oʻquv kursini, oʻquv dasturlarini oʻzlashtirish darajasi baholanadi. Pedagogik diagnostka muhim ahamiyatga ega. U oʻquv-tarbiya jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi, ta'limiy faoliyat natijasida erishilgan samaralarni xolislik bilan belgilab beradi, yoʻl qoʻyilgan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishga yoʻl ochadi, pirovard natijada ta'limning takomillashib borishiga ijobiy ta'sir qiladi. Tadqiqot davomida integrativ texnologiyalar pedagogik diagnostika, axborot-kommunikatsiya, psixodiagnostika sohasidagi testlar bilan bogʻliq holda oʻrganildi.

Pedagogik diagnostika sifatini belgilashda beshta kategoriyaga tayaniladi: testlarni yaratish maqsadi, testni strukturalashtirish, me'yorlar (normalar), ishonchlilik va validlik. Bundan ko'rinadiki, testlar va so'rovnomalar yaqqol talabalarda analitik mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirish bosqichlarida o'z ifodasini topadi. Ularni baholash esa o'ziga xos tizimga ega. Baholash tizimidagi yetakchi kategoriyalar, ya'ni ishonchlilik va validlikni o'zini ham to'g'ri farqlay olish lozim. Adabiyotlarda qayd etilgan ma'lumotlarga tayanganimizda, test nazariyalari borasida o'ziga xos tajribalar va talablar aniq belgilab qo'yilganligini guvohi bo'lamiz [48,49,60,61]. Testlar va so'rovnomalarni yaratish, ularni bir muhitdan ikkinchisiga moslashtirish yoki yangi modifikatsiyalarni yaratishni o'zi ulardan muttasil foydalanish lozim degan xulosani bermaydi. Testlar va so'rovnomalarni ishonchli va validligini belgilovchi standartlar mavjud. AQShda har yili ob'ektiv ko'rsatkichlarga ega bo'lgan testlar va so'rovnomalar haqida "Aqliy qobiliyatlarni o'lchash yilnomasida" ma'lumotlar berib boriladi. Bundan ko'rinadiki, qator mamlakatlarda testlar va so'rovnomalar rasmiylashtiriladi va baholanib boriladi.

Pedagogik diagnostika sohasidagi testologiya ma'lumotlarini tahlil qilish natijasidan aniqlanishicha, talabalarning o'rganilayotgan (yoki o'rganilishi lozim bo'lgan) materialni idrok qilishini tashkil etar ekan, o'qituvchi ularning hayotiy tajribasi va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda material to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilib, oldindan uni butunligicha tushuntiradi va ko'rsatadi. O'rganilayotgan materialni anglash-o'rganilayotgan obyekt haqidagi umumiy tasavvur asosida uni tushunishni ta'minlovchi, asta-sekin chuqurlashib boruvchi jarayon.

Bilimlarni mustahkamlanishi, ko'nikma va malakalarnining hosil bo'lishi o'quv materialini idrok etish va fahmlab olish jarayonida o'zlashtirish, mustahkamlash va takomillashtirishni talab etadi. Inson faoliyatining hamma asosiy turlari kabi o'qish uning tevarak-atrof olamni va o'z-o'zini bilish bilan bog'langan. Ta'lim jarayonining bu ikki tomoni (o'qitish va o'qish) bir maqsad: ta'limning xilma-xil vositalari va metodlaridan foydalangan holda o'quv materialni egallab olish maqsadi bilan birlashgandir. Informatikani o'qitishda tahsil oluvchining bilish faoliyati va uning tuzilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarda analitik mushohada qilish qobiliyatini rivojlantirishda integrativ texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi. Xususan, o'qitish o'qituvchi rahbarligida talabaning o'quv materiallarini rejali ravishda bilib olish jarayonidir. Bu jarayonni bilish bosqichidan iborat bo'lgan tarkibiy qismlarga yoki komponentarga ajratish

mumkin. Talaba bilmaslikdan bilish, uddasidan chiqa olmaslikdan uddalay olish, malakalar hosil qilish yo‘lidan borib, ushbu bosqichlardan o‘tishi kerak.

O‘qitish jarayoni bir nechta asosiy bosqichdan iboratligi tadqiqotlar natijasida aniqlandi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Talabalarda analitik mushohada qilish qobiliyatini rivojlantirishda integrativ texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq qilish.

Har bir bosqich uchun talabalarning muayyan xarakterdagi bilish faoliyati xarakterli bo‘lib, uning bilish faolligi intellektual mulohazasida, umumiy va alohida topshiriqlarni bajarishida namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki, bilish faoliyatining sub’yekti talaba sanaladi. Shu bois ijtimoiy-pedagogik asoslarga ega ta’lim markazida uning shaxsi, ongi, ham o‘rganilayotgan olamga, ham bilish faoliyatidagi hamkorlariga: talabalar va uning ta’lim olishini tashkil etuvchi va yo‘naltiruvchi o‘qituvchilar munosabati yotadi. Bu masala barcha davrlarda birdek ahamiyat kasb yetib kelgan. Bu xususiyatlar talabalarning faqatgina yuqori darajadagi bilim olishini kafolatlab qolmay, balki uning hayotiy faoliyati, ya’ni talaba shaxsining shakllanishi, uning amaliyotga, hayotga bo‘lgan faol munosabati uchun xarakterlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ 3775 sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi «O‘zbekistonning yangi taraqqiyoti davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6108-son Farmoni.

3. Abdullaeva B.S. Matematika darslarida o‘quvchilarning bilimini baholash. Monografiya.-T.:Nodirabegim,2020.

4. Abdullaeva Sh., Ergasheva M.T. Xalqaro baholash dasturlarida tabiiy va ilmiy savodxonlik. O‘quv qo‘llanma.Toshkent: 2022 y.

5. Abdullaeva Sh., Ergasheva M. O‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligi monitoringida baholash dasturlaridan foydalanish (PISA, TIMSS misolida). Monografiya.-T.:Nodirabegim, 2023.

6. Arziyeva S.I., Dj.N. Murodullayevna, Norov G.M. “Methods for solving some types of integrals using complex numbers”. Вестник науики и образования. 4-2 (124), 2022.

7. Arziyeva S.I., Normurodovna J.U. “Application of complex numbers”. Проблемы современной науки и образования. 5(125), 2018.

8. Arziyeva S.I. “Formula for calculating the sum of n of some types of numbers”. Наука техника и образование. 5(88), 2022.

TALABALARDA ANALITIK MUSHOHADA QILISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Arziyeva S.I.
NDKTU "Oliy matematika va AT" kafedrasi v.b. dotsenti

Tayanch so'zlar: pedagogika, texnologiya, model, integratsiya.
Ключевые слова: педагогика, технологии, модел, интеграция.
Key words: pedagogy, technology, model, integration.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada talabalarda analitik mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirish modeli takomillashtirilgan. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda yosh avlodning kasbiy bilimlarini amaliyotda qo'llashlari uchun qulay sharoit va keng imkoniyatlar yaratilganligi, mazkur vazifaning samarali amalga oshirilishi ta'lim sifati va samaradorligini yuqori bosqichga olib chiqishi mumkinligi borasida izchil, asosli va puxta tahlillar bayon etilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье усовершенствована модель развития аналитического мышления у студентов. Наряду с этим, изложены последовательные, обоснованные и глубокие аналитические рассуждения о том, что в современных условиях созданы благоприятные условия и широкие возможности для практического применения молодёжью профессиональных знаний, а эффективная реализация данной задачи может вывести качество и результативность образования на более высокий уровень.
SUMMARY:
This article presents an improved model for the development of analytical thinking skills among students. In addition, it offers consistent, well-founded, and thorough analytical reflections on the fact that, under modern conditions, favorable circumstances and broad opportunities have been created for the practical application of professional knowledge by young people, and that the effective implementation of this task can elevate the quality and effectiveness of education to a higher level.

Biz tadqiqotlarimiz davrida talabalarda analitik mushohada yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan modelni takomillashtirishga kirishdik (1-rasmga qarang). Model ularning bilim o'zlashtirishlaridagi tegishli kompetensiyalarni egallaganlik darajasini baholash jarayonining algoritmlashtirilgan bosqichlarini ifoda etadi. Aynan mana shu bosqichlar talabalarning analitik mushohada yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat

qildi. Shuningdek, talabalarning uzluksiz va tizimli sur'atda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalarni ham o'z ichiga oldi.

Ma'lumki, model biror tizim haqida ma'lumot olish vositasi bo'lib xizmat qiladigan o'rganish vositasidir. U qandaydir real jarayon, qurilma yoki konsepsiyani ifodalaydi. U qandaydir shakldagi masalan, matematik, fizik, ramziy, grafik yoki tavsifiy voqelikning abstrakt tasviri hisoblanadi.

Tadqiqot mobaynida talabalarning analitik mushohada yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishda integrativ texnologiyalar axborot berishlari, quyilgan topshiriqlarni to'liq bajarishlariga imkoniyat yaratildi.

Rasmda tasvirlanganidek, talabalarda analitik mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan integrativ pedagogik texnologiya tuzilmasi o'zaro hamkorlikdagi, ya'ni interfaol, didaktik va raqamli kabilarning uyg'unligidagi yaxlit jarayonni aks ettiradi va ular o'z navbatida guruhlanadi hamda talabalarning ichki qobiliyatlari va ta'lim ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallanadi.

Talabalarda analitik mushohada qilish qobiliyatlarini integrativ pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish uchun quyidagi bosqichlar takomillashtirildi:

1-bosqich. Tashkiliy (talabalarni faoliyatga jalb qilish, mazmun sohasini ajratish);

2-bosqich. Bilimlarni aktuallashtirish (yangi bilimlarni "kashf qilish" uchun etarli bo'lgan BKMni dolzarblashtirish, individual faoliyatdagi qiyinchiliklarni tuzatish-davomiyligi 5-10 daqiqa);

3-bosqich. Muammoni bayon qilish-baland ovozli nutqda fiksatsiya qilish (qiyinchilik qaerda paydo bo'ldi, nima uchun paydo bo'ldi, mashg'ulot mavzusi nima);

4-bosqich. Talabalar tomonidan yangi bilimlarni "kashf etish", evristik (talabalarni masalani yechish usulini tanlash vaziyatiga kiritish, talabalar tomonidan tanlangan metod yordamida masalani yechish, tilda yangi algoritm–tushunchani o'rnatish);

5-bosqich. Birlamchi konsolidatsiya-tafakkurni shakllantirishning mohiyati (talabalar tomonidan tipik vazifalarni hal qilish, baland ovozda hal qilish usulini talaffuz qilish);

6-bosqich. Mashg'ulotda o'z-o'zini tekshirish bilan mustaqil ish (talabalar tomonidan namunaviy topshiriqlarni mustaqil ravishda hal qilish, ularning ishlarini mustaqil tekshirish, muvaffaqiyat holatini yaratish);

7-bosqich. Takrorlash (yangi bilimlarni bilimlar tizimiga kiritish, ilgari o'rganilganlarni takrorlash va mustahkamlash uchun vazifalarni hal qilish);

8-bosqich. Mashg‘ulot natijasi (faoliyatni aks ettirish-nimani yangi o‘rgandingiz, qanday vosita bilan, talabalar tomonidan o‘z faoliyatini baholash). Shuningdek, ularda ijodiy, algoritmik fikrlash, ma’suliyat ko‘nikmalarini shakllantiradi. Integrativ pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq qilish jarayonida yangi mazmun va mohiyatga ega bo‘lgan boshqaruv faoliyati yaratuvchanlik, ijodkorlikka intilish hissi bilan yo‘g‘rilgan. Ushbu texnologiyalarning xarakterli jihatlari ta’lim subyektlarida izlanuvchanlik faoliyatining birgalikda amalga oshirilishidadir. Hissiy-obrazli muhokama va tanlov natijasida shaxslararo mustahkam hamkorlikdagi harakat vujudga keladi.

Modelda aks ettirilganidek, talabalarning analitik mushohada yuritish qobiliyatlari darajasi bashoratlovchi: diagnostik, kvalimetrik monitoringini tashkil etish, qo‘lga kiritilgan ma’lumotlarni qayta ishlash, ularning statistik ishlovini amalga oshirish, texnik modellashtirish va dizayn bilan bog’liq tadbirlarni o‘z ichiga olishni bildiradigan faoliyat bilan birga, qisman-qidiruv metodlaridan foydalanishga imkoniyat yaratdi.

Bunda tahsil oluvchi tomonidan internet axborotlarini o‘quv jarayonining barcha bosqichlarini mustaqil ravishda egallashni talab qiladigan ishlarni bajarish va qidiruv faoliyatini olib borishga undovchi yo‘ldan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi kuzatildi.

Model vositasida talabalarda analitik fikrlash darajasini bir necha o‘qitish jarayonining bosqichlari: ko‘nikma, malaka, kompetensiya, tashkil etish kabilarda namoyon bo‘ldi.

Integrativ texnologiya mexanizmlarini o‘rganish natijasida model komponentlari takomillashtirildi. Hamkorlikka oid qat’iy talablarning ishlab chiqilganligi uni o‘quv jarayoni bilan birgalikda amalga oshishiga asos bo‘ladi. Integrativ pedagogik texnologiyalar asosida talabalar o‘zining va o‘zgalarning mulohazalarini, bu mulohazalarning chin yoki chin emasligini tekshira bilish va namoyon bo‘lgan mulohazalarga, muhokamalarga, muammoli vaziyatga baho bera bilishda aqlning tanqidiyligiga tayanadilar.

Agar tanqidiylik oqilona, muhim belgilarga, muammo mohiyatining to‘g‘ri ochilishiga, ba’zan etalonga asoslanib amalga oshsa, obyektiv qaror chiqarishlariga imkoniyat kengayadi. Talabalarda tafakkurning tanqidiyligi oqilona ratsional tarzda vujudga kelib, ular analitik mushohada qilishga o‘rganadilar.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, talabalarning analitik mushohada yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishda integrativ texnologiyalar ta’lim sifati natijaviyligini ta’minlovchi, istiqbolli rejalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan modelda o‘z ifodasini topdi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagilarni inobatga olib, talabalarning analitik mushohada yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan model takomillashtirildi, shuningdek model asosida tashkil qilingan tajriba mashg‘ulotlarida talabalarning analitik mushohada yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan jarayon integrativ asosida yoritib berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi «O‘zbekistonning yangi taraqqiyoti davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6108-son Farmoni.

2. Abdullaeva B.S. Matematika darslarida o‘quvchilarning bilimini baholash. Monografiya.-T.:Nodirabegim,2020.

3. Abdullaeva Sh., Ergasheva M.T. Xalqaro baholash dasturlarida tabiiy va ilmiy savodxonlik. O‘quv qo‘llanma.Toshkent: 2022 y.

4. Abdullaeva Sh., Ergasheva M. O‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligi monitoringida baholash dasturlaridan foydalanish (PISA, TIMSS misolida). Monografiya.-T.:Nodirabegim, 2023.

5. Arziyeva S.I., Dj.N. Murodullayevna, Norov G.M. “Methods for solving some types of integrals using complex numbers”. Вестник науики и образования. 4-2 (124), 2022.

6. Arziyeva S.I., Normurodovna J.U. “Application of complex numbers”. Проблемы современной науки и образования. 5(125), 2018.

RAQAMLASHTIRISH BO'YICHA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI YASHIL IQTISODDAGI O'RNI

Ravshanova R. M.
NDKTU "Oliy matematika va axborot texnologiyalari" kafedrasi assistenti

Tayanch so'zlar: raqamlashtirish, Yashil iqtisodiyot,sun'iy intellekt,internet narsalar(IoT),katta ma'lumotlar(big data),bulutli texnologiyalar, energiya samaradorligi,ekologik barqarorlik, chiqindilarni boshqarish, yashil texnologiyalar, shaharsozlik va aqlli shaharlar.
Ключевые слова: цифровизация, зелёная экономика, искусственный интеллект, интернет вещей, анализ больших данных, облачные вычисления, энергоэффективность, экологическая устойчивость, управление отходами, зелёные технологии, умные города.
Key words: digitalization, green economy, artificial intelligence, internet of things, big data analytics, cloud computing, energy efficiency, environmental sustainability, waste management, green technologies, smart cities.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur ishda zamonaviy raqamli texnologiyalarning yashil iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Asosiy e'tibor, sun'iy intellekt, narsalar(buyumlar) interneti, katta ma'lumotlar, raqamli ikizlar va bulutli texnologiyalar kabi raqamlashtirish vositalarining ekologik barqarorlikka erishishdagi samaradorligiga qaratilgan. Shuningdek, energiya tejamkorligi, chiqindilarni kamaytirish, karbon izini tahlil qilish va resurslardan oqilona foydalanish kabi omillar asosida raqamli transformatsiyaning iqtisodiy va ekologik foydalari ochib berilgan. O'zbekiston misolida milliy strategiyalar va amaliy tajribalar keltirilib, raqamlashtirish bilan yashil rivojlanish yo'nalishlarini uyg'unlashtirish muhimligi ta'kidlangan. Ishda nazariy yondashuvlar bilan birga amaliy model va dasturiy yechimlar ham ko'rib chiqilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной работе рассмотрена роль современных цифровых технологий в формировании и развитии зелёной экономики. Основное внимание уделено таким инструментам цифровизации, как искусственный интеллект, Интернет вещей (IoT), большие данные (Big Data), цифровые двойники и облачные технологии. Показано, как они способствуют повышению энергоэффективности, сокращению выбросов, контролю за экологическим следом и рациональному использованию природных ресурсов. Особое внимание уделено стратегии цифрового и экологического развития в Узбекистане, включая примеры интеграции цифровых решений в национальные проекты. Работа сочетает теоретические основы с практическими моделями и программными реализациями.
SUMMARY:
This paper explores the role of modern digital technologies in the development of a green economy. Special attention is given to key digitalization tools such as artificial intelligence, the Internet of

Things (IoT), big data analytics, digital twins, and cloud computing. The study demonstrates how these technologies enhance energy efficiency, reduce emissions, monitor carbon footprints, and promote sustainable use of natural resources. The paper also highlights Uzbekistan's strategies for integrating digital and ecological development, presenting national initiatives and examples. Both theoretical perspectives and practical applications, including software models, are analyzed to underline the synergy between digitalization and green growth.

Bugungi globallashuv davrida insoniyat taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari bilan, balki ekologik barqarorlik darajasi bilan ham baholanmoqda. Iqlim o‘zgarishi, tabiat resurslarining kamayishi, atmosferaga chiqayotgan zararli moddalar miqdorining oshishi kabi muammolar yashil iqtisodiyot konsepsiyasini ilgari surishga olib keldi. Yashil iqtisodiyot – bu tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish va iqtisodiy rivojlanishni birgalikda ta’minlashga qaratilgan yondashuvdir.So‘nggi yillarda bu sohada raqamlashtirish texnologiyalarining o‘rni tobora ortib bormoqda. Zamonaviy raqamli yechimlar yordamida resurslarni tejash, chiqindilarni nazorat qilish, ekologik monitoring olib borish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Xususan, sun’iy intellekt, Big Data, blockchain kabi texnologiyalar yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda kuchli vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolada raqamlashtirish bo‘yicha zamonaviy texnologiyalarning yashil iqtisodiyotdagi o‘rni, ularning qo‘llanish sohasi va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

Hozirgi davrda butun dunyoda ekologik muammolar, global isish, resurslarning kamayishi kabi muammolar dolzarb bo‘lib bormoqda. Shu sababli, iqtisodiyotni ekologik jihatdan barqaror qilish zarurati tug‘ildi. Bu boradagi eng muhim yo‘nalishlardan biri - yashil iqtisodiyot bo‘lib, u tabiatni asrash bilan birga, iqtisodiy o‘sishni ham ta’minlaydi. Yashil iqtisodiyotning samaradorligini oshirishda esa raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi.

Raqamlashtirish – bu ishlab chiqarish, boshqaruv va iste’mol jarayonlarini raqamli texnologiyalar yordamida avtomatlashtirish va optimallashtirishdir. Bu texnologiyalar orqali inson omili kamayadi, ma’lumotlar tez tahlil qilinadi, va eng muhimi – resurslar tejab ishlatiladi.

Zamonaviy texnologiyalar va ularning yashil iqtisodga ta’siri: Sun’iy intellekt Sun’iy intellekt yordamida korxonalarda chiqindilarni kamaytirish, elektr energiyasidan samarali foydalanish va ishlab chiqarishni boshqarish mumkin. AI qurilmalari ekologik monitoring olib borib, muammo yuzaga kelmasidan oldin ogohlantira oladi.

Buyumlar interneti IoT qurilmalari yordamida zavod, fabrika yoki shahardagi energiya iste’moli, suv sarfi va chiqindilar darajasi doimiy nazorat qilinadi. Bu orqali ortiqcha isrofgarchilik oldi olinadi.

Big Data – katta hajmdagi ma’lumotlar. Ekologik sohalarda to‘plangan ma’lumotlar (masalan: havo sifati, suv zahiralari, chiqindilar miqdori) asosida tahlillar olib boriladi. Bu tahlillar asosida samarali strategiyalar ishlab chiqiladi.

Blockchain texnologiyasi yashil energiya almashinuvi va ekologik loyihalarni moliyalashtirishda shaffoflikni ta’minlaydi. Bu texnologiya ekologik loyihalarga ishonchni oshiradi.

Amaliyotdagi misollar.

Aqlli shaharlar konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan loyihalarda, raqamli texnologiyalar yordamida yoritish, transport va chiqindilar boshqaruvi optimallashtirilmoqda.

Qayta tiklanuvchi energiya – quyosh va shamol energiyasi tizimlari sun’iy intellekt yordamida avtomatik boshqariladi.

O‘zbekistonda ham “yashil energiya” loyihalari bosqichma-bosqich raqamlashtirilmoqda. Masalan:Yashil iqtisodda raqamlashtirish texnologiyalari ta’sir modelini ko’rib chiqaylik.

Model maqsadi:raqamlashtirish texnologiyalari, investitsiyalar, energiya samaradorligi va ekologik siyosatlar orqali iqtisodiy o’sish va uglerod chiqindilarining kamayishini bashorat qilish.

Model parametrlari va o’zgaruvchilar:

Belgilanish	Ta'rifi
R	Raqamlashtirish darajasi ($0 \leq R \leq 1$)
T	Texnologik investitsiya miqdori ($/yil)

I	Innovatsion texnologiyalar indeksi
S	Energiya samaradorligi ($0 \leq S \leq 1$)
P	Ekologik siyosat darajasi ($0 \leq P \leq 1$)
C0	Boshlang‘ich uglerod chiqindilari (tonna)
C(t)	t vaqt birligidagi chiqindilar

Belgilanish Ta'rifi

E	Ekologik samaradorlik
G	Yashil iqtisodiy o‘sish
t	Vaqt (yillar)
k	Chiqindilar kamayish darajasi koeffitsiyenti
θ	Texnologiyalarning umumiy samaradorlik koeffitsiyenti

Asosiy tenglamalar:

1.Ekologik samaradorlik:

$E=\alpha 1R+\alpha 2S+\alpha 3P-\alpha 4\frac{C_0}{T}$ bu formulada yuqori raqamlashtirish, energiya samaradorligi va kuchli ekologik samaradorlikni oshiradi.

2. Uglerod chiqindilarining dinamik modeli:

$C(t) = C_0 * e^{-k(R+0S+P)t}$ bu modelda vaqt utishi bilan raqamlashtirish,samaradorlik sababli chiqindilar kamayadi.

3.Yashil iqtisodiy o’sish:

$G = \beta_1 E + \beta_2 R + \beta_3 \ln(T+1) + \beta_4 I + \beta_5 P$ Yashil iqtisodiy o’sish ko’plab faktorlarning(ayniqsa ekologik samaradorlik va raqamlashtirish) natijasi sifatida shakllanadi.

4. Energiya iste’moli kamayishi(qo’shimcha)

$U = U_0 * (1 - \gamma_1 R - \gamma_2 S$ bu yerda U-energiya iste’mol. Bu model energiya tejamkorlikni ham ifodalaydi.

Modelni tahlil qilish usullari:

Turli darajadagi R, S, P, T, I bilan chiqindilar va G qanday o‘zgaradi?

Qaysi parametr o‘zgarishiga G eng sezgir?

C(t) va G o‘zgarish grafigi.

Xulosa qilib aytganda mazkur tadqiqotda bugungi kunda raqamlashtirish va yashil iqtisodiyot tushunchalari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, XXI asr global rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga aylangan. Raqamli texnologiyalar ekologik barqarorlikka erishishning muhim vositasiga aylanib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish imkonini bermoqda.

Zamonaviy texnologiyalar - sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, bulutli hisoblash va raqamli ishlab chiqarish jarayonlarida energiya tejamkorligini nazorat qilish, chiqindilarni real vaqt rejimida tahlil qilish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu texnologiyalar yordamida kompaniyalar o‘z faoliyatining ekologik izini kamaytirish, karbon neytrallikka intilish va xalqaro ekologik standartlarga muvofiqlikni ta’minlay oladi.

Yashil iqtisodiyotda raqamlashtirishning eng muhim afzalliklaridan biri bu — shaffoflik va monitoring tizimlarining avtomatlashtirilganligidir. Masalan, aqlli elektr tarmoqlari yordamida energiya ishlab chiqarish va iste’molini muvozanatlashtirish, shahar infratuzilmalarida ekologik ma’lumotlarni to‘plash orqali urbanizatsiyani barqaror yo‘nalishga olib chiqish mumkin.

O‘zbekiston sharoitida ham ushbu tendensiyalar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Davlatning "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi va "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi o‘zaro uyg‘unlashgan holda amalga oshirilmoqda. Jumladan, quyosh va shamol energiyasidan

foydalanishni kengaytirish, raqamli monitoring tizimlarini joriy qilish, qishloq xo‘jaligida suvni tejash va resurslarni optimallashtirishga qaratilgan platformalar ishlab chiqilmoqda.

Shunday qilib, raqamlashtirish texnologiyalari yashil iqtisodiyot uchun katalizator vazifasini o‘tab, ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni birlashtirishga xizmat qilmoqda. Kelajakda bu ikki yo‘nalishni integratsiyalash, innovatsion yechimlar asosida yangi ekotizimlar yaratish nafaqat rivojlanayotgan davlatlar, balki butun insoniyat uchun global ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. UNEP (United Nations Environment Programme). “Green Economy and Digitalization: Trends and Impacts”, 2021. P.45-48

2. OECD. “Digitalisation and the Environment”, OECD Publishing, 2019. P.20b

3. World Economic Forum. “Harnessing Technology for the Green Economy”, Davos Reports, 2020.P.50-52

4. International Energy Agency (IEA).“Digitalization and Energy”,2017P.45-47

5. European Commission. “Green Deal and Digital Transformation”, ec.europa.eu, 2022. P.78-82

6. Hasanov F.J. (2020). “The Role of Digital Technologies in Achieving Green Growth: Evidence from Emerging Economies”, Sustainability Journal.

7. Yusupov B.T., Xudoyberganova D.S. “Raqamli iqtisodiyot va ekologik barqarorlik”, Toshkent, 2021.P.18-19

7. Karimov A. “Raqamli texnologiyalar yordamida energiya samaradorligini oshirish”, O‘zbekiston iqtisodiyoti jurnali, 2022.b.103-105

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, PQ-60-son (2022 yil 28 fevral). “2022–2026 yillarda raqamlashtirish va yashil energetikani rivojlantirish strategiyasi”.98-100

YASHIL TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSIYALARNI QO'LLAB QUVVATLASHDAGI O'RNI

Ravshanova R. M.
NDKTU "Oliy matematika va axborot texnologiyalari" kafedrasi assistenti

Tayanch so'zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik xatarlar, barqaror texnologiyalar, texnologik o'zgarishlar, ekologik farovonlik, ijtimoiy farovonlik, ekologik siyosat, barqaror innovatsiyalar, tadqiqotlarning kelajagi.
Ключевые слова: зеленая экономика, устойчивое развитие, экологические риски, устойчивые технологии, технологические изменения, экологическое благополучие, социальное благополучие, экологическая политика, устойчивые инновации, будущее исследований.
Key words: green economy, sustainable development, environmental risks, sustainable technologies, technological change, environmental well-being, social well-being, environmental policy, sustainable innovation, the future of research.

РЕЗЮМЕ:
Yashil Iqtisodiyot o'sish va rivojlanishning muqobil qarashidir; iqtisodiy rivojlanish va odamlar hayotini yaxshilash, shuningdek, ekologik va ijtimoiy farovonlikni rivojlantirishga mos keladigan tarzda yaratishi mumkin. Yashil iqtisodiyot strategiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri barqaror texnologiyalarni rivojlantirish va qabul qilishga ko'maklashishdir. Ushbu maqolaning umumiy maqsadi barqaror texnologik o'zgarishlarni amalga oshirishda duch keladigan bir qator muammolarni muhokama qilishdir. Shuningdek, biz kelajakdagi tadqiqotlar uchun ba'zi yo'llarni aniqlaymiz. Beshta muammo bo'yicha munozaralar markazi: (a) tarqoq va tobora global ekologik xavflar bilan shug'ullanish; (b) nafaqat barqaror barqaror texnologik o'zgarishlarga erishish; (c) yashil kapitalizm va odatiy bo'lmagan biznes stsenariysi; (d) davlatning roli va loyihalash tegishli siyosat aralashmalari;
РЕЗЮМЕ:
"Зеленая экономика" – это альтернативное видение роста и развития, которое может способствовать экономическому развитию и улучшению жизни людей таким образом, чтобы оно соответствовало также экологическому и социальному благополучию. Одним из важных компонентов стратегии "зеленой экономики" является содействие разработке и внедрению устойчивых технологий. Общая цель этой статьи – обсудить ряд проблем, с которыми сталкиваются при осуществлении устойчивых технологических изменений и которые должны быть должным образом поняты политиками и профессионалами на разных уровнях общества. Мы также определяем некоторые направления для будущих исследований. Дискуссии сосредоточены на пяти проблемах: (а) преодоление диффузных – и все более глобальных – экологических рисков; (б) достижение радикальных, а не просто постепенных устойчивых.
SUMMARY:
The Green Economy is an alternative vision for growth and development; one that can generate economic development and improvements in people's lives in ways consistent with advancing also environmental and social well-being. One significant component of a green economy strategy is to

promote the development and adoption of sustainable technologies. The overall objective of this article is to discuss a number of challenges encountered when pursuing sustainable technological change, and that need to be properly understood by policy makers and professionals at different levels in society. We also identify some avenues for future research. The discussions center on five challenges: (a) dealing with diffuse – and ever more global – environmental risks; (b) achieving radical and not just incremental sustainable technological change; (c) green capitalism and the uncertain business-as-usual scenario; (d) the role of the state and designing appropriate policy mixes; and (e) dealing with distributional concerns and impacts. The article argues that sustainable technological change will require a re-assessment of the roles of the private industry and the state, respectively, and that future research should increasingly address the challenges of identifying and implementing novel policy instrument combinations in various institutional contexts.

Ushbu maqolada biz bunday o'tishning ayniqsa muhim tarkibiy qismiga, ya'ni barqaror texnologik o'zgarishlarni rivojlantirishga, ya'ni tabiiy muhitga, shu jumladan global iqlimga chuqur kamroq salbiy ta'sir ko'rsatadigan ishlab chiqarishga e'tibor qaratamiz. Xususan, maqolada barqaror texnologik o'zgarishlarni qo'llab – quvvatlash va to'siqlarni bartaraf etishda bir qator asosiy muammolar ko'rib chiqilgan. Ushbu muammolar akademik tadqiqotlardan siyosatchilar va mutaxassislarga, shuningdek keng jamoatchilikka muhim saboqlarni etkazish istagi bilan taqdim etiladi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror texnologik o'zgarish so'nggi o'n yil ichida iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikni yo'qotish, suv tanqisligi va hokazolarni hal qilish uchun an'anaviy iqtisodiy modellarni isloh qilish kerakligi haqida tez-tez da'vo qilinmoqda, shu bilan birga asosiy ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilish. Ushbu maqsadlar dunyodagi qashshoqlikni tugatish iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan strategiyalar bilan bir qatorda turli xil ijtimoiy ehtiyojlarni, shu jumladan ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va ish o'rinlarini yaratish, shu bilan birga atrof-muhitning ifloslanishi va iqlim o'zgarishi. Shunday qilib, barqaror rivojlanish maqsadlari ekologik tizim va iqtisodiy tizim o'rtasida haqiqiy aloqani o'rnatadi. Ular, shuningdek, yashil iqtisodiyotga o'tish, ya'ni ishlab chiqarish va iste'molning yanada barqaror usullariga tubdan o'zgartirish zarurligini kuchaytiradi.

Iqlim va atrof-muhit muammolarini hal qilishda tabiiy ilmiy bilimlar hamda salbiy ta'sirlarni yumshatish uchun qabul qilinishi mumkin bo'lgan turli xil texnik yechimlar (masalan, uglerodsiz energiya texnologiyalari) bo'yicha muhandislik tajribasi talab etiladi. Biroq, barqaror texnologik o'zgarishlarga intilish, shuningdek, o'z ichiga olgan ijtimoiy, tashkiliy, siyosiy va iqtisodiy harakatdir.

Boshqacha qilib aytganda, texnologik taraqqiyotdan tashqari, barqaror texnologik o'zgarishlarga erishish uchun iqtisodiy va ijtimoiy moslashuv zarur. Aslida, tarix texnologik o'zgarishlar va innovatsiyalar bilan bog'liq tashkiliy va institutsional muammolarni hal qilish zarurligini ko'rsatadigan misollarga to'la. Yangi texnologiyalarni qabul qilish tizimli o'zgarishlar bilan birga bo'lishi

kerakligi haqidagi ushbu asosiy dalil kompaniyaga ham, ijtimoiy darajaga ham tegishli. Ishlab chiqilayotgan har qanday yangi yechimlar turli xil kelib chiqishi bo'lgan har xil turdagi aktyorlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning murakkabligini, bozorning umumiy dinamikasini, shuningdek bilimlarni rivojlantirish va institutsional islohotlarga bo'lgan ehtiyojni hisobga olishi kerak. Aslida, tizimli o'zgarishlarga bo'lgan ehtiyoj, ayniqsa, energiya talab qiladigan sanoatdagi nol uglerodli jarayonlar kabi yashil texnologiyalar uchun dolzarb bo'lishi mumkin. Ushbu fonda barqaror texnologik o'zgarishlarni qanday targ'ib qilish masalasi siyosat maydonida va akademik tadqiqotlarda tobora ko'proq e'tiborga sazovor bo'ldi.

O'zbekistonda ham "yashil energiya" loyihalari bosqichma-bosqich raqamlashtirilmoqda. Masalan, quyosh panellari va ularni boshqaruvchi tizimlar AI asosida ishlayapti.

Energiya samaradorligini nazorat qiluvchi soddalashtirilgan C++ dasturi.

Dasturga quyosh paneli va shamol turbinasining ishlab chiqargan energiyasi hamda iste'molchi tomonidan ishlatilgan energiya miqdori kiritiladi. Dastur chiqindilar (masalan, CO2) miqdorini hisoblaydi va tizim samaradorligini aniqlaydi.

```
#include <iostream>
#include <iomanip>
using namespace std;
// CO2 chiqindi koeffitsiyentlari (1 kWh uchun)
const double GRID_CO2 = 0.5;  // An'anaviy tarmoqlardan
const double RENEWABLE_CO2 = 0.02; // Quyosh/shamol energiyasidan
int main() {
   double solarEnergy, windEnergy, consumedEnergy;
   cout << "Yashil iqtisodiyot energiya  onitoring tizimi\n";
   cout << "-------------------------------------------\n";
   // Foydalanuvchidan ma'lumotlarni olish
   cout << "Quyosh panellari ishlab chiqargan energiya (kWh): ";
   cin >> solarEnergy;
   cout << "Shamol turbinalari ishlab chiqargan energiya (kWh): ";
   cin >> windEnergy;
   cout << "Umumiy iste'mol qilingan energiya (kWh): ";
   cin >> consumedEnergy;
   // Hisoblash
   double renewableTotal = solarEnergy + windEnergy;
   double gridEnergy = consumedEnergy – renewableTotal;
   if (gridEnergy < 0) gridEnergy = 0; // ortiqcha ishlab chiqarilgan bo'lsa
```

```
    double totalCO2 = (renewableTotal * RENEWABLE_CO2) + (gridEnergy
* GRID_CO2);
    double efficiency = (renewableTotal / consumedEnergy) * 100;
    // Natijalarni chiqarish
    cout << fixed << setprecision(2);
    cout << "\nTahlil natijalari:\n";
    cout << "------------------\n";
    cout << "Yashil energiyaning ulushi: " << efficiency << "%\n";
    cout << "Taxminiy CO2 chiqindisi: " << totalCO2 << " kg\n";
    if (efficiency >= 75) {
        cout << "Tizim juda samarali ishlayapti.\n";
    } else if (efficiency >= 40) {
        cout << "Tizim o'rtacha samarali. Yashil energiyani ko'paytirish tavsiya
etiladi.\n";
    } else {
        cout << "Tizim kam samarali. Yashil texnologiyalarni kengaytirish
zarur!\n";
    }
    return 0;
}
```

Nima qiladi bu dastur?

Quyosh va shamoldan ishlab chiqilgan energiyani qabul qiladi.

Umumiy iste'mol energiyasi bilan taqqoslaydi.



An’anaviy (ko‘mir, gaz) va yashil energiyalarning CO2 chiqindilarini hisoblaydi.

Yashil energiya ulushi bo‘yicha tahliliy xulosa beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Hasanov B. (2021). Yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlik. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

2. Xodjayev N. (2020). Innovatsion texnologiyalar va ularni ishlab chiqarishda qo‘llash. Toshkent: Fan va texnologiya.

3. UNEP (United Nations Environment Programme) (2020). Green Economy: Principles and Practice.

4. Yuldashev, O. T. (2022). Innovatsion menejment va texnologiyalar. Toshkent: TDIU nashriyoti.

5. Sachs J. D. (2015). The Age of Sustainable Development. Columbia University Press

GRAMMATIK KOMPETENSIYA TUSHUNCHASI VA UNING TIL O‘RGATISHDAGI O‘RNI

Shofqorov A.M.
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti

Tayanch so‘zlar: kompetensiya, til kompetensiyasi, grammatika, grammatik kompetensiya, grammatik bilim, grammatik ko‘nikma, grammatik malaka, pedagogik texnologiya.
Ключевые слова: компетентность, языковая компетентность, грамматика, грамматическая компетентность, грамматические знания, грамматические навыки, грамматическая грамотность, педагогическая технология.
Key words: competence, language competence, grammar, grammatical competence, grammatical knowledge, grammatical skills, grammatical proficiency, pedagogical technology.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada grammatik kompetensiya tushunchasi va uning tarkibiy qismlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, o‘zbek tilshunosligi va o‘zbek tili ta’limi metodikasida grammatik kompetensiyaning o‘rganilishini yoritishga harakat qilingan.
РЕЗЮМЕ:
В статье рассматривается понятие грамматической компетенции и ее компоненты. Также была сделана попытка выделить изучение грамматической компетенции в узбекской лингвистике и методике преподавания узбекского языка.
SUMMARY:
The article discusses the concept of grammatical competence and its components. It also attempts to shed light on the study of grammatical competence in Uzbek linguistics and Uzbek language teaching methodology.

Tilshunoslik va til o‘qitish metodikasida “grammatik kompetensiya” tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng qo‘llana boshladi. Dastavval bu tushuncha “kompetensiya” atamasining o‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, tilni o‘rganuvchi shaxsning til tizimi va uning me’yorlarini bilish darajasini aks ettiruvchi ilmiy kategoriya sifatida qaralgan. Kompetensiya (competence) atamasining lingvistika va til ta’limi sohasiga kirib kelishiga asos solgan olim – amerikalik tilshunos Noam Xomski hisoblanadi. U o‘zining 1965-yili nashr etilgan “Til nazariyasining aspektlari” (Aspects of the Theory of Syntax) nomli asarida ilk bor tilshunoslik fanlariga “lingvistik kompetensiya” (linguistic

competence) atamasini kiritadi. Xomski lingvistik kompetensiyani insonning til me'yorlari va qoidalarini bilish qobiliyati sifatida tushuntirgan. Olimning ta'kidlashicha, bu kompetensiya til egasining til tuzilishi haqidagi bilimi va til qoidalarini tushunish darajasini ifodalaydi. [12; 44-b.]

Keyinchalik til o'qitish metodikasida grammatik kompetensiya atamasi alohida ajratilib, tilshunoslikning amaliyotga yo'naltirilgan muhim tushunchasiga aylandi. Xomskidan keyin bu terminning mazmuni kengayib, tilning grammatik tuzilishini bilish, qoidalarni o'zlashtirish, nutqda ularni to'g'ri va maqsadli ishlatish qobiliyatigacha bo'lgan bosqichni qamrab oldi. Shuningdek, bu kompetensiya grammatik qoidalarni amaliy holatda qo'llay olish, til vositalari orqali kommunikatsiyani samarali amalga oshirish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi.

Grammatik kompetensiya tushunchasi til o'qitish metodikasida 1970-yillarda Del Hayms, Maykl Kanal va Merrill Sueyn kabi olimlar tomonidan yanada chuqurroq o'rganildi va takomillashtirildi. Ular grammatik kompetensiyani kommunikatsiya jarayonidagi muhim komponent sifatida qarab, uni kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida belgilashdi. Kanal va Sueynning fikricha, grammatik kompetensiya til tizimining grammatik shakllari va ularning ma'nolarini bilish, shuningdek ularni nutqda to'g'ri ishlata olish qobiliyatini ifodalaydi. [13; 29-b.]

Yevropa kengashining chet tillarini o'rgatish bo'yicha Umumyevropa kompetensiyalar standarti (CEFR) doirasida ham grammatik kompetensiya asosiy til kompetensiyalaridan biri sifatida qayd etilgan. Ushbu hujjatda grammatik kompetensiyaga tilning grammatik qoidalarini bilish bilan birga, ulardan samarali va maqsadli foydalanish qobiliyati ham kiritilgan bo'lib, bu kompetensiya til bilimining muhim mezoni sifatida qaraladi. [14.]

O'zbek tilshunosligi va metodikasida ham grammatik kompetensiya tushunchasi atroflicha o'rganilgan. Xususan, ushbu tushunchaga G'.Abdurahmonov, N.Mahmudov, E.Begmatov, M.Mirtojiyev, R.Qo'ng'urov, R.Sayfullayeva, B. Mengliyev, A. Mamatov va boshqa olimlar tomonidan turlicha qarashlar bildirilgan. Umumiy qilib aytganda, bu olimlar grammatik kompetensiyani o'zbek tili grammatikasi qoidalarini nazariy bilish va amalda qo'llash qobiliyati deb ta'riflaydilar. O'zbek tili metodikasida ham grammatik kompetensiya nafaqat grammatik qoidalarni o'zlashtirish, balki ularni nutqda erkin va xatosiz qo'llash imkoniyati bilan bog'liq bo'lib, bu kompetensiya tilni o'rganish va muvaffaqiyatli kommunikativ muloqotga kirishishda muhim omil ekani qayd etiladi.

Umuman, grammatik kompetensiya tushunchasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi jarayonida u til bilimlarini samarali o‘zlashtirish va ulardan muvaffaqiyatli foydalanish imkoniyatini aks ettiruvchi asosiy kompetensiyalardan biri sifatida shakllandi. Bu kompetensiyani yanada takomillashtirishda zamonaviy neyropedagogik yondashuvlar muhim rol o‘ynamoqda.

Grammatik kompetensiya til kompetensiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. U til kompetensiyasining boshqa elementlari – leksik, pragmatik, diskursiv va sotsiolingvistik kompetensiyalari bilan uzviy bog‘liqdir. Umumiy til kompetensiyasi shaxsning tilni to‘g‘ri, ravon va aniq qo‘llay olish qobiliyatini ifodalasa, grammatik kompetensiya aynan til birliklarini o‘zaro bog‘lash va grammatik jihatdan xatosiz nutq yaratish qobiliyati bilan ifodalanadi. U grammatik shakllar, konstruksiyalar va til qoidalarini bilish bilan birga, ulardan amaliy foydalanish ko‘nikmalarini ham qamrab oladi.

Grammatik kompetensiyaning muhimligi shundaki, u tilning aniqligi va to‘g‘riligi uchun javobgardir. Agar shaxs tilning grammatik tuzilishini yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lsa, uning nutqi ham mukammal, aniq va tushunarli bo‘ladi. Grammatik kompetensiya til o‘rganish jarayonida o‘zlashtiriladigan boshqa kompetensiyalarning ham asosini tashkil etadi, chunki leksik, pragmatik yoki diskursiv kompetensiyalar grammatik bilimlarsiz to‘laqonli shakllanishi mumkin emas. Shu sababli ham grammatik kompetensiyani rivojlantirish til kompetensiyasining barcha elementlari uchun muhim ahamiyatga ega.

Grammatik kompetensiya til kompetensiyasi tizimida fundamental ahamiyat kasb etib, tilni to‘liq o‘zlashtirish, to‘g‘ri nutqiy faoliyatni tashkil etish va boshqa kompetensiyalar bilan uyg‘un rivojlanish uchun muhim zamin hisoblanadi. Grammatik kompetensiyaga e’tibor berish til o‘rgatish jarayonining sifati va samaradorligini oshirishning asosiy shartlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Grammatik kompetensiya til o‘rgatishdagi muhim tushunchalardan biri bo‘lib, u tilning grammatik tuzilishini bilish va uni amaliy qo‘llash qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu kompetensiya uch asosiy tarkibiy qismdan iborat: grammatik bilim, ko‘nikma va malaka.

Grammatik bilim – bu tilning grammatik qoidalari, tuzilmalari va me’yorlari haqidagi nazariy ma’lumotlardir. O‘quvchi grammatik bilim orqali so‘z turkumlari, ularning shakllari, jumladan, fe’l zamonlari, otlarning ko‘plik shakllari, sintaksik tuzilmalar va boshqa grammatik elementlar haqida tushunchaga ega bo‘ladi. Bilim bosqichida o‘quvchi grammatik qoidalarni o‘rganadi va ularni tushunadi.

Grammatik koʻnikma – bu oʻquvchining egallagan grammatik bilimlarini amaliyotda qoʻllay olish qobiliyatidir. Koʻnikma shakllanishi uchun oʻquvchi grammatik qoidalarni turli mashqlar orqali qoʻllab, ularni mustahkamlaydi. Masalan, oʻquvchi zamonlarni oʻrgangandan soʻng, ularni toʻgʻri qoʻllash uchun turli matnlar yozadi yoki gaplar tuzadi. Koʻnikma bosqichida oʻquvchi grammatik qoidalarni faol qoʻllash orqali ularni mustahkamlaydi.

Grammatik malaka – bu grammatik koʻnikmalarning avtomatlashgan darajasidir. Ya'ni, oʻquvchi grammatik qoidalarni ongli ravishda oʻylamasdan, avtomatik tarzda toʻgʻri qoʻllay oladi. Malaka shakllanishi uchun koʻnikmalarni koʻp marotaba takrorlash va qoʻllash zarur. Bu bosqichda oʻquvchi nutqida yoki yozma ishlarida grammatik xatolarga yoʻl qoʻymaydi, chunki grammatik qoidalar uning nutq faoliyatining ajralmas qismiga aylangan boʻladi.

Bu uch tarkibiy qism bir-biri bilan chambarchas bogʻliq va birgalikda grammatik kompetensiyani shakllantiradi. Bilim koʻnikmaga, koʻnikma esa malakaga olib keladi. Shuningdek, malaka orqali oʻquvchi yangi bilimlarni osonroq oʻzlashtiradi va ularni amaliyotda qoʻllay oladi. Grammatik kompetensiyaning ushbu tarkibiy qismlari oʻquvchining tilni toʻgʻri va ravon qoʻllash qobiliyatini ta'minlaydi. Shu munosabat bilan, grammatik kompetensiyaning ushbu tarkibiy qismlarini shakllantirish va rivojlantirish til oʻqitish jarayonining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bu esa oʻquvchilarning tilni toʻgʻri, ravon va samarali qoʻllay olishlariga yordam beradi.

Oʻzbek tili ta'lim metodikasida grammatik kompetensiya tushunchasi oʻquvchilarning tilni toʻgʻri va samarali qoʻllash qobiliyatini shakllantirishda muhim oʻrin tutadi. Mahalliy olimlar ushbu tushunchani turli aspektlarda oʻrganib, uning nazariy va amaliy jihatlarini yoritib berishgan.

N.Mahmudov oʻz asarlarida grammatik kompetensiyani tilning grammatik qoidalarini bilish va ularni amaliy qoʻllash qobiliyati sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, grammatik kompetensiya tilni toʻgʻri va ravon qoʻllash uchun zarur boʻlgan bilim va koʻnikmalar majmuasini oʻz ichiga oladi. Mahmudovning ta'kidlashicha, grammatik kompetensiyaning shakllanishi oʻquvchilarning nutqiy faoliyatini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

N.Mahmudovning grammatik kompetensiyaga oid fikrlari tilshunoslik va til ta'limi metodikasi nuqtayi nazardan oʻta aniq, asosli va amaliyotga yaqin boʻlib, uni toʻliq ma'qullash mumkin. Olimning ta'rifi grammatik kompetensiyaning nazariy va amaliy jihatlarini toʻla qamrab olganligi bilan diqqatga sazovordir. Bu fikr grammatik bilimlarni oʻzlashtirish faqat nazariy bilimlarni bilish bilan

cheklanmasdan, ulardan hayotiy vaziyatlarda samarali va to‘g‘ri foydalanish zarurligini ta’kidlaydi.

N.Mahmudovning grammatik kompetensiyani nutq faoliyatini takomillashtirishning asosiy sharti sifatida ko‘rsatishi ham to‘g‘ri va muhim ilmiy xulosa hisoblanadi. Chunki, haqiqatan ham, nutq madaniyati, nutqiy ravonlik va aniqlik, birinchi navbatda, grammatik bilimlarning mukammal o‘zlashtirilganligiga, ularning to‘g‘ri va o‘z vaqtida qo‘llanishiga bog‘liqdir. Bunda grammatik kompetensiyaning nutqiy faoliyat bilan uzviy bog‘liqligi, uning nutqni yanada mukammallashtirishdagi roli ham aniq ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, ushbu ta’rifning e’tiborga loyiq jihati – uning o‘qitish amaliyotiga yo‘naltirilganligidadir. Bu ta’rif til o‘qitish jarayonida grammatik bilimlarning qanday o‘rganilishi va qo‘llanilishi lozimligi masalasiga amaliy yondashuvni ta’minlaydi.

R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyevalar o‘z tadqiqotlarida grammatik kompetensiyani shakllantirishda innovasion pedagogik texnologiyalarning ahamiyatiga e’tibor qaratgan. Ularning fikricha, zamonaviy o‘qitish usullari va axborot texnologiyalaridan foydalanish grammatik kompetensiyani rivojlantirishda samarali natijalar beradi. Olimlar grammatik kompetensiyani shakllantirishda interaktiv usullar va multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyatini ko‘rsatadi. [11.]

Bizningcha, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev va G.Boqiyevalarning grammatik kompetensiyani shakllantirishda innovasion pedagogik texnologiyalardan, interaktiv usullar va multimedia vositalaridan foydalanishga oid qarashlari bugungi ta’lim jarayoni talablariga to‘liq mos keladi. Darhaqiqat, zamonaviy o‘quvchilarning bilimni o‘zlashtirish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish ularning motivasiyasi va qiziqishini oshirish bilan birga, grammatik bilimlarning tizimli o‘zlashtirilishiga ham yordam beradi.

E.Begmatov va A.Mamatovlar grammatik kompetensiyani o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasining tarkibiy qismi sifatida o‘rganib, uning tilni amaliy qo‘llashdagi rolini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, grammatik kompetensiya tilning tuzilishini tushunish va uni to‘g‘ri qo‘llash orqali kommunikativ maqsadlarga erishishda muhim omildir. Mazkur olimlarning tadqiqotlari grammatik kompetensiyaning kommunikativ kompetensiya bilan bog‘liqligini yoritib beradi. [2.]

E.Begmatov va A.Mamatovlarning grammatik kompetensiyani kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida talqin etib, uning tilni amaliy qo‘llashdagi ahamiyatini alohida ta’kidlashlari zamonaviy til o‘qitish talablariga muvofiqdir. Ularning qarashi til o‘rganishning asosiy maqsadi til

orqali samarali muloqot qilish ekanligi nuqtayi nazardan to‘g‘ri va dolzarbdir. Chunki grammatik kompetensiya nutqiy kommunikasiya jarayonining to‘g‘riligi, aniqligi va ta’sirchanligini ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Olimlar fikrlarining ijobiy jihati shundaki, ular grammatik kompetensiyani izolyatsiyalangan bilim emas, balki kommunikativ jarayonga xizmat qiladigan vosita sifatida ko‘radilar va bu boradagi munosabatlari ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

M.Mirtojiyev o‘z asarlarida grammatik kompetensiyani shakllantirishda milliy va madaniy omillarning ta’sirini o‘rgangan. Uning fikricha, til o‘rgatishda milliy madaniyat va an’analarni hisobga olish grammatik kompetensiyani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Olimning tadqiqotlari grammatik kompetensiyani shakllantirishda milliy xususiyatlarni inobatga olishning zarurligini ko‘rsatadi. [8.]

M.Mirtojiyevning grammatik kompetensiyani shakllantirishda milliy va madaniy omillarning ta’sirini hisobga olish haqidagi qarashi, ayniqsa o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida juda muhim va o‘z vaqtida ilgari surilgan g‘oyadir. Uning milliy madaniyat va an’analarning grammatik kompetensiyani rivojlantirishda muhim o‘rin tutishi haqidagi fikrlari til o‘rganish jarayonida faqat tilning formal jihatlarini emas, balki uning milliy-madaniy konteksti ham o‘rganilishi zarurligini ta’kidlab, o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash va madaniy savodxonlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman, o‘zbek tilshunosligida grammatik kompetensiya tushunchasi turli jihatlardan o‘rganilib, uning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanilishi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Mahalliy olimlar ushbu tushunchani chuqur o‘rganib, uning til o‘qitishdagi ahamiyatini yoritib berishgan.

O‘zbek tilini o‘qitish amaliyotida grammatik kompetensiya o‘quvchilarning tilni samarali o‘zlashtirishi, nutqda to‘g‘ri, aniq va ravon muloqot olib borishi uchun muhim shart hisoblanadi. Chunki til bilimlarini puxta o‘zlashtirish, birinchi navbatda, tilning grammatik qoidalari va normalarini to‘liq bilish hamda ularni turli vaziyatlarda muvaffaqiyatli qo‘llashga bog‘liqdir. Grammatik kompetensiya nafaqat tilning nazariy asoslarini o‘rganish, balki ularni kundalik nutqda to‘g‘ri va o‘rinli ishlatish ko‘nikmasini ham qamrab oladi.

O‘zbek tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarda grammatik kompetensiyani shakllantirish ularning umumiy til bilimining mukammal bo‘lishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, bu jarayonda o‘quvchilar grammatik qoidalarni nazariy jihatdan to‘liq o‘zlashtirish bilan bir qatorda, ularni amaliyotda faol qo‘llash malakasini ham egallashlari talab etiladi. Bu esa tilni amaliy jihatdan egallash va ijtimoiy muloqot jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llash imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bachman Lyle. Fundamental Considerations in Language Testing. – Oxford University Press, 1990.
2. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. – T.: Navroʻz, 1999.
3. Hymes Dell. On communicative competence. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972.
4. Mahmudov N., Nurmonov A. Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). – Toshkent: “Oʻqituvchi”, 1995.
5. Mahmudov N. Gapda forma va mazmun. – T.: Oʻzbekiston, 1984.
6. Mahmudov N. Oʻzbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya. – T.: Oʻqituvchi, 1984.
7. Mahmudov N. Oʻzimiz va soʻzimiz. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1997.
8. Mirtojiyev M. Oʻzbek tili semasiologiyasi. – T.: Mumtoz soʻz, 2010.
9. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixoʻjayeva S. Oʻzbek tilining mazmuniy sintaksisi. – T.: Fan, 1992.
10. Nurmonov A., Mahmudov N. Oʻzbek tilshunosligi tarixi. – T.: Kamolot-Qatortol. 2000.
11. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z, Abzalova M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2009.
12. Chomsky Noam. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge, Massachusetts: MIT Press, 1965.
13. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics, 1980. 1(1).
14. https://www.cambridgeenglish.org/exams-and-tests/cefr/

O‘QUVCHILARNI KASBGA YO‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Xolmo`minova R.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
texnologik ta’lim yo‘nalishi talabasi

Tayanch so‘zlar: kasbga yo‘naltirish, pedagogik yondashuv, amaliy faoliyat, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, mehnat tarbiyasi, ijtimoiy sheriklik.
Ключевые слова: профориентатsiя, педагогический подход, практическая деятельность, личностно-ориентированное образование, трудовое воспитание, социальное партнерство.
Key words: career guidance, pedagogical approach, practical activities, personality-oriented education, labor education, social partnership.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning pedagogik jihatlari, bu jarayonda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning ahamiyati, ta’lim-tarbiya jarayonining integratsiyalashuvi, amaliy mashg‘ulotlarning o‘rni hamda ijtimoiy hamkorlikning samaradorligi tahlil etilgan. Shuningdek, kasbiy yo‘naltirishda pedagog va psixologning roli, zamonaviy metodlar va vositalarning o‘rni ochib berilgan. Maqola o‘quvchilarni mehnat bozorining ehtiyojlariga mos holda tayyorlashda pedagogik yondashuvlarning dolzarbligini asoslaydi.
РЕЗЮМЕ:
В статье анализируются педагогические аспекты профориентации школьников, значение личностно-ориентированного подхода в этом процессе, интегратsiя образовательного процесса, роль производственной практики, эффективность социального взаимодействия. Раскрывается роль педагога и психолога в профориентации, а также роль современных методов и инструментов. В статье обосновывается актуальность педагогических подходов в подготовке студентов к потребностям рынка труда.
SUMMARY:
The article analyzes the pedagogical aspects of career guidance for schoolchildren, the importance of a personality-oriented approach in this process, the integration of the educational process, the role of industrial practice, and the effectiveness of social interaction. The role of a teacher and psychologist in career guidance, as well as the role of modern methods and tools, are revealed. The article substantiates the relevance of pedagogical approaches in preparing students for the needs of the labor market.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning kasbiy yo‘nalishini aniqlash, ularga o‘z salohiyatini to‘g‘ri baholash va kelajakdagi faoliyat yo‘nalishini belgilashda ko‘maklashish muhim o‘rin tutadi. Kasb tanlash faqatgina shaxsiy

istakka emas, balki jamiyat va mehnat bozorining real ehtiyojlariga ham asoslangan bo‘lishi lozim. Shu boisdan maktab tizimida kasbga yo‘naltirish ishlarini pedagogik jihatdan puxta yo‘lga qo‘yish zaruriyati ortib bormoqda.

Bugungi globallashuv va texnologiyalar asrida mehnat bozorining talablari tobora o‘zgarib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi “Kasb-hunar ta’limi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–123-son qarori ham bu boradagi islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Ushbu sharoitda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish pedagogik faoliyatning markaziy bo‘g‘iniga aylanmoqda.

Maktab o‘quvchisi o‘z qobiliyati, shaxsiy fazilatlari, qiziqishlari va jamiyat ehtiyojlari o‘rtasida uyg‘unlik topa olmasa, noto‘g‘ri kasb tanlash holatlari yuzaga keladi. Bu esa ijtimoiy beqarorlik, ishsizlik, qoniqarsiz hayot darajasiga olib keladi. Shu sababli, kasbga yo‘naltirish maktab tizimining muhim komponenti sifatida qaralishi zarur.

Zamonaviy pedagogikada shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosiy tamoyil sifatida qaraladi. Har bir o‘quvchining qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojlari kasbiy yo‘naltirishda hisobga olinadi. Pedagoglar o‘quvchilar bilan individual ishlash orqali ularning ichki motivatsiyasini aniqlab, kasblar dunyosi bilan tanishtirishga alohida e’tibor qaratishlari lozim.

Kasbga yo‘naltirish faqat axborot berish bilan cheklanmaydi, balki o‘quvchilarda mehnatsevarlik, mas’uliyat, ijtimoiy foydalilik kabi sifatlarni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Maktabda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar – sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, uchrashuvlar, kasb bayramlari orqali o‘quvchilarning ongida kasbga nisbatan ijobiy munosabat hosil qilinadi.

Kasbga yo‘naltirishda texnologiya, mehnat ta’limi darslari, ishlab chiqarish amaliyotlari muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar real hayotdagi kasb faoliyati bilan tanishadi, ilk ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning tanlovini osonlashtiradi.

O‘quvchilarning psixologik portretini tuzish, ularning layoqati va temperament tipini aniqlash orqali kasbiy yo‘nalish bo‘yicha aniq tavsiyalar berilishi mumkin. Bunda maktab psixologi va kasbiy yo‘naltiruvchi pedagoglar ishtirok etadi. Maxsus testlar, suhbatlar, maslahatlar bu borada muhim vositadir.

Kasbiy yo‘naltirish – bu tizimli va uzluksiz pedagogik jarayon bo‘lib, o‘quvchining kasbiy o‘zini anglashini, shaxsiy kompetensiyalarini va mehnat faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirishga yo‘naltiriladi. A. K. Markova, L. M. Mitina kabi olimlar kasbga yo‘naltirishni shaxsning ijtimoiy moslashuvi sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv zamirida o‘quvchi faqat kasb tanlamaydi, balki jamiyatda o‘z o‘rnini topishga harakat qiladi.

Maktablar, kollejlar, oliy ta’lim muassasalari, korxonalar o‘rtasidagi hamkorlik kasbga yo‘naltirish samaradorligini oshiradi. Ekskursiyalar, ustoz-shogird tizimi, ochiq eshiklar kunlari orqali o‘quvchilarda amaliy qiziqish uyg‘otiladi. Bu esa ularni ongli ravishda kasb tanlashga yo‘naltiradi.

Zamonaviy ta’limda kasbga yo‘naltirish quyidagi pedagogik usullar bilan amalga oshiriladi:

- Integrativ yondashuv – texnologiya, biologiya, matematika kabi fanlarda kasb bilan bog‘liq masalalar echimini o‘rgatish;
- Layfxaklar va loyiha usuli – o‘quvchilarni mustaqil izlanishga undash;
- Kasbiy testlar va diagnostik metodlar – shaxsiy qiziqish va layoqatga mos kasblarni aniqlash;
- Rol o‘yinlari va imitatsiyalar – kasbiy muhitga yaqinlashish imkonini beradi.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish – bu murakkab, ammo muhim pedagogik jarayon bo‘lib, u maktab ta’limi sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun o‘qituvchilar, psixologlar va ota-onalarning hamkorligi zarur. Shuningdek, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, amaliy mashg‘ulotlar bilan boyitilgan, zamonaviy yondashuvlarga asoslangan kasbiy yo‘naltirish tizimini shakllantirish zarur.

Amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish – bu kasbga yo‘naltirishning markaziy elementi. Maktablarda texnologiya, informatika, muhandislik asoslari kabi fanlar orqali o‘quvchilar real kasbiy vazifalarni bajarishga tayyorlanadi. Finlyandiya, Germaniya kabi mamlakatlarda “duallik ta’lim tizimi” aynan shu tamoyil asosida tashkil etilgan: o‘quvchi nazariy bilimni darsda, amaliyotini esa korxonada oladi.

Kasbga yo‘naltirishda maktab psixologi, sinf rahbari va maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan pedagog-kasbshunoslar birgalikda faoliyat olib borishadi. Kasbiy moslik testlari (Holland modeli, MBTI), shaxsiy portret kartasi, SWOT tahlil kabi zamonaviy diagnostika vositalari bu borada samarali hisoblanadi.

Kasbga yo‘naltirishning samarali bo‘lishi faqat maktabning emas, balki oila va mahalliy jamiyat vakillarining hamkorligiga bog‘liq. Mahalliy korxonalar bilan imzolangan memorandumlar asosida o‘quvchilar ekskursiya, stajirovka va master-klasslarda qatnashadi. Oila esa bola tanlagan yo‘nalishni qo‘llab-quvvatlashi va unga psixologik tayanch bo‘lishi lozim.

Raqamlashtirish jarayoni kasbga yo‘naltirishda ham o‘z aksini topmoqda. Onlayn platformalar (Masalan: "Kasb tanla", "MyFuture", “WorldSkills

Uzbekistan” portali) o‘quvchilarga interaktiv tarzda kasblar haqida ma’lumot olish, o‘z kuchini sinab ko‘rish, mutaxassislar bilan muloqot qilish imkonini beradi.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish – bu nafaqat ma’lum bir kasb haqida ma’lumot berish, balki shaxsda mustaqil qaror qabul qilish, o‘zini anglash, mehnatga ijobiy munosabat va ijtimoiy javobgarlikni shakllantirishdir. Pedagogik jarayon sifatida bu yo‘nalish uzluksiz, tizimli va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan bo‘lishi lozim. Maktab, oila, jamiyat va davlat institutlarining uzviy hamkorligi orqali o‘quvchilarning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatini ta’minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Usmonov Q. Kasbiy pedagogika asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2020.
3. UNESCO. Career Guidance: A Handbook for Policy Makers. – Paris, 2020.
4. OECD. Career Readiness: A Framework for Effective Policy and Practice. – 2021.
5. Qodirova N., To‘xtayeva S. Pedagogik texnologiyalar. – T.: O‘qituvchi, 2019.
6. Ziyayev S. O‘quvchilarda kasbiy qiziqishlarni shakllantirish. // “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar” jurnali, 2023, №4.
7. Holland J. Making Vocational Choices: A Theory of Careers. – 1997.

PEDAGOGIK OLIY TA'LIMDA TALABALARNING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY MEROSLARDAN FOYDALANISH

Fayzullayeva S. D.
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Tayanch so'zlar: pedagog, o'qitish, o'quv jarayoni, o'qiitish texnologiyasi, vaqt, sutka, taqvim, Sezar, yulian taqvimi, Oy taqvimi, sinodik oy, tropik yil, Quyosh taqvimi, grigorian taqvimi, Umar Hayyom, xalq maqollari, xalq matallari.
Ключевые слова: педагог, обучения, учебный процесс, технология обучения, время, сутка, календарь, юлианский календарь, Лунный календарь, синодический месяц, тропический год, Солнечный календарь, григорианский календарь, Омар Хайям, народные пословицы, народные поговорки.
Key words: teacher, teaching, educational process, teaching technology, time, day, calendar, Julian calendar, Lunar calendar, synodic month, tropical year, Solar calendar, Gregorian calendar, Omar Khayyam, folk proverbs, folk sayings.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada o'quv jarayonini tashkil etishda o'zbek xalq maqol va matallaridan foydalanish haqida fikr yuritilib, bu jarayonda pedagog hamda talaba faoliyatiga yangilik, o`zgarishlar kirishi, talabalarning dars davomida befarq bo`lmaslikka, mustaqil fikrlashga, ijod etish va izlanishga undaydi. Shu kabi o'quv jarayonini tashkil etish yoki pedagogik tadbirlar dars jarayonini mazmunan to'ldirishi va fanning jozibadorligini oshishiga sabab bo'ladi, shuningdek, fanga oid o'quv adabiyotidagi mavzularni boyitish va mazmunan to'ldirishga xizmat qiladi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматривается использование узбекских народных пословиц и поговорок в организации учебного процесса, и в этом процессе в деятельность педагога и учащихся вносятся новшества и изменения, побуждающие учащихся не оставаться равнодушными во время урока, мыслить самостоятельно, создавать и искать. Организация такого учебного процесса или педагогической деятельности обогатит процесс урока содержанием и повысит привлекательность науки, а также послужит обогащению учебной литературы по данному предмету.
SUMMARY:
This article discusses the use of Uzbek folk proverbs and sayings in the organization of the educational process, and in this process, innovations and changes are introduced into the activities of the teacher and students, encouraging students not to remain indifferent during the lesson, to think independently, to create and search. The organization of such an educational process or pedagogical activity will enrich the lesson process with content and increase the attractiveness of science, and will also serve to enrich the educational literature on this subject.

Kirish. Yangi O'zbekistonda hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda, ta`lim jarayoniga interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni qo`llashga bo`lgan qiziqish, e`tibor kun sayin rivojlanib boryapti. Bunga asosiy sabablardan biri, shu vaqtgacha an`anaviy ta`lim tizimida talabalar faqatgina tayyor bilimlarni egallashga o`rgatilgan bo`lsa, zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalar esa ularni egallayotgan bilimlarini o`zlari qidirib topishlariga, mustaqil o`rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o`zlari keltirib chiqarishlariga o`rgatadi. Pedagog bunday jarayonda shaxsning rivojlanishi, pedagog sifatida shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo`naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Ta`limning bunday jarayonida talaba asosiy-markaziy shaxsga aylanadi.

Innovatsiya degani bu-yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiya ta'lim jarayoniga hamda pedagog va talaba faoliyatiga yangilik, o`zgarishlar kiritish bo`lib, uni amalga oshirishda asosan, interaktiv metodlardan to`liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar-bu jamoa bo`lib fikrlash, o`zaro harakat qilmoq, ya`ni pedagogik ta`sir etish usullari bo`lib, ta`lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o`ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko`rsatishlari orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lib, ularga quyidagilar kiradi:

-talabalarning dars davomida befarq bo`lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

-talabalarning o`quv jarayonida bilim olishga bo`lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo`lishini ta`minlashi;

-talabalarning bilim olishga bo`lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

-pedagog va talabalarning doimo hamkorlikdagi faoliyatini vujudga keltirishi [1].

Asosiy qism. Har bir mavzu, o`quv predmetining o`ziga xos xususiyatlari bor. Shunga asoslangan holda, o`quv jarayoniga pedagogik va innovatsion texnologiyalarni talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda va bir maqsadga yo`naltirilgan tarzda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Natijaga erishishda axborot texnologiyasi bilan ishlash lozimdir, yoki film, tarqatma yohud ko'rgazmali materiallar, chizma, balkim o'zbek xalq maqollari, rivoyatlari zarurdir, bu pedagog va talabaga bog'liq bo'ladi.

Biz ushbu maqolada astronomiya fanidan "Vaqt. Vaqtni o'lchash tizimlari. Taqvimlar" mavzusini o'qitishda o'zbek xalq maqol va matallaridan foydalanib

tashkil etishni taklif etamiz. Bunda avvalo, mavzu yuzasidan qisqacha nazariy ma'lumotlarni keltirib o'tishni lozim topdik.

Bugungi kundalik turmushda, amalda vaqtni o'lchashning ikki turi mavjud:

1) Qisqa vaqt oraliqlarini o'lchash. Bunda soatlardan foydalaniladi;

2) Katta vaqt oraliqlarini o'lchash. Bunda taqvimlardan foydalaniladi.

Demak, uzoq muddatni vaqtning o'lchamlari (sutka, hafta, oy va yillar) bo'yicha tizimga solish taqvim deyiladi. Taqvim tuzishda Oy fazalarining almashinish davri yoki yil fasllarining almashinish davri (tropik yil) asos qilib olinadi. Oy fazalarining almashinish davri (sinodik davr) asos qilib olingan taqvimlar Oy taqvimi deb, yil fasllarining almashinish davri asos qilib olinganlari esa Quyosh taqvimlari deb yuritiladi.

Oy fazalarining almashinish davri, ya'ni **sinodik oy** (bu Oyning Yer atrofini bir marta to'la aylanib chiqishi uchun ketgan vaqt) 29,53 sutkaga, yil fasllarining almashinish davri, ya'ni tropik yil (bu Yerning Quyosh atrofini bir marta to'la aylanib chiqishi uchun ketgan vaqt) esa 365,2422 sutkaga teng bo'lib, bular butun sutkalarda ifodalana olmasligi taqvimlar tuzishni ancha mukammallashtiradi. Chunki taqvim oyi ham yili ham amalda butun sutkalarda ifodalashni talab etadi [2].

Insoniyatning ko'p asrlik tarixi davomida har xil va har turdagi taqvimlar yaratilgan. Bu taqvimlar qanday ko'rinishda ega bo'lishidan qat'iy nazar ular Oy, Quyosh yoki Oy-Quyosh taqvimlari bo'lgan, demak, taqvimlar 3 xil bo'ladi.

Shuni qayd etib o'tishimiz kerakki, taqvim sodda, qulay va aniq bo'lishi uchun quyidagi ikkita shart bajarilishi zarur:

1) Taqvim yilining davomiyligi iloji boricha tropik yil (tropik yil uzunligi **365 sutka 5 soat 48 minut 46 sekund**) ning davomiyligiga yaqin bo'lishi;

2) Taqvimda sutkalar butun bo'lishi.

Yuqoridagi shartlarni qanoatlantirgan birinchi taqvim eramizdan avvalgi I asrda Rim sarkarda (imperator) si Yuliy Sezar yilning uzunligi 365,25 sutkaga teng taqvimni astronomlar yordamida tuzib, uni amalda joriy qildi. Bu taqvim asoschisi aleksandriyalik astronom Sozigen hisoblaniladi (eramizdan avvalgi 46 yil).

Keyinchalik bu taqvim Yuliy Sezar sharafiga yulian taqvimi deb ataladigan bo'ldi. Bu taqvimga ko'ra, uch yil ketma-ket keladigan yillarning uzunligi 365 sutkadan bo'lib, har to'r'tinchi yil 366 sutka (366 sutkalik yil Kabisa yili deb yuritiladi) qilib olinadi, chunki to'rt yilda 0,25 sutkalik (yillik) qoldiq yig'ilib 1 sutkaga teng bo'ladi. Bu qo'shimcha kun fevral oyiga qoshib berishga (ya'ni, uni 29-kun qilib ishlatishga) kelishib olindi.

Oradan yuz, ming yilliklar o'tishi bilan bu taqvim yilining uzunligida hali ham xatolik (bu xatolik bir yilda **11 minut 14 sekundga** teng edi) borligi ma'lum bo'ldi. Uni tuzatish uchun 1582 yilning fevralida rim papasi Grigoriy XIII reforma qabul qilib, yilning uzunligini aniqroq olingan qiymatini (365,2422 sutka) yangi Quyosh taqvimi uchun asos qilib oldi.

Yuqoridagi xatoliklar XX asr boshlariga kelib roppa-rosa 13 sutkani tashkil etdi, albatta, bu katta xatolik edi. Bu xatolik 1918 yil 1 fevraldan hayotga yangi taqvim (grigorian) joriy etilishi bilan tuzatildi. Ayni paytda biz ishlatayotgan taqvimimiz grigorian taqvimi bo'lib, uning erasi Iso payg'ambarining afsonaviy tug'ilgan yilidan boshlangan. Bu taqvimda xatolik 1 yilda 26 sekundni tashkil etadi va 3300 yilda 1sutka qo'shimcha hosil qiladi va fevral oyi (har 3300 yilda) 30 kundan iborat bo'ladi.

XI asrning buyuk shoiri, faylasufi, matematigi va astronomi Umar Hayyom 1048 yilda Nishopur shahri (Xuroson, hozirgi Erondagi shahar) da tavallud topdi. Uning yoshlik yillari shu shaharda, do'sti Nizomul-Mulk bilan birgalikda o'tdi. U. Hayyom o'zining dastlabki saboqlarini Samarqand va Buxorodagi madrasalarda oldi va 1070 yilda saljuqlar sultoni Malikshoh va uning bosh vaziri (U. Hayyomning yoshlikdagi do'sti) Nizomul-Mulklar tomonidan saroyga taklif etildi.

U.Hayyom iltimosiga ko'ra, Malikshoh Hayyom va uning shogirdlari uchun 1076 yili Isfaxon va Marv (Eron) da rasadxona qurib berdi. Malikshoh vafoti (1092 yil) ga qadar u bu rasadxonalarga rahbarlik qildi. Rasadxonalarda olib borilgan astronomik kuzatishlar natijasida yuzdan ortiq yorug' yulduzlarning koordinatlarini hamda Oy, Quyosh va sayyoralarning harakatlarini aks ettirgan jadvallarni o'z ichiga olgan "Zij" yaratildi. Bu astronomik risola, keyinchalik "Malikshoh ziji" degan nom bilan jahon astronomiya tarixidan o'rin oldi [3].

Bu asarda rasadxonalarda olib borilgan izlanishlar va kuzatishlarga asoslanib Umar Hayyom o'zining yangi taqvimini yaratdi. Taqvimda yilning o'rtacha uzunligi 365,24242 sutkaga teng bo'lib, tropik yilning haqiqiy uzunligidan atigi 0,00022 sutkaga, ya'ni 19,5 sekundgagina uzun edi. Bu xatolik shu qadar kichik ediki, u yig'ilib-yig'ilib 4500 yil o'tgandan so'nggina 1 sutkaga yetardi (chunki 1 yil 86400 sekund, agar bu sonni 19,5 ga bo'lsangiz 4500 kelib chiqadi) [4].

Biz ishlatayotgan grigorian taqvimining xatosi (bir yilda 26 sekund) bir sutkaga yetishi uchun esa 3300 yil, ya'ni (Hayyom taqvimidan 1200 yil kam vaqt) kerak bo'ladi. Umar Hayyomning bu taqvimii, ayni paytda Eronda ishlatiladigan **Jaloliy** (Malikshohning taxallusi) taqvimining asosini tashkil etadi.

Mazkur taqvim erasining boshi ham keyinchalik musulmonlarning hijriy-qamariy erasida kabi 622 yilning 16 iyuliga ko'chirilib, u **Quyosh-hijriy taqvimi** degan nom bilan ataladigan bo'ldi.

Bu taqvim yili ham 12 oyga bo'lingan bo'lib (taqvim yilining 12 oyga bo'liishiga sabab-Yer Quyosh atrofini bir marta to'la aylangunga qadar, Oy Yer atrofini 12 marta to'la aylanib chiqadi), taqvimda oylar, Quyoshning yillik ko'rinma harakati davomida kesib o'tadigan yulduzlar turkumlarining nomlari bilan **Hamal, Savr, Javzo, Saraton, Asad, Sunbula, Mizon, Aqrab, Qavs, Jaddi, Dalv, Hut** deb yuritiladi. Quyosh-hijriy taqvimi bo'yicha yangi yil 21 martdan kiradi [5].

Biz hozirda grigorian taqvimini ishlatib kelayotgan bo'lsak-da, XI-asrdan boshlab bizning hududda Quyosh-hijriy taqvimidan foydalanilgan. Bugungi kunda ham keksa avlod kishilarining Oy-hijriy va Quyosh-hijriy taqvimlarini kundalik turmushimizda ishlatishlarini ko'ramiz. Ayniqsa, dala-dehqonchilik ishlaridagi faoliyatda yaqqol guvohi bo'lamiz yoki o'zbek xalq maqol va matallarida ham uchratish mumkin. Masalan,

1. Hamal keldi-amal keldi

21-martdan boshlab kunlar isiy boshlaydi, tabiat uyg'onadi,

2. Savr kirdi-ekinlarga davr kirdi

21-apreldan issiqli natijasida ekinlarning baravj rivojlanishi boshlanadi,

3. Saraton-saralab ekish

Qolaversa-tariq ekish

22-iyundan eng issiq kunlar boshlanib, unda ekinlarning ayrimlarini (saralab) ekish tavsiya etiladi. Agar rioya qilinmasa, xirmon yig'ib bo'lmaydi,

4. Asad kirsa suv oqar

22-iyuldan Saraton issigi'da tog'lardagi qorlar erib, daryolardan to'lib suv oqadi,

5. Sumbulaning suvi tiniq, o'zi sovuq

22-avgustdan daryolardan kelayotgan suvlar tiniqlashib, o'z navbatida Quyosh tafti pasayganligi hisobiga suv sovishni boshlaydi,

Sumbulada suv soviydi

Mizonda kun

22-avgustdan Sumbula oyi kirishi bilan suvlar sovigan bo'ladi, oyning yakuni bilan esa, kunlar ham soviy boshlaydi,

-Sumbula tug'sa, suv sovir

Tarozi tug'sa, tong sovir

-Qirqkuyak keldi-kuz keldi

23-sentabrdan Mizon (Tarozi) oyi kirishida suv sovigan va oyning tugashi bilan ertalab (tong) ham soviy boshlaydi,

6. Mizon chiqib, Aqrab kirsa-qish

7. Aqrab keldi aqirib

Sovuqlarni chaqirib

22-oktabrda Mizon tugab, Aqrab oyining kirishi qishdan dalolat beradi,

8. Qavs suvi-jon suvi

22-noyabrdan Qavs oyi kirib kelishi bilan yerlar haydalib, sho'r yuvish ishlari olib boriladi. Bu tadbir kelgusi yil mo'l hosili uchun zamin hozirlaydi.

Xulosa. Astronomiya fanidan "Vaqt. Vaqtni o'lchash tizimlari. Taqvimlar" mavzusini o'qitishda yuqorida ko'rsatilgan o'zbek xalq maqol va matallaridan foydalanish, pedagog hamda talaba faoliyatiga yangilik, o`zgarishlar kiritadi, talabalarning dars davomida befarq bo`lmaslikka, mustaqil fikrlashga, ijod etish va izlanishga undaydi. Shu kabi o'quv jarayonini tashkil etish yoki pedagogik tadbirlar dars jarayonini mazmunan to'ldirishi va fanning jozibadorligini oshishiga sabab bo'ladi, shuningdek, fanga oid o'quv adabiyotidagi mavzularni boyitish va mazmunan to'ldirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.R.Kamolov. "Oly ta'limda o'quv jarayonini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tshkil etish", bitiruv ishi. Toshkent,: 2016.

2. D.I.Kamolova. Ommabop astronomiya (o'quv-uslubiy qo'llnma). Lider Press, Toshkent,: 2009.

3. I.R.Kamolov, M.Mamadazimov, B.F.Izbosarov. Astronomiya (o'quv qo'llanma). Toshkent.: Sano-standart., 2014

4. I.R.Kamolov, D.I.Kamolova, G.I.Sayfullayeva, A.R.Sattorov, S.T.Barakayeva, A.B.Narbayev, A.M.Tillaboyev. Umumiy astronomiya (darslik). Termez.: TerDU NMM., 2023.

5. S.D.Ravshanova. "Astronomiya fanini o'qitishni milliy-ilmiy meroslardan foydalanib takomillashtirish metodikasi" (magistrlik dissertatsiyasi). Navoiy.: Navoiy DPI., 2023.

MAJBURIY FANLARNI O‘QITISHDA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI

Ochilova Z.Sh.
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Tayanch so‘zlar: virtual ta’lim, mobil ta’lim, o‘qituvchining yangi roli, sifat, shaxsiylashtirish, multimediyali o‘quv, interaktiv trening, geymifikatsion xarakter.
Ключевые слова: виртуальное образование, мобильное образование, обновленная роль учителя, качество, персонализация, мультимедийное обучение, интерактивное обучение, геймификация характера.
Key words: virtual education, mobile education, updated role of the teacher, quality, personalization, multimedia learning, interactive learning, character gamification.

РЕЗЮМЕ:
Bu maqola majburiy fanlarni o‘qitish jarayonida raqamli ta’lim texnologiyasidan foydalanishning o‘rni va ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Raqamli ta’lim yoki texnologiyalar o‘quv jarayonini yanada tushunarli va o‘quvchilar uchun samarali qilishda muhim o‘rin egallaydi. Mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar va tajribalar tahlil qilinadi.
РЕЗЮМЕ:
Данная статья посвящена исследованию роли и значения использования цифровых образовательных технологий в процессе преподавания обязательных предметов. Цифровое обучение или технологии играют важную роль в том, чтобы сделать процесс обучения более доступным и эффективным для студентов. Анализируются научные исследования и эксперименты по теме.
SUMMARY:
This article is devoted to the study of the role and significance of the use of digital educational technologies in the process of teaching compulsory subjects. Digital learning or technology plays an important role in making the learning process more accessible and effective for students. Scientific research and experiments on the topic are analyzed.

Dunyo miqyosidagi ko‘pchilik olimlar raqamlashtirishning ta’lim jarayoniga keng miqyosda jalb qilinishi XXI asr uchun juda muhim deb hisoblashadi. Internet tarmog‘idagi mediakontent, interaktiv elektron darsliklar bora-bora an’anaviy o‘quv resurslarning o‘rnini egallab kelmoqda. Hozirda taqdim etilayotgan bilimni qiziqarli videorolik ko‘rish, onlayn test yechish, o‘rganilayotgan obyekt bilan virtual tarzda tanishish o‘quvchilar uchun tushunarliroq bo‘ladi. Qolaversa,

ma’lumotni bu tarzda yetkazish bolalar uchun ta’sirliroq bo‘lib, xotirasida uzoq saqlanadi.

Prezidentimiz tomonidan so‘nggi yillarda ta’lim tizimidagi olib borilgan islohotlar natijasida Respublikaning barcha xududlaridagi maktablarga zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalari yetkazib berilmoqda. Respublikamizda ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi ta’lim tizimi sifatini yuqori saviyaga olib chiqishni talab etmoqda. Shu sababli ham bugungi kunda yangi virtual texnologiyalarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi fan bo‘yicha maktab dasturini uning mazmuni bilan bog‘liq modernizatsiya qilish bu katta zaruriyatdir. Ushbu muammolarni hal etishda axborot texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalaridan foydalanilgan darslar axborotlarga boy, ko‘rgazmali, interfaol bo‘lib, vaqtdan unumli foydalanish, har bir o‘quvchining o‘z tempi bo‘yicha bilim olish, o‘qituvchida esa, o‘quvchilar bilan tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan ta’limni amalga oshirish imkoniyati vujudga keladi, shu bilan bir qatorda o‘qitishda natijalarini nazorat qilish va baholash uchun zamin yaratadi.

O‘quv fanlari bo‘yicha elektron o‘quv vositalarining yaratilishi majburiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o‘z navbatida, o‘quvchilarning mazkur fanlar bo‘yicha bilimlarini chuqur o‘zlashtirishlarining asosiy omili bo‘lib, ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi. Ayni shunday sa’y-harakatlar amalga oshirilishi ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tadbiq etishni yanada jadallashtirish, professor-o’qituvchilarni ilg‘or pedagogik bilimlar va texnologiyalar bilan qurollantirish, ularning mahoratini oshirish, xorijiy oliy ta’lim muassasalari tajribasini chuqur o‘rganish hamda ulardagi samarali usul va vositalarni milliy ta’lim tizimimizga joriy etish imkonini yaratadi.

Multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi: axborotning xilma-xil turlari: an’anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animasiya va boshqalar), turlarini bir dasturiy maxsulotda integrasiyalaydi. Bunday integrasiya axborotni ro‘yxatdan o‘tkazish va aks ettirishning turli qurilmalari, muayyan vaqtdagi ish, o‘z tabiatiga ko‘ra statik bo‘lgan matn va grafikadan farqli ravishda, audio va video signallar faqat vaqtning ma’lum oralig‘ida ko‘rib chiqiladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy prosessor tez xarakatchanligi, ma’lumotlarni uzatish shinasining o‘tkazish qobiliyati operativ va video-xotira, katta sig‘imli tashqi xotira, hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo‘yicha almashuvi tezligini taxminan ikki barovar oshirilishi

talab etiladi, “inson-kompyuter” interaktiv muloqotining yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur xolat ta’lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi. multimedia vositalari asosida o‘quvchilarga ta’lim berish va kadrlarni qayta tayorlashni yo‘lga qo‘yish xozirgi kunning dolzarb masalasidir.

Raqamli ta’lim-zamonaviy texnik vositalar bo‘lib, ular o‘quvchilarning bilimlarini oshirish va sifatini oshirishga mo‘ljallangan. Raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga kiritish o‘quvchilarning ijobiy o‘rganish motivasiyasini shakllantiradi, ijodiy bilish faoliyatini, mustaqil ta’limga bo‘lgan ehtiyojini rag‘batlantiradi. Majburiy fanlar turkum o‘quv kurslari tizimi uchun maksimal darajada qulay sharoitlar yaratish, ta’lim iste’molchilari va oliy ta’lim muassasasi hamda mehnat bozorida ish beruvchi o‘rtasida sifatli dialogli muloqotni yo‘lga qo‘yish, ta’lim subyektlariga islohotlarning maqsadi, vazifalari va natijalari haqida tezkor, xolis va to‘liq axborot yetkazish, axborot xizmatlari faoliyatining samaradorligini tubdan yaxshilash dolzarb bo‘lib hisoblanadi. Shu boisdan so‘ngi yillarda majburiy fanlarni o‘qitishda raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Umumta’lim maktablarida barcha fanlarni shu jumladan majburiy fanlarni o‘qitishda virtual ta’limga alohida urg‘u berilmoqda.[1]

Virtual (inglizcha – virtual reality, sun’iy voqelik) - inson sezgilari orqali anglashi qiyin bo‘ladigan holatlarning kompyuter texnologiyalari orqali real voqelikka aylantirilishi. Masalan, mashina, kompyuter ichki mexanizmlarining harakati, kimyoviy, fizik elementlar tuzilishi, molekulalarning harakati, tuzilishi va h.k.

Virtual ta’lim nafaqat masofaviy, telekommunikatsiya ta’limi, balki – obyektlar va subyektlar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik jarayoni va natijasidir. Virtual ta’lim muhiti o‘quv jarayoni qatnashchilarini o‘zaro aloqada bo‘lishini ta’minlash uchun turli ta’lim manbalariga kirishga imkon beradigan, ochiq, kompyuterli muhit hisoblanadi. Virtual ta’lim muhitida virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalaniladi.[2]

O‘qituvchining yangi roli: Virtual o‘qitish o‘qituvchining o‘qitish jarayonidagi rolini yanada kengaytiradi va yangilaydi. Endi o‘qituvchidan o‘zlashtirish jarayonini muvofiqlashtirishi, yangiliklar va innovatsiyalarga mos ravishda berayotgan fanini muntazam mukammallashtirishi, saviya va ijodiy faoliyatini yanada chuqurlashtirishi talab etiladi.

Sifat: Virtual o‘qitish usulining ta’lim berish sifati bo‘yicha kunduzgi ta’lim turidan qolishmaydi. Balki mahalliy va chet ellik dars beruvchi kadrlarni jalb qilib, eng yaxshi o‘quv-metodik darsliklar va nazorat qiluvchi testlardan foydalangan holda o‘quv jarayonini tashkil etish ta’lim sifatini oshirishi mumkin.[3]

Ta’lim sohasida xususan majburiy fanlarni o‘qitish sohasida VR (virtuallik) o’quvchilarning bilim olish uslubini o‘zgartiradi. Sinf xonalarida VR (virtuallik) dan foydalanish o‘quvchilarga bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirish va qiyin tushunchalarni tasavvur qilish orqali o‘rganishga yordam beradi.

Majburiy fanlarni o‘qitish usullari zamonaviy axborot vositalari bilan boyitilishi natijasida ta’lim sifatining yanada ortishi kutilmoqda. Bu borada masofaviy o‘qitish usuli o‘qituvchi (pedagog) va o‘quvchi-talabalar uchun ham qator qulayliklarga egaligi bilan alohida ahamiyatga egadir. Internet, multimedia kabi texnologik usullar o‘quvchi-talabalar uchun zarur bo‘lgan o‘quv materiallari, qo‘llanmalar asosida kompyuter dasturlari ishlab chiqish vazifasini qo‘ymoqda. Zero, masofaviy o‘qitish har qanday sohada ham jahon ta’lim markazlarining uslubiy adabiyotlari, zamonaviy hamda so‘nggi axborotlarni olish, jamlab foydalanish imkoniyatlarini beradi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida majburiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy o‘qitish vositalaridan foydalanishning qulaylik tomoni shundan iboratki, o‘quvchida fanni mustaqil o‘rganish imkoniyati yaratiladi. Bu imkoniyatdan foydalanib, ushbu fanlarga oid video lavhalarni takror ko‘rish, mavzuga oid ma’lumotlarni qidirib topish, berilgan topshiriqlarni qayta bajarib ko‘rish hamda o‘zini-o‘zi baholash testlaridan bir necha marotaba foydalanish imkoniyati ham yuzaga keladi. Shu bilan birga, o‘quvchi va talabalarning bo‘sh vaqtini unumli o‘tkazishga va fikrlash doirasini yanada kengaytirishga hamda tafakkurini shakllantirishga yordam beradi. Shunday qilib, majburiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiya vositalaridan samarali foydalanish uchun o‘qituvchidan sezilarli mehnat talab qilmaydigan, har qanday zamonaviy mobil qurilmalarda yetarlicha sodda va qulay bo‘lgan materiallarni taqdim etish usulini ishlab chiqish kerak. Umumta’lim maktablarida majburiy fanlarni o‘qitish darslari jarayonida qo‘llanilishi bo‘yicha mobil ta’lim anchagina qulay va sodda hisoblanadi.

Mobil ta’lim - bu ixcham, ko‘chma, mobil qurilmalar va texnologiyalar orqali muntazam ravishda olib boriladigan faoliyat bo‘lib, ta’lim oluvchilarga axborot olish yoki yaratish, muloqot qilish orqali ta’lim jarayonini yanada samarali bo‘lishiga imkon beradi.

Mobil ta’lim olish amaliyotining kundan – kunga ommalashuvi va rivojlanib borishi uning qator quyidagi o‘ziga xosliklarga egaligida desak, xato qilmaymiz:

- mobil ta’limda makon va vaqt tushunchalarining ahamiyati yo‘q. Ya’ni mobil ta’lim bu – mobil qurilmalari orqali istalgan joyda va istalgan vaqtda ta’lim olish imkoniyatidir;

- mobil texnologiyalaridan ta’limiy maqsadlarda foydalanish talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshiruvchi noyob vosita hisoblanadi;

- mobil ta’lim – bu o‘quv materiallarini kichik ekranlar ichiga shunchaki joylashtirish emas, balki innovatsion ta’lim shakllari va usullarini joriy etish yo‘lidir;

- mobil ta’lim o‘zida geymifikatsiya elementlarini mujassamlashtiradi;

- mobil ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida axborotlarning almashinuvi jadal tarzda kechadi.[4]

Mobil ta’lim kirish, shaxsiylashtirish, jalb qilish, o‘rganishni nazorat qilish, egalik qilish va narsalarni talab qilish qobiliyati, talaba huquqlarini hurmat qilish uchun muhimdir.

Mobil texnologiya o‘rganishga qanday yordam beradi? Mobil texnologiyalarning o‘ziga xos xususiyati saytga xos raqamli ta’limni taklif qilishdan iborat bo‘lib, u egalik darajasi va nazorati tufayli rag‘batlantiradi. “Kompyuter bilan hamkorlikda o‘rganish va mobil o‘rganish” birgalikda keng ko‘lamli ta’lim faoliyati taklif etilgan mobil raqamli vositalar va muhitlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi mumkin:

- tadqiqot - raqamli qo‘llanmalar bilan bog‘liq haqiqiy jismoniy muhit;
- izlanish - raqamli qo‘llanmalar bilan bog‘liq haqiqiy jismoniy muhit;
- munozara - tengdoshlar bilan, sinxron yoki asinxron, audio yoki matn yozib olish;
- ma’lumotlarni olish - tovushlar, tasvirlar, videolar, matnlar, joylar;
- qurish, yaratish, simulyatsiya qilish - olingan ma’lumotlar va raqamli vositalardan foydalanish;
- almashish - olingan ma’lumotlar, raqamli qurilish va simulyatsiya mahsulotlari;
- sinov - boshqa mahsulotlar, boshqalarning sharhlari yoki haqiqiy jismoniy muhit bilan solishtirganda yaratilgan mahsulotlar;
- moslashish - ushbu faoliyatning barchasi elektron ta’limning boshqa shakllarida ham mumkin, ammo mobil ta’lim uchun ularning o‘quv jarayoniga eng yaxshi yordam berish uchun qanday integratsiyalashganligi muhim bo‘lishi mumkin.

Ushbu g‘oyani sinab ko‘rish uchun biz mobil ta’limning pedagogik muammolarini hal qiluvchi, uni optimal o‘rganish tajribasi talablariga muvofiq sinovdan o‘tkazadigan keyingi bo‘limga murojaat qilamiz.

O‘qituvchi ta’limning an’anaviy kunduzgi shaklidagi dars mashg‘ulotlarini loyihalashtirishda mobil texnologiyalardan foydalanish jarayoniga turlicha yondashishi mumkin. O‘quv jarayonida mobil qurilmalardan foydalanish usullarini quyidagicha guruhlashtirishgan:

- multimediyali o‘quv – web resurslar (audio fayllar, videofilmlar, grafika, xarita va tasvirlar)ni namoyish etish uchun;

- o‘quv saytlari, resurslar, ma’lumotnomalar, lug‘atlarga tezkor kirishni ta’minlash; ta’lim jarayonidagi muloqotni ta’minlash uchun (SMS xabarlar, twitter, telegram, web seminarlar va boshqalar).[]

Ta’lim jarayoniga mobil texnologiyalarni joriy etish quyidagi qator afzalliklarga ega:

- ► ixtiyoriy vaqtda, ixtiyoriy joyda o‘qish, o‘rganish mumkin (Mobillik);
- ► o‘quv materiallarni turli ko‘rinishda, audio, video, rasm, grafika kabi
- ► multimedik imkoniyatlarga to‘la vizual tarzda taqdim etish imkoniyati (Multimediyali);
- ► mobil ta’lim ko‘pincha o‘yin shaklida amalga oshiriladi (Geymifikatsion xarakterga egaligi);
- ► ishtirok etishni nazorat qilish imkoniyatining mavjudligi (Ishtirokni monitoring qilish);
- ► ta’lim jarayonining ruhlantiruvchi (Motivatsion) xarakterga egaligi;
- ► ta’lim oluvchilarning bilim darajasini bir xil nazorat qilish;

Onlayn ta’limiy testlar yakka holda yoki guruh bo‘lib bilimni sinash imkonini beruvchi eng tezkor va qulay vosita hisoblanadi. Hozirda bunday testlarning juda ko‘p ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, olingan bilimni tekshirish va kerakli xulosa chiqarish uchun ular juda samarali. Onlayn testlarni ishlaganda to‘g‘ri javob va natijani darhol bilish mumkinligi o‘quvchilarga juda qiziqarli tuyuladi. Yo‘l qo‘yilgan xatoni o‘sha zahoti ko‘rish, bilmaganini bilib olish, tushunmaganini mustahkamlash, ustozdan so‘rab bilish imkoni mavjud.

- ► o‘quv jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida axborot almashinuvini jadallashtirish;
- ► ta’lim oluvchilarning shaxsiy psixologik va fiziologik xususiyatlaridan kelib chiqib, individual yondashishda mobil qurilmalarning moslashuvchanligi (Individual yondashuv).

Majburiy fanlarni o‘qitishda raqamli ta’lim texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati.

Zamonaviy dunyoda raqamli didaktika ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda, ayniqsa majburiy fanlarni o‘qitish sohasida. Ta’limga bunday yondashuv samarali va interaktiv ta’lim uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada biz majburiy fanlarni o‘qitish kontekstida raqamli didaktikaning ahamiyatini ko‘rib chiqamiz.

1.Bilimlardan foydalanish imkoniyatini oshirish.

Raqamli didaktika onlayn kurslar, elektron darsliklar, video darslar va boshqa raqamli resurslar orqali bilim olish imkoniyatini oshirish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, geografik joylashuv yoki boshqa holatlar tufayli an’anaviy darslarga qatnasha olmaydigan talabalar uchun juda muhimdir.

2. Interaktiv trening.

Raqamli vositalardan foydalanish o‘quvchilarning faol ishtirokini rag‘batlantiradigan interaktiv darslar va tadbirlarni yaratish imkonini beradi. Bu materialni yaxshiroq o‘zlashtirishga va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

3. Murakkab tushunchalarni tasavvur qiling.

Majburiy fanlar ya’ni fizika va tabiiy fanlarda ko‘p tushunchalar mavhum va tushunish qiyin. Raqamli vositalar ushbu tushunchalarni animatsiyalar, simulyatsiyalar va virtual eksperimentlar orqali tasavvur qilish imkonini beradi, bu esa ularni talabalar uchun yanada qulayroq va tushunarli qiladi.

4. Shaxsiylashtirilgan trening.

Raqamli didaktika o‘quv materialini har bir talabaning individual ehtiyojlari va o‘rganish tezligiga moslashtirishga imkon beradi. Bu, ayniqsa, majburiy fanlar kontekstida foydalidir, bu yerda talabalar turli xil bilim va qobiliyatlarga ega bo‘lishi mumkin.

5.Tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish.

Raqamli vositalardan foydalanish ma’lumotlar bazalari, ilmiy maqolalar va ma’lumotlarni tahlil qilish vositalariga kirishni ta’minlash orqali talabalar tadqiqotini rag‘batlantirishi mumkin. Bu esa ilmiy tafakkurning rivojlanishiga, ilm-fan sohasida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Majburiy fanlarni o‘qitishda qo‘l keluvchi yana bir vosita interaktiv doska bo‘lib, u ta’lim berish uchun kerakli bo‘lgan barcha imkoniyatlarni o‘zida jamlagan. Mashg‘ulot davomida undan ham yozuv taxtasi, ham internet orqali ma‘lumot qidirish uskunasi, YouTube tarmog‘idagi fanga doir videolarni namoyish qilish vositasi, onlayn test yechish, turli interaktiv o‘yinlar tashkil etish qurilmasi, kompyuter sifatida foydalanamiz. Bu moslama - o‘qituvchining eng yaqin yordamchisi. Jumladan, raqamli texnologiyadan foydalanish madaniyatini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab o‘quvchilarida axborotdan to‘g‘ri va unumli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Informatika va axborot texnologiyalari fundamental fan sifatida kompyuter axborot tizimlari negizida istalgan obyektlar bilan boshqaruv jarayonlarini axborot jihatidan ta’minlashni barpo etish metodologiyasini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi. Shunday fikr ham mavjudki, fanning asosiy vazifalaridan biri - axborot tizimlari nima, ular qanday o‘rinni egallaydi, qanday tuzilmaga ega bo‘lishi lozim, qanday ishlaydi, uning uchun qanday qonuniyatlar xos ekanligini aniqlashdir. Yevropada informatika sohasida quyidagi asosiy ilmiy yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin: tarmoq tuzilmasini ishlab chiqish, kompyuterli integratsiyalashgan jarayonni ishlab chiqarish, iqtisodiy va tibbiy informatika, ijtimoiy sug‘urta va atrof-muhit informatikasi, professional axborot

tizimlari. Multimedia tizimining paydo bo‘lishi ta’lim, fan, san’at, kompyuter treninglari, reklama, texnika, tibbiyot, matematika, biznes, ilmiy tadqiqot kabi bir qancha kasbiy sohalarda revolyutsion o‘zgarishlar yuzaga kelishiga olib keldi. Kompyuterlarni ta’lim tizimida qo‘llash g‘oyasi ancha ilgari paydo bo‘lgan bo‘lgan bo‘lsada, ta’lim tizimining barcha sohalarida axborot texnologiyalarini qo‘llash multimedia qurilmalari bilan jihozlangan kompyuterlar paydo bo‘lgach to‘liq ma’noda amaliyotga joriy etilib boshlandi. Shunday shiddat bilan rivijlanib borayotgan zamonda farzandlarimiz xavfsizligi ya’ni internet resurslaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasi eng oliy o‘rinda turmog‘i lozim.

Yuqorida sanab o‘tilgan omillarning jam bo‘lishi muhim ta’limiy vazifalarni amalga oshirish uchun maktablarda raqamli ta’lim tizimining mustahkam o‘rinlashuviga xizmat qiladi. Raqamli ta’lim texnologiyalari zamonaviy ta’limda, ayniqsa, majburiy fanlarni o‘qitish sohasida asosiy o‘rin tutadi. Bu bilimlarning mavjudligini yaxshilaydi, interaktiv ta’limni rag‘batlantiradi, murakkab tushunchalarni vizualizatsiya qiladi, o‘rganishni shaxsiylashtiradi va tadqiqot faoliyatini rag‘batlantiradi. Bunday yondashuv nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki barkamol va tanqidiy fikrlaydigan mutaxassislarni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-4699-сонли Қарори (Манба: https://lex.uz/docs/4800657).

2. Қурбонов Ғ.Ғ. Умумкасбий фанлардан ўқув машғулотларини рақамли таълим технологияси асосида ташкил этиш // “Ilim ha’m ja’miyet”. Илмий-методик журнал, №3, Нукус. 2022. – Б.47-49.

3. Осин А.В. Электронные образовательные ресурсы нового поколения: открытые образовательные модульные мультимедиа системы // В сб. науч. ст. “Интернет-порталы: содержание и технологии”. Вып.4 / Редкол.: А.Н. Тихонов (пред.) и др.: ФГУ ГНИИ ИТТ «Информика». –М.: Просвещение, 2007. – С. 12-29.

4. Закирова Ф.М. Теоретические и практические основы методической подготовки будущих преподавателей информатики в педагогических вузах: Автореф. Дисс. … док. пед. наук. – Ташкент: ТГПУ, 2008. – 42 с.

AUDITORIYA MASHG‘ULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Xusnidinova N.A.
Buxoro davlat texnika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch so‘zlar: chizmachilik, dizayn, vizualizatsiya,fazoviy tasavvur.
Ключевые слова: рисунок, дизайн, визуализация, пространственное воображение.
Key words: drawing, design, visualization, spatial imagination.

РЕЗЮМЕ:
O'tgan o'n yillikda dizayn va chizmachilik uchun yaxshi dasturiy ta’minotni joriy etish bilan Arxitektura va interyer dizayni talabalari o‘z g‘oyalarini vizual tasvirini yaratish uchun ko‘proq kompyuterga tayanmoqdalar. Muammo shundaki, o'quvchilarga kuzatuv chizmalarini erkin qo‘lda o‘rganish ularning oldida ko‘rgan narsalarni takrorlashdan ko‘ra ko‘proq ekanligini tushunishdir. Kuzatish chizmasi, shuningdek, yuzaki kuzatishdan ustun bo‘lgan vizual tahlil aktidir. Ularning oldidagi narsalarni tezda tushunib, chiza olish, shuningdek, ularning ongida tasavvur qiladigan narsalarni tezda chizish va tushunishga olib keladi. Talabalarni an’anaviy rasm chizishni o‘zlashtirishlari uchun ular kompyuterda takrorlash qiyin bo‘lgan chizmaning afzalliklarini tushunishlari kerak. Tezlik asosiy hisoblanadi. Talabalar yanada samarali ishlashga imkon bersa, chizma chizish ko‘nikmalaridan foydalanishga va rivojlantirishga ko‘proq mos keladi. Ushbu maqola shakl va makonni qanday tahlil qilishni o‘rganish va yuzaki tafsilotdan ko‘a rasmiy va fazoviy tarkibga ustunlik beruvchi chizmani tezda yaratishni o‘rganadi. Shuningdek, u dizayn jarayonini yaxshilash uchun chizish va kompyuter vizualizatsiyasi qanday ishlashi mumkinligini ko‘rib chiqadi.
РЕЗЮМЕ:
С появлением хорошего программного обеспечения для проектирования и черчения за последнее десятилетие студенты, изучающие архитектуру и дизайн интерьера, все чаще полагаются на компьютеры для создания визуальных презентаций своих идей. Задача состоит в том, чтобы помочь учащимся понять, что рисование от руки по наблюдению - это больше, чем просто повторение того, что они видят перед собой. Наблюдательное рисование также является актом визуального анализа, выходящим за рамки поверхностного наблюдения. Умение быстро понимать и рисовать то, что находится перед ними, также приводит к умению быстро рисовать и понимать то, что они представляют себе в уме. Чтобы учащиеся освоили традиционное рисование, им необходимо понимать преимущества рисования, которые трудно воспроизвести на компьютере. Скорость имеет решающее значение. Рисование больше подходит для использования и развития навыков рисования, позволяя учащимся работать более эффективно. В этой статье мы рассмотрим, как анализировать форму и пространство и быстро создавать рисунок, в котором формальное и пространственное содержание ставится выше поверхностных деталей. В статье также рассматривается, как черчение и компьютерная визуализация могут помочь улучшить процесс проектирования.
SUMMARY:

With the introduction of good design and drafting software in the past decade, Architecture and Interior Design students are increasingly relying on computers to create visual representations of their ideas. The challenge is for students to understand that freehand observational drawing is more than just reproducing what they see in front of them. Observational drawing is also an act of visual analysis that goes beyond superficial observation. Being able to quickly understand and draw what is in front of them also leads to quickly drawing and understanding what they imagine in their minds. In order for students to master traditional drawing, they need to understand the advantages of drawing that are difficult to replicate on a computer. Speed is key. Students are more likely to use and develop their drawing skills if they are able to work more efficiently. This article will explore how to learn how to analyze form and space and quickly create a drawing that prioritizes formal and spatial content over superficial detail. It also examines how drawing and computer visualization can work together to improve the design process.

Kirish. Erkin qo‘lda chizish - bu vakillik masalasining faqat bir jihati. Obyektlar, shakl va makonni tasvirlash turli yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Turli xil vakillik shakllari ma’lum bir auditoriya bilan samarali muloqot qilish uchun turli ko‘nikmalar va sezgirlikni talab qiladi. Erkin qo‘lda chizish, ehtimol, eng tezkor mahoratdir, chunki biz bolaligimizdan rasm chizishni boshlaymiz va boshlang'ich va o‘rta ta’lim davomida asboblardan (qalam, qog‘oz,)dan foydalanamiz. Universitetga kirgan talabalar, hatto bolaligidan beri rasm,chizma chizmagan bo‘lsalar ham, rasm chizish qobiliyatiga ega bo‘lishadi. Texnik oloiy o‘quv yurtlarida birinchi kurs talabalariga chizmachilik ko‘nikmalarini o‘rgatish maqsadi ularning murakkab g‘oyalarni vizual tarzda ifodalash va yetkazish va buni tez va samarali bajarish qobiliyatini rivojlantirishdir. Boshqa ko‘rinishdagi ko‘nikmalar, jumladan, kompyuterda chizish yoki modellashtirish, ushbu asosiy bepul qo‘lda chizish ko‘nikmalariga asoslanadi.

Chizish faqat texnik mahoratni rivojlantirishdan iborat emas. Chizish - bu sizning nuqtai nazaringiz yoki idrokingiz orqali obyektlarni, shakl va makonni baholash va tahlil qilish vositasidir.

Talabalarda fazoviy tasavvurni shakllanib, chimlarga kreativ yondasha olish ko‘nikmasini hosil qilish maqsadida raqamli texnologiyalardan biri grafik dasturlar orqali chizmalarni bosqichma- bosqich yaratilgan video darslardan foydalanish talab etmoqda.Talabalarning fazoviy tasavvurlarini shakllantirish uchun muhandislik grafikasida quyidagi vizual darslardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.Qurida vizual dars turlarini ko‘rib chiqamiz (1-rasmga qarang).

Vizual dars – bu o‘quv materiallarini ko‘rish, eshitish va his qilish orqali o‘rganish usuli hisoblanadi Vizual dars turlaridan dars mashg‘ulotlariga qo‘llaganda dars jarayoni qiziqarli va tushunarli bo‘ladi.An’anaviy va matnli dars mashg‘ulotlariga qaraganda vizual dars turlari samarali hisoblanadi.

Infografika darslari – Infografika darslari – bu murakkab ma’lumotlarni sodda, tushunarli va jozibali vizual formatda taqdim etish usuli.



1-rasm: Vizual dars turlari

Video darsliklar – Video darsliklar – bu o‘quv materiallarini multimedia formatida (video, audio, grafikalar) taqdim etish usuli.

Interaktiv darslar – Interaktiv darslar – bu o‘quvchilar faol ishtirok etadigan, turli elementlar (testlar, topshiriqlar, simulatsiyalar, o‘yinlar) orqali bilim olish jarayoni. Bu usul an’anaviy darslardan farqli ravishda ikki tomonlama aloqani ta’minlaydi.

Slayd-shoular – Slayd-shou - bu ma'lumotlarni ketma-ket slaydlar orqali tushuntirish usuli: Matnli ma'lumotlar, Tasvirlar va diagrammalar, Statistik ma'lumotlar, qisqa videolar yoki animatsiyalar usuli mavjud.

Animatsion darslar – bu harakatlanuvchi grafikalar, 2D/3D modellar va interaktiv elementlar yordamida bilim berish metodidir.

Zamonaviy dars –bu an’anaviy usullardan farqli ravishda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar va raqamli vositalardan foydalanib o‘tkaziladigan samarali darsdir. U talabalarning faolligini, kreativ fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o‘qitishning nostandart yo‘llari va usullari majmuasi. Bu ta’limning noan’anaviy shakllaridan foydalanishdir.

Muhandislik grafikasi fanlarida “ta’lim metodlarini samarali tanlash”ning quyidagi 7 qadam algoritmi orqali ishlash dars samaradorligini oshiradi:

1. Grafikaviy chizmalar mustaqil ravishdami yoki pedagog rahbarligi ostida o‘zlashtirilishini aniqlash. Agar talaba ortiqcha vaqt va urinishlarsiz materialni yetarlicha mustaqil va chuqur o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lsa, pedagogning yordami ortiqcha bo‘ladi.

2. Dars jarayonida reproduktiv va produktiv metodlar muvofiqligini belgilash. Dars imkoniyatidan kelib chiqib produktiv metodlarga e’tibor qaratiladi.

3. Qisman izlanishli (interfaol) va kreativ yondasish qobiliyatini shakllantiruvchi grafik topshiriqlarni belgilash.

4. Amaliy mashg‘ulot jarayonlarida og‘zaki, ko‘rgazmali, binar va vizual amaliy metodlar va vositalari orqali olib boriladi.

5. Rejalashtirilgan ta’lim jarayonini mustahkamlash uchun qo‘llanilgan raqamli talim jarayonlaridan foydalaniladi.

6. grafik topshiriqlarda qo‘llaniladigan o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari, orqali “nuqtalari”ni belgilash.

7. Talabalar amaliy va mustaqil ta’lim faoliyatini rag‘batlantirish metodlarini kiritish zaruratini hal etish.



2-rasm: 2D boltli brikma tasviri

Mahkamlash detallaridan ajratuvchi birikmalar mavzusi mashinasozlik chizmachiligida talabani dastlabki yig‘ish chizmalarini tuzishga o‘rgatuvchi material hisoblanadi. Mashina mexanizmlari, turli moslamalarni tarkibida uchraydigan har xil birikmalarni sozlash, ta’mirlash, yangisiga almashtirishga to‘g‘ri keladi. Boltli birikmada biriktiriluchi (ikki va undan ortiq) detallar bolt, gayka va shaybalar yordamida o‘zaro biriktiriladi. Quyida boltli birikmaning yaqqol tasviri va ortogonal proyeksiyasi ko‘rsatilgan. Boltli birikmalar o‘zining mustahkamligi bilan ajralib turadi. Boltli brikmalar quyidagi o‘zining maxsus o‘lchamlari orqali formulalari asosida chiqarilib shu o‘lchamlar asosida bajariladi. Quyida boltli brikmaning 2D chizmasi berilgan.(2 -rasmga qarang)

2D chizma asosida boltli brikmani chizishda talabalarga brikma qismlari ular o‘zaro qanday birikishi, nimalarda ishlatiladi bular barchasi vizual dars jarayonida ko‘rsatib ma’lumot beriladi. Solid works dasturida tayyorlangan animatsiyali tarzida chizish bosqichlari va chizilish algoritmi keltirilgan zamonaviy video darslar orqali yondashish dars imkoniytlatini oshiradi. Boltli brikmalarning biriktirish usullarini ketma-ketlik vizual effect orqali talabalarga tushuncha hosil qilish orqali fazoviy tasavvurlarini shakllantirish.(3-rasmga qarang)



3-rasm Solid Works dasturida Boltli brikmaning 3D vizual chizmasi

Boltli brikmalar ikkita biriktiriladigan detallar uchun ularni mustahkamlashda qo‘llaniladi va ular quydagi chizmada biriktirilgan tasviri ko’rsatib tushuncha hosil qilinadi.(4-rasmga qarang)



4-rasm: Solid Works dasturida Boltli brikma briktirilgan tasviri

Xulosa

Chizmalarni qo‘lda chizish insonning vizual fikrlashda moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Ching ta’kidlaganidek, “Vizual muhit haqida yuqori va tanqidiy ongni rivojlantirishda, chizish ham tushunishni rivojlantiradi va vizual xotirani yaxshilaydi.[5] Muayyan darajada aniqlik va yo‘nalish nuqtasida talabalar uch o‘lchovli model va bir qator ikki o'lchovli chizmalar yaratish uchun birinchi navbatda kompyuterda chizishadi.. Kompyuter va qo‘lda chizish qobiliyatiga ega bo‘lgan muhandislar ko‘pincha samaraliroq bilimlarni egallash uchun ular dual ta’limdan foydalanadilar, bu esa o‘z navbatida yaxshi natijalar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Omonov H.T., Xo‘jayev N.X. va boshq. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. Toshkent. “Iqtisod-Moliya” -2009-y. 240-b

2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsiya texnologiyalari yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – T.: TDPU, 2004. 220-b

3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi: Nasaf, 2000. 180-b

4. Og‘ayev S. Yangi pedagogik texnologiya-hayotiy ehtiyoj. «Xalq ta’limi» jurnali, 2001, №3, 69-71-b.

5. Ching, Frensis D.K. (2018). Dizayn chizish . (3 - nashr). Xoboken, NJ: Wiley. B-22

6. Xusnidinova.N.A Scientific and Theoretical Basis of Teaching Practical Courses of Engineering and Computer Graphics // Nexus : Journal of Innovative Studies of Engineering Science (JISES) – 2023.- 313-317-b http://innosci.org/

7. Xusnidinova.N.A. “SolidWorks dasturi va uning ish stoli interfeyslari bilan tanishish” // “Yangi O‘zbekistonda tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi Volume 2, Issue 5, May 2024. 32-44-b.

8. Xusnidinova.N.A “Solidworks dasturi va uning imkoniyatlaridan chizma geometriya darslarida foydalanishning afzalliklari” // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy metodik jurnal 2023-yil 7-son 314-319-b

BO'LAJAK PEDAGOGIK KADRLARNING KASBIY PEDAGOGIK TAYYORGARLIGI MUAMMOSI VA UNING ILMIY-PEDAGOGIK TAHLILI

O'rishov Sh.M.
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Pedagogika va psihologiya" kafedrasi dotsenti Pedagogika fanlari nomzodi

Tayanch so'zlar: innovatsiya, texnologiya, interaktiv metodlar, o'qitish metodlari, evristik ta'lim, integratsiyalangan ta'lim, interfaol ta'lim, informal ta'lim.
Ключевые слова: инновации, технологии, интерактивные методы, методы обучения, эвристическое образование, интегрированное образование, интерактивное образование, неформальное образование.
Key words: innovation, technology, interactive methods, teaching methods, heuristic education, integrated education, interactive education, informal education.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada bo'lajak pedagogik kadrlar xususan pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy pedagogik tayyorgarligi muammosi va uning ilmiy-pedagogik tahlili borasida so'z borgan. Shuningdek, bo'lajak pedagogik kadrlarning kasbiy pedagogik tayyorgarligi muammosi va uning ilmiy-pedagogik tahlili xususida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматривается проблема профессиональной педагогической подготовки будущих педагогических кадров, особенно студентов педагогического образования, и ее научно-педагогический анализ. Также представлены сведения о проблеме профессиональной педагогической подготовки будущих педагогических кадров и ее научно-педагогическом анализе.
SUMMARY:
This article deals with the problem of professional pedagogical training of future pedagogical personnel, especially students of pedagogical education, and its scientific-pedagogical analysis. Also, information on the problem of professional pedagogical training of future pedagogical personnel and its scientific-pedagogical analysis is presented.

Kirish. Hozir O'zbekistonda ta'limga katta e'tibor berilmoqda, ta'lim sifatiga va bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligiga yangi talablar qo'yilmoqda. Bugungi oliy ta'lim tizimi kasbiy faoliyatini takomillashtirishga qodir shaxsning kasbiy, ijodiy faolligini shakllantirishga qaratilgan. Mazkur jadal rivojranayotgan davrda

bo'lajak o'qituvchilarga qo'yilayotgan talablarni aniqlash fan, texnika, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va madaniyatning zamonaviy yutuqlari asosida talabalar o'qitishni tashkil qilish va uning uslublarini muntazam takomillashtirish imkoniyatini beradi. Bu esa o'z navbatida mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishi, jamiyatning o'sishiga ta'sir etmay qolmaydi. Kadrlar tayyorlashning boshqa yo'nalishlarida bo'lgani kabi, oliy pedagogik ta'lim mazmunida ham bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ularning kasbiy faoliyati sohasini kengaytirish va sifat jihatidan o'zgartirish bilan bog'liq tub islohotlar amalga oshirilmoqda. O'qituvchining an'anaviy funksiyalari bilan bir qatorda (o'qitish, ta'lim, rivojlanishga yordam berish, baholash, ota-onalar bilan ishlash va boshqalar) ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida o'z kasbiy faoliyatini avvaldan loyihalash kabi kasbiy funksiyalar dolzarblashib bormoqda. Chunki rivojlanayotgan jamiyatimizga o'z tanlovlarining oqibatlarini avvaldan bashorat qilib, mustaqil ravishda qarorlar qabul qila oladigan, zamonaviy bilimli, yuksak ma'naviyatli va ishbilarmon kadrlar kerak. Bu borada mamlakatimizda ham qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2020 yil 19 mayda qabul qilingan O'zbekiston respublikasining "Ta'lim to'risida"gi qonuni, 2017 yil 20 apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2909-sonli qarori, 2018 yil 5 sentyabrdagi PQ-3931-son qarori, 2019 yil 19 fevraldagi 146-son qarori, Bundan tashqari 2014 yil 28 avgustda qabul qilingan "Ijtimoiy sherikchilik to'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni kabilarni keltirish mumkin. Mazkur islohotlar ta'limini amaliy hamda kompetentli yondashuv asosida tashkil etish va kompetentlikdan bo'lajak kadrlarni tayyorgarlik sifatini baholash vositasi sifatida foydalanish borasida yangi izlanishlarni amalga oshirishga imkon beradi. Bu esa o'z navbatida individual bilim, tipik ko'nikmalar emas, balki murakkab pedagogik muammolarni hal qilishga qodir o'qituvchining kasbiy jihatdan muhim kompetensiyalarni rivojlantirish yo'llarini aniqlash bilan bog'liq butun bir muammolar tizimi yo'nalishini tadqiq etish extiyojini yuzaga keltirdi.

Materiallar va usullar. Shunday ekan, zamonaviy o'qituvchi kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun yetarlicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, onglilik va loyihalash (mavjud vaziyatlarni tahlil qilish, ustuvor muammolarni hal qilish usullarini shakllantirish, o'z faoliyatining istiqbolli yo'nalishlarini ko'rish va h.k.) asosida tashkil etishi bilan bir qatorda mazkur jarayonda u bilan birga xarakat qilishi mumkin bo'lgan, yakdil hamkorlarni topishi va ular bilan tandemda samarali xarakat qilishga muvofiq bo'lishi lozim.

Hozirgi kunda barcha ta'lim muassasalari o'zlarining bitiruvchilarini

tayyorlash jarayonida ularga kelajakda ish beruvchi tashkilotlar bilan birga hamkorlikda ishlashlari lozimligi xech kimga yangilik emas. Ammo mavjud xamkorlik zamon talablariga to'liq javob beradigan darajada yetarlicha amalga oshirilmayotganligi sababli xamkorlikning zamonaviy innovatsion usullarini joriy etish muammosi hamon aktualligicha qolmoqda va mazkur yo'nalishda ish olib borish maqsadga muvofiqdir. Pedagogik ta'lim yo'nalishining o'ziga hosligi sabab mazkur yshnalish talabalarini kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash sifati ko'plab omillarga bog'liq. Masalan: o'quv dasturining sifati; o'quv jarayoniga jalb qilingan pedagogik universitetlarning ilmiy va pedagogik salohiyati; talabalar tayyorgarligi (shu jumladan abiturientlar tayyorgarligi); o'quv jarayonini vositalari sifati (moddiy-texnik, eksperimental baza; o'quv-uslubiy ta'minot; foydalaniladigan auditoriyalar; taqdim etilayotgan bilimlar va boshqalar); ta'lim texnologiyalari sifati va boshqalar. Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilarining kasbiy pedagogik tayyorgarligini innovatsion hamkorlik asosida rivojlantirish talabalarning kasbiy pedagogik tayyorgarligini maqsadli shakllantirish uchun potensial imkoniyatini yaratishga qaratilgan o'quv materiallarini tayyorlashni va talabalarning o'quv jarayonining barcha tarkibiy qismlarini maksimal darajada faol o'zlashtirishiga, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga ta'sir etuvchi tashkiliy shakl, metod va usullarni tayyorlashda foydalanishni talab qiladi. O'quv materiallari tarkibini tizimli ravishda tayyorlash quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi: tizimli tahlil qilish, modellashtirish, sintez qilish, o'quv materiallarining o'zgarmas va o'zgaruvchan tarkibiy qismlarini ajratish va ilmiy bashorat qilish. Talabalarning kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash masalalariga bir qancha psixologik-pedagogik tadqiqotlar bag'ishlangan bo'lsada, tadqiqotchilarning katta qiziqishi va olingan natijalarning ahamiyatiga qaramasdan, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligini shakllantirish muammosi hali to'liq hal etilgan deb bo'lmaydi. Buning asosiy sabablari quyidagilardir:

- bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining faoliyati mazmuni, mohiyati va rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiradigan kasbiy pedagogik tayyorgarligini shakllantirish jarayonining nazariy va pedagogik asoslarini yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;
- bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga amaliy tayyorgarligini shakllantirish o'rniga, ularning tayyorgarlik xaqidagi nazariy tushunchaga ega ekanligi bilan qanoatlanuvchi ananaviy yondoshuvlarning keng tarqalganligi va qo'llanilishi;

- bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga amaliy tayyorgarlash jarayonni ilmiy-amaliy tashkil etishda tizimli ta'sir etish o'rniga, alohida bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lmagan tasodifiy tarkibiy qismlardan tashkil topgan yondashuvdan foydalanilayotganligi;
- ta'lim sohasidagi sifatni baholashning zamonaviy talablariga javob beradigan, bo'lajak texnologik ta'lim o'quvchilarining kasbiy pedagogik tayyorgarligini shakllantirish natijalarini aniqlash va baholash texnologiyasini ishlab chiqish darajalarining nomutanosibligi.

Adabiyotlar tahlili. Ko'rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan sabablar bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligi borasida tadqiqotlarni sifat va miqdor jihatdan ko'proq o'tkazilishi lozimligini ko'rsatadi. Buning uchun eng avvalo tadqiqot ob'ekti bo'lgan - kasbiy pedagogik tayyorgarlik tushunchasini taxlil etaylik. Kasbiy tayyorgarlik deganda kishi psixik (ruhiy) xolati va jismoniy sog'lomligining tegishli darajasi bajariladigan ish-faoliyat talablariga mos kelishi tushuniladi. Taniqli psixolog-olim K.K.Platonov ta'kidlaganidek, mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi - shaxsning sub'ektiv holati bo'lib, u o'zini tegishli kasbiy faoliyatni bajarishga qobiliyatli va tayyor deb hisoblashini bildiradi [1, b. 23]. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatning sifati va samaradorligi ko'pgina omillarga bog'liq bo'lib, ulardan biri o'qituvchining kasbiy pedagogik tayyorgarligi hisoblanadi. U har qanday faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun asosiy, majburiy shart va sharoit hisoblanadi. Tayyorlik deganda shaxs rivojlanishining ma'lum bir darajasi, vaqtinchalik vaziyat, munosabat, faoliyatni tartibga solish mexanizmi, maxsus uzoq muddatli yoki qisqa muddatli ruhiy holat va muayyan harakatlarga yo'naltirilgan shaxs kuchlarining jamlanishi tushuniladi. Tayyorlikni qiymat yo'nalishlari darajasida talqin qilish mumkin, bu sifat va holat, va dinamik jarayon [2, b. 54].

Kasbiy tayyorgarlik - bu ta'lim oluvchilarni ma'lum bir ish, ishlar guruhini bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'zlishtirishni jadallashtirish maqsadidagi kasbiy ta'lim tizimi. Kasbiy tayyorgarlik talabalarning ta'lim darajasini oshirish bilan amalga oshmaydi. Davlat zarur hollarda asosiy umumiy ta'limga ega bo'lmagan shaxslarga kasbiy tayyorgarlikni qo'lga kiritish imkoniyatini yaratadi. Kasbiy tayyorgarlikni boshlang'ich kasb-hunar ta'limi muassasalarida va boshqa ta'lim muassasalarida olinishi mumkin [3, b. 23]. Bunday faoliyatga kasbiy yo'naltirilgan bilim, ko'nikma, qobiliyat shuningdek kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishni ta'minlovchi tashkiliy va pedagogik tadbirlar tizimi kiradi. Bu pedagogik institutlar, universitetlar va qayta tayyorlash fakultetlarida o'qitish doirasida amalga oshiriladi. Mazkur jaoayonlarning

muhim tarkibiy qismi - pedagogik amaliyot hisoblanadi. Bundan tashqari umumiy hulosa sifatida, kasbiy tayyorgarlik - ma'lum bir faoliyat sohasida ishlashga imkon berish maqsadida, talabalar tomonidan muayyan ish yoki ishlar guruhini bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashni jadallashtirishga qaratilgan o'zlashtirish jarayon ekanligini ta'kidlashadi va malaka talablariga qarab mutaxasisdan tegishli kasbiy ta'limini talab qiladigan kasbiy tayyorgarlikning uchta asosiy bosqichini keltirishadi: oliy, o'rta-maxsus, boshlang'ich kasb-hunar (past malakali ishchilarni kurslarda tayyorlash, ishlab chiqarishda individual-jamoaviy mashg'ulotlar o'tkazish va boshqalar). Demak tayyorgarlik, malakaning oshishi amaliy mehnat faoliyati jarayonida qo'yilgan masalalarni mustaqil ravishda yechim topish va hal etish, ongli ravishda ta'lim olish - izlanish yo'li bilan takomillashtiriladi. Hulosa o'rnida aytish mumkinki, kasbiy tayyorgarlik - talabalar tomonidan muayyan vazifalarni, bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallashni jadallashtirishga qaratilgan faoliyatdir. Tayyorgarlik kabi munosabat tashqi va ichki sharoitlar, ongli ravishda yoki ongsiz ravishda axborotni idrok etish natijasida shakllanadi.

Tadqiqot natijasi va uning muhokamasi. Tayyorgarlik, tashqi - kasbiy faoliyat jarayoniga nisbatan ma'lum bir xulq-atvor uchun ichki munosabat bilan belgilanadi, shuning uchun ruhiy holatning ajralib turadigan tarkibiy qismlari mavjud, masalan:



Kasbiy faoliyatga psixologik tayyorlik holatining dinamik tuzilishi quyidagi o'zaro bog'liq elementlardan tashkil topgan:

- yechimi maqsadga erishishga olib keladigan vazifalarni anglash;
- rejalashtirilgan harakatlar amalga oshiriladigan real sharoitlarni baholash, o'tmishdagi (avvalgi faoliyatidagi yoki tarixda bo'lib o'tgan) ma'nosi jihatdan o'xshash vazifalarni yechish bilan bog'liq tajribalarni taxl etish va aktuallashtirish;

- mavjud tajriba va yuzaga keladigan ish sharoitlarini to'g'ri baholash asosida muammolarni hal qilishning maqbul usullarini aniqlash;
- maqsadga erishishda o'z intellektual va emotsional-motivatsion resurslarini safarbar qilish, o'z-o'ziga singdirish. [4, b. 78]

O'qituvchining pedagogik faoliyatga psixologik va amaliy tayyorgarligi tizimi ikki bosqichli ierarxik tizimga ajralib turadi.

1. Uzoq muddatli tayyorgarlik - bu har xil vaziyatlarda faoliyatni muvaffaqiyatli baj arishga imkon beradigan shaxsiy fazilatlarning barqaror rivojlangan tizimi. Bunday tayyorlik doimiy ravishda kasbiy faoliyatda asosiy rol o'ynaydi. Uzoq muddatli tayyorlanish tarkibi quyidagilardan iborat: kasbiy faoliyatga ijobiy munosabat; kasbning talablariga mos keladigan xarakter, qobiliyat, motivatsion xususiyatlar; kasbga oid bilimlar, ko'nikmalar va boshqalar.

2. Situatsion tayyorlik - pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyati sifatida namoyon bo'ladi, bu o'z o'zidan emas, balki tashqi o'zaro ta'sirning tuzilishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan holda shaxsning individual faol samarali natijaga yo'naltirilgan holati orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib, kasbiy pedagogik tayyorgarlik - bu o'qituvchini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida shaxsiy yondashuv asosida amalga oshiriladigan, aniq va tezkor qaror qabul qilishi, o'z ishiga yuqori qiziqish ko'rsatishi, talabalari bilan samarali aloqani o'rnatish va olib borish, pedagogik o'zaro ta'sirning samarali usullariga ega bo'lish qobiliyatini belgilovchi murakkab hodisadir. "Kasbga tayyorlik" va "yaroqlilik" tushunchalarini belgilashda quyidagilarga e'tibor qaratish kerak: "tayyorlik" tushunchasi "pedagogik muvofiqlik" tushunchasidan ko'ra kengroq va murakkabroq [5, b. 98].

Metodologiya. Kasbiy faoliyat, faqatgina inson o'zining individual xususiyatlariga ko'ra kasbning talablariga javob bergan holdagina muvaffaqiyatli bajarilishi mumkin. Bu "kasbiy muvofiqlik" tushunchasining mazmuni hisoblanadi.

Kasbiy tayyorgarlikning xarakteristikasi pedagogik jarayonning yakuniy maqsadini aks ettiradigan hujjat, barcha uchun standart bo'lgan - professiogrammada aks etadi. Mutaxassisning sifat tavsifiy modeli sifatida professiogramma bir necha bo'limlarni o'z ichiga oladi: shaxsiy va kasbiy-pedagogik fazilatlar; psixologik va pedagogik tayyorgarlikka qo'yiladigan asosiy talablar; mutaxassislik bo'yicha uslubiy tayyorgarlik mazmuni; maxsus tayyorgarliklar ko'lami va mazmuni kabilar shular jumlasidandir. Kasbiy kompetentlik, o'qituvchining yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarligining ifodasi bo'lib, professiogramma va standart yordamida muntazam ravishda

tartibga solinadi. Oxir-oqibat, kasbiy tayyorlik uning yuqori darajadagi modeli sifatida professiogramma bilan mos keladi (D.A.Nazakaz). Buning sababi, professional kompetentlik va tayyorlik shaxsiyatning bir xil holatidir, yagona farq shundaki, professional kompetentlik kasbiy talablarga mos keladigan psixofiziologik fazilatlar va predmet shartlari bilan tavsiflanadi va kasbiy tayyorgarlikda uni motivatsion xamda mohiyatan muhim tarkibiy qism deb atashadi. M.I.Dyachenko, A.M.Stolyarenkolar[6, b. 56] mutaxassisning kasbiy tayyorgarligida bir-biri bilan o'zaro bog'liq quyidagi ikki jihatni ko'rsatish maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar:

1. Dastlabki tayyorlik - bu kadrning shu ishni bajarishga imkoniyati (qobiliyati) mavjudligi. U kishida barqaror psixologik tuzilmalarni - kasbiy faoliyatiga doir bilim, ko'nikma, malakalar, kasb uchun muhim shaxsiy sifatlar mavjudligini o'z ichiga oladi.

2. Bevosita tayyorlik - bu ma'lum shart-sharoitlarda mutaxassisning psixologiyasi kasbiy vazifalarni bajarishga tayyorligini anglatadi. Kasbiy tayyorgarlikning bu jihati bo'lajak o'qituvchining psixologik xolati vaziyatga qarab o'zgaruvchanligi, harakatchanligi, dinamikligi bilan; mutaxassisning psixik holati va jismoniy sog'lomligi bilan, jamoadagi ma'naviy-ruhiy vaziyat bilan xarakterlanadi. Ma'lumki, o'qituvchi shaxsining kasbiy tayyorgarligi uning chuqur bilimga, pedagogik mahoratga ega bo'lishini, shuningdek o'zini, o'z kayfiyatini boshqara olishini, o'zining psixologik, madaniy va jismoniy imkoniyatlarini ta'lim-tarbiya ishiga safarbar eta olishini nazarda tutadi.

Kasbiy tayyorgarlikning asosiy va murakkab jixati pedagogning psixologik, kasbiy-psixologik tayyorligi hisoblanadi va u kasbiy vazifalarni bajarishga mutaxassis ruhiy kuchlari -psixologiyasining tayyorlanganlik darajasi bilan bog'liq. G.I.Xozyainov [7, b. 123] o'z ishlarida pedagogik faoliyatga tayyorlikning asosiy tarkibiy qismlari (nazariy va uslubiy bilimlar, kasbiy-amaliy ko'nikmalar, shaxsning faoliyati)ni faollashtirishda motivlarning yetakchi rolini asoslab, pedagogik faoliyat turiga ijobiy munosabatni asosiy tarkibiy qism sifatida ko'rsatadi.

Shu kungacha pedagog olimlar tomonidan pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorgarlik ko'rsatkichlari tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Ba'zida "kasbiy tayyorgarlik" tushunchasi "kasbiy kompetentlik" tushunchasi bilan belgilanadi, bu umumiy ma'noda kasbga tayyorlikni shakllantirish, mehnat vazifalarini bajarishga barqaror yo'naltirishdir. Kasbiy kompetentlik - bu nafaqat natija, balki kasb-hunar va pedagogik ta'lim mazmunini muayyan



tizimlashtirish orqali amalga oshiriladigan va to'rt tarkibiy qismga ega bo'lgan kasbiy tayyorgarlikning maqsadidir [8, b. 52].

- Kasbiy va pedagogik bilimlar, ustalik bilan ketma-ket to'rt bosqichda amalga oshiriladi: kasbiy ahamiyatli bilimlarni idrok etish, anglash, yodlab olish va shunga mos ravishda ularni tanish va yangi pedagogik vaziyatda qo'llash;
- Kasbiy va pedagogik faoliyatni amalga oshirish tajribasi, quyidagilarda namoyon bo'ladi: empirik amaliyot jarayonida amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish, odatdagi vaziyatlarda namunaviy faoliyat, notanish vaziyatlarda kasbiy faoliyat uslublarini takomillashtirish;
- Ijodiy pedagogik faoliyat tajribasi, bu jarayonga erishishda ushbu bosqichlardan o'tiladi: pedagogik muammoni anglash va shakllantirish, qisman izlanuvchan va tadqiqot faoliyati;
- Pedagogik faoliyat jarayonida qadriyatli-emotsional yo'naltirilganlik tajribasi, uch bosqichni o'z ichiga oladi: o'qituvchining xulq-atvorining ichki motivatsiyasini shakllantirish, ushbu modelga asoslangan kasbiy va pedagogik xatti-harakatlar, pedagogik faoliyatning ijodiy yo'nalishi.

Shunday qilib, o'qituvchining yaxlit pedagogik jarayonni amalga oshirishga tayyorligi mezonlarining umumiyligi quyidagi sxema bilan ifodalanishi mumkin: Kompetentlikka insonning mehnat faoliyati davomida qilgan harakatlarining miqdoriga qarab emas, balki faoliyatning natijasiga qarab baho berish to'g'ri bo'ladi. Xuddi shuningdek, savodxonlik darajasiga qarab ham kompetentlikni belgilab bo'lmaydi.

M.P.Choshanov fikricha, kompetentlik - kasbiy tayyorgarlikning umuman yangi sifati bo'lib, uning o'ziga xos tomonlariga quyidagilar kiradi:

- kompetentli odamning bilimlari amaliy tezkor va harakatchan, ular bu bilimlarni doimo yangilab turadilar;

- kompetentlik mazmunli (bilimlar) va jarayonlarga doir (ko'nikmalar) komponentlariga ega. Muammoning mazmunini tushunishning o'zi yetarli emas, uni amaliy jihatdan maqbul usullar bilan yecha bilish kerak, ya'ni metodlarning moslashuvchanligi kompetentlikning zaruriy tavsifi hisoblanadi;

- kompetentlik maqbul yechimlarni tanlay bilish, qarorni asoslab bera olish, noto'g'ri yo'llarni chiqarib tashlash, ya'ni tanqidiy fikrlay olishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik tor ma'noda malaka talablari doirasida bevosita xizmat vazifalarini bajarish uchun ahamiyatga ega bo'lgan shaxs sifatlari yig'indisining xarakteristikasi sifatida tushuniladi. Shu nuqtai-nazardan kasbiy kompetentlik shaxs kasbiy sifatlarining negizi hisoblanadigan hamda mehnat va texnologik jarayonlarni tahlil qilish, texnik hujjatlarni va topshiriqlarni tahlil qilish, mehnat jarayonini bexato amalga oshirish, texnologik talablarga rioya qilish, qo'shimcha malakalarni egallash, madaniyat va jarayonlarni tashkil etishning yuqori darajaliligi, texnologik jarayonda vujudga keladigan nosozliklarni bartaraf etish kabi faoliyatning elementlari orqali taqdim etilgan kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishni taqozo etadi.

V.P.Kozbireva [9, b. 37] o'zining tadqiqotlarida mutaxassislar faoliyatining turli darajalaridagi elementlarni tahlil qilish asosida faoliyat turlari va faoliyat turlari tarkibini, shuningdek faoliyatning aniq funksional birliklarini belgilaydigan kasbiy - pedagogik faoliyatning tarkibi hamda mazmunini taklif qildi.

V.D.Simonenko va M.V.Retivbixlar [10, b. 56] ham mazkur fikrga qo'shilgan holda quyidagicha ta'kidlashadi "Kasbiy tayyorlik - bu faol va maqsadli faoliyat bo'lib, bu jarayonda mavjud va yangi olingan ma'lumotlarni qayta ishlash, tashqi tasodifiy, ikkilamchi elementlarni asosiy, ichki qismdan ajratish, o'rganilayotgan vaziyatlarning mohiyatini aks ettirish, ular orasidagi mantiqiy aloqalarni o'rnatish amalga oshiriladi.

Talaba bajarishga tayyor bo'lishi lozim bo'lgan kasbiy vazifalar ro'yxati bitiruvchining malaka talablari (standartda)da aks ettirilgan va to'liq ochib berilgan. U mutaxassisning ishlab chiqarish sohasidagi o'rnini, o'z mehnat vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan shaxsiy va professional fazilatlari, dunyoqarashi, bilim va malakalariga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Yaqqol namoyon bo'luvchi ichki kasbiy differensiatsiyali sharoitida turli mutaxassislik o'qituvchilari faoliyati barcha pedagogik jarayondagi umumiy tashkiliy va aniq pedagogik vazifalarni hal etishga qaratilgan, bu esa zamonaviy o'qituvchini ajratib turadi."

Shu kabi sohaga oid fikrlarni hamda texnologik ta'lim o'qituvchisiga qo'yilayotgan zamonaviy ijtimoiy-texnik talablar hamda mehyoriy xujjatlarni o'rganish natijasida aniqlanishicha, texnologik ta'limi o'qituvchisi quyidagi

kasbiy-pedagogik faoliyat turlarini amalga oshirish uchun tayyor bo'lishi kerak: texnologiya hamda kasbiy ta'lim-tarbiya, ishlab chiqarish faoliyati, o'quv-uslubiy ishlar, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, ilmiy-tadqiqot, madaniy -ma'rifiy faoliyat turlari va boshqalar. Iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning rivojlanishi mutaxassislaridan yangi kasbiy va shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Ularning orasidan tizimli fikrlashni, ekologik, huquqiy, axborot, kommunikativ madaniyatni, ishbilarmonlik madaniyatini, o'zligini anglash shkningdek, metodik qobiliyatini, o'z faoliyatini ongli tahlil etish qobiliyatini, noaniqlik sharoitida mustaqil pedagogik ta'lim o'qituvchisi umumta'lim va maxsus o'quv fanlari bo'yicha nazariy hamda amaliy o'quv mashg'ulotlarini tashkil etadi va olib boradi. U ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etadi (zamonaviy mutaxassis shaxsini kasbiy jihatdan muhim va ahamiyatli fazilatlarini tarbiyalaydi va rivojlantiradi) va olib boradi, yoshlarni kasbga yo'naltiradi, kasbiy ta'lim bo'yicha tajriba va tadqiqot ishlarini tashkillashtiradi hamda faol ishtirok etadi. Ta'lim muassasalarida tashkiliy - uslubiy ishlarni amalga oshiradi, pedagogik loyihalarni (ta'lim mazmuni, mustaqil ta'lim uslublari va innovatsion faoliyatni) yaratadi.

O'quv-uslubiy hujjatlar (asosiy ta'lim xujjatlari bo'lgan - o'quv rejalari, fan dasturlari, o'quv qo'llanmalari, metodik tavsiyalar)ni ishlab chiqadi, ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasini jihozlash va rivojlantirishda faol ishtirok etadi, shu bilan birga u kasbiy ta'lim muassasalari va tashkilotlarida tashkiliy va boshqaruv ishlarida faol ishtirok etadi.

Texnologik ta'lim o'qituvchisi bir vaqtning o'zida ikkita turli (heterogen): "odam-odam", "odam-texnika" tizimda ishlaydigan murakkab kamsonli kasblar guruhiga mansub va u ko'plab mutaxassisliklarga ega bo'lgan malakali kadrdir. Tahlil etilgan ishlar va tadqiqotchilar fikrlaridan ko'rinib turibdiki zamonaviy bitiruvchilarini tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar kelajakdagi kasbiy faoliyati doirasidagi vazifalari bilan belgilanadi. Ushbu talablarga javob berish uchun o'qishni tugatgandan so'ng bitiruvchilar bir qator kasbiy, ijtimoiy va madaniy ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Buning uchun bakalavrlar uchun shunday kasbiy tayyorgarlikni ta'minlash kerak-ki, u nafaqat fan sohalarini to'liq rivojlantirish uchun zamin yaratsin, balki hozirgi bosqichda oliy ta'lim tizimini qayta tashkil etish vazifalariga to'liq mos kelishi va jamiyatning barqaror rivojlanishi sharoitida bitiruvchining tegishli kompetentlik darajasini ta'minlashi lozim.

Demak, bakalavrlarning kasbiy tayyorgarligi doirasida bilimlarni bosqichma-bosqich yangilash, uning nazariy va eksperimental usullarini doimiy ravishda takomillashtirish tendensiyasini ham hisobga olish kerak. Oliy o'quv yurtining

malakali bitiruvchisi ushbu o'zgarishlarni ko'rishi va kuzatib borishi va kasbiy faoliyatni doimiy ravishda yangilanib turadigan materiallar asosidagi professional yondashuv doirasida qurishi kerak. Bu esa yuqori darajadagi kasbiy ijodkorlik va kasbiy muammolarni hal qilish qobiliyatini talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Щуркова Н.Е. Практикум по педагогической технологии. -М.: Педагогическое общество России, 2018. —250 с.

2. Хозяинов Г.И.Мастерство педагога в процессе образования и обучения [Электронный ресурс] : монография / Г.И. Хозяинов .— М. : Физическая культура, 2016 .— 224 с. — Библиогр.: с. 201-203. - ISBN 5-9746-0020-7 .— ISBN 978-5-9746-0020-7 .— Режим доступа: https://rucont.ru/efd/286718

3. Бим-Бад Б.М. Педагогический энциклопедический словарь. — М., 2022. 223 б.

4. Дружинин В."Психология" Учебник для гуманитарных вузов. 2-е изд. - СПб.: Питер, 2021. - 656 с.

5. Шаврина О. Ю. Педагогика учителя. Уфа Стерлитамак, 2020

6. Козырева, Виктория Павловна. Формирование коммуникативной активности у детей с множественными нарушениями в процессе коррекционной работы : диссертация ... кандидата педагогических наук : 13.00.03 / Козырева Виктория Павловна; [Место защиты: Моск. гос. гуманитар. ун-т им. М.А. Шолохова].- Москва, 2021.- 183 с.: ил. РГБ ОД, 61 11-13/918

7. Симоненко В.Д. ва Ретивых М.В. Общая и профессиональная педагогика: Учебное пособие для студентов, обучающихся по специальности «Профессиональное обучение» Под ред. В.Д. Симоненко, М.В. Ретивых. - Изд-во Брянского государственного университета, 2023

8. Х.А. Умаров, З.А. Умарова / "Использование электроннообразовательных ресурсов в целях создания образовательной экосистемы". Перспективные информационные технологии / Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018) 2018

9. Umarova F.A., Umarova Z.A., Umarov X.A. "Scientific and practical bases of creation and use of electronic educational resources in educational process." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol.7 №. 12,2019. ISSN 2056-5852

10. Abdurakhimovich, Umarov Khusan. "Incessancy Of Education And Activities In The Development Of Professional Education." The American Journal of Social Science and Education Innovations 2.07 (2020): 256-263.

11. Khusan Abdurakhimovich Umarov. (2020). Formation of students' professional readiness on the basis of innovative ways of cooperation in the conditions of uzbekistan (by the example of future teachers). Journal of Central Asian Social Studies, 1(01), 15-25. https://doi .org/10.37547/j cass/volume01issue01 -a2

OTM MA'NAVIY - MA'RIFIY ISHLAR TIZIMINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI, VARIATIVLASH TEXNOLOGIYASI VA SHARTLARI

Pulatov Dj.A.
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)

Tayanch so'zlar: oliy ta'lim tizimi, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, monitoring, tarbiya jarayoni, globallashuv jarayoni, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, mafkuraviy immuniteti.
Ключевые слова: система высшего образования, духовно-рросветительская работа, мониторинг, образовательный процесс, рроцесс глобализации, доброта, ответственность, толерантность, рравовая культура, идеологический иммунитет
Key words: higher education system, spiritual and educational work, monitoring, educational process, globalization process, kindness, responsibility, tolerance, legal culture, ideological immunity.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada OTM ma'naviy - ma'rifiy ishlar tizimini rivojlantirish strategiyasi, variativlash texnologiyasi va shartlari ilmiy –nazariy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek maqolada Oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, ta'lim-tarbiyani tashkil etuvshi muassasalarda baholash va istiqbolini to'g'ri tashkil etilishi natijasida erishiladigan samaradorlik tadqiqjtchining amaliy faoliyat natijalari asosida yoritib berilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье рассматриваутся стратегия, вариативная технология и условия развития системы духовно-рросветительской работы в высших учебных заведениях с научно-теоретической точки зрения. Также в статье освещается эффективность, достигаемая в результате рравильной организации духовно-рросветительской и восритательной работы в системе высшего образования, оценка и рерсрективы деятельности образовательных учреждений, основанные на результатах ррактической деятельности исследователя.
SUMMARY:
The article examines the strategy, variable technology and conditions for the development of the system of spiritual and educational work in higher educational institutions from a scientific and theoretical point of view. The article also highlights the effectiveness achieved as a result of the correct organization of spiritual, educational and upbringing work in the system of higher education, the assessment and prospects of the activities of educational institutions, based on the results of the practical activities of the researcher.

Xalqaro miqyosda yoshlar ma’naviy dunyosini boyitish, ta’limiy-tarbiyaviy faoliyat sifat va samaradorligini takomillashtirish strategiyasini belgilashda muhim hisoblangan omillar, mezonlar va metodologiyalar o’zaro bog’liq va hamkorlikka asoslangan bo’lishi zarur.

O’z navbatida ma’naviy - ma’rifiy faoliyat monitoringini tashkil etish sifati oliy ta’lim tizimining ham asosiy strategiyasiga aylandi va bu masalaga raqobat ustunligining zarur tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Bu strategik omillar yoshlar ma’naviyatini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega:

Bugungi OT tizimini isloh qilish borasidagi olib borilayotgan amaliy harakatlar davrida «ma’naviy - ma’rifiy ishlar tizimini monitoringini takomillashtirish» ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg’unlashtirish, yoshlar hayotida mamlakatlar iqtisodiyoti va ijtimoiy hayoti bilan bog’liq madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, har bir davlatning ta’lim va ma’naviy-axloqiy sohadagi rivojlangan davlatlar tajribasini o’rganish, ta’lim-tarbiya platformalari va resurslari integratsiyasini ta’minlash muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. [6]

Bu esa zamonaviy OTM o’zining strategik rivojlantirish dasturini belgilashi, biznes-rejasi hamda ma’naviy ma’rifiy ishlar monitoringini takomillashtirish parametrlarini ishlab chiqishi, OTT professor-o’qituvchilari, tьyutorlari faoliyatini samarali baholash va rag’batlantirish texnologiyalarini joriy etishi zaruratini ko’rsatadi.

Haqiqatda, Sharq va G’arb tsivilizatsiyalari, dunyoda sodir bo’layotgan texnogen inqiloblarning kuchayib borayotgani O’zbekiston yoshlari tafakkurini, dunyoqarashini, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat mazmunini takomillashtirish monitoringini tashkil etish, pedagogik zaruriyat sifatida ijtimoiy siyosiy qiymatga ega ekanligini ko’rsatmoqda. [7]

Oliy ta’lim muassasasida ma’naviy-ma’rifiy muhitni mustahkamlash, talabalarda milliy g‘urur, vatanparvarlik, fuqarolik burchini anglash hissini shakllantirish, ma’naviy immunitetni kuchaytirishning ustuvor yo’nalishlari quyidagi asosiy tamoyillarni o’z ichiga oladi:

- har qanday strategiya talaba yoshlarning ma’naviy kamolotiga xizmat qilishi kerak.

-milliy va xalqaro standartlar uyg’unligini ta’minlash.

- talabalarda milliy g‘urur va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish;

- vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;

-yurt tarixiga, madaniyatiga, buyuk ajdodlar merosiga hurmatni kuchaytirish;

-ma’naviy ma’rifiy tadbirlarni monitoring qilishning yangi, samarali usullarini izlash;

-ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni monitoring qilishda uchraydigan rasmiyatchilikларga barham berish;

Jadval ko'rinishida buni biz quyidagicha tavsiflashimiz mumкin.

Ma'naviy immunitetni kuchaytirish	G'oyaviy va ma'naviy tahdidlarga qarshi turish qobiliyatini shakllantirish. Yoshlarni ekstremizm, radikalizm, "ommaviy madaniyat" xurujlaridan asrash. Tahliliy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilishni rivojlantirish.
Ma'rifiy va intellektual rivojlanishni qo'llab-quvvatlash	Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish. Ijtimoiy tarmoqlarda faol va madaniyatli ishtirokni rag'batlantirish. Zamon talablariga mos ilmiy, texnologik va madaniy bilimlarni egallashga undash.
Ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish	Ota-onalar, mahalla, davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash. Ko'ngilli harakatlar va ijtimoiy loyihalarda talabalar ishtirokini kengaytirish.
Muassasa ichida sog'lom ma'naviy muhit yaratish	O'qituvchi va talaba o'rtasida o'zaro hurmat, ochiqlik va ishonch asosidagi munosabatlarni shakllantirish. Ijtimoiy-psixologik muhitni doimiy monitoring qilish. Salbiy illatlarga (korrupsiya, befarqlik, loqaydlik) qarshi kurashish.
Tarixiy xotira va milliy qadriyatlarni targ'ib qilish	O'zbek xalqi tarixi, urf-odatlari va qadriyatlari asosida ma'naviy merosni o'rganish. Mahalliy muqaddas joylarga sayohatlar, uchrashuvlar va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish.

Mazкur tamoyillar negizida, yoshlarni ma'naviy madaniyatini rivojlantirish yotadi. Shunga ko'ra, Oliy ta'lim muassasalarida **ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini rivojlantirish va variativlashtirish** ya'ni talaba yoshlarni axloqiy, madaniy, ijtimoiy va fuqarolik ongini shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyatni yangicha yondashuvlar bilan boyitish, turlicha shakl va usullardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bilamizки, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat tizimini monitoring qilish ijtimoiy siyosiy va ijtimoiy pedagogiк jihatlarga ega. SHu ma'noda ilmiy izlanishlarimiz davomida biz mazкur tizimni rivojlantirish va variativlashtirish bo'yicha asosiy yo'nalishlarni quyidagicha belgilab oldiк:

Tizimni rivojlantirish yo'nalishiga ko'ra:

-**talabalarda milliy** qadriyatlar asosida ilg'or g'oyalarni singdirish, zamonaviy mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitet hosil qilish;

- **institutsional rivojlanish yo'nalishiga ko'ra:**

-ma'naviy-ma'rifiy ishlar uchun alohida markazlar yoki kengashlar tashkil qilish;

-har bir ta’lim muassasasida ma’naviyat maslahatchilari faoliyatini kuchaytirish;

pedagogik kadrlar salohiyatini oshirish yo‘nalishiga ko’ra:

-ma’naviyat va ma’rifat sohasidagi trenerlar tayyorlash;

o’qituvchilarni zamonaviy psixologik-pedagogik metodikalar bilan qurollantirish.

Axborot texnologiyalarini joriy etish yo‘nalishiga ko’ra:

-virtual ma’naviy-ma’rifiy platformalar yaratish;

-multimedia vositalaridan samarali foydalanish;

variativlashtirish (turlicha shakl va usullar bilan boyitish):

Faoliyat shakllarini boyitish yo‘nalishiga ko’ra:

-treninglar, ochiq muloqotlar, debatlar;

-“Ma’naviyat kuni”, “Axloqiy savol-javob” kabi tematik tadbirlar tashkil etish.

Fanlararo integratsiya yo‘nalishiga ko’ra: ijtimoiy gumanitar fanlar bilan ma’naviy tarbiya masalalarini uyg‘unlashtirish.

Hududiy va yosh xususiyatiga moslashtirish yo‘nalishiga ko’ra:

-guruhlar kesimidagi farqlarni inobatga olish;

-talabalar qiziqish va qobiliyatlari, iqtidorini namoyish etishga mos dasturlar.

Ijtimoiy hamkorlik yo‘nalishiga ko’ra:

-ota-onalar, mahalla, diniy idoralar, NNTlar bilan hamkorlik;

“Oila – maktab – jamiyat” uchligi doirasida ishlar olib borish.

Natijaviylikni baholash yo‘nalishiga ko’ra:

-talabalarda fuqarolik, vatanparvarlik, halollik, bag‘rikenglik kabi sifatlarning shakllanish darajasi;

-ijtimoiy tashabbuslarda ishtirok etish faolligi;

-tashqi va ichki monitoring natijalari asosida tahlil.[5]

OTMda ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini rivojlantirish strategiyasi – bu oliy ta’lim muassasasida talabalarning shaxsiy, axloqiy, madaniy va fuqarolik salohiyatini oshirishga, ularni yuksak ma’naviyatli, intellektual rivojlangan, sog‘lom fikrlaydigan insonlar qilib tarbiyalashga qaratilgan tizimli yondashuvdir. SHundan kelib chiqib biz tajriba sinov ishlari jarayonida ushbu strategiyaning asosiy yo‘nalishlari va tarkibiy qismlarini maqsad vazifalarini belgilab oldik.

Unga ko’ra: **Strategiyaning asosiy maqsadi va vazifalari** talabalarning dunyoqarashini kengaytirish va ijtimoiy faolligini oshirish, milliy qadriyatlarga sodiqlikni mustahkamlash, ijtimoiy-ma’naviy tahdidlarga qarshi ongli immunitetni shakllantirish, tarixiy xotira, ajdodlar merosi va mustaqillik

g‘oyalariga hurmatni singdirish, yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni kuchaytirishdan iborat. **Strategiyaning asosiy yo‘nalishlarini quyidagicha belgiladik.**

Ma’naviy-ma’rifiy tarbiya tarix, adabiyot, san’at, dinshunoslik va falsafa orqali talabalarda yuksak axloqiy qadriyatlarni shakllantirish;

O‘zbek xalqining buyuk allomalari va ularning ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganishga doir tadbirlar o‘tkazish.

Vatanparvarlik va fuqarolik tarbiyasi

“Yangi O‘zbekiston” g‘oyalarini yoshlarga chuqur singdirish;

O‘zbekiston Respublikasining davlat ramzlari, Konstitutsiyasi va qonunlariga hurmatni targ‘ib qilish.

Axborot xavfsizligi va g‘oyaviy immunitet

Talabalarning axborot maydonida mustaqil fikr yuritish qobiliyatini rivojlantirish;

Yot g‘oyalar va zararli axborotlarga qarshi ma’rifiy immunitetni kuchaytirish bo‘yicha treninglar.

Madaniy-estetik tarbiya

Teatr, muzey, konsertlarga tashriflar, madaniy tadbirlar orqali estetik didni rivojlantirish;

Talabalar ijodiy klublarini qo‘llab-quvvatlash (she’riyat, teatr, musiqa va boshqalar).

Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish

Sport va jismoniy faollikni kengaytirish;

Psixologik sog‘lomlik va stressni boshqarish bo‘yicha treninglar tashkil etish.

Tashkiliy-uslubiy choralar

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha reja va dasturlarni ishlab chiqish;

Kurator (tyutor) va murabbiylar faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish;

Har bir fakultet va guruhda ma’naviyat yetakchilari faoliyatini kuchaytirish.

Monitoring va baholash tizimi

Har semestrda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini tahlil qilish;

Talabalar orasida so‘rovnomalar, intervyu va monitoring tadqiqotlarini o‘tkazish;

Yutuqlar va kamchiliklarni aniqlash asosida doimiy takomillashtirish mexanizmini joriy qilish.

Ilmiy izlanishlarimiz davomida OTM ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini rivojlantirish strategiyasi loyihasini ishlab chiqdik. Namunaviy loyiha tuzilmasi oliy ta’lim muassasasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli ravishda

rivojlantirish, talabalarda ijtimoiy mas'uliyat, milliy g'urur va barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

OTM ma'naviy-ma'rifiy Ishlar tizimini rivojlantirish strategiyasi loyihasi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning intellektual va ma'naviy-axloqiy salohiyatini rivojlantirish, ularning ongiga milliy qadriyatlar, Vatanga sadoqat, ijtimoiy faollik va ijobiy dunyoqarashni singdirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir. Ushbu strategiya loyihasi OTMda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan.

2. Strategiyaning asosiy maqsadi

OTMda talabalarning:

milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatini shakllantirish;

ma'naviy-axloqiy tarbiyasini mustahkamlash;

sog'lom hayot tarzi, ekologik madaniyat, huquqiy ong va siyosiy madaniyatini oshirish;

yoshlar o'rtasida bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish va ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish;

ijtimoiy tarmoqlar va raqamli axborot makonida tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish.

Asosiy vazifalar

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni raqamlashtirish va monitoring tizimini joriy etish;

Har bir fakultetda ma'naviy maslahatchilar faoliyatini kuchaytirish;

Talabalarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish tizimini yaratish;

Ma'naviyat va madaniyat markazlari, kutubxonalar, muzeylar bilan hamkorlikni kuchaytirish;

Har oyda "Ma'naviyat kuni"ni tashkil qilish;

Ota-onalar bilan muloqotni kuchaytirish va ota-onalar klublari faoliyatini yo'lga qo'yish.

Asosiy yo'nalishlar

Milliy g'oya va ma'naviyatni targ'ib qilish yo'nalishi

"Yoshlar va ma'naviyat" mavzusida ochiq muloqotlar;

"Ustoz va shogird" an'analarini rivojlantirish.

Huquqiy madaniyatni oshirish yo'nalishi

"Huquqiy savodxonlik darslari" tashkil etish;

Sud-huquq organlari bilan hamkorlikdagi davra suhbatlari.

Ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish

Talabalar turar joyida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar;

Salbiy oqimlarga qarshi immunitetni shakllantirish bo‘yicha treninglar.

Axborot xavfsizligi va raqamli madaniyat

“Axborot makonida yoshlar” mavzusida treninglar;

Sog‘lom axborot maydonini shakllantirishga qaratilgan kampaniyalar.

Kutilayotgan natijalar

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning institutsional va tizimli yo‘lga qo‘yilishi;

Talabalarning ma’naviy immuniteti kuchayishi;

OTM ijtimoiy-madaniy muhitining yanada sog‘lomlashuvi;

Talabalarda ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik faolligining oshishi;

Jamiyatda ijobiy qarashga ega, barkamol va tashabbuskor yoshlar safining kengayishi.

Yakuniy qoidalar. Strategiya OTM rektori tomonidan tasdiqlanganidan so‘ng, fakultetlar, bo‘limlar va markazlar faoliyatida asosiy hujjat sifatida xizmat qiladi. Har yil yakunida strategiya bajarilishi bo‘yicha hisobot tayyorlanadi va tahlil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda ta’lim menejmentida ma’naviy ma’rifiy ishlar monitoring tizimining samaradorligi undagi faoliyat natijalarini baholashning qanday modellashtirilganligiga bog’liq bo’lib, modellashtirish ichкi o’rganishlar va natijalar asosida jarayonlarni to’g’ri amalga oshirish, hujjatlarni boshqarish, monitoring tizimining tashкiliy tuzilmasini belgilash, ish jarayonlarini rejalashtirish, tarкibiy bo’linmalar faoliyatini doimiy takomillashtirish, tuzatish va profilaktiк haraкatlarga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbeкiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son «O’zbeкiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish кontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida»gi Farmoni. QMMB. 9.10.2019. 06/19/5847/3887.

2. O’zbeкiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022–2026 yillarga mo’ljallangan YAngi O’zbeкistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida»gi Farmoni, 06/22/60/0082.

3. O’zbeкiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi PF- 165-son «2022–2026 yillarda O’zbeкiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida»gi Farmoni, 06/22/165/0615.

4. Abdullaev F.A. Oliy ta’lim muassasasini boshqarishda axborot xizmati tizimini takomillashtirish. (pedagogika oliy ta’lim muassasalari misolida) p.f.b.f.doktori (PhD) Toshкent-2020

5. Askarov A.D. Competences in information and communication technologies (on the example of university professors) // European Scholar Journal (ESJ). – Spain, Las Palmas, 2021. – vol. 2, N12. – P. 18-20. Impact Factor: 7.235.

6. Axmedov M.U. Umumta’lim makтab direktorlarining malakasini oshirish jarayonida ta’lim sifati monitoringini takomillashtirish. ped. b.f.d (PhD)…diss. avtoreferat. Toshкent, 2019. – 47 b.

7. Vaxobov M.M. Umumiy o’rta ta’lim tizimida o’qitish sifati monitoringi modelini takomillashtirish. P.f.d. avtoreferati. Toshкent, – 2016. – 81 b.

8. Djuraev R.X., Turg’unov S.T. Ta’lim menejmenti. – Toshкent, Voris-nashriyot, 2006. – 264 b.

PEDAGOGLARNING RUHIY HOLATI KASBIY RIVOJLANISH DARAJASIGA TA'SIRINI O'RGANISH

Bozorov A. A.
O'ZDJTU Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: emosiya, kompetensiya, dinamika, Ijodiylik, o'qituvchi faoliyati, kasbiy rivojlanish, identifikatsiya, guruhiy adaptatsiya, tushunish effekti.
Ключевые слова: эмоция, компетентность, динамика, креативность, деятельность учителя, профессиональное развитие, идентификация, групповая адаптация, эффект понимания.
Key words: emotion, competence, dynamics, creativity, teacher activity, professional development, identification, group adaptation, understanding effect.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada Pedagoglarning psixik holatining kasbiy rivojlanish dinamikasiga ta'siri masalalarini o'rganish. Professor - o'qituvchilarda o'z ustida ishlash malakalari hamda kasbiy faoliyatdagi mustaqillik, ijodkorlik kabi xususiyatlarni rivojlantirish ishlari hozirga qadar, psixologiya fanining dolzarb vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'qituvchi jamiyat va pedagogik faoliyat tizimi tomonidan oldiga qo'yilgan maqsadlarni qanday qabul qilishi, o'zgartirishi va o'zida mujassam etishi sifatida tushuniladi, Professor - o'qituvchilarning emosional holatlari ta'lim jarayonlariga va sifatiga ta'siri masalalari ko'rib chiqildi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье исследуется влияние психического состояния педагогов на динамику профессионального развития. Работа по развитию у профессоров и преподавателей умений работать над собой, а также самостоятельности и творчества в профессиональной деятельности до сих пор остается актуальной темой науки психологии. признается одной из задач. Под педагогом понимается то, как он принимает, изменяет и воплощает цели, поставленные перед ним обществом и системой педагогической деятельности.
SUMMARY:
In this article, the study of the impact of the mental state of teachers on the dynamics of professional development. The work of developing the skills of professors and teachers to work on themselves, as well as independence and creativity in professional activity, is still an actual topic of the science of psychology. is recognized as one of the tasks. The teacher is understood as how he accepts, changes and embodies the goals set for him by the society and the system of pedagogical activities.

Hozirgi ta'lim tizimida o'qituvchi kasbiga bog'liq bo'lgan vazifalar bir qator bo'lganligi kabi ularning psixik holatiga ham e'tibor qaratilishi zarurdir. Oliy ta'limda pedagoglarning ijtimoiy faolligi kuchli bo'lgan, ilmiy salohiyatga

ega mutaxassislar degan tasavvurlar aholida ishonchli davlat vakili sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik va psixologik tajribalarni qay tarzda tashkil etish bosqichlari ma’lum bir Mezonlarga asoslanadi. Shu bosqichlar qay jihatda tashkil etilishini ko‘rib chiqamiz:

Tadqiqot metodlarini tanlash, tanlanmani asoslash, metodika darajasidagi instrumentlarni ishlab chiqish, tadqiqotni o‘tkazish, ma’lumotlarni yig‘ish va olingan natijalarni qayd etish;

Natijalar intrerpretatsiyasi – olingan natijalarni qayta ishlash, umumlashtirish va tadqiqot natijalari bo‘yicha hisobot yozish.

Pedagoglarning psixik holatining kasbiy rivojlanish dinamikasiga ta’siri masalalarini o‘rganish. Professor - o‘qituvchilarda o‘z ustida ishlash malakalari hamda kasbiy faoliyatdagi mustaqillik, ijodkorlik kabi xususiyatlarni rivojlantirish ishlari hozirga qadar, psixologiya fanining dolzarb vazifalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ta’lim-tarbiyaga oid zamonaviy konsepsiyalarning mazmun-mohiyati ham, shaxsda yuqori kasbiy tayyorgarlik sifatlari va maxsus qobiliyatlarni shakllantirishga qaratilgan. Bundan tashqari, professor-o‘qituvchilar ta’lim –tarbiya jarayonini samarali tashkil eta olishda, yuqori empatik qobiliyatga, kommunikativ madaniyatga, o‘z-o‘zini o‘rganish tajribasiga, o‘zaro ta’sir eta olish malakasiga, vaqtdan oqilona foydalana olish ko‘niknmasiga, interfaol ta’lim olib borish tajribasiga, hamkorlikda o‘qitish usullari kompetensiyasiga hamda teng aloqadorlik tamoyili orqali o‘qitish ko‘nikmalariga ega bo‘lmoqlari lozim sanaladi. O‘z ustida ishlash xususiyatining bunday masalalari esa, ayrim ilg‘or ijtimoiy-psixologik konsepsiyalarda o‘z aksini topgan. Mazkur konsyeptual asoslarni tadqiq etish, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatiga salbiy ta’sir etuvchi ko‘plab ijtimoiy -psixologik omillarni aniqlashga imkon beradi.

Bundan tashqari, psixolog tadqiqotchilar hozirga qadar o‘z kasbiga bo‘lgan befarqlik, bilimlarni o‘zlashtirishni istamaslik, faoliyatga nisbatan qiziqish va motivatsiyaning yetishmasligi kabi masalalarni, kasbiy kamolotga to‘siq bo‘luvchi salbiy omillar sifatida e’tirof etmoqda.

Mazkur turdagi ta’lim odatda, ma’ruza shakldagi dars mashg‘ulotlarida namoyon bo‘ladi. Ushbu holatda talabalar bir-birlari bilan o‘zaro hamkorlik qilmaydilar va hech qanday muammoli vaziyat hal etilmaydi. Faol turdagi ta’limda esa, talabalar ko‘proq darajada o‘quv faoliyatining sub’yektiga aylanadilar. Bunda talalbalar o‘qituvchilar bilan teng muloqotga kirisha oladilar, bilimlarni o‘zlashtirishda faol ishtirok etib, ijodiy ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

V.A.Yakuninning aytishicha, ijtimoiy faol o‘qituvchini aniqlash avvalo, undagi kasbiy faoliyat motivlari, qiziqishlari, ishga bo‘lgan ishtiyoqi, kasbiy yaroqlilik xususiyatlari, kognitiv ehtiyojlari ko‘lami kabilarni psixologik unsurlarni o‘rganishdan boshlanishi lozim.

Tadqiqotchi L.M.Kolpakovaning ta’kidicha, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda qo‘llaniladigan faol ijtimoiy-psixologik ta’lim usullarining afzalliklariga quyidagilar kiradi.

– Ishtirokchilarda butun dars davomida yuqori darajadagi faollikni ta’minlash;

– Shaxsning o‘zini o‘zi anglashiga yordam berish, ularning o‘zaro muloqotida yangi qadriyat yo‘nalishlari va munosabatlarini shakllantirish;

– Ishtirokchilarda guruhda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish;

– Talabalarda faol ijtimoiy-psixologik pozisiyalar hamda o‘ziga bo‘lgan munosabatini rivojlantirish;

– Turli hayotiy qiyinchiliklar va muammoli vaziyatlarga nisbatan psixologik immunitetini oshirish va hokazo.

Yuqoridagi tasniflardan shu narsa ma’lumki, bo‘lajak o‘qituvchilarda bilim va ko‘nikmalarni puxta o‘zlashtirishning ijtimoiy –psixologik omili sifatida, har bir shaxs xos bo‘lgan hayotiy pozisiyalar tashkil etadi.

Yu.A.Gerseyning xulosalariga ko‘ra, o‘quv jarayonida yuqori darajadagi ta’sirga erishish uchun, ta’lim ishtirokchilari quyidagi ijtimoiy –psixologik tamoyillarga rioya qilishlari kerak:

– Ixtiyoriylik tamoyili;

– Shu yerda va hozir bajarish tamoyili;

– Ma’lumotlarni personifikatsiya (shaxsiylashtrish) tamoyili;

– Faoliyatga to‘g‘ri munosabat tamoyili;

– Teng aloqadorlik tamoyili;

– Sir saqlay olish tamoyili;

– Samimiylik va ochiqlik tamoyili.

Yuqoridagi xususiyatlar orqali, o‘quv guruhlari bilan ishlash jarayonida o‘zaro psixologik ta’siri amalga oshiriladi. Psixologik ta’sir - bu shaxs yoki bir guruhning psixologik holatini o‘zgartirish, shuningdek undagi xulq-atvorni o‘zgartirish ya’ni biror shaxsni yoki guruhni boshqalar tomonidan o‘zgartirilishidir. Demak, bo‘lajak o‘qituvchilar shaxsga psixologik ta’sir etishning qoidalarini puxta o‘zlashtirsalar, keyinchalik har qanday guruhiy sharoitda samarali faoliyat olib bora oladilar.

N.A.Podimovning aytishicha, ta’limda psixologik ta’sirning etishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlariga quyidagilar kiradi.

– Emotsional infeksiya – o‘z emotsional holatni boshqa kishilarga o‘tkazish jarayoni ya’ni psixofizik aloqa;

– O‘zaro identifikatsiya – guruhiy faoliyatda o‘zini o‘zi aniqlash;

– Guruhiy adaptatsiya (moslashish);

– Hissiy – irodaviy ta’sir – ma’lumotlarni uzatish va egallashdagi o‘zaro takliflarning mavjudligi;

– Ishontirish – shaxsning ongini o‘zgartirish sanali, unda shaxsda munosabat, qarashlar shakllantirilad;

– Imitatsiya - bu ongli yoki ongsiz ravishda namuna olish, harakatlar va xulq-atvor uslublarini o‘zlashtirish va hokazo.

Demak, taqlid qilish natijasida guruh normalari va qadriyatlari shakllanadi va u kasbiy faoliyatda o‘z-o‘zini rivojlantirish manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shaxsga ta’sir qilishning bunday usuli keyinchalik, insonni mantiqiy fikrlashga, muammolarni hal qilishga undaydi.

A.A.Karelinning ta’kidlashicha, o‘quv mashg‘ulotlarida faol ijtimoiy-psixologik o‘zgarishlarni keltirib chiqaradigan psixologik mexanizmlarga quyidagilar kiradi:

1.Qarama-qarshilik mexanizmi – insonning o‘z “Men” tasviri bilan to‘qnashishi ya’ni muayyan vaziyatda o‘zini qanday baholanishini bilishidan iborat.

2.Fikr-mulohazaga asoslangan kommunikatsiya – og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan javoblar bilan qatnashgan ishtirokchilarning javoblari;

3.Tushunish effekti – ma’lumotlardagi bo‘shliqni yengish;

4.“Motivasion men” – har qanday ma’lumotlarni o‘zlashtirishga moyillik, kognitiv ehtiyojlarni qondirishga nisbatan say – harakat.

Mazkur ijtimoiy-psixologik xususiyatlar bo‘lajak o‘qituvchilarga katta ishtiyoq bag‘ishlab, berilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarish, masalalarga ijodkorlik bilan yondashish ko‘nikmalarini paydo etadi.

Yuqoridagi yondoshuvlardan farqli o‘laroq, muvaffaqqiyatli o‘qituvchining o‘z ustida ishlash qobiliyatini tushuntiruvchi “steriotiplashgan xulq” nazariyasi ham mavjud bo‘lib, unda pedagogik faoliyatdagi steriotiplar tahlil etiladi. Mazkur nazariyaga muvofiq, namunali o‘qituvchini baholash quyidagi streriotipik Mezonlar asosida amalga oshiriladi:

1. Antropologik stereotiplar bu - insonning ichki psixologik sifatlarini baholab, o‘qituvchi shaxsiga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlar shuningdek, uning tashqi qiyofasi hamda o‘zini tutish tajribasiga mos xulq-atvor sifatlarida namoyon bo‘ladi;

2. Etnik (milliy) stereotiplar bu - shaxs shakllangan muhit, jamoa, etnik birliklar asosida shakllanib, insonning etnik guruhga mansubligini, milliy ongi hamda milliy qadriyatlari tizimida namoyon bo‘ladi;

3. Ijtimoiy mavqega asoslangan stereotiplar bu - insonning shaxsiy fazilatlarini baholashda kasbiy maqom, hayotiy tajriba, kasbiy rollar, kasbiy muvaffaqqiyatlar tizimi kabilar bilan xarakterlanadi;

4. Ijtimoiy rol ko‘rinishidagi stereotiplar bu – o‘qituvchilarga xos kasbiy sifatlarni baholashda, uning jamoadagi ijtimoiy roli, intizomi, axloqiy sifatlari hamda aqliy yetuklik darajalari kabilarga asoslanadi;

5. Estetik stereotiplar bu – bo‘lajak o‘qituvilarning tashqi ko‘rinishi, kasbiy faoliyatga mos kiyinish uslubi, muomala madaniyati, boshqa shaxslarga namuna bo‘la oladigan xususiyatlari kabilar bilan tafsiflanadi;

6. Og‘zaki ekspressiyaga asoslangan stereotiplar – o‘qituvchilarda yaxshi shakllangan nutq xususiyatlari, oratorlik, chiroyli patomimika va yuz ifodalaridan foydalana olish ko‘nikmalari kabilar bilan xarakterlanadi.

Demak, talim-tarbiya jarayonida shakllangan stereotiplar bo‘lajak o‘qituvilarning kasbiy faoliyati imiji maqomini taminlab, u orqali yosh o‘quvchilarda ijtimoiy qadriyatlar tizimi shakllanadi.

K.Maslach, S.Jeksonning “Kasbiy so‘nish” diagnostikasi (N.E.Vodopyanovava Ye.S.Starchenkova tomonidan moslashtirilgan) metodikasi hisoblanib, unda professor-o‘qituvchilardagi kasbiy so’nish, toliqish holatini aniqlashni maqsad qilib oldik ushbu metodikamiz, u inson-inson yunalishidagi kasblar doirasida faoliyat olib borayotgan mutaxassislarda kasbiy so‘nish alomatlarini aniqlashga mo‘ljallangan.

Biz ushbu metodikamiz natijalarini tahlil qilishda shkalalarning xar birining natijalarini tahlilini ko‘rib o’tamiz.

“Kasbiy so‘nish diagnostikasi” metodikasi shkalalarini normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalari (Kolmogorov-Smirnov Z-mezoni, N=60)

Shkalalar	Min	Maks	O‘rtacha	St.og‘ish	Z	p
Hissiy toliqish	7,00	51,00	21,5357	6,24518	1,887	0,002**
Depersonalizatsiya	3,00	26,00	13,5500	4,18107	1,195	0,115*
Shaxsiy yutuqlar reduksiyasi	3,00	45,00	25,3429	8,63167	1,035	0,235
Psixik toliqish (uch komponent uchun qiymatlari)	22,00	100,0	60,7429	11,52860	1,841	0,002**

Izoh: ** - $p \leq 0.01$. * - $p \leq 0.05$.

“Kasbiy so‘nish diagnostikasi” metodikasi shkalalarinining statistik taqsimlanish ko‘rsatgichlari tahlil qilish chog‘ida quyidagi holatlarni kuzatishimiz mumkin. Respondentlarning kasbiy so‘nish darajasi bo‘yicha olingan natijalarni tahlil. Hissiy toliqish shkalasi bo‘yicha (z=1,887, p≤0,01), Depersonalizatsiya shkalasi bo‘yicha (z=1,195, p≤0,05), “Shaxsiy yutuqlarining reduksiyasi” shkalasi bo‘yicha, olingan ma’lumotlar normal taqsimlanish qonuniga mos kelishi kuzatildi (z=1,035; p≤0,05), Psixik toliqish (uch komponent uchun qiymatlari) umumiy qiymatlar natijasi bizda quyidagicha o‘z ifodasini topdi (z=1,841, p≤0,01), yani umumiy normal taqsimlanishga mos kelmaganligini kuzatishimiz mumkin, umumiy ko‘rsatgichlar natijasiga tayangan xolda.

“Kasbiy so‘nish diagnostikasi” metodikasi shkalalari bo‘yicha ma’lumot darajasini taqqoslash natijalari (Mann-Uitni U-mezoni)

Shkalalar	Ma’lumot darajasi (o‘rtacha ranglar)		U	p
	Oliy ma’lumot (n=226)	Ilmiy darajaga ega (n=54)		
Hissiy toliqish	145,09	121,28	5064,000	0,052
Depersonalizatsiya	150,32	99,39	3882,000	0,000**
Shaxsiy yutuqlar reduksiyasi	136,02	159,24	5090,000	0,058
Psixik toliqish (uch komponent uchun qiymatlari)	142,83	130,76	5576,000	0,325

Izoh: ** - p≤0.01

Kasbiy so‘nish diagnostikasi” metodikasi shkalalari bo‘yicha ma’lumot darajasini taqqoslash natijalarida tafovutlarni tahlil qilish vaqtida biz ishonchli tafovutlar mavjudligini kuzatishimiz mumkin. Hissiy toliqish va shaxsiy yutuqlar reduksiyasi shkalalari bo‘yicha ishonchli farqlar kuzatilmadi. Depersonalizatsiya shkalasida ishonchli farqlar kuzatildi, oliy ma’lumot va ilmiy darajaga ega natijalarida ishonchli farqlar mavjudligini kuzatishimiz mumkin (U=3882,000; p≤0,01). Oliy ma’lumotlilarda yuqori ko‘rsatkich natijalarini quydagicha izohlaymiz. "Depersonalizatsiya" shkalasiga ko‘ra, bu ko‘rsatkich shaxslararo munosabatlarning deformatsiyalashganligidan dalolat beradi. Ushbu holat 2 hil munosabatda, ya’ni boshqalarga qaramligi yoki atrofdagilarga nisbatan sinik (nafrat) ustanovkasi tufayli negativ his-tuyg‘ularni namoyon bo‘ladi. Ushbu pedagoglar ish jarayonida o‘z majburiyatlarini rasmiy ravishda bajarishga moyil bo‘lib, aksariyat hollarda faollik kuzatilmaydi.

Sinaluvchilarning ilmiy darajaga ega bo‘lgan pedagoglarda depersonalizatsiya o‘rtacha ko‘rsatkichga ega bo‘lib, ular hamkasblari va talabalar bilan hissiy aloqalarni samarali o‘rnatadilar, kasbiy faoliyat jarayonida hamda innovatsiyalarda faol ishtirok etadilar.

Professor-o‘qituvchining psixik holatini o‘rganish va uning kasbiy rivojlanishiga ta’siri masalalarini tajribali psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqot metodikalaridan foydalangan holda ochib berishga harakat qildik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январда “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ПФ-60-сон Қарори.https://lex.uz.

2. Колпакова Л.М. Психологические механизмы формирования межличностных отношений в диаде «учитель-ученик» в условиях педагогической деятельности (на примере старших школьников): Автореф. дис. . канд. психол. наук. Казань, 1997. – 32 с.

3. Шарипова Ш.С. Профессионалная педагогическая компетентност учителя // Молодой ученый. – 2017. – №11. – С. 511-514.

4. Герций Ю.А., Групповые занятия индивидуальный под-ход/Ю.А. Герций, С.Г. Дановский // Человек и труд. - 2001. - №7. -С.86-87.

5. Петрушихина, Е.Б. Рефлексия педагога в общении со старшеклассниками как фактор эффективности руководства ученическим коллективом: Автореф. дис. . канд. психол. наук. — М., 1991. – 22 с.

SHAXS SHAKLLANISHIDA “TARBIYA” FANINI O’QITISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Boltayeva M.O.
Buxoro davlat pedagogika instituti
I bosqich magistranti

Tayanch so’zlar: tarbiya, shaxs, pedagog, faoliyat, qadriyat, ma’naviyat, jamiyat, rivojlanish, taraqqiyot, axloq, metod, innovatsiya, bilim, ko’nikma, ijtimoiy muhit.
Ключевые слова: воспитание, личность, педагог, деятельность, ценность, духовность, общество, развитие, прогресс, мораль, метод, инновация, знание, навык, социальная среда.
Key words: upbringing, personality, educator, activity, values, spirituality, society, development, progress, morality, method, innovation, knowledge, skills, social environment.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada tarbiyaning fan sifatida o’qitilishi, uning mazmun, mohiyati, sharq mutafakkirlarining tarbiya haqidagi fikr va mulohazalari yoritib o’tilgan.
Zamonaviy shaxs tarbiyasi, o’quvchilarning ma’naviy – axloqiy tarbiya tizimini to’g’ri yo’lga qo’ya olish orqali ularni bugungi kun talablariga mos ravishda tarbiyalash, “Tarbiya” fanini o’qitishda tarbiya metodlari va interfaol metodlardan tarbiyaviy faoliyatda foydalanish orqali o’quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini oshirish uchun qo’llanildi: adabiyotlarni tahlil qilish, suhbat, so’rovnoma metodlaridan samarali foydalanildi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье освещаются вопросы преподавания воспитания как науки, его содержание и сущность, а также мысли и размышления восточных мыслителей о воспитании. Особое внимание уделяется воспитанию современного человека, формированию эффективной системы духовно-нравственного воспитания учащихся в соответствии с требованиями сегодняшнего дня. В процессе преподавания предмета «Воспитание» были применены методы воспитания и интерактивные методы, направленные на повышение уровня воспитанности учащихся. Эффективно использовались такие методы, как анализ литературы, беседа и анкетирование.
SUMMARY:
This article discusses the teaching of upbringing as a science, its content and essence, as well as the views and reflections of Eastern thinkers on the concept of education. Particular attention is given to the upbringing of the modern individual, establishing an effective system of moral and spiritual education for students in line with current societal demands. In teaching the subject “Upbringing,” various pedagogical and interactive methods were employed to enhance students' level of moral and ethical development. Literature analysis, interviews, and surveys were effectively used as research methods.

Ilm-fan taraqqiyotida, shaxsning kamolotida tarbiya singari insonga hech bir ta'sirli narsa yo'q. Abu ali ibn Sino shaxsga tarbiya berishda bolani dunyoga kelishi bilan boshlash joizligini ta'kidlagan bo'lsa, Umar Xayyom esa, bolani ona qornidagi davridan boshlab tarbiyalash lozimligini uqtiradi. Tarbiya avlodlar o'rtasida ijtimoiy-tarixiy, madaniy-ma'rifiy, axloqiy-hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiladigan, oila, mahalla, ta'lim muassasalari, tashkilotlar va boshqalarning ta'siri natijasida jismonan sog'lom, ma'nan yetuk va salohiyatli shaxsni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik jarayon hisoblanadi. Yosh avlodni tarbiyalashda asosan oila va ijtimoiy muhitning ta'siri alohida ahamiyatga ega. Bola dastlabki tarbiyani oiladan, oilaviy muhitdan o'rganadi va o'zlashtiradi. Kattalarning har bir xatti-harakati farzandga o'rnak vazifasini bajaradi. Bolaga tarbiya berishda ota-onaning tarbiyalanganlik darajasi ham muhim o'rin tutadi. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchi shaxsini tarbiyalashda pedagog, do'stlar ta'siri tarbiyalanuvchiga muntazam va tizimli ta'sir ko'rsatadi. Tarbiya jarayoni insonda aniq muddat va davrda shakllanmaydi. U insonning butun umri davomida rivojlanib boradi. Aynan shuning uchun bugungi kunda tarbiya masalasi dolzabr ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-sonli qaroriga asosan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1.Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" hamda "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirgan holda yagona "Tarbiya" fani 1 - 9-sinflarda - 2020-2021 o'quv yilidan, 10 - 11-sinflarda esa - 2021-2022 o'quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish bo'yicha qaror imzolandi. Mana shu qaror asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarida 2020-yildan boshlab tarbiya jarayoni alohida fan sifatida o'quvchilarga o'qita boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (31.12.2019) 1059-sonli Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun "Tarbiya" fani Konsepsiyasi ishlab chiqildi. Konsepsiyada bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko'plab yaratilayotgan imkoniyatlar va sharoitlar haqida to'xtalib o'tiladi. Yoshlar oldida turgan asosiy masala esa tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni

shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga “Tarbiya” fanida ilmiy asoslangan ma’lumotlar, o‘quvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri inobatga olingan holda, voqea va hodisalarning mohiyatini to’g’ri tushunishga, hamda amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olish va amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishga bo‘lgan qiziqishlarini to‘laqonli qondirishga yo‘naltirilgan. Tarbiyasiz alohida shaxs hech qayerda shakllanmaydi. Erishilgan va erishmochi bo’lgan yutuqlarimiz zamiri ostida albatta tarbiya yotadi. Tarbiya jarayoni juda murakkab va uzoq, uzluksiz va tizimli tashkil etiladigan jarayondir. Tarbiya jarayonida insonda turli qobiliyatlarning rivojanishi: axloqiy, g’oyaviy, estetik, irodaviy sifatlarni yanada taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Bolaning yoshi ulg’aygani sari unda mustaqillik, erkin fikrlash, mushohada yuritish, mustaqil qaror qabul qilish ko’nikma va malakasi ham orta boradi. Bolaning ertangi kuni, kelajagi esa biz bugun o’quvchi yoshlarga beradigan tarbiya jaroniga bevosita aloqador.

Tarbiya - shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon ekanligi, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta’sir etish imkonini bera olishi mumkinligini ushbu olimlarning qarashlarida o’z aksini topadi. Tarbiya jarayonini amalga oshirishda tarbiya metodlariga rioya qilish lozim. Tarbiya metodlari quyidagi guruhga bo’linadi:

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar (hikoya, suhbat, tushuntirish, ma’ruza, savol-javob);

Ijtimoiy ongni tarkib toptiruvchi va faoliyatni yo’lga qo’yuvchi metodlar (o’quvchilarni istiqbolga chorlash, pedagogik talab, ishontirish, maslahat va ko’mak);

Axloqiy uyg’unlashgan tarbiya metodlari (musobaqalar tashkil etish, rag’batlantirish, jazolash) metodlaridan foydalaniladi.

Bu metodlar tarbiyalanuvchining yosh davrlari, uning individual-tipologik xususiyati, ma’lumotni qabul qila olish darajasi, o’quvchining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qo’llaniladi. “Tarbiya” fanini o’qitish jarayonida ta’lim oluvchilar bilan o’quv jarayonida tarbiyaning hikoya, suhbat, ishontirish, maslahat berish kabi metodlardan foydalanib tarbiya jarayonini tashkil etish orqali o’quvchilarda fanga bo’lgan, ilmga bo’lgan qiziqish, layoqatni yanada mustahkamlanishiga asos bo’ladi. Tarbiyaning quyidagi turlari mavjud: Aqliy tarbiya, jismoniy tarbiya, ma’naviy-axloqiy tarbiya, estetik tarbiya (nafosat), mehnat tarbiyasi, fuqarolik tarbiya, ekologik tarbiya, diniy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, huquqiy tarbiya kabilar. Har bir tarbiya o’quvchi shaxsidagi ma’lum fazilat, xususiyatni shakllanishiga xizmat qiladi. Tarbiya jarayoni nihoyatda

murakkab jarayon bo‘lib, kamolga yetib kelayotgan farzandalarimizning tarbiyasi barchamiz uchun birdek ahamiyatga molik masaladir.

Bolani yoshligidan boshlab tarbiyalab borish, unda ijobiy xulq-atvor xususiyatlarini rivojlantirish bolani ertangi kun kamolini ta’minlashga zamin bo’ladi. Vatanning ertangi kuni, uning ravnaqi biz bugun tarbiyalayotgan farzandlarga bog’liq. Bugun fan va taraqqiyotning jadal sur’atda rivojlanib borayotgani barchamizga sir emas. Dunyo hamjamiyatida barcha sohada rivojlanish bo’lgani kabi ta’lim va tarbiya tizimida ham tubdan islohotlar, yangilanishlar amalga oshirilib kelmoqda. Ta’lim jarayoni har doim tarbiya bilan bir umumiylikda olib boriladi. Ta’limni tarbiyadan ajratib bo’lmaganidek tarbiyani ham ta’limdan alohida tashkil etib bo’lmaydi. A.Avloniy ham tarbiya haqida quyidagi fikrlarni ta’kidlab o’tgan: “Tarbiya-pedagogika, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdir. Bolaning salomat va saodati uchun yaxshi tarbiya, tanni pok tutmoq, yosh vaqtida maslakni tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o‘rgatmoq tabiblardek kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilg‘oni kabi tarbiyachi bolaning vujudidagi jahl markaziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berib katta qilmog‘i lozimdir”. [A.Avloniy. “Turkiy guliston yoxud axloq” Toshkent. “O’zbekiston milliy nashriyoti-2004 -y.6-b] Bundan ko’rib turibmizki tarbiya insonning shaxs sifatida shakllanishi uchun, uning rivojlanishi uchun zarur. Muhammad Sodiq Qoshg’ariyning “ Odob as-solixin” ya’ni yaxshi kishilar odobi “ asarida ham axloq-odob qoidalari ifodalangan bo’lib, bunda har bir shaxsning odobi botiniy va zohiriy (tashqi va ichki) xulq-odob qoidalari haqida to’xtalib, bu qoidalarga amal qilish zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu odob-axloq qoidalari insonning barkamol shaxs bo’lib kamolga yetishida, kundalik turmush tarzida muhim ahamiyat kasb etadi. Salomlashish odobi, ijozat so’rash, muloqot qilish madaniyati, jamoa a’zolari yonida o’zini tutish odobi, ozodalikka, tozalikka rioya qilish, mehmon kutish, mehmonga borish qoidalari, dasturxon atrofida ovqatlanish madaniyati haqida bayon etiladi. Bu asar XIX asrda madrasalarda ta’lim jarayonida qo’llanma sifatida foydalanib kelingan. Ma’rifatparvar Abdurauf Fitrat tarbiya jarayoniga(oila, mahalla, maktab) ta’sirini birinchi o’ringa qo’yadi. Fitrat bola shaxsini suvga qiyoslaydi. Suvni qaysi rangdagi, qanday shakldagi idishga solinsa o’sha idishning rangidek tovlanadi. Xuddi shunday bolani ham qanday muhitda tarbiyalasangiz , o’sha muhitning odat va axloqini qabul qiladi. Tarbiyaning eng muhim sharti shundan iboratki, bolalar ko’proq yaxshi va yomon tarbiyani o’z uyidan, ko’chadagi o’rtoqlaridan, maktabdagi tengdoshlaridan o’rganadilar, - deb yozadi adib asarlarida. Adib bolalarni tarbiyalashda avvalo, maktabdagi ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatni to’g’ri yo’lga qo’yish zarurligini qayd etadi.

Buyuk mutafakkir Kaykovusning “Qobusnoma” asari ham farzandlar ta’lim-tarbiyasiga oid pedagogik qarashlari pand-nasihat, o’git tarzida bayon etilgan. Kaykovus Farzand tarbiyasiga kasb-hunar, ilm o’rganishga ota-onaning ta’lim jarayoniga xalaqit bermasligi, agar muallim tarbiyalanuvchini kalkatlasa, ota-ona bunga qarshilik ko’rsatmasligini aytadi. Sababi kichik yoshda bola o’z ixtiyori bilan ilmni o’rganishni istamaydi. Ammo farzandingiz beodob bo’lsa, gap-so’zlaringizga quloq solmay, sizni jahlingizni chiqarsa bolangizni o’z qo’lingiz bilan jazolamang, uni faqat muallimning tayog’i bilan qo’rqiting. Farzandingizga bilim va hunarni o’rganishni o’zingizga meros deb biling, bolalaringizga muallimlar ilmdan saboq bersinlar, deya ta’kidlaydi.

Shunday ekan bugun zamon shiddat bilan rivojlanayotgan davrda avvalo farzandlarimiz tarbiyasi, ularning ta’limi biz uchun yuksak ahamiyat kasb etadi. Yuqorida qayt etilgan fikrlarga tayangan holda “Tarbiya” fani o’z oldiga juda katta vazifalarni amalga oshirishni maqsad qilib olgan. Yoshlar ma’naviyati, dunyoqarashini kengaytirish, ularda tanqidiy fikrlash, vatanga munosib farzand sifatida tarbiyalash, yoshlar madaniyati va salohiyatini o’stirish, har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash, voyaga yetkazish –“Tarbiya” fanining maqsadini tashkil etadi. Ta’lim bilan birga tarbiyaning to’g’ri yo’lga qo’yilishi shaxsning har tomonlama yetuk, ma’naviyatli bo’lib rivojlanishini ta’min etadi. Tarbiya-umumiy o’rta ta’lim muassasalari o’quvchilarida o’rganilgan nazariy tarbiyaviy bilimlar asosida shaxs faoliyatini tashkil etish bo’yicha ko’nikma va malakalarni shakllantirish, axloqiy sifatlarni hosil qilish, xulq-odob normalariga amal qilishga odatlantirib boriladigan pedagogik jarayondir. Bunda insoniy qadr-qimmatning asosi bo’lgan fuqarolik burchi, mas’uliyatini anglatishga e’tibor qaratish masalasi mujassam etadi. Tarbiyasiz alohida shaxs hech qayerda shakllanmaydi. Erishilgan va erishmochi bo’lgan yutuqlarimiz zamiri ostida albatta tarbiya yotadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida 06.07.2020 yildagi 422-son qarori.

2.A.Avloniy. “Turkiy guliston yoxud axloq” Toshkent. “O’zbekiston milliy nashriyoti-2004 -y.6-b]

3. Ashurov M.O. O’zbek xalqi tarbiya tizimi-Samarqand Ziyokor, 2003-y. 6-son, 16-24-b.

4. Pedagogika. Pedagogika nazariyasi va tarixi I qism. Pedagogika nazariyasi.Prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. O’zbekiston faylasuflar1 milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent – 2010

5. A.Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar. T.: Muharrir, 2008 y.

6. N.P.Jumaboyev .Sharq mutafakkirlarining ta‘lim-tarbiyaga oid ma‘naviy va axloqiy qarashlari. Науки об образовании. 2021.

ТАЛАБАЛАР МАЪНАВИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Саидова Ю.
Бухоро давлат
Педагогика институти ўқитувчиси

Таянч сўзлар: маънавият, талабалар маънавияти, маънавий тарбия, ёшлар ривожланиши, ахлоқ, миллий қадриятлар, ижтимоий ҳаёт, маънавий камолот, таълим-тарбия, ёш авлод, маънавий интизом, маънавий мерос, жамият тараққиёти, маънавий муҳит, ахлоқий қадриятлар, маънавий баркамоллик.
Ключевые слова: духовность, духовность студентов, духовное воспитание, развитие молодежи, нравственность, национальные ценности, общественная жизнь, духовное совершенствование, образование и воспитание, молодое поколение, духовная дисциплина, духовное наследие, развитие общества, духовная среда, нравственные ценности, духовная зрелость.
Key words: spirituality, students' spirituality, spiritual education, youth development, morality, national values, social life, spiritual maturity, education and upbringing, young generation, spiritual discipline, spiritual heritage, social development, spiritual environment, moral values, spiritual growth.

РЕЗЮМЕ:
Мақолада талабалар маънавиятини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари ва уларнинг аҳамияти ўрганилади. Маънавият - инсоннинг руҳий-ахлоқий жиҳатдан шаклланиши ва ҳаётга қараши бўлиб, ёш авлодни миллий ва умуминсоний қадриятларга боғлашда муҳим роль ўйнайди. Талабалар маънавиятини мустаҳкамлаш орқали жамиятда барқарорлик ва ижтимоий тараққиётга эришиш мумкинлиги таъкидланади.
РЕЗЮМЕ:
В статье рассматриваются основные направления развития духовности студентов и их значение. Духовность - это формирование личности с точки зрения духовно-нравственных качеств и мировоззрения, играющая важную роль в привязке молодого поколения к национальным и универсальным ценностям. Подчеркивается, что укрепление духовности студентов способствует стабильности и социальному развитию общества.
SUMMARY:
The article explores the main directions of developing students' spirituality and their significance. Spirituality is the formation of an individual's moral and spiritual qualities and worldview, playing a vital role in connecting the younger generation to national and universal values. It is emphasized that strengthening students' spirituality contributes to stability and social progress in society.

Мустақил Ўзбекистонни келажаги ва унинг равнақи даставвал илм фан тараққиёти ҳамда таълим-тарбиянинг ривожланиши ва такомиллашиши билан белгиланади. Шу боис Ўзбекистон мустақиллигининг дастлабки йиллариданоқ илм-фан таълим-тарбия ва касб-ҳунар ўргатиш ҳамда сифатли кадрлар тайёрлаш масалаларига давлатимиз сиёсатининг устувор йўналиши сифатида эътиборни қаратилди. Айниқса, ҳар бир шахсда чуқур ва мустаҳкам билим, теран фикр, юксак маънавият ва маданият ижодкорлик, ташаббускорлик, ишбилармонлик каби хислатларни таркиб топтиришга эътибор кучайди. Олиб борилаётган ислоҳотлар асосида ишлаб чиқилган Фармон ва Қарорларда ушбу масалага алоҳида ёндашиб маънавий - ахлоқий баркамол шахсни тарбиялаш вазифасини бажариш орқали аввало уларда маънавият ғоясини шакллантириш ва тарбиялаш масаласига ҳам долзарб муаммо сифатида эътибор каратилди. Бунинг учун ислом таълимотида, Айниқса муқаддас “Куръони Карим”да, Мухаммад пайгамбаримизнинг (с.а.в.) муборак Хадиси Шарифларида, мўътабар “Авесто”да Ал-Бухорий, Ат Термизий, Шайх Нажмиддин Кубро каби фузалою уламолар Ал Беруний, Аз-Замахшарий, олимлар Алишер Навоий, Огахий сингари мумтоз шоирлар асарларидан халқ оғзаки дурдоналаридан фойдаланишга имкон яратилди.

Олий таълим муассасаларида талабаларни маънавий тарбиялаш мураккаб педагогик жараён бўлиб, унда қуйидаги вазифалар амалга оширилади:

-талаба ёшларга олий таълим муасссасаларида аудитория ва аудиториядан ташқари машғулотлар жараёнида маънавий тарбиялашнинг моҳияти ва мазмуни хусусида маълумот бериш;

-талабаларни маънавий тарбиялашда педагогик талабларнинг ўрни ва ахамиятини ёритиб бериш.

-талабаларни маънавий тарбиялаш орқали келажакка нисбатан ишончни уйғотиш ва ҳурматни қарор топтириш;

-талабаларда муаян ижобий сифатлар, Ватанга, халққа муҳаббат, Ватан озодлиги ва юрт фаравонлиги учун курашиш, инсонпарварлик, ўзликни англаш, миллий ғурур, ифтихор, ўзга миллатларга ва уларнинг маънавиятини, қадриятларини ҳурмат қилиш;

-талаба ёшларда виждон эркинлиги, тажовуз қилмаслик, билимлилик, ахлоқлилик, жисмоний етуклик, мустақил фикр, муайян эътиқодга эга бўлиш ва ҳоказоларни шакллантириш.

Талабаларни олий таълим муассасасида маънавий тарбиясини ривожлантиришга эришиш муайян тамойиллар асосида амалга оширилади:

-ягона ижтимоий мақсаднинг мавжудлиги;

-таълим ва тарбия узвийлиги;

-талим ва тарбиянинг тарихийлиги;

-талаба ёшларни маънавий тарбиялашда олий таълим муассасалари, маҳалла ва жамоатчилик ўртасидаги ҳамкорликнинг ўрнатилиши;

-маънавий тарбияни ёшлар онгига сингдиришнинг энг мақбул шакл метод ва воситалари имкониятларидан фойдаланиш;

-маънавий тарбияни ёшлар ўртасида тарғиб этишда талабаларнинг ёш ва психологик хусусиятларни инобатга олиш ва илғор тажрибалардан кенг фойдаланиш.

Талабаларда маънавий тарбияни ривожлантиришда қуйидаги объектив ва субъектив омиллар етакчи роль ўйнайди:

- ижтимоий ғоявий муҳитнинг мавжудлиги;

-педагогик талаблар ҳакида етарли маълумот олиш;

-маънавий тарбия ва унинг мазмунини тушиниб етиш;

-оммавий ахбарот воситаларининг ва матбуотнинг ўрни ва аҳамияти;

-ота-оналар ҳамда талабаларнинг маънавий қиёфаси;

-ижтимоий муҳитнинг маънавий тарбияни ривожлантиришдаги ўрни.

Юқорида билдирилган фикрлардан кўриниб турибдики, олий таълим муассасаларида талабаларни маънавий тарбиясини ривожлантиришнинг аниқ тизимини яратиш мақсадга мувофиқдир.

Ўқитувчи авваломбор ёш авлодни тарбиячиси ўз тарбияланувчиларда муайян шахсий сифатларни ҳамда маънавий тарбияни сингдириш учун даставвал ўзи бу хусусиятларга эга бўлиши керак. Маънавият тушунчаси кенг камровли бўлиб у ахлоқий тарбия ва ахлоқий меъёрлар асосида шаклланиб боради.

Ахлоқ ижтимоий тушунчалардан бири бўлиб, шахс ҳатти-ҳаракати, юриш-туриши, турмуш-тарзи, ҳаёт кечириши тамойиллари, қоидалари, шунингдек ижтимоий муносабатлар мазмунини ифодалайди. Шу боис ахлоқ ижтимоий ҳодиса сифатида жамият маънавий-руҳий ҳаётида муҳим роль ўйнайди.

Талабалар маънавияти жамият маънавиятининг ажралмас таркибий қисмидир. Демак ёшларни маънавий тарбиялаш ижтимоий ҳаётда рўй бераётган ўзгаришлар, ижтимоий, сиёсий, маънавий-маданий, муносабатлар мавжуд имкониятлар ва шарот-шароитлар асосида маънавий жиҳатдан юксалиши ҳам ўз фуқароларининг маънавий баркамоллиги, тафаккури, билимлилик даражаси билан белгиланади. Бу борада миллий маънавиятимизни маданиятимизни асрлар давомида шаклланиб келган бой ва қадимий урф-одат ва анъаналаримиз, қадриятларимизни тиклаш ривожлантириш қадриятларимиз ва шу асосида ёшларни тарбиялаш,

уларда юксак инсоний фазилатларни шакллантириш, илм фанга қизиқиш ва интилишни рағбатлантириш катта аҳамият касб этади.

Аждод ва авлодларимиз қолдирган бой маънавий-тарихий меросдан фахр туйғусини ҳис этган ҳолда уларнинг муносиб ворислари бўлиб, илму-фанимиз ривожи ва истиқболи тўғрисида қайғуриш ва улари асос солган илмий тафакур анъаналарини давом эттириш ва бойитиш муҳимдир.

Жамиятдаги такомиллашиш жараёнида ёшлар маънавий тарбиясини ривожлантириш долзарб масала, чунки ёшларни тўғри йўлга йўналтириш ҳар бир зиёли инсоннинг бурчидир. Маълумки, жамият тараққиёти – ижтимоий-иқтисодий, сиёсий-ҳуқуқий, маънавий-маърифий, маданий жиҳатларни ўзида қамраб олади. Жамиятда яшовчи ёшлар ана шу соҳаларнинг барчасида ижтимоий фаоллик кўрсатиши ҳаётий заруриятдир.

Талабаларда маънавий тарбияни шакллантириш кўп қиррали ва мураккаб жараёндир. Талабаларнинг маънавий тарбияси бир-бири билан узвий боғлиқ ва бири иккинчисини тақозо қиладиган яхлит таълим-тарбия ишларини мунтазам ва изчил равишда бажаришни талаб этади. Тарбиявий таъсир ўтказишнинг аниқ ва мукаммал тизимигина, яхлит тизимли ёндашувгина тарбиянинг самарадорлигини таъминлайди. Тарбиявий ишда мукаммал тизимнинг мавжудлиги бир хил ишни ортиқча такрорлайвермасликка, талабага нисбатан бири иккинчисига тўғри келмайдиган қарама-қарши таъсирларнинг олдини олишга талабаларга бир хил талаблар қўйиш ва якдиллик билан таъсир ўтказишга имкон беради.

Олий ўқув юртларида маънавий-тарбиявий ишлар, тадбирлар кўплаб ўтказилади. Шунга қарамай талабалар орасида ахлоқ-одобга тўғри келмайдиган хатти-ҳаракатлар учраб туради, яъни олий ўқув юртларида амалга оширилаётган маънавий-тарбиявий ишлар ҳамма жойда ҳам кутилганидек натижа беряпти деб бўлмайди.

Айрим олий ўқув юртларида тарбиявий ишлар университет, институт миқёсида, шунингдек, факултет ва гуруҳларда бири иккинчиси билан боғланмаган ҳар турли тадбирларни амалга оширишдан иборат бўлиб қолмоқда. Одатда, бундай тарбиявий тадбирларда кўпинча фаолроқ талабалар қатнашадилар. Тарбияга муҳтож ва тарбиялаш зарур бўлган айрим талабалар эса бу ишдан четда қолаверади.

Тарбиявий ишнинг баъзан кам самара бераётганлигининг сабабларидан яна бири, ёшларга маънавий таъсир ўтказиш усулларининг бир томонламалигидадир. Олий ўқув юртларида таълим-тарбия ишида сўнгги йилларгача оғзаки баён қилиш усули кўпроқ қўлланиб келинди, талабаларни амалий фаолиятга жалб этиш усулларига эса жуда кам эътибор берилади. Шунингдек, ахлоқ-одобга доир суҳбатлар, маънавиятга доир мавзуларда

маъруза, доклад ва мунозаралар ўтказиш усулига ҳам етарли даражада эътибор берилмас эди.

Олий ўқув юртларининг кўпчилигида ҳанузгача касб одоби масалалари талабаларга деярли ўргатилмайди. Ҳатто, битирувчи курс талабаларининг кўпчилиги касб одоби, ўқитувчи одобининг нормалари ва талабларига доир саволларга дурустроқ жавоб бера олмайдилар. Буларнинг барчаси маънавий тарбиянинг самараси ва таъсирчанлигини сусайтиради. Натижада олий ўқув юртининг профессор-ўқитувчилари, жамоат ташкилотлари сарфлаётган куч ва ғайрат ёшларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси соҳасида кутилган натижаларни бермайди.

Педагог олимларнинг асарларида баён этилган назарий қоидалари талаба ёшларнинг маънавий тарбия тизимини ишлаб чиқишга имкон беради. Олий таълимда талабаларни маънавий тарбиялаш тизимини яратиш олий ўқув юртида амалга оширилаётган барча тарбиявий ишларнинг мақсади, мазмуни, тарбиявий жараён, тарбиянинг шакл-усулларини белгилашга ёрдам беради.

Ёшлар маънавиятини шакллантириш омилларидан бири бу таълим-тарбия тизими ҳисобланади. Маълумки, инсон камолоти, миллат равнақининг асосий шарти илм-маърифат, таълим-тарбия билан бевосита боғлиқ. Шунинг учун ҳам, ёшларнинг таълим-тарбия масаласи давлат назоратида эканлиги Бош Қомус-Конституцияда белгилаб қўйилган.

Мустақиллик йилларида ёшлар масаласига давлат сиёсати даражасида эътибор қаратилиб, маънавий жиҳатдан баркамол ва жисмонан соғлом авлодни тарбиялаш устувор вазифа этиб белгиланди. Айниқса, бугунги мураккаб глобаллашув даврида ёшлар маънавияти масаласи ҳар қачонгидан ҳам долзарб аҳамият касб этмоқда. Шунинг ҳам мамлакат иқтисодий, ижтимоий ҳамда ҳуқуқий соҳаларини яратиш билан бирга, маънавий-маърифий ва таълим-тарбия соҳасини ислоҳ этиш, ёшларимизни ҳам маънан, ҳам жисмонан етук, замонавий билимларни пухта эгаллаган юксак ақл-заковат соҳиби этиб вояга етказиш давлатимизнинг доимий эътиборида бўлиб келмоқда. Аслида жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий тараққиёти маънавий етук ва ахлоқан баркамол ёшларни тарбиялаш билан бевосита боғлиқдир.

Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислоҳотларни амалга оширишда ёшларнинг ўрни ва таъсири тобора ортиб, улар жамият ҳаётининг барча соҳа ва тармоқларида садоқат ва фидойилик билан хизмат қилишмоқда. Президент Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек: “Бизни ҳамиша ўйлантириб келадиган яна бир муҳим масала – бу ёшларимизнинг одоб-ахлоқи, юриш-туриши, бир сўз билан

айтганда, дунёқараши билан боғлиқ. Бугун замон шиддат билан ўзгаряпти. Бу ўзгаришларни ҳаммадан ҳам кўпроқ ҳис этадиган ким – ёшлар. Майли, ёшлар ўз даврининг талаблари билан уйғун бўлсин. Лекин айни пайтда ўзлигини ҳам унутмасин. Биз киммиз, қандай улуғ зотларнинг авлодимиз, деган даъват уларнинг қалбида доимо акс-садо бериб, ўзлигига содиқ қолишга ундаб турсин. Бунга ниманинг ҳисобидан эришамиз? Тарбия, тарбия ва фақат тарбия ҳисобидан".

Шу ўринда эътироф этиш жоизки, Абдулла Авлонийнинг "Тарбия биз учун ё ҳаёт, ё мамот, ё нажот – ё ҳалокат, ё саодат-ё фалокат масаласидир" деган фикри инсониятнинг яшаб туриши учун энг муҳим маънавий ибрат эканлиги бежизга айтилмаган. Бу маърифатпарварнинг ибратли сўзлари ҳозирги кунда ҳам ўзининг аҳамиятини йўқотмаган. Халқимизнинг "Ўтмишни унутганнинг келажаги бўлмас" деган нақлига амал қилиб ёшлар тарбиясида ота-боболаримиз ўгитларидан ҳам кенг фойдаланиш орқали демократик тараққиёт ривожига ҳисса қўшувчи ёшларни шакллантиришимиз зарур.

Буюк аждодларимиз, жумладан, Имом Бухорий, Имом Термизий, Имом Мотуридий, Маҳмуд Замахшарий, Мусо Хоразмий, Аҳмад Фарғоний, Абу Наср Фаробий, Абу Али Ибн Сино, Абу Райҳон Беруний, Юсуф Хос Ҳожиб, Маҳмуд Қошғарий, Бурҳониддин Марғиноний Амир Темур, Хожа Аҳрор Вали, Абдураҳмон Жомий, Алишер Навоий, Заҳириддин Муҳаммад Бобурлар бизга ўзларининг маънавий мерослари қолдириб кетганлар. Бу ота- боболаримиз қолдириб кетган меросларининг замирида ватанга муҳаббат, инсонийлик ғояси, умуминсоний қадриятлар мажмуи, одобахлоқ, ватанпарварлик, фидойилик, халқлар ўртасида дўстлик, тинчлик ва умуман эзгуликка даъват этувчи ғоялар ётади.

Ёшларнинг бўш вақтларини мазмунли ташкил этиш ва маънавиятини юксалтириш мақсадида маданият, санъат, жисмоний тарбия ва спортга кенг жалб этиш, уларнинг ахборот технологиялари бўйича саводхонлигини ошириш, ёшлар ўртасида китобхонликни тарғиб қилиш, хотин-қизлар бандлигини таъминлаш вазифаларини ўз ичига олган "бешта муҳим ташаббус" амалга оширилмоқда. Бу эса, ёшларни маънавий баркамол қилиб тарбиялашда, уларни турли зарарли ва ёт ғоялар таъсиридан асрашда муҳим роль ўйнагани ҳолда, ёшлар сиёсати соҳасида янгича механизмлар сирасига кириб, уларни санъат, мусиқа ва спортга жалб қилиш борасида катта тарбиявий аҳамият касб этмоқда.

Маънавиятнинг негизини инсон эгаллаган билимлар ва унинг ҳаёти давомида руҳиятига сингиб кетган ижобий ижтимоий фазилатлар ташкил этади.

Ўзбекистон Биринчи Президенти Ислом Каримов таъкидлаганидек: «Маънавият – инсонни руҳан покланиш, қалбан улғайишга чорлайдиган, одамнинг ички дунёси, иродасини бақувват, иймон-эътиқодини бутун қиладиган, виждонини уйғотадиган беқиёс куч, унинг барча қарашларининг мезонидир, десак, менимча, тарихимиз ва бугунги ҳаётимизда ҳар томонлама ўз тасдиғини топиб бораётган ҳақиқатни яққол ифода этган бўламиз».

Ижобий ижтимоий фазилатлар инсон мансуб бўлган миллатга хос, унинг бутун тарихий тараққиёти давомида шаклланган барча урф - одатлар, қадриятлар мажмуи бўлиб, уларни асрлар давомида авлоддан - авлодга сингдириб, сайқал топишига хизмат қилиб келаётган соҳа – тарихдир.

Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти Ислом Каримов «Юксак маънавият - енгилмас куч» асарида маънавиятга қарши қаратилган ҳар қандай тақдид мамлакат хавфсизлиги ва барқарорлиги, тинчлиги ҳамда осойишталиги, миллий манфаатларига таҳдид эканлигини таъкидлаб: «Бинобарин, маънавиятга қарши қаратилган ҳар қандай таҳдид ўз-ўзидан мамлакат хавфсизлигини, унинг миллий манфаатларини, соғлом авлод келажагини таъминлаш йўлидаги жиддий хатарлардан бирига айланиши ва охир-оқибатда жамиятни инқирозга олиб келиши мумкин» [3,12], -деб ёзган эди. Тарих гувоҳлик берадики, мустамлакачи кучлар ўзга халқларни бўйсундирмоқчи ва уларнинг бойликларига эгалик қилмоқчи бўлса, уларни энг буюк бойлиги бўлмиш миллий қадриятлари, тарихи ва маънавиятидан, тарихий хотирасидан жудо қилишга уринади [3,12].

Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти Ислом Каримов: «Ақлзаковатли, юксак маънавиятли кишиларни тарбиялай олсаккина, олдимизга қўйган мақсадларга эриша оламиз, юртимизда фаровонлик ва тараққиёт қарор топади. Агар шу муаммони ечолмасак, барча тоат-ибодатларимиз бир пул: тараққиёт ҳам, келажак ҳам, фаровон ҳаёт ҳам бўлмайди!» [3,12], -деб маърифатнинг бугунги кундаги аҳамиятини яна бир карра қайд этар экан, Ўзбекистонга жаҳоннинг таниқли олимлари билан, хоҳ иқтисод, хоҳ сиёсат, хоҳ тарих, маънавият соҳалари бўлсин, бемалол баҳслаша оладиган маърифатли одамлар кераклигини таъкидлади [3,12].

Бу вазифаларни ҳал қилишда жамият тараққиётини олға силжитувчи куч сифатида тарих фанининг алоҳида ўрни бор. У кишиларга илмийлик, холислик, тарихийлик, тарихий ҳақиқатнинг устуворлиги тамойиллари асосида тарихий билимлар, илмий-назарий тушунчаларни сингдириш орқали, уларда илмий, ғоявий-сиёсий дунёқарашни, ватанпарварлик ва инсонпарварлик туйғуларини, миллий ғурур ҳамда ифтихорни шакллантиришга хизмат қилади.

Мустақиллик йилларида ўзбек халқининг тарихи, маданияти, моддий ва маънавий бойликлари, жаҳон цивилизацияси ривожига катта ҳисса қўшган алломаларининг улкан меросига бўлган муносабат тубдан ўзгарди. Уларнинг меросини қайта тиклаш, тарихий шахслар, буюк алломалар, шаҳарлар, маданий ёдгорликларнинг юбилей ва байрамларини ўтказиш анъанага айланди. «Бу ерда гап тантаналардагина эмас, - деган эди Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти Ислом Каримов, - муҳими, биз уларнинг ўз даврида келажак авлодлар учун қолдирган салмоқли мероси, ижобий ишлари, керак бўлса, умумжаҳон сивилизатсиясига қўшган ҳиссаларини қадрлаймиз. Албатта, ҳар бир миллат ўз аждодларини эслаш, уларнинг ҳурматини жойига қўйишгаинтилади. Фақат бу каби хайрли ишлар ўз моҳияти жиҳатидан халқларни яқинлаштиришга, уларни ҳамжиҳат этишга хизмат қилсин» [3,12].

Муҳокама ва натижалар. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев ташаббуси билан қабул қилинган 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида белгиланган вазифалар юксак маънавиятли, мустақил фикрлайдиган, замонавий билим ва касб-ҳунарларни пухта эгаллаган ёшларни тарбиялаш, уларда миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат ҳиссини юксалтириш, қалби ва онгида мафкуравий иммунитетни шакллантириш ва такомиллаштиришнинг маънавий-маданий асосларини ўрганиш ва таҳлил этиш борасида зиммамизга катта масъулият юклайди. Ушбу ривожланиш дастурида маънавий бойликларни тиклаш, миллатнинг ахлоқий намунасини такомиллаштириш ва интеллектуал салоҳиятини юксалтириш асосий вазифалардан бири сифатида белгиланган [1].

Олий таълим муассасасида талабалар илм-фан сирларини пухта эгаллашлари, шу тариқа ўз қобилиятлари ва имкониятлари жамият тараққиёти учун йўналишлари халқ, миллат, мамлакат келажаги йўлида ижтимоий фаол бўлиши гаровидир. Бугунги кунда жаҳон миқёсида юртимиз ҳақида сўз кетганда “Янги Ўзбекистон” ибораси тилга олинар экан, бунда тараққиётнинг мутлақо янги босқичига қадам қўйилгани ҳамда эришилаётган ютуқлар эътироф этилади. Президент Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, “Ҳозирги замонда Ўзбекистонда янги бир уйғониш – Учинчи Ренессанс даврига пойдевор яратилмоқда, десак, айни ҳақиқат бўлади. Чунки бугунги Ўзбекистон – кечаги Ўзбекистон эмас. Бугунги халқимиз ҳам кечаги халқ эмас” [2].

Тарихий тараққиёт жараёнида инсоният томонидан юзага келтирилган ва инсонларнинг ўзигагина хос бўлган мукамаллик фазилатларидан бири,

бу маънавиятдир. Маънавият инсон ақли ва руҳининг фан, сиёсат, санъат, дин сингари кўринишларида ва миллий хусусиятларида намоён бўлади. Маълумки ҳар қайси халқ ёки миллатнинг тафаккури, турмуш тарзи, маънавий қарашлари ўз-ўзидан, бўш жойда шаклланиб қолмайди. Уларнинг вужудга келиши ва ривожланишида аниқ тарихий, табиий ва ижтимоий омиллар асос бўлади. Шу маънода биз халқимизнинг турмуш ва тафаккур тарзига назар ташлайдиган бўлсак, бошқаларга ҳеч ўхшамайдиган, минг йиллар давомида шаклланган жамоа бўлиб яшаш туйғуси, шарқона урф-одатларимиз, ахлоқ-одобимиз, шарқона таълим-тарбиямиз, турмуш тарзимиз каби бир қатор ўзига хос хусусиятларга эга бўлган миллатмиз. Зеро, бизнинг қадимий ва гўзал диёримиз нафақат Шарқ, балки жаҳон цивилизацияси бешикларидан бири бўлган. Бу табаррук заминдан буюк зотлар, олиму-уламолар, сиёсатчи васаркардалар етишиб чиққан, дунёвий ва диний илмларнинг, айниқса, ислом дини билан боғлиқ билимларнинг тарихан энг юқори босқичга кўтарилишида она юртимизда туғилиб камолга етган улуғ алломаларнинг хизматлари беқиёс бўлган.

Имом Исмоил Бухорий, ат-Термизий, Аҳмад Яссавий, Баҳоуддин Нақшбанд, Имом Абу Мансур Мотуридий, Бурхониддин Марғилоний, Нажмиддин Кубро, Ал-Хоразмий, Аҳмад Фарғоний, Абу Наср Форобий, Абу Наср Беруний, Абу Али ибн Сино, Маҳмуд Қошғарий, Юсуф Хос Хожиб, Аҳмад Югнакий, Амир Темур, Мирзо Улуғбек, Хожа Ахрор Валий, Мир Алишер Навоий, Мирзо Бобур, Мирзо Абдулқодир Бедил каби буюк алломаларимиз баркамол авлод тарбияси хусусида ўз асарларида, шеърларида, рубоийлари ва ғазалларида баён қилганлар. Бинобарин, буюк аждодларимз, ота-боболаримз қадимдан бебаҳо бойлик бўлмиш илму-маърифат, таълим ва тарбияни инсон камолоти ва миллат равнақининг энг асосий шарти ва гарови деб билган. Шунинг учун ҳам маънавий баркамол инсонни тарбиялаш, уни жамият ҳаётида ўз ўрнини топиши ўтмишда ҳам ва бугунги кунда ҳам асосий долзарб масалаларидан бири бўлиб келган. Мамлакатимиз мустақиллик шароитида ижтимоий тараққиётнинг барча жабҳаларида миллий хусусиятларимиздан ва замонавий технологик жараёнлар кўламидан келиб чиққан ҳолда туб ислоҳотларни ўтказишни амалга оширмоқда. Буларнинг барчаси айни вақтда юртимизда амалга оширилаётган ислоҳотлар жараёнининг барча жабҳаларида ўз кўламини янада яққол кўрсатмоқда.

Юқоридаги фикр-мулоҳазалардан келиб чиқиб таъкидлаш жоизки, бугунги кун ёшларини маънавий тарбиялашда таълим-тарбиянинг ўрни беқиёслигини таъкидлаб ўтиш жоиздир. Биз юртимизда янги авлод, янги тафаккур соҳибларини тарбиялашдек масъулиятли вазифани адо этишда,

аввалambор, ўта машаққатли ва айни вақтда жуда шарафли касб эгалари бўлган ўқитувчи ва мураббийларга суянамиз ва таянамиз, эртага ўрнимизга келадиган ёшларнинг маънавий дунёсини шакллантиришда уларнинг хизмати нақадар беқиёс эканлигини яхши англаймиз. Инсон ўз умри давомида қандай ютуқ ва натижаларга эришмасин, қаерда, қандай лавозимда ишламасин, таълим даргоҳида олган таълим-тарбияси унинг етук шахс ва малакали мутахассис бўлиб шаклланишида улкан аҳамиятга эга экани шубҳасиз. Маънавий баркамоллик инсоннинг дунёқараши, эътиқоди, руҳияти, хулқ-атвор нормалари, ахлоқ-одоби билан бевосита алоқадорлиги билан ажралиб туради.

Маънавий баркамол кишилар халқ тақдири ва фаровонлиги, ватан тақдири ва унинг равнақини ўйлайдилар. Бугунги кунда ёшларимизни Ватан равнақи, юрт тинчлиги, халқ фаровонлигига эришишдек олий мақсадларимиз руҳида тарбиялашимиз, уларни ана шу мақсадлар сари етаклашимиз лозим. Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, маънавиятни ривожлантириш ва жамиятни маънавий янгилашдан бош мақсад – юрт тинчлиги, Ватан равнақи, халқ эркинлиги ва фаровонлигига эришиш ва комил инсонни тарбиялаш, ижтимоий ҳамкорлик ва миллатлараро тотувлик, ҳамда диний бағрикенглик каби тамойилларнинг маъно-моҳиятини бугунги кунда мамлакатимизда олиб борилаётган маънавий-маърифий, таълим-тарбия ишларининг марказига қўйиш, уларни янги босқичга кўтариш, ёш авлодни ҳар томонлама мустақил фикрлайдиган етук дунёқараш эгалари қилиб тарбиялашдан иборат.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон Фармони. www. lex. uz.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикасининг мустақиллигининг 29 йиллиги тантанасида қилган нутқи. 31 август, 2020 йил. (//https://parstoday.com/uz/news/uncategorised-i54386).

3. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008.-173 б.

4. Зиёмухаммедов Б., Зиёмухаммедова С., Қодиров С. Маънавият асослари. - Тошкент: Ўзбекистон миллий Энциклопедияси, 2000. – 112 б.

5. Иброҳимов А. ва бошқ. Ватан туйгуси / А.Иброҳимов, Х.Султонов, Н.Жўраев. -Т.: «Ўзбекистон», 1996. - 396 б.

6. Ҳакимов Ҳ.И. Тарих ёшлар маънавиятини шакллантириш омилларидан бири. // “Тарих ва маънавият: ёшлар маънавиятини шакллантириш омиллари” Республика миқёсидаги илмий-амалий анжуман материаллари. Тошкент. 2020 йил. 10 ноябрь. – 102 б.

TA’LIM - KOMMUNIKATIV MADANIYATNI SAMARALI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Islomova Sh.M.
Navoiy davlat universiteti,
Pedagogika kafedrasi tayanch doktoranti

Tayanch so‘zlar: ta’lim, kommunikativ madaniyat, nutq madaniyati, hissiy madaniyat, kognitiv madaniyat, kommunikativ madaniyatni rivojlantirish usullari.
Ключевые слова: образование, коммуникативная культура, речевая культура, эмоциональная культура, когнитивная культура, методы развития коммуникативной культуры.
Key words: education, communicative culture, speech culture, emotional culture, cognitive culture, methods of developing communicative culture.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada kommunikativ madaniyat, uning elementlari, kommunikativ madaniyatni rivojlantirish manbaalari, muloqot madaniyati malakalari, ta’lim jarayonida kommunikativ madaniyatni shakllantirish usullari bayon etilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье рассматривается коммуникативная культура, ее элементы, источники развития коммуникативной культуры, навыки культуры общения, а также методы формирования коммуникативной культуры в образовательном процессе.
SUMMARY:
This article discusses communicative culture, its elements, the sources of developing communicative culture, communication culture skills, and methods of forming communicative culture in the educational process.

Ta’lim madaniyatning bir qismi bo‘lib, uni saqlash va rivojlantirishga ta’sir qiladi. Ta’limda madaniyat uning mazmuni, tabiati, jamiyati, faoliyat usullari, insonning atrofdagi odamlarga munosabati, mehnat, muloqot va boshqalar haqida bilim manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida kommunikativ faoliyat – bu o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni saqlashga qaratilgan faoliyat.

Zamonaviy kasbiy tayyorgarlik sharoitida bo‘lajak mutaxassislarning kommunikativ madaniyatini rivojlantirish samaradorligi kommunikativ madaniyat normalari, qadriyatlari va bilimlarga bog‘liq.

Kommunikativ madaniyatni rivojlantirish jarayoni, birinchi navbatda, pedagogik jarayon doirasida mavjud. Pedagogik jarayonning elementlari orasida uning maqsadi, mazmuni, tayyorlash shakllari va usullari, shuningdek, natijalari ajratiladi. Talabaning kommunikativ madaniyati uning ta'lim jarayonida olingan bilimlarni kasbiy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Talabalar kommunikativ madaniyatini shakllantirish jarayonida asosiy usullar: munozara, kuzatish, suhbat, vaziyatni modellashtirish, muammoni hal qilish, mashqlar, rolli o'yinlar, sinovdan o'tkazish va boshqalar.

Shaxsning kommunikativ madaniyatini shakllantirish samaradorligiga ta'sir qiluvchi shartlar quyidagilardir:

- o'quv jarayonida talabalar muloqot madaniyatini yaxshilashga yo'naltirish;
- talabalar kommunikativ madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik sikl va pedagogik amaliyot kurslarining integratsiyasi; [2]

Kommunikativ madaniyat yoshlarga jamiyatda kichik va kalta muloqot guruhlarida samarali ma'lumot almashish imkonini beruvchi bir qator ko'nikma va bilimlarni o'z ichiga oladi. Kommunikativ madaniyatni shakllantirish muammolari G.M.Andreeva, A.A.Bodaleva, F.N.Gonobolina, I.I.Zaretskaya, V.N.Kuzmina, A.A.Lobanova, N.A.Morevoy, A.G.Samoxvalova, V.A.Slastenina, S.D.Yakusheva va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan. A.G.Samoxvalova o'z asarlarida kommunikativ madaniyatni – madaniyatni shakllantiruvchi komponentlar yig'indisi sifatida ko'rib chiqadi.

Nentov:

-hissiy madaniyat

-nut madaniyati;

-kognitiv madaniyat;

Muallif hissiy madaniyatni tashqi vaziyatga va suhbatdoshga oqilona reaksiyalar haqidagi bilimlar tizmi sifatida ko'radi. Nutq madaniyati o'z fikrlarini erkin, ravon va tushunarli yetkazish hamda kommunikativ suhbatdoshi tomonidan ma'lumotni to'g'ri qabul qilish haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi. Kognitiv madaniyat esa voqelikni aks ettiruvchi fikrlarni majoziy va to'g'ri ifodalashga qodir bo'lgan nutq bayonotlarini yaratishga imkon beradi. A.G.Samoxvalova o'z tadqiqotlarida kommunikativ madaniyat shaxs tomonidan qabul qilinishi va u uchun shaxslararo munosabatlar sohasidagi yo'l-yo'riq bo'lib, muloqot jarayonida xatti-harakatlarning oqilonaligini, muloqotning muvaffaqiyati va samaradorligini, o'zini namoyon qilishning o'ziga xosligini nazorat qilishini ta'kidlaydi.

Shaxsning kommunikativ madaniyati o‘rganish, ijtimoiylashish va muloqot jarayonida shakllanadi. Shaxsning kommunikativ madaniyatini rivojlantirish manbalari quyidagilar:

-xalq madaniyatini o‘zlashtirish orqali to‘plangan tajriba (ijtimoiy-me’yoriy tajriba);

-shaxslararo muloqot tajribasi;

-xalq madaniyatida qo‘llaniladigan muloqot tillarini o‘rganish jarayonida to‘plangan tajriba. [5]

Kommunikativ madaniyat shaxsiy shakllanish sifatida bir qator psixologik fazilatlarni o‘z ichiga oladi, ular quyidagilarga bo‘linadi:

1) kognitiv komponent (shaxslararo muloqot qobiliyatlari, muloqotda xatti-harakatlar normalari va qoidalarini tushunish);

2) hissiy-baholash komponenti (boshqalarni obektiv baholash qobiliyati, empatiya);

3) xulq-atvor komponenti (odamlar o‘rtasidagi muloqot jarayonida hamkorlikni shakllantirish, dialogik munosabatlarni yaratish ko‘nikmalari).

O‘z navbatida, kommunikativ madaniyatning kognitiv komponenti quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1)kommunikativ madaniyatning tarkibiy qismlari haqida bilim;

2) shaxslararo muloqot asoslarini bilish;

3) muloqot madaniyati - aloqa subyektlari va uning shakllarining turli ko‘rinishlariga mos keladigan bir qator sohalarni o‘z ichiga olgan murakkab tizim sifatidagi bilim.

Hissiy-baholovchi komponent shaxsning hissiy va axloqiy xususiyatlari uchun javobgardir. Ushbu component hislar, mulohazalar va axloqiy-qadriyat tushunchalarida amalga oshiriladi shaxslar.

Kommunikativ madaniyatning xulq-atvor komponenti – bu shaxsning boshqalarga nisbatan faoliyati. Xulq-atvor komponentining namoyon bo‘lishi xayrixohlik, ochiqlik, bag‘rikenglik yoki aksincha, befarqlik va tajovuzkorlik bo‘lishi mumkin [1].

Mashhur rus olimi O.B. Sirotinina ishlarida “muloqot madaniyati” ya’ni “kommunikativ madaniyat” quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) zarur aloqa vositalari va turlari to‘plamiga ega bo‘lish;

b)kommunikativ harakatlarning maksimal samaradorligiga erishish, o‘z maqsadlariga muvofiq muloqotni qurish qobiliyati;

v) muloqotda nafaqat o‘z pozitsiyasini, balki aloqa hamkorlari va umuman jamiyatning pozitsiyalari va manfaatlarini hisobga olish istagi;

d) aloqa jarayonining o‘ziga, uning shakllarining mahoratiga, mukammalligiga, uni tashkil etishga e'tiborni qaratish qobiliyati. [7]

V.A. Kan-Kalik asarlari kasbiy faoliyatning kommunikativ tarkibiy qismiga bag‘ishlangan . Olim xodimning muloqot madaniyatiga kiruvchi malakalarning uch guruhini aniqladi :

1) omma oldida muloqot qilish;

2) birgalikdagi faoliyatni tashkil etish;

3) aloqani maqsadli tashkil etish va boshqarish. Uning ta’kidlashicha, insoniy munosabatlar madaniyati birinchi navbatda muloqot qobiliyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, uning asosi muloqotchanlikdir.

“Kommunikativ madaniyat” tushunchasi pedagogika nazariyasi doirasida:

1) ta’lim va kasbiy samaradorlikning zarur sharti va kafolati;

2) kommunikativ bilim, ko‘nikmalarni birlashtirgan shaxsiy sifat; malakalar, shaxsning madaniy qadriyatlari, ta’lim va kasbiy faoliyatga hissiy-qiymatli munosabat natijasida to‘plangan tajriba;

3) shaxsning kasbiy ahamiyatli sifati, muloqot holatini, uning subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni va muloqot jarayonining samaradorligini adekvat baholashni ta'minlaydigan kommunikativ bilim, ko‘nikma va malakalar, kommunikativ qadriyatlar va tajribalar to‘plami;

4) bilim, ko‘nikma va malakalar; [6]

O‘qituvchining kasbiy faoliyatining asosi sifatida “kommunikativ madaniyat” og‘zaki (o‘qituvchi va talabalar bilan muloqot qilish) va yozma (yozma ma’ruza qilish va og‘zaki bo‘lmagan muloqot) muhim o‘rinni egallaydi.

O‘qituvchi kommunikativ madaniyat darajasini belgilovchi muhim mezonlar quyidagilar:

- ► Kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyati;
- ► Talabalar bilan hamkorlik qilish qobiliyati;
- ► Hamkasblar bilan hamkorlik qilish qobiliyati;
- ► Ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorgarlik;
- ► Pedagogik tafakkuri;
- ► Pedagogik nutq madaniyati (diqqatni jalb qilish, gaplarning mantiqiy izchilligi va to‘ldirilishi, nutq va muloqotning ravshanligi, izlanish)
- ► Ta’lim jarayonida qulay mikroiqlimni yaratish.

Kommunikativ madaniyatni shakllantirish, rivojlantirish hamda amalga oshirishning muhim sharti bu o‘qituvchining umumiy va kasbiy madaniyatida katta ahamiyatga ega, shuningdek barcha kompetensiya va malaka xususiyatlariga sezilarli ta’sir ko’rsatadi.

Ta’lim jarayonida talabalar kommunikativ madaniyatini shakllantirishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

Talabani muloqotga jalb etish. Talabani muloqot qilishda rag‘batlantirish, ular orasida o‘zaro fikr almashish, muhokamalar va guruhli ishlarni tashkil etish talabalar uchun yaxshi tajriba bo‘la oladi.

O‘zaro hurmat va tinglash madaniyatini o‘rgatish. Talabalarga faqatgina o‘z fikrlarini bayon etishni o‘rgatibgina qolmay balki, boshqalarning ham fikrini tinglashni o‘rgatish lozim.

Tana tili va vokal kommunikatsiya. Talabalar muloqotga kirishganda faqat so‘zlar bilan emas, balki tana tili, yuz ifodasi, ovoz ohangi kabi kommunikatsiyaning boshqa elementi bilan ishlashni o‘rganishlari kerak. Talabalar ushbu jarayonni o‘rganishlari uchun o‘qituvchi ularga amaliy mashqlarni tashkillashtirib berishi kerak.

Kommunikatsiya usullarini qo‘llash. O‘qituvchilar turli kommunikatsiya usullari: rollar tashkil etishlari, debat yoki simulyatsiyalar orqali talabalarni murakkab vaziyatda muloqot qilishni o‘rgatishlari kerak.

Samarali yozma va og‘zaki kommunikatsiya. Talabalarda og‘zaki ko‘nikmalar bilan bir qatorda yozma ko‘nikmalarni ham rivojlantirish zarur. Yozma ishlar masalan, insholar, refaratlar talabalar o‘z fikrlarini tartib bilan ifodalashlari uchun yaxshi namuna bo‘ladi.

Yuqorida ko‘rib o’tganimizdek talabalar kommunikativ madaniyatini rivojlantirish yo‘l va usullari xilma-xildir. Yuqorida ko‘rsatilgan usullardan tashqari talabalar o‘z ustida ishlash; badiiy kitoblar o‘qish, muloqotni rivojlantiruvchi psixologik terninglar, seminar va amaliy ma’ruzalar, jamoat ishlarida ishtirok etish orqali muloqot madaniyatini rivojlantirishlari mumkin.

Ta’lim jarayonida talabalar kommunikativ madaniyatini rivojlantirish – bu o‘qituvchilar uchun faqat bilim berish emas, balki talabalar shaxsini, ularning ijtimoiy, axloqiy va madaniy qadriyatlarini rivojlantirishdir.

Kommunikativ madaniyatni egallash bo‘lajak pedagoglar uchun muhim. Chunki pedagogik faoliyat hamisha o‘quvchilar bilan muloqotga kirishishni, doimiy munosabatda bo‘lishni talab etadi. Muloqot jarayoni tufayli o‘quvchilarga ta’lim beradi, pedagogik ta’sir ko‘rsatadi, ularda ilmiy dunyoqarash, yuksak e’tiqod hamda ijobiy axloqiy sifatlarni shakllantiradi. Oliy ta’limni tamomlagan barcha talabalar ham muloqot madaniyatini puxta egallagan, o‘z fikrini boshqalarga erkin bayon qila oladigan sof adabiy tilde suhbat qura oladigan mutaxassislar emas. Shu sababli ham talabalarda muloqot madaniyatini, ayniqsa pedagogik muloqotni tarbiyalash muhim vazifalar biri bo‘lishi lozim. Ta’lim jarayonida interfaol metodlar (debat, rolli o‘yinlar,

muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) orqali talabalarni muloqotjarayonida faol bo‘lish, o‘z fikrini himoya qilish va boshqalarni fikrini eshitish madaniyatini o‘zlashtiradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bajenova Yu.A. Становление понятия коммуникативная культура в гуманитарных и общественных науках // Вестник Челябинского государственного педагогического университета. 2015. № 2. С. 33-41.

2. Bryukova T.I Развитие коммуникативной культуры студентов как одно из условий развития их когнитивности Философия образования, № 4(43), 2012

3. Дзялошинский И.М. коммуникативная культурав цифровой цивилизации 2021

4. Kerimbayeva B.T, Kerimbekov Y.R. , d.d. Sapargaliyeva3* “the importance of developing a network communicative culture of the future teacher” ясауи университетінің хабаршысы, №4 (126), 2022

5. Мележик Ольга Владимировна основные подходы отечественных и зарубежных ученых к определению понятия «коммуникативная культура» Вестник Тамбовского университета. Серия Гуманитарные науки 2018

6. Stenyashina Nadejda Leonidova Педагогическая модель развития коммуникативной культуры будущих менеджеров в процессе преподавания иностранного языка

7. Стрелчук Н.Е “Коммуникативная культура” и “культура речого общения” синонимичные понятия?. Серия Гуманитарные науки 2011 2 (4) 276-278

8. Saodat Usmonova “Communicative culture as a condition for improving the training of future specialists” Web of Teachers: Inderscience Research Volume 3, Issue 2, February – 2025 120-123 betlar

MAKTAB O'QUVCHILARIDA XALQARO BAHOLASH DASTUR TALABLARI ASOSIDA HAYOTIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Radjapov R. S.
NMPI 3-kurs tayanish doktoranti

Tayanch so'zlar: PISA, PIRLS, TIMSS, dastur, tizim, xalqaro dastur, kompyuter, innovatsion, o'qish savodxonligi.
Ключевые слова: PISA, PIRLS, TIMSS, программа, система, международная программа, компьютер, инновационный, грамотность чтения.
Key words: PISA, PIRLS, TIMSS, program, system, international program, computer, innovative, reading literacy.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada hozirgi ku'nda maktab o'quvchilarni xalqaro talab darajalariga to'gri keladigan qilib hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari haqida gap boradi. Hozirgi ku'nda xalqaro talablar asosida o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash va xalqaro baholash tizimi haqida to'xtalib o'tiladi. Hususan PISA (Programme for International Student Assessment), PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) va TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) kabi turli xalqaro dasturlar ta'lim sifatini baholash va oshirishda asosiy mezon bo'lib xizmat qilmoqda.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматриваются теоретические основы формирования жизненных навыков школьников в соответствии с международными стандартами. В статье рассматривается современная ситуация обучения и воспитания учащихся на основе международных стандартов и международной системы оценки. В частности, основными критериями оценки и повышения качества образования выступают различные международные программы, такие как PISA (Programme for International Student Assessment), PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) и TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study).
SUMMARY:
This article examines the theoretical foundations of the formation of life skills of schoolchildren in accordance with international standards. The article examines the current situation of education and upbringing of students based on international standards and the international assessment system. In particular, the main criteria for assessing and improving the quality of education are various international programs, such as PISA (Programme for International Student Assessment), PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) and TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study).

Kirish qismi. Xalqaro baholash tizimi maktab o'quvchilarini hayotiy ko'nikmalari shakllantirishda muhim ro'l o'ynaydi, chunki maktab pedagoglari o'quvchilarni xalqaro talablari asosida o'qitadi. Hozirgi kunda butun dunyoda ta'lim sifatini baholash tizimlarini rivojlantirish ju'da tez rivojlanmoqda. Hususan PISA PIRLS TIMSS xalqaro baholash metodologiyasi va natijalarning ifodalanish orqali muhim va ilmiy va pedagogic ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xalqaro baholash tizimlari: Dunyo bo‘yicha umumiy o‘rta ta'lim tizimiga oid eng nufuzli axborot manbalaridan biri hisoblangan. “Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Co-operation and Development, OECD) tomonidan tashkil etilgan PISA (The Programme for International Student Assessment) xalqaro tadqiqotlari hamda Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (International Association for the Evaluation of Educational Achiyevement, IEA) butun dunyo bo‘ylab ta'limni baholash, o‘qish va tushunish sifatini yaxshilash bo‘yicha ish olib bor uvchi PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) tadqiqotlarida ilgari surilgan bozor iqtisodiyotiga layoqatli, maktab uchun emas, hayot uchun o‘qiydigan o‘quvchilarni tarbiyalash ta'lim mazmuniga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar mezoni hisoblanadi va uni ilmiy-pedagogik muammo sifatida tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda ta'limtizimini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ammo, bu jarayonni ilmiy-nazariy asoslarga tayangan holda, tizimli ravishda olib borish kerak. Motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o‘z-o‘zini baholash indikatorlarini muvaffaqiyatli joriy etish uchun fundamental tadqiqotlar olib borish ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, dunyoda ta'lim sifatini baholash tizimini rivojlanish tendensiyalari jadallik bilan o‘zgarib bormoqda. “PISA xalqaro baholash dasturi ta'lim sohasida muhim ahamiyatga ega. Uning natijalari turli davlatlar ta'lim tizimlarini isloh qilishda qo'llaniladi. O'quvchilarning o'qish, matematika, tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligi, shuningdek, kompyuter, xorijiy tillar va moliyaviy savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar tobora o'sib bormoqda.”

O'quvchilarning shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirish, ularni zamonaviy ko'nikmalar bilan qurollantirish va hayot davomida o'qishga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim muhitini yaratish o'ta muhim masaladir. Bu muammoning ilmiy jamoatchilik tomonidan chuqur tadqiq etilishi, ta'lim tizimining takomillashuviga va jamiyat rivojiga hissa qo'shadi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasining PISA xalqaro baholash dasturida ishtirok etishi milliy ta'lim tizimi salohiyatini oshirish imkoniyati sifatida qaraladi. Hozirgi kunda

respublikamizda mazkur baholash dasturiga tayyorgarlik ishlarining tashkiliy-metodik bosqichi samarali amalga oshirilmoqda.

Ta'lim tizimini sifat jihatdan takomillashtirish uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari faoliyatini yangilash, ularning kompetensiyaga asoslangan va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarni o'zlashtirishiga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'limni takomillashtirish, milliy asoslarni mustahkamlash va jahon andozalariga mos keladigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash yo'nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta’lim tizimidagi sifat darajalari va yuqori maxsuldorlik ularning jahon ta’lim standartlari bilan mosligi, mamlakatimiz o‘quvchilarining PIRLS, PISA xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etib ijobiy natijaga erishishi, avvalo, ularning o‘zlashtirgan ko’nikmalarini qay darajada amaliyotga tatbiq qilinayotganligiga bog‘liq.

Ta’lim sifatini baholovchi PISA, PIRLS, EGMA, EGRA, TALIS, TIMSS dasturlari o‘quvchilarning umumta’lim fanlaridan bilish darajasini aniqlab berishga qaratilgan loyihalardir. PIRLS xalqaro baholash dasturlari mamlakatimiz ta’lim tizimida nisbatan yangi loyiha bo‘lganligi uchun, u haqida ayrim muhim ma’lumotlarni eslatib o‘tishni maqsadga muvofiq deb topdik.

“Mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko’rsatadidki, PIRLS (Progressi International Reading Literacy Study) boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchilarning berilgan notanish matnni o‘qish va tushunish darajasini, bilim sifatini tahlil qiluvchi xalqaro baholash dasturidir.”

PIRLS tadqiqotlarini o'tkazish o'ziga xos tashkiliy-pedagogik xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar tadqiqotning muvaffaqiyatli o'tkazilishi va natijalarning ishonchli bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

“PIRLS baholash dasturi tadqiqotini tashkil etish va o‘tkazishda qatnashuvchilarni saralash bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda ishtirokchi davlatlarning milliy koordinatorlari Xalqaro muvofiqlashtirish markaziga mamlakatdagi barcha maktablarning (shahar, qishloq) ro‘yxatlarini yuboradilar. Keyin maxsus dasturning tasodifiy sonlar usuli yordamida har bir mamlakatdan 150 ga yaqin maktab tanlanadi.

“PIRLS baholash dasturi maqsadi dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan to‘rtinchi sinf o‘quvchilari tomonidan matnni tushunish darajasini taqqoslash, shuningdek, milliy ta’lim tizimlarida o‘qish savodxonligi o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlashdan iborat. Xalqaro lug‘atga ko‘ra, o‘qish savodxonligi - bu insonning hayotda o‘zini to‘liq namoyon qilishi va o‘z maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lgan turli yozma tillarni tushunishi va mantiqiy ravishda anglash qobiliyatidi.

PIRLS baholash dasturi doirasida o‘quvchilarning o‘rganish va tushunish ko’nikmalarini rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar strategiyasini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berish, shuningdek, ularni amalga oshirish mexanizmlari va bosqichlarini loyihalash muhim ahamiyatga ega.PIRLS baholash dasturi o‘quvchilarning o‘rganish darajalari uchun zarur bo‘lgan asosiy ko’nikmalarini baholaydi va taqqoslaydi. O‘quv darajasi o‘qish malakasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilarning kitob o‘qish va tushunish qobiliyatini rivojlantirishni ta’lim jarayonidagi muhim vazifaga aylantiradi.

PIRLS baholash dasturi o‘quvchilarning o‘qish va tushunish darajasini ularga axborot va adabiy matnlarni taqdim etish orqali baholaydi. Ushbu matnlar uchun quyidagi mezonlar belgilanadi: Matn uzunligi 1000 so'zgacha, savodxonlik darajasi past mamlakatlar uchun 400-500 so'zdan iborat bo'lishi kerak; Matn mavzulari o’quvchilar tomonidan taqdim etilgan materialdan tashqari umumlashtirilishi mumkin bo'lgan adabiy mavzular atrofida bo'lishi kerak.“Axborot matnlari o'quv materiallarida uchramaydigan mavzularni qamrab olishi kerak;

Til: Matnlar 40 dan ortiq tillarga tarjima qilingan bo‘lib, tarjimalar aniq va tushunarli bo‘lishini talab qiladi”. Tasviriy tilda aniq iboralar bo'lishi kerak, har qanday so'zlashuv yoki jargon atamalaridan qochish kerak;

Mazmun: Matnlar 9-10 yoshli o'quvchilarning rivojlanish xususiyatlariga mos kelishi, ma'lum madaniyatlarga xos bo'lgan mavzulardan ko’ra umummadaniy qarashlar aks etgan matn tanlanishi kerak. Material maktab yoshidagi bolalar uchun qiziqarli bo'lishi kerak;

Muvofiqlik va ketma-ketlik: Hikoyada mantiqiy tuzilmani saqlab qolish juda muhimdir. Oddiy va murakkab jumlalar tuzilmasidan foydalanish kerak. Agar dialog muhim bo'lsa, uni murakkab jumlalar bilan birlashtirish kerak. Matn tuzilishi va ma'lumotlarning mantiqiy ketma-ketligi o'rtasidagi bog'liqlik sarlavhalar, jadvallar va grafiklar kabi vizual elementlar bilan ta'minlanishi kerak.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) o‘quv dasturi o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash, o‘qitish va o‘rganish jarayonlarini tahlil qilish, xalqaro taqqoslash imkoniyatlarini yaratish va ta'lim strategiyalarini rivojlantirish maqsadlariga ega. Ushbu dastur orqali o‘quvchilarning o‘qish jarayonida tushunish, tahlil qilish va ma'lumotlardan foydalanish qobiliyatlari aniqlanadi. Shuningdek, dastur o‘qituvchilarning pedagogik uslublarini, o‘qish muhitini va o‘qish materiallarining sifatini o‘rganadi, bu esa o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini ham

baholaydi. Olingan ma'lumotlar davlatlar o‘rtasida taqqoslash imkoniyatini yaratadi, bu orqali turli mamlakatlardagi o‘qish savodxonligining darajasi aniqlanadi. Natijada, tahlinga asoslangan tavsiyalar berilib, o'qitish strategiyalarini va ta'lim siyosatlarini takomillashtirish uchun zarur ma'lumotlar taqdim etiladi. Bu jarayonlar ta'lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qiladigan bo’lsak, xalqaro baholash dasturlari ta'lim sohasida sifat va samaradorlikni oshirish, o‘quv jarayonini global standartlarga moslashtirish va o‘quvchilarning bilimlarini taqqoslash imkoniyatini berish maqsadida yaratilgan. Ular ta'lim tizimlarining samaradorligini baholash, o‘quvchilarda zaruriy ko‘nikmalarni shakllantirish va jahon ta'limi bilan raqobat qila olishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Xalqaro baholash dasturlari ta'lim muassasalariga o'z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash, o'quv dasturlarini o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish va shu orqali ta'lim sifatini oshirish uchun zarur vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.B.Oymurodova Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantiriladigan hayotiy ko‘nikmalar tavsifi “Pedagogik Mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, № 2 b; 8-12

2. А.И.Фёдорова Развития Устно-речевых умений обучаехся 7 класса с помошъю проектной методики. Выпускная квалификационная работа. Красноярск 2017г. 62с

3. J.Xudaykulov boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini oshirishda interfaol metodlardan foydalanish. Talim Fan va innovatsiya 2023-y 2- son 15-18-b.

4. A.B.Radjiyev, A.A.Ismailov, J.R.Narziyev, X.R.Axmedov, G.O.Tog‘ayeva “O‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi” qo‘llanma, «Sharq» nashriyoti, Toshkent, 2019 yil.

5. OECD (2014), PISA 2012 Results: What Students Know and Can Do (Volume I, Revised edition, February 2014): Student Performance in Mathematics, Reading and Science, PISA, OECD Publishing, Paris, http://dx.doi.org/10.1787/9789264208780-en.

YOSHI KATTALARNI QO'SHIMCHA KASBGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONALISHLARI

Davletova A.
Berdaq nomidagi Qoraqolpoq davlat universiteti tayanch doktoranti

Tayanch so'zlar: bilim, ko'nikma,individ,shaxs,sub'ekt,individuallik,yoshlik davri, etuklik davri, keksayish davri.
Ключевые слова: знания, умения, индивид, личность, субъект, индивидуальность, молодость, зрелость, старость.
Key words: knowledge, skills, individual, personality, subject, individuality, youth, maturity, old age.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada yoshi kattalarning ta'lim sub'ekti sifatida tutgan o'rni, ularning yoshga doir bo'lgan davrlari haqida so'z yuritiladi. "Kattalar" tushunchasini uning turlarining ko'p o'lchovliligi kontekstida ko'rib chiqish mantiqiy. Shaxsning mohiyati (inson sifati) fanda "individ", "shaxs", "sub'ekt", "individuallik" kabi umume'tirof etilgan atamalar bilan tavsiflanadi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматривается роль взрослых как субъектов образования, их возрастные периоды. Логично рассматривать понятие «взрослые» в контексте многомерности его видов. Сущность человека (человеческие качества) описывается в науке такими общепринятыми терминами, как «индивид», «личность», «субъект», «индивидуальность».
SUMMARY:
This article examines the role of adults as subjects of education, their age periods. It is logical to consider the concept of "adults" in the context of the multidimensionality of its types. The essence of a person (human qualities) is described in science by such generally accepted terms as "individual", "personality", "subject", "individuality".

Ta'lim sub'ekti sifatida kattalar - bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonida ongli va faol ishtirok etadigan shaxs. Kattalar nafaqat ma'lumot olishni, balki muayyan hayotiy muammolarni hal qilishni, shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun ham o'rganadilar.

Mashhur sotsiolog I. S. Konning fikriga ko'ra, yosh toifalari uchta mos yozuvlar tizimiga ega bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- individual rivojlanish qonuniyatlari (inson imkoniyatlari uning psixobiologik parametrlari bilan belgilanadi);

- jamiyatning yosh tabaqalanishining o'ziga xos xususiyatlari (avlodlar uchun ijtimoiy-madaniy me'yorlar va har bir yoshga nima to'g'ri kelishi haqidagi jamoatchilik g'oyalari);

- madaniyatning qabul qilingan yosh ramzi (xulq-atvor, tashqi ko'rinish, munosabatlar shakllari va boshqalar sohasidagi ijtimoiy kutishlar to'plami).

"Kattalar" tushunchasini uning turlarining ko'p o'lchovliligi kontekstida ko'rib chiqish mantiqiy. Shaxsning mohiyati (inson sifati) fanda “individ”, “shaxs”, “sub’ekt”, “individuallik” kabi umume’tirof etilgan atamalar bilan tavsiflanadi.

Individ - (lotincha, individuum-bo’linmas) - odam zotining vakili, tabiiy zotga mansublik.

SHaxs - hamkorlikdagi faoliyat va muloqot jarayonidagi ijtimoiy munosabatlar tizimida egallanadigan ijtimoiy rol egasi.

Sub’ekt - (lotincha, subectum - asosda turuvchi) - bilish va predmetli-amaliy faoliyat egasi, ongli, maqsadga yo’naltirilgan faollik manbai.

Individuallik - konkret odamning individ, shaxs, sub’ektga oid birlashuvi, o’ziga xosligi, qaytarilmasligi.

Sub’ektning hayot faoliyati davomida egallaydigan bilimlari o’z ahamiyatiga ko’ra quyidagi sifat tavsifiga ega bo’ladi:

- fundamental bilimlar (dunyoni bilish, uni tushunish, axborot integrastiyasi);

- amaliy bilimlar(ma’lum bir xarakatlarni bajarishga yordam beruvchi bilimlar);

- oldinlab ketgan bilimlar(hayotda uchraydigan aniq muammolarni oldindan ko’ra olish);

- etaklovchi bilimlar (hayot qonunlarga ko’ra yuzaga kelgan muammolarni hal etish);

- kompensastiyalovchi(tuzatuvchi, joy-joyiga qo’yuvchi) bilimlar (ta’limiy yoki umummadaniy bilimlar etishmovchiligini tuzatish);

- korrekstiyalovchi bilimlar(ijtimoiy m e’yorlarga mos kelmaydigan shaxsiy, hulqiy, kommunikativ munosabatlami o ’zgartirish);

- rivojlantiruvchi bilimlar;

- qo’llab -quvvatlovchi bilimlar;

- to’ldiruvchi bilimlar.

Kattalami turli yosh davrlarida o’qitish o’ziga hos ma’no kasb etadi;

1.Yoshlik davri(18-30 yosh). Yoshlik davri biologik va ijtimoiy imkoniyatlaming ortishi bilan xarakterlanadi.

Nemis falsafiy adabiyotida 22yoshdan 27 yoshgacha bo'lgan davrni, obrazli qilib "kezish yillari" deb ham atashadi.Ushbu yillar sinovlar va xatoliklar, birinchi hayotiy saboqlar davri sanaladi.

2. Etuklik davri. ''Etuklik" tushunchasida ma'lum bir yoshga etish,etuklik, tajriba, davr mujasamlashadi.Etuklik davri yoshlik va keksalik oralig'ida bo'lib, 30 yoshdan 55-60 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

3. Keksayish davri.

Keksayish davriga 55(60) yoshdan 70 (75) yoshgacha bo'lgan erkak va ayollar kiradilar. Mazkur yoshdagilami sharili ravishda ikkita katta guruhga ajratish mumkin:

a) mutloqo iste'foga chiqqan "ijtimoiy faol bo'lmagan erkak va ayollar;

b) nafaqaxo'r, lekin ijtimoiy hayotdan uzoqlashmagan erkak va ayollar.

Uzluksiz kasbiy ta'lim sub'ekti - bu allaqachon hayotiy va kasbiy tajribaga ega bo'lgan kattalar, kattalar ta'limi esa o'ziga xos xususiyatlarga ega. Avvalo, bu kattalarning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqadi. Psixologlar katta yoshdagi o'quvchini ajratib turadigan beshta asosiy xususiyatni aniqlaydilar:

1. Voyaga etgan kishi o'zini mustaqil, o'zini o'zi boshqaradigan shaxs sifatida tan oladi va uni nazorat qilish uchun qilingan har qanday urinishlarni, hatto baland ovozda aytmasa ham, tanqid qiladi.

2. Voyaga yetgan odam katta hayotiy, ijtimoiy va kasbiy tajribani to'playdi, bu uning dunyoqarashini shakllantiradi va u har qanday kiruvchi ma'lumotni shu nuqtai nazardan baholaydi.

3. Uning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi pragmatik yondashuvda bo'adi - u o'zining hayotiy muammolarini (karera, muloqot, ko'ngilochar va hokazo) o'qish yordamida hal qilishga intiladi.

4. O'quvchi yoki talabadan farqli o'laroq, u olingan bilimlarni darhol qo'llashga yoki o'quv jarayonining o'zidan qoniqish olishga intiladi.

5. Uni idrok etish har doim ma'lumotni emotsional baholash bilan birga keladi, miya esa salbiy his-tuyg'u bilan birga keladigan har qanday ma'lumotni "to'sib qo'yish" ga intiladi (hatto bu shunchaki ochlik hissi, noqulay o'rindiq yoki toza havo etishmasligi bo'lsa ham) [1].

Kattalarni o'rganish motivlarini tahlil qilib, S.G. Vershlovskiy ta'kidlaganidek, "kattalar, birinchi navbatda, pragmatik motivlar asosida o'rganadi. Agar kattalar unga muammolarni hal qilish imkonini beradigan amaliy zarur bilimlarga ega bo'lsa, u o'rnatilgan hayotiy va kasbiy tajribadan tashqariga chiqishga ehtiyoj sezmaydi" [2]. Muayyan nuqtaga qadar, kattalarning mavjud bilim va ko'nikmalari uning kasbiy yoki boshqa turdagi muammolarini hal qilish uchun etarli. Yangi bilimlarga bo'lgan ehtiyoj uning oldida murakkab muammolar

paydo bo'lganda paydo bo'ladi va uning o'tmishdagi mavjud tajribasi ularni muvaffaqiyatli hal qilishga imkon bermaydi. Yangi bilimlarga bo'lgan ehtiyoj shakllanadi.

Kattalar uchun ta'limning qadr-qimmati nafaqat uning amaliy foydalari, faoliyatning turli sohalarida insonning dolzarb ehtiyojlarini qondirish qobiliyati, balki unga nisbatan fidokorona munosabati bilan ham belgilanadi. Ko'p odamlar ta'limning o'zi qimmatli bo'lishi mumkin emasligiga ishonishadi, chunki bilim uchun bilim hech narsa tomonidan rag'batlantirilmaydi. Ammo "shaxs ta'lim faoliyati bilan shug'ullanar ekan, uning sifat jihatidan o'zgarishi sodir bo'lishi mumkin: nafaqat uning amaliy natijasi, balki yangi narsa haqidagi bilim va bilimlarni egallash jarayonining o'zi ham muhim bo'ladi. Bunday holda, kattalar, go'yo o'rganishning ijtimoiy sababiy zanjirlaridan ozod bo'ladi [2].

Voyaga yetgan shaxsni ta'lim sub'ekti sifatida ko'rib, olimlar uni o'rganishga undaydigan omillarni ham ajratib ko'rsatishadi: bilimning haqiqiy darajasi va muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan nomutanosiblikni bilish; bilimning haqiqiy darajasi va tushunish uchun zarur bo'lgan faoliyatning ijtimoiy shartlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni anglash; insonning shaxsiy mavjudligidan tashqariga chiqadigan va global xarakterga ega bo'lgan muammolarni chuqurroq tushunish istagi; o'zini chuqurroq tushunish istagi; axborotni mustaqil izlash istagi, yangi ta'lim texnologiyalari bilan muloqot qilish zarurati; kasbiy rivojlanish istagi; mos yozuvlar guruhi nazarida yuqori ball olish istagi [3].

Inson yoshi qanchalik katta bo'lsa, yillar davomida paydo bo'lgan ko'plab ichki to'siqlar tufayli uning ta'lim jarayonlarida ishtirok etishi shunchalik qiyin bo'ladi. Keling, ulardan eng keng tarqalganini qisqacha ko'rib chiqaylik.

Psixofiziologik. Ba'zi kattalar o'rganish qobiliyatiga nisbatan ichki to'siqni rivojlantiradilar. Bu ma'lum darajada yoshga qarab ta'lim ma'lumotlarini idrok etish, eslash va takrorlash qobiliyatining pasayishi haqidagi afsonaga asoslanadi. Biroq, olimlar har qanday yoshda muvaffaqiyatli o'rganish mumkinligini isbotladilar. Hayotning turli davrlarida turli xil xotira funktsiyalari va e'tiborning har xil turlari birinchi o'ringa chiqadi, motivatsiya o'zgaradi, lekin umuman olganda, kattalar har doim ma'lumot bilan optimal ishlashning tegishli individual usullarini ishlab chiqishga qodir. Bu, agar u o'rganish sub'ekti sifatida o'zining xususiyatlari haqida bilimga ega bo'lsa va o'rganish uchun barqaror motivatsiyani rivojlantirsa, mumkin bo'ladi.

Ijtimoiy va psixologik. Ko'pgina kattalar o'zlarini noqulay his qilishadi, ba'zan hatto qo'rqishadi, o'quvchining pozitsiyasida. Bu, ayniqsa, ma'muriy

zinapoyada ma'lum bir ijtimoiy mavqega ega bo'lgan odamlar uchun to'g'ri keladi. Psixologik jihatdan ular vaziyatni o'zgartirishga va ixtiyoriy ravishda pedagogik ta'sirning "ob'ekti" ga aylanishga tayyor emaslar.

Ijtimoiy. Jamiyat tomonidan ta'limning yangi darajasiga bo'lgan talabning yo'qligi yoki uning kasbiy mavqega ega bo'lishi ko'pincha kattalar uchun o'z ta'limini davom ettirish (konstruktsiya qilish) uchun ma'nosiz qiladi.

Psixologik va pedagogik. Kishining butun hayoti davomida ta’lim olish zarurligi to’g’risidagi vazifaning shakllanmaganligi zamonaviy mutaxassisning o’z kasbiy mahoratini doimo oshirib borishi shart ekanligi e’tiborga olinmaydi. Ayrim hollarda kishilar kattalar ta’lim olishi mumkinligi haqida tasavvurga ega bo’lmaydilar. O’qitish jarayoniga qo’shilar ekan, katta odam faol o’rinni egallaydi. Hayotiy tajriba va sub’ektiv munosabat, zamonaviy odamga ta’lim jarayonini baholash hamda o’qitish usullarini tanlash imkonini beradi. Uning uchun dars berayotgan o’qituvchi va tinglovchilarning ham shaxsiy, kasbiy sifatlari muhim sanaladi.

Zamonaviy inson uchun umrbod ta'lim olish zarurligini tushunmasligi ta'limning uzluksizligiga, shuningdek, kognitiv mavjudot sifatida o'zi haqida, o'z qobiliyatlari, o'quv materialini idrok etish va o'zlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, axborot ehtiyojlari to'g'risida zarur bilimlarning etishmasligi ham to'sqinlik qilishi mumkin. Va nihoyat, kattalar yoshdagilar ta'limining mavjud shakllaridan shunchaki xabardor bo'lmasligi mumkin.

O’qitish jarayoniga qo’shilar ekan, katta odam faol o ’rinni egallaydi. Hayotiy tajriba va sub’ektiv munosabat, zamonaviy odamga ta’lim jarayonini baholash hamda o’qitish usullarini tanlash imkonini beradi. Uning uchun dars berayotgan o’qituvchi va tinglovchilarning ham shaxsiy, kasbiy sifatlari muhim sanaladi. Shuning uchun kattalarni o’qitish o’zaro hamkorlik, o’zaro yordam va o’zaro birdamlik muxitida amalga oshiriladi. Katta odamni o’qitish jarayonida u o’z tajribalari bilan o’rtoqlashishni ko’proq maqul ko’radi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Agapova O.B. Uroki dlya vzroslix , 2003. – 68 b.
2. Andragogika. Material k glossariyu, pod red. S.G.Vershlovskogo, M.G.Ermolaevoy.
3. Obrazovanie vzroslix: opit i obmeni/ pod red. S.G. Vershlovskogo. -Znanie, 2002. – 167 b.
4. Zmeev S. I. Andragogika: Stanovlenie i puti razvitiya // Pedagogika. -1995.-№2.
5. Zmeev SI. Texnologiya obucheniya vzroslx. - M , 2002.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Kurbaniyazova Z.K.
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute
«Boshlang‘ich ta’lim» kafedrasi mudiri,
pedagogika fanlari doktori, professor

Tayanch so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim tizimi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, zamonaviy tendensiyalar, raqamlashtirish, inklyuzivlik, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik tayyorgarlik.
Ключевые слова: система начального образования, ученики начальных классов, будущие учителя начальных классов, современные тенденции, цифровизация, инклюзивность, компетентностный подход, педагогическая подготовка.
Key words: primary education system, primary school students, future primary school teachers, modern trends, digitization, inclusiveness, competence approach, pedagogical training.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada bugungi globallashuv sharoitida boshlang‘ich ta’lim tizimining rivojlantirish tendensiyalari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, boshlang‘ich sinflarda ta’limning sifatini oshirish va bunga pedagog-kadrlarni tayyorlash masalalari tahlil etilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье рассматриваются тенденции развития системы начального образования в условиях современной глобализации, анализируются вопросы повышения качества образования в начальных классах и подготовки педагогических кадров.
SUMMARY:
The article examines the development trends of the primary education system in the conditions of today's globalization, and analyzes the issues of improving the quality of education in primary classes and training pedagogues for this.

Boshlang‘ich ta’lim – bu har bir bola shaxsning har tomonlama rivojlanishida eng muhim va alohida ahamiyatga ega bo‘lgan bosqichi hisoblanadi. 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim tug‘risidagi Qonunining 9-moddasida boshlang‘ich ta’lim (I-IV sinflar) umumiy o‘rta ta’limning asosiy bosqichlaridan biri bo‘lib, «Boshlang‘ich ta’lim ta’lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga

qaratilgan»ligi alohida ko‘rsatib o‘tilgan [1]. Chunki, aynan boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarda funksional savodxonlik asoslari - o‘qish, yozish va hisoblash qobiliyatlari shakllanadi va rivojlanadi. Ta’limga kompetensiyaviy yondashuv paradigmasi asosida o‘quvchilarga fanga doir chuqur bilim berish bilan birga ularda hamkorlik, ijodkorlik, muloqot, tanqidiy va kreativ fikrlash hamda moslashuvchanlik kabi ko‘nikmalarni shakllantirish boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifasiga aylanmoqda. Bu esa o‘z navbatida o‘qitish metodlari, shakl va texnologiyalarini, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishni, bolalar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarni baholash va qo‘llab-quvvatlashning samarali usullarini qo‘llashni taqozo etadi.

Boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishga doir jahon tajribasisi shuni ko‘rsatadiki bugungi kunda jamiyatimizning barcha jabhalarida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar, globallashuv, texnologik taraqqiyot, raqamlashtirish sharoitlari global miqyosda boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, nafaqat ta’lim shakllari va metodlari, balki ta’limning maqsadlarini bugungi tez o‘zgaruvchan dunyoga ijtimoiylashuv hamda bolalarni mustaqil hayotga tayyorlashga yo‘naltirilgan holda belgilashni talab etadi. Chunki bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim tizimida:

- ta’limning maqsadi va mazmunini zamonaviy talablar hamda raqamli asr kontekstiga moslashtirish;
- bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash tizimini takomillashtirish;
- bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini pedagogik innovatsiyalarni qo‘llash va turli risklarga tayyorlash;
- raqamli ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish;
- boshlang‘ich ta’limning inklyuzivligi sharoitiga moslashuvchan ta’lim dasturlarini takomillashtirish singari yirik muammolarni hal etishning ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqishni talab etiladi.

Qo‘yidagi yo‘nalishlarda izlanishlar olib borish bu kabi muammolarni hal etishga o‘zining samarali ta’sirini ko‘rsatadi:

1. Boshlang‘ich ta’lim tizimini rivojlantirishning asosiy zamonaviy tendensiyalarini aniqlash, tavsiflash va tizimlashtirish, shuningdek, mintaqaviy, ijtimoiy va madaniy kontekstni hisobga olgan holda ularni amalga oshirish shartlari va istiqbollarini aniqlashda xalqaro va milliy tajribalarni, jahon ta’lim strategiyalarini o‘rganish. Bunda butun ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlarining samaradorligi va barqarorligini baholash, shu jumladan boshlang‘ich ta’lim tizimiga tanqidiy-tahliliy yondashuv tamoyiligi suyanish maqsadga muvofiqdir. Bunda mavjud ta’lim siyosat va strategiyalari, ta’lim

tizimining sifati va samaradorligiga tashqi omillarning (ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, infratuzilmaviy) ta'sirini ilg'or xorijiy tajribalarni madaniy va mintaqaviy o'ziga hos jihatlarini inobatga olgan holda yurtimiz ta'lim tizimiga transformatsiya qilish imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratish o'zining samarasini beradi.

2. Jahon miqyosida boshlang'ich ta'limni rivojlantirishga doir ta'lim modellarini o'rganish. Qiyosiy yondashuv rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlardagi (Finlyandiya, Singapur) ta'lim tizimining tahlili natijasida boshlang'ich ta'lim tuzilmasi (bolalarning yosh davri, ta'limning davomiyligi, o'quv yuklamasi); o'quv dasturlarining kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni joriy etishga yo'naltirilganligi; o'quv jarayonini raqamlashtirish; boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi va ularni qo'llab-quvvatlash tizimning shakllanganligi; ta'limning natijalarini baholash va individual ta'lim yo'nalishlarini shakllantirishga doir tajribalarni ilmiy jihatdan o'rganish.

3. Boshlang'ich ta'lim tizimini takmillashtirishga doir olib borilgan ilmiy manbalarni tahlil etish va ulardan olingan empirik ma'lumotlarni umumlashtirish lozim. Bunda boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va o'qitish metodikasi, boshlang'ich ta'lim tizimida raqamli ta'lim texnologiyalarini qo'llash, boshlang'ich ta'lim tizimida inklyuziv ta'lim hamda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yordam ko'rsatish, boshlang'ich sinflarda baholash muammolari, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi va mahorati singari yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borish. Bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlar shunik ko'rsatadiki, bugungi kunda boshlang'ich ta'limda rivojlantirishning qo'yidagi asosiy tendensiyalarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

1. Boshlang'ich ta'limni rivojlantirishga kompetensiyaviy yoshdashuv. Chunki bugunga kunda jahon miqyosida an'anaviy reproduktiv ta'limdan kompetensiyaviy ta'lim modeliga o'tish ta'lim islohotlarining markaziy tendensiyalaridan biriga aylandi. Bunda asosiy e'tibor bilimlarni o'zlashtirishga emas, balki ularni real hayotiy vaziyatda qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmoqda. Boshlang'ich ta'lim tizimida ushbu yondashuv ikkita yo'nalishda amalga oshiriladi.

Uning birinchisi boshlang'ich sinf o'quvchilarining egallagan bilimlarini amalda, ya'ni ijtimoiy hayotda qo'llay olish malakalariga ega bo'lishi hisoblanadi. Chunki, boshlang'ich ta'lim doirasida asosiy e'tibor metapredmetli deb ataladigan kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilmoqda, jumladan:

- tanqidiy fikrlash - tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish qobiliyati;

- ijodkorlik - nostandart fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyati;

- kommunikativ ko‘nikmalar - tengdoshlari va kattalar bilan samarali muloqot qilish;

- hamkorlik - jamoada ishlash, kelishib olish, vazifalarni taqsimlash qobiliyatiga asoslangan 4K modeli hisoblanadi.

Ikkinchisi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishi hisoblanadi. Bugungi kunda har bir o‘qituvchidan o‘z faoliyatiga innovatsion yondashuv, bilimlarini tovarga aylantirish hamda ta’limda tijoratlashtirish, raqamlashtirishga bo‘lgan ijtimoiy buyurtmadan kelib chiqqan holda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ushbu jarayonlarga tayyorlash, bu jarayonlarda uchraydigan turli risklarni yengib o‘tish va samarali hal etish yo‘llarini qo‘llashga o‘rgatish talab etiladi.

2. Boshlang‘ich ta’lim tizimida ta’limni raqamlashtirish va aralash ta’lim shakllarini qo‘llash. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash butun ta’lim tizimi, shu jumladan boshlang‘ich ta’limni ham zamonaviy shaklga o‘tkazishning ajralmas qismiga aylanmoqda. Boshlang‘ich sinflarda elektron kundalik va jurnallar, Google Classroom, Moodle, Kundalik kabi ta’lim platformalaridan foydalanish; boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining vizuallikka bo‘lgan qiziqishlariga doir psixologik hususiyatlarini inobatga olgan holda ko‘rgazmalilikni oshirish va qiziqishni kuchaytiruvchi interaktiv hamda multimedia materiallarini qo‘llash; moslashuvchanlik va qulaylikni ta’minlovchi masofaviy va aralash ta’limni joriy etish imkoniyatlarini kengaytirish, ushbu jarayonlarga bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash raqamli transformatsiyaning asosiy yo‘nalishlari sifatida qaralishi lozim. Bunda raqamlashtirishning samaradorligi raqamli infratuzilmaning sifati bilan o‘qituvchilar va o‘quvchilarning raqamli savodxonligiga bog‘liq.

3. Boshlang‘ich ta’limda inklyuziv ta’limni doriy etish. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim tug‘risidagi Qonunining 15-moddasida inklyuziv ta’lim – bu ta’lim shakllarining biri kanligi, 20-moddasida esa «inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etilishi», - belgilab berilgan.

inklyuziv ta’lim (I-IV sinflar) umumiy o‘rta ta’limning asosiy bosqichlaridan biri bo‘lib, «Boshlang‘ich ta’lim ta’lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan»ligi alohida ko‘rsatib o‘tilgan [1].

Boshlang‘ich sinflarda inklyuziv ta’lim har bir bola, shu jumladan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ham tengdoshlari bilan birgalikda sifatli ta’lim olishlari uchun sharoitlar yaratib berishga qaratilgan ta’lim bo‘lib, bunda boshlang‘ich ta’limning mazmuni va shakllari bolalarning turli xil ehtiyojlariga moslashtirilishi, bu bolalarga mos yordamchi texnologiyalardan foydalanish (masalan, matn sintezatorlari, ekran kattalashtiruvchilari, muqobil aloqa vositalari) hamda bugungi kun talabalari, ya’ni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini geterogen (turli darajadagi) sinflarda ishlashga pedagogik tayyorlash singari ishlarni amalga oshirishni talab etadi. Inklyuziv ta’lim tizimli rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarning ota-onalar o‘rtasida mamnunlik darajasining o‘sishi kuzatilmoqda. Masalan, Kanada va Norvegiya davlatlari bu borada katta tajribaga ega davlatlar hisoblanadi [2]. Biroq, ko‘pchilik davlatlarda inklyuziv ta’lim tizimida qator muammmolar va kamchiliklarning mavjudligi ma’lum. Bu borada kompetentli kadrlar tayyorlash, inklyuziv ta’limni yo‘lga qo‘yishda sinfdagi bolalar kontingenti yoki bo‘lmasa ushbu tizimga jiddiy sarmoyalar kiritishlar bu kabi muammolarga misol bo‘la oladi.

4. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini faqatgina dars beruvchi pedagog emas, balki uning o‘quv jarayoni va hamkorlikni tashkil etuvchi fasilitatorlik, har bir o‘quvchining salohiyatini rivojlantiruvchi ustoz-kous singari ko‘plab rollarni bajarishga tayyorlashni taqozo etadi. Ba’limda o‘qituvchining avtoritar boshqaruv stili emas, balki o‘quvchilarning ichki o‘quv motivatsiyasini shakllantirishga ko‘maklashuvchi rag‘batlantiruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘lmog‘i lozim. Bu o‘qituvchidan nafaqat fan bo‘yicha tayyorgarlikni, balki yumshoq ko‘nikmalarni: hissiy intellekt, empatiya, fikrlash moslashuvchanligi, jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishni ham talab qiladi.

5. Boshlang‘ich sinflarda bolalarnining bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantiruvchi baholash stilida amalga oshirish. Ta’limning natijalarini baholash tobora ko‘proq xatolarni topishga emas, balki rivojlanishga yo‘naltirilmog‘i maqsadga muvofiq. Bunda bolalar uchun ularning o‘zlarining erishgan yutuqlarini o‘zlari ko‘ra bilish, ulardan huzurlanish va shaxsiy rivojlanishiga va uni o‘zi tahlil qilishga yo‘naltirilgan refleksiv topshiriqlardan, natija uchun mas’uliyatni shakllantiruvchi o‘zini o‘zi baholash va o‘zaro baholash usullaridan foydalanish o‘zining natijasini beradi.

Xulos qilib shuni ta’kidlash joizki, XXI asrda boshlang‘ich ta’limning rivojlanishi yurtimizda ta’lim tizimi bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bir qatorda davr talab etayotgan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasi, ta’limga kompetentli yondashuv paradigmasi, metapredmetli paradigmalar singari paradigmalarga asoslangan holda tashkil etilishi bilan

bog‘liqdir. Boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quvchilarning egallagan bilimlarini amalda qo‘llash, real vazifalarni yechish, tanqidiy fikrlash va boshqalar bilan hamkorlik qilish qobiliyatini rivojlantirish, ta’limni raqamlashtirish, ta’lim jarayonida inklyuziya, o‘qituvchining rolini kuchaytirish, pedagog ma’lumot uzatuvchi emas, balki bola shaxsiyatini rivojlantirishda fasilitator, murabbiy va ustoz sifatida namoyon bo‘lishi, nazorat va jazolarga emas, balki o‘quvchining shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan shakllantiruvchi baholash tizimiga asoslangan ta’limni tashkil etish kelajak avlod uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Demak, bugungi kunda boshlang‘ich ta’limga jamiyatning barqaror rivojlanishi, innovatsion salohiyati va ijtimoiy barqarorligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan strategik ustuvor yo‘nalish sifatida qarash lozim. Chunki boshlang‘ich ta’lim – bu nafaqat bitta bolaning, balki butun millatning kelajagi uchun muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим туғрисидаги Қонуни. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон; https://lex.uz/docs/5013007

2. Мельник Ю.В. Сравнительный анализ общего инклюзивного образования в странах Запада (Канада, США, Великобритания) и России. Автореф.дисс.к.п.н.- Пятигорск, 2012. – 23 с.

3. Муминов А.Г. Реформы в образовании Узбекистана: состояние и перспективы. Бюллетень науки и практики. – 2019. Т.5. №9. С.472-483

4. Шаманская Т.В. Начальная школа: проблемы и перспективы развития.

KIMYO FANINI O‘QITISHDA SABAB-OQIBAT DIALEKTIK MUNOSABATLARINI O‘RNATISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MEZONI

Qodirova M.A.
KDU mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch so‘zlar: kritik fikrlash, sabab-oqibat munosabatlari, intellektual ko‘nikmalar, kimyo ta’limi, tahlil va sintez.
Ключевые слова: критическое мышление, причинно-следственные отношения, интеллектуальные навыки, химическое образование, анализ и синтез.
Key words: critical thinking, causal relationships, intellectual skills, chemistry education, analysis and synthesis.

РЕЗЮМЕ:
Kimyo fanini o‘qitishda sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish o‘quvchilarning intellektual-kognitiv faoliyatini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Ushbu maqolada sabab-oqibat dialektik munosabatlarini shakllantirish mezonlari, tanqidiy fikrlash bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantirish metodlari hamda olingan natijalarni baholash mezonlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari sabab-oqibat munosabatlari orqali kimyoviy jarayonlarni tushunish darajasini oshirishga qaratilgan ta’lim yondashuvlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.
РЕЗЮМЕ:
Установление причинно-следственных отношений в обучении химии является важным фактором развития интеллектуально-когнитивной деятельности учащихся. В данной статье рассматриваются критерии формирования причинно-следственных диалектических отношений, методы развития навыков критического мышления, а также критерии оценки полученных результатов. Результаты исследования направлены на повышение эффективности образовательных подходов, способствующих более глубокому пониманию химических процессов через анализ причинно-следственных взаимосвязей.
SUMMARY:
Establishing causal relationships in chemistry education is a crucial factor in developing students’ intellectual and cognitive activities. This article examines the criteria for forming causal-dialectical relationships, methods for developing critical thinking skills, and criteria for evaluating learning outcomes. The research findings aim to enhance the effectiveness of educational approaches that improve students' understanding of chemical processes through causal analysis.

Kirish. Kimyo ta’limida sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga, kimyoviy jarayonlarni

tushunish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida sabab-oqibat munosabatlarini shakllantirish, ularni tahlil qilish va sintez qilish, yangi bilim yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon faqatgina kimyoviy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmay, balki o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Sabab-oqibat munosabatlarini o‘rganish orqali o‘quvchilar har qanday hodisalar orasidagi bog‘liqlikni tushunishga, ilmiy gipotezalar ishlab chiqishga va asosli xulosalar chiqarishga o‘rganadilar. Shuningdek, bu yondashuv axborotni tahlil qilish, muammolarni hal qilish va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarning o‘z xulosalarini asoslash, argumentlarni tahlil qilish va mantiqiy natijalar chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirish sabab-oqibat munosabatlarining ta’lim jarayonidagi o‘rnini yanada oshiradi.

Shunday qilib, ushbu maqolada kimyo fanini o‘qitishda sabab-oqibat munosabatlarini shakllantirish mezonlari, tanqidiy fikrlash bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantirish metodlari va olingan natijalarni baholash mezonlari tahlil qilinadi. Mazkur yondashuv asosida kimyoviy jarayonlarni chuqur tushunish hamda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish imkoniyatlari yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Kimyo ta'limida sabab-oqibat aloqalarini shakllantirish muhim metodik vazifa hisoblanadi. Ushbu mavzuni yoritishda bir qator ilmiy ishlar tahlil qilindi. Яркикс Л.А. [5]o'z tadqiqotida kimyo o'qituvchisining faoliyatiga e'tibor qaratib, o'quvchilarda sabab-oqibat aloqalarini aniqlash ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini o'rgangan. Uning tadqiqoti natijalari kimyo o'qituvchilarining pedagogik yondashuvlaridan foydalangan holda ushbu ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Жданова В.В. [2] o'z ishida jumlalar tarkibidagi imennoy sababiy guruhlar yordamida sabab-oqibat aloqalarining qanday ifodalanishini tahlil qilgan. Bu tadqiqot lingvistik jihatdan sabab-oqibat munosabatlarining shakllanish mexanizmini tushunishga yordam beradi.

Жарких Л.А. [1] tomonidan olib borilgan izlanishlar kimyo o'qituvchisining o'quvchilarda sabab-oqibat aloqalarini shakllantirishdagi roliga bag'ishlangan bo'lib, u ta’lim jarayonida bunday bog‘lanishlarni mustahkamlash uchun amaliy yondashuvlarni tavsiya etgan. Очирова Л.П. [3] tomonidan olib borilgan tadqiqot esa o'quvchilarning sabab-oqibat bog'lanishlarini shakllantirishga qaratilgan metodlarni o'rganishga bag'ishlangan. Uning natijalari kimyo ta'limida analitik tafakkurni rivojlantirish uchun metodik asos sifatida xizmat

qiladi. Прожога А.В. [4] esa sabab-oqibat aloqalarining rasmiy va norasmiy muloqotda qanday ifodalanishini tahlil qilgan. Bu esa ta'lim jarayonida, ayniqsa, fanlararo yondashuvlar doirasida sababiy bog‘lanishlarni tushuntirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotda eksperimental va nazariy tahlil usullari qo‘llanildi. Eksperimental usul o‘quvchilarning sabab-oqibat aloqalarini shakllantirish jarayonini amaliy ravishda o‘rganish imkonini berdi. Tajribalar kimyo darslarida turli didaktik materiallar va interfaol metodlar asosida o‘tkazildi. Nazariy tahlil usuli esa mavjud ilmiy adabiyotlarni o‘rganish va ularni kimyo ta’limi kontekstida tahlil qilishni o‘z ichiga oldi. Bu metod sabab-oqibat aloqalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyatini chuqurroq tushunishga imkon berdi. Shuningdek, pedagogik kuzatuv, diagnostik testlar va o‘quvchilar bilan suhbat usullari ham qo‘llanildi. Bu usullar yordamida o‘quvchilarning sabab-oqibat munosabatlarini anglash darajasi baholandi va ta’lim jarayonida qanday metodlar samaraliroq ekanligi aniqlab olindi. Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilindi va natijalar qiyosiy baholash orqali xulosa chiqarildi.

Natijalar va muhokama. Sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish - o‘rganilayotgan jarayon va hodisalarning sabab-oqibatlarini aniqlash qobiliyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Ta’lim tizimida ushbu texnologiyalarni intellektual-kognitiv faoliyatning yuqori darajasiga o‘tkazish lozim, ya’ni sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilish, olingan bilimlarni sintez qilish, umumlashtirish va yangi bilimlarni yaratish zarur, bundan tashqari bilish va o‘quv-tadqiqot, ilmiy-tadqiqot faoliyatining barcha bosqichlarida mulohaza yuritish, ya’ni o‘z-o‘zini hisobot qilish, o‘z-o‘zini tahlil qilish va o‘z-o‘zini to‘g‘rilash ko‘nikmalarini ham rivojlantirish zarur.

Tanqidiy fikrlash rivojlanishi va shakllanishiga oid zamonaviy kontseptsiyalar asosi sifatida foydalanilib, tanqidiy fikrlash bilan bog‘liq bo‘lgan muammoni aniqlash qobiliyati, yechimlarni topish qobiliyati, ishonchlilik va haqiqiylik mezoniga muvofiq kerakli ma’lumotni topish qobiliyatlarini, odamlarning nuqtai nazarini tushunish, faktlarni aniqlash orqali axborotni izohlash, dalillarni muallifning shaxsiy fikridan ajratish, o‘rganilayotgan hodisalarning sabab va oqibatlarini aniqlash, asosli qarorlar qabul qilish, umumlashish, olingan natijalarni baholash qobiliyati, o‘z xulosalarini to‘g‘rilash va atrof dunyo to‘g‘risida mantiqiy izchil hukmlar va xulosalar chiqarish ko‘nikmalar to‘plamini o‘zaro bog‘liq holda shakllantirish talab etiladi.

1-jadval.

Sabab-oqibat munosabatlari asosida sintez jarayonining intellektual ko‘nikmalari

Sabab-oqibat munosabatlari asosida fikrlar sintezi va yangilikka kombinatsiyalashtirish elementlari bilan ishlov berish ko‘niklari darajasi			
Asoslovchi fikrlarni shakllantirish maqsadida o‘rganilayotgan hodisaning sabab-oqibatlarini topish ko‘nikmalari	Tahlil qilish asosida muammoni hal qilishga doir gipotezalar tuzish ko‘nikmalari	Natijalarni tahlil qilish mobaynida turli g‘oya, nazariya va konsepsiyalarni aniqlash va qo‘llash ko‘nikmalari	Xulosalash va umumlashtirish jarayonida malumotlardan asosli foydalanish yoki voz kechish ko‘nikmalari

Endilikda pedagogika sohasida ta’lim oluvchilarda kerakli ma’lumotlarni izlash, axborotning haqiqiyligini tahlil qilish va baholashni o‘rgatish, tizimida muammoni butunligicha har tomonlama ko‘rib chiqish, muammoni aniqlash va to‘g‘ri shakllantirish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, argumentlarni keltirib asoslangan pozitsiyani shakllantirish, o‘zgaruvchan vaziyat yoki yangi olingan ma’lumotlarga asoslanib o‘z pozitsiyasini o‘zgartirish qobiliyatlarini shakllantirish ta’lim jarayonining asosiy maqsadiga aylandi.

Sabab-oqibat munosabatlari prizmasi asosida yondashuv fikrlashning asosiy ko‘rsatkichlarini aniq va bexato aniqlashga imkon beradi, chunki ular tahlil, sintez, sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish, o‘z pozitsiyasini argumentlash, bajarilgan ish va olingan natijalarni aks ettirish kabi har tomonlama chuqur yondashuvlarga asoslangan aqliy faoliyatning turlarini mujassamlashtiradi. Shakllangan tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o‘lchash va tashxislashning turli usullari mavjud bo‘lib, ular tadqiqotlarning haqiqiyligi, aniqligi va ishonchliligini ta’minlaydi.

2-jadval

Sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish ko‘rsatkichlari

Intellektual ko‘nikmalar	**Qisqacha tavsif**
Tahlil ko‘nikmasi	O‘rganilayotgan obyektni hayolan tarkibiy bo‘laklarga ajratish va har bir elementar komponentini tuzilish birligi sifatida o‘rganib chiqish
Sintez ko‘nikmasi	O‘rganilayotgan obeyktning tarkibiy qisimlarini yoki xususiyatlari elementlarini hayolan birt butunlikda bog‘lash ko‘nikmasi
Sababni oqibatga oqibatni sababga bog‘lash ko‘nikmasi	O‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarning sababi orqali oqibatni yoki oqibati orqali sababini aniqlash ko‘nikmasi

Asoslash (argumentlash) ko‘nikmasi	Asoslarni, fakt, isbot, dalillarni topish ko‘nikmasi; O‘z fikrini ishonchli, tartibli, tushunarli yetkazib berish ko‘nikmasi
Refleksiya ko‘nikmasi	O‘zining aqliy faoliyatini, erishgan natijalarini (o‘z-o‘zini baholash), bajargan ish sifatini baholay olish, xatolarini ko‘ra bilish va kelgusida ularni to‘g‘irlash ko‘nikmasi

O‘quv axborotlarini vizuallashtirish o‘quvchilardan analitik va sintetik ko‘nikmalarga ega bo‘lishni, shuningdek, sabab-natija munosabatlarini o‘rnatishni talab qiladi.

Sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish ko‘nikmalariga quyidagilar kiradi:

sabablar to‘plamidan foydalanib natijani, ro‘y berishi mumkin bo‘lgan oqibatni ko‘ra bilish (ilmiy bashorat);

nafaqat alohida sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, balki sabablar kompleksini hisobga olish, ko‘p tomonlama bog‘lanishlarni ko‘rsatib berish;

sabab-oqibat munosabatlarini sxema, model shaklida ifodalash.

Kimyoga doir kognitiv faoliyat natijalarini baholash mezonlari, sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish ko‘nikmalarini shakllanishi natijalarini baholash mezonlari, natijalar tahlili, refleksiya, keyingi faoliyatlarni rejalashtirish, natijaga aniq baho berish faoliyatlarini monitoring bloki o‘zida mujassamlashtirgan.

Zamonaviy kimyo ta’limi insonlarning manfaatlari, talablari va hayotiy qadriyatlari bilan bevosita bog‘liq muammolarni tobora ko‘proq hal etishga qaratilmoqda. Hozirda bilimlar samarali bo‘lishi, tez o‘zgarib borayotgan ijtimoiy va tabiiy muhitda o‘quvchilarni hayot barqarorligiga tayyorlashi kerakligi allaqachon ayon bo‘lgan. Buni ta’lim to‘g‘risidagi qonunlar, zamonaviy ta’limni modernizatsiya qilish borasidagi qarorlar, kimyo ta’lim konsepsiyasidagi o‘zgarishlar ham tasdiqlaydi. Ularga ko‘ra, kimyo fanini o‘qitish jarayonida kimyoviy bilimlar bilan insonning kundalik hayoti o‘rtasidagi bog‘liqlikni, turli vaziyatlarda ularning oldida paydo bo‘ladigan muammolarni, ularga yechim yo‘llarini ochib berishi talab etiladi.

Hozirgi kunda ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan vazifalar sirasiga nafaqat malakali ijrochini yetishtirish, balki bugungi axborot oqimidan samarali foydalanadigan, murakkab munosabatlarga boyib borayotgan hayot davomida mustaqil va oqilona qaror qabul qiluvchi, voqea, hodisalarga, vaziyatga mustaqil baho beruvchi va shunga muvofiq faoliyat tashkil etuvchi kadrlarni yetishtirish vazifasi ham kiradi. Inson hayoti va faoliyati uchun kelajakda foydalanish uchun to‘plangan zahiralar, o‘rgangan har bir narsaning qandaydir ichki yuklamalar zaxirasiga ega bo‘lishi emas, balki funktsional faoliyat fazilatlarini namoyon qilish va undan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun o‘quvchilar tomonidan yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni, jumladan, o‘rganish qobiliyatini mustaqil o‘zlashtirish muammosi ahamiyat kasb etib, bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Buning uchun universal o‘quv faoliyatini rivojlantirish katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Universal o‘quv faoliyati - bu o‘quvchilarni turli fan sohalarida ham, o‘quv faoliyatining o‘zi tuzilmasida ham keng yo‘naltirish, shu jumladan o‘quvchilarning maqsadli yo‘naltirilganligi, qadriyat-semantik va operatsion xususiyatlarini anglab yetishi imkoniyatini ochib beradigan umumlashtirilgan faoliyatlardir.

Sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish o‘quvchilarida turli fanlar bo‘yicha shakllantiriladigan asosiy universal faoliyat yo‘nalishlaridan biridir. Bu borada kimyo ta’limi juda katta yuklama bilan fanlar markazida turadi.

Sabab-oqibat munosabatlarini shakllantirish uslubi aqliy faoliyatlarni bosqichma-bosqich shakllantiruvchi texnologiyasiga asoslangan. Pedagogika fanida sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash qobiliyatini shakllantirish muammosi ko‘pchilik tadqiqotlarda ham alohida o‘rin tutadi. Sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish qobiliyatini samarali shakllantirish uchun o‘qituvchi zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratishi kerak. Bunday pedagogik shartlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

o‘quvchilar mavjud hodisalar va yangi faktlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarga duch keladigan muammoli vaziyatlar yaratish;

o‘quvchilar yechim topishlari va ularni asoslab berishi kerak bo‘lgan ochiq vazifalar;

gipotezalar, taxminlar va ularni kichik guruhlarda muhokama qilish;

olingan bilimlarning amaliy ahamiyatini aniqlash va uni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash bo‘yicha takliflar.

Agar o‘qituvchi ijobiy ruhiy muhit va muvaffaqiyatga yo‘naltiruvchi vaziyatni yaratsa, bu o‘quv vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilishda turli xil o‘quv imkoniyatlariga ega bo‘lgan har bir o‘quvchiga ishonch bag‘ishlaydi.

Sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish qobiliyati bir qator mantiqiy operatsiyalarni (tahlil, sintezlash, taqqoslash, abstraktlashtirish, umumlashtirish) bajarishga asoslangan fikrlash va xulosalarni chiqarish orqali haqiqatni bilishning murakkab, integrativ jarayonidir.

Ta’lim faoliyati jarayonida sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish qobiliyati bir necha bosqichlardan o‘tishi kerak. Dastlab ushbu mantiqiy fikrlash uslubi maxsus assimilyatsiya predmeti sifatida, keyin obyektlar va hodisalar o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatish vositasi va nihoyat, maktab o‘quvchisi keyingi sinflarda muvaffaqiyatli intellektual rivojlanish uchun maktabda egallashi kerak bo‘lgan

umumiy universal ta’limiy-tarbiyaviy ko‘nikmalarning bir qismi sifatida faoliyat yuritadi.

Sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash ko‘nikmasi quyidagi tarkibiy elementlarni o‘z ichiga oladi:

taqdim etilgan hodisani (jarayon, voqelik, vaziyatni) tushunish;

hodisalarning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

fenomenning muhim belgilarini (sabablarini) aniqlash;

hodisaning mumkin bo‘lgan oqibatlari haqida hukmni shakllantirish.

fikrlash va xulosalar orqali qilingan taxminlarni asoslash.

Sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish ko‘nikmalarining bunday tuzilishi, o‘quvchilarning dastlab nisbatan sodda ko‘nikmalarga ega bo‘lishini nazarda tutadi:

obyektlarning xossalarini farqlash;

obyektlarning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lish;

obyektlardagi muhim va asosiy bo‘lmagan xususiyatlarni aniqlash;

obyektlarning o‘ta zarur va yetarli darajadagi xususiyatlarini ajratish;

predmetning detallari va kelib chiqishiga doir ma’lumotlarni o‘rganish;

eng oddiy xulosalarni chiqarish.

Tadqiqot qobiliyatlarini samarali rivojlantirish uchun o‘qituvchi zarur pedagogik shart-sharoitlarni, jumladan, ijobiy ruhiy muhitni, maqsadli pedagogik faoliyatning tashkillashtirilganligi, muvaffaqiyatga yo‘naltiruvchi muhitni yaratishi muhim, bu esa har bir o‘quvchiga murakkab ta’limiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishda ishonch, motivatsiya bag‘ishlaydi.

Bundan tashqari, faoliyatni tashkil qilishda o‘qituvchining ma’lum bir algoritmga rioya qilishi ham muhimdir:

o‘quvchilar mavjud hodisalar va yangi faktlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarga duch keladigan muammoli vaziyatlarni yaratish;

o‘quvchilarni o‘z g‘oyalari va taxminlarini shakllantirishga va ifoda etishga, kichik guruhlarda muhokama qilish orqali farazlarni ilgari surishga rag‘batlantirish;

o‘quvchilarni olingan bilimlarning amaliy ahamiyatiga yo‘naltirish.

Sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish qobiliyatini rivojlantirishning yana bir muhim sharti – o‘quvchilarning propedevtik (tayyorgarlik) ko‘nikmalariga asoslangan tadbirlarni tashkil etishdir. Bu turdagi bilimlar majmuasidan foydalanish o‘rganilayotgan materialni takrorlash va o‘quvchi tomonidan yangi faktlar bilan taqqoslash uchun zarur bo‘lgan bilimlarni ongli ravishda tanlab olish, ya’ni sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish bilan bog‘liq bo‘ladi.

Xulosa. Kimyo fanini o‘qitishda sabab-oqibat dialektik munosabatlarini shakllantirish o‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ushbu munosabatlarni o‘rnatish orqali o‘quvchilarning kimyoviy jarayonlarni tushunish darajasi oshadi, ularning tahlil qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatlari rivojlanadi. Sabab-oqibat munosabatlarini shakllantirishning ilmiy-metodik mezonlari hamda baholash kriteriyalari asosida samarali ta’lim yondashuvlari taklif etilgan. Kimyo ta’limida tanqidiy fikrlashga asoslangan interfaol metodlar va muammoli ta’lim texnologiyalarini qo‘llash sabab-oqibat munosabatlarini chuqur anglashga xizmat qilishi aniqlangan. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning fan bo‘yicha intellektual-kognitiv rivojlanishiga hamda mustaqil tahlil qilish qobiliyatining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Жарких Л.А. Деятелност учителя химии по развитию умений устанавливат причинно-следственные связи при решении воспитателных задач: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. СПб, 2004.

2. Жданова В.В. Простые предложения с именной причинной группой, выражающие причинно-следственные отношения в мире неживой природы: дис. … канд. филол. наук / В.В. Жданова. -М.: 1998.

3. Очирова Л.П. Формирование умений осуществлят причинно-следственные связи в обучении химии: Автореф. дис... кандидат педагогических наук. -Санкт-Петербург: 1995. -24 с.

4. Прожога А.В. Реализация причинно-следственных отношений в неофициальном и официальном диалоге (на материале английского языка): дис. … канд. филол. Наук. -Саранск: 2002.

5. Яркикс Л.А. Деятелност учителя химии по развитию умений устанавливат причинно-следственные связи при решении воспитателных задач: Автореф. дис... канд. пед.наук. –М.: 2004. -20 с.

KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING MASHG‘ULOTLARNI LOYIHALASHGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR

Xotamova A.O.
Karmana tuman 2-sonli politexnikumi informatika fani o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: kredit-modul tizimi, mashg‘ulotlarni loyihalash, kompetentlik, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, o‘quv jarayonini optimallashtirish, innovatsion yondashuvlar, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, multimedia vositalari.
Ключевые слова: кредитно-модульная система, проектирование уроков, компетентность, современные образовательные технологии, оптимизация процесса обучения, инновационные подходы, самостоятельная работа студентов, мультимедийные средства.
Key words: credit-module system, lesson design, competence, modern educational technologies, optimization of the learning process, innovative approaches, independent work of students, multimedia tools.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu ilmiy maqola kredit-modul tizimi sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning mashg‘ulotlarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishdagi muammolardan biri zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Maqolada mashg‘ulotlarni loyihalashda axborot texnologiyalarining integratsiyasi va ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar tahlil qilindi.
РЕЗЮМЕ:
Настоящая научная статья направлена на изучение возможностей современных информационных технологий, одной из проблем формирования компетентности будущих учителей в проектировании уроков по кредитно-модульной системе. В статье анализируются подходы, направленные на интеграцию информационных технологий в проектирование уроков и повышение эффективности обучения.
SUMMARY:
This scientific article is aimed at studying the possibilities of modern information technologies, one of the problems in developing the competence of future teachers in lesson design under the credit-module system. The article analyzes approaches aimed at integrating information technologies in lesson design and increasing educational efficiency.

Bugungi kunda bo‘lajak kadrlarni salohiyatli, yetuk, ijodkor, o‘z-o‘zini mustaqil rivojlantirish kompetensiyalariga ega qilib yetishtirish muhim masalalardan biridir. Bu borada, oliy ta’lim tizimida bo‘layotgan o‘zgarishlarning barchasi jahon mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga qaratilgan. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish lozimki, oliy ta’lim muassasalarini kredit-modul tizimiga o‘tkazilishi shunday samarali islohotlardan biridir.

bul revolyuciyanı jolǵa qoyıwımız, adamlardıń turmıs sharayatın jaqsılawımız, teńsizlikti kemeytiwimiz hám ádalatlı hám inklyuziv globallasıwdı qollap quwatlawımız kerek" degen unamlı pikirler aytılıp ótilgen edi.[1] Álbette bul ózgerisler insannıń ómiriniń barlıq tarawıları sıyaqlı joqarı bilimlendiriw tarawında erisilip atırǵan tabıslar júdá úlken tezlik penen rawajlanıp atır.

Ózbekstan prezidenti 2021-jılda "Jasalma intellekt texnologiyaların jedel engiziw ushın shárt-shárayatlar jaratıw ilajları haqqında"gı qarardı tastıyıqlaǵan edi.[2] Hújjet jasalma intellekt salasında mezgilli ekosistemanı hám onı shólkemlestiriwhsiler ushın zárúr shárt-shárayatlardı jaratıw, tarawdı huqıqıy tártipke salıw hám basqa máselelerdi názerde tutadı.

2024-jıldıń avgustında mámleket basshısı juwapkerlerge jasalma intellekt texnologiyaları orayın shólkemlestiriw boyınsha tapsırma bergen edi. Prezident jasalma intellektti engiziw strategiyası hám eki jıllıq joybarlar programmasın islep shıǵıw wazıypasın qoydı. Sol jıldıń oktyabrinde "Jasalma intellekt texnologiyaların 2030-jılǵa shekem rawajlandırıw strategiyasın tastıyıqlaw haqqında"gı prezident qararı qabıllandı.[3]

Jasalma intellekt texnologiyalarınıń payda bolıwı hám rawajlanıwı tálim sistemasına da óz tásirin tiygizbey qalmadı. Hátte bul texnologiyalardan paydalanıw basqa tarawlarǵa salıstırǵanda bir qansha ilgerilep ketpekte dep ayta alamız. Tálim sistemasına basqa informaciyalıq-kommunikaciyalıq texnologiyalar (IKT) dı kirgiziw, maslastırıw bir neshe jıllardı talap etken bolsa, jasalma intellekt texnologiyalarınıń rawajlanıwı kún sayın ósip, tálimge kiritiliwi, keń qollanılıwı da misli kórilmegen tezlikte ámelge asırılıp atır. Mine sol process payda etetuǵın túrli social tásirler, yaǵnıy tálim sistemasın basqarıwshı insanlar, tálim beretuǵın hám alıwshı sub'ektler arasındaǵı qatnaslar sistemasındaǵı social ózgerislerdi analiz qılıw ushın qánigelerge kóp waqıt talap etiwi úlken máselelerge alıp keliwi múmkin. Jámiyettegi social ózgerislerdi óz waqtında analiz etpeslik, ilimiy boljawlardı qoya almaslıq, keleshekte jasalma intellekttiń dúzetip bolmas unamsız aqıbetlerdi keltirip shıǵarıw múmkinshiligı artpaqta. Jámiyette qáliplesken social qádiriyatlar jáne onıń ornın iyelewi kútilip atırǵan jańa social qádiriyatlar arasındaǵı názik muwapıqlasıw hám teń salmaqlılıqtıń ilimiy sheshimlerin bere almasliǵımız social rezonanslar hám social teńsizliktiń payda bolıw múmkinshiligin asıradı.

Jasalma intellekttiń búgingi kúnde tálim processlerinde qollanılıwı. Joqarı tálim sistemasında jasalma intellektten paydalanıwshılardı 3 taypaǵa ajratıwımız múmkin.

Búgingi kúnde bul tálim alıwshılarınıń barlıǵı sistema múmkinshiliklerinen ózine tiyisli paydalanıp atırǵanlardı baqlanıp atır (1- súwret).



1-súwret. Tálim sistemasında jasalma intellekt paydalanıwshıları

Ásirese, Joqarı oqıw orınların basqarıw sisteması wákilleri tárepinen, yaǵnıy imtixan processinde studenttiń shaxsın avtomatikalıq túrde autentifikaciyalaw, onıń minez-qulıqları hám názeri baǵdarın anıqlaw hám onı baqlaw, xanadaǵı dawıslardı analiz qılıw, videodaǵı buzılıwlardı ońlaw hám esabatlar tayarlawǵa baǵdarlanǵan programmalıq sistemalar qollanılıp atır.

Professor-oqıtıwshı hám studentlerdiń qatnasın alıp barıw, sabaqlar sapasın tekseriw, studentler imtixanların tapsırıwda verifikaciya sistemalarınan keń paydalanıw gúzetilip atır. AQSh, Qıtay, Xindistan hám basqa mámleketlerde IKT salasında aldıńǵı mámleketler joqarı oqıw orınlarında bolsa professor oqıtıwshılar ornına jasalma intellekt studentlerge sabaq shınıǵıwların ótpekte.

Mısalı, Garvard universitetinde jasalma intellektke tiykarlanǵan bot studentlerge "Programmalastırıw tiykarlari" páninen sabaq ótpekte. Tálim beretuǵın sub'ekt retinde qatnasıwshılar, yaǵnıy pedagoglar tárepinen túrli jasalma intellekt programmaları, botlar járdeminde túrli oqıw materialları, elektron oqıw materiallar, tarqatpa materiallar, kesteler, logikalıq tapsırmalar, keysler, prezentaciya hám animaciyalıq video-sabaqlardı tayarlaw da bir qansha keń tarqalıp barmaqta.[4]

Tálim alıwshılar ishinde jasalma intelekttiń eń aktiv paydalanıwshı qatlamı bul álbette studentler qatlamı bolıp turıptı. Sonı da atap ótiw kerek, jasalma intellekt búgingu kúnde studentlerdiń haqıyqıy járdemshisine aylanıp úlgerdi. ChatGPT, Google Bard AI, Slidesaai ózbek tilinde iske túsirilgen. Qundız baba sıyaqlı qatar saytlar, botlar hám programmalar tekǵana olarǵa jańa-jańa maǵlıwmat hám tálim dáreklerin tabıwda xizmet etip atır, bálki olar ushın "uy wazıypalardı" da atqarıp berip atır.

Mısalı, ChatGPT sıyaqlı platformalar ǵárezsiz tálim túrleri esse, referat, túrli sızılmalar, gúrrińler, matematikalıq mısallardı sheshiw, túrli esabatlardı sekundlar ishinde tayarlap berip atır. Ásirese, shet el tillerin ózlestiriwge qaratılǵan "NeuroDub" sıyaqlı neyro jıynaq (neyro tarmaqlar)lar studentler ishinde keń keń tarqalǵan.

Dúnyanıń joqarı oqıw orınlarında keń úrip bolǵan aralıqtan oqıtıwda jurtımızda Ózbekstan Respublikası Ministrler Mákemesiniń 2022-jıl 3-oktyabrdegi "Joqarı tálim shólkemlerinde aralıqtan oqıtıw formasın engiziw ilajları haqqında"ǵı 559-sanlı qararı menen mámleket boylap 15 joqarı tálim

mekemelerinde aralıqtan formada tálim beriw jolǵa qoyılıp mıńlaǵan studentler oqıp atır.

Tálim platformasında, onlayn tálimde jasalma intellekt hám dipfeykdan paydalanıw múmkinshiliklerine jol qoymaw zárúrli. Usı qurallar tekǵana studenttiń júz dúzilisi ózgertiwi bálki dawıs sesler uyǵınlıqların da hátte óz ata-anasın parıqlay almas dárejede real jaǵdayında shıǵıwın támiyinlew imkaniyatın beriwi menen de qáwipli bolıp tabıladı. Eń ashınarlısı, sonı aytıp ótiw kerek, búgingi kúnde jasalma intellekt ilimiy dissertatsiyalardı da jazıwǵa kirdiler. Bul sıyaqlı islerdiń (Pitkeriw qaniygelik jumısı, magistrlıq dissertatsiyalarınıń) qorǵawǵa shıǵıp ketkenligin biykar ete alatuǵın qandayda bir dálil keltiriwimiz qıyın is. Tálimde jasalma intellekt penen baylanıslı jalataylıqlarǵa qarsı ne qılıw kerek? Bunıń ushın jasalma intellekt penen baylanıslı tálim jáne onıń sapasına baylanıslı processlerde payda bolǵan bul jańa talaplarǵa joqarı oqıw orınları professor-oqıtıwshılarınan zamanagóy IKT boyınsha kompetentligin keskin asırıw talap etpekte. Shet el tillerdi úyreniw baǵdarlarında oqıp atırǵan studentlerdiń tildi ózlestiriw kónlikpelerin bahalawda ásirese, aralıqtan oqıtıwda oqıp atırǵan studentlerdiń uyge wazıypalarda jasalma intellekt penen islenbegenlıgin anıqlaw sıyaqlı jańa quramalı jumıs procesi payda bolıp barıp atır. Búgingi kúnde tálim processinde qatnasıwshı barlıq professor-oqıtıwshılar jasalma intellekt tilin (keminde ingliz tilin) úyreniwi kerek. Neyro tarmaq tayarlanǵan tálim ónimlerinde házirshe stilistik, belgili bir til qálipi hám til grammatikası qaǵıydaların isletiwde ayrıqsha qátelerdi anıqlay biliwi kerek. Sonıń menen birge, pedagoglar intellektke tán individual intellekt, empatiya hám kreativlik máselelerine de kúshlirek itibar qaratıw da zárúr.

“Tálimde jasalma intellektten qanday paydalanıw múmkin? - degen sorawǵa ChatGPT tómendegishe juwap berip atır:

“Jasalma intellekt bilimlendiriw tarawında bir neshe paydalı múmkinshiliklerdi alıp keledi:

1. Individual oqıw baǵdarları: jasalma intellekt, oqıwshılardıń bilim dárejesinden kelip shıqqan halda biri birinen parıq etetuǵın arnawlı tálim programmasın dúziwde járdem beredi. Bul bolsa, hár bir student ushın eń optimal oqıw baǵdarların anıqlaw múmkinshiliklerin beredi.

2. Oqıtıwshılar ushın járdem: jasalma intellekt, oqıtıwshılarǵa oqıwshılarınıń ózlestirilgenligin anıqlaw hám olardıń oqıw hám jazıw qábiletlerin asırıwda járdem beriw ushın paydalanıladı. Bul, oqıtıwshılarǵa tolıq maǵlıwmat hám máslahátlar beriw, sonıń menen birge, tálim procesin monıtorıng qılıwda járdem beredi.

3. Adaptaciya hám individuallastırıw:

jasalma intellekt, hár bir oqıwshı ushın arnawlı tálimdi usınıwda paydalanıladı. Bul, oqıwshılardıń ózlestirilgen tálim baǵdarların, oqıw-usılların hám tájiriybelerin esapqa aladı.

4. Virtual realistik tájiriybe: jasalma intellekt, oqıwshılardı virtual ortalıqlarda úyreniw múmkinshiliklerin jaratıwda qollanıladı. Bul, virtual laboratoriyalar, ınteraktiv sabaqlar hám 3D model járdeminde kórsetpeler arqalı real tájiriybelerdi tákirarlaw hám úyreniw ushın ideal qural bolıp xızmet etedi.

5. Oqıtıwshı ózlestiriw: jasalma intellekt, oqıtıwshılardıń ózlestirilgen tálim texnologiyaları hám quralların rawajlandırıw hám bólisiwde qollanıladı. Bul, oqıtıwshılar ushın arnawlı programmalar dúziw, arnawlı qollanbalardı isletiw hám tálimniń eń jaqsı nátiyjelerin alıw ushın strategiyalardı belgilewde járdem beredi.

Jasalma intellekt, bilimlendiriw tarawındaǵı múmkinshiliklerin keńeytip baratırǵan texnologiya bolıp tabıladı, bıraq bul tarawda qoyılatuǵın máseleler hám qáwipli jaylardı úyretiw ushın mudamı talqılaw hám monıtorıng etiw kerek."

Massuchuts texnologiya institutı (MIT -Massachusetts Institute of Technology) Kompyuter pánleri hám jasalma intellekt laboratoriyası tárepinen ótkerilgen izertlew sonı kórsetedi, jasalma intellekt tez arada adamlardıń jumısın tartıp aladı, dep qáweterlenbeń, sebebi olar kárxanalar ushın júdá qımbat, jasalma intellekt qol miynetinen bir qansha qımbatqa túsedi. Ne bolǵanda da jasalma intellekt júdá kóp adamlardıń ornın basa almaydı. Sonday eken, biz ayta alıwımız múmkin, jasalma intellekt insanlardı tolıq ornın ele berli basa almaydı, bıraq onıń múmkinshiliklerinen paydalanıw múmkin.

Juwmaqlap aytqanda tálim mekemelerinde professor-oqııwshılardı jasalma intellekttiń islew sisteması menen jaqınnan tanıstırıw, bul sistema islew principleri hám sistema "tilin" úyreniwi dáwir talabı bolıp esaplanadı. Ayırım shet el universitetleri berilgen laboratoriya yamasa berilgen úy wazıypaların ChatGPT arqalı orınlanǵanlıǵı anıqlansa studentlerge salıstırǵanda keskin sharalar kórmekte. Joqarı tálim shólkemlerinde studentlerdiń neyro tarmaqtan aktiv paydalanıp atırǵanlıǵın hám oqıtıwshılar studenttiń haqıyqıy jumısın neyron tarmaq tárepinen jazılǵanın ajrata alıw oǵada qıyın jumıs ekenligin esapqa alıp beriletuǵın wazıypalardı ózgesheliginen kelip shıqqan halda cifrlı sistemadan (kompyuterde qadaǵalaw jumısları hám imtixanlardı) alıwdı kemeytip qaǵazǵa ótiliwi taǵı bir bólim oqıw wazıypalar óz betinshe tálim hám uyge beriletuǵın individual wazıypalardı kreativ, logikalıq analizge, óz-ara salıstıratuǵın, dóretiwshilik, toparlıq yamasa qol miyneti arqalı orınlanatuǵın wazıypalar menen almastırıw usınıs etiledi. Álbette, Internet tarmaǵından

belgili bir saytlardan paydalanıwdı usınıs etken halda paydalanıw múmkin. Bunnan tısqarı, studentlerden óz pikirleri erkin bayan etilgenligin tastıyıqlaw ushın óz jumıslarınıń qaralama nusqaların da usınıw talabı qoyılıwı kerek.

Álbette, texnologiyalıq rawajlanıwǵa qarsı turıw logikaǵa tuwrı kelmeydi, sol sebepli tálim shólkemleri neyro tarmaq hám onıń menen baylanıslı processlerdi izertlew ushın waqıt, kúsh hám qarjı jumsawları zárúr. Bul izertlewler nátiyjesi bolıp esaplanıw jasalma intlektten tálim processlerinde paydalanıwda tálimniń qaysı bólegine engiziw múmkin hám qaysı bóleginde qóllaw múmkin emesligin anıqlaw oǵada zárúrli. Mısalı, pán boyınsha dáslepki maǵlıwmatlardı beriw, qosımsha derek hám túrli izertlew nátiyjelerdiń analizlerin alıw, ulıwmalastırıw hám muwapıqlastırıw, orınlanǵan úy wazıypaların, esabatlardıń belgilengen standartlarǵa sáykesligin salıstırıw, redaktorlaw, korrektorlıq jumısları, ózlestiriwdi gúzetip barıw sıyaqlı oqıtıwshınan kóp waqıt talap etetuǵın, texnikalıq dóretiwshiliktiń ózene say túrlerin jasalma intellekt xızmetlerinen paydalanıp, arttırılǵan waqtın bolsa studentler menen kóbirek ushırasıw, pán dógereginde studentlerdiń dóretiwshilik, kreativ jandasıwların rawajlandırıwǵa qaratıw múmkin.

Óz ornında bul process neyro tarmaqtan paydalanıwda bul sistema múmkinshiliklerin ózin-ózi báǵdarlaw, yaǵnıy cifrlı maǵlıwmatlar menen islewdiń ayrıqsha mexanizmlerin islep shıǵıw hám sol arqalı zamanagóy tálim sharayatlarında tálim sapasın asırıwǵa xızmet ettiwi kerek.Sonıń menen birge, hár bir professor-oqıtıwshı berilgen wazıypalardı ChatGPT den paydalanǵan halda islengen yamasa joq ekenligin anıqlaw boyınsha kónlikpelerge ıye bolıwı zárúr.

PAYDALANǴAN ÁDEBIYATLAR:

1. International Conference on Artificial Intelligence and Education. Planning Education in the AI Era: Lead the Leap(16-18 May 2019)

2. PQ-4996-son 17.02.2021. Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida

3. PQ-358-сон 14.10.2024. Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida

4. Қодиров У.Д., Қаршиев Ж.М. Таълим жараёнида сунъий интеллектдан фойдаланишнинг ўзига хос жиҳатлари // Замонавий таълим. 2021. №4 (101). - Б.3-8.

MATEMATIK STATISTIKANING ASOSIY MASALALARINI TALABALARGA ZAMONAVIY O'QITISH METODLARI YORDAMIDA TUSHUNTIRISH

Muratova B.B.
Qarshi davlat texnika universiteti assistenti

Tayanch so'zlar: statistika ,matematik statistika, o'qitish usullari,ma'lumotlarni tahlil qilish, interaktiv o'qitish,vizializatsiya,statistik modeli,samaradorlik.
Ключевые слова: статистика, математическая статистика, методы обучения, анализ данных, интерактивное обучение, визуализация, статистическая модель, эффективность.
Key words: statistics, mathematical statistics, teaching methods, data analysis, interactive learning, visualization, statistical model, efficiency.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada matematika statistikasining asosiy masalalari talabalarga zamonaviy o'quv metodlari yordamida tushuntiriladi. Maqola interaktiv ta'lim vositalari, ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish va amaliy misollar orqali mavzularni o'zlashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Zamonaviy texnologiyalar yordamida statistikani o'rgatish usullari va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi.Matematika statistikasining ahamiyati zamonaviy hayotda tobora ortib bormoqda. Ushbu maqolada statistikani o'rganish jarayonida talabalarga zamonaviy o'quv metodlarini qanday qo'llash haqida so'z yuritamiz. Maqsadimiz statistika asosiy masalalarini tushunishga yordam berish va o'quv jarayonini samarali qiluvchi usullarni ko'rsatishdir.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье основные задачи математической статистики объясняются студентам с использованием современных методов обучения. Особое внимание уделяется повышению эффективности усвоения материала с помощью интерактивных инструментов, визуализации данных и практических примеров. Анализируются современные подходы к преподаванию статистики и их роль в учебном процессе с применением передовых технологий.
SUMMARY:
This article explains the fundamental problems of mathematical statistics to students using modern teaching methods. It focuses on enhancing learning effectiveness through interactive tools, data visualization, and practical examples. The study analyzes contemporary approaches to teaching statistics and their role in the educational process with the help of current technologies.

Zamonaviy o'quv metodlari. 1. Muammoli o'rganish. Talabalarni real hayotdagi masalalar bilan tanishtirish orqali statistik o'rganishni muammoli o'rganish metodidan foydalanib amalga oshirish mumkin. Misol uchun, talabalar ma'lumotlarni to'plash va ularni tahlil qilish orqali muammoni hal qilishlari kerak bo'ladi.

2. Loyihaviy o‘rganish. Talabalarga statistikalarni taqdim etish va ularni o‘z loyihalarida qo‘llash imkoniyati berish. Misol uchun, talabalar anketalar tuzish va ularni to‘ldirib statistik tahlil qilishlari mumkin.

3. Interpretativ o‘rganish. Talabalar o‘rganilgan statistik metodlarni turli kontekstlarda qanday qo‘llashlarini muhokama qilishga jalb qilish. Bu metod talabalarni o‘z fikrlarini ifodalashga va yaratishga undaydi.

Amaliyot va tajribalar. Statistika asosiy masalalari bo‘yicha amaliy tadbirlar tashkil etish, masalan, seminarlar, interaktiv darslar va onlayn kurslar orqali talabalarni o‘qitish samaradorligini oshiradi. Talabalar o‘z bilimlarini amalda qo‘llash orqali statistik tushunchalarni chuqurroq egallashadi.

O’quv metodlari bilan tanishib chiqdik. Endi,mavzu bayonoti va misollari haqida tanishib chiqsak.

Statistika so‘zi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, holat, vaziyat degan ma’noni anglatadi.

Statistika tabiatda va jamiyatda bo‘ladigan ommaviy hodisalarni o‘rganadi. Statistika fani qonuniyatlarni aniqlash maqsadida ommaviy tasodifiy hodisalarni kuzatish natijalarni tasvirlash, to‘plash, sistemalashtirish, tahlil etish va izohlash usullarini o‘rganadi.

Matematik statistika esa ommaviy va ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan tabiiy jarayonlarni tahlil etish uchun matematik apparat bo‘lib xizmat qiladi.

Matematik statistikaning vazifasi o‘rganilayotgan ob’yekt bo‘yicha statistik ma’lumotlarni to‘plash, ularni taxlil qilish va shu asosda ba’zi bir xulosalarni chiqarishdan iborat.

Quyida matematik statistikaning asosiy masalalari bilan tanishib chiqamiz:

1. Faraz qilaylik, tasodifiy miqdor ξ ning taqsimot funksiyasi $F(x)$ bo‘lsin. Statistika nuqtai nazaridan ξ tasodifiy miqdor ustida n ta o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan tajribalar o‘tkazib, $x_1, x_2, ...x_n$ qiymatlarni olgan bo‘laylik. Hosil bo‘lgan $x_1, x_2, ...x_n$ lar bo‘yicha ξ tasodifiy miqdorning no’malum $F(x)$ taqsimot funksiyasini baholash matematik statistikaning vazifalaridan biridir. Matematik statistikaning ushbu masalani yechish bilan shug‘ullanuvchi bo‘limi noparametrik baholash nazariyasi deb ataladi.

2. ξ tasodifiy miqdor k ta noma’lum parametrga bog‘liq ma’lum ko‘rinishdagi taqsimot funksiyaga ega bo‘lsin. ξ tasodifiy miqdor ustidagi kuzatishlarga asoslanib, bu noma’lum parametrlarni baholash matematik statistikaning vazifasidir. Matematik statistikada bu masalani yechish bilan shugulanuvchi bo‘lim parametrik baholash nazariyasi deyiladi.

3. Kuzatilayotgan miqdorlarning taqsimot qonunlari, ba’zi xarakteristikalari xaqidagi har qanday farazlarni “statistik gipotezalar ” deb ataladi.

Faraz qilaylik, ba’zi mulohazalarga asoslanib, ξ tasodifiy miqdorning taqsimot funksiyasini $F(x)$ deb hisoblash mumkin bo‘lsin, shu $F(x)$ funksiya Haqiqatdan ham ξ ning taqsimot funksiyasimi yoki yo‘qmi degan savol statistik gipoteza hisoblanadi.

U yoki bu gipotezani tekshirish uchun kuzatishlar orqali yoki maxsus tajribalar o‘tkazish yo‘li bilan ma’lumotlar olib, ularni qilingan gipotezaga muvofiq nazariy jihatdan kuzatilayotgan ma’lumotlar bilan taqqoslab ko‘rish kerak. Agar olingan ma’lumotlar haqiqatdan ham nazariy jihatdan kutilgan ma’lumotlar bilan mos kelsa, u vaqtda bu fakt o‘sha gipotezaning to‘g‘riligiga ishonch hosil qilish bilan, uni qabul qilish uchun asos bo‘lishi mumkin. Agar olingan ma’lumotlar nazariy jihatdan kutilayotgan ma’lumotga yetarlicha to‘g‘ri kelmasa u holda qilingan gipotezani qabul qilishga asos bo‘lmaydi.

Umuman, kuzatish natijalari bilan nazariy jihatdan kutiladigan natija orasidagi farq turlicha bo‘lishi mumkin. Shu farqni statistik baholash natijasida u yoki bu gipotezani ma’lum ehtimollik bilan qabul qilish mumkin, ya’ni shu farq katta bo‘lsa gipoteza qabul qilinmaydi, aks holda qabul

qilinadi, albatta bu farq qancha bo‘lganda gipotezani qabul qilish mumkinligi masalaning quyilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Matematik statistikaning bu masalani yechish bilan shug‘ullanuvchi bo‘limi statistik gipotezalar nazariyasi deyiladi. Statistika masalalarida gipotezalardan foydalaniladi.

Bir jinsli elementlar jamlanmasida ushbu elementlarni xususiyatlarni xarakterlovchi biror alomatni o‘rganish talab etilgan bo‘lsin. Ko‘p hollarda barcha elementlarni alohida o‘rganish imkoniyati bo‘lmaydi (elementlar soni juda ko‘p bo‘lishi mumkin, elementni o‘rganish ko‘p sarf harajat talab etishi mumkin, tekshirilish jarayonida ushbu element yoq qilinishi mumkin va hokazo). Bu hollarda ushbu elementlar jamlanmasidan biror qismini ajratib olinadi va bu ajratilgan to‘plam bo‘yicha butun jamlanma xususiyatlari haqida hulosalar qilinadi.

Masalan, O‘zbekiston fuqarolarining bo‘yi yoki og‘irligini aniqlamoqchi bo‘lsak, har bir kishini tekshirish imkoniyatiga ega bo‘lmaymiz, chunki buning uchun ko‘p mablag‘ va vaqt sarflash lozim bo‘ladi. Bunday hollarda tekshiruvchi uchun eng yaxshi yo‘l soni cheklangan birliklarni shunday ustalik bilan tekshirishki, ular umumiy o‘rganilayotgan to‘plam haqida amaliy jihatdan yetarli darajada aniqlikda ko‘zlangan axborotlarni olish imkoniyatini bersin.

Statistik analiz qilish uchun tasodifiy tanlab olingan to‘plam *tanlanma to‘plam* deyiladi.

Tanlanma qaysi to‘plamdan olingan bo‘lsa, bu to‘plam *bosh to‘plam* deyiladi.

Bosh to‘plam yoki tanlanma to‘plamning *hajmi* deb, bu to‘plamdagi ob’ektlar soniga aytiladi. Odatda bosh to‘plam hajmini *N*, tanlanma to‘plam hajmini *n* bilan belgilanadi.

Masalan, agar 20000 ta detalning sifatini tekshirish uchun 200 ta detal tanlab olingan bo‘lsa, bosh to‘plam hajmi N=20000 va tanlanmaning hajmi n=200 ga teng bo‘ladi.

Agar bosh to‘plamdan bitta element ajratib olinsa va uning xususiyatlarini qayd qilingach elementni bosh to‘plamga qaytarilsa va bundan so‘ng ikkinchi elementni tekshirib, uni ham bosh to‘plamga qaytarilsa va shu tariqa hajmi k ga teng tanlanma hosil qilinsa, bunday tanlanma *takroriy tanlanma* deyiladi. Agar tanlab olingan element bosh to‘plamga qaytarilmasa, bu tanlanma *takroriy bo‘lmagan* tanlanma deyiladi. Takroriy tanlanmalarning hajmi k bosh to‘plam hajmi n bilan ixtiyoriy munosabatda bo‘lishi mumkin ($k \le n$, $k > n$). Takroriy bo‘lmagan tanlanmalar uchun $k \le n$ bo‘ladi.

Agar bosh to‘plam hajmi juda katta bo‘lib, tanlanma to‘plam hajmi katta bo‘lmasa, u holda takroriy va takroriy bo‘lmagan tanlanmalar orasidagi farq sezilarli bo‘lmaydi .

Amaliyotda ko‘pincha takroriy bo‘lmagan tanlab olish usulidan foydalaniladi. Albatta, bu ikkala tanlab olish usulida ham tanlanma to‘plam bosh to‘plamning barcha xususiyatlarini saqlagan holda olinishi kerak, ya’ni tanlanma to‘plam bosh to‘plamga “o‘xshash” bo‘lishini ta’minlaydigan qilib tanlash lozim.

Agar tanlanma to‘plam bosh to‘plamni deyarli barcha xususiyatlarini o‘zida saqlasa, u holda bunday tanlanma *reprezentativ* (*vakolatli*) tanlanma deyiladi.

Reprezentativ tanlanma hosil qilish uchun biz tanlanmani tasodifiy qilib tuzamiz. Tanlab olish usuli bosh to‘plamning bizni qiziqtiradigan belgisiga xech qanday ta’sir qilmaydi va bosh to‘plamning har bir elementi tanlanmada bir xil imkoniyat bilan qatnashishi ta’minlanadi. Agar tanlanma to‘plam reprezentativligini saqlamasa, u holda tanlanma to‘plam ustida chiqarilgan xulosani bosh to‘plamga tadbiq qilish noto‘g‘ri xulosaga olib kelishi mumkin.

Biror ξ tasodifiy miqdor ustida *n* marta kuzatish o‘tkazib,

$$x_1, x_2, ..., x_n \qquad (1)$$

natijalar olingan bo‘lsin, u holda biz tanlanma to‘plamga ega bo‘lamiz. Tajribalar bir xil sharoitda, bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda o‘tkazilgan deb faraz qilinadi. Ma’lumki, tajriba natijalari (1) ya’ni 1-tajriba natijasi x_1 (1-o‘rinda yozilgan), 2-tajriba natijasi x_2 (2-o‘rinda yozilgan), …, *n*-tajriba natijasi x_n (*n*-o‘rinda yozilgan) bo‘lib, ular son qiymatlari bo‘yicha tartibsiz joylashgan bo‘lishi mumkin.

Agar tanlanma to‘plam qiymatlar bo‘yicha o‘sish (yoki kamayish) tartibida

$x_1^* \le x_2^* \le ..... \le x_n^*$ (yoki $x_n^* \ge x_{n-1}^* \ge ... \ge x_2^* \ge x_1^*$) kabi joylashtirilsa,

$x_1^*, x_2^*, ..., x_n^*$ *variatsion qator* deyiladi.

(1) tanlanma to‘plamdagi x_i, $i = 1, 2, ..., n$ lar *variantalar* deyiladi.

$$P(A) = \frac{m}{n}.$$

n – sinovning mumkin bo’lgan elementar hodisalari soni; m – A hodisaning ro’y berishiga qulaylik tug’diruvchi elementar hodisalar soni; P – ehtimol.

Misol 1. Ikkita o’yin soqqasi bir marta tashlangan. Soqqalarning tushgan yoqlaridagi ochkolar yig’indisi juft son, shu bilan birga soqqalardan hech bo’lmaganda bittasining yog’ida olti ochko chiqish ehtimolini toping.

Yechilishi. Ma’lumki $n = 36$.

$$P = \begin{Bmatrix} 2;6 \\ 4;6 \\ 6;2 \\ 6;4 \\ 6;6 \end{Bmatrix} => m = 5.$$ U holda $P(A) = \frac{5}{36}$ bo’ladi.

Misol 2. Qutida 15 ta shar bo’lib, ulardan 5 tasi qizil, qolganlari boshqa rangda. Tavakkaliga olingan 1 ta sharning qizil bo’lish ehtimolini toping.

Yechilishi. $n = 15, m = 5$.

$$P(A) = \frac{5}{15} = \frac{1}{3}$$

$$\mathcal{W}(A) = \frac{m}{n}.$$

m – A hodisa ro’y bergan sinovlar soni; n – o’tkazilgan jami sinovlar soni;

$\mathcal{W}$ – nisbiy chastota.

Misol 3. Nishonga 20 ta o’q uzilgan, shundan 18 ta o’qning nishonga tekkanligi qayd qilingan. Nishonga tegishlar nisbiy chastotasini toping.

Yechilishi. $n = 20, m = 18$.

$$\mathcal{W}(A) = \frac{18}{20} = \frac{9}{10} = 0.9$$

Xulosa. Zamonaviy o‘quv metodlari yordamida matematika statistikasi asosiy masalarini talabalarga tushuntirish ularning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Bu usullar yordamida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham egallaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Montgomery D.C., Runger G.C. Applied Statistics and Probability for Engineers. Wiley, 2014.
2. Wackerly D., Mendenhall W., Scheaffer R. Mathematical Statistics with Applications. Cengage Learning, 2014.
3. Rice J.A. Mathematical Statistics and Data Analysis. Cengage Learning, 2006.
4. O’Connor P.D.T., Robertson S. Mathematical Statistics. Open University Press, 2005.
5. Wasserman L. All of Statistics: A Concise Course in Statistical Inference. Springer, 2004.
6. Devore J.L. Probability and Statistics for Engineering and the Sciences. Cengage Learning, 2015.
7. Shmueli G., Bruce P.C., Gedeck P. Data Mining for Business Analytics: Concepts, Techniques, and Applications in R. Wiley, 2019.
8. James G., Witten D., Hastie T., Tibshirani R. An Introduction to Statistical Learning. Springer, 2013.
9. Online educational resources: Khan Academy, Coursera – courses on mathematical statistics and data analysis.
10. R dasturi va uning statistik paketlari bo‘yicha qo‘llanmalar va tutoriallar.

GEOGRAFIYA TA'LIMIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQISH VA QO'LLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Shadiyeva N.Sh.
Buxoro davlat pedagogika instituti
"Geografiya" kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD)
Fazliddinova K.M.
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari
yo'nalishi 4-kurs talabasi

Tayanch so'zlar: geografiya ta'limi, pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuv, interaktiv metodlar, AKT, metodika, ta'lim sifati, o'quv jarayoni, amaliy ko'nikmalar, o'quvchilar faolligi.
Ключевые слова: географическое образование, педагогические технологии, инновatsионный подход, интерактивные методы, ИКТ, методика, качество образования, учебный процесс, практические навыки, студенческая деятельность.
Key words: geography education, pedagogical technologies, innovative approach, interactive methods, ICT, methodology, quality of education, educational process, practical skills, student activity.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada geografiya ta'limida yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni o'quv jarayoniga samarali joriy etish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Mazkur yo'nalishda innovatsion yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, interaktiv metodlar va o'quvchilarning mustaqil fikrlash hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan uslublar tahlil qilinadi. Shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari geografiya fanini o'qitish samaradorligini oshirish hamda ta'lim sifatini yuksaltirishga xizmat qilishi ko'zda tutilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассмотрены вопросы разработки новых педагогических технологий в образовании по географии и совершенствования методики их эффективного внедрения в учебный процесс. В этом направлении анализируются инновatsионные подходы, использование информatsионно-коммуникatsионных технологий, интерактивных методов и методов, направленных на развитие самостоятельного мышления и практических навыков студентов. Также рассмотрены проблемы, возникающие при использовании новых педагогических технологий и пути их преодоления. Ожидается, что результаты исследования послужат повышению эффективности преподавания географии и улучшению качества образования.
SUMMARY:

This article describes the issues of developing new pedagogical technologies in geography education and improving the methodology of their effective introduction into the educational process. In this direction, innovative approaches, use of information and communication technologies, interactive methods and methods aimed at developing students' independent thinking and practical skills are analyzed. Also, problems encountered in the use of new pedagogical technologies and ways to overcome them are considered. It is expected that the results of the research will serve to increase the effectiveness of teaching geography and to improve the quality of education.

Kirish. Dunyoda bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida mutaxassislarni tayyorlashda ta’lim berish jarayonini yuksak darajaga olib chiqish bo‘yicha xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ular bilan hamkorlik tadqiqotlarni olib borish, amaliyotga qo‘llash talab etilmoqda.

2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida “butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Ushbu konsepsiya ta’lim tizimida pedagoglar, jumladan, bo‘lajak o‘qituvchilarni , kompetensiyaviy yondashuv asosida metodik tayyorgarlik darajasi hamda ijodiy taffakkurini rivojlantiradigan, jahon andozalariga mos keladigan innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy vositalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish bugungi kun uchgun ustuvorlik kasb etadi [6].

Geografiya fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zarurati, ularni ishlab chiqish va samarali joriy etish metodikasi yoritiladi. Shuningdek, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va geografik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, ayniqsa, geografiya fanini o‘qitishda yangicha pedagogik yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. An’anaviy usullar bilan bir qatorda, interfaol metodlar, AKT vositalari, modulli o‘qitish, loyiha asosida ta’lim kabi zamonaviy texnologiyalar o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirib, chuqur bilim olishlariga xizmat qilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda bugungi globallashuv jarayonida oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan “Geografiya” ta’lim yo‘nalishi talabalarining innovatsion ta’limga tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish, raqamli texnologiyalar va dasturiy ta’lim ilovalaridan foydalanib ta’lim berish, shu yo‘nalishga tegishli metodikalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega.

Hozirgi zamon globallashuv jarayonida etuk mutaxassis-kadrlarni tayyorlash zarurati, demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslari konsepsiyasini amalga oshirishda, kreativ fikrlovchi, innovatsion texnologiya hamda dasturiy ta’lim vositalarni mukammal egallagan, mutaxassis

kadrlarning innovatsion ta’lim tendensiyalari asosidagi xalqaro pedagogik tajribaga ko‘ra, “Geografiya” ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy faoliyatga oid kreativligini rivojlantirishda birqancha dasturlar asosida ishlab chiqilgan dasturiy ta’lim vositalarining yangi avlodlarini takomillashtirish orqali majburiy va tanlov fanlarini virtual reallik qonuniyatlari asosida talabalarni innovatsion kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida dasturiy ta’lim vositalarini samarali qo‘llash orqali ularning imkoniyatlari to‘liq ochib berilmaganligi, kompyuter dasturlaridan foydalanish metodikasi asosida o‘qitishni mazmunan takomillashtirish jarayonini keng joriy etish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi [6].

Respublikamiz olimlaridan B.M.Abduraxmonovning ilmiy ishlarida, umumiy o‘rta talim maktablari o‘quvchilarining geografik madaniyatini shakllantirish jarayonining tasviriy-didaktik jihatlari ta’lim vositalari tasniflanishida ta’lim muhiti va ular orasidagi uzluksizlik va uzviylikni hisobga olish asosida metodik jarayonni amalga oshirish tizimi va modeli ta’lim vositalaridan foydalanish va model komponentlarining uzviy bog‘liqligi asosida ishlab chiqilib, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarining baholash darajalarini refleksiv tahlil qilish va tahliliy faoliyat natijalari orqali xaritagrafik savodxonlikning kafolatlangan samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlashtirilgan bo‘lib, o‘quvchilarning geografik madaniyatining shakllanishini ta’minlovchi ta’lim vositalari majmuasidan foydalanishning didaktik, ergonomik metodik talablari elektron darslik, interfaol xaritagrafik qo‘llanmalar asosida takomillashtirilgan[8].

Tadqiqot metodologiyasi.Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan kreativ faoliyat va kreativ mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilanadi. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi taqozo etiladi. Bo‘lajak “Geografiya” fani o‘qituvchisining kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi, uning shaxsiy sifatlari, tabiiy va ijtimoiy sifatlarini samarali tashkil etishga yo‘naltiradi

1. Yangi pedagogik texnologiyalarning mohiyati: Zamonaviy texnologiyalar o‘qituvchining o‘quvchi bilan interaktiv muloqotini kuchaytiradi.O‘quv jarayonini vizual, amaliy va mustaqil tahlil asosida tashkil etishga imkon beradi[6] .

2. Geografiya darslarida qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalar: Klaster, aqliy hujum, konseptual xaritalar kabi metodlar orqali mavzuni chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Geografik axborot tizimlari (GAT/GIS), raqamli xaritalar va simulyatsion dasturlar ta'lim samaradorligini oshiradi.Proyekt usuli asosida o'quvchilar real geografik muammolar echimini mustaqil izlaydi.

3. Metodikani takomillashtirish yo'llari: O'qituvchilarning malakasini oshirish, doimiy trening va seminarlar tashkil etish. Pedagogik tajriba almashinuvi va innovatsion loyihalarni joriy etish. O'quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda dars jarayonini moslashtirish.

Geografiya ta'limida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash nafaqat ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning fanga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi. Bu borada metodik yondashuvni doimiy ravishda takomillashtirib borish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy texnologiyalarning geografiya fanidagi o'rni Geografiya - atrof-muhit, tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganuvchi kompleks fan bo'lgani bois, uni o'qitishda turli texnologiyalarni integratsiyalash imkoniyati yuqori. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) geografik ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish, xaritalar bilan ishlash, statistik tahlil va prognozlash jarayonlarini interfaol shaklda olib borishda katta rol o'ynaydi. Dars jarayoniga innovatsion yondashuvlar:

Blended Learning (aralash ta'lim) - an'anaviy va onlayn darslarni uyg'unlashtirish orqali o'quvchini mustaqil ishlashga rag'batlantiradi.

Flipped classroom (ag'darilgan sinf) - o'quvchilar mavzuni uyda o'rganib, sinfda amaliyot va muhokama bilan shug'ullanishadi.

Gamifikatsiya (o'yinlashtirish) - geografik bilimlarni mustahkamlash uchun interaktiv testlar, viktorinalar va musobaqalar orqali motivatsiyani oshiradi.

Geografiya ta'limida yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va qo'llash metodikasini takomillashtirish uchun quyidagi echimlarni taklif qilish mumkin:

1. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish: O'quvchilarning qiziqishini uyg'otish va geografiya fanini yanada interaktiv qilish uchun multimedia, virtual va ortogonal haqiqat (VR, AR) kabi texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo'llash. Bu texnologiyalar orqali o'quvchilarga murakkab geografik jarayonlar va konseptlarni amaliy misollar yordamida tushuntirish mumkin.

2. O'qituvchilarni malaka oshirish va qayta tayyorlash: O'qituvchilarni yangi pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash uchun malaka oshirish dasturlari tashkil etilishi kerak. Yangi texnologiyalar va metodikalarni o'rganish uchun onlayn kurslar, seminarlar va treninglar tashkil etish, shuningdek, o'qituvchilarga tajriba almashish imkoniyatlarini yaratish.

3. Ta’lim infratuzilmasini modernizatsiya qilish: Ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalar, kompyuterlar, interaktiv taxtalar, multimedia tizimlari va internetga ulanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bunda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhimdir.

4. O‘quv dasturlarini takomillashtirish: Geografiya ta'limida yangi pedagogik texnologiyalarni hisobga olgan holda o‘quv dasturlarini zamon talablariga moslashtirish. Bu o‘quv dasturlarida interaktiv metodlar, onlayn resurslar, elektron darsliklar va multimedia materiallarini keng qo‘llashni o‘z ichiga olishi kerak.

5. Texnologik savodxonlikni oshirish: O‘quvchilarning texnologik savodxonligini oshirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilishi zarur. Bu dasturlar orqali o‘quvchilarga internetdagi geografik manbalarni izlash, raqamli xaritalar yaratish, GIS (Geografik axborot tizimi) texnologiyalaridan foydalanishni o‘rgatish kerak.

6. Sinflarda interaktiv o‘quv metodlarini qo‘llash: O‘qituvchilar o‘quv jarayonini ko‘proq interaktiv qilishlari lozim. Mavzularni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarni guruh ishlariga, muhokamalarga jalb qilish, masalalarni amaliyotga qo‘llash va o‘quvchilarga o‘zlarini sinab ko‘rish imkoniyatlarini yaratish samarali natijalarga olib keladi.

7. O‘quv materiallarining virtual versiyalarini yaratish: Geografiya faniga oid o‘quv materiallarining virtual versiyalarini yaratish, masalan, raqamli darsliklar, interaktiv kartalar, videolar va boshqa vizual vositalar. Bu materiallar o‘quvchilarga mavzularni mustahkamlashda yordam beradi.

8. Pedagogik tarmoq va hamkorlikni rivojlantirish: O‘qituvchilar, ilmiy xodimlar va pedagogik texnologiya ishlab chiquvchilarini birlashtirgan tarmoqlar tashkil etish zarur. Bu tarmoqlar orqali yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish mumkin bo‘ladi.

9. Innovatsion tadqiqotlar va tajriba almashish: Geografiya ta’limida innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishda tajriba almashish muhim ahamiyatga ega. Ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish va innovatsion pedagogik metodlarni o‘rganish orqali ta’lim samaradorligini oshirish mumkin. Bu echimlarni amalga oshirish uchun ta'lim muassasalari, davlat organlari va boshqa manfaatdor tomonlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, resurslar va bilimlarni birlashtirish muhimdir. Geografiya ta’limida yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va qo‘llash metodikasini takomillashtirish, dunyo davlatlari miqyosida, bir nechta asosiy tendensiyalar va yangiliklar orqali amalga oshirilmoqda. Bu jarayon, o‘qitishning samaradorligini oshirish, talabalar va o‘qituvchilarni

yangi bilim texnologiyalari bilan tanishtirish va ularni modernizatsiya qilishga qaratilgan.

Xulosa va tahlillar. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion kasbiy faoliyatga ega bo‘lgan talabalarda quyidagilar namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak pedagoglarning xayoliga kelmagan g‘oyalarni bildiradi, o‘zlarini ifoda etishning o‘ziga xos uslubini tanlaydi, ba’zan mavzuga aloqasi yo‘q yoki g‘ayri oddiy savollar beradi, echimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi, g‘oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko‘radi, muammoning echimini topishda noan’anaviy yondashuvni tanlaydi[7].

Quyidagi yo‘nalishlar va metodikalar asosiy e'tiborni jalb qilmoqda:

1. Interaktiv o‘qitish texnologiyalari: Interaktiv doskalar, smartfonlar, planshetlar va kompyuterlar yordamida o‘qitish metodikalari keng qo‘llanilmoqda. Bu texnologiyalar geografiya darslarida vizual tasvirlar, interaktiv xaritalar va 3D modellardan foydalanishga imkon beradi. Bu o‘zgarishlar talabalarga darsni samarali o‘zlashtirishda yordam beradi va geografik tushunchalarni yaxshiroq anglash imkonini yaratadi.

2. Blended learning (aralash ta'lim): Blended learning, ya'ni an'anaviy darslar bilan onlayn ta'limni birlashtirish metodikasi dunyo bo‘ylab keng tarqalmoqda. O‘quvchilar internetda geografik axborotlarni o‘rganish, video darsliklar orqali mavzularni mustahkamlash va online testlar orqali o‘z bilimlarini tekshirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu usul darslarning moslashuvchanligini oshiradi.

3. Geografik axborot tizimlari (GAT) va kartografiya dasturlari: GAT texnologiyalari geografiya o‘qitishida muhim rol o‘ynayapti. O‘quvchilar geografik xaritalar va ma'lumotlar bazalarini yaratish, tahlil qilish va vizualizatsiya qilish orqali o‘z bilimlarini mustahkamlaydilar. Bu texnologiyalar o‘quvchilarga zamonaviy tizimlar orqali real vaqt ma'lumotlari bilan ishlashni o‘rgatadi.

4. Kooperativ o‘qitish metodikasi: Dunyo bo‘ylab geografiya o‘qituvchilari o‘quvchilarning guruhlarga bo‘lingan holda birgalikda ish olib borishlarini rag'batlantirmoqda. Bu metodika o‘quvchilarning jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantirishga, mavzularni turli nuqtai nazarlardan ko‘rish imkoniyatini yaratishga yordam beradi.

5. Muammoli ta'lim (Problem-based learning): Geografiya o‘qitishida bu metodika muammolarni tahlil qilish va ularni hal qilish orqali o‘quvchilarning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Muammoli ta'lim, ayniqsa, geografik masalalarga qarshi muammolarni hal qilishda, o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va ularni mustaqil fikr yuritishga undaydi.

6. Yangi multimediya vositalari: Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) kabi texnologiyalar geografiya ta'limiga jiddiy ta'sir ko‘rsatmoqda. Bu vositalar orqali o‘quvchilar dunyo bo‘ylab turli joylarni virtual ravishda sayohat qilishlari mumkin, bu esa geografiya bilimlarini interaktiv tarzda o‘rganishga yordam beradi. Dunyo miqyosida geografiya o‘qitish metodikasini takomillashtirishda, texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy qilish orqali, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish mumkin.

FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR:

1. Akramov M. Geografiya ta’limi metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, 2015.

2. Tursunov X. Geografiya fanining didaktikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2017.

3. Umarov B. Pedagogik texnologiyalarni qo‘llash metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston pedagogika universiteti, 2018.

4. Xodjaeva D. O‘quv jarayonida innovatsion metodlarni qo‘llash. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.

5. Usmonov A. Interaktiv metodlar va ularning geografiya ta’limidagi ahamiyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

6. Shadiyeva N.Sh. Talabalarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish (geografiya ta’lim yo‘nalishi misolida). Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. Samarqand: 2024-yil.125 b.

7. Shadiyeva N.Sh. Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida virtual ta’lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish. // Ilm-fan texnologoyalar. Buxoro sh. 2023-yil № 3 (1) son. 52-57 b.

8. Shadiyeva N.Sh. Dasturiy ta’lim vositalardan foydalanish asoida bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarining kreativligini rivojlantirishning ilmiy-metodik ahamiyati // “Pedagogik akmeologiya”. Ilmiy-nazariy, metodik jurnali. Buxoro sh. №4 (6). 2023 y.-b.

TRANSPORT MASALASINI BIRINCHI TAYANCH REJASINI ANIQLASHDA ENG KAM NARX METODI ASOSIDA MATLAB PAKETIDAGI TAHLILI

Ishmamatov M.R.
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti,
Oliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti

Tayanch so‘zlar: transport masalasi, birinchi tayanch reja, eng kam narx metodi, zaxiralar, ehtiyojlar, taqsimlash, iteratsiya, optimallashtirish, logistika, transport harajatlari.
Ключевые слова: транспортная задача, первый базовый план, метод наименьших затрат, запасы, потребности, распределение, итерация, оптимизация, логистика, транспортные расходы.
Key words: transportation problem, first base plan, least cost method, reserves, needs, allocation, iteration, optimization, logistics, transportation costs.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada, metodning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va narxlar jadvalining tahlilidan olingan birinchi tayanch reja misoli ko‘rsatilgan. Natijada, barcha energiya zaxiralari taqsimlanib, iste’molchilarning ehtiyojlari qondirilgan holda, transport xarajatlari minimallashtirilgan. Shuningdek, ushbu metodning afzalligi uning oddiyligi va samaradorligi, lekin uni yakuniy optimal reja sifatida ko‘rib chiqish uchun yana qo‘shimcha tekshiruvlar va takomillashtirishlar zarur ekanligi ta'kidlangan.
РЕЗЮМЕ:
В статье показана пошаговая реализация метода и пример первого базового плана, полученного из анализа ценового графика. В результате распределяются все запасы энергии, удовлетворяются потребности потребителей и минимизируются транспортные расходы. Также отмечено, что преимуществом данного метода является его простота и эффективность, но необходимы дальнейшая проверка и совершенствование, прежде чем его можно будет считать окончательным оптимальным планом.
SUMMARY:
The article shows the step-by-step implementation of the method and an example of the first base plan obtained from the analysis of the price schedule. As a result, all energy reserves are allocated, the needs of consumers are satisfied, and transportation costs are minimized. It is also noted that the advantage of this method is its simplicity and efficiency, but it is necessary to further investigate and improve it before it can be considered as the final optimal plan.

Zamonaviy sanoat va texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir davrda, elektr energiyasi resurslarini oqilona taqsimlash va samarali boshqarish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Elektr uzatish tizimlarida yuklarni optimal taqsimlash masalasi, ayniqsa, iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirish va yetkazib beruvchilar imkoniyatlarini inobatga olgan holda, iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu kabi muammolarni yechishda transport masalasi matematik model sifatida keng qo'llaniladi.

Transport masalasi klassik chiziqli dasturlashtirish muammolaridan biri bo'lib, uning asosiy vazifasi - ma'lum miqdordagi zaxirani (masalan, elektr energiyasini) manbalardan (podstansiyalardan) iste'molchilarga eng kam xarajat bilan taqsimlashdir. Bu yerda xarajatlar odatda transport yo'nalishlari bo'yicha har bir birlik energiyani tashish narxi sifatida qaraladi. Transport masalasi real hayotda logistika, energetika, ta'minot zanjirlari, ishlab chiqarish va boshqa ko'plab sohalarda keng qo'llaniladi.

Ushbu ishda transport masalasini hal qilishda eng kam narx metodi asosida birinchi tayanch (asosiy) reja tuzish ko'rib chiqiladi. Bu metodning mohiyati shundan iboratki, narxlar jadvalidagi eng kichik elementlar asosida resurslarni optimal taqsimlash amalga oshiriladi. Har bir bosqichda narxlar jadvalidan eng arzon variant tanlanib, unga mos ravishda zaxiralar va ehtiyojlar solishtirilib, minimal qiymat ajratiladi. Bu esa umumiy xarajatni kamaytirishga xizmat qiladi.

Ushbu usulning afzalligi - uni qo'llash oddiy va intuitiv bo'lib, dastlabki asosiy rejani tezlik bilan aniqlash imkonini beradi. Ammo bu reja optimal bo'lishi kafolatlanmaydi, shuning uchun keyingi bosqichlarda optimal reja tekshirilishi yoki takomillashtirilishi mumkin.

Quyidagi bo'limlarda ushbu metod asosida bir transport vazifasining matematik modelini qurish, eng kam narx metodidan foydalanib yechimini topish va natijalarni tahlil qilish ko'rib chiqiladi. MATLAB dasturiy muhiti yordamida amaliy yechimlar ham amalga oshirilgan bo'lib, bu nafaqat nazariy, balki amaliy bilimlarni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Eng kam narx metodidan foydalangan holda, transport vazifasining birinchi asosiy rejasini tuzamiz: Metodning mohiyati shundaki, butun narxlar jadvalidan eng kichik narxni tanlab, unga mos keladigan katakka a_i yoki b_j ning kichikroq qiymatini joylashtiramiz.

Keyin ko'rib chiqilib tashlab yuboriladi yoki yetkazib beruvchining zaxiralari to'liq sarflangan satr, yoki iste'molchining ehtiyojlari to'liq qondirilgan ustun, yoki agar yetkazib beruvchining zaxiralari sarflangan va iste'molchining ehtiyojlari qondirilgan bo'lsa, satr va ustun birgalikda tashlab yuboriladi.

Qolgan narxlar jadvalidan yana eng kichik narxni tanlab, zaxiralarni taqsimlash jarayonini davom ettiramiz toki barcha zaxiralar taqsimlanib ehtiyojlar qondirilmaguncha.

Izlanayotgan element $c_{11} = 10$ ga teng. Ushbu element uchun zaxiralar 40 MVt, ehtiyojlar esa 25 MVt ga teng. Minimal qiymat 25 MVt bo'lgani uchun, uni ayiramiz.

$x_{11} = min(40,25) = 25$

10	18	18	27	31	19	0	$40 - 25 = 15$
x	15	21	26	20	40	0	50
x	17	23	25	32	42	0	60
$25 - 25 = 0$	40	30	10	20	15	10	

Izlanayotgan element $c_{22} = 15$ kmga teng. Ushbu element uchun zaxiralar 50 MVt, ehtiyojlar esa 40 MVt ga teng. Minimal qiymat 40 MVt bo'lgani uchun, uni ayiramiz.

$x_{22} = \min(50,40) = 40$

.	x	18	27	31	19	0	15
x	15	21	26	20	40	0	$50 - 40 = 10$
x	x	23	25	32	42	0	60
0	40-40=0	30	10	20	15	10	

Izlanayotgan element $c_{13} = 18$ kmga teng. Ushbu element uchun zaxiralar 15 MVt, ehtiyojlar esa 30 MVt ga teng. Minimal qiymat 15 MVt bo‘lgani uchun, uni ayiramiz.
$x_{13} = min(15,30) = 15$

10	x	18	x	x	x	x	$15 - 15 = 0$
x	15	21	26	20	40	0	10
x	x	23	25	32	42	0	60
0	0	$30 - 15 = 15$	10	20	15	10	

Izlanayotgan element$c_{25} = 20$ kmga teng. Ushbu element uchun zaxiralar 10 MVt, ehtiyojlar esa 20 MVt ga teng. Minimal qiymat 10 MVt bo‘lgani uchun, uni ayiramiz.
$x_{25} = \min(10,20) = 10$

10	x	18	x	x	x	x	0
x	15	x	x	20	x	x	10-10=0
x	x	23	25	32	42	0	60
0	0	15	10	20-10=10	15	10	

Izlanayotgan element $c_{33} = 23$ kmga teng. Ushbu element uchun zaxiralar 60 MVt, ehtiyojlar esa 15 MVt ga teng. Minimal qiymat 15 MVt bo‘lgani uchun, uni ayiramiz.
$x_{33} = \min(60,15) = 15$

10	x	18	x	x	x	x	0
x	15	x	x	20	x	x	0
x	x	23	25	32	42	0	$60 - 15 = 45$
0	0	$15 - 15 = 0$	10	10	15	10	

Izlanayotgan element $c_{34} = 25\ km$ ga teng. Ushbu element uchun zaxiralar 45 MVt, ehtiyojlar esa 10 MVt ga teng. Minimal qiymat 10 MVt bo‘lgani uchun, uni ayiramiz.
$x_{34} = \min(45,10) = 10$

10	x	18	x	x	x	x	0
x	15	x	x	20	x	x	0
x	x	23	25	32	42	0	$45 - 10 = 35$
0	0	0	$10 - 10 = 0$	10	15	10	

Izlanayotgan element $c_{35} = 32$ kmga teng. Ushbu element uchun zaxiralar 35 MVt, ehtiyojlar esa 10 MVt ga teng. Minimal qiymat 10 MVt bo‘lgani uchun, uni ayiramiz.
$x_{35} = \min(35,10) = 10$

10	x	18	x	x	x	x	0
x	15	x	x	20	x	x	0
x	x	23	25	32	42	0	35-10=25
0	0	0	0	10-10=0	15	10	

Izlanayotgan element $c_{36} = 42$ kmga teng. Ushbu element uchun zaxiralar 25 MVt, ehtiyojlar esa 15 MVt ga teng. Minimal qiymat 15 MVt bo‘lgani uchun, uni ayiramiz.

$x_{36} = \min(25,15) = 15$

10	x	18	x	x	x	x	0
x	15	x	x	20	x	x	0
x	x	23	25	32	42	0	$25 - 15 = 10$
0	0	0	0	0	$15 - 15 = 0$	10	

Izlanayotgan element $c_{37} = 0$ kmga teng. Ushbu element uchun zaxiralar 10 MVt, ehtiyojlar esa 10 MVt ga teng. Minimal qiymat 10 MVt bo‘lgani uchun uni ayiramiz.

$x_{37} = \min(10,10) - 10$

10	x	18	x	x	x	x	0
x	15	x	x	20	x	x	0
x	x	23	25	32	42	0	$10 - 10 = 0$
0	0	0	0	0	0	$10 - 10 = 0$	

	$B1$	$B2$	$B3$	$B4$	$B5$	$B6$	$B7$	$Zaxira\ quvvat$
A_1	10[25]	18	18[15]	27	31	19	0	40
A_2	25	15[40]	21	26	20[10]	40	0	50
A_3	32	17	23[15]	25[10]	32[10]	42	0[15]	60
$Talab$	25	40	30	10	20	15	10	60

Natijada birinchi asosiy reja olinadi, u maqbul bo‘lib, chunki barcha quvvatlar podstansiyalardan taqsimlangan, ob’ektlarning ehtiyojlari qondirilgan va reja transport vazifasining cheklovlar tizimiga mos keladi.

Ushbu maqolada, transport masalasini hal qilishda eng kam narx metodi asosida birinchi tayanch rejaning tuzilishi va uning matematik modelining qo'llanilishi ko'rib chiqildi. Metodning afzalligi uning oddiyligi va samaradorligidir, chunki u tezlik bilan dastlabki reja olish imkonini beradi. Zaxiralar va ehtiyojlar o'rtasida eng arzon variantlar tanlanishi orqali transport xarajatlari minimallashtiriladi.





Maqolada MATLAB dasturidan foydalangan holda amaliy yechimlar ko'rsatilgan bo'lib, bu nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Eng kam narx metodining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, har bir elementda minimal qiymat tanlanishi, va transport xarajatlarini kamaytirishdagi samaradorlik, uning real hayotdagi logistika va energetika sohalarida qanday qo'llanishi mumkinligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Васюра Ю .Ф ., Вильнер А .В. Математические методы расчета уста-новившихся режим работы электроэнергетических систем с примерами и иллю-страциями: Учебное пособие. - Киров: Изд-во Кировский облкомстат, 2009. -146 с.

2. Математические задачи энергетики. Ч .2 . Основы теории ошибок. Элементы матричного анализа. Моделирование рабочих режимов на ЭВМ: учеб.- метод, пособие [Электронный ресурс] / сост. А.А. Герасименко. - Элек-трон, дан. - Красноярск: Сиб. федер. ун-т, 2012.

3. William J. Palm III , "MATLAB for Engineers: Applications in Control, Electrical Engineering, IT, and Robotics". O'quv qo'llanma. – USA: "McGraw-Hill Education" 2017, 744 bet.

ELEKTR ENERGETIKA TIZIMLARINI TAHLIL QILISHNING MATEMATIK USULLARI

Ismoilova Z.T., Abdullayeva D.A., Tag'oyev F.Yo.
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Tayanch so'zlar: elektr energetika tizimi, matematik modellashtirish, matritsa, holat tenglamalari, barqarorlik, optimal ish holati, tugun, tarmoq, tok kuchi, qarshilik, teskari matritsa, iteratsion usullar, insidensiya matritsasi, graf, Matlab.
Ключевые слова: электрическая энергетическая система, математическое моделирование, матрица, уравнения состояния, устойчивость, оптимальный режим работы, узел, сеть, ток, сопротивление, обратная матрица, итерационные методы, матрица инциденции, граф, Matlab.
Key words: electrical power system, mathematical modeling, matrix, state equations, stability, optimal operating mode, node, network, current, resistance, inverse matrix, iterative methods, incidence matrix, graph, Matlab.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqola elektr energetika tizimlarini matematik modellashtirish va hisoblash usullariga bag'ishlangan. Maqolada elektr energetika tizimining murakkab tuzilishi va ko'plab bog'lanishlari tufayli matematik modellashtirish zarurligi ta'kidlangan. Tizimning barqarorligini va optimal ish holatini hisoblash uchun matritsa ko'rinishidagi holat tenglamalarini tuzish usuli ko'rib chiqilgan.
РЕЗЮМЕ:
Данная статья посвящена математическому моделированию и методам расчета электрических энергетических систем. В статье подчеркивается необходимость математического моделирования из-за сложной структуры и многочисленных связей электрической энергетической системы. Рассмотрен метод составления матричных уравнений состояния для расчета устойчивости и оптимального режима работы системы.
SUMMARY:
This article is devoted to mathematical modeling and calculation methods for electrical power systems. The article emphasizes the necessity of mathematical modeling due to the complex structure and numerous interconnections of the electrical power system. The method of constructing matrix state equations for calculating the stability and optimal operating mode of the system is considered.

Zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish, shu jumladan, energetika sohasidagi ilmiy izlanishlar fizik tushunishlarni matematikalashtirishga, matematik modellashtirish usullarini intensiv qo‘llashga va ularni zamonaviy hisoblash texnologiyalari yordamida yechishga ehtiyojni oshiradi. Bu holat matematik modellashtirish usullarining samarali qo‘llanilishini talab qiladi. Elektr energetika tizimlari, o‘zining murakkab tuzilishi va ko‘plab bog‘lanishlari bilan, ayniqsa, bunday modellashtirishni talab etadi.

Elektr energetika tizimi - bu elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va iste'mol qilishni o‘z ichiga olgan kompleks tizimdir. Ushbu tizimning barcha qismlari o‘zaro bog‘langan bo‘lib, har bir komponentning holatini va o‘zgarishlarini aniq va to‘g‘ri modellashtirish tizimning samarali ishlashini ta'minlash uchun zarur. Elektr stantsiyalari, podstansiyalar, transformatorlar, uzatish liniyalari kabi tizimning asosiy qismlarini o‘z ichiga olgan tizimni matematik modellashtirishning asosiy maqsadi - uning barqarorligini va optimal ish holatini hisoblashdir.

Elektr energetika tizimini matritsa ko‘rinishidagi holat tenglamalarini tuzish, tizimning fizikaviy holatini matematik formulalar orqali aks ettirishni anglatadi. Bu yerda tizimning har bir qismini (masalan, stansiyalar, podstansiyalar, transformatorlar) matritsa yordamida ifodalash lozim. Matritsa elementlari tizimning strukturasini, uning elementlari orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni va har bir qismining ishlashini aks ettiradi.

Matritsalar yordamida tizimning holatini tahlil qilish va optimallashtirish mumkin. Har bir tugun va tarmoq uchun tok kuchlarini aniqlash, tizimning barqarorligini tekshirish va zaruriy o‘zgartirishlarni kiritish imkonini beradi.

Elektr energetika tizimining holatini aniqlashda **teskari matritsa** metodidan foydalanish mumkin. Teskari matritsa yordamida tizimning barqaror holatini topish mumkin. Shu bilan birga, tizimning tenglamalarini yechish uchun **Gaussning eliminatsiya usuli** va **iteratsion (ketma-ket yaqinlashish) usullari** ham qo‘llaniladi. Bu usullar yordamida tizimning parametrlarini aniqlash va ularning o‘zgarishiga qarab tizimni optimallashtirish mumkin.

Tizimning barcha parametrlarini hisoblash va barqaror holatini aniqlash uchun yuqoridagi matematik modellardan foydalanish mumkin. Tarmoqdagi toklar va qarshiliklarni hisoblash, tizimning barcha elementlarining o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilishga yordam beradi. Yangi matritsalar yordamida tizimning umumiy holat tenglamasi tuziladi, va bu tenglama yordamida tizimni tahlil qilish mumkin.

Fundamental va amaliy fanlarning taraqqiyoti fizik tushunishlarni matematikalashtirish, matematik modellashtirish usullarini intensiv qo‘llash va ularni zamonaviy EHMlar yordamida yechishni talab qilmoqda.

“Energetikaning matematik masalalari” fanining asosiy vazifasi bo‘lib matematika fanini energetika yo‘nalishi masalalarini yechish bilan boshlash va energetika sohasida tadqiqotlar o‘tkazish uchun matematik apparat berishdir.

Ushbu maqola “Energetikaning matematik masalalari” fanidan bajarilishi lozim bo‘lgan masalani o‘z ichiga oladi.

Masala

Elektr energetika tizimini matritsa ko‘rinishidagi holat tenglamalari tuzilsin.



1 – rasm. Elektr energetika tizimining prinsipial sxemasi.

Yuqoridagi berilgan sexema bo‘yicha elektr energetika tizimini matritsa ko‘rinishidagi holat tenglamalari tuzilsin.

bu yerda:

ES1, ES2 – elektr stantsiyalari;

G1, G2 – elektr stantsiyalari generatorlari;

T1, T4 – elektr stantsiyalar podstantsiyalari transformatorlari;

T3, T4 – podstantsiyalar transfarmatorlari;

L1, L2, L3, L4, – elektr uzatish liniyalari.

Elektr energetika tizimi – bu elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va iste‘mol qilish uchun mo‘ljallangan elektr zanjiridir. Elektr zanjiri va uning qismlarini ulanish ketma - ketligini ko‘rsatuvchi hamda uning asosiy xususiyatlarini aks ettiruvchi chizma elektr zanjirining almashtirish sxemi deyiladi. Elektr zanjir va unga mos almashtirish sxemasiga nisbatan zanjirlarga tegishli bo‘lgan tugun, shaxobcha va kontur tushunchalarini qo‘llash mumkin.

Tugun - ikki va undan ortiq shaxobchalar tutashadigan nuqta sifatida ifodalanadi.

Shaxobcha - EYUK va qarshilikdan (yoki faqatgina qarshilikdan) iborat bo‘lgan zanjirning bir qismi hisoblanadi. Shaxobcha bo‘ylab oqadigan tok bir xil qiymatga ega.

Kontur - zanjirning shunday bir qismiki, u ketma-ket joylashgan shaxobchalardan iborat bo‘lib, uning birinchi shaxobchasi boshi so‘ngi shaxobchasi oxiri bilan bir tugunda birlashadi.



2 – rasm. Elektr energetika almashtirish sxemasi

Har qanday texnik sxemalarni nuqtalar va ushbu nuqtalarni birlashtiruvchi chiziqlar yordamida ya‘ni graf ko‘rinishida ifodalash mumkin. Xususan, barqarorlashgan holatlarni hisoblashda ishlatiladigan almashtirish sxemasini, stansiya va podstansiyalarning elektr bog‘lanishlar sxemalarini ifodalashni misol qilish mumkin.

Graflar bilan ishlashga asoslangan matematikaning yo‘nalishi graflar nazariyasi (GN) deb ataladi va unda ob‘ektning (hodisa, jarayon) xususiyatlarini va bog‘lanishlarini o‘rganishda geometrik yondashuvdan foydalaniladi.

Elektr energetika tizimining sxemasi konfiguratsiyasini bog‘langan graf shaklida tasvirlaymiz. Grafning tarmoqlari ma’lum bir belgilangan yo‘nalishga ega bo‘lganligi uchun (tok yo‘nalishi bo‘yicha), grafni yo‘naltirilgan deb qabul qilamiz. Quyidagi 3 - rasmda elektr energetika tizimining bog‘langan yo‘naltirilgan grafigi.



3 - rasm. Elektr energetika tizimining bog‘langan yo‘naltirilgan grafigi

Zamonaviy elektr energetika tizimlarining almashtirish sxemalari yuzlab tugun va shaxobchalarga ega. Bunday tizimlar holatini ifodalash yuqori tartibli tenglamalar tizimidan foydalanishni talab etadi. Bu esa o‘z navbatida ma‘lum bir qiyinchiliklar bilan bog‘liq. Undan tashqari bunday tenglamalarni tuzishda, har qanday murakkablikdagi sxemalarga to‘g‘ri keladigan, umumiy yondashuv bo‘lishi kerak.

Bunday yondashuvni matritsalar algebrasi elementlari yordamida ishlab chiqish mumkin. Matritsalar algebrasi, tenglamalar tizimiga kiruvchi, alohida kattaliklar bilan emas balki umumiy sifatlarga ega kattaliklar guruhi bilan ishlashni nazarda tutadi va ushbu guruh yagona o‘zgaruvchi bilan ifodalanishi mumkin. Matritsalar algebrasidagi amallar esa, ayrim xususiyatlarni hisobga olmaganda, elementar algebradan ma‘lum bo‘lgan amallarga o‘xshash bo‘ladi.

Tizimdagi qiyinchiliklarni hal qilish uchun quyidagi matritsalar yordamida umumiy holat tenglamasi tuziladi. Bu tenglama tizimning barcha parametrlarini, jumladan, tok kuchlari va qarshiliklarni hisoblash imkonini beradi

Tarmoqlarning tugunlarda ulanishini ko‘rsatuvchi 1 - insedensiya matritsasi to‘g‘ri burchakli matritsa bo‘lib, uning qatorlar soni elektr energetika tizimining tugunlari soniga (***n*** ga), ustunlar soni esa elektr energetika tizimining tarmoqlari soniga (***m*** ga) teng.

$M_1=(M_{ij})$, $i=\overline{1,n}$ $j=\overline{1,m}$

M_1 – matritsaning elementlari uchtadan bitta qiymatni qabul qiladi va quyidagicha tuziladi:

1) M_{ij}=+1 agar i – tugun j – tarmoqning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lsa;
2) M_{ij}=-1 agar i – tugun j – tarmoqning oxirgi nuqtasi bo‘lsa;
3) M_{ij}=0 agar i – tugun j – tarmoqqa tegishli bo‘lmasa;

Demak, berilgan misol uchun

$$M_1=\begin{bmatrix}1 & 0 & 1 & 0\\ -1 & -1 & 0 & 0\\ 0 & 1 & -1 & -1\\ 0 & 0 & 0 & 1\end{bmatrix}\begin{matrix}A\\B\\C\\D\end{matrix}\Bigg\}\text{ tugunlar}$$

$$\underbrace{1 \quad 2 \quad 3 \quad 4}_{\text{tarmoqlar}}$$

Tarmoqlarning mustaqil konturlarda ulanishini ko‘rsatuvchi 2-insedensiya matrisasi N_1 to‘g‘ri burchakli matrisa bo‘lib, uning qatorlar soni elektr energetika tizimidagi mustaqil konturlar soniga (***k*** ga), ustunlar soni esa elektr energetika tizimi tarmoqlari soniga (***m*** ga) teng.

$N_1=(N_{ij})$, $i=\overline{1,k}$ $j=\overline{1,m}$

N_1 – matrisaning elementlari uchtadan bitta qiymatni qabul qiladi va quyidagicha tuziladi:

1) N_{ij}=+1 agar j – tarmoq k – konturga kirsa va ularning yo‘nalishlari bir xil bo‘lsa;
2) N_{ij}=-1 agar j – tarmoq k – konturga kirsa va ularning yo‘nalishlari teskari bo‘lsa;
3) N_{ij}=0 agar j – tarmoq k – konturga kirmasa;

Demak, berilgan misol uchun

$N_1 = (1 \quad -1 \quad -1 \quad 0)$ 1 ta} bog‘liq bo‘lmagan mustaqil konturlar soni (k=1)

$\underbrace{1 \quad 2 \quad 3 \quad 4}$ tarmoqlar

Elektr energetika tizimidagi berilgan parametrlar va kattaliklar matritsalari hamda 1 - va 2 insedensiya matritsalar asosida elektr energetika tizimi almashtirish sxemasi parametrlarining asosiy matritsasi (A) ni va berilgan parametrlar va kattaliklarning asosiy matritsasi (F) ni tuzamiz. Yuqoridagi barcha usullar yordamida elektr energetika tizimining holat tenglamasi tuziladi. Bu tenglama tizimning barcha elementlarini, ulardagi toklar va qarshiliklarni aniqlashga yordam beradi. Tizimning umumiy holat tenglamasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$A=\begin{bmatrix}M_1\\ N_1\cdot Z\end{bmatrix},\ F=\begin{bmatrix}J\\ E\end{bmatrix}$$

bu yerda

$Z=(Z_i)$, $i=\overline{1,m}$ – tarmoqlar qarshiliklari diaganal matritsasi 2-jadvaldan olinadi;

$J = (J_i)$, $i = \overline{1, n\text{-}1}$ tugunga berilgan toklardan iborat matritsa 2-jadvaldan olinadi;

$E_k = (E_{ki})$, $i = \overline{1, m}$ – tarmoq E.Y.K. lari 2-jadvaldan olinadi.

Qaralayotgan elektr energetika tizimida quyidagilar berilgan:

$$J = \begin{bmatrix} J_1 \\ J_2 \\ J_3 \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} 3 \\ -3 \\ -1 \end{bmatrix}, \quad E = (E_i) = 0, \quad Z = (Z_i) = \begin{bmatrix} 2 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 2 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 2 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 2 \end{bmatrix}$$

Demak, berilgan parametrlar va kattaliklarning asosiy matritsasi (**F**) quyidagicha tuziladi:

$$F = \begin{bmatrix} J \\ E_k \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} 3 \\ -3 \\ -1 \\ 0 \end{bmatrix}$$

Endi elektr energetika tizimi almashtirish sxemasi parametrlarining asosiy matritsasi (**A**) ni tuzamiz:

D tugunni balanslovchi deb qabul qilib (oxirgi qatorda bo‘lgani uchun) M_1 -matritsadan oxirgi qatorni o‘chirib, M_2 matrisani hosil qilamiz.

$$M_2 = \begin{bmatrix} 1 & 0 & 1 & 0 \\ -1 & -1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & -1 & -1 \end{bmatrix}$$

$$N_1 \cdot Z = [1 \quad -1 \quad -1 \quad 0] \cdot \begin{bmatrix} 2 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 2 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 2 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 2 \end{bmatrix} = [2 \quad -2 \quad -2 \quad 0]$$

Demak,

$$A = \begin{bmatrix} M_1 \\ N_1 \cdot Z \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} 1 & 0 & 1 & 0 \\ -1 & -1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & -1 & -1 \\ 2 & -2 & -2 & 0 \end{bmatrix}$$

Yuqoridagi A va F matrisalar asosida elektr energetika tizimining umumlashgan holat tenglamasi $A \cdot I = F$ quyidagi ko`rinishda tuziladi:

$$\begin{bmatrix} 1 & 0 & 1 & 0 \\ -1 & -1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & -1 & -1 \\ 2 & -2 & -2 & 0 \end{bmatrix} \cdot \begin{bmatrix} I_1 \\ I_2 \\ I_3 \\ I_4 \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} 3 \\ -3 \\ -1 \\ 0 \end{bmatrix}$$

bu yerda I - tarmoq tok kuchlaridan iborat matritsa.

$$I = \begin{bmatrix} I_1 \\ I_2 \\ I_3 \\ I_4 \end{bmatrix}$$

Ushbu tenglamalar tizimi yordamida elektr energetika tizimining holatini matematik ravishda tahlil qilish mumkin. Bundan tashqari, Matlab zamonaviy paketi orqali energetika tizimlarining ishonchliligini oshirish uchun matritsalar va matematik modellar asosida ishlash jarayonini ko'rib chiqamiz:





Elektr energetika tizimlarini matematik modellashtirish va hisoblash usullarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Matematik modellashtirish tizimning fizikaviy ko'rinishini aniq formulalar va tenglamalar orqali ifodalashga yordam beradi. Bu yondashuv zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida tizimning barqarorligini va optimal ishlashini aniqlashga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Хошимов Ф.А., Таслимов А.Д. Энергия тежамкорлиги асослари. Ўкув кўлланма.Т.: —Ворис, 2014. -192 бет.

2. Karshibayev A.I., Mavlonov J.A.—Energetikaning matematik masalalari: O‘quv qo‘llanma. Navoiy-2019.-182 bet.

3. William J. Palm III , "MATLAB for Engineers: Applications in Control, Electrical Engineering, IT, and Robotics". O’quv qo’llanma. –USA: “McGraw-Hill Education” 2017, 744 bet

LOGISTIKA VA RESURSLARNI TAQSIMLASHDA TRANSPORT MASALASINING POTENTSIALLAR USULI YORDAMIDA YECHILISHI

Xasanov J. A.
Navoiy davlat koncilik va texnologiyalari universiteti magistri

Tayanch so'zlar: transport masalasi, potentsiallar usuli, simpleks usuli, chiziqli dasturlash, optimal yechim, iterativ yondashuv, resurslarni taqsimlash, logistika, minimal xarajatlar, algoritmik yechim.
Ключевые слова: транспортная задача, метод потенциалов, симплекс-метод, линейное программирование, оптимальное решение, итерационный подход, распределение ресурсов, логистика, минимальные затраты, алгоритмическое решение.
Key words: transportation problem, potential method, simplex method, linear programming, optimal solution, iterative approach, resource allocation, logistics, minimal costs, algorithmic solution.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada transport masalasining mohiyati, uning iqtisodiyot va sanoatdagi ahamiyati hamda uni yechishda potentsiallar usulining nazariy va amaliy asoslari keng yoritiladi. Transport masalasi mahsulotlarni omborlardan iste'mol punktlariga minimal xarajatlar bilan yetkazib berishni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, uning samarali yechilishi ishlab chiqarish va taqsimlash jarayonlarini optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada potentsiallar usuli simpleks usuliga asoslangan holda iterativ yondashuv orqali boshlang'ich tayanch rejadan boshlab optimal yechimga erishish jarayoni batafsil ko'rib chiqiladi. Nazariy asoslar bilan bir qatorda, aniq misol yordamida ushbu usulning algoritmik yechimi, potentsiallarning hisoblanishi, optimal yechimni topish uchun bajariladigan qadamlar yoritiladi. O'rganib chiqish natijalari transport masalalarini samarali va iqtisodiy jihatdan maqbul yechish imkoniyatini ko'rsatib, potentsiallar usulining chiziqli dasturlash va resurslarni taqsimlash sohalaridagi ahamiyatini yanada mustahkamlaydi. Mazkur tizim nafaqat transport masalalarida, balki turli sohalarda resurslarni optimallashtirish uchun keng qo'llanilishi mumkin bo'lgan ishonchli metod hisoblanadi.
РЕЗЮМЕ:
В статье подробно рассматривается сущность транспортной задачи, её значение в экономике и промышленности, а также теоретические и практические основы метода потенциалов для её решения. Транспортная задача направлена на обеспечение доставки товаров со складов в пункты потребления с минимальными затратами, играя ключевую роль в оптимизации процессов производства и распределения. В статье тщательно изучается итеративный подход метода потенциалов, основанный на симплекс-методе, с подробным описанием процесса достижения оптимального решения, начиная с начального базисного допустимого

решения. Наряду с теоретическими основами, алгоритмическое решение метода иллюстрируется конкретным примером, включая расчет потенциалов и шаги, необходимые для нахождения оптимального решения. Результаты исследования демонстрируют эффективность и экономическую целесообразность метода потенциалов при решении транспортных задач, что дополнительно подчеркивает его важность в области линейного программирования и распределения ресурсов. Этот подход считается надежным методом, применимым не только к транспортным задачам, но и широко к оптимизации ресурсов в различных областях.

SUMMARY:

This article extensively covers the essence of the transportation problem, its significance in economics and industry, and the theoretical and practical foundations of the potential method for its solution. The transportation problem aims to ensure the delivery of goods from warehouses to consumption points at minimal cost, playing a crucial role in optimizing production and distribution processes. The article thoroughly examines the iterative approach of the potential method, based on the simplex method, detailing the process of reaching an optimal solution starting from an initial basic feasible solution. Alongside theoretical foundations, the algorithmic solution of the method is illustrated with a concrete example, including the calculation of potentials and the steps required to find the optimal solution. The research findings demonstrate the potential method's effectiveness and economic feasibility in solving transportation problems, further reinforcing its importance in linear programming and resource allocation fields. This approach is considered a reliable method applicable not only to transportation problems but also broadly to resource optimization in various domains.

Transport masalasi - bu amaliy va nazariy jihatdan muhim bo‘lgan, ko‘p tarmoqli iqtisodiyot va sanoat muammolarini hal qilishda keng qo‘llaniladigan chiziqli dasturlash masalalaridan biridir. Ushbu masala asosan mahsulotlarni bir nechta ishlab chiqarish (ombor) punktlaridan talab qilinadigan iste’mol (do‘kon) punktlariga minimal xarajatlar bilan yetkazib berishni tashkil etadi. Transport masalasini samarali yechish usullari iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ishlab chiqarish va taqsimlash jarayonlarini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Transport masalasining aniq va samarali yechimlari uchun potentsiallar usuli ishlab chiqilgan. Ushbu usul transport masalasiga moslashtirilgan simpleks usulga asoslangan bo‘lib, u o‘z davrida chiziqli dasturlash masalalarini yechishda yangi, mustaqil yondashuv sifatida qabul qilingan. Potentsiallar usulining asosiy g‘oyasi - boshlang‘ich tayanch rejadan boshlab, har bir iteratsiyada potentsiallar orqali optimal yechimga yaqinlashishdir.

Har bir ishlab chiqaruvchi va iste’mol nuqtasiga mos keluvchi potentsial miqdorlar (u_i va v_j) transport xarajatlari bilan bog‘langan holda aniqlanadi. Ushbu potentsiallar yordamida har bir katakchaning (yo‘lovchining) optimal yoki nooptimalligi tekshiriladi va kerak bo‘lsa, rejalar almashinuvi orqali optimal yechimga erishiladi. Bu usul, minimal xarajatlarni hisobga olgan holda, chekli sonli iteratsiyalarda masalaning optimal yechimini topishga imkon beradi.

Hozirgi kunda potentsiallar usuli transport muammolarini yechishda keng qo‘llanilib, logistika, taqsimot zanjirlari, resurslarni taqsimlash va boshqa ko‘plab sohalarda samarali natijalar beradi. Ushbu maqolada potentsiallar usulining nazariy asoslari va algoritmik yechimlari hamda konkret misol yordamida yechim jarayoni batafsil ko‘rib chiqiladi.

Potentsiallar usuli yordami bilan boshlangich tayanch rejadan boshlab, optimal yechimga yaqinroq bo’lgan yangi tayanch rejaga o’tib borib, chekli sondagi iteratsiyadan so’ng masalaning optimal yechimi topiladi. Har bir iteratsiyada topilgan tayanch reja optimal reja ekanini tekshirish uchun har bir ishlab chiqaruvchi (A_i) va (B_j) punktga uning potentsiali deb ataluvchi miqdor u_i va v_j mos keladi. Bu potentsiallar shunday tanlanadiki,bunda o’zaro bog’langan A_i va B_j punktlarga mos keluvchi potentsiallar yig’indisi C_{ij} ga (A_i dan B_j ga birlik mahsulotni tashish uchun sarf qilinadigan transport xarajatiga) teng bo’lishi kerak. Agar $H^* = h_{ij}^*$ reja transport masalasining optimal rejasi bo’lsa, u holda unga

$$u_i^* + v_j^* = c_{ij}^* \ (X^*_{ij} > 0) \qquad (1)$$

$$u_i^* + v_j^* \le 0 \ (X^*_{ij} = 0) \qquad (2)$$

shartlarni qanoatlantiruvchi $n+m$ ta u_i^* va v_j^* potentsiallar mos keladi.

Boshlang'ich reja bo'lishi uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

a) Har bir to'ldirilgan (mahsulot taqsimlangan) katakcha uchun

$$u_i + v_i = c_{ij} \qquad (3)$$

b) Har bir bo'sh (mahsulot taqsimlanmagan) katakcha uchun

$$u_i + v_j = c^*_{ij} \qquad (4)$$

Agar kamida bitta bo'sh katakcha uchun (8) shart bajarilmasa, topilgan boshlang'ich reja optimal reja bo'lmaydi va

$$max(u_i + v_j) = \Delta_{ij}, \ (\Delta_{ij} = u_i + v_j - c_{ij}) \qquad \Delta_{ij} > 0$$

Shartni qanoatlantiruvchi (i, j) katakchani to'ldirilgan katakchaga aylantirish kerak bo'ladi.

Shunday qilib, potentsial usulining algoritmi quyidagilardan iborat:

1. Yuqoridagi ko'rilgan usullarning biridan foydalanib, boshlang'ich reja topiladi.
2. Topilgan rejani optimal reja ekanligini tekshirish uchun potentsiallar sistemasi tuziladi. Buning uchun (2) formuladan foydalanib, har bir to'ldirilgan katakcha (3) uchun ko'rinishdagi potensial tenglamalar tuziladi.

Ma'lumki, transport masalasininig rejadagi 0 dan farqli bo'lgan o'zgaruvchilar soni $n+m-1$ ta. Demak, potensial tenglamalar sistemasi $n+m$ ta no'malumli $n+m-1$ tenglamalar sistemasidan iborat bo'ladi. Bu sistemada no'malumlar soni tenglamalr sonidan ortiq bo'lganligi sababli, potensiallarning son qiymatini toppish uchun ulardan ixtiyoriy bittasiga ixtiyoriy qiymat, soddalik uchun nol qiymat berib, qolganlarini birin ketin topish mumkin. Faraz qilaylik, a_i ma'lum bo'lsin, u holda (2) dan v_j topiladi:

$$v_j = c_{ij} - u_i$$

Agar v_j ma'lum bo'lsa, u holda u_i quyidagicha topiladi:

Barcha potensiallarning son qiymatini tanlab bo'lgach, hamma bo'sh katakchalar uchun

$$\Delta_{ij} = u_i + v_j - c_{ij} \qquad (5)$$

hisoblanadi. Agar barcha i va j lar uchun

$$\Delta_{ij} \le 0, \qquad (i = \overline{1,m}; \ j = \overline{1,n})$$

o'rinli bo'lsa , topilgan boshlangich reja optimal reja bo'ladi.

3. Agar i va j larning kamida bir qiymati uchun $\Delta_{ij} \ge 0$ bo'lsa, boshlang'ich tayanch reja almashtiriladi. Buning uchun potentsiallik sharti buzilmagan katak uchun yopiq zanjir, tsikl tuziladi. Tsiklda ushbu katak bo'sh qolgan kataklarda yuk qo'yilmagan bo'lishi kerak. So'ngra soat strelkasi bo'yicha potentsiallik sharti buzilgan katakka 20 $(+)$ navbatdagi katakka $(-)$ va hokazo ishoralari qo'yib boramiz. $(-)$ ishorali katakdan $(+)$ ishorali katakka $(-)$ ishorali kataklardagi eng kam yuk miqdoridagi yukni ko'chirib yangi reja tuzamiz.

4. Tuzilgan yangi reja uchun potentsiallar shartini tekshiramiz. Agar topilgan yangi reja optimal bo'lmasa yana shu qadam takrorlanadi.

misol. A_1, A_2, A_3 omborlarda mos ravishda $a_1 = 510$, $a_2 = 90$, $a_3 = 120$ tonnadan yuk bor. Bu yukni V_1, V_2, V_3 va V_4 do'konlarga mos ravishda $v_1 = 270$, $v_2 = 140$, $v_4 = 200$, $v_4 = 110$ tonnadan qilib taqsimlanishi kerak. Agar bir tonna yukni A_i $(i = 1,2,3)$ ombordan V_j $(j = 1,2,3,4)$ ga olib borish uchun ketadigan xarajat:

$$\begin{pmatrix} 1 & 4 & 7 & 3 \\ 5 & 6 & 8 & 9 \\ 7 & 2 & 4 & 8 \end{pmatrix}$$

ga teng bo'lsa, yukni tashishning optimal rejasini tuzing.

A_1 ombordan V_1, V_2, V_3 va V_4 do'konlarga olib borilishi kerak bo'lgan yuklarni $h_{11}, h_{12}, h_{13}, h_{14}$, bilan A_2 ombordan V_1, V_2, V_3 va V_4 do'konlarga olib borilishi kerak bo'lgan

yuklarni $h_{21}, h_{22}, h_{23}, h_{24},$ bilan A_3 ombordan V_1, V_2, V_3 va V_4 do'konlarga olib borilishi kerak bo'lgan yuklarni $h_{31}, h_{32}, h_{33}, h_{34}$,bilan belgilab olaylik. U holda masala shartiga ko'ra:

$$\begin{cases} x_{11}+x_{12}+x_{13}+x_{14}=510 \\ x_{21}+x_{22}+x_{23}+x_{24}=90 \\ x_{31}+x_{32}+x_{33}+x_{34}=120 \\ x_{11}+x_{21}+x_{31}=270 \\ x_{12}+x_{22}+x_{32}=140 \\ x_{13}+x_{23}+x_{33}=200 \\ x_{14}+x_{24}+x_{34}=110 \end{cases} \quad (6)$$

$$x_{ij} \geq 0 \ (i=1,2,3) \ (j=1,2,3,4) \quad (7)$$

Tenglamalar sistemasining ichidan

$$z = h_{11}+4h_{12}+7h_{13}+3h_{14}+5h_{21}+6h_{22}+8h_{23}+9h_{24}+7h_{31}+ \\ +2h_{32}+4h_{33}+8h_{34}$$

Maqsad funktsiyasiga minimal qiymat bera oladiganini topamiz. (6) va (7) lar uqoridagi masalaning matematik modelidir. Masalani jadvallar yordamida yechamiz:

Jo'natish punkiti	Qabul qilish punkiti				Zahira
A_1	B_1	B_2	B_3	B_4	
	1	4	7	3	

	270	20	110	110	510
A_2	5	6	8	9	
			90		
A_3	7	2	4	8	120
		120			
Ehtiyoji	270	140	200	110	720

Tuzilgan boshlangich reja bo'yicha yuk tashish uchun ketadigan xarajat

$$\begin{cases} \alpha_1+\beta_1=1 & \alpha_1=0 \\ \alpha_1+\beta_2=4 & \beta_1=1 \\ \alpha_1+\beta_3=7 & \beta_2=4 \\ \alpha_1+\beta_4=3 & \beta_3=7 \\ \alpha_2+\beta_2=2 & \beta_4=3, \end{cases} \quad \alpha_2=1, \ \alpha_3=-2$$

Yuk qo'yilmagan kataklar uchun

$$\alpha_2+\beta_1=1+1=2<5$$
$$\alpha_2+\beta_2=1+4=5<6$$
$$\alpha_3+\beta_1=-2+1=-1<7$$
$$\alpha_3+\beta_3=-2+7=5>4$$
$$\alpha_3+\beta_4=-2+3=1<8$$

Potentsiallik sharti A_3 B_3 katakda buzildi shu katak uchun tsikl tuzib yangi jadval tuzamiz:

Jo'natish punkiti	Qabul qilish punkiti				Zahira
	B_1	B_2	B_3	B_4	
A_1	1	4	7	3	510
	270	130		1	
				10	
A_2	5	6	8	9	90
			9		
A_3	7	2	4	8	120
		10	11		
			0		
Ehtiyoj	270	140	200	110	720

$$\alpha_1 = 0$$
$$\alpha_1 + \beta_1 = 1,\ \beta_1 = 1, \alpha_1 + \beta_3 = 6 < 7$$
$$\alpha_1 + \beta_2 = 4\ \beta = 4\ \alpha_2 + \beta_1 = 3 < 5$$
$$\alpha_1 + \beta_4 = 3\quad \beta_4 = 3\quad \alpha_2 + \beta_2 = 6 = 6$$
$$\alpha_2 + \beta_3 = 8\quad \alpha_3 = -2\quad \alpha_2 + \beta_4 = 6 < 9$$
$$\alpha_3 + \beta_2 = 2\quad \beta_3 = 6\quad \alpha_3 + \beta_1 = -1 < 7$$
$$\alpha_3 + \beta_3 = 4\quad \alpha_2 = 2\quad \alpha_3 + \beta_4 = 1 < 8$$

potentsiallik sharti bajariladi demak tuzilgan reja optimal ekan.

$Z = 1 \cdot 270 + 4 \cdot 130 + 3 \cdot 110 + 8 \cdot 90 + 2 \cdot 10 + 4 \cdot 110 = 2290$ so'm yuk tashishning eng arzon narxi $Z = 2290$ so′m ekan.

Transport masalalarini yechishda potentsiallar usuli nafaqat nazariy jihatdan mustahkam asosga ega, balki amaliy jihatdan ham keng ko‘lamda qo‘llaniladigan samarali yondashuvdir. Bu usul orqali nafaqat boshlang‘ich yechimdan optimal yechimga intilish jarayoni aniq va tizimli tarzda amalga oshiriladi, balki har bir iteratsiyada tizimning holati potentsiallar yordamida o‘lchanadi va kerakli o‘zgartirishlar kiritiladi.

Natijada, minimal xarajatli tashish rejasi aniq topilib, iqtisodiy resurslarni optimal taqsimlashga erishiladi. Transport masalasining murakkabligi va o‘lchamlarining o‘sishiga qaramay, potentsiallar usuli o‘zining iterativ mexanizmi va tsikllar orqali muammoni samarali hal qilish imkoniyatini beradi. Shuningdek, usulning matematik jihatdan puxta asoslanganligi va amaliy natijalari uning chiziqli dasturlash sohasidagi ahamiyatini yana-da oshiradi. Ushbu metodologiya nafaqat transport sohasida, balki boshqa resurslarni taqsimlash va optimallashtirish masalalarida ham keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan qulay va ishonchli yechim vositasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharahmetov Sh., Kurbanov O.T. Iqtisodchilar uchun matematika. Darslik.T.: -O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017. -381 bet.

2. Sharahmetov Sh., Naimjonov A. Iqtisodchilar uchun matematika. Darslik.T.: -fan va texnologiya nashriyoti, 2007. -304 bet.

TESKARI MATRITSA, GAUSS VA KETMA-KET YAQINLASHISH USULLARI ELEKTR ENERGETIKA TIZIMLARINING TURG'UN HOLAT TAHLILIDA

Abdullayeva D.A., Ismoilova Z.T., Tag'oyev F.Yo.
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Tayanch so'zlar: elektr tizimlari, turg'un holat, matematik modellashtirish, matritsa usuli, holat tenglamalari, Gauss usuli, ketma-ket yaqinlashish usuli, tarmoq toklari matritsasi, tizim matritsasi, tugun toklari, kontur, boshlang'ich taxminiy qiymatlar, iteratsiya, hisoblash samaradorligi, tizimning o'lchami.
Ключевые слова: электрические системы, устойчивое состояние, математическое моделирование, матричный метод, уравнения состояния, метод Гаусса, метод последовательного приближения, матрица тока сети, матрица системы, узловые токи, контур, начальные приблизительные значения, итерация, вычислительная эффективность, определение размеров системы.
Key words: electrical systems, steady state, mathematical modeling, matrix method, equations of state, Gauss method, successive approximation method, network current matrix, system matrix, nodal currents, loop, initial approximations, iteration, computational efficiency, system sizing.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada murakkab tuzilishga ega bo'lgan elektr energetika tizimlarining holatini ifodalash va tahlil qilishda matematik modellashtirish, xususan matritsa usullari keng qo'llaniladi. Elektr energetika tizimlarining turg'un holat tenglamalarini yechishning teskari matritsa usuli, bo'lishning birlik sxemasi va iterativ usullari batafsil tahlil qilindi.
РЕЗЮМЕ:
В статье широко используется математическое моделирование, в частности матричные методы, для представления и анализа состояния энергосистем со сложной структурой. Подробно проанализированы метод обратной матрицы, схема унитарного деления и итерационные методы решения стационарных уравнений электроэнергетических систем.
SUMMARY:
The article makes extensive use of mathematical modeling, in particular matrix methods, to represent and analyze the state of power systems with a complex structure. The inverse matrix method, the unitary division scheme, and iterative methods for solving stationary equations of electric power systems are analyzed in detail.

Elektr energetika tizimlarining turg'un holatini tahlil qilish uchun matritsa usuli, xususan teskari matritsa usuli va Gauss usuli muhim ahamiyatga ega. Keltirilgan misollar bu usullarning amaliyotda qanday qo'llanilishini ko'rsatib beradi.

Endi esa, masalaning uchinchi qismi bo'yicha, ya'ni elektr energetika tizimini matritsa ko'rinishidagi holat tenglamalarini ketma-ket yaqinlashish usuli yordamida tadqiq qilishni ko'rib chiqamiz:

Ketma-ket yaqinlashish usuli, ayniqsa katta o'lchamli tizimlar uchun, hisoblash jarayonini iterativ tarzda amalga oshirish imkonini beradi. Bu usulda boshlang'ich taxminiy qiymatlar olinadi va keyingi iteratsiyalarda aniqroq qiymatlar hisoblab topiladi. Jarayon oldindan belgilangan aniqlikka erishilgunga qadar davom etadi.

Elektr energetika tizimlarida bu usul ko'pincha tugun kuchlanishlarini aniqlash uchun qo'llaniladi, lekin tarmoq toklarini aniqlash uchun ham moslashtirilishi mumkin.

Elektr energetika tizimlari murakkab tuzilishga ega bo'lib, ularning tahlili va optimallashtirishda matematik modellashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Matritsa usuli elektr energetika tizimlarining holatini ifodalash va tahlil qilishda keng qo'llaniladi.

Masala: Elektr energetika tizimini matritsa ko‘rinishidagi holat tenglamalari teskari matritsa, Gauss va ketma-ket yaqinlashish usullari yordamida tadqiq qilinsin.



Turg'un holat tenglamalari va matritsa ko'rinishi

Elektr energetika tizimining turg'un holat tenglamasi quyidagi matritsa ko'rinishida ifodalanadi:

$$A\ I=F$$

bu yerda:

A - tizimning matritsasi;

I - tarmoq toklari matritsasi;

F - tugun toklari va kontur EYUKlari matritsasi.

Tarmoq toklarini aniqlash uchun ushbu tenglamani yechish zarur. Teskari matritsa usuli bu tenglamani yechishning bir usuli hisoblanadi. Bu usulda tarmoq toklari quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$I= A^{-1} F$$

Teskari matritsani quyidagi formula orqali hisoblash:

$$A^{-1}=\frac{1}{\Delta}\tilde{A}$$

Teskari matritsa usuli elektr energetika tizimlarining turg'un holatini tahlil qilishda keng qo'llaniladi. Bu usul yordamida tarmoq toklari, kuchlanishlar va boshqa parametrlar aniqlanishi mumkin. Bu ma'lumotlar tizimning ishlashini optimallashtirish va uning ishonchliligini oshirish uchun ishlatiladi.

bu yerda:

$$A=\begin{bmatrix} M_2 \\ N_1 \cdot Z \end{bmatrix}, \qquad F=\begin{bmatrix} J \\ E \end{bmatrix}$$

I – tarmoq toklari matritsasi;

J – tugunga berilayotgan yoki tugundan olinayotgan toklar matritsasi, (bu toklarning qiymatlari 2-jadvaldan olinadi);

M_1 – birinchi insedensiya matritsasi (Tarmoqlarning tugunlarda ulanishlarini belgilovchi matritsa);

N_1 – ikkinchi insedensiya matritsasi (Tarmoqlarning mustaqil konturlarda ulanishlarini belgilovchi matritsa);

$E_k=N\cdot E$ – kontur E.Y.K.lari (har bir mustaqil konturga kiruvchi tarmoqlar E.Y.K.lari yig‘indisi - qiymatlari 2-jadvaldan olinadi).

Z – berilgan parametr va kattaliklar ustun matritsasi.

Elektr energetika tizimi turg‘un holat tenglamasini teskari matritsa usuli bilan yechishga misol.

Tenglamalar sistemasi

$$\begin{cases} I_1+I_3=3 \\ -I_1-I_2=-3 \\ I_2-I_3-I_4=-1 \\ 2I_1-2I_2-2I_3=0 \end{cases}$$

Matritsa ko‘rinishida

$$\begin{bmatrix} 1 & 0 & 1 & 0 \\ -1 & -1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & -1 & -1 \\ 2 & -2 & -2 & 0 \end{bmatrix} \cdot \begin{bmatrix} I_1 \\ I_2 \\ I_3 \\ I_4 \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} 3 \\ -3 \\ -1 \\ 0 \end{bmatrix} \text{ yoki } A\cdot I=F,\ I=A^{-1}\cdot F$$

$I=A^{-1}\cdot F$ ushbu tenglamadan tarmoq toklarini toppish uchun dastavval berilgan A matritsaga teskari A^{-1} ni topamiz.

A^{-1} ni topish uchun A matritsani aniqlovchisini topamiz.

$$\Delta=\begin{bmatrix} 1 & 0 & 1 & 0 \\ -1 & -1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & -1 & -1 \\ 2 & -2 & -2 & 0 \end{bmatrix} = (-1)^{1+1}\cdot 1\cdot \begin{bmatrix} -1 & 0 & 0 \\ 1 & -1 & -1 \\ -2 & -2 & 0 \end{bmatrix} +$$

$$+(-1)^{1+3}\cdot 1\cdot \begin{bmatrix} -1 & -1 & 0 \\ 0 & 1 & -1 \\ 2 & -2 & 0 \end{bmatrix} = (-1)\cdot(-1)\cdot 0 + 1\cdot(-2)\cdot 0 + 0\cdot(-1)\cdot(-2) - 0\cdot(-1)\cdot(-2) - 0\cdot 1\cdot 0$$

$$+ (-1\ (-2)\cdot(-1) + (-1)\cdot 1\cdot 0 + (-1)\cdot(-1)\cdot 2 + 0\cdot(-2)\cdot 0 - 0\cdot 1\cdot 2 - 0\ (-1)\cdot 0 - (-1)$$

$(-1)\cdot(-2)=6\neq 0$

Transponirlangan matritsa A^T ni topamiz (berilgan A matritsaga nisbatan).

$$A^{-1}=\frac{1}{\Delta}\tilde{A}$$

Transponirlangan matritsa A^T (berilgan A matritsaga nisbatan).

$$A^T=\begin{bmatrix} 1 & -1 & 0 & 2 \\ 0 & -1 & 1 & -2 \\ 1 & 0 & -1 & -2 \\ 0 & 0 & -1 & 0 \end{bmatrix}$$

A^T matritsaning har bir elementini uning algebraik to‘ldiruvchisi A_{ij} bilan almashtirib qo‘shma matritsa $\tilde{A}$ ni hosil qilamiz.

$$\widetilde{A}=\begin{bmatrix} A_{11} & A_{12} & A_{13} & A_{14} \\ A_{21} & A_{22} & A_{23} & A_{24} \\ A_{31} & A_{32} & A_{33} & A_{34} \\ A_{41} & A_{42} & A_{43} & A_{44} \end{bmatrix}=\begin{bmatrix} 2 & -2 & 0 & 1 \\ -2 & -4 & 0 & -1 \\ 4 & 2 & 0 & -1 \\ -6 & -6 & -6 & 0 \end{bmatrix}$$

bu yerda:

$$A_{11}=(-1)^{1+1}\cdot\begin{bmatrix} -1 & 1 & -2 \\ 0 & -1 & -2 \\ 0 & -1 & 0 \end{bmatrix}=2;\quad A_{12}=(-1)^{1+2}\cdot\begin{bmatrix} 0 & 1 & -2 \\ 1 & -1 & -2 \\ 0 & -1 & 0 \end{bmatrix}=-2$$

$$A_{13}=(-1)^{1+3}\cdot\begin{bmatrix} 0 & -1 & -2 \\ 1 & 0 & -2 \\ 0 & 0 & 0 \end{bmatrix}=0;\quad A_{14}=(-1)^{1+4}\cdot\begin{bmatrix} 0 & -1 & 1 \\ 1 & 0 & -1 \\ 0 & 0 & -1 \end{bmatrix}=-1$$

$$A_{21}=(-1)^{2+1}\cdot\begin{bmatrix} -1 & 0 & 2 \\ 0 & -1 & -2 \\ 0 & -1 & 0 \end{bmatrix}=-2;\quad A_{22}=(-1)^{2+2}\cdot\begin{bmatrix} 1 & 0 & 2 \\ 1 & -1 & -2 \\ 0 & -1 & 0 \end{bmatrix}=-4$$

$$A_{23}=(-1)^{2+3}\cdot\begin{bmatrix} 1 & -1 & 2 \\ 1 & 0 & -2 \\ 0 & 0 & 0 \end{bmatrix}=0;\quad A_{24}=(-1)^{2+4}\cdot\begin{bmatrix} 1 & -1 & 0 \\ 1 & 0 & -1 \\ 0 & 0 & -1 \end{bmatrix}=-1$$

$$A_{31}=(-1)^{3+1}\cdot\begin{bmatrix} -1 & 0 & 2 \\ -1 & 1 & -2 \\ 0 & -1 & 0 \end{bmatrix}=4;\quad A_{32}=(-1)^{3+2}\cdot\begin{bmatrix} 1 & 0 & 2 \\ 0 & 1 & -2 \\ 0 & -1 & 0 \end{bmatrix}=2$$

$$A_{33}=(-1)^{3+3}\cdot\begin{bmatrix} 1 & -1 & 2 \\ 0 & -1 & -2 \\ 0 & 0 & 0 \end{bmatrix}=0;\quad A_{34}=(-1)^{3+4}\cdot\begin{bmatrix} 1 & -1 & 0 \\ 0 & -1 & 1 \\ 0 & 0 & -1 \end{bmatrix}=-1$$

$$A_{41}=(-1)^{4+1}\cdot\begin{bmatrix} -1 & 0 & 2 \\ -1 & 1 & -2 \\ 0 & -1 & -2 \end{bmatrix}=6;\quad A_{42}=(-1)^{4+2}\cdot\begin{bmatrix} 1 & 0 & 2 \\ 0 & 1 & -2 \\ 1 & -1 & -2 \end{bmatrix}=-6$$

$$A_{43}=(-1)^{4+3}\cdot\begin{bmatrix} 1 & -1 & 2 \\ 0 & -1 & -2 \\ 1 & 0 & -2 \end{bmatrix}=-6;\quad A_{44}=(-1)^{4+4}\cdot\begin{bmatrix} 1 & -1 & 0 \\ 0 & -1 & 1 \\ 1 & 0 & -1 \end{bmatrix}=0$$

$$A^{-1}=\frac{1}{6}\cdot\begin{bmatrix} 2 & -2 & 0 & 1 \\ -2 & -4 & 0 & -1 \\ 4 & 2 & 0 & -1 \\ -6 & -6 & -6 & 0 \end{bmatrix}=\begin{bmatrix} \frac{1}{3} & -\frac{1}{3} & 0 & \frac{1}{6} \\ -\frac{1}{3} & -\frac{2}{3} & 0 & -\frac{1}{6} \\ \frac{2}{3} & \frac{1}{3} & 0 & -\frac{1}{6} \\ -1 & -1 & -1 & 0 \end{bmatrix}$$

Haqiqatdan ham $A\cdot A^{-1}=E$ ekanligini tekshiramiz. Bu yerda E birlik matritsa hisoblanadi. Bosh diagonal elementlari birga teng bo‘lsa bunday matritsa birlik matritsa deb ataladi.

$$E=e_{ij}=\begin{bmatrix} 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 1 \end{bmatrix}$$

A va A^{-1} matritsalarning ko‘paytmasini topish uchun A matritsaning ustunlari soni A^{-1} matritsaning qatorlari soniga teng bo‘lishi lozim. Ikkala matritsaning ko‘paytmasidan hosil bo‘ladigan E matritsaning elementlari A matritsaning mos ustuni elementlarini A^{-1} matritsaning mos qatori elementlariga ko‘paytmalari yig‘indisidan topiladi.

$$\begin{bmatrix} 1 & 0 & 1 & 0 \\ -1 & -1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & -1 & -1 \\ 2 & -2 & -2 & 0 \end{bmatrix}\cdot\begin{bmatrix} \frac{1}{3} & -\frac{1}{3} & 0 & \frac{1}{6} \\ -\frac{1}{3} & -\frac{2}{3} & 0 & -\frac{1}{6} \\ \frac{2}{3} & \frac{1}{3} & 0 & -\frac{1}{6} \\ -1 & -1 & -1 & 0 \end{bmatrix}=$$

$$= \begin{bmatrix} 1\cdot\frac{1}{3}+0\cdot\left(-\frac{1}{3}\right)+1\cdot\frac{2}{3}+0\cdot(-1) & 1\cdot\left(-\frac{1}{3}\right)+0\cdot\left(-\frac{2}{3}\right)+1\cdot\frac{1}{3}+0\cdot(-1) \\ -1\cdot\frac{1}{3}+(-1)\cdot\left(-\frac{1}{3}\right)+0\cdot\frac{2}{3}+0\cdot(-1) & -1\cdot\left(-\frac{1}{3}\right)-1\cdot\left(-\frac{2}{3}\right)+0\cdot\frac{1}{3}+0\cdot(-1) \\ 0\cdot\frac{1}{3}+1\cdot\left(-\frac{1}{3}\right)+(-1)\cdot\frac{2}{3}+(-1)\cdot(-1) & 0\cdot\left(-\frac{1}{3}\right)+1\cdot\left(-\frac{2}{3}\right)-1\cdot\frac{1}{3}-1\cdot(-1) \\ 2\cdot\frac{1}{3}-2\cdot\left(-\frac{1}{3}\right)-2\cdot\frac{2}{3}+0\cdot(-1) & 2\cdot\left(-\frac{1}{3}\right)-2\cdot\left(-\frac{2}{3}\right)-2\cdot\frac{1}{3}+0\cdot(-1) \end{bmatrix}$$

$$\begin{matrix} 1\cdot0+0\cdot0+1\cdot0+0\cdot(-1) \\ -1\cdot0-1\cdot0+0\cdot0+0\cdot(-1) \\ 0\cdot0+1\cdot0-1\cdot0-1\cdot(-1) \\ 2\cdot0-2\cdot0-2\cdot0+0\cdot(-1) \end{matrix} \begin{bmatrix} 1\cdot\frac{1}{6}+0\cdot\left(-\frac{1}{6}\right)+1\cdot\left(-\frac{1}{6}\right)+0\cdot0 \\ -1\cdot\frac{1}{6}-1\cdot\left(-\frac{1}{6}\right)+0\cdot\left(-\frac{1}{3}\right)+0\cdot0 \\ 0\cdot\frac{1}{6}+1\cdot\left(-\frac{1}{6}\right)-1\cdot\left(-\frac{1}{6}\right)-1\cdot0 \\ 2\cdot\frac{1}{6}-2\cdot\left(-\frac{1}{6}\right)-2\cdot\left(-\frac{1}{6}\right)+0\cdot0 \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 1 \end{bmatrix}$$

Tenglama ildizlarini topamiz.

$$\begin{bmatrix} I_1 \\ I_2 \\ I_3 \\ I_4 \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} \frac{1}{3} & -\frac{1}{3} & 0 & \frac{1}{6} \\ -\frac{1}{3} & -\frac{2}{3} & 0 & -\frac{1}{6} \\ \frac{2}{3} & \frac{1}{3} & 0 & -\frac{1}{6} \\ -1 & -1 & -1 & 0 \end{bmatrix} \cdot \begin{bmatrix} 3 \\ -3 \\ -1 \\ 0 \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} \frac{1}{3}\cdot3-\frac{1}{3}\cdot(-3)+0\cdot(-1)+\frac{1}{6}\cdot0 \\ -\frac{1}{3}\cdot3-\frac{2}{3}\cdot(-3)+0\cdot(-1)-\frac{1}{6}\cdot0 \\ \frac{2}{3}\cdot3+\frac{1}{3}\cdot(-3)+0\cdot(-1)-\frac{1}{6}\cdot0 \\ -1\cdot3-1\cdot(-3)-1\cdot(-1)+0\cdot0 \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} 2 \\ 1 \\ 1 \\ 1 \end{bmatrix}$$

I_1=2 A, I_2=1 A, I_3=1 A, I_4=1 A

Elektr energetika tizimi holat tenglamasini Gaussning bo‘lishning birlik sxemasi asosida yechish

Barqarorlashgan holat tenglamalarini teskari yurishga ega Gauss usuli (Gauss usuli) har qanday tartibli tenglamalar tizimini yechishga mo‘ljallangan bo‘lib umumiy holda ikki bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda tenglamalar tizimidagi noma‘lumlar ketma-ket tarzda yo‘qotiladi. Bunda noma‘lumlarni yo‘qotishdagi qadamlar soni tenglamalar tizimining tartibiga bog‘liq bo‘ladi. *n* - tartibli tenglamalar tizimi uchun qadamlar soni ***n-1*** ga teng bo‘ladi. Ushbu jarayon Gaussning to‘g‘ri yurishi deb atalib, uning oxirida bir noma‘lumli yagona tenglama qoladi. Ikkinchi bosqichda teskari yurish orqali barcha noma‘lumlar ketma-ket aniqlanadi. Ushbu bosqich Gauss usulining teskari yurishi deyiladi. Oxirgi topilgan tenglamadan foydalanib so‘ngi noma‘lum aniqlanadi. So‘ngra, topilgan so‘ngi noma‘lumdan foydalanib, bitta oldingi tenglamadan oldingi noma‘lum topiladi va h.k. Ikkinchi bosqich yakunida dastlabki noma‘lum aniqlanadi. Gauss usulining qo‘llanilishini, quyida keltirilgan **Ax=b** ko‘rinishidagi to‘rtta tenglamadan iborat tenglamalar tizimi uchun ko‘rib chiqaylik:

$$\begin{cases} I_1+I_3=3 \\ -I_1-I_2=-3 \\ I_2-I_3-I_4=-1 \\ 2I_1-2I_2-2I_3=0 \end{cases}$$

Tenglamalar tizimini Gaussning bo‘lishni birlik sxemasi asosida yechish

1-jadval

I_1	I_2	I_3	I_4	Ozod hadlar	Σ	Sxema qismlari
1 -1 0 -2	0 -1 1 -2	1 0 -1 -2	0 0 -1 0	3 -3 -1 0	5 -5 -2 -6	A
1	0	1	0	3	5	$B^{(1)}$
	-1 1 -2	1 -1 -4	0 -1 0	0 -1 -6	0 -2 -12	$A^{(1)}$
	1	-1	0	0	0	$B^{(2)}$
		0 -6	-1 0	-1 -6	-2 -12	$A^{(2)}$
		-6 0	0 -1	-6 -1	-12 -2	$A^{(2)*}$ Chunki A^{11} bo‘limda element $a_{33}=0$
		1	0	1	2	$B^{(3)}$
			-1	-1	-2	$A^{(3)}$
			1	1	2	$B^{(4)}$

Ushbu jadvaldagi $B^{(4)}$ sxemadan ko‘rinib turibdiki $I_4=1A$

$I_3=b_{35}-b_{34}\cdot I_4=1-0\cdot 1=1$ A

$I_2=b_{25}-b_{24}\cdot I_4-b_{23}\cdot I_3=0-0\cdot 1-(-1)\cdot 1=1$ A

$I_1=b_{15}-b_{14}\cdot I_4-b_{13}\cdot I_3-b_{12}\cdot I_2=3-0\cdot 1-1\cdot 1-0\cdot 1=2$ A

Demak, $I_1=2A$; $I_2=1A$; $I_3=1A$; $I_4=1A$. Tekshirish: $I_1+I_3=3 <=> 2+1=3$

Eng ko'p qo'llaniladigan iterativ usullardan biri Gauss-Zeydel usulidir. Bu usullarda har bir noma'lum oldingi iteratsiyadagi boshqa noma'lumlarning qiymatlari orqali hisoblanadi.

Maqolaning avvalgi qismida ko'rsatilgan oddiy iterativ yechish usuli berilgan matritsa uchun yaxshi yaqinlashish bermadi. Iterativ usullarning yaqinlashishi matritsaning xossalariga, xususan diagonal ustunlikka ega bo'lishiga bog'liq. Agar matritsa diagonal ustunlikka ega bo'lsa, iterativ jarayonning yaqinlashishi kafolatlanadi.

Elektr energetika tizimlarining turg'un holatini tahlil qilishda matritsa usullari muhim rol o'ynaydi. Teskari matritsa usuli kichik o'lchamli tizimlar uchun to'g'ridan-to'g'ri yechim berish imkonini bersa, Gauss usuli katta o'lchamli tizimlarni yechishda yanada samaraliroqdir. Ketma-ket yaqinlashish usullari esa, ayniqsa katta va siyrak matritsali tizimlar uchun, iterativ yechimni topishning qulay usuli hisoblanadi. Har bir usulning o'z afzalliklari va kamchiliklari mavjud bo'lib, muayyan masalani yechish uchun eng mos usulni tanlash tizimning o'lchami, matritsaning xossalari va zarur bo'lgan aniqlik kabi omillarga bog'liqdir. Elektr energetika tizimlarining ishonchli va samarali ishlashini ta'minlash maqsadida ushbu usullarni chuqur o'rganish va amaliyotda qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Maqola yakunida har bir usulning afzalliklari va kamchiliklari ta'kidlandi hamda muayyan masalani yechish uchun eng mos usulni tanlashda tizimning o'lchami, matritsaning xossalari va zarur bo'lgan aniqlik kabi omillarning ahamiyati qayd etildi. Elektr energetika tizimlarining ishonchli va samarali ishlashini ta'minlash maqsadida ushbu matritsa usullarini chuqur o'rganish va amaliyotda qo'llash muhimligi xulosa qilindi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yakubov M., Karimov I.A. Energetikaning matematik masalalari fanidan masalalar to'plami: O'quv qo'llanma/M.Yakubov,I.A.Karimov.-T.:Transport, 2022, 220 bet.

2. Karshibayev A.I., Mavlonov J.A.-Energetikaning matematik masalalari: O'quv qo'llanma. Navoiy-2019.-182 bet.

GRAFIK TASSAVURLARINI RIVOJLANTIRISHNING DASTURIY TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Igilikov A.
Nukus davlat pedagogika istituti
Matematika o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: grafik tafakkur, vizual tasavvur, axborot texnologiyalari, interaktiv vositalar, dasturiy ta'minot, raqamli ta'lim, modellashtirish.
Ключевые слова: графическое мышление, визуальное воображение, информационные технологии, интерактивные инструменты, программное обеспечение, цифровое образование, моделирование.
Key words: graphic thinking, visual imagination, information technology, interactive tools, software, digital education, modeling.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqola zamonaviy ta'lim tizimida grafik tasavvurlarni shakllantirish va rivojlantirishda dasturiy vositalarning o'rni va ahamiyatini ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan chuqur tahlil qilishga bag'ishlangan. Bugungi raqamli transformatsiya sharoitida grafik tafakkur nafaqat muayyan fanlarni (matematika, fizika, muhandislik, dizayn) o'zlashtirishda, balki keng qamrovli kompetensiyalarni, jumladan vizual idrok, fazoviy muloqot, texnologik savodxonlik, analitik tahlil kabi ko'nikmalarni rivojlantirishda ham muhim vositaga aylanmoqda. Maqolada grafik tasavvurni shakllantirishga xizmat qiluvchi dasturiy ta'minotlarning mavjud holati tahlil qilinib, ularning didaktik imkoniyatlari, interfeys qulayligi, moslashtirish darajasi va o'quvchilar faoliyatiga ta'siri xolisona baholanadi. Tadqiqotda mavjud dasturlar (AutoCAD, GeoGebra, SketchUp, Tinkercad va boshqalar)ning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinadi hamda ularni takomillashtirish zarurati asoslanadi. Xususan, grafik topshiriqlarni avtomatik yaratish, sun'iy intellekt yordamida xatoliklarni aniqlash, moslashuvchan o'quv interfeysi ishlab chiqish kabi yo'nalishlar ilgari suriladi.
РЕЗЮМЕ:
Maqollarda bolalarning hayotdagi o`rniga, tarbiya maqsadlari, vositalari va uslublariga, rag`batlantirish va jazolashga, o`qish mazmuniga, mehnat va ahloq tarbiyasiga, bolalarning ota-onalar xulq-atvoridagi fazilatlarni meros qilib olishiga, atrof muhit va jamoatchilik fikrlarining ta`siriga daxldor ta`lim g`oyalari o`z aksini topgan va h.k.

Xalq va avlodlarning ta`lim mubohasasida kattayu kichik barcha xalqlar beistisno ishtirok etadi. Bolaning dunyoga kelishi uchun bayram, farzandsiz ikki jonning yashashi dushvor. O`zbek maqollarida bolalar haqidagi yaxshi gaplar ko`n takrorlanadi: «O`g`il bilan qiz - bir juft qizil gul», «O`g`il bilan qiz - uyning mehmoni», «O`g`il bilan qiz - tun bilan kun», «O`qil oftob, qiz mohtob», «Bolalar osmondagi yulduzlar, qorong`u tunni erug` kunduz qiladi», «O`g`li yo`qning o`rni yo`q, qizi yo`qning qadri yo`q».

Bolani har kim ham tug`adi, lekin tarbiya har kimning qo`lidan kelavermaydi. «Tug`ishga tug`ib, tarbiya qilolmaydi» ham ota, ham onaga tegishli bunday tanbehlar har bir xalqda uchraydi.

Xalq tarbiyaning boshlanishi haqida muayyan fikrlarni aytadi: qancha erta boshlasa, shuncha yaxshi. Tarbiyani bola tug`ilishdan boshlagan yaxshi, chunki tarbiya bola tug`ishdan ham muhimroqdir. «Dunyoga keltirgan ota va ona emas, edirib-ichirgan, yaxshi tarbiya bergan ota va ona». Ota bilan ona faqat ota-onagina emas, tug`ilish bu boshlanishi, ota bilan ona eng avvalo tarbiyachilardir, faqat shundagina ular o`z vazifalarini tugal ado etgan hisoblanadilar. «Ona maktabi» otadan ko`ra muhimroqdir: «Otasi yaxshining bittasi yaxshi, onasi yaxshining hammasi yaxshi», «Ona miyasiga quyganni ota sug`urib ololmaydi».

Xalq tafakkurida merosxo`rlik, meros va ota-onalar ta`lim faoliyatining natijalari uzviy bir butunlikda namoyon bo`ladi. «Yaxshi xotinning bolalari ham yaxshi bo`ladi» (rus), «Aql katta bo`lganda kiradi, tarbiya tug`ilgandan boshlanadi» (o`zb), «Yaxshi go`shtning sho`rvasi totli, yaxshi odamning bolasi totli» (qir) va hoqazo. Lekin, bolaning o`z qilmishlari uchun shaxsan mas`ulligi ham inkor etilmaydi: «Ahmoq o`g`ilga ota ham aql bo`lolmaydi», «Ahmoq o`g`ilni ota ham yo`lga sololmaydi».

Maqollarda tarbiyaning qulay va noqulay sharoitlari o`z aksini topgan.

Barcha xalqlarda yosh avlodga tarbiyachi (murabbiy)larni hurmat qilish zarurligi uqtiriladi. Ota-ona obro`siga, ayniqsa, katta e`tibor beriladi: «Ota puli bilan emas, ota aqli bilan yashash kerak», «Eskichada ham, yangichada ham ota o`g`ildan qutlug`», «Otalar so`zi aqlning ko`zi». Onani ham mustahkom devorga qiyoslanadi. Ota-onalariga qilgan muomalalariga qarab bolalar taqdiri bashorat qilinadi: «Otangni xor qilganding, senga ham o`g`lingdan shu qaytadi» (rus). Darvoqe, bu mavzuda bir ertak ham bor, unda eng yaxshi tarbiyachi keksalar

ekani tug`risida bir olam maqol aytilgan: «Qancha keksa bo`lsa, shuncha haq, qancha yosh bo`lsa, shuncha qadrli», «Qari bilganni pari bilmaydi», yoshlar bilan kattalar o`rtasidagi munosabatlar barcha xalqlarda deyarli bir hil ifoda etiladi: «Kattalarga joy ber, kichiklarga erdam» (xakas), «Kattalardan o`rgan, kichiklarga o`rgat» (o`zb, chuv, tuva, tatar, qirg`) «esh kelsa ishga, qari kelsa oshga» (o`zb, rus va h.q.).

Maqol qandaydir muayyan holatda-xulosa, boshqa holatda-faraz bo`lib, yangi muammolarni ko`ndalang qo`yadi. Maqolning qiymati uning tub-tubiga kirib borishni talab etuvchi ma`nosini sharhlab berilganda ma`lum bo`ladi. Mulohazalarda, suhbatlarda, bahslarda maqollarni sharhlab berish xalq ichida keng eyilgandi. Bunday sharhlashlar ko`pgina hollarda bir qarashda unchalik bo`lmagan maqollarni ham ta`limiy maqollar sirasiga o`tkazibyuboradi. «Hayot dala aylanish emas, uni yashash kerak» maqoli eshlarga qarata aytilgan nasihat, maslahat sifatida talqin qilinadi. «O`qinglar, ammo o`ynab-kulib ham qolinglar. hali ishlaydigan vaqtlar keladi... Hayot dala aylanish emas uni yashash kerak».

Muayyan voqea tavsifiga nisbatan umumiy ta`lim mulohazasi yuritilganda maqollar ayniqsa ko`p ishlatiladi. Bitta yo ikkita o`g`il kamlik qilishi haqida xalq bunday deydi: O`g`ling uchta bo`lsa, qariganingda uchta tayanching bo`ladi, axir».

Xalq dunyoqarashini o`rganish uchun ta`lim o`gitlarining o`zi ayniqsa qimmatlidir. Ular ta`lim ashyolari, bolalar va tarbiya haqidagi bilimlar bilan birgalikda xalq ta`limi tafakkurining negizini tashkil etadi. Bu xalqning o`ziga xos ahloqiy ma`rifiy qoidasi. Bu qoida muhim jihatlarda xalqning o`zi tomonidan obdan o`ylab ko`rilgan: «Bolalarni kaltak bilan emas, yaxshi so`zlar bilan o`qitadi», «Kaltakdan badan qabaradi, haqoratdan yurak», «Bolalarni do`q va kaltak bilan emas, uyaltirish bilan jazolaydi», «O`zingnikini olganingda o`zgalarni ham unutma, o`zingniki istasang-istamasang do`st bo`lib qolaveradi», «yosh aql bahorgi muz parchasi», «Yumshoq saqich muhrga, esh esa ilmga yaxshi», «Aqlsizni o`qitish tagi yo`q ishidga sul quyish bilan teng», «Takrorlash bilimning onasi», «Olim ko`rib turadi, avom izidan boradi», «Musibatda odam dono bo`lib ketadi», «Yaxshi bilan yurgan etar murodga, eomn bilan yurgan qolar uyatga», «Birinchi farzand hammadan ham suyumliroq», «Aql ummonday bepoen, bilim tog`day yuksak», «O`qimishli odam misoli quyosh, savodsiz odam zim-ziyo tun», «eg`ochni namligida eg, bolani vaqtida o`qit», «Emizayotganingda o`g`lingni tarbiyalamasang katta bo`lgach, tarbiyanishga fursati bo`lmaydi», «O`qimagan ahmoq emas, o`qishni istamagan ahmoq», «Keksaga hassa tayanch, yoshga ilm», «Botirlar orasida yashasang, sen ham botir bo`lasan», «Hammamiz odamlarmiz, bitta insonmiz»,

«Zamona qanday bo`lsa, odamlar ham shunday bo`ladi», «Odamning bahosi odam bilan o`lchanadi. Odam o`zi uchun tug`ilmaydi».

Tarbiya natijasi haqidagi xalq fikri muhim ta`lim ma`nosiga ega. Bu odamlar, ularning shaxsiyati haqidagi mulohazalarni baholovchi fikrlardir: «Qiziqqon odam makkor bo`lmaydi», «emon odam ko`mirga o`xshaydi: kuydirmasa ham qorasi yuqadi», «Pok vijdon Xudoning ko`zi», «Sof vijdon fosh qilishni eqtiradi», «Yurganda maysani bosmaydi» (yuvoshlik haqida), «Uning faqat qorga bosgan izi tug`ri» (elgonchilar haqida), «Maqtanchoqning gaplari ko`lmak, kamtarniki dengiz», «Ayiqning o`zini ko`rib, izini qidiradi» (bemaqsad odam tug`risida), «elg`on bilan dono bo`lmas, ug`rilik bilan boy bo`lmas», «yoshlarning shijoatini so`ndirgandan ko`ra, eman daraxtini sindirgan oson», «It qutirsa egasini qopadi», (noinsof odamlar tug`risida yana bir maqol: «Ko`chib bo`lgandan keyin tuya na hojat, daredan so`zib o`tgach, qayiq ha hojat»), «Yaxshi odam yomnlikni eslamas, yomon odam yax`shilikni eslamas» va h.q. Ko`plab ibratomuz maqollar shunisi bilan qiziqqa, aniqliq xossasi ulardagi ish-harakat va amallarga qarab bahlonadi, tarbiya bilan bog`liq holda qaraladi. Ahmoq odamlarni tarbiyalash oson emas: «Ilon o`zining egriligini bilmaydi: tug`rilasang chaqadi», «Bukrini go`r tuzatadi», «Ilon po`stini yilda bir almashtiradi, ammo zaharli tishi qolaveradi».

Maqollarga qarab shaxsning ijobiy va salbiy hislatlari odamlar xulq-atvorini bir zaylda yaxshilashni ko`zda tutuvchi tarbiya maqsadi sifatida gavdalanadi. Buning ajoyib tomoni shundaki, barcha xalqlar inson kamolotining cheksizligini tan oladilar. Kishi har qancha komil bo`lmasin, u kamolot sari yana bir qadam tashlaydi. Bu qadam nafaqat odamni, balki bashariyatni taraqqiet sari boshlaydi.

Sharhlovchilar oila va nasablarga quyidagicha mantiqiy baho beradilar: istiqbolsiz nasab, ertasi yo`q oila, shoxbutoqsiz daraxt; ildizsiz daraxt quriydi, elqiz butoq sinishi turgan gap, hassasiz cho`pon-shoxsiz daraxt va hoqazo. Gohi paytlarda yolg`iz bola katta bo`lgach, o`z bolalarini himoyasiz tashlab qo`yishi mumkin, chunki uning yaqin qarindosh urug`lari-ammayu amakilari, jiyanlari bo`lmaydi-da. Ba`zilar savol-javob vaqtida xalq tafakkuri sifatida maqollarga tayanib, bola va nevaralarga o`zlaringdan ko`payib, uvali-juvali bo`linglar deb, dangal istak bildiradilar: Shuning uchun aytaman-da, bitta bola kam deb. «Ota-onaning ta`lim vazifalari sifatida bolalarga muhabbat, ulardan faxrlanish ota bilan ona tug`risida teng bo`linadi»: «Ota qizini yaxshi ko`radi, ug`li bilan g`ururlanadi, ona ug`lini yaxshi ko`radi, qizi bilan faxrlanadi». Maqolda ota va onaning o`z bolalari tarbiyasi uchun mas`ulliklari alohida qayd etilgan, ularning ta`lim vazifalari farqlab berilgan: ayni holda oilada qulay ahloqiy muhitni ko`zda tutuvchi muhabbat, ota-onalar va farzandlar o`rtasidagi

samimiy munosabatlar ko`proq tarbiya sharoitlariga tegishli bo`ladi, faxr esa uning natijasigina. yolg`iz farzand-bu faqat ug`il yoki faqat qiz demak, oilada esa ug`illar ham, qizlar ham zarur. Ota ham ona ham na faxrdan, na muhabbatdan bebahra qolmasin, ularning har ikkalasi ham bolalari tarbiyasi bilan bog`liq o`z ahloqiy tuyg`ularidan to`liq qoniqish hosil qilsin.

Maqollarning ko`p ma`noliligi, ularning bir-biri bilan ko`p taraflama va ko`p qirrali aloqadorligini, bir-birlarini to`ldirishini, izohlashini bildiradi. Bu ko`pma`nolilik ma`lum darajada maqollarning yuksak shoironaligi bilan o`zaro bog`langan.

Bolalarni tarbiyalash ishida so`zlari bolalarga hozirda tushunarli bo`lgan maqollardangina foydalanish zarur. Aks holda, ularni qo`llashdagi ta`sirchanlikka putur etadi. Quyida o`qituvchi tarbiya jarayonida foydalanishi mumkin bo`lgan maqollarni keltiramiz.

Vatan haqida
O`zbekiston - Vatanim manim.
eridan ayrilgan etti yil yig`lar,
Yurtidan ayrilgan o`lguncha yig`lar.
Ona yurting - oltin beshining.
Har qancha ko`p bilsang ham
Xalq sendan ko`proq biladi
Yigitning burchi - Vatanni qo`riqlash.
O`z uying - o`lan to`shaging.

Topishmoqlar turli xalqlarda turlicha ataladi. O`zbek tilidagi «topishmoq» so`zining lug`aviy ma`nosi «topmoq» fe`lidan olinganligi ma`lum, ya`ni «topishmoq» top-top o`ynamoqni bildiradi. Bolqorlarda, masalan, topishmoqni «elber" deyishadi. «El» qishloq yo shaharni, «ber» esa bermoq fe`lining buyruq maylini bildiradi. Topishmoq javobini topgan odam mukofotga - shahar yo qishloq «oladi». Kim ko`proq shahar yo qishloqqa ega bo`lsa, o`sha g`olib deb topiladi. O`zbeklarda esa, aksincha, topolmagan odam jarimaga «shahar» beradi. Chuvashlarda topishmoqni «tupmalli yumax», «sutmalli yumax» deydilar, bu «jumbog`li ertak», «topolmasa sotib yuboriladigan so`z» degan ma`nolarni bildiradi. Sotish - bu eng yoqimsiz ish bo`lib, u kishilar orasida kuyov yoki kelin buyurgan topishmoqni topolmagani uchun belgilangan jazo hisoblanadi. Nima uchun topishmoqni ertak deyishadi. Gap shundaki, ko`pgina topishmoqlar ertak mazmuniga ega bo`lib, o`ziga xos janrdan iborat. Topishmoqni topolmagan odam jarimaga ertak aytib bergan (qo`shiq aytgan, o`yinga tushgan eki boshqa topishmoqni topgan va hoqazo). Bunday evazlar «sotiladigan ertak» deb atalgan.

Topishmoqlar oqilona, shoirona, ahloqiy g`oya bilan sug`orilgan bo`ladi. Binobarin, ular aqlif, estetik va ahloqiy tarbiyaga ta`sir ko`rsatadi. Qadimgi zamonlarda ular, ehtimol, bu vazifa-larni ozmi-ko`pmi bir hil darajada ado etgandir. Biroq keyin-chalik topishmoqlarda aqliy tajriba ustunlik qiladigan bo`lgan.

Topishmoqlar bolalarning fikrlash qobiliyatini oshiradi, ularni atrof-muhitdagi turli voqea-hodisalar va narsalar ustida mushohada yuritishga o`rgatadi: shu bilan birga bir hil narsa haqida ko`plab topishmoqlarning bo`lishi narsa (hodisa)ga har taraflama endoshishga imkon bergan. Biroq, aqliy tarbiyadagi topishmoqlarning ahamiyati faqat fikrni rivojlantirish bilan cheklanib qolmaydi, ular yana inson hayotining turli sohalari haqida bilim va ta`limotlar bilan aqlni boyitadi.

Aqliy tarbiyada topishmoqlardan foydalanish shu bilan qimmatliki, tabiat va kishilik jamiyati haqidagi ma`lumotlarni bola faol fikrlash jaraenida oladi.

Topishmoqlarda inson haqidagi ma`lumotlar g`oyat rang-barangdir. Bu erda ma`lum tizim mavjud: umuman, odam haqidagi topishmoqlar bor, so`ng odamning alohida tana a`zolari haqidagi topishmoqlar keladi, masalan qorin, bosh, oeq, qo`l va hoqazo. So`ngra yana ham maydalashadi: miya, ko`z, tish, soch, til, barmoqlar, yurak va hoqazo. Shunday qilib topishmoqlar bolani ham mushohada qilishga, ham shuuriga singdirishga o`rgatadi, ham bir butunlikni, ham alohadalikni farqlashga ko`niktiradi.

Odatda narsaning bir qismi haqidagi mustaqil topishmoqlar bir butun narsa haqidagi topishmoqda aytilgan belgilarni takrorlamaydi. Birgina narsaga uning qismlari o`rtasidagi bog`liqlik nuqtai nazaridan turib yondoshish bolaning ijobiy fikrlashga yordam beradi. Fikr va xotirani rivojlantirish, aqlni bilim bilan boytish topishmoqlarning bosh vazifasidir. Biroq, bu bilan ham cheklanib qolmaydi. Topishmoqlar bola aqlini shaxsning boshqa fazilatlarini shakllanishiga yordam beruvchi bilimlar bilan ham boyitadi. Topishmoq topuvchi bolaning aqli nafaqat aqlli, balki yaxshi va go`zal fikrlar bilan ham boyidi, bunda har ikkala holat ham bir biri bilan uzviy bog`liqliqda sodir bo`ladi.

Ko`pgina topishmoqlar bosh yorqin ko`lga, soch siyrak o`rmonga o`xshatiladi. Soch haqidagi gap ketganda odamlar jonajon tabiatning go`zalligi haqida o`ylaydilar, bu haqda shoirona ramzlar bilan yo`g`rilgan, mukammal shaklga ega bo`lgan topishmoqlarni o`z bolalariga aytganlar. Go`zallik haqidagi topishmoqlar bilan xalq muallimlari esh avlodning estetik didini rivojlantirganlar.

Ko`z haqidagi topishmoqlar ham chiroyli va ibratlidir. «oynada bir dum ko`rdim» (chuv) bu hech bir istisnosiz insondagi eng muhim a`zolardan bo`lmish

ko`zni asrab-avaylashga da`vat etadi. («Ko`z qorachig`iday asra» degan maqolni eslang). Manglay ham topishmoqlarda go`zal tarannum etiladi: u goh kumush kosaga, goh qo`l ortidagi baland toqqa qies qilinadi... Topishmoqlarda aqlli va xushruy odamning belgilari ham g`oyat nazokat bilan tasvirlanadi.

Mehnat, mehnat qurollari, qishloq xhjalik ekinlari, uy hayvonlari, kiyim-kenchak, oziq-ovqat va hoqazolar haqidagi topishmoqlarda mehnat faoliyatining g`oyat rang-barang turlari tavsiflanadi. hatto koinot haqidagi topishmoqlarda ham mehnat qurollari va mehnat mavzusini ko`rish mumkin. Shunisi e`tiborga molkki, ko`pincha topishmoqlarda u yoki bu buyum qismlarga bo`lib qaraladi, bu qismlar, o`z navbatida, mehnat jarayonlarining izchilligi tug`risida hikoya qiladi («Sakson askar, ikki zobit, bir xo`jayin» degan topishmoqda inson mehnatining natijasi sifatida tom epish tug`risida gapiriladi: ustun quyilib, taxta qoqish jarayoni).

Aynan mehnat va mehnat qurollariga daxldor topishmoqlarda ozmuncha zukkolik va hazil bormi «Qirda tentak o`yin tushar» (shamol tegirmoni), «Qaynona pastda, kelin balandda» (qoziq, to`qmoq).

Odamlar, hayot va o`lim, yoshlik va keksalik haqidagi topishmoqlar yoshlarni shaxsiy kamolot sari chorlovchi mazmun bilan yo`ritilgan:

Hohlaysanu sotib olomaysan,
Kerakmasini sotolmaysan.

Topishmoqlarning she`riy shakli go`zal, fikri teran (yoshlik va keksalik), yoshlarning qadriga etishga chorlash bola uchun bu topishmoq, kattalar uchun esa ibratli maqol. Yana bir topishmoq:

yosh edim -
Kunday edim,
Qaridim -
Tunday bo`ldim.

Bu nafaqat topishmoq, shu bilan birga inson hayoti haqidagi shoirona hikmat emasmi:

Topishmoqlarda she`riy umumlashma ulkan fikriy mehnatni talab qiladi:

Qanoti yo`q - uchadi
Oyog`i yo`q - chopadi
Olovi yo`q - enadi
Yarasi yo`q - og`riydi.

Topish qiyin emas - shamol, bulut, quyosh, yurak. Xotira ham bunda yordam berishi mumkin: bolalar bu topishmoqni boshqa variantida ko`p topishgan, bunday narsalarni qo`shiq va suhbatlarda eshitishgan. (qo`shiqda olovsiz faqat quyosh emas, yurak ham yonadi).

Topishmoqlar shakl jihatdan g`oyat rang-barangdir. Ular ichida yodlab olsa bo`ladiganlari ham bor. yodlab olingan savol-javob topishmoqlar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, e`tiqodni shakllantiradi, ular yordamida bolalarni hayotdagi turli g`oyalar, hodisalar bilan tanishtirishning muammoli usuli amalga oshiriladi.

Savol-javob topishmoqlar odamlar hayoti va faoliyatining ko`p tomonlarga daxl qiladi. Ularda xalqning odatlagi tasavvurlari aks etadi. Aqliy tarbiyada bu topishmoqlarning ahamiyati g`oyat yuksak. Ular nafaqat fahmlash va faol fikriy faoliyatni talab etadi, balki ko`proq xotirlashga ham undaydi. Ayrim savol-javob topishmoqlarga javoban bolalar maqollar, qo`shiqlar va ertaklarda uchratadilar. Ertaklardagi javoblar turli variantlardan iborat bo`ladi. Mazmun jihatdan ishonchli va shakl jihatdan shoirona javob eng muvaffiyatlisi hisoblanadi. Masalan «Dunyoda odam uchun eng qimmatli narsa nima» degan topishmoqqa «Vatandan qimmatli narsa bo`lmas» degan javob «Xujayin va uning malayi» degan tarixiy ertakda bor. Qiyoslashdan iborat maqol o`zaro bir-biri bilan bog`liq savol-javob topishmoq uchun asos bo`lib xizmat qiladi (qiyolashning qaysi qismi noma`lum deb qabul qilinishiga qarab, albatta). «Oltin beshik nima» yoki «Ota va ona uyi nima» degan topishmoqqa «Ota va ona uyi oltin beshik» degan maqol javob bo`ladi. Bu maqol ko`pincha qo`shiqlarda ham uchraydi.

Mehnat, mehnat quroli va mehnat faoliyatining natijalariga daxldor savol-javob topishmoqlar g`oyat qiziqarli. «yog`och tik turibdi - ersa bo`ladi, eg`och erda etibdi - chopsa bo`ladi, eg`och o`tiribdi - erilmaydi ham, chopilmaydi ham. Nima qilish kerak» Eng mashhur javob arralash. Gohi savol har bir qatorga quyiladi: «Nima kerak» Javoblar: bolta, pona (eki qoziqcha), arra.

Ba`zan savol-javob topishmoqlarda solitishtirish tizimi ko`zga tashlanadi. Masalan, alohida aytilgan «Kalta va ingichka bu nima» degan topishmoqqa aniq javob berish qiyin eki solishtirish noaniq bo`lganidan ko`plab javoblarni qalashtirib tashlash mumkin. To`rtta savol birgalikda to`rtta noma`lum narsasi bo`lgan va hamma tan olgan to`rtta solishtirish tizimi sifatida qabul qilinadi: «Kalta va ingichka - nima. Uzun va ingichka - nima. Kalta va yo`g`on - nima. Uzun va yo`g`on – nima» Javob - chilvir, ip, arqon, dor.

Savol-javob topishmoqlarning qimmatli tomoni yana shundan iboratki, ularning javoblari maqollarning eyilishiga xizmat qilgan va yoshlar hamda o`smirlarning shaxsiy xulosalalari sifatida qabul qilingan.

«Dunyoda nimadan qimmatli narsa yo`q» degan savol topishmoqqa «Samimiy do`stdan» degan javob bolaning qat`iyatini ifodalaydi. To`liq javob

esa endi maqolga aylanadi. «Odamdagi elg`on nimayu chin nima» Javob yana maqol bilan aytiladi: «Eshitgani - elg`on, ko`rgani – chin».

Odatda muammoli holatni yosh avlod orasida ahloqiy-ma`naviy bilimlarni targib etish uchun foydalaniladigan savol-javob topishmoqlar maqolga aylanadi. Atrof-muhit haqidagi turli tuman bilimlardan tashkil topgan, aql, farosat, xotirani rivojlantiradigan savol-javob topishmoqlar talaygina. O`zbek, qirg`iz, tojik, mo`g`ul xalq og`zaki ijodieti ayniqsa bunga boy: «Avval nima paydo bo`lgan: yorug`likmi e qorong`ulik» Besh nima degani. (Bir marta ko`rganni nega unutish kerak). Besh nima degani (Besh ug`loni bor odam kimdan qo`rqadi) Uch, besh sonlari uchraydigan topishmoqlar, qo`shiq topishmoqlar buryat va unga qardosh xalqlarda saqlanib qolgan. «Dunyoda eng tez uchta narsa nima» degan savol topishmoqqa quyidagi javob aytiladi:

Otganda - o`q tez,
O`ylaganda - o`y tez,
Ko`rganda - ko`z tez.

Topishmoqlardan ishora sifatida foydalanadilar. Bolalar borligida, ta`lim mavzuidagi suhbatlarda kattalar o`z fikrlarini topishmoqlar bilan ifoda etadilar: «Ehtiyot bo`lib gapiringlar, devorning ham qulog`i bor» ya`ni bolalar oldida har qanday gapni ham gapirib bo`lmaydi, bolalar ziyrak bo`ladi, o`zlaricha tushunib, har hil gap-so`zlar kupayib yurmasin, deyilmoqchi.

Topishmoqlar xususida xalqning fikri doim yuqori bo`lib kelgan: «Topishmog`im topaloq, topolmasang shapaloq». Topishmoq topish va uylashni mashq qilish har doim o`ta foydali mashg`ulot sanalgan. Bolalar bilan ishlashdagi ishtiyoqi bilan ajralib turgan jamoa muallimining mahorati aynan topishmoq topish mashg`ulotini tashkil etishda namoyon bo`ladi. Unda turli eshdagi ug`il va qiz bolalar ishtirok etishi mumkin.

Topishmoqlar ongga ta`sir qilishning ko`p taraflama vositasi hisoblanib, maqsadi shaxs kamolotining barcha boshqa jihatlari bilan yaxlitlikda topishmoqlardagi oqil (dono fikrlar, teran va muhim narsa haqidagi ko`plab ma`lumotlar) va go`zallik (topishmoqlarning mukammal badiiy shakllari, inson hayotining va tabiiy hodisalalarning shoironaligi)ning uzviy bog`liqligi sharofati bilan erishilgan. Ayni holda, aql xalq tomonidan maqsad, go`zallik esa vosita deb baholangan. Aynan topishmoqlardagi go`zallik tufayli sog`liq ahloq, mehnat haqidagi fikrlar bu qadar ma`nodorlik kasb etgan. Etnopedagogik mitti asarlar maqol va topishmoqlar xalq haetida katta ahamiyatga ega bo`lib kelgan. Ularning ahamiyati bugungi kunda ham zarracha kamaygani yo`q. Xalq so`zlarni tejab ishlatgan, fikrni saqlash va uzatishdagni samarador vositalarni qadrlagan, ayniqsa nutq lo`ndaligini yuqori baholagan: «Ko`p gap eshakka yuk». Azaldan

maqollar haqida ajoyib fikrlar mavjud. Yunonlar va rimliklar uchun maqollar jamiyatning hukmron fikri bo`lgan, italiyaliklar uchun - xalq maktabi, ispanlar uchun - ruh ozig`i, chexlar uchun - ajdodlar donoligi, chuvashlar uchun - keksalar o`giti, Sharq xalqlari uchun - dur shodasidek so`zning husni, o`zbeklar uchun donolik va ezgulik maktabi hisoblangan. Barcha uchun esa xalq maqol va topishmoqlari xalq xazinasidagi bebaho boylik, deb qaralgan.

Topishmoqlar bolaning xotirasini, fikrlash qobiliyatini, zehn o`tkirligini oshirishga imkon tug`dirgan.

Topishmoqlar bolaga turli narsalarning belgilarini qiyoslashga, ulardagi umumiylikni topishga o`rgatgan va shu bilan birga narsalarni tasnif qilish, ulardagi kerak narsalarni olib tashlash uquvini shakllantirgan. Boshqacha aytganda, topishmoqlar yordamida nazariy, ijodiy tafakkur asoslari shakllangan.

Topishmoqlar bolaning kuzatuvchanligini rivojlantiradi. Bola qancha kuzatuvchan bo`lsa, u shunchalik tez va tug`ri topadi. Topishmoq topishni o`rgangan bolaga o`zi ham topishmoqlar to`qishini vazifa qilib bersa bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Буриев О. Семья и новые традиции. Ташкент 1988 г.

2. Зуннунов А.Планы развития педагогической мысли в Средней Азии Ташкент-2000г.

3. T.Esemiratova, G.Matmuratova, G.Utepova. “Basics of teaching elementary school students based on information and pedagogical technologies”. “Journal of innovations in scientific and educational research” 2023 yil VOLUME-6, ISSUE-4 (30-APRIL)

4. T.Esemuratova, G.Matmuratova, S.Omarov. «The use of folk works in the upbringing pupils to moral and intelligence.» Academy 6 (57 (2020: 83-87.

BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Esemuratova T.
NMPI, Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasi katta oqituvchisi

Tayanch sozlar: ekologik madaniyat, ekologik tarbiya, oqitish metodlari, interfaol usullar.
Ключевые слова: экологичекая культура, экологическое воспитание, методы обучения, интерактивные методы.
Key words: environmental culture, environmental education, teaching methods, interactive methods.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada boshlangich sinf oquvshilarining ekologik madaniyatin shakllantirishda interfaol metodlaridan foydalanish metodikasi tabiyatshunoslik fanini oqitish orqali yoritilib berilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье рассматривается о формировании экологической культуры учащихся начальных классов при использовании интерактивных методов обучения преподовании естественных наук
SUMMARY:
The article discusses the formation of environmental culture in primary school students using interactive teaching methods in teaching natural sciences.

XXI asr boshidagi eng muhim muammolarni ijobiy hal etish omillaridan biri, aholi, xususan, o`quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, uning samaradorligini ta`minlash, ularni amaliyotga tarbiyalashga tayyorlashga erishish, ularni ekologik tarbiyalash hozirgi zamon pedagogika nazariyasi va amaliyotida o`z echimini kutayotgan asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Ma`lumki, ekologik tarbiya - tabiatga nisbatan uning tabiiy holatini saqlash uchun kerak bo`lgan qulay sharoitni yaratish bo`yicha ma`lum bir amaliy bilimga va tajribaga ega bo`lishni taqozo etadi. Bunday amaliy bilim va tajribani yoshlar ongiga chuqur singdirishda umumiy o`rta ta`lim maktabi boshlang`ich sinf o`qituvchilarining roli kattadir. Buning uchun o`quvchilarga boshlang`ich sinflardanoq tabiiy qadriyatlarimiz bo`lgan er, suv, havo, er osti boyliklari, o`simliklar dunyosi va boshqalarni ko`z qorachig`idek asrash bo`yicha

ekologik bilimlar berib borish maqsadga muvofiqdir. Avvalom bor, maktabda qilinadigan hamma tashkiliy ishlarda o`quvchilarda ekologik ko`nikmalarni hosil qilib borish masalasi ham e`tiborda bo`ladi.

Inson va tabiat, jamiyat va tabiat birligi, o`zaro aloqadorligi asrlar davomida insoniyatni atrof-muhitga nisbatan ongli ravishda oqilona munosabatda bo`lishga undab kelgan va kelmoqda. Ekologiyaga oid g`oyalar, Avesto, Quroni Karim, Hadislarda atroflicha o`z ifodasini topgan. Eramizdan avvalgi VII-I minginchi yillarda ham tabiatni asrab-avaylash, uning boyliklarini saqlash, ko`paytirish inson tomonidan amalga oshiriladigan oddiy axloqiy kundalik faoliyat sifatida e`tirof etilganligini tarixiy-yozma manbalar mazmunida o`z aksini topgan.

Boshlang`ich sinf o`quvchilariga ekologiyaga oid dastlabki bilimlar, tabiatshunoslik darslarida, bevosita tabiiy muhit bilan bog`langan tushunchalarni o`zida ifodalagan holda beriladi. III-IV sinf tabiatshunoslik darslarida Sharq allomalarining ekologik g`oyalaridan foydalanish, dars jarayonlarida o`quvchilarga o`rganish mumkin bo`lgan materiallarni tanlash asosida amalga oshiriladiki, u faqat bilishga emas, borliqni o`zgartirishga ham yo`naltirilgandir.

4-sinf “Tabiatshunoslik” darsida “Odamlar barpo etgan suv havzalari” mavzusini noan`anaviy usul asosida quyidagicha tashkil etiladi.

Darsda o`quvchilarni O`zbekistondagi kanallar, daryolar va ko`llar bilan tanishtiriladi, ularga suvning tabiatdagi, inson hayotidagi ahamiyati to`g`risidagi tushuncha beriladi. Daryolarning o`ziga xos xususiyatlari bilan batafsil tanishish uchun shu daryolarning birini, yo o`quvchilar yashab turgan viloyat, tuman, qishloq xududidan oqib o`tadigan daryoning o`zini yo bo`lmasa, sug`orish qurilmalarini, suv bilan ta`minlaydigan daryoni misol qilib olish mumkin.

O`quvchilarga mavzu asosida keng ma`lumot berish maqsadida yangi mavzu bayoni va bilimlarni mustahkamlash jarayonida “O`zbekiston” tabiiy xaritasi, jadvallar, “Daryo”, “Yomg`irlatib sug`orish qurilmasi”ga oid rasmlardan foydalaniladi.

O`qituvchi ushbu darsni quyidagicha rejalashtirib olishi lozim:

Oldin o`tgan dars mavzularini mustahkamlash.

O`quvchilar bilan o`zi yashab turgan hududidagi daryo yoki Sirdaryo yoki Amudaryolar to`g`risida suhbatlashish.

O`quvchilarga “Odamlar barpo etgan suv havzalari” mavzusi bo`yicha nazorat varag`i bilan ishlash qoidalari haqida ma`lumot berish.

Darslik bilan ishlash.

Darsning borishi:

Quyidagi savollar yordamida o`quvchilarning “Odamlar barpo etgan suv havzalari” mavzusining o`zlashtirganlik darajasi aniqlanadi:

O`zbekiston xududidan qanday daryolar oqib o`tadi?

Hududimizdagi daryolarning foydali jihatlari nimalardan iborat?

Savollarga asoslanuvchi suhbatni tashkil etish.

O`quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

Siz yashaydigan joydan oqadigan daryolari qaerdan boshlanadi?

Daryoning manbai, o`zani, ya`ni quyilish joyi deb nimaga aytiladi?

Daryoning o`ng va chap sohilini qanday aniqlash mumkin?

Viloyatingiz, tumaningiz, qishlog`ingizda qanday kanallar bor?

Sun`iy kanallar nima uchun barpo etiladi?

So`ng o`qituvchi daryolardan birining oqimi, sohillarining o`ziga xos xususiyatlari to`g`risida, sug`orish kanallari va cho`l erlarni o`zlashtirishda ularning ahamiyati to`g`risida so`zlab beradi. O`qituvchilarning diqqati gidroelektrostantsiyalar barpo etish uchun Sirdaryodan foydalanish masalasiga, Amudaryoda kemalar qatnovi singari masalalarga jalb etiladi. O`qituvchi rasmlarni ko`rsatib, o`z fikrini tushuntiradi.

O`quvchilar rasmlarni diqqat bilan ko`rib chiqadilar va mazmunini so`zlab beradilar.

O`qituvchi o`quvchilarga darslikning 80-betini ochib, sug`orish qurilmasining sxemasini ko`rib chiqishlarini va sug`orish qurilmasining vazifasini so`zlab berishlarini so`raydi.

“Tekislik daryosi” bilan “Tog` daryosi” ning rasmlarini ko`rsatib, o`qituvchi bu daryolarning suvi qay xilda oqishiga o`quvchilar diqqatini jalb etadi; dalalar, bog`larni va paxtazorlarni sug`orish zarur bo`ladigan yoz vaqtida O`zbekistonning ba`zi daryolari sayozlashib yoki suvi butunlay qurib qolishi, kerakli miqdordagi suv hamma vaqt tayyor turishi uchun bahorda ortiqcha suvlar sun`iy ko`llarga-suv omborlariga yig`ilishiga o`quvchilar diqqatini tortadi.

So`ngra o`quvchilar 79-betdagi “Odamlar barpo etgan suv havzalari” mavzusini o`qib, savollarga javob beradilar.

O`qituvchi o`quvchilarga yomg`irlatib (tomchilatib) sug`orish qurilmasining rasmini ko`rib chiqishni taklif etadi va qay erda, nima uchun, qanday o`simliklar va yilning qaysi faslida shu usulda sug`orilishini so`raydi.

O`quvchilarga suv havzalarini muhofaza qilish, ichimlik suvini tejash masalalari haqida tushuncha beriladi.

“Qora quti” va “Zakovatli zukko” interfaol usullar asosida o`quvchilar bilimini nazorat qilish.

Ushbu metod vositasida juftlik asosida quyidagi harakatlar tashkil etiladi: o`quvchilar navbat bilan o`qituvchi rolini bajaradilar. Sinf taxtasiga “qaerdan

boshlanadi", "uzun", "keng", "tiniq", "tez", "qaerga quyiladi", "nima hosil bo`ladi" kabi so`z va jumlalar yoziladi, dastlab o`qituvchi rolini bajarayotganda o`quvchi qayd etilgan ro`yxatga daryo mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar kiritilganligini tekshiradi. So`ngra o`quvchilardan sinf taxtasida o`z ifodasini topgan atamalarga izoh berishlarini so`raydi. O`quvchilar bu bosqichdagi faoliyatlari uchun ham nazorat varag`ining ikkinchi pog`onasiga o`zlari uchun ball qo`yishlarini so`raladi.

O`quvchilar bilimlarini mustahkamlash.

To`plangan ballar nisbatiga ko`ra mashg`ulot jarayonida faol ishtirok etgan o`quvchilar o`z xohishlariga ko`ra o`qituvchi tomonidan beriladigan quyidagi savollarga qisqa muddatda javob qaytaradilar:

O`zbekistondagi qaysi yirik daryolarni bilasiz?

Qaysi suv omborlarini bilasiz?

Ko`llar necha xil bo`ladi?

Suv omborlari nima uchun barpo etilgan?

O`zbekistondagi eng katta ko`l qaysi?

Ko`llar nima vazifani bajaradi?

Mashg`ulot yakunida sinf taxtasiga o`rganilgan mavzu mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalardan iborat quyidagi topishmoq yoziladi:

Dengizu daryoda yashar,
Asosan ko`klarda kezar,
Zeriksa bormi, osmondan
Zamin uzra qaytib tushar.
(Bug`, yomg`ir)
Men bor joyda gul bo`lar,
Mensiz gulzor cho`l bo`lar.
(Suv). Uyga vazifa: O`zingiz yashaydigan joydagi daryo, hovuz, ko`l haqida insho yozing.

Boshlang`ich sinf o`quvchilariga 3-4 sinf "Tabiatshunoslik" darsini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o`qitish yuzasidan tavsiya va tushunchalar berilgan. Bunda o`quvchilarning tabiatda suv va o`simliklar haqida tushuncha, og`zaki fikrlash, ko`nikma va malakalari rivojlanadi. Hamda boshlang`ich sinf o`qituvchilariga metodik yordam sifatida dars ishlanmasini keltirish mumkin.

Bunda ko`rinib turibdiki kurs davomida ekologik tushunchalar berish bilan birga boshlang`ich sinf o`qituvchilarini ekologik tarbiyalash munkin ekan.

Kursdan keyingi davrda o`qituvchilar malakada olgan bilimlari asosida o`quvchilarga ekologik ta`lim beradilar.

Bular haqida chuqurroq tushunchaga ega bo`lish uchun tabiatda mavjud bo`lgan jismlar ustida amaliy mashg`ulotlar o`tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

O`qituvchilarda interfaol usullar orqali ekologik tushunchalarni shakllantirish muhim ilmiy - pedagogik muammo hisoblanadi. Buning uchun, yangi o`qitish metodlari, jumladan interfaol usullardan foydalanish zarur. Pedagogikada o`qitish metodlarini tasniflashga yagona yondashuv mavjud emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Berdanova P.O`. Xalq og`zaki ijodida ekologik madaniyat //Xalq ta`limi j., 2001. 2-son. – 37–40 b.

2. Valixanov M.N. Tabiatshunoslik asoslari. – T.: Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston milliy universiteti, 2004. - 243 b.

3. Mirzaaxmedova Sh.M. Boshlang`ich sinf o`quvchilarida tabiatga bo`lgan qiziqishni shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped. fanl, nomz. ... diss. avtoref. – T.: 2006. – 22 b.

4. Nishonova N.O`. O`quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalashning o`ziga xos jihatlari //Xalq ta`limi j., 2001. 4-son. - 89 b.

5. Solihov O. Tabiatshunoslik darslari //Boshlang`ich ta`lim j., 1992. 5-6-sonlar. – 53 b.

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA FAMILISTIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Nagmetova N.M.
Ajiniyoz nomidagi NDPI
“Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi dotsenti, p.i.f.d (PhD)

Tayanch so‘zlar: oilaviy qadriyatlar, familistika, familistik madaniyat, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, oilaviy munosabatlar, integrativ yondashuv.
Ключевые слова: семейные ценности, фамилистика, фамилистическая культура, учитель начальной школы, семейные отношения, интегративный подход.
Key words: family values, familistics, familistic culture, primary school teacher, family relationships, integrative approach.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining familistik madaniyatini rivojlantirish masalalari zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlar kontekstida tahlil qilinadi. Oilaning jamiyatdagi o‘rni va qadriyatlari, shuningdek, o‘qituvchining pedagogik faoliyatidagi oilaga nisbatan ijobiy munosabatlarni shakllantirish ahamiyati haqida so‘z boradi. Shuningdek, integrativ yondashuv pedagoglarning familistik madaniyatni shakllantirishda oilaviy qadriyatlarga asoslangan bilim va ko‘nikmalarini tizimli va kompleks tarzda rivojlantirishga qaratilgan vosita sifatida ifodalanadi.
РЕЗЮМЕ:
В статье анализируются вопросы развития фамилистической культуры учителей начальных классов в контексте современных социокультурных условий. Рассматриваются роль и ценности семьи в обществе, а также значение формирования позитивного отношения к семье в педагогической деятельности учителя. Также представлен интегративный подход как инструмент, направленный на системное и комплексное развитие знаний и умений учителей на основе фамилистических ценностей в формировании семейной культуры.
SUMMARY:
The article analyzes the development of the family culture of primary school teachers in the context of modern socio-cultural conditions. The role and values of the family in society are considered, as well as the importance of forming a positive attitude towards the family in the pedagogical activity of the teacher. An integrative approach is also presented as a tool aimed at the systematic and comprehensive development of teachers' knowledge and skills based on family valuesin the formation of family culture.

Zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlar, ayniqsa oila institutida yuz berayotgan o‘zgarishlar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining nafaqat bilim

uzatuvchisi, balki bolalarda qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi tarbiyachi sifatidagi mavqeini qayta talqin qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu bois, ta'lim sohasining muhim vazifalaridan biri boshlang'ich sinf o'qituvchilarida oilaga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, ya'ni oilaning qadr-qimmatini, uning farovonligi uchun mas'uliyatni tushunishga va oila ichidagi aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan munosabatlar, e'tiqodlar va xulq-atvorlarni ta'minlashga mas'uliyatli yondashuvni rivojlantirishdan iboratdir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining familistik madaniyati kichik yoshdagi o'quvchilarda ham ana shunday oilaviy munosabatlarni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi, chunki aynan boshlang'ich ta'lim bosqichida bolaning dunyoqarashi va ijtimoiy xulq-atvorining asoslari yaratiladi. Lekin, maktab amaliyotida o'qituvchilarning familistik madaniyatining shakllanganlik darajasi ko'pincha samarali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun yetarli emas. Bu esa, o'qituvchilarda oilaviy fazilatlarning yaxlit va barqaror rivojlanishini ta'minlay oladigan ilmiy asoslangan metodikalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Zero, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida tarbiyalash yurtimiz ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan hisoblanadi [1]. Shaxs fazilatlarini ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyatlarga moslashtirish va shakllantirish, har qanday faktlarning ta'sirini cheklash yoki kuchaytirish yoki ularni zararsizlantirish yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlashning rejalashtirilgan, tizimli, maqsadli psixologik-pedagogik jarayoni bilan amalga oshiriladi, bu esa, o'z navbatida, ushbu sohada o'z faoliyatini malakali tashkil eta oladigan, familistik madaniyati yuqori darajada shakllangan o'qituvchini tayyorlash ehtiyojini keltirib chiqaradi [4]. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, o'qituvchilarning familistik madaniyatini shakllantirish masalasini o'rganish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi va bu jarayon bir nechta muhim omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash mexanizmlarining yetarli darajada samarali ishlamayotgani bu masalani kun tartibiga olib chiqmoqda. Ikkinchidan, zamonaviy davrda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirish uchun o'qituvchilarning oilaviy masalalarga doir yetarli bilim va tayyorgarlikka ega bo'lishi zarurati ortib bormoqda. Afsuski, amaliy pedagogik ishlar va pedagogik ta'lim tizimida bu masalaga yetarli darajada e'tibor qaratilmayapti. Bundan tashqari, o'qituvchilarning familistik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlar va texnologiyalar yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shuningdek, hozirgi ilmiy

adabiyotlarda “familistik madaniyat” tushunchasining aniq va yagona talqini mavjud emas, bu esa mavzuning nazariy-mazmuniy noaniqligini ko‘rsatadi.

Familistika – bu oila va unga oid jarayonlar haqida umumiy tasavvur beruvchi fan sohasi bo‘lib, u oilaga doir hodisalarni turli jihatdan o‘rganadigan barcha ilmiy yo‘nalishlarni qamrab oladi. Keng ma’noda, bu fan oilaviy hayot bilan bog‘liq voqeliklarning turli aspektlarini tahlil qiluvchi fanlar majmuasini bildiradi. Tor ma’noda esa, familistika – familizmga ixtisoslashgan ilmiy yo‘nalish bo‘lib, u oila va oilaviy turmush tarziga xos qadriyatlar tizimining yo‘nalishini o‘rganadi. Bu atama jamiyat, ijtimoiy institutlar, guruhlar va shaxslar miqyosida oila va farzandlar qadriyatining boshqa barcha qadriyatlarga nisbatan ustuvor ekanligini ta’riflaydi [2]. Familistik madaniyatni bo‘lsa, biz murakkab ko‘p qirrali hodisa sifatida oila institutiga qadriyatga asoslangan munosabatni, uning jamiyatdagi ahamiyatini anglashni, shuningdek, uyg‘un oilaviy munosabatlarni o‘rnatish qobiliyatini tushunamiz. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bolalar va ularning oilalari bilan yaqin munosabatda bo‘lib, ushbu qadriyatlarning tashuvchisi va uzatuvchisiga aylanadi, bu esa ularning ushbu sohadagi bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Familistik madaniyatni rivojlantirishga integrativ yondashuv turli pedagogik tushunchalar va texnologiyalarni yagona uslubiy tizimga birlashtirish imkonini beradi. Uning mohiyati oilaviy qadriyatlarga asoslangan o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy pozitsiyasini yaxlit shakllantirishni ta’minlash uchun aksiologik, madaniy, shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatli yondashuvlarni birlashtirishdan iborat. Ya’ni: familistik madaniyatning barcha tarkibiy qismlarini muvozanatli va kompleks tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi, oilaviy qadriyatlarga asoslangan faoliyatni o‘qituvchining kasbiy taraqqiyotiga tabiiy va uyg‘un tarzda integratsiya qilishga sharoit yaratadi. Shu bilan birga, u o‘qituvchining shaxsiy xususiyatlari va ichki rag‘batini inobatga olgan holda, amaliyotda oilaviy munosabatlarga oid bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

Integrativ yondashuv pedagogika sohasida shakllangan, ta’lim oluvchilarning yaxlit dunyoqarashi va umumiy madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan fundamental pedagogik jarayon bo‘lib, turli bilim sohalaridagi hodisalarni va yangi sub’ektlarni uyg‘unlashtirish orqali kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlikni shakllantiradi. Shu bilan birga, integratsiyaning mohiyati “talabalarda ko‘p qirrali, murakkab ilmiy bilimlar tizimini maqsadli shakllantirishga qaratilgan g‘oyalar, tushunchalar, tamoyillar, yondashuvlar”ning o‘zaro aloqasi hisoblanadi [3].

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining familistik madaniyatini rivojlantirishda integrativ yondashuv quyidagilarga imkon beradi:

- psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, etika va madaniyatshunoslik fanlaridagi bilimlarni birlashtirish;
- ta’lim jarayoniga o‘z-o‘zini aks ettirish, qadriyatlarni tahlil qilish, loyiha va faoliyatga asoslangan faoliyat elementlarini kiritish;
- yaxlitlik, shaxsiyatga yo‘naltirilgan va kontekstli ta’lim tamoyillarini amalga oshirish.

Integrativ yondashuv o‘qituvchilarda tizimli tafakkurni shakllantirishga, shaxsiy oilaviy mavqei va kasbiy pedagogik faoliyat hamda maktabdagi tarbiyaviy ish o‘rtasidagi munosabatlarni o‘z me’yorida ushlab turishga yordam beradi. Ushbu yondashuvga yo‘naltirilgan metodologiya bir nechta o‘zaro bog‘liq sohalarni o‘z ichiga oladi:

1. Diagnostik soha. Oilaviy qadriyatlarning shakllanish darajasini, oilaviy tarbiya turlarini bilish, muloqot qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan so‘rovnomalar, o‘z-o‘zini baholash shkalalaridan foydalanish.

2. Ta’lim sohasi. “Oilaviy qadriyatlar va an’analar”, “O‘qituvchi maktab va oila o‘rtasida vositachi”, “Konfliktologiya va oilaviy muloqot” mavzularida seminarlar, treninglar, mahorat darslari va malaka oshirish kurslarini o‘tkazish.

3. Refleksiv-faoliyatli soha. O‘qituvchilarni loyiha faoliyatiga jalb qilish, insholar yozish, vaziyatlarni muhokama qilishda ishtirok etish, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish.

4. Hamkorlik-ta’lim sohasi. Ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlik dasturlarini amalga oshirish, o‘qituvchi oila va maktab o‘rtasida vositachi bo‘lgan qo‘shma tadbirlar, maslahatlarni tashkil etish.

5. Madaniy-ma’rifiy yo‘nalish. O‘qituvchilarni oilaning madaniy an’analari, avlodlar o‘rtasidagi aloqalar, etnopedagogikani o‘rganish va tushunishga jalb qilishga qaratilgan art-terapiya elementlari, etnopedagogik amaliyotlar va ta’limning teatrlashtirilgan shakllarini qo‘llash.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko‘rsatdiki, integrativ yondashuvdan foydalanish o‘qituvchilarning familistik madaniyatini shakllantirishdagi rolini chuqurroq anglash, hamdardlik, empatiya, muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirish va o‘quvchilarning oilalari bilan hamkorlik qilishga tayyorligini oshirishga yordam beradi. Metodikani amalga oshirish o‘qituvchida nafaqat ustoz, balki madaniy vositachi bo‘lishga qodir, oilaning eng muhim ijtimoiy institut sifatida rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi shaxs sifatidagi imidjini shakllantirishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida integrativ yondashuv asosida familistik madaniyatni rivojlantirish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi. Integrativ yondashuvga asoslangan metodika pedagogik ta’lim va pedagog kadrlarning malakasini oshirish tizimiga samarali tatbiq etish oila institutini mustahkamlash, oilada ijobiy munosabatlarni o‘rnatishda faol ishtirok etishga qodir, barkamol, ma’naviyatli o‘qituvchini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa, o‘qituvchilarda familistik madaniyatni rivojlantirishni pedagogik fan va amaliyotning muhim yo‘nalishiga aylantirib, butun jamiyat barqarorligi va ma’naviy salomatligiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847 Farmoni.

2. Антонов А.И. Микросоциология семьи (методология структур и процессов): учеб. пособие для вузов. – М.: Изд. дом «Nota Bena», 1998. – С. 3.

3. Гашенко С.А. Совершенствование графического образования в условиях межпредметной интеграции в вузе (на примере изучения теоретической механики): Автореф. дисс… к.п.н. / С.А. Гашенко. – М., 2007. – 21 с.

4. Каптерев П.Ф. Детская и педагогическая психология. – Воронеж: МОДЭК, 1999. – 331 с.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUV

Shaxmuradova D.A.
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tayanch so'zlar: bolalarning kommunikativ faoliyati, tizimli-faoliyatli yondashuv, integratsiya, integrativ yondashuv.
Ключевые слова: коммуникативная активность детей, системно-деятельностный подход, интеграция, интегративный подход.
Key words: children's communicative activity, systematic-activity approach, integration, integrative approach.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda integrativ yondashuvni amalga oshirish va uning ahamiyati haqida bayon qilingan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье описывается реализация интегративного подхода к ознакомлению детей дошкольного возраста с природой и ее значением.
SUMMARY:
This article describes the implementation of an integrative approach to introducing preschool children to nature and its importance.

Tabiat bilan tanishtirish insonni ma'naviy boyitishning bitmas-tuganmas manbasidir, bilamizki tabiatning cheksiz rang – barang olami bolalarda katta qiziqish uyg'otadi, ularni oyinga, mehatga, badiiy faoliyatga undaydi. Biroq bolalar mustaqil ravishda tabiat bilan muloqot qilganda hamma narsani to'g'ri tushuna olmaydi, o'simliklar va hayvonlar bilan munosabatlari har doim ham to'g'ri shakllanmaydi. Bolani tabiat olami bilan tanishtirish, uning obyektlari va hodislalarini to'g'ri ko'rsatish uchun ularning tabiatni idrok etish jarayonini anglashga yo'naltirish kerak. Tabiatga ehtiyotkorlik va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish, bolalar u haqida hech bo'lmaganda boshlang'ich bilimga ega bo'lganda - o'simliklar yetishtirishning oddiy usullarini, hayvonlarga g'amxo'rlik qilishni o'zlashtirganda, tabiatni go'zalligini his qilishni ifoda eta olishlarida ko'rish mumkin. Avvalo tabiatni bilish uning predmet va hodisalar

o’rtasidagi sabab-oqibat munosabatlariga kirib borish tafakkurini rivojlantiradi va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. Bolalar doimo u yoki bu shaklda tabiat bilan aloqada bo’lishadi. Yashil o’rmonlar va o’tloqlar gullar va kapalaklar, qo’ng’izlar, qushlar, jonivorlar, harakatlanuvchi bulutlar, yog’ayotgan qor parchalari, soylar, hatto yozgi yomg’irdan keyingi ko’lmaklar – bularning barchasi bolalarni e’tiborini tortadi, ularni quvontiradi. Shu bilan birga aqliy rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

Chexiyalik mashhur pedagog Y.A.Komenskiyning fikricha, inson tabiatning eng go’zal mavjudotidir. Inson tabiatga ergashib, hamma narsani bilib olishi mumkin. Ya’niki Komenskiy bolalarni tabiat bilan tanishtirishda bolalarni o’rab turgan borliq tabiatdan iboratligini, uning go’zalligi, iforidan doim bahramand bo’lishligini hamda uning bag’rida yashayotganligini his qilishi kerakligini ta’kidlaydi. Pedagog tabiatni sevgan shuning uchun ham aksariyat asarlarni hattoki nomlanishini ham tabiatga bog’lashni ma’qul ko’rgan.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda turli usullardan foydalanish mumkin. Misol uchun kuzatuv – bu atrofdagi dunyo obyektlari va hodislarni maqsadli, tizimli idrok etish bo’lib, u o’z o’rnida murakkab kognitiv vaziyatlarda idrok, fikrlash va nutqni rivojlantirishni o’z ichiga oladi. Tabiatda kuzatishlarni tashkil etish orqali pedagog bir qator vazifalarni kompleks hal qiladi. Shuningdek bolalarda tabiat haqidagi bilimlarni shakllantiradi, kuzatishga o’rgatadi, estetik jihatdan tarbiyalaydi. Kognitiv vaziyatlarga qarab pedagog turli xil kuzatishlardan foydalanadi. Kuzatish o’simliklar, hayvonlar, ob-havo, kattalarning tabiatdagi mehnati bilan tanishish orqali tashkil etiladi. Tabiat bilan tanishtirishda turli usullardan foydalaniladi ko’rgazmali, amaliy (oyin metodi, oddiy tajribalar.), og’zaki, suhbat metodlaridan keng foydalaniladi. Albatta bolalarni jonsiz tabiat: yer, suv, havo, va boshqalar bilan tanishtirishda katta oddiy tajribalar metodidan foydalaniladi. Turli tajribalarda havo bilan tanishish imkoniyatiga ega bo’ladilar, suvni qattiq va suyuq holatga keltirishni o’rganadilar.

Integrativ yondashuv to‘rt darajada: fanlararo, fan doirasida, shaxslararo, shaxs ichida amalga oshiriladi. Makatabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda daliliy asoslash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonining fanlararo integratsiyasi turli fanlar: falsafa, psixologiya, pedagogika, lingvistika va shu kabilarning g‘oyalari, tamoyillari, usullarining integratsiyasi darajasida namoyon bo‘ladi. Bu maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda daliliy asoslash faoliyatining mohiyatini tushunish va uni amalga oshirishga metodologik jihatdan tayyorlikni ta’minlaydi. Falsafiy, pisxologik-pedagogik, filologik yondashuvlarning tahlili ularda umumiy g‘oyalar amal qilishini, ularning har biri esa bir-birini

to‘ldirishi va aniqlashtirishini ko‘rsatadi. Integrativ yondashuv umumiylik va alohidalikni aniqlash, o‘rganilayotgan muammoning ko‘p jihatliligini tushuntirish imkonini beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda daliliy asoslash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonining fanlar ichida integratsiyasi bilimlarning bir ilmiy sohasi bo‘limlari o‘rtasidagi ma’noviy, tarkibiy va texnologik aloqalarni o‘rnatishga qaratilgan. Integratsiyaning ushbu turi maktabgacha ta’lim sohalari, ya’ni ijtimoiy-kommunikativ, bilishga oid, nutqiy rivojlanish mazmunida tizim tashkil qiluvchi aloqalarni aniqlash imkonini beradi. Ular doirasida maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarda daliliy asoslash ko‘nikmasini shakllantirish masalasini hal qilish ko‘zda tutilgan. Fan ichida integratsiya ta’lim faoliyati mazmunini loyihalashtirish va konstruksiyalash; tematik tamoyilga muvofiq birlashtirilgan pedagog ishining samarali vositalari, shakllari va usullarini tanlash; bolalar faoliyati turlarini, ya’ni o‘yin, muloqot, bilish-tadqiqotchilik, mehnat va shu kabilarni integratsiyalash orqali amalga oshadi.

Shaxslararo integratsiya tadqiqotchilikka asoslangan suhbat vositasida o‘zaro ta’sir qilish makonining har tomonlama ochiqligi orqali hamkorlik va birgalikda ijod qilishni o‘rnatish bilan tavsiflanadi. Suhbat katta maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarda daliliy asoslash ko‘nikmalarini shakllantirishga integrativ yondashuv strategiyasi sifatida ko‘riladi. U ta’lim jarayoni subektlarini hamkorlikka va birgalikda ijod qilishga motivatsiya beradi. Katta maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarda daliliy asoslash ko‘nikmalarini shakllantirishning asosini bolalar va kattalar tomonidan teng huquqli muloqot va muammoli vaziyatni hal qilishga qaratilgan samimiy qiziqish tashqil qiladi. Uni birgalikda muhokama qilish maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalar tafakkuri va nutqiy qobiliyalarining rivojlanishiga yordam beradi. Birgalikda qiziqish tamoyili bolalarning muloqot faoliyatida ustuvor bo‘lishi shart. Pedagog-tarbiyachi vazifasi o‘zining muammoli savollari, shubha bildirishi, xususan “Mening aqlim yetmaydi, deb qo‘rqaman! Sen nima deb o‘ylaysan?”, xavotir bildirishi, ya’ni “Hammasi buzilib ketsa-chi?”, shuningdek samimiy hayron bo‘lish va tahsin o‘qishi, ya’ni “Bu narsa aqlingga qanday keldi? Bunga mening aqlim hech qachon yetmasdi!” va shu kabilar yordamida faollikni tug‘dirish, bolaning ishonchini mustahkamlash, o‘zini yechimni izlab topishda kompetentli va buning uchun javobgar ekanligi hissini tug‘dirishdan iborat. Bunday harakatlar, bola bilan amalga oshiriladigan muammoli suhbat bolani bavosita fikr yuritishga, ehtimol va farazlarni ilgari surish, kerakli natijaga erishish uchun muammoni hal qilishning yangicha yo‘llarini izlashga undaydi. Bolalarning kattalar va tengdoshlari bilan amalga oshiriladigan suhbatlari o‘zaro ta’sirining yana bir

muhim tamoyili - kashf etish quvonchini birgalikda his qilish tamoyilidir. U bolalarni atrof-olamni tadqiq qilishga intilish orqali birlashtirishga yordam beradi. Birgalika amalga oshiriladigan faoliyatda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar "tabiat sirlarini", "atrofdagi narsalarning sirlarini" ochadilar, modda va materiallar xususiyatlarini tadqiq qiladilar, qiziqish va ehtiyojlariga muvofiq tengdoshlari bilan xayrixohli muloqot qilishga o'rganadilar.

Shaxs ichidagi integratsiya pedagogik muammo bo'lib, u shaxsning psixologik pedagogik yutuqlarini tadqiq qilish hamda yangi pedagogik tajribani shaklantirish orqali integrativ yondashuv yordamida hal qilinadi.

Ta'kidlanishicha, ayni ichki dunyoda voqelikda obektivlik bo'ladigan hayot rejalari va istiqbollari, shasiy kechinmalar, da'volar va o'ziga o'zi baho berishlar hosil bo'ladi. Inson shaxsini uning hayoti va faoliyatining umumlashgan va rivojlanuvchi tizimi, shaxs tarkibiy tuzilishiga shaxsiy fazilatlarining shaxs hayoti va faoliyatida ularning namoyon bo'lishi shartlarining subektiv aks ettirilishi bilan o'zaro aloqaga kirishi kerak. Chunki shaxs ichidagi integratsiyaga maktabgacha ta'lim yoshdagi bolanining ichki tirishqoqligi va ta'lim jarayonining tashqi ta'sirining bir-biri mos kelishida erishiladi. Atrof-olamda o'zini o'zi anglash muammosi, shaxsiy manfaatlar, ehtiyojlar, qobiliyatlar va iste'dodning ro'yobga chiqishi yuzaga keladi. Katta maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar shaxsi ichidagi integratsiya natijasi qadriyatli-motivatsiyalarda, inson hayotida daliliy asoslashning ahamiyatini tushunish, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot jarayonida uni amalga oshirish yo'llari mavjudligi, ega bo'lgan shaxsiy sifatlar va daliliy asoslash ko'nikmalarida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, integrativ yondashuv tabiat bilan tanishtirishda katta maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar daliliy asoslash ko'nikmalarini shakllantirish jarayonining turli jihatlarini yagona, tizimli va yaxlit hosila sifati ko'rishni taqozo qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Grigoryans A.G. "Bog'chada ekologik ta'lim-tarbiya berish" T.: O'qituvchi, 2000 y.

2. Jo'rayev N. va boshqalar "Ekalogiya huquqi" T.: Adabiyot jamg'armasi, 2001 y.

3. Sodiqova Sh. A." Maktabgacha pedagogika " Tafakkur sarchashmalari" T.: 2013 y. B-19.

4. Umarova M. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish metodikasi. Ped.fan.nom.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiY. – Toshkent, 2009. – 212 b.

5. Yusupova P.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish.T.: O'qituvchi, 1995 y.

6. Xasanboyeva O.U., Djabborova X.J. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi. T.: Cho'lpon, 2007 y.

UMUMIY NUTQI RIVOJLANMAGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQIY ALOQA VOSITALARINI SHAKLLANTIRISH BO‘YICHA TABAQALASHTIRILGAN NUTQ TERAPIYASI ISHINING MODELI

Aralova I.M.
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maxsus pedagogika kafedrasi o`qituvchisi

Tayanch so`zlar: nutq terapiyasi, umumiy nutqiy rivojlanmagan bolalar, logopediya, nutqiy aloqa, tabaqalashtirilgan yondashuv, multimodal metod, sensor integratsiya, innovatsion texnologiyalar, logopedik mashg‘ulotlar, fonematik eshitish, grammatik rivojlanish, muloqot kompetensiyasi, individual yondashuv, interaktiv texnologiyalar, didaktik o‘yinlar.
Ключевые слова: логопедическое лечение, дети с общим недоразвитием речи, логопедия, речевое общение, дифференцированный подход, мультимодальный метод, сенсорная интеграция, инновационные технологии, логопедические упражнения, фонематический слух, грамматическое развитие, коммуникативная компетентность, индивидуальный подход, интерактивные технологии, дидактические игры.
Key words: speech therapy, children with general speech underdevelopment, speech therapy, speech communication, differentiated approach, multimodal method, sensory integration, innovative technologies, speech therapy exercises, phonemic hearing, grammatical development, communication competence, individual approach, interactive technologies, didactic games.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada umumiy nutqi rivojlanmagan (UNR) maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nutqiy aloqa vositalarini shakllantirish bo‘yicha tabaqalashtirilgan yondashuv asosida ishlab chiqilgan nutq terapiyasi modeli bayon etiladi. Nutqiy rivojlanish bosqichlari, bosqichli logopedik mashg‘ulotlar va innovatsion metodlarning qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali natijalarga erishishga yordam beradi.
РЕЗЮМЕ:
В статье описывается логопедическая модель, разработанная на основе дифференцированного подхода к формированию средств речевого общения у детей дошкольного возраста с общим недоразвитием речи (ОНР). Анализируются этапы развития речи, поэтапные логопедические занятия, использование инновационных методов. Такой подход позволяет добиться эффективных результатов с учетом индивидуальных особенностей детей.
SUMMARY:
The article describes a speech therapy model developed on the basis of a differentiated approach to the formation of speech communication tools for preschool children with general speech underdevelopment (UNR). The stages of speech development, phased speech therapy exercises

and the use of innovative methods are analyzed. This approach helps to achieve effective results, taking into account the individual characteristics of children.

Kirish. Hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishi ularning umumiy intelektual, psixologik va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Nutq bolaning o‘zini ifoda etish, boshqalar bilan muloqot qilish, fikrini aniq va to‘g‘ri ifodalash imkoniyatlarini taqdim etadi. Shuning uchun, nutqi rivojlanmagan bolalar bilan ishlashda malakali nutq terapiyasi zarur. Nutq rivojlanishidagi kechikishlar va nuqsonlar bolaning ijtimoiy moslashuvi va o‘qishga tayyorligi bilan bog‘liq muammolarga olib kelishi mumkin.

Nutq terapiyasining asosiy vazifalaridan biri – bolaning nutqiy aloqa vositalarini shakllantirishdir. Nutqiy terapiya yondashuvlari bolalarning nutq va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, nutqiy rivojlanishdagi farqlarni hisobga olib, terapiya jarayonida tabaqalashtirilgan yondashuvni qo‘llash zarur. Har bir bola individual ravishda o‘rganadi, shuning uchun terapiya modelining turli yosh va rivojlanish bosqichlariga mos bo‘lishi kerak.

Ushbu maqolada umumiy nutqi rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy aloqa vositalarini shakllantirish bo‘yicha tabaqalashtirilgan nutq terapiyasi ishining modelini o‘rganishga bag‘ishlanadi. Maqolada, nutqiy terapiya yondashuvlarining samaradorligi, individual ehtiyojlarga mos metodikalar va usullar tahlil qilinadi. Nutq terapiyasining amaliy yondashuvlari, shuningdek, bolalarning nutqiy rivojlanishini ta'minlashda qanday rol o‘ynashi muhokama qilinadi. Nutq aloqa vositalarini (keyingi o‘rinlarda "model" deb yuritiladi) shakllantirish bo‘yicha tabaqalashtirilgan nutq terapiyasi ishining modelini ishlab chiqishda biz maktabgacha ta'lim Federal davlat ta'lim standartiga muvofiq maktabgacha ta'lim quyidagilarni ta'minlashi kerakligini hisobga oldik: ta'lim dasturlari mazmunining o‘zgaruvchanligi, turli darajadagi ta'lim dasturlarini shakllantirish imkoniyati, bolalarning ta'limning murakkabligi va e'tibor ehtiyojlarini hisobga olgan holda. Shuningdek, M.A.Vasilyeva, V.V.Gerbova, T.S. Differentsial nutq terapiyasi ishining modelini ishlab chiqish uchun asos og‘ir nutq buzilishlari bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni (L.B. Baryaeva, L.V. Lopatina va boshqalar), aqliy zaifligi bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni (L.B. Baryaeva, E.A. Loginova, L.V. Lopatina va boshqalar) va nogiron bolalarni (E.A.E.) o‘qitish va o‘qitish dasturlari edi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Biz ishlab chiqqan model umumiy nutqi kam rivojlangan va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashga mo‘ljallangan va uch yillik o‘qishga mo‘ljallangan. Ushbu modelga ko‘ra, ishning maqsadi umumiy nutq rivojlanmagan maktabgacha

yoshdagi bolalarda izchil nutqni shakllantirish uchun asos sifatida nutq aloqasi vositalarini ishlab chiqish edi.

O‘quv maqsadlari:

- til vositalarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish;
- tilning leksik vositalarini shakllantirish;
- tilning grammatik vositalarini shakllantirish;
- tilning fonetik va fonologik vositalarini shakllantirish;
- izchil nutqni shakllantirish.

"Bolalarda nutq buzilishlarini bartaraf etish va oldini olish usullari va usullarini tanlashda", deb yozgan P.E. Levina: Bir emas, balki butun bir qator nutq jarayonlarining normal borishi bog‘liq bo‘lgan nodal shakllanishlarga e'tibor qaratish kerak. Tugunli shakllanishlarning shakllanishi pedagogik samaraga eng tejamkor va maqsadga muvofiq erishish imkonini beradi” [128; Bilan. [129]. Shunday qilib, tabaqalashtirilgan nutq terapiyasi ishining mazmuni bolalarning ko‘rsatilgan toifalarining har birining nutq buzilishlari tarkibidagi etakchi aloqani hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Nutq aloqa vositalarini shakllantirish bo‘yicha barcha ishlarni shartli ravishda ikki bosqichga bo‘lish mumkin: propedevtik va asosiy. Umumiy nutqi kam rivojlangan bolalar bilan nutq terapiyasi ishining farqlanishi propedevtik bosqichda eng aniq namoyon bo‘ldi. Belgilangan bosqichlarning har birining mazmunini ko‘rib chiqaylik.

Ushbu bosqichda qo‘yilgan maqsadga erishishga o‘yin muhiti, "bolalarni mustaqil o‘yin ijodiyotiga va og‘zaki bo‘lmagan va og‘zaki vositalardan foydalanishga asoslangan muloqotga undash" yordam berdi [19; Bilan. 12]. O‘z asarlarida L.B. Baryaeva, L.V. Lopatina ta'kidlaydi: "O‘yin jarayonida nutq terapevti nutq faoliyatining umumiy funktsional mexanizmlarini shakllantiradi, bu esa o‘ziga xos nutq funktsiyalarini, shu jumladan aloqa funktsiyasini rivojlantirish bo‘yicha ishlash uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratishni ta'minlaydi" [o‘sha erda; Bilan. 38]. Bunda biz “obyekt harakatlarining shakllanishi jarayonida bola avvalo ob’ekt bilan uning ijtimoiy maqsadi bilan bog‘liq bo‘lgan harakatning umumiy sxemasini o‘rganadi, shundan keyingina individual operatsiyalarning ob’ekt va sharoitning jismoniy shakliga moslashishi sodir bo‘lishini hisobga oldik. <...>Shunday qilib, qo‘g‘irchoq boshqa o‘yinchoqlardan odamning o‘rnini bosuvchi sifatida ajralib turadi..." o‘rtada munosabatlarni shakllantirish Shunday qilib, birinchi darslarda bola bilan eng yaxshi aloqaga erishish uchun qo‘g‘irchoq bizning tuzatish ishimiz davomida mavjud materialning asosi sifatida ideal do‘st o‘rnini bosuvchi, qulay, tushunarli va do‘stona munosabatda bo‘ldi.

Natija va muhokalar. Propedevtik bosqich mazmunini ishlab chiqishda biz sensorli tarbiyaga zamonaviy yondashuvlarni ham hisobga oldik. Sensor rivojlanish "narsalarning tashqi xususiyatlari to‘g‘risida idrok va g‘oyalarni shakllantirishga olib keladigan ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish jarayoni sifatida" ko‘rib chiqiladi. [37], bu o‘z navbatida bolaning barcha qobiliyatlarini rivojlantirish uchun asosdir: kognitiv, estetik, ijodiy, diqqat, xotira, fikrlash va nutqni rivojlantirish.

Propedevtik bosqich 2009 yil sentyabrdan dekabrgacha davom etdi (o‘rta yosh guruhi). Ushbu bosqichdagi barcha o‘yinlar va mashqlar alohida turdagi tuzatish ishlari sifatida ham, individual va kichik guruh mashg‘ulotlarida, shuningdek, boshqa o‘qituvchilarning ishlarida, darsdan tashqari va uyda ishlatiladigan keng qamrovli nutq terapiyasi sessiyasining bir qismi sifatida amalga oshirildi. Ushbu bosqichning o‘ziga xos xususiyati o‘qituvchi-psixolog, musiqa direktori, maxsus ta'lim o‘qituvchisi, jismoniy tarbiya direktori va tarbiyachi bilan birgalikda ko‘plab integratsiyalashgan sinflarni amalga oshirish edi.

Bola bilan hissiy aloqani o‘rnatish

1. Nutq terapevti yangi qo‘g‘irchoqni olib keladi. U bolalar bilan "salomlashadi" va har bir bolaning boshiga "pasadi". Nutq terapevti qo‘g‘irchoqni navbat bilan ushlab turishni so‘raydi Qo‘g‘irchoq raqsga tushishni "taklif qiladi". Kattalar bolalarni aylanaga joylashtiradilar, bir qo‘li bilan qo‘g‘irchoqni oladi, ikkinchisini bolalardan biriga beradi va ular bilan o‘ngga va chapga aylana bo‘ylab harakatlanadi, quvonch, zavqlanishni ifodalaydi va oddiy bolalar ohangini kuylaydi.

2. Bolalar nutq terapevtining stoli oldida yarim doira shaklida joylashtirilgan stullarda o‘tirishadi. Nutq terapevti qo‘g‘irchoqni stolga qo‘yadi. U bolalarga "salom" aytadi. Nutq terapevti qo‘g‘irchoqni u bilan o‘ynashga "taklif qiladi". O‘ng qo‘li bilan qo‘g‘irchoqni olib, stolning o‘ng chetiga qo‘yadi, chap qo‘lini chap chetiga qo‘yadi va u bilan imo qiladi: "Menga kel". Qo‘g‘irchoq yaqinlashganda, uni quchoqlaydi va maqtadi. Keyin u qo‘g‘irchoqni chap qo‘liga oladi va o‘ng qo‘li bilan imo qiladi va: "Menga yugur" deydi. Qo‘g‘irchoq yana "yuradi", lekin nutq terapevti uni to‘xtatadi va aytadi: "Diqqat bilan tinglang, men aytdim: yugur." Qo‘g‘irchoq "yuguradi" va nutq terapevti uni maqtaydi. O‘yinchoq yana o‘ng qo‘lga o‘tkaziladi va "yugurish!" harakatni xatosiz "bajaradi". Chap qo‘lga o‘tib, qo‘g‘irchoq yana "bor!" buyrug‘i bilan "yugurish" ga harakat qiladi, nutq terapevti uni to‘xtatadi: "Diqqat bilan tinglang, men: bor, dedim." Qo‘g‘irchoq ko‘rsatmalarga to‘g‘ri amal qiladi.

3. Nutq terapevti bolalarni xonaning bir devori yaqiniga qo‘yadi va u o‘zi qarama-qarshi devorga o‘tadi va ularni qo‘llari bilan imo qilib: "Menga yugur"

deydi. Agar bolalar yugurishsa, u ularni quchoqlaydi va maqtadi. Agar ular ketsa, u ularni to‘xtatadi, ko‘rsatmalarni takrorlaydi va har birini yugurishga undaydi. Keyin u boshqa devorga o‘tadi va o‘yin takrorlanadi. Uchinchi marta ko‘rsatma o‘zgaradi (Menga kel).

Bolalarni kattalarning ko‘rsatmalariga rioya qilishga va uning harakatlariga taqlid qilishga o‘rgatish

1. O‘yin so‘z bilan ko‘rsatilgan harakatni bir vaqtning o‘zida namoyish qilish bilan o‘ynaladi.

Mana biz boramiz: top-top. (Bolalar nutq terapevtiga borishadi).

Ular yugurishdi: shapaloq-shapaloq. (Bolalar nutq terapevtiga boradilar).

Va charchagan: to‘xtang! (Bolalar nutq terapevti bilan to‘xtashadi).

O‘yin harakatlarini so‘zlar bilan bir necha marta takrorlash va bu harakatlarni logoped tomonidan ko‘rsatishdan so‘ng, bolalar bu harakatlarni o‘yin so‘zlariga muvofiq mustaqil ravishda bajaradilar.

2. Bolalarni ziyorat qilish uchun ikkita qo‘g‘irchoq keladi. Nutq terapevti qo‘g‘irchoqlarga sovg‘a berishni taklif qiladi. U o‘yinchoq mebellarini stoliga qo‘yadi, qo‘g‘irchoqlarni o‘tiradi, ularning oldiga idishlarni qo‘yadi va ulardan birini ovqatlantiradi. Masha eydi, lekin Galya yo‘q, - deb tushuntiradi kattalar: - Galyani kim ovqatlantiradi? Bitta bolani taklif qiladi, unga qoshiq beradi va barcha bolalarga ko‘rinadigan tarzda harakatlarni sekin ko‘rsatadi: Birinchidan, qoshiqni olaylik. Shunga o‘xshash. (Ko‘rsatadi.) Endi bo‘tqa olamiz. Shunga o‘xshash. (Ko‘rsatadi.) Keling, qo‘g‘irchoqning og‘ziga olib kelaylik. Qo‘g‘irchoqning og‘zi qayerda? (Ko‘rsatadi, o‘yinchoqni sekin egib.) Ovqatla, qo‘g‘irchoq. Bola nutq terapevtidan keyin barcha harakatlarni takrorlaydi. Keyin yana 2-3 bolani birin-ketin chaqiradi. Shundan so‘ng, qo‘g‘irchoqlar bolalarga "rahmat" qiladi va "ketadi".

Bolalarning birgalikda muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish.

1. Logoped bolalar bilan birga o‘yinchoqlarga qaraydi va ular bilan qanday o‘ynash kerakligini ko‘rsatadi (eslaydi): qo‘g‘irchoqni aravachaga qo‘yadi va uni aylantiradi; darvozani o‘rnatadi va to‘pni aylantiradi; kublarni mashinaga yuklaydi; pinlarni o‘rnatadi va ularni to‘p bilan uradi. Keyin u har bir o‘yinchoqni qutiga yashiradi, ularni aralashtirib, bolalarga tarqatadi. Ular qutilarni ochib, o‘yinchoqlarini ko‘rib chiqishadi va o‘yin sherigini izlaydilar va unga: "Kolya, keling, birga o‘ynaymiz" degan taklif bilan murojaat qilishadi. Bolalar birgalikda o‘yinda o‘yinchoqlar bilan harakatlarni bajarish tartibini mustaqil ravishda kelishib oladilar. Nutq terapevti ularga faqat ekstremal holatlarda yordam beradi.

2. Bolalar haydovchilar va quruvchilarga bo‘linadi. Har bir quruvchining o‘z haydovchisi bor va ular birgalikda bitta bino yaratadilar. Har bir bola (quruvchi)

oʻz chizmasini (namunasini) oladi va uni haydovchiga koʻrsatmaydi. Namunani oʻrganib chiqqandan soʻng, quruvchi haydovchidan zarur qurilish materiallarini (barlar, kublar, minoralar, plitalar) olib kelishni soʻraydi va ularning miqdorini koʻrsatadi. Bu narsalarni olgandan soʻng, u ularga minnatdorchilik bildirishi va yana ikkita bar olib kelishlarini soʻrashi kerak. Quruvchi barcha kerakli materiallarni nomlashi mumkin. Agar haydovchi biror narsani unutgan boʻlsa, u qaytib kelib, yana soʻrashi mumkin. Qurilish tugagach, bolalar u bilan birga "oʻynashadi". Bolalarning rolli oʻyinlarni oʻynash qobiliyatini rivojlantirish (ertak qahramonlari, uning syujeti bilan tanishish, ertakni sahnalashtirish)

1. Logoped oʻyinchoq - ayiqchani koʻrsatadi, uni bolalar bilan tekshiradi, uning yurishi haqida, rezavorlar va asalni yaxshi koʻrishi haqida gapiradi. Keyin u oʻyin oʻynashni taklif qiladi: barcha bolalar shlyapa kiyib, oʻzlarini ayiqdek koʻrsatishadi.

2. Nutq terapevti ertakdan epizodni ("Kolobok") aytib beradi va oʻz hikoyasida oʻyinchoqlar bilan harakatlarni oʻz ichiga oladi. Keyin bolalar oʻyinchoqlarni boshqaradilar - ertak qahramonlari. Avvaliga ular buni nutq terapevti yordamida amalga oshiradilar: u har bir bolaga oʻzining xarakteri qanday harakat qilishini koʻrsatadi va bola taqlid qiladi. Agar kerak boʻlsa, kattalar va bolaning birgalikdagi harakatlari qoʻllaniladi. Nutq terapevti har bir bolaga oʻz xarakteri nomidan muloqot jarayonida nutq materialini oʻzlashtirishda yordam beradi.

3. Nutq terapevti bolalarni bulochka haqidagi hikoyani birgalikda koʻrsatishga taklif qiladi, bolalar oʻrtasida rollarni taqsimlaydi (bulochka, quyon, ayiq, tulki) va ularga shlyapalar beradi. Keyin u ertak aytib beradi, bolalar esa qahramonlarni tasvirlab, hikoya matni asosida suhbatga kirishadilar.

Kinestetik tahlil va sintezni shakllantirish, barmoq harakatlarining kinestetik afferentatsiyasi.

Qoʻlingizni kaftingizni sizga qaratib, bosh barmogʻingizni yuqoriga koʻtaring. Boshqa qoʻlning egilgan toʻrt barmogʻini (yalang) kaftning chetiga qoʻying. Ikki bosh barmogʻingizni yuqoriga koʻtaring (quloqlar). Ot elkasini silkitishi, quloqlarini silkitishi, ogʻzini ochishi va yopishi mumkin (kichik barmogʻini pastga tushirib, qoʻlga bosing).

Ketma-ket impulslarni yagona, vaqt bilan tashkil etilgan vosita stereotipiga birlashtirish va umumlashtirish. Bolalarga ma'lum bir ketma-ketlikda teshiklar qilingan karta taklif etiladi. Jun ipni barcha teshiklardan ketma-ket tortib olish kerak; jun ipni bir vaqtning oʻzida bir teshikdan torting; muntazam bogʻlashni bajaring.

Artikulyar harakatlarning kinestetik asoslarini shakllantirish. To‘g‘ri talaffuz qilingan tovushlarni artikulyatsiya qilish paytida turli artikulyar organlarning holatini aniqlashtirish orqali motor-kinestetik fikrni rivojlantirish

1. Bolalar stolda o‘tirishmoqda. Nutq terapevti birinchi navbatda [I] tovushini, keyin [U] tovushini oynasiz talaffuz qilishni va ularni talaffuz qilishda lablar qanday harakat qilishini aniqlashni so‘raydi.

2. Bolalar stolda o‘tirishmoqda. Ularning har birining oldida mavzuli rasmlar to‘plami (tutun, igna, hovli, taxta). Nutq terapevti bolalardan rasmlarni ko‘rishni, ulardagi tasvirlarni nomlashni va ularni ikki qatorga joylashtirishni so‘raydi: birinchi qatorda tilning uchi yuqoriga ko‘tarilgan, ikkinchi qatorda esa pastga tushganda tasvirlar mavjud.

Kerakli artikulyar holatni topish va saqlash jarayonida me'yoriy artikulyar tovush pozitsiyalarini shakllantirish.

Bola va nutq terapevti oyna oldida o‘tirishadi. Nutq terapevti boladan lablarini tabassumga cho‘zish, yuqori va pastki kesmalarni ochish, ularni 1 dan 5-7 gacha bu holatda ushlab turishni va ularni asl holatiga qaytarishni so‘raydi; keyin labning faqat o‘ng (chap) burchagini tabassumga cho‘zing, yuqori va pastki kesmalarni oching, uni 1 dan 5-7 gacha hisoblang va boshlang‘ich holatiga qayting.

Ketma-ket tashkil etilgan harakatlarni bajarishda og‘zaki amaliyotni rivojlantirish jarayonida artikulyar harakatlarning kinetik asoslarini shakllantirish.

Bola va nutq terapevti oyna oldida o‘tirishadi. Nutq terapevti boladan tilning chiqib turgan uchi bilan lablarning o‘ng burchagiga, so‘ngra lablarning chap burchagiga tegizishni so‘raydi (bu harakatni bir necha marta takrorlang).

Tik-tak, tik-tak,

Mayatnik shunday tebranadi!

Yuz mushaklari harakatlarini taqlid va og‘zaki ko‘rsatmalar bilan rivojlantirish

Bola va nutq terapevti oyna oldida o‘tirishadi. Nutq terapevti bolani qovog‘ini burish va dam olishni so‘raydi; qoshlaringizni ko‘taring, dam oling; bir ko‘zni, keyin ikkinchisini qisib; Ko‘zlaringizni yuming, dam oling.

Xulosa. Formativ va nazorat tajribalari ma'lumotlarini umumlashtirib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

1. Tegishli ilmiy fanlar - psixologiya, strukturaviy tilshunoslik, ontolingvistika, lingvodidaktika, defektologiya, logopediyaning nazariy qoidalarining yagona kontseptual makoniga integratsiyalashuvi maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy nutqiy aloqa vositalarini shakllantirish bo‘yicha tabaqalashtirilgan logopediya ishining tamoyillari va mazmunini aniqlash va asoslash imkonini beradi;

2. Nutq aloqasining asosiy vositalarini shakllantirish bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlashdan oldin propedevtik bosqichni o‘tkazish kerak. Ishning mazmuni, bu bosqichda, umumiy va o‘zgaruvchan bo‘lishi kerak, bu toifadagi bolalarda nutq buzilishlari tuzilishidagi etakchi aloqani hisobga olgan holda amalga oshiriladi;

3. Lingvodidaktik materialni tayyorlashda turli yosh guruhlaridagi umumiy nutq rivojlanmagan bolalarda nutq buzilishlari tuzilishidagi etakchi bo‘g‘inni hisobga olish kerak;

4. Korreksiya-pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish yo‘llaridan biri - logoped, pedagog va ota-onalarning ish faoliyatida predmetli-amaliy va o‘yin faoliyati hamda yaqin o‘zaro ta’siriga asoslangan logopediya mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

5. OHP bilan og‘rigan bolalarda nutq buzilishlari tarkibida etakchi bo‘g‘inni hisobga olgan holda amalga oshiriladigan tabaqalashtirilgan nutq terapiyasi ishi nutq aloqasi vositalarini shakllantirish bo‘yicha tuzatish va rivojlanish tadbirlarining samaradorligini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi;

6. Maktabgacha ta'lim muassasasining kompensatsion guruhlarida qolish sharoitida umumiy nutqi kam rivojlangan maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy aloqa vositalarini shakllantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan logopediya ishining modeli maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va o‘qitish bo‘yicha keng qamrovli ish tizimiga uzviy ravishda birlashtiriladi va bolalarning turli turlarini, shuningdek, ota-onalarning faol ta'lim faoliyati orqali integratsiyani o‘z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Агафонов А.Г. Основы смысловой теории сознания. - СПб.: Речь, 2003.-296 с.

2. Алексеева М.М. Методика развития речи и обучения родному языку дошкольников: учеб. пособие для студ. высш. и сред, пед. учеб. заведений /М.М. Алексеева, В.И. Яшина. - 3-е изд., стереотип. - М.: Академия, 2000. - 400 с.

3. Алпатов В.М. История лингвистических учений. -М.: Языки славянской культуры, 2001.-235 с.

4.Амирова Т.А. Очерки по истории лингвистики /Т.А. Амирова, Б.А. Ольховников, Ю.В. Рождественский.-М.: Наука, 1975. - 560 с.

5. Анохин П.К. Системные механизмы высшей нервной деятельности. -М.: Наука, 1979.-455 с.

6. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. Синонимические средства языка / 2-издание, исправленное и дополненное. - М.: Языки русской культуры, 1995. - 464 с.

7. АхутинаТ.В. Порождение речи: нейролингвистический анализ синтаксиса: монография /3-издание, исправленное и дополненное. - М.: ЛКИ, 2008. - 222 с.

8. Бабина Г.В. Анализ смысловой структуры текста учащихся с ТНР/Г.В.Бабина // Онтогенез речевой деятельности: норма и патология. Монографический сборник. -М.: Прометей МПГУ,2005.-С. 172 -178.

9. Бабина Г.В. Как понимают образные значения олицетворений дошкольники с ОНР/ Г.В.Бабина, Е.В. Белобородова // Логопед в детском саду. - 2006. - №5 (14). - С. 4 - 8.

10. Бабина Г.В. Слоговая структура слова: обследование и формирование у детей с недоразвитием речи: учебно-методическое пособие / Г.В. Бабина, Н.Ю. Сафонкина.-М.: Книголюб, 2005.-96 с.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI SHAXS SIFATIDA SHAKILLANTIRISHDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNALOGIYALARINI QO'LLASH

Isoqov J.Z.
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlarda masovafiy ta'lim
kafedrasi dotsent

Tayanch so'zlar: boshlang'ich ta'lim, shaxsni shakllantirish, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, raqamli ta'lim, o'quv jarayoni, innovatsion yondashuv.
Ключевые слова: начальное образование, формирование личности, педагогические технологии, интерактивные методы, цифровое образование, образовательный процесс, инноватsионный подход.
Key words: primary education, personality formation, pedagogical technologies, interactive methods, digital education, educational process, innovative approach.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini shaxs sifatida shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Pedagogik jarayonda interfaol metodlar, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning intellektual, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash usullari asoslab berilgan. Tadqiqotda amaliy tajriba, zamonaviy ta'lim metodlari va samaradorlik ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье освещаются роль и значение современных педагогических технологий в формировании личности учащихся младших классов. Обоснованы методы обеспечения интеллектуального, нравственного и социального развития обучающихся посредством использования интерактивных методов, личностно-ориентированного подхода и информационно-коммуникационных технологий в педагогическом процессе. Исследование фокусируется на практическом опыте, современных методах обучения и показателях эффективности.
SUMMARY:
The article highlights the role and importance of modern pedagogical technologies in the formation of primary school students as individuals. The methods of ensuring the intellectual, moral and social development of students through the use of interactive methods, a person-centered approach and information and communication technologies in the pedagogical process are substantiated. The study pays special attention to practical experience, modern educational methods and efficiency indicators.

XXI asr – axborot, texnologiyalar va raqamli tafakkur asri bo‘lib, u insoniyat hayotining barcha sohalarini tubdan o‘zgartirib yubordi. Ta’lim sohasida ham bu o‘zgarishlar katta islohotlarni talab qilmoqda. Xususan, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchining faqat bilim darajasi emas, balki uni shaxs sifatida rivojlantirish, mustaqil fikr yurita oladigan, jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan etuk inson sifatida shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shu maqsadda ta’lim tizimiga zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar faol joriy etilmoqda. Zero, har bir bola o‘ziga xos psixologik, aqliy, ijtimoiy va axloqiy xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning rivojlanishini individual yondashuv asosida tashkil etish pedagogik mahorat talab qiladi.

Bugungi ta’lim tizimi o‘quvchilarni bilimli bo‘lishdan tashqari, ularni shaxs sifatida shakllantirish vazifasini ham zimmasiga olmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi bu jarayonning asosiy negizi hisoblanadi. Bu bosqichda o‘quvchilarning intellektual, axloqiy va ijtimoiy sifatlarini rivojlantirish uchun ta’limning zamonaviy texnologiyalarini qo‘llash zarurdir. Shaxsni shakllantirishda boshlang‘ich ta’limning roli boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hali psixologik va ijtimoiy jihatdan shakllanish jarayonida bo‘lganligi sababli, bu bosqichda berilgan ta’lim va tarbiya ularning kelgusidagi hayot pozitsiyalarini belgilaydi. Shaxsni shakllantirish 1)Intellektual rivojlanish (fikrlash, tafakkur, kuzatuvchanlik) , 2)Axloqiy rivojlanish (odoblilik, ijtimoiy normalarga amal qilish) , 3) Ijodiy rivojlanish (ijodiy tafakkur, tashabbuskorlik), 4)Kommunikativ rivojlanish (muloqot va jamoada ishlash ko‘nikmalari) kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy texnologiyalarning o‘rni zamonaviy pedagogik texnologiyalar shaxsni shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ularga quyidagilar kiradi, Interfaol metodlar (Aqliy hujum, Klaster, Insert, Fishbone, Debat), Raqamli ta’lim texnologiyalari (multimedia darslar, interaktiv doskalar, elektron platformalar – Google Classroom, Quizizz va boshqalar), Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (individual yondashuv, differensiallashtirilgan topshiriqlar), Muammoli o‘qitish (o‘quvchilarda mustaqil qaror qabul qilishni shakllantirish), Portfel texnologiyasi (o‘quvchi yutuqlarining tizimli monitoringi).

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun zamonaviy metodik qo‘llanmalar yaratish, o‘quv dasturlarini raqamli texnologiyalarga moslashtirish, o‘qituvchilarni pedagogik texnologiyalar bo‘yicha qayta tayyorlash kurslariga jalb etish, Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni kengaytirish, maktabda o‘quvchilarning psixologik rivojini kuzatish tizimini kuchaytirish.

Boshlang‘ich sinfda ta’lim sifatining asosiy ko‘rsatkichi – o‘quvchining shaxsiy taraqqiyoti, axloqiy dunyoqarashi va mustaqil fikrlay olish qobiliyatidir. Bu esa zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalardan unumli foydalanishni talab etadi. O‘qituvchi innovatsion fikrlovchi va texnologik savodli bo‘lsa, natijada shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 2020, №9.

2. Pedagogika: Darslik / Tahrir hay’ati: S. Raximov, T. Yo‘ldoshev. – T.: Fan va texnologiya, 2018.

3. Toshkenboyeva M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Iqbol, 2015.

4. Xolmatova M. Boshlang‘ich ta’limda pedagogik texnologiyalar. – T.: O‘qituvchi, 2019.

5. Jalolov J. Pedagogik texnologiyalar: Nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2020. – 270 b.

6. Turaev A., Matmurodova N. Interfaol ta’lim texnologiyalari. – T.: Innovatsiya, 2021.

7. Hasanboyeva O. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – T.: TDPU nashriyoti, 2022.

8. Yuldasheva D. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda zamonaviy yondashuvlar // Ilmiy-amaliy jurnal “Ta’lim va innovatsiyalar”. – 2023.

Jonassen D.H. Learning to Solve Problems: A Handbook for Designing Problem-Solving Learning Environments. – Routledge, 2011.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KOGNITIV FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA AXLOQIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Matberdieva Y.B.
Innovatsion texnologiyalar universiteti
“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi assistenti

Tayanch so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, axloq, axloqiy qadriyatlar, kognitiv fikrlash, axloqiy tarbiya, shaxsiy rivojlanish, axloqiy dilemma, ijtimoiy ko‘nikmalar.
Ключевые слова: начальное образование, нравственность, нравственные ценности, когнитивное мышление, нравственное воспитание, личностное развитие, нравственная дилемма, социальные навыки.
Key words: primary education, morality, moral values, cognitive thinking, moral education, personal development, moral dilemma, social skills.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida axloqiy qadriyatlarning o‘rni haqida so‘z boradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkuri, dunyoqarashi va kognitiv fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishida axloqiy me’yorlar bilan uyg‘unlashtirilgan axloqiy qadriyatlarning ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, kognitiv fikrlash va axloqiy tarbiyaning integratsiyasi orqali boshlang‘ich ta’limda shaxsning intellektual va axloqiy rivojlanishini ta’minlash yo‘llari tahlil qilinadi.
РЕЗЮМЕ:
В статье говорится о роли нравственных ценностей в процессе формирования навыков когнитивного мышления у учащихся начальных классов. Раскрывается значение нравственных ценностей, гармонизированных с нравственными нормами, в развитии мышления, мировоззрения и навыков когнитивного мышления учащихся начальных классов. Также анализируются пути обеспечения интеллектуального и нравственного развития личности в начальном образовании посредством интеграции когнитивного мышления и нравственного воспитания.
SUMMARY:
The article discusses the role of moral values in the process of forming cognitive thinking skills in primary school students. The importance of moral values in harmony with moral norms in the development of thinking, worldview, and cognitive thinking skills of primary school students is revealed. Also, ways to ensure the intellectual and moral development of the individual in primary education through the integration of cognitive thinking and moral education are analyzed.

Bugungi kunda ta’lim tizimida yosh avlodni har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlovchi, ma’naviy va axloqiy jihatdan barkamol shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi bola tafakkuri, dunyoqarashi, axloqiy fazilatlari va fikrlash uslubi shakllanadigan eng muhim davr bo‘lib, bu bosqichda berilgan bilim va tarbiya uning keyingi shaxsiy va intellektual rivojlanishiga mustahkam zamin yaratadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, kognitiv fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida axloqiy qadriyatlarning o‘rni beqiyosdir.

Kognitiv fikrlash insonning idrok etish, eslab qolish, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, tahlil va sintez qilish kabi aqliy jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Bunday ko‘nikmalarni erta yoshdan boshlab shakllantirish, ayniqsa, axloqiy me’yorlar bilan uyg‘un tarzda rivojlantirish o‘quvchining ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli ishtirok etishi, atrofdagi voqealarga ongli yondashuvi, shuningdek, mustaqil fikrlovchi va mas’uliyatli shaxs sifatida kamol topishida muhim omil hisoblanadi. Bu esa, boshlang‘ich ta’limda o‘quv faoliyatini tashkil etishda o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni [1] taqozo etadi.

Kognitiv fikrlash – bu insonning kognitiv faoliyati asosidagi idrok, e’tibor, xotira, fikrlash va nutqni o‘z ichiga olgan jarayonlar to‘plami bo‘lib, uning rivojlanganlik darajasi insonning hayotdagi keyingi yutuqlari va muvaffaqiyatlariga bevosita ta’sir qiladi [2]. Bizning nazarimizda, kognitiv fikrlash – bu bolaning bilimni anglab olish, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish, mantiqiy mushohada yuritish, sabab-oqibatlarni tushunish, voqealar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish kabi intellektual faoliyatidir. Boshlang‘ich ta’limda kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish bolaning tafakkur dunyosini kengaytiradi, mustaqil fikrlashga undaydi va o‘z qarashlarini asoslab bera olish salohiyatini kuchaytiradi. Bu jarayon nafaqat aqliy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Chunki fikrlashda axloqiy yondashuvning mavjudligi bola ongida to‘g‘ri va noto‘g‘rini farqlash, odilona qaror chiqarish, boshqa fikrlarni hurmat qilish va mas’uliyatli yondashuv kabi fazilatlarni mustahkamlaydi.

S.I.Ojegovning izohli lug‘atiga ko‘ra, axloq – bu insonning ichki dunyosini tartibga soluvchi ma’naviy fazilatlar majmui bo‘lib, u xulq-atvorni belgilovchi axloqiy mezon va qoidalarga asoslanadi [5]. Axloqiy qadriyatlar esa insonning ichki olami va ijtimoiy hayotini boshqarib turadigan muhim tamoyillar bo‘lib, ular insoniylik, halollik, adolat, vijdon, sabr, diyonat, hurmat va mehr kabi fazilatlarni o‘z ichiga oladi. Aynan mana shu qadriyatlar bolalarning fikrlash

jarayonini yo‘naltirib boruvchi ichki mezon vazifasini bajaradi. Boshlang‘ich ta’limda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish:

- bolalarning xulq-atvoriga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;

- o‘zini va boshqalarni anglash, fikrga nisbatan tanqidiy va empatik yondashish ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

- jamiyatda sodir bo‘layotgan vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tutish, mas’uliyatli bo‘lish, halollik va adolat kabi tamoyillar asosida qaror qabul qilishni o‘rgatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining fikrlash jarayoni hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, bu yosh davrida bola juda sezgir va ta’sirchan bo‘ladi. Agar mazkur jarayonga axloqiy-me’yoriy yo‘nalishlar kiritilsa, bola nafaqat tafakkur qiladi, balki har bir fikrini axloqiy mezonlar asosida baholay boshlaydi. Misol uchun “O‘qish” darslarida ertak yoki hikoyalarni o‘qish jarayonida:

a) “To‘g‘ri va noto‘g‘ri”ni ajrata olish – axloqiy fikrlashni shakllantiradi;

b) “Nima uchun shunday bo‘ldi?” degan savolga javob izlash – tahliliy va tanqidiy fikrlashga olib keladi;

c) qahramon obrazlarini baholash orqali o‘zining va boshqalarning xulq-atvorini solishtirish – axloqiy jihatdan o‘z-o‘zini va boshqalarni baholash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Boshlang‘ich ta’limda eng ko‘p qo‘llaniladigan metod – bu ma’lumot uzatishning og‘zaki shakllari orqali hissiy sohaga ta’sir qilish usuli. Ongga ta’sir qilishning asosiy shakli axloqiy mavzudagi hikoyalar hisoblanadi. Bunday hikoyani axloqiy mazmunga ega bo‘lgan aniq faktlarning yorqin hissiy taqdimoti deb atash mumkin. Bu yoshda bolalarning his-tuyg‘ulariga ta’sir qilish, kognitiv fikr yuritish uchun asos berish juda muhim [4]. Bu esa, bola tafakkurining chuqurlashuvi va ijtimoiy-hayotiy tajribalarga ongli ravishda yondashishini ta’minlaydi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘qituvchilar quyidagi metodlardan foydalanish orqali kognitiv fikrlashni axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘un holda rivojlantirishlari mumkin:

1. Hayotiy vaziyatlar asosida muammoli savollar berish. Bu o‘quvchini fikr yuritishga, qaror qabul qilishga undaydi.

2. Qahramonlar xarakterini baholatish va axloqiy xulosa chiqarish. Bu orqali bola axloqiy jihatdan baho berishni o‘rganadi.

3. Munozara va kichik guruhlarda fikr almashish. Fikr xilma-xilligini qabul qilish va tanqidiy fikr yuritish rivojlanadi.

4. Erkin insho va hikoya tuzish. Bu jarayonda bola nafaqat fikrlaydi, balki o‘z axloqiy qarashlarini ifodalaydi.

G.I.Shchukina axloqiy qadriyatlar asosida o‘quvchilarning kognitiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda quyidagi metodlarni tasniflaydi:

- hikoya, tushuntirish va axborotni taqdim etishning boshqa shakllaridan foydalangan holda shaxs ongiga ta’sir ko‘rsatuvchi metodlar;

- turli mashqlar, topshiriqlar, tarbiyaviy vaziyatlardan foydalangan holda faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor tajribasini shakllantirish metodlari;

- raqobat, rag‘batlantirish va jazolashni o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlar va faoliyatni rag‘batlantiruvchi metodlar [3].

Axloqiy suhbat boshlang‘ich ta’limdagi eng samarali metodlardan biri bo‘lib, u o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi muloqotni o‘z ichiga olgan bilimlarni muhokama qilishdan iborat. Suhbat muammoning mavjudligini va uni birgalikda muhokama qilishni nazarda tutadi. Suhbat davomida bolalar mustaqil ravishda to‘g‘ri xulosaga kelishlari kerak, bu ta’lim metodining samaradorligini anglatadi [4]. Axloqiy suhbatning mavzulari mutlaqo xilma-xil bo‘lishi mumkin. Masalan, siz bolalar bilan mehribonlik haqida suhbatlashib, nima uchun bu fazilat juda muhim va nima uchun uni o‘zingizdan boshlashingiz kerakligi haqida gaplashishingiz mumkin. Suhbat davomida o‘quvchilarning fikrlari hisobga olinishi va unga dalillar keltirilishi kerak.

Axloqiy tarbiyaga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin, tarbiya jarayonida yagona bir metodtan foydalanish yetarli emas. Aksincha, turli usullarni uyg‘unlashtirib, ularning o‘zaro hamkorligi asosida yaxlit tizim sifatida qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv ta’lim-tarbiya jarayonining belgilangan maqsadlarga tezroq va samaraliroq erishishini ta’minlaydi. Boshlang‘ich sinflarda axloqiy qadriyatlarning ta’limga integratsiyalashuvi quyidagilar orqali amalga oshirilishi mumkin:

1. O‘qish, tabiiy fanlar darslarida va sinf soatlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradigan axloqiy dilemmalarni muhokama qilish.

2. Guruhda ishlash, bunda bolalar hamkorlik, o‘zaro yordam va boshqalarning fikrini hurmat qilishni o‘rganadilar, shu bilan birga tahlil qilish va bahslashish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

3. O‘quvchilarning shaxsiy tajribalarini va his-tuyg‘ularini ifoda etishga imkon beradigan ijodiy faoliyatni tashkil etish (masalan, hikoya yozish, rol o‘ynash, rasm chizish orqali axloqiy masalalarni yoritish).

Shu tariqa axloqiy qadriyatlar boshlang‘ich sinf o‘quvchisining kognitiv faoliyatining ajralmas qismiga aylanadi, uning aqliy rivojlanishining axloqiy meyorlarini belgilaydi va bir vaqtning o‘zida barqaror kognitiv strategiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning intellektual va axloqiy jihatdan shakllanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda kognitiv fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish bilan birga, axloqiy qadriyatlarni singdirish orqali har tomonlama barkamol, erkin fikrlovchi va ongli shaxs tarbiyalash mumkin. Shuningdek, ta’lim jarayonida axloqiy-tarbiyaviy yondashuvni faollashtirish, interfaol metodlardan foydalanish, real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, bolalarni erkin fikr bildirishga o‘rgatish va ularga tanqidiy yondashuvni singdirish kognitiv fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.

2. Масленников В.А. Развитие интеллектуальных способностей младших школьников / В.А.Масленников; Новгор. гос. ун-т. – Великий Новгород, 2004. – 240 с.

3. Петракова Т.И. Духовные основы нравственного воспитания: Монография. – М.: Импэто, 1997. – 94 с.

4. Рублик В.И. Особенности и развитие нравственных представлений у учащихся светской и православной общеобразовательных школ: автореф. дис. … канд. псих. Наук. – Иркутск. гос. пед. ин-т – Иркутск, 2008. – 196 с.

5. Щукина Г.И. Педагогика школы [Текст] / Г.И.Щукина. – М.: Просвещение, 1998. – С. 156.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KASBIY-IJODIY SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISHDA IMITATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Xudaybergenova Z.I.
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: imitatsion texnologiyalar, ijodiy salohiyat, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik metodika, innovatsion yondashuv.
Ключевые слова: имитационные технологии, творческий потенциал, начальное образование, педагогическая методика, инновационный подход.
Key words: simulation technologies, creative potential, primary education, pedagogical methodology, innovative approach.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirishda imitatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Imitatsion mashg‘ulotlar orqali pedagogik jarayonni real hayotga yaqinlashtirish, o‘qituvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, innovatsion yondashuv kabi ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilingan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье освещена роль и значение имитационных технологий в развитии творческого потенциала будущих учителей начальных классов. Проанализированы возможности приближения педагогического процесса к реальной жизни посредством имитационных занятий, а также формирования у будущих педагогов таких навыков, как самостоятельное мышление, решение проблем и инновационный подход.
SUMMARY:
This article highlights the role and importance of simulation technologies in developing the creative potential of future primary school teachers. It analyzes the possibilities of bringing the pedagogical process closer to real-life situations through simulation activities, as well as the formation of skills such as independent thinking, problem-solving, and an innovative approach in future educators.

Hozirgi kunda ta’lim tizimida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar boshlang‘ich ta’lim muallimlariga ham yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi ijodkor shaxs bo‘lishi kerak. Shu bois, pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy salohiyatini

rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, boshlang‘ich ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining asosiy turi bo‘lib, o‘quvchilarning yuqori sinflarda akademik bilimlarni o‘zlashtirishi uchun poydevorini yaratib beradigan bosqich hisoblanadi. Demak, uzluksiz ta’lim tizimining barcha turlarida ta’limning sifatini oshirishda boshlang‘ich ta’limda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida»gi PF-27-son Farmonida ta’limning sifatini oshirish hamda sohani ilg‘or xorijiy tajribalar asosida isloh qilish maqsadida “2023/2024 o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko‘nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, jamoa bo‘lib ishlash, tadqiqotchilik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlari amaliyotga kiritilishi” ko‘zda tutilgan. Bunda “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 1–4 sinflarida o‘quvchilarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan darsliklar bo‘yicha o‘qitish” [1] masalasi ko‘ndalang qo‘yilmoqda. Bu borada imitatsion texnologiyalardan samarali foydalanish samarali usullardan biri hisoblanadi. Imitatsion texnologiyalar – bu pedagogik faoliyatni modellash, turli vaziyatlarda sinab ko‘rish va tajriba o‘rganish imkoniyatlarini yaratish bilan bir qatorda real hayotdagi pedagogik vaziyatlarni sun’iy muhitda modellashtirish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’limiy yondashuv bo‘lib dars jarayonida rolli o‘yinlar, ssenariy asosidagi mashg‘ulotlar, muammoli vaziyatlarni yechich (case study)lardan foydalanish o‘qituvchilarni faol subyektga aylantirish orqali ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. “Imitatsiya” tushunchasi lotin tilidan olingan bo‘lib, “imitatio”, ya’ni “nimagadir yoki kimgadir taqlid qilish asosida uni o‘zida qayta sinab ko‘rish”, “qo‘llab ko‘rish” va “qo‘llash” ma’nolarini bildiradi [3]. “Imitatsiya” tushunchasining etimologik kelib chiqish tarixi “XIX asrning birinchi yarmida fransuz tilidan kirib kelgan”ligi haqida ma’lumot keltirilgan bo‘lib, uning “taqlid” bilan bog‘liq holda bir necha sinonimlari keltirilgan [4]. Agarda “imitatsiya” tushunchasi alohida fenomen sifatida ushbu davrlar bilan bog‘liq holda ilmiy iste’molga kirgan bo‘lsa, bu degani shu davrlargacha bu ilmiy muammo sifatida qaralmadi degan ma’noni anglatmaydi. Xalq og‘zaki ijodi asarlari va mumtoz adabiyotimizda garchi aynan “imitatsiya” tushunchasi qo‘llanilmagan bo‘lsa-da uning mazmunini aks ettiradigan yoshlarning yoshi kattalarga, xalq qahramonlari va botirlariga taqlid qilish, ularga o‘xshashga

harakat qilishlari imitatsiyaning ko‘rinishlaridan biri bo‘lsa, pedagog va psixolog olimlarning asarlarida ham namunalarga taqlid qilish, ustozlariga taqlid qilish, tasavvurlarida taqlid qilish singari masalalarning ifodasini topganligini ko‘rish mumkin. Masalan, taniqli psixolog olim Jan Vilyam Fris Piaje taqlid qilishni bolaning faol tanlovi bilan bog‘liq ekanligini asoslab, taqlidning tizimli tavsifi haqidagi g‘oyalarini ilgari suradi [2] bu bolaning shunchaki nusxa ko‘chirish faoliyati emas, balki uning shaxsiy rivojlanish jarayonida faol tanlov asosida amalga oshadigan ongli harakatdir.

Pedagogik vaziyatlarda imitatsion texnologiyalardan foydalanish ta’lim oluvchilarda kognitiv faollikni, mustaqil fikrlashni va turli xil vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga yo‘naltirish talab etiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zining kasbiy faoliyatida uchraydigan turli pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va to‘g‘ri qaror qabul qila olishi uchun bir qator sifatlarga ega bo‘lishi talab etiladi. Bular:

- o‘z mutaxasisligi bo‘yicha teran bilimga ega bo‘lishi;
- o‘quvchilar bilan muloqat qilish madaniyatini egallashi;
- dars jarayonida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda darsni to‘g‘ri tashkillashtira olishi;
- o‘z ustida izlanishi va ilm – fandagi eng so‘nggi yangiliklardan xabardor bo‘lishi;
- turli xil pedagogik vaziyatlar va risklarda o‘quvchilarni to‘g‘ri boshqara olishi hamda kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo va vakolatli tuzilmalarning hamkorlikdagi faoliyatida ishtirok etishi;
- turli – xil pedagogik vaziyatlarda o‘zining bilim va tajribalarini ustalik bilan qo‘llay olishi;
- o‘quv tarbiya jarayonini modellashtirishi va uni ta’lim jarayoniga amaliy tatbiq etishi;
- turli yosh davrlaridagi bolalarning rivojlanishi, muloqati, faoliyatini tashkil etish metodlaridan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish nazariyalariga oid bilimlar ega bo‘lishi va ta’limning turli bosqichlarida o‘qitish dasturlaridan foydalana olishi;
- pedagoglik kasbining yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega kasb ekanligini anglashi va kasbiy etika tamoyillariga amal qilishi;
- jamiyatning ijtimoiy-madaniy tuzilmasining o‘ziga xosliklari, shuningdek, milliy tarbiyaning qonuniyatlari va tamoyillarini hisobga olgan holda sog‘lom muhitni tashkil etishi;
- kasbiy faoliyatda bola huquqlari to‘g‘risidagi asosiy xalqaro va milliy me’yoriy - huquqiy hujjatlardan foydalana olishi;

- inklyuziv ta’limga qadriyatli munosabatda bo‘lish kabi kompetensiyalarni egallashlari muhim hisoblanadi. Bunda bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z ustida ishlashi, izlanishlari, pedagogik sifatlarni o‘zida singdirib borishi, egallagan nazariy bilimlarini pedagogik amaliyot jarayonida qo‘llay olishi, pedagogik muammolarni o‘z vaqtida anglay olishi va tanqidiy fikrlarni to‘g‘ri qabul qilgan holda har qanday pedagogik vaziyatlarga to‘g‘ri yechim topa olishi kasbiy rivojlanishda yaxshi samara beradi.

Imitatsion pedagogik texnologiyalarda qo‘llanialidgan vaziyatlar bo‘lajak o‘qituvchilarning tahlil qilishi, xulosalar chiqarishi, muammoni hal etishga tizimli yondashuvi va obyektiv yo‘lni topishiga doir bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan hodisa, jarayon, holat, faktlar va muammolarni hal qilishga qaratilgan faoliyat turi hisoblanadi. Pedagogik jarayonlarda quyidagi jarayon va holatlarda imitatsiyalash ishlari namoyon bo‘lishini ko‘rish mumkin (1-rasmga qarang).



1-rasm. Imitatsiyalashning namoyon bo‘lish jarayoni va holatlari

Imitatsiyalashning namoyon bo‘lish jarayonida biror faoliyatni yoki jarayonni kuzatish orqali boshqalarning harakatlarini tahlil qiladi va o‘ziga mos keladigan qismlarini tanlab oladi. O‘rganilgan harakat va ko‘nikmalar bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy tajribasiga aylanadi va ongida mustahkamlamlaydi. Imitatsiya jarayoni turli holatlarda esa o‘qituvchi yangi mavzu bo‘yicha dars o‘tar ekan, talabalar uning harakatlarini kuzatib, o‘rganilgan bilimlarni qo‘llashadi. Imitatsiyalash jarayoni va holatlari ta’lim, psixologiya va ijtimoiy

hayotda muhim o‘rin tutadi. Pedagogikada bu jarayon yangi bilimlarni o‘zlashtirish, ko‘nikmalarni mustahkamlash va kreativ yondashuvlarni rivojlantirishda samarali vosita sifatida qo‘llaniladi. O‘quvchilar imitatsiya orqali nafaqat akademik bilimlarni, balki ijtimoiy va emotsional ko‘nikmalarni ham o‘rganadilar.

Xulosa qilib aytganda imitatsion texnologiyalar kasbiy-ijodiy faoliyatni modellashtirishni o‘zida aks ettiradi. Oliy ta’lim tizimida o‘qitishning imitatsion texnologiyalarini qo‘llashning bosh maqsadi zaruriy bilimlarni egallashda ta’lim jarayoni subyektlarining ehtiyojlarini qondirish va ijodiy salohiyatini rivojlantirishdan iborat bo‘lib imitatsion texnologiyalarni pedagogik ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-ijodiy salohiyatini yuksaltirishda muhim hisoblanadi. Bu texnologiyalar orqali talabalar nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlaydi, mustaqil va kreativ fikrlashga o‘rganadi, real pedagogik holatlarga tayyorlanadi. Imitatsiyalash orqali shakllangan tajriba, ko‘nikma va refleksiya kelgusida ularni yuqori malakali mutaxassisga aylanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 02.03.2023-y., 06/23/27/0121-son.

2. Пиаже Ж. Избранные психологические труды.: пер с анг. и фр.яз. – М.: Международная педагогическая академия, 1994. – 680 с.

3. Имитация. Электронный ресурс. Материал из Википедии. https://ru.wikipedia.org/wiki/

4. Имитация. Этимологический онлайн-словарь русского языка Н.М.Шанского: Электронный ресурс. https://1793.slovaronline.com/

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING REFLEKSIV KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Shukirullaeva S.A.
Ajiniyoz nomidagi NDPI doktoranti

Tayanch so'zlar: reflekstsiya, refleksiv ko'nikma, refleksiv kompetentsiya, tafakkur, mulohaza, kompetentsiyaviy yondashuv.
Ключевые слова: рефлексия, рефлексивный навык, рефлексивная компетенция, мышление, рассуждение, компетентностный подход.
Key words: reflection, reflexive skill, reflexive competence, thinking, reasoning, competency-based approach.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ munosabatlar asosida refleksiv kometentsiyasini shakllantirish metodiksiga e'tibor qaratilgan. Maqolada o'quvchilarining refleksiv kompetentsiyasini rivojlantirish ususllari yoritilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье основное внимание уделяется методике формирования рефлексивной компетенции учащихся начальных классов на основе коммуникативных отношений. В статье освещены методы развития рефлексивной компетенции учащихся.
SUMMARY:
The article focuses on the methodology of forming the reflexive competence of primary school students based on communicative relationships. The article covers methods for developing students' reflexive competence.

Respublikamizda boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars jarayonida refleksiv kompetentsiyasini shakllantirishga doir ilmiy tadqiqotlar oli borilgan. Ushbu jarayonda tadqiqot ilib borgan olimlardan Z.Solieva, S.G'. Qoraev, M.A.Janbaeva kabi mualliflar boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning metakognitiv va refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha umumiy tadqiqotlarda ishtirok etganlar. Ularning ishlari ko'proq fanlararo yondashuvlar va o'quv motivatsiyasiga qaratilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining refleksiv kompetentsiyasini shakllantirish – bu ularning o'z faoliyatlari, fikrlari va xatti-harakatlarini mustaqil ravishda tahlil qilish, baholash va yaxshilashga qodir bo'lish ko'nikmalarini rivojlantirish

jarayonidir. Bu kompetentsiya o'quvchilarga o'zlarining ta'lim olish jarayonini yaxshiroq tushunish, xatolardan saboq chiqarish va samaraliroq o'rganishga yordam beradi. To'rtinchi sinf o'quvchilari uchun refleksiya asosan sodda va amaliy shakllarda bo'lishi mumkin, chunki bu yoshda ularning tafakkur va mulohaza yuritish ko'nikmalari endi shakllana boshlaydi.

Biz tadqiqot ishimiz jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining refleksiv komepentsiyasini qo'yidai usullarda shakllantirish imkoniyati mavjud. (1-rasm)

Refleksiv kompetentsiyani shakllantirish usullarini qo'yidagicha amalga oshirish mumkin:

Savol va mulohazalar orqali yo'naltirish	O'qituvchi darsdan so'ng o'quvchilarga savollar berishi mumkin: «Bu darsda nimani o'rgandingiz?», «Qaysi vazifa sizga qiyin bo'ldi va nega?», «Keyingi safar nimani boshqacha qilasiz?». Misol: Ona tili darsida masala yechishdan keyin o'quvchidan uning yechim yo'lini tushuntirishni va muammo qaerda paydo bo'lganini muhokama qilishni so'rash.
O'z-o'zini baholash usullari	O'quvchilarga o'z ishlarini baholash uchun oddiy jadvallar yoki smaylik shkalalari (😊👍👌) berish mumkin. Masalan, «Men bu vazifani qanchalik yaxshi bajaribman?» yoki «Menga nima yordam berdi?». Misol: O'qish darsida o'quvchidan matnni qanchalik tushunganini belgilashni so'rash.
O'yin va interfaol usullar	Refleksiyani qiziqarli qilish uchun o'yin elementlaridan foydalanish: masalan, «Bugungi darsda men nimani kashf qildim?» deb nomlangan mini-muhokama. Guruhda muhokama: O'quvchilar juft yoki kichik guruhlarda o'z tajribalarini bo'lishishadi, bu esa ularning boshqalar nuqtai nazarini ko'rishga o'rgatadi.
Kundalik yoki refleksiv yozuvlar	O'quvchilarga qisqa yozuv ishlari berish, masalan: «Bugun men nimani yaxshi bajaribman?» yoki «Menga nima qiyin bo'ldi?». Bu ularning o'z fikrlarini ifoda etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Misol: Hafta oxirida o'quvchilardan bir necha jumla bilan o'z o'quv faoliyatlari haqida yozishni so'rash.
O'qituvchidan keri aloqa	O'qituvchi o'quvchilarning refleksiyasiga izoh berib, ularni yanada chuqurroq fikrlashga undaydi. Masalan, o'quvchi «Menga vazifa qiyin bo'ldi» desa, o'qituvchi «Qaysi qismi qiyin bo'ldi, kel, birga ko'rib chiqaylik» deb yo'naltirishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytmoqchimanki, kompetentsiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishda boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi qo'yidagilar katta ahamiyatga ega:

Tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi: O'quvchilar muammolarni mustaqil hal qilishni o'rganadi.

Motivatsiyani oshiradi: O'z yutuqlarini ko'rib, o'quvchilar yanada faol bo'ladi.

Shaxsiy mas'uliyatni kuchaytiradi: O'quvchilar o'z ta'lim jarayonida faol ishtirokchi ekanligini his qiladi.

Ijtimoiy ko'nikmalarni yaxshilaydi: Guruhda muhokama qilish orqali o'quvchilar boshqalar bilan muloqot qilishni o'rganadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining refleksiyasi oddiy va tushunarli bo'lishi kerak, chunki ularning abstrakt fikrlash qobiliyati hali to'liq shakllanmagan.

O'qituvchi refleksiya jarayonida o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashi, ularni tanqid qilishdan ko'ra, ularning fikrlarini qadrlashi lozim.

Refleksiyani doimiy amalga oshirish muhim, lekin uni o'quvchilar uchun yuk qilib qo'ymaslik kerak – bu jarayon qiziqarli va tabiiy bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги "Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси" тўғрисидаги ПФ-5712-сонли Фармони. https://lex.uz

2. Солиева З.Қ. Бошланғич синф ўқувчиларида метакогнитив кўникмаларни ривожлантириш. // Ўзбекистонда таълим: илмий-амалий журнал. – Тошкент, 2020. – №3. – Б. 45-50.

3. Қораев С.Ғ. Бошланғич таълимда ўқувчиларнинг мустақил фикрлаш кўникмаларини шакллантириш. // Халқ таълими. – Тошкент, 2018. – №5. – Б. 12-18.

4. Жанбаева М.А. Бошланғич синф ўқувчиларида рефлексив ўқиш кўникмаларини ривожлантириш. // Таълим тизимида инновациялар. – Тошкент, 2021. – №2. – Б. 33-39

5. Зимняя И.А. Психологические аспекты обучения говорению на иностранном языке. – М.: Просвещение, 1985. – 160 с.

ZAMONAVIY TA'LIM MAZMUNIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

Tajbenova S.S.
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Boshlang'ich ta'lim kafedrasi dotsent, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tayanch so'zlar: lingvistik kompetensiya, boshlang'ich ta'lim, ona tili, kognitiv yondashuv, davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, grammatik bilimlar, og'zaki va yozma nutq.
Ключевые слова: лингвистическая компетенция, начальное образование, родной язык, когнитивный подход, государственный образовательный стандарт, учебная программа, грамматические знания, устная и письменная речь.
Key words: linguistic competence, primary education, native language, cognitive approach, state educational standard, curriculum, grammatical knowledge, oral and written speech.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda lingvistik kompetensiyani shakllantirish masalalari yoritilgan. Davlat ta'lim standartlari, ona tili darsliklari hamda o'quv dasturlaridagi lingvistik kompetensiyaga oid talablar tahlil qilingan. Lingvistik kompetensiyaning mazmuni, tarkibi va bosqichlari haqida fikr yuritar ekan, unga kognitiv va amaliy yondashuvlar zarurligi asoslangan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматриваются вопросы формирования лингвистической компетенции у учащихся начальных классов в процессе обучения. Проанализированы требования государственных образовательных стандартов, учебников родного языка и учебных программ, касающиеся лингвистической компетенции. Раскрыто содержание, структура и этапы формирования лингвистической компетенции, обоснована необходимость когнитивного и практического подходов.
SUMMARY:
This article explores the development of linguistic competence among primary school students during the educational process. It analyzes the requirements of state educational standards, native language textbooks, and curriculum documents related to linguistic competence. The paper discusses the content, structure, and stages of developing linguistic competence and justifies the importance of cognitive and practical approaches.

Boshlang'ich sinflar ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitish metodikasi bo'yicha izlangan metodist olimlar, mualliflar ta'lim mazmunini o'zlashtirishga doir umumiy talablar haqida gapirganlar, mavzularni o'rganish jarayonini

kompetensiyalarni hosil qilish sari yo‘naltirish borasida taklif va tavsiyalar bayon qilganlar. Aslida bunday taklif va tavsiyalar uzoq o‘tmishdan shu kunga qadar BKMlar bilan bog‘liq ravishda bayon qilib kelingan.

Davlat ta’lim standartida belgilanishicha, “Lingvistik kompetensiya – o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlarni (tilshunoslik fanining bo‘limlari: fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda o‘quvchilarning fikrini to‘g‘ri va ravon bayon eta olishini shakllantirishdan iborat” [1]. Anglash qiyin emaski, standartda, lingvistik kompetensiya deganda, bir tomondan, tilning so‘z boyligi, grammatik materiallari nazarda tutilsa, ikkinchi tomondan, ushbu materiallar zamirida nutq o‘stirish yotadi, deb e’tirof etilgan.

Odatda, boshlang‘ich sinflar uchun mo‘ljallanadigan BKMlar til birliklari, termin, ta’rif, tasnif, tavsif, qoidadan iborat qilib til sathlari bo‘yicha aniq belgilab kelingan. Aynan ushbu ta’lim mazmunini lingvistik kompetensiyani shakllantirish mazmuni deb atash qanchalik to‘g‘ri ekanligi munozaralidir. Bizningcha, BKMlar tarkibiga kirgan til hodisalarining hammasini emas, balki, asosan, qoidalar (ba’zan tavsiflar) bilan tushuntirish ehtiyoji mavjud bo‘lganlarini lingvistik kompetensiyani shakllantirishning dastlabki bosqichi mazmuni sifatida belgilab chiqish zarur. Tabiiyki, ayrim qoidalar termin ishtirokisiz tuzilmaydi. Masalan, fonetikani o‘rganish jarayoni terminlarsiz deyarli amalga oshmaydi. Shuni ham unutmaslik kerakki, affiksal tillarda ayrim qoidalar imkoniyatga qarab qo‘shimchalarga tayangan holda berilishi ham mumkin.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘quv fani bo‘yicha keyingi yillarda yaratilgan Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarida kompetensiyaga doir talablar kiritilgan, ular asosida darsliklar yaratilgan. Biz dissertatsiyaning ushbu paragrafida dastlab standart va o‘quv dasturlarida bayon qilinishiga ko‘ra lingvistik kompetensiyani ona tili ta’limi jarayoniga joriy etishdan qanday maqsadlar ko‘zlangani haqidagi talablarni o‘rganib chiqdik.

2017 yilgi “Ona tili o‘quv fanidan tasdiqlangan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi”da ikki xil kompetensiyadan (nutqiy kompetensiya va lingvistik kompetensiya.) tashqari, quyidagi tayanch kompetensiyalar ham o‘z ifodasini topdi: TK1 – kommunikativ kompetensiya; TK2 – axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi; TK3 – o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi; TK4 – ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi; TK5 – milliy va umummadaniy kompetensiya; TK6 – matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi[2]. Umumlashtirib aytganda, “Ona tili ta’limi

oldiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtma o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya’ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o‘rgatishdan iborat”.

“Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti”da belgilangan nutqiy kompetensiya xorij metodist olimlari tavsiflagan lingvistik kompetensiyaga, lingvistik kompetensiya tavsifi esa til kompetensiyasiga o‘xshash mazmunda belgilangan. Bunga “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida Ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi” ham ishora qilingan:

o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;

o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksnkologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalar) rivojlantirish;

ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantrishdan iborat[3].

Tabiiyki, ushbu hujjatlarda har bir o‘quvchida lingvistik kompetentlilikni shakllantirish alohida maqsad qilib ko‘rsatilmagan, chunki ta’lim natijasida yuzaga keladigan ushbu sifat darajasi lingvistik kompetensiya ustidagi ishlar mahsuli sifatida hosil bo‘lishi nazarda tutilgan, xolos.

2020 yili “Ona tili o‘quv fanidan milliy o‘quv dasturi” loyihasi e’lon qilindi, so‘ng 2022/2023 o‘quv yili uchun qayta ko‘rib chiqilgan varianti tarqatildi. Ushbu “Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi”da[4] ona tilidan belgilab chiqilgan malaka talablariga ko‘ra nutqiy kompetensiyalarga faqat kommunikativ jihatlar kiritildi, til birliklari esa lingvistik bilimlar ruhida aks ettirildi.

“Maktab bitiruvchilarida til va adabiyot fanlari bo‘yicha rivojlantiriladigan umumiy kompetensiyalar (umumiy o‘rta ta’lim bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablar)” da “Lingvistik kompetensiyalar” bo‘yicha boshlang‘ich maktabning 4-sinfini bitiruvchi o‘quvchisiga quyidagi talablar qo‘yilgan[4]:

fonetikadan nutq tovushlarining ma’no farqlash vazifasini anglash va izohlay olishi, fonetik hodisalar (tovush tushishi, tovush orttirilishi, tovush almashishi) ni bilish va izohlay olishi, ohang va urg‘uni bilish va qo‘llay olishi talab etiladi.

Bular o‘quvchilarda fonetikaga doir bilim, ko‘nikma va malakalar hosil bo‘lganidan dalolat berishi mumkin, lekin ularning lingvistik kompetensiya darajasiga unchalik dahli yo‘q, chunki ma’no farqini anglash va izohlash, so‘zlarda tovush almashinayotganini bilish va izohlash, ohang va urg‘uni bilish,

qo‘llay olish til egalarining amaliy nutqida bor, deyarli xato qilinmaydigan bilim va malakalarning ongliligini oshiradi, xolos.

Imlo me’yorlaridan harflar imlosini bilish va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish, asos va qo‘shimchalar imlosini bilish va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish, so‘zlarni qo‘shib, ajratib va chiziqcha bilan yozish hamda ko‘chirish qoidalariga amal qilish belgilangan.

Imlo bilan bog‘liq qoidalar lingvistik kompetensiya darajasida egallanishi lozim bo‘lgan bilimlar hisoblanadi.

Leksikologiya bo‘yicha sinonimlar, sinonimik qatordagi uslubiy farqlarni tushunish va to‘g‘ri qo‘llay olish, omonim, paronimlarni farqlash, ularni nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish, so‘zning ko‘p ma’noliligi, bosh va ko‘chma ma’nolarni farqlash, ko‘chma ma’noni hosil qiluvchi birliklarni nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish degan malaka talablari o‘z ifodasini topgan. Bu yerda ko‘rsatilgan bilimlar, ayniqsa, sinonimik qator, omonim va paronimlar haqidagi ma’lumotlar ko‘proq yuqori sinflar uchun mo‘ljallanishi to‘g‘ri bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflar o‘quvchilari sinonim so‘zlardan qay biri so‘zlashuv uslubida qo‘llanishi, qay birlarini bu usulubdagi nutqda qo‘llamaslik kerakligini amaliy bilishlari lozim, chunki, ularga bunday mazmundagi nazariy ma’lumotlar berilmaydi.

Morfologiya qismidagi talablar quyidagilardan iborat: so‘zni tarkibiy qismlarga ajratish, asos va qo‘shimchani, tub va yasama so‘zlarni farqlash; qo‘shimchalarning shakldosh, ma’nodosh, zid ma’noliligini bilish, nutqida qo‘llay olish; mustaqil so‘z turkumlari (fe’l, ot, sifat, son, ravish, olmosh), ularning ma’no turlarini o‘zaro farqlash, uslubiy xususiyatlarini tushunish hamda nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish; yordamchi so‘z turkumlari (bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama)ni o‘zaro farqlash, ularning uslubiy xususiyatlarini tushunib izohlay olish hamda nutqda to‘g‘ri qo‘llash; alohida so‘z turkumlari (modal, taqlid va undov so‘zlar) ni o‘zaro farqlash, ularning uslubiy xususiyatlarini tushunib izohlay olish hamda nutqda to’g’ri qo’llash; tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari morfologik shakllar talaffuzi va imlosidagina xatolarga yo‘l qo‘yadilar, ularning qo‘llanishi bilan bog‘liq xatolar kamroq uchraydi. Talaffuz va imlo xatolarini tuzatish uchun talaffuz va imlo qoidalari o‘zlashtirilishi zarur bo‘lsa, qo‘llashga, gapda so‘z tartibiga doir xatolar so‘z turkumlarini farqlashga doir bilimlar asosida tuzatiladi. Lekin boshlang‘ich sinflarda so‘z turkumlarining uslubiy xususiyatlari deyarli o‘rganilmaydi.

Sintaksis qismidagi talablar: so‘z birikmasi, gap va uning turlarini farqlay olish va nutqida to‘g‘ri qo‘llash; gap bo‘laklarining o‘zaro bog‘liqligini, tartibini tushunish va nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish; sintaktik birliklarni farqlash va nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish; tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash.

Sintaksisga doir bilimlar amaliyotni yetarlicha nazarda tutmaydi: o‘quvchilar so‘z birikmalari tuza oladilar, darak, so‘roq va buyruq gaplarni to‘g‘ri tuzadilar, gapda so‘zlarni o‘zaro bog‘laydilar.

Umuman, boshlang‘ich sinflar uchun mo‘ljallab ishlab chiqilgan malaka talablari, birinchidan, o‘quvchilarning bilimi, yosh xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanishi kerak, ikkinchidan, o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar, bolalar nutqida uchraydigan turg‘un xatolar hisobga olinishi lozim.

“Ona tili fani milliy o‘quv dasturi”da 1–3-sinflar bo‘yicha belgilangan “Umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchisiga ona tili fanidan qo‘yiladigan talablar”[4] ning “Lingvistik ko‘nikmalar” ruhida bayon qilingan talablar lingvistik kompetensiyalar emas. Masalan, tovushlarni taniydi, ularni harflarga moslashtira oladi, tovushlarni qo‘shib so‘z hosil qila oladi, tovushlar joylashuvini o‘zgartirib yoki tovushni olib tashlab yangi so‘z hosil qila oladi; bo‘g‘inlarni taniydi, ularni qo‘shib so‘zlarni talaffuz qila oladi, bo‘g‘inlarni birlashtirib, joylashuvini o‘zgartirib yoki bo‘g‘inni olib tashlab yangi so‘z hosil qila oladi (1-sinf); sinf darajasiga mos og‘zaki va yozma matnlardagi so‘z birikmasi, notanish so‘z, iboralarning ma’nosini berilgan kalit so‘zlar orqali aniqlaydi, ularni og‘zaki va yozma nutqida samarali qo‘llaydi; gaplardagi birinchi so‘zlar hamda ismlarni bosh harf bilan yoza oladi (2-sinf); sinf darajasiga mos matn hamda so‘zlarda bo‘g‘in ko‘chirish qoidalarini amalda qo‘llay oladi; sinf darajasiga mos matnlarda ot, sifat, fe’l, olmosh, sonlarni aniqlaydi hamda ularni og‘zaki va yozma nutqida samarali qo‘llay oladi (3-sinf) kabi. Bular ma’lum darajada filologik bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarga yaqin turadi. Shunday bo‘lgach, ushbu bilim va malakalarning lingvistik deb atalishini o‘ylab ko‘rish lozim. Buning ustiga ular BKM o‘rnida lingvistik kompetensiya tushunilayotganidan dalolat beradi..

Ko‘rinadiki, malaka talablarida asosan, o‘quvchilar nutqini o‘stirishning miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari tavsiflangan. Lekin, afsuski, bu talablar ona tilidan o‘rganiladigan nazariy tushunchalar, til hodisalarining nutqda qo‘llanish darajasini ifoda etmaydi. Bizningcha, filologik yo‘nalishdagi ma’lumotlar ustida ishlash lingvistik kompetensiya va lingvistik kompetentlilikni shakllantirish jarayoniga ishora qilmaydi. Zero, talaffuz va imlo qoidalari, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va yozish, qo‘shimchalarni to‘g‘ri qo‘llash, gaplarni to‘g‘ri tuzish, matn yaratish qoidalari asli ko‘nikma va malakalarni hosil qilish jarayoni bo‘lib, dastlabki bosqichda oxirigacha shakllanib ulgurmaydi. Bu degan so‘z, qoidalarni faollashtirish bilan bog‘liq navbatdagi bosqich bo‘lishi zarur.

Nutqiy kompetensiya BKMlarning shakllanish darajasida nutqiy faoliyat turlari bilan bog‘liq ta’lim mazmunidagi ishlarni taqozo etadi, ya’ni ushbu kompetensiyani shakllantirish ustidagi ishlar yo lingvistik kompetensiya bilan

parallel ravishda, yoki undan keyingi alohida bosqichda amalga oshiriladi. Grammatik bilimlarning yuqori darajada egallangan bo‘lishini talab qiladigan holatlarda avval lingvistik kompetensiya, keyin til hodisalari bo‘yicha tegishli bilimlarning hosil bo‘lishiga qarab nutqiy kompetensiya ustidagi ishlar tashkil etiladi. Grammatik bilimlarni talab qilmaydigan holatlarda esa nutq o‘stirish ishlari muxtor yo‘nalish sifatida amalga oshirilaveradi.

Shunday ekan, L.V.Cherepanova to‘g‘ri ta’kidlaganidek, kompetentlilikni o‘quvchida olingan bilimlar , ko‘nikma va malakalar hamda o‘quv-bilim faoliyati usullari, ya’ni faoliyat tajribasi asosida turli xil faoliyatni (o‘quv-bilim, kommunikativ va boshq.) amalga oshirish imkonini beradigan alohida fazilatning paydo bo‘lishida o‘z ifodasini topadigan ta’lim natijasi deb belgilash maqsadga muvofiqdir[7]. Bular o‘quvchilarni ta’limning yakuniy mahsulini qo‘lga kiritish vositasi sanaladi.

Boshlang‘ich sinflarda lingvistik kompetensiyaning qay tarzda shakllanishi, shakllanish jarayoni qanday kechishi xususida hali ham aniq bir yechimga kelingani yo‘q. Odatda, mualliflar ta’lim mazmunini o‘zlashtirishga doir umumiy talablar haqida gapiradilar, mavzularni o‘rganish jarayonini kompetensiyalarni hosil qilish sari yo‘naltirish borasida taxminiy taklif va tavsiyalar bayon qiladilar.

Umuman, o‘quv dasturida ta’kidlanganidek, ko‘nikma hosil bo‘lgandan keyinoq kompetensiya shakllanmaydi, chunki kompetensiya bilimni o‘zlashtirish, amalda qo‘llash ko‘nikma va malakalaridan yuqori turuvchi holat: layoqat yoki qobiliyat, ta’limning pirovard natijasi, mahsulidir. Bu yerda aytilayotgan fikr lingvistik kompetentlilikdan boshqa narsa emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг давлат таълим стандартини тасдиқлаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент: 2017 йил 14 (774)-сон, 230-модда.

2. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi: Ona tili. Adabiyot (5−9-sinf). O‘zbek tili. − Toshkent, 2017. 18−22-betlar.; Умумий ўрта вв ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг умумтаълим фанлари бўйича малака талаблари: “Она тили” фани бўлими. // Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти (2017 йил 6 апрель) Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами, 2017. 140–143-бетлар.

3.Умумий ўрта таълимнинг Давлат таълим стандарти: // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. − Toshkent, 2017. 140–141-бетлар.

4. Ona tili fani milliy o‘quv dasturi. – Toshkent: RTM, 2022–2023 o‘quv yili uchun. 7–10-betlar. (138 bet).

5. Черепанова Л.В. Формирование лингвистической компетенции школьников в основной общеобразовательной школе (Теоретические основы): автореф. дисс. … доктора пед. наук; Москва, 2005. – С. 18.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EGILUVCHANLIK SIFATINI RIVOJLANTIRISHDA STATIK–STRECHING MASHQLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI

Ziyatov M.N.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Tayanch so'zlar: egiluvchanlik, o'yin, statik, maktabgacha ta'lim tashkilot, 6-7 yoshli maktabgacha yoshdagi bolalar, jismoniy tarbiya mashg`ulotlari.
Ключевые слова: гибкость, игра, статика, дошкольное учреждение, дошкольники 6-7 лет, занятия по физическому воспитанию.
Key words: flexibility, play, static, preschool organization, 6-7 years old preschoolers, physical education classes.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada мaktabgacha ta'lim tashkiotlaridagi, 6-7 yoshli bolalarda egiluvchanlikni rivojlantirish uchun statik-stretching mashqlardan foydalanish samarasini o'rganish natijalari keltirilgan. Bugugi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni sog'lomlashtirish yo'nalishi bilan jismoniy tarbiyalashning turli vositalaridan foydalanish tendentsiyasi tobora rivojlanib bormoqda. Shu munosabat bilan mutaxassislar oldida muammolarning ko'payib borishi va qiyinlashib borayotgan jismoniy harakatlarni qisqa vaqt ichida bolalar o'zlashtirishi va jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasiga erishishi uchun imkon beradigan vosita va usullarni topish muammosi oldinga surilmoqda.
РЕЗЮМЕ:
В статье представлены результаты исследования эффективности использования стречинг-статических упражнений в дошкольном образовании для развития гибкости у детей 6-7 лет. Сегодня тенденция использования различных средств физического воспитания в направлении улучшения здоровья дошкольников набирает обороты. В связи с этим перед специалистами встает проблема создания и определения средств и методов, которые позволят детям освоить сложные физические действия и достичь высокого уровня физической подготовки за короткий период времени.
SUMMARY:
The article presents the results of a study of the effectiveness of the use of stretching-static exercises in preschool education to develop flexibility in children aged 6-7 years. Today, the trend of using various means of physical education in the direction of improving the health of preschool children is growing. In this regard, the problem of creating and identifying tools and methods that will allow children to master and increase the level of physical fitness in a short period of time and increase the difficulty of physical activity is put forward by experts.

Qoida tariqasida, quyidagilar gimnastikaning turli yo'nalishlari – ritmik gimnastika, aerobika, nafas olish mashqlari, sharqona sog`lomlashtirishga oid turlari, fitbol gimnastikasi, tayanch-harakat tizimi kasalliklarini oldini olish uchun maxsus tanlangan jismoniy mashqlar komplekslari, davolovchi gimnastika, nuqtalar massaji, statik-stretching mashqlar va boshqalar.[2] Ularning barchasi maktabgacha yoshdagi bolaning hayotiyligi va funktsional imkoniyatlarini oshirishga jalb qilish va organizmni funksiyalarini rivojlantirishga qaratilgan.[3]

Har yili tez-tez kasallika chalinadigan, shuningdek yurak-qon tomir kasalliklari, semirish, qaddi-qomat va tayanch-harakat tizimining boshqa kasalliklari kuzatiladigan bolalar soni ortib bormoqda. [1]

Barcha harakatlar umurtqa pog`onasi va bola organizmining bo'g'imlaridagi harakatchanlik tufayli amalga oshiriladi. [4] Ushbu harakatchanlikning yo'qligi yoki yetishmasligi organizmda quvvat darajasini pasaytiradi, tezlik va chaqqonlik qobiliyatlarini rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi va ko'pincha mushaklar va bo`g`imlarning shikastlanishiga sabab bo'ladi.

Bolalarning jismoniy sifatlari va jismoniy qobilyatlarini tarbiyalash uchun egiluvchanlik sifatini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega, chunki bu yosh eng maqbul vaqt hisoblanib, maqsadli ta'sir etishda rejasi yosh chegarasi bilan cheklangan[4].

Egiluvchanlik - bu bolalarning katta amplitudada cho`zilish harakatlarni bajarish qobiliyatidir. Egiluvchanlik harakat erkinligini, yengilligini, osonligini, bola o'z tanasini kuchini jamlash qobiliyatini ta'minlaydi, shunday qilib ushbu mashqlarni bo'shashtiruvchi harakatlar bilan birgalikda qo`llaniladi. Yetarlicha egiluvchanlikka ega bo'lmagan bolalar harakat paytida mushaklarning chaqqonlik qobiliyatiga ega bo`ladi. Egiluvchanlik bo'lmagan bolalar juda ko'p energiya sarflaydilar va tezda charchaydilar.

Bolalarda egiluvchanlikni rivojlantirishni 6-7 yoshdan boshlash yaxshidir. Bu yoshga kelib, mushak-tog`ay tizimi yaxshi rivojlanadi va uning egilishi yuqori darajada bo`ladi. Odatda, katta bo'g'imlarning harakatchanligi 13-14 yoshgacha asta-sekin o'sib boradi va 16-17 yoshgacha barqarorlashadi.[6] Shu sababli, bolaning tabiiy egiluvchanlikligini saqlab qolish uchun 5-7 yoshidanoq maxsus mashg'ulotlarni boshlash kerak, aks holda tananing egiluvchanligi (plastikligi) pasayishi muqarrar.

Shu munosabat bilan bola salomatligini mustahkamlashning samarali usullarini izlash, jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish, kasalliklarning oldini olish va inson aqliy (intellektual) va hissiy rivojlanishining kuchli omili sifatida harakat faolligini oshirishdan iborat, mana shu jihatlarni hisobga olgan holda, barcha asosiy harakatlar va jismoniy fazilatlarni takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.[7]

Jismoniy tarbiya mashg`ulotlarida statik-stretching usullaridan birini bevosita ishlab chiqqan mualliflar fikriga ko'ra, statik-stretching mashqlari bolalar bilan o`yin va mashg`ulot faoliyati tarzida olib borilib, mushak va bo'g'inlarga ta'sir qiladigan sekin harakatlardan tarkib topadi[7]. Stretching mashqlari ma'lum mushak guruhlarini cho'zish uchun eng yaxshi holatni ta'minlaydigan pozitsiyalar to'plamini o'z ichiga oladi. Zamonaviy stretchingning pozitsiyalari yoga va boshqa sharqona sog`lomlashtiruvchi mashqlar majmualari ishtirok etadi.[6]

Cho'zish - bu yaxshi holat bo`lib, shikastlanishning pasayishi, tana harakatlanishi va egiluvchanlikligini ta`minlab, quvnoq ruh va ajoyib kayfiyat bag`ishlaydi.

Ushbu tadqiqotga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- katta maktabgacha yoshdagi bolalarning egiluvchanlikligini rivojlantirishga qaratilgan mashg`ulotlarda cho'zish usulidan foydalangan holda ishlash tizimini tanlash va sinash;

- 7-yoshli bolalarda egiluvchanlikni rivojlantirish uchun mashg`ulotlarda cho'zishdan foydalanish samaradorligini yoritib berish.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarini anketa-so`rov o`tkazish, pedagogik test, matematik statistika usullari kabi usullardan vazifalarni hal qilish uchun tadqiqot usullari qo'llanildi.

7-yoshli bolalarda egiluvchanlikni rivojlantirish darajasini aniqlash uchun pedagogik test o'tkazildi, testlarning xilma-xilligini o'rganish uchun qo'shimcha asbob-uskunalarni talab qilmaydigan informatsion va eng qulay bo'lgan testlar tanlandi:

Testlash №

Test №1 Yelka bo`g`imlarini harakatlantirish D.x. oyoqlari erkin holatda (yelkalarining kengligida), qo'llarni orqa tomondan olib, zamok qilish, tirsaklarni tekislash va tanani oldinga egib, yuqoriga ko'tarish- qo'llar past daraja: tirsaklar tekislanmagan va deyarli ko'tarilmaydi;

- o'rta daraja: qo'llar tirsaklarda to'g'rilanadi va orqa tomondan 45 darajaga ko'tariladi;

- yuqori daraja: qo'llar, tirsaklar to'g'rilanadi va 90 darajaga yoki undan ko'proq ko'tariladi.

Test №2 Tos-son qismini harakatlantirish, yelka mushaklarini egiluvchanligi (elastikligi). D.x. holat - yerga o'tirish, oyoqlari juft, holat - oldinga egilib, qo'llarni oyoq barmoqlariga tekkizish.

-past daraja: oyoqlari tizzada to'liq tekislanmagan, yelka egilgan, tana oyoqlarga tegmaydi va qo'llar barmoqlarga etib bormaydi;

-o'rta daraja: oyoqlari tizzada tekislanadi, yelka egiladi, tana oyoqlarga tegmaydi, qo'llar barmoqlariga etib bormaydi;

-yuqori daraja: oyoqlari tizzada to'liq tekislanadi, yelka tekis, tanasi oyoqlarga tegadi va qo'llar oyoq barmoqlariga tegadi.

Test №3. Oyoq mushaklarining egiluvchanligi (elastikligi). Mashq: oyoqlarni ko`ndalang cho`zishlar.

- past daraja: oyoqlari deyarli 2 pozitsiyadan sal ko'proq kengroq kerilgan;
- o'rtacha daraja: oyoqlari keng kerilgan, ammo tos yerga tegmaydi
- yuqori daraja: oyoqlar bir qatorga kerilgan, tos polga tegib turadi.

Shartli belgilar: Y - yuqori daraja; O`- o'rtacha daraja; P - past daraja.

Barcha daraja uchta vazifani bajarish natijalari bilan belgilanadi:

Agar uchta "Y" bo'lsa-Yuqori, agar uchta "P" bo'lsa-past - , ikkita "P" va bitta "S" bo`lsa-O'rta - va boshqa variantlar.

Test 2 –Gavda yelkadan oldinga egilib,qo'llar oldinga cho'zilgan bilan (sm bilan o'lchanadi). Sinov umurtqa pog'onasi va son bo'g'imlari mushaklarining egiluvchanligini, harakatchanligini baholaydi. Sinov tartibi: Erga ikkita to'g'ri, perpendikulyar kesishgan chiziqlar tortilgan. Bola yon tomondan (poyabzalsiz) o'tiradi, shunda uning tovonlari AB chizig'iga yaqinlashadi, lekin unga tegmaydi. To'piqlar orasidagi masofa 20-30 sm, oyoqlari vertikaldir. Qo'llar oldinga, kaftlar pastga. Mutaxassis bolaning tizzalarini yerga bosib turadi, egilish paytida oyoqlarning bukilishiga yo'l qo'ymaydi. Uch marta urinishda sekin dastlabki egilishlar amalga oshiriladi (kaftlar belgilangan chiziq bo'ylab siljiydi). To'rtinchi egilishhisobga olinadi va 5 soniyada amalga oshiriladi. Natijalar barmoqlarning uchlari tekkan joydan hisobga olinadi, natija + va - aniqligi 1 sm gacha bo'lishi mumkin. Pedagogik eksperiment uch oy davom etdi va uch bosqichdan iborat bo'ldi:

Boshlang`ich - bu bosqichda 7 yoshli bolalarda egiluvchanlikni rivojlantirish darajasining asosiy sinovi va monitoringi amalga oshirildi.

Shakllantiruvchi – statik-stretching mashqlar yordamida mashg'ulotlar o'tkazish.

Yakunlovchi - ushbu bosqichda 7 yoshli bolalarda takroriy sinov va egiluvchanlikni rivojlantirish darajasini nazorat qilish amalga oshirildi. Yakun yasash.

Egiluvchanlikning rivojlanish darajasini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, aksariyat bolalar egiluvchanlikning rivojlanishining past va o'rta darajasiga ega.

Shunga muvofiq biz mashg`ulotlarda statik-stretching mashqlari yordamida egiluvchuvchanlikni rivojlantirish bo'yicha mashqlar to'plamini tanlandi va sinab ko'rildi [4]. Mashg'ulotlar kunning ikkinchi yarmida sport zalida bo'lib o'tdi, bolalar gilamchada, yengil kiyimda, poyabzalsiz (paypoqda), mashg'ulotlar davomiyligi 30 minut (shu vaqt, tayyorgarlik qismi 5 daqiqa, asosiy qismi 15-20

daqiqa, yakuniy qismi-5 daqiqa) Uch oy davomida haftasiga ikki marta amalga oshirildi.

Mashg`ulotlarning tuzilishi uch qismdan iborat edi:

1) Mashg`ulotning birinchi qismi (kirish qismi) tayyorgarlik, uning maqsadi tanani qizitish va umumiy rivojlantiruvchi 2) ikkinchi qism (asosiy) egiluvchanlikni rivojlantirish uchun mashqlar majmuini o'z ichiga oladi 3) uchinchi qism (yakuniy) - harakatchan, kamharakat, musiqiy va ritmik o'yinlar.

Eksperimentning nazorat bosqichida tadqiqot natijalari to'g'risida ma'lumot olish uchun egiluvchanlikni rivojlantirish darajasining takroriy sinovi o'tkazildi. 7 yoshli bolalarda egiluvchanlikni rivojlantirish uchun statik-stretching mashqlardan foydalanish samaradorligini aniqlash uchun gistogramma tuzildi, unda dastlabki va yakuniy sinov natijalarini qiyosiy tahlil qilindi.



	Boshlang`ich tajriba	Yakuniy tajriba
Yuqori	19	52
O`rta	32	26
Past	46	29

1-rasm. Aniqlash va nazorat eksperimenti ma'lumotlarini qiyosiy tahlili natijasida maktabgacha katta maktabgacha yoshdagi bolalarda egiluvchanlikni rivojlantirish darajasida ijobiy tomonga o`zgardi.

Shuningdek, umurtqa pog'onasi va tos-son bo'g'imlarimushaklari harakatchanligi testida,egiluvchanlikni rivojlantirish darajasini nazorat sinovlaridan o'tkazildi. Birlamchi va nazorat sinovlari natijalariga ko'ra styudentning t-testi bo'yicha farqlarning ishonchliligini aniqlashga qaror qilindi, ya'ni egiluvchanlikni rivojlantirishda tanlangan statik-stretching mashqlardan iborat tajriba dasturining samaradorligini isbotladi.

Tanlangan namunalar bo'yicha vositalar farqining ishonchliligini aniqlash uchun quyidagi formula qo'llaniladi:

$$t = \frac{M_d}{\sigma_d/\sqrt{n}}$$

bu erda Md - ko'rsatkichlar farqi arifmetik o'rtacha va undan keyin, σd - ko'rsatkichlar farqlarining standart og'ishi, n - tajribalar soni.

Tajribadan oldingi belgining o'rtacha qiymati 5.266 ± 0.695 ga teng

Tajribadan keyingi belgining o'rtacha qiymati 7.209 ± 0.655 ga teng

ishonchlilik darajalari soni (f) tenglik 14 styudent t mezoni-testi 12.185 ga teng.

Berilgan erkinlik darajalari uchun Styudent t-testining ishonchlilik qiymati 2,144 ga teng. t kuzat> t krit belgining o'zgarishi statistik ahamiyatga ega (p <0.05).

Xulosa qilinganda dastlabki ma'lumotlar va yakuniy natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, barcha ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymati oshdi. O'rtacha qiymat 35,6 foizga o'sdi. O'rtacha qiymatlarni styudentning t-testi bo'yicha farqlarning ishonchliligini aniqlagan holda, farqlar ishonchliligi (t=2.1) aniqlandi. 7 yoshdagi bolalarda statik-stretching mashqlar orqali egiluvchanlikni rivojlantirish uchun jismoniy mashqlar komplekslarini eksperimental sinovdan o'tkazish natijasida barcha bolalar natijalari yaxshilanganligi va ijobiy dinamikasi qayd etilgan. Styudentning t-testi bo'yicha farqlarning ishonchliligi qiymatlarini hisoblashda jismoniy tarbiya statik-stretching mashqlar orqali egiluvchanlikni rivojlantirish uchun hisoblangan qiymat, chegara qiymatidan yuqori bo'lib, bu bizga egiluvchanlikni qulay rivojlanishi uchun tanlangan texnikaning samaradorligi to'g'risida izohlash imkonini beradigan birlamchi va nazorat sinovlari o'rtasidagi farqlarning ishonchliligi haqida ma`lumot beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Haydarov B.T., Ibroimova G.X. “Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi” (Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida) “SamDU” nashri darslik. 2020 y.375 b.

2. Haydarov B.T., Eshtayev A.K., Ibroimova G.X. “Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida gimnastika mashg`ulotlarini o`tkazish usullari” “SamDU” nashri mashg`ulotlik. 2019 y. 208b

3. Haydarov B.T., Ibroimova G.X. “Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida Jismoniy tarbiya nazariyasi” “SamDU” nashri darslik. 2020 y.375b

4. Чайковская Е. А. Использование игрового стретчинга для развития гибкости у детей седьмого года жизни / Е. А. Чайковская. - Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2017. - № 13 (147). - С. 622-625. - URL: https://moluch.ru/archive/147/41383/ (дата обращения: 18.09.2020).

5. Актуальные вопросы обучения и воспитания подрастающего поколения [Электронный ресурс] Издательство «Мир науки». — Электрон. текст. данн. (2,37 Мб.). - Уфа: Издательство «Мир науки», 2016. - 1 оптический компакт-диск (CD-ROM).

6. Еркомайшвили И. В. Основы теории физической культуры. Курс лекций /И. В. Еркомайшвили - Екатеринбург, 2011. - 191 с.

8. Назарова А. Г. Игровой стретчинг. Методическое пособие для работы с детьми / А. Г. Назарова - СПб, 2010–35 с.

ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ НА ОСНОВЕ ИНФОРМАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

Темирбекова А.О.

Доктор филологических наук (PhD), доцент кафедры «Общая педагогика и психология» факультета начального образования. Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза.

Tayanch so'zlar: pedagogika, talaba, axborot, texnologiya, innovatsiya, o'qituvchi.
Ключевые слова: педагогика, студент, информация, технологии, инновация, преподаватель.
Key words: pedagogy, student, information, technology, innovation, teacher.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axborot-pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishning nazariy va amaliy asoslari, intuitiv texnologiyalarni amalga oshirishning pedagogik texnologiyasi tushunchasi va turlari ko‘rib chiqiladi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы обучения учащихся начальной школы на основе информационно-педагогических технологий, концепция и виды педагогической технологии внедрения иннтивных технологий.
SUMMARY:
This article deals with the theoretical and practical foundations of teaching primary school students on the basis of information and pedagogical technologies, the concept and types of pedagogical technology for the implementation of inntive technologies.

В последние годы в печати, научной литературе, многочисленных конференциях и совещаниях, а также официальных документах «Новые педагогические технологии», «Передовые педагогические технологии», «Образовательные технологии», «Образовательные технологии», «Традиционные педагогические технологии», «Нетрадиционные педагогические технологии». технологии, «Инновационные (такие понятия, как новые направления, новые, вновь вводимые, новообразованные, нетрадиционные) педагогические технологии. Поскольку понятие педагогической

технологии часто употребляется в педагогической литературе, мнения, отношение и определения к нему также различны.

Вот несколько примеров: «Педагогическая технология - это приложение идей систематизации образования или систематизации обучения в классе к педагогике» (Т. Сокомото); «Систематизированная совокупность всех средств, инструментов и методов, используемых для достижения педагогических целей, и порядок их действия» (М. В. Кларин); «Образовательная технология - это систематическое применение научных и иных знаний при решении практических задач» (Т. Голбрайт); «Педагогическая технология - это процесс, гарантирующий формирование качеств личности, заранее данных им как продукт воздействия учителя (воспитателя) на учащихся (студентов) в определенных условиях и с использованием средств обучения (воспитания)» (Н. Саидахмедов); «Педагогическая технология - это проектирование процесса формирования ученического коллектива, способного гарантировать педагогический успех независимо от мастерства учителя» (В. П. Беспалько). По мнению В. Фефелова: «Педагогическая технология - это сложная, взаимосвязанная и взаимодействующая блочная система, формирующая, развивающая и подготавливающая ученика по образцу выпускника на определенном этапе обучения». Подводя итог, ЮНЕСКО определяет: «Педагогическая технология - это системный подход к созданию, использованию и определению процесса обучения и преподавания с учетом технических и человеческих возможностей и их взаимосвязей, направленный на оптимизацию форм обучения». Из приведенных определений видно, что системный подход к образованию, в отличие от других подходов, определяет особенности педагогической технологии. Тематика, определение целей обучения, проектирование образовательного процесса, обеспечение педагогического успеха, взаимозависимость и взаимодействие блоков являются важными чертами и характеристиками педагогической технологии.

В то же время необходимо включить в этот ряд условных обозначений воспроизводимость технологии. Известно, что ожидаемые результаты гарантированы в производстве, особенно в технологии, используемой в промышленности. Также процесс сборки деталей, созданных на основе тематических рабочих чертежей, может выполняться последовательно, многократно, то есть технологический цикл может повторяться, например, представьте себе процесс создания автомобилей, выпускаемых на совместном предприятии «УзДЭУавто» в Асаке. Один и тот же технологический процесс, уникальный для каждого подразделения предприятия, повторяется снова и снова. По образцу могут быть изготовлены автомобили одинакового внешнего вида и качества. Эта особенность технологии напрямую

связана с педагогическим технологическим процессом. В педагогическом процессе сложнее создать повторяющийся, повторяющийся цикл. Это связано с тем, что цель обучения, содержание учебной задачи, разнообразие учебного материала, познавательная активность, степень освоения индивидуальных особенностей обучающегося во многом создают определенные трудности. Однако для достижения успеха в учебном процессе необходимо создать обратную связь педагогической технологии, учитывающую эти трудности. Этот факт исследовали узбекские ученые У.Н. Нишоналиев и Б.Л. Фарберман, дающие следующее определение педагогической технологии:

«Педагогическая технология характеризуется четкой постановкой целей обучения, гарантией конечного результата, обеспечением повторяемости процесса обучения и наличием быстрой обратной связи». - определение целей обучения, корректировка процесса и целей обучения, его гарантированные результаты, наличие последовательной обратной связи. Таким образом, концепция педагогической технологии, в частности, новой, инновационной педагогической технологии Образовательная система состоит из нескольких взаимосвязанных компонентов:

1. Введение;
2. Цели обучения;
3. Содержание обучения;
4. дидактический (образовательный) процесс;
5. Формы организации;
6. Педагогические методы или технологии;
Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kompyuter grafikasi yengil sanoat muhandisligi sohasida ko‘plab muhim funksiyalarni bajaradi. Avvalo, bu texnologiya dizayn va modellashtirish jarayonlarini avtomatlashtirish, vaqt va mehnat sarfini kamaytirish, mahsulot sifatini oshirish hamda bozor talablariga tezkor moslashish imkonini beradi. Quyida muhokama etilgan asosiy jihatlar va aniqlangan natijalar keltiriladi:

Loyihalash va modellashtirish bosqichida: Kompyuter grafikasi yengil sanoat mahsulotlarini (masalan, kiyim-kechak, poyabzal, aksessuarlar) aniq geometriya, rang va shakl asosida yaratish imkonini beradi. 3D modellashtirish yordamida dizaynlar ko‘plab burchaklardan ko‘riladi, inson tana strukturasi bilan uyg‘unligi baholanadi, matoning harakati va bukilmalari oldindan simulyatsiya qilinadi.

Konstruktorlik va texnologik chizmalar tayyorlashda: Kompyuter grafikasi asosida tayyorlangan texnik hujjatlar aniqligi va texnologik aniqlashtirish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Bu esa tikuvchilik, to‘qimachilik va boshqa yengil sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish jarayonining mukammal tashkil etilishiga xizmat qiladi[1].

Materiallar va resurslar sarfini optimallashtirish: Grafik dasturlar mahsulotning har bir qismini elektron tarzda joylashtirish va kesish imkonini berib, material isrofini kamaytiradi. Bu ayniqsa ommaviy ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Vizualizatsiya va marketing imkoniyatlari: Kompyuter grafikasi yordamida tayyorlangan mahsulotlar modelda yoki virtual makonda taqdim etilishi mumkin. Bu esa dizaynni potentsial xaridorlarga ko‘rsatish, takliflar olish va oldindan baholash imkoniyatini beradi [3].

Ta’lim jarayonida qo‘llanilishi: Yengil sanoat muhandislarini tayyorlash jarayonida grafik dasturlarni o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali talabalar nafaqat nazariy bilimga, balki amaliy grafik kompetensiyalarga ega bo‘ladilar.

Innovatsion yo‘nalishlar: Sun’iy intellekt va mashinali o‘qitish asosidagi grafik tizimlar yordamida avtomatik dizayn yaratish, foydalanuvchi talablarini tahlil qilish va moslashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqish bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlar shakllanmoqda. Bu esa yengil sanoatni raqamli transformatsiya jarayonlariga faol qo‘shmoqda.

Xulosa tarzidagi asosiy natijalar: Kompyuter grafikasi yengil sanoat muhandisligining ajralmas qismi bo‘lib, loyihalash, ishlab chiqarish, nazorat va taqdimot bosqichlarida samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda;

Grafik vositalar yordamida ishlab chiqarish jarayonlari soddalashmoqda, mahsulot sifati oshmoqda va texnologik ishonchlilik ta'minlanmoqda;

Sun’iy intellekt bilan birgalikdagi grafik tizimlar yengil sanoat muhandisligining innovatsion rivojlanish yo‘nalishidir;

Ta’lim tizimida grafik vositalarni o‘rgatish - bo‘lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligida muhim o‘rin egallaydi.

Yengil sanoat muhandisligi zamonaviy texnologiyalar, xususan, kompyuter grafikasi vositalari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib bormoqda. O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, kompyuter grafikasi yengil sanoat mahsulotlarini loyihalash, modellashtirish, texnik chizmalar tayyorlash, simulyatsiya qilish, vizual tahlil qilish va marketing bosqichlarida muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Bu jarayon mahsulot sifati, dizayn aniqligi, texnologik moslik va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Kompyuter grafikasi yordamida nafaqat mahsulot shakli va tuzilishini vizual tarzda modellashtirish, balki ularni real sharoitga yaqin holda tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Ayniqsa, 3D grafik vositalari, CAD (Computer-Aided Design) tizimlari, sun’iy intellekt bilan ishlovchi dizayn algoritmlari yengil sanoat muhandisining ijodiy, texnik va funksional salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, vaqt va resurslarni tejash, raqobatbardosh mahsulotlar yaratish imkonini kengaytiradi[2].

Shuningdek, bu grafik vositalarning o‘quv jarayonlarida qo‘llanilishi — bo‘lajak yengil sanoat muhandislarining kasbiy tayyorgarligini chuqurlashtiradi, ularning amaliy ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar bo‘lishiga zamin yaratadi.

Shu asosda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Kompyuter grafikasi yengil sanoat muhandisligida muhim texnik va didaktik vosita sifatida xizmat qilmoqda;

Grafik dasturlar mahsulot sifati va ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirishda beqiyos imkoniyatlarga ega;

Innovatsion yondashuv sifatida grafik vositalarni sun'iy intellekt bilan uyg'unlashtirish yengil sanoatning kelajak rivojlanish strategiyalaridan biridir;

Kompyuter grafikasi bilimlari va ko'nikmalarini muhandislik ta'limi jarayoniga tizimli ravishda joriy etish zarur.

Natijada, kompyuter grafikasi yengil sanoat muhandisligi fanining ajralmas qismiga aylanib, uning amaliy va ilmiy yo'nalishlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qudratovich I. R., Lutfullaevna M. Z. The role of genres in animation. – 2022.

2. Ibragimov R.Q, "Possibilities of Computer Graphics and Functions". International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD), (2022). 1\2.

3. Ibragimov R. Scope and specificity of technological expression tools in the art of multiplication // Science and Education in Karakalpakstan. – 2023.

4. Ибрагимов Р. Анимация санъатининг тарбиявий ва психологияси муаммолари //International scientific and practical conference on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions". – 2023. – Т. 1. – №. 01.

5. Ibragimov R.Q. "The role of genres in animation" //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 1-8.

TASVIRIY SAN'AT FANLAR INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHNING DIDAKTIK VOSITALARI

Shirinov A. L.
Buxoro davlat universiteti

Tayanch so'zlar: tasviriy san'at, fanlararo integratsiya, didaktik vositalar, ijodiy fikrlash, ta'lim samaradorligi, pedagogik texnologiyalar, estetik tarbiya, integratsiyalashgan darslar, vizual ta'lim, metodik yondashuv.
Ключевые слова: изобразительное искусство, межпредметная интеграция, дидактические средства, творческое мышление, эффективность обучения, педагогические технологии, эстетическое воспитание, интегрированные уроки, наглядное воспитание, методический подход.
Key words: fine arts, interdisciplinary integration, didactic tools, creative thinking, educational effectiveness, pedagogical technologies, aesthetic education, integrated lessons, visual education, methodological approach.

РЕЗЮМЕ:
Tasviriy san'at ta'limi nafaqat o'quvchining estetik didini shakllantirish, balki ularning fikriy, mulohazakor va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda fanlararo integratsiya tamoyillari asosida ta'lim berish jahon ta'lim tizimida ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan. Ushbu maqolada tasviriy san'at fani orqali boshqa fanlarni - jumladan adabiyot, tarix, tabiatshunoslik, texnologiya va boshqalarni integratsiya qilish imkoniyatlari tahlil etiladi. Bu jarayonda didaktik vositalarning turlari va ulardan samarali foydalanish usullari ko'rib chiqiladi. Maqolada nazariy va amaliy yondashuvlar uyg'unlashgan holda, fanlararo bog'liqlikni ta'minlash orqali ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Shunga ko'ra, maqola pedagoglar, metodistlar va tasviriy san'at fani o'qituvchilari uchun amaliy va ilmiy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.
РЕЗЮМЕ:
Изобразительное художественное образование играет важную роль не только в формировании эстетического вкуса учащихся, но и в развитии их интеллектуального, рефлексивного и творческого потенциала. Сегодня образование, основанное на принципах междисциплинарной интеграции, стало одним из приоритетов в мировой системе образования. В статье анализируются возможности интеграции других дисциплин, в том числе литературы, истории, естествознания, техники и других, посредством изобразительного искусства. В этом процессе изучаются типы дидактических средств и методы их эффективного использования. В статье даны рекомендации по повышению эффективности обучения за счет сочетания теоретических и практических подходов и обеспечения межпредметных связей. Соответственно, статья может иметь практическое и научное значение для педагогов, методистов, учителей изобразительного искусства.

SUMMARY:
Fine arts education plays an important role not only in the formation of students' aesthetic taste, but also in the development of their intellectual, reflective and creative potential. Today, education based on the principles of interdisciplinary integration has become one of the priority areas in the world education system. This article analyzes the possibilities of integrating other subjects through fine arts, including literature, history, natural science, technology, etc. In this process, the types of didactic tools and methods of their effective use are considered. The article gives recommendations on improving the effectiveness of education by ensuring interdisciplinarity, combining theoretical and practical approaches. Accordingly, the article may be of practical and scientific importance for educators, methodologists and teachers of fine arts.

Kirish. Har qanday fanni o‘rgatishda uning boshqa fanlar bilan bog‘liq jihatlarini anglash va uyg‘un tarzda taqdim etish o‘quvchilarning umumiy dunyoqarashini kengaytirish, murakkab tushunchalarni yengilroq o‘zlashtirish va bilimlarni hayotda qo‘llash qobiliyatini oshirishga yordam beradi [1]. Ayniqsa, tasviriy san’at fani kross-dissiplinar (fanlararo) yondashuvga eng qulay muhit yaratadi. Bu fan o‘z mohiyatiga ko‘ra ijodiy va hissiy jihatdan boy bo‘lib, uni adabiyot, tarix, geografiya, biologiya kabi fanlar bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchining tasavvurini yanada boyitish mumkin [2,3].

Bugungi kunda ta’lim tizimida integratsiyalashgan darslar, ya’ni fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikka asoslangan darslar samarali hisoblanadi. Buning uchun esa o‘qituvchida kerakli metodik tayyorgarlik, innovatsion yondashuv va zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish ko‘nikmalari bo‘lishi zarur [3]. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, tasviriy san’at fanida didaktik vositalar orqali boshqa fanlar bilan integratsiyani ta’minlash ta’limning sifat va mazmunini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Tasviriy san’at ta’limida fanlararo integratsiyaning nazariy asoslari, didaktik vositalarning o‘rni, ulardan samarali foydalanish yo‘llari va amaliyotda qo‘llash bo‘yicha misollar tahlil qilinadi [4]. Maqsad — tasviriy san’at orqali fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash va bu orqali o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini yuksaltirishga ko‘maklashishdir [5].

Ta’lim sifatini yaxshilash, oliy ta’limni xorijiy ta’lim standartlariga yaqinlashtirish, mazmunan yangi va mohiyatan teran o‘quv jarayonini tashkil etishda o‘qituvchilar tomonidan ta’lim shakli, metodi va vositalarini to‘g‘ri tanlash, didaktik tamoyillarga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada ta’lim turlari, bosqichlararo va fanlararo intergatsiyani ta’minlash tamoyillarini aniqlash va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish bugungi dolzarb vazifalardan biridir [6,7].

Hozirda ish beruvchilarning talab va takliflari asosida shakllantirilgan malaka talablarida hamda amalda qo‘llanilayotgan o‘quv reja va fan dasturlari, o‘quv-usuliy jarayonda quyidagi kamchilik va muammolar mavjud:

- amaldagi o‘quv fanlari dasturlarida talabalarni faol bo‘lishga va tanqidiy fikrlashga undovchi va ularning qiziqishlarini o‘ziga jalb qiladigan jihatlar yetarli darajada inobatga olinmagan (topshiriqlar, mashqlar va mustaqil o‘rganishga qaratilgan o‘quv materiallari);

- ixtisoslik fanlaridan ishchi dasturlarda talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar yetarlicha o‘z ifodasini topmagan;

- bakalavriat va magistraturaning sohaga oid ixtisoslik va mutaxassislik fanlarining integratsiyasi ta’minlanmagan;

- bakalavriat va magistraturaning sohaga oid ixtisoslik va mutaxassislik fanlari o‘qituvchilarining o‘quv-usuliy hamkorligi sust yoki deyarli mavjud emas;

- ixtisoslik va mutaxassislik fanlaridan yaratilgan o‘quv adabiyotlari, o‘quv-usuliy majmualar, ma’ruza matnlari, usuliy ko‘rsatma yoki usuliy qo‘llanmalarda fanlar integratsiyasi va aloqadorligi masalalari inobatga olinmagan;

- ba’zi ishchi dasturlarda fanga oid zamonaviy bo‘lmagan ma’lumotlar kiritilgan va eskirib qolgan adabiyotlar tavsiya etilgan [8].

Xolbuki, sohaga oid fanlarni o‘qitishda bakalavriat va magistraturaning sohaga oid fanlarini integratsiya va aloqadorlik asosida o‘rganish ixtisoslik va mutaxassislik fanlaridan bo‘limlar, mavzularni qanday ketma-ketlikda bayon etilishini aniqlash, shuningdek, mutaxassislarni davr talabi asosida tayyorlashga tizimli yondashuvning o‘rnini anglashga zamin yaratadi [9].

Tasviriy san’at mutaxassis tayyorlashning sifatini oshirish uchun o‘quv-moddiy bazaning rivojlanganlik darajasi muhim ahamiyatga egadir. Rangtasvir va kalamtasvir o‘quv jarayoniga zamonaviy o‘qitish vositalarining keng tatbiq etilishi talabalarning o‘quv idrok etish faoliyatini yuqoriroq darajada tashkil qilish, o‘qituvchilar va talabalar mehnatining intensivligini oshirish imkonini beradi. O‘qitish vositalarini mohirlik bilan qo‘llash talabalar mustaqilligini oshirish, mashg‘ulotda ularning yakka tartibda va guruhli ishlarini tashkil etishning imkoniyatini kengaytirish, aqliy faollik va tashabbusni rivojlantirishga imkon beradi. O‘qitishning texnik vositalari – texnik qurilmalar bo‘lib, ular yordamida o‘quv axborotlari talabalarga yetkaziladi va ma’lumotlarning o‘zlashtirilishi nazorat qilinadi.

Fanlararo integratsiya - bu o‘quv jarayonida turli fanlar o‘rtasidagi mantiqiy va mazmunan bog‘liqlikni ta’minlash usuli bo‘lib, ta’limning yaxlitligini ta’minlaydi. Bunda o‘quvchilar ma’lumotlarni turli nuqtayi nazarlardan tahlil qilish, ularni o‘zaro bog‘lash va amaliyotda qo‘llash qobiliyatini shakllantiradilar. Bu yondashuv, ayniqsa, ijodiy fanlar - tasviriy san’at, musiqa, adabiyot - uchun juda muhim sanaladi.

Pedagogik nazariyada fanlar integratsiyasi kognitiv faollikni oshirish, tafakkurni kengaytirish, ijodkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Bu jarayonda J. Dyui, L.S. Vigotskiy, J. Piaje kabi pedagog va psixologlarning fikrlari asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchi yangi bilimni oldingi tajriba va fanlararo bog‘liqlik orqali yaxshi o‘zlashtiradi.

Asosiy tahlil. tasviriy san’atda fanlar integratsiyasining imkoniyatlari. Tasviriy san’atni boshqa fanlar bilan integratsiya qilishning bir necha samarali usullari mavjud:

a. Adabiyot bilan: adabiy qahramonlar portretlarini chizish, she’riy obrazlarni vizual aks ettirish;

b. Tarix bilan: tarixiy shaxslar, voqealar, milliy kiyimlar va me’morlik namunalarini tasvirlash;

c. Geografiya bilan: turli iqlimlar, landshaftlar, tabiiy manzaralar asosida rasm chizish;

d. Texnologiya bilan: turli materiallar va texnikadan foydalanib, kompozitsiyalar yaratish.

Bunday integratsiya o‘quvchilarda: multidissiplinar fikrlash qobiliyatini, dunyoqarash kengligini, badiiy tafakkurni, estetik didni, madaniy merosga hurmatni shakllantiradi. Talabalarni sohaga oid ko‘nikma va malakalarga o‘rgatishda ixtisoslik va mutaxassislik fanlari butunligicha shu kasb xususiyatiga mos tushishi, faoliyat turlari to‘liq yoritilishi uchun fanning davomi sifatida o‘qitilishi va undan olingan bilim bu uchun asos vazifasini bajarishi kerak. Uzluksiz ta’lim tizimida kasbiy ta’lim uzviyligi va uzluksizligini amalga oshirishda ixtisoslik fanlaridagi o‘quv materiallarini ta’lim bosqichlari va kurslar o‘rtasida to‘g‘ri taqsimlash hamda ular orasida o‘zaro integrativ aloqani ta’minlash muhim ahamiyatga ega. O‘qitishda integratsiyaning didaktik tamoyil sifatida joriy qilinishiga qo‘yilgan talablarni ta’riflab, quyidagilarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz.

O‘qitishning mazmuni, usullari va shakllaridagi o‘zaro ta’sirini, o‘qitishning alohida tomonlari, qismlari va bosqichlari orasidagi va ularning ichidagi o‘zaro munosabatni ko‘rsatish lozim. Yangi o‘quv materialini o‘zlashtirishda mavjud bo‘lgan bilim, mahorat va tajribalarga doimiy tayanish kerak. Bakalavriat va magistraturaning sohaga oid ixtisoslik va mutaxassislik fanlarining integratsiyasini ta’minlanadi. Talabalarning o‘quv faoliyatiga qo‘yilgan talablarni, ya’ni o‘qitishning har bir bosqichida ishning shakli va usullarini tanlanadi. Pedagogik jarayonning ilgarilanma-ko‘tariluvchi xususiyatini, ya’ni o‘zlashtiradigan axborot mazmunidan, talabalar bilan muomala qilish shakllari

va usullarining, ularning mustaqil ishi hajmi va darajasining bosqichma-bosqich murakkablashuvi, chuqurlashuvi, umumlashuvi va tizimlashuvini zarur.

Amaliyotda qo‘llash misollari misol 1: “Navoiy satrlaridagi manzaralar” fanlar: Adabiyot + Tasviriy san’at. Dars jarayonida Alisher Navoiy g‘azallarida uchraydigan tabiat obrazlari o‘qiladi. Shundan so‘ng o‘quvchilar shu obrazlar asosida manzarali rasm chizadilar. Bu jarayonda obrazli tafakkur, so‘z va shakl uyg‘unligi yuzaga keladi.

Misol 2: “Temuriylar davri me’morchiligi”. Fanlar: Tarix + Tasviriy san’at. Darsda Temuriylar davrida qurilgan madrasalar, masjidlar, obidalar haqida ma’lumot beriladi. Keyin o‘quvchilar shu obidalarning rasmini chizadilar yoki miniatyura usulida qayta yaratadilar.

Misol 3: “Mening yurtim tabiati”. Fanlar: Geografiya + Tasviriy san’at. O‘quvchilar O‘zbekistonning turli hududlaridagi tabiiy manzaralar asosida peyzajlar chizadilar. Bu bilan ular nafaqat rasm chizish, balki geografik bilimlarni ham mustahkamlaydilar.

Oliy ta’lim bosqichlari o‘rtasida fanlar integratsiyasini joriy qilishda jamoaviy, guruhli, yakka tartibdagi ta’lim shakllaridan foydalanish mumkin. Takomillashtirilgan o‘quv reja va uzviylashgan fan dasturlari asosida o‘qitish jarayonida mavzuning mazmun-mohiyatini ochib beradigan ta’lim shakli, o‘qitish metodlari, o‘quv-texnik vositalari ko‘rsatiladi. Har bir mavzuning murakkablik darajasidan kelib chiqib, baholash mezonlari ishlab chiqiladi va baholash turi, qo‘llaniladigan o‘quv-didaktik vositalar belgilanadi. Turli shakl va metodga asoslangan nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda didaktik vositalarni qo‘llash uchun quyidagi vazifalar hal etilishi lozim:

1. Didaktik vositalarning o‘quv jarayonida tutgan o‘rni va ularning tasnifi va ularning klassifikatsiyasini o‘rganish.

2. Didaktik vositalar va materiallardan foydalanishda o‘qitish tamoyillariga asoslanish.

3. Ixtisoslik va mutaxassislik fanlarini o‘qitishda zamonaviy didaktik vositalar va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash asoslarini tahlil qilish.

4. Didaktik vositalar va materiallardan kompleks foydalanishni o‘rganish, ularning didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish hamda mashg‘ulot uchun majmua tuzishni o‘rganish.

5. Didaktik materiallardan foydalanishda qo‘llaniladigan vositalarning turlari, ishlash prinsipi, ularning tuzilishi hamda ulardan foydalanish va ularning didaktik imkoniyatlarini aniqlashni o‘rganish;

6. Ixtisoslik va mutaxassislik fanlarni o‘qitishda o‘quv-didaktik materiallarni tayyorlash va ulardan samarali foydalanish.

Dars turi va metodiga koʻra didaktik vositalarni toʻgʻri tanlash, maqsadli va oʻrinli qoʻllash koʻnikmalariga ega boʻlish. Ta’lim jarayonining asosiy tashkil etuvchilaridan boʻlmish zamonaviy didaktik vositalarni oʻzlashtirib olish, ularni takomillashtirish – bu vazifalarni amalga oshirishda hal qiluvchi omillardan hisoblanadi.

Darhaqiqat, didaktik vositalar oʻquv jarayonida muhim oʻrin tutadi. Chunki ular oʻquv jarayonining asosiy tashkil etuvchilaridan biri va muhandis-pedagogning eng yaqin yordamchisi hisoblanadi. Ular yordamida ta’lim jarayonida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

– nazariy mashgʻulotlarda talabalarga yangi bilimlarni berish uchun mavzuga doir oʻquv materiallarini tushuntirish, namoyish qilish, tahlil qilish kabi ishlar;
– amaliy mashgʻulotlarda talabalarga tahsil olayotgan sohalariga oid vazifalarni bajarishga, unga doir malaka va koʻnikmalarni shakllantirish uchun bajariladigan ishni namuna sifatida amalga oshirish;
– mashq qilish va mustaqil oʻrganish kabi ishlar;
– nazorat mashgʻulotlarida talabalarning bilimlarini baholash uchun turli testlar va dasturlar;
– auditoriyadan tashqari ishlarni olib borishda va turli tadbirlarni oʻtkazish.

Demak, har qanday dars turlari va turli mashgʻulotlar va ta’limning shakllarida ham didaktik vositalarsiz koʻzlangan maqsadga erisha olmaymiz. Agar bu ishda muhandis-pedagog ma’lum texnologik mashina, jarayon yoki jihozning prinsipial sxemasi, uning virtual yoki aynan modeli, unga doir videomaterialdan foydalansa, talabalarning mavzu mazmunini tushunishlari, tasavvur qilishlari ma’lum darajada oson boʻladi. Bu ikki vaziyatni solishtirsak, natija yaqqol sezilib turadi. Albatta, ikkinchi vaziyatda samara yuqori boʻladi.

Oʻquv jarayonida olib boriladigan mashgʻulotlarda biz faqat ogʻzaki usul bilan, tushuntirish bilan kifoyalanmasdan, barcha turdagi oʻquv axborotlaridan foydalanamiz. Bular sonli va yozma koʻrinishda, ovozli va tasviriy koʻrinishda, hajmiy va harakatli koʻrinishda, elektron va boshqa koʻrinishlarda boʻlishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda biz har bir didaktik vositaning imkoniyatlarini bilib olsak, ularning har biridan qaysi vazifani, qanday amalga oshirishda foydalanish samaraliroq ekanini anglab olamiz.

Shundan kelib chiqqan holda, biz mashgʻulot davomida bir necha turdagi didaktik materiallarni qoʻllaymiz, buning uchun tegishli didaktik vositalardan foydalanamiz. Bular esa birgalikda shu mashgʻulot uchun tuzilgan didaktik vositalari majmuasi hisoblanadi.

Har bir aniq holda o‘qitish vositalarini tanlash o‘qitishning maqsadi va vazifalari, mazmuni, o‘quv jarayonining qonuniyatlari, o‘qituvchilarning idrok etish qobiliyatlari, o‘qitishning qo‘llanilayotgan tashkiliy shakllari va usullari, o‘qitish vositalarining didaktik imkoniyatlariga bog‘liqdir. Bu mavzuni o‘qitish jarayonida quyidagi asosiy tushunchalarga tuzatalib o‘tiladi: o‘qitishning texnik vositalari; axborotning texnik vositalari (audiovizual); programmali o‘qitish va bilimlarni nazorat qilish texnik vositalari; trenajyorli texnik vositalar; ta’limni axborotlashtirish; o‘qitishning yangi vositalari; kompyuterli-axborotli vositalar.

Mashg‘ulot davomida beriladigan o‘quv materiali talabalarga og‘zaki usulda yetkazishning imkoni bo‘lmaganda uni albatta ko‘rgazmali tarzda berish kerak bo‘ladi. Bunday didaktik materiallar ko‘rgazmali materiallar bo‘lib, ular axborotlarni auditoriyadagi barcha talabalar uchun umumiy tarzda berishga mo‘ljallangan. Bunday materiallardan odatda nazariy mashg‘ulotlarda, asosan, talabalarga yangi bilimlarni berishda foydalaniladi. Ko‘rgazmali materiallar o‘quv axborotlarini grafik tasvirlagani uchun talabalarning tushunishlarini osonlashtiradi. Ko‘rgazmali materiallarning bir necha turlari bor. Rasmlar eng oddiy ko‘rgazmali material hisoblanib, uni o‘qituvchi mavzuga oid obyektning umumiy ko‘rinishi, qismlari, shakli, nisbiy o‘lchamlarini ko‘rsatishda foydalanadi.

Plakatlar ko‘rgazmali materiallarning eng universal turi bo‘lib, u o‘zida yuqorida keltirilgan barcha turdagi ko‘rgazmali materiallarni mujassamlashtirishi mumkin. Ko‘rgazmali materiallar yordamida o‘quv materiallarining alohida bir qismi to‘g‘risida ma’lumot bersak, plakatlardan, butun bir mavzuga oid barcha ma’lumotlarni berishda foydalanishimiz mumkin. Shuning uchun ko‘rgazmali materiallarning bu turidan juda keng foydalaniladi.

Integrativ ta’limni tashkil etishda talabalarning bilim olishlari, mustaqil o‘qishlari uchun ularga usuliy yordam ko‘rsatish muhim ahamiyatga egadir. Bunday vaqtlarda qo‘llaniladigan didaktik materiallar o‘quv adabiyotlari bo‘lib, ular an’anaviy (bosma) va elektron ko‘rinishlarda yaratiladi. Ular darsliklar, usuliy qo‘llanma va ko‘rsatmalar, to‘plamlar, ma’lumotnomalar, lug‘atlar, ma’ruzalar matni bo‘lib, mashg‘ulotlar davomida ham, mustaqil ishlashda ham keng foydalaniladi.

An’anaviy o‘quv adabiyotlaridan o‘qituvchining o‘zi ham, talabalar ham foydalanishlari mumkin. Ularsiz ta’lim jarayonini olib borishning imkoni yo‘q. Shuning uchun ta’limning o‘quv-usuliy materiallar bilan yetarli darajada ta’minlanganligi katta ahamiyatga ega. Darsliklardan nazariy bilimlarni olishda, darsdan tashqari mustaqil o‘qish uchun foydalaniladi. Misol va masalalar

to‘plamlari, ma’lumotnomalar, lug‘atlar va kataloglardan ko‘proq amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil topshiriq bajarishda qo‘llaniladi.

Mashg‘ulot davomida o‘quv materiallarini guruhdagi har bir talabaga yoki guruh ichidagi kichik guruhchalarga alohida yetkazishga to‘g‘ri keladi. Bunday vaqtda tarqatma materiallarni qo‘llash ijobiy natija beradi. Didaktik materiallarning bu turidan asosan talabalar bilan individual yoki kichik guruhlarga bo‘lib ishlashda, amaliy va nazorat mashg‘ulotlarida keng foydalanamiz. Tarqatma materialning ham bir nechta turi mavjud: test materiallari, savollar, matnlar. Axborot byulletenlari tarqatma materialning yana bir turi bo‘lib, ta’limda ilg‘or pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi natijasida ular juda takomillashib ketdi.

Amaliy mashg‘ulotda talabalarning har biriga yoki kichik guruhchalariga turli yozma topshiriqlar beriladi. Ular laboratoriya ishlari, seminar treningi, grafik ishlar, misol va masalalar, tajriba ishlari, kasb mahoratiga doir va h.k. turdagi amaliy mashg‘ulotlarga doir ishlab chiqilishi mumkin. Natijada undan foydalanganda ham o‘qituvchining vaqti tejaladi, ham talabaning topshiriqni bajarishi oson kechadi.

Stend murakkab ko‘rgazmali materiallar sirasiga kiruvchi didaktik material hisoblanadi. Shuning uchun oddiy ko‘rgazmali didaktik materialdan farqli ravishda ulardan asosan qo‘zg‘almas holda foydalaniladi. Stend o‘zida bir yo‘nalishdagi bir necha mavzu, hatto to‘liq fanni ham mujassamlashtirishi mumkin. Shuning uchun stendda barcha turdagi didaktik materiallardan foydalansa bo‘ladi. Unda umumlashtirilgan holda axborot beriladi. Stend mavzularni, texnologik mashina va jihozlarni yoki texnologik jarayonlarni o‘rganishga oid bo‘lishi mumkin. Mavzuni o‘rganishga oid stendlar ijtimoiy, iqtisodiy, ma’muriy, usuliy yo‘nalishlarda bo‘lishi mumkin. Ular qo‘zg‘almas holda o‘rnatilsa ham, undagi ma’lumotlar va materiallar doimo yangilanib turiladi. Ushbu vositalardan foydalanishda ularni muayyan maqsad, maxsus soha va usullarga mos holda tanlash muhim o‘rin tutadi. Ixtisoslik yoki mutaxassislik fani o‘qituvchisi o‘quv va ko‘rgazmali vositalarni ishlata olishni va ulardan maqsadga muvofiq oqilona tarzda foydalanishni bilishi ta’lim jarayonining samarali va sifatli tashkil etilishiga ijobiy ta’sir qilar ekan, texnik vositalardan foydalanganda yuzaga keladigan texnik muammolarni hal qila oladigan bo‘lishi lozim. Muhandis-pedagog o‘z kasbiy sohasi uchun qanday materiallar, yangiliklar borligiga, shuningdek, qaysi maxsus sohalarda qo‘llash mumkinligi yuzasidan umumiy tushunchaga ega bo‘lishi lozim.

Demak, oliy ta’limning bakalavriat va magistratura bosqichlarida o‘quv reja va fan dasturlarini fanlar integratsiyasi tamoyillari asosida takomillashtirish,

muhandis-pedagoglarning o‘quv-usuliy hamkorligini kuchaytirish, ta’limning usuliy ta’minoti va didaktik masalalarini hal etishda fanlar integratsiyasini ta’minlash orqali talabalarning bilim sifatini oshirish, yuqori darajadagi ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ta’lim samaradorligini yaxshilash mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, tasviriy san’at fanida fanlararo integratsiyani ta’minlash - bu ta’limni yangicha, ijodiy va multidissiplinar yondashuv asosida tashkil etishdir. Ushbu integratsiya o‘quvchilarda nafaqat san’atga qiziqishni uyg‘otadi, balki ularning axborotni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, mulohaza yuritish va o‘z fikrini vizual shaklda ifoda etish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Bugungi kunda ta’limda integratsiyalashgan yondashuv talab etiladigan metodik yo‘nalish bo‘lib, uning amaliyotda to‘g‘ri qo‘llanilishi ta’lim sifatini oshirishga, o‘quvchilarning bilim olish motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Tasviriy san’at bu jarayonda markaziy o‘rin tutadi, chunki u ta’limni hissiy, estetik va ijodiy jihatdan boyitish imkoniyatiga ega.

Fanlararo integratsiya tasviriy san’at fanida o‘quvchilarning bilimini kengaytirish va mustahkamlash, turli fanlar o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlikni ko‘rsatish imkonini beradi. Didaktik vositalar o‘quv jarayonini vizual va ta’sirchan tarzda tashkil etish, ijodiy faollikni rag‘batlantirish, har bir o‘quvchining individual qobiliyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga egadir. Ijodiy integratsiya jarayonida o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtiribgina qolmay, balki mustaqil fikrlash, to‘g‘ri estetik baholash va yangilik yaratish ko‘nikmalariga ham ega bo‘ladilar. Metodik yondashuvlar va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash orqali tasviriy san’atni boshqa fanlar bilan uyg‘unlashtirishda samaradorlikka erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vigotskiy L.S. Psixologiya razvitiya cheloveka. – M.: Smisl, 2001.
2. Qodirov A. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Salimov Sh. Integratsiyalashgan ta’lim tizimida fanlar uyg‘unligi. – Toshkent: Fan, 2020.
4. Karimova N. Ta’limda integratsiya va innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021.
5. To‘xtayeva G. Tasviriy san’at darslarida fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash usullari. // “Pedagogika va psixologiya” ilmiy jurnali. – 2022, №3.
6. Arts Education and Creativity in the 21st Century. – Paris, 2006.
7. Axmedjanov M.M., To‘xtayeva Z.SH. Didaktik vositalar majmuasi. Toshkent: Paradigma, 2018. – 156 b.
8. To‘xtayeva Z.SH. Kasb-hunar ta’limida fanlararo uzviylikni ta’minlash metodikasi. Monografiya. Rossiya: Buk, 2016. – S.132.
9. Zakirov A.K. Formi integratsii professionalnogo obrazovaniya i proizvodstva. Kasbhunar ta’limi. Nauchno-metodicheskiy jurnal. №1. Tashkent-2007. – C. 28.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDAGI RANGTASVIR FANIDAN MUSTAQIL TA’LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Mamatov D.K.
p.f.f.d (PhD), professor
Bazarova X. F.
magistr
Buxoro davlat pedagogika institutiti

Tayanch so’zlar: rangtasvir, mustaqil ta’lim, axborot texnologiyalari, oliy ta’lim, interaktiv metodika, raqamli platforma, kreativ fikrlash, vizual o’quv materiallari, ta’lim samaradorligi.
Ключевые слова: живопись, самостоятельное обучение, информационные технологии, высшее образование, интерактивная методика, цифровая платформа, креативное мышление, визуальные учебные материалы, эффективность обучения.
Key words: painting, independent learning, information technologies, higher education, interactive methodology, digital platform, creative thinking, visual learning materials, educational effectiveness.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada oliy ta’lim muassasalarida o’qitilayotgan “Rangtasvir” fanidan mustaqil ta’limni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Jumladan, raqamli vositalar va zamonaviy dasturiy ta’minotlar yordamida talabalarning mustaqil ravishda o’quv materiallarini o’zlashtirish, amaliy mashg’ulotlarni bajara olish, grafik va vizual tasvirlarni yaratish hamda tahlil qilish bo’yicha ko’nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ko’rib chiqilgan. Maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida mustaqil ta’limni tashkil etishda qo’llanilayotgan platformalar (masalan: Moodle, Google Classroom, Canva, ArtRage, Adobe Photoshop va boshqalar) va ularning Rangtasvir fani xususiyatlariga moslashuvi tahlil qilinadi. Shuningdek, mustaqil ta’lim jarayonida talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, o’quv motivatsiyasini oshirish va fan bo’yicha individual yondashuvni kuchaytirish bo’yicha taklif va tavsiyalar berilgan.Maqolada ilg’or xorijiy tajribalar bilan bir qatorda, O’zbekiston oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan raqamlashtirish jarayonlari kontekstida Rangtasvir fanining ta’lim texnologiyalari bilan uyg’unlashuvi masalalari ham o’rganiladi. Natijada, axborot texnologiyalarini mustaqil ta’limga integratsiyalash orqali mazkur fanni o’qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni takomillashtirish bo’yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматривается методика совершенствования использования информационных технологий в организации самостоятельного обучения по предмету «Живопись»

(Rangtasvir) в высших учебных заведениях. Анализируется, как цифровые инструменты и современные программные средства могут способствовать самостоятельному усвоению учебного материала студентами, выполнению практических заданий, а также развитию навыков создания и анализа графических и визуальных образов. В статье исследуется внедрение различных цифровых платформ (таких как Moodle, Google Classroom, Canva, ArtRage, Adobe Photoshop и др.) в процесс самостоятельного обучения и оценивается их адаптивность к специфике преподавания живописи. Также приводятся рекомендации по развитию критического и творческого мышления студентов, повышению учебной мотивации и усилению индивидуального подхода посредством ИКТ. Наряду с изучением передового зарубежного опыта, в работе рассматриваются процессы цифровизации, происходящие в системе высшего образования Узбекистана, и их влияние на преподавание живописи. В результате предложены практические методические рекомендации, направленные на повышение эффективности преподавания данного предмета через интеграцию информационных технологий в самостоятельное обучение.

SUMMARY:

This article explores the methodology for improving the use of information technologies in the organization of independent learning in the subject of “Painting” (Rangtasvir) at higher education institutions. It analyzes how digital tools and modern software can be utilized to help students independently master educational materials, complete practical assignments, and develop skills in creating and analyzing graphic and visual content. The article examines the integration of various digital platforms (such as Moodle, Google Classroom, Canva, ArtRage, Adobe Photoshop, and others) into the independent study process and assesses their adaptability to the specifics of the Painting subject. Furthermore, the article offers recommendations on enhancing students’ critical and creative thinking abilities, increasing motivation for learning, and reinforcing personalized approaches through the use of ICT. Alongside a review of international best practices, the paper also discusses how digitalization processes currently underway in Uzbekistan’s higher education system affect the teaching of Painting. As a result, the article proposes practical methodological improvements aimed at increasing the effectiveness of teaching this subject through the integration of information technologies in independent learning.

Kirish. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda. O’zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va talaba markazli o’qitish tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish borasida qator muhim qonun va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun (yangi tahriri, 2020-yil 23-sentabr), 2020–2030 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasi, shuningdek, Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi PQ–5847-sonli “Raqamli ta’lim” konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori mustaqil ta’limni tashkil etishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zaruratini belgilab berdi.

Shu bilan birga, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ–5032-sonli qarori asosida oliy ta’lim muassasalarida fanlarni o’qitish jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy

etish va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish ko’zda tutilgan. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar asosida mustaqil ta’limni samarali tashkil qilish, ta’lim sifatini oshirish va talabalarni zamonaviy kompetensiyalarga ega kadrlar etib tayyorlash bugungi kun talabi hisoblanadi.

Rangtasvir fani - talabalarda badiiy-estetik didni shakllantirish, tasviriy san’at vositalaridan ongli va ijodiy foydalanish malakalarini rivojlantirishda muhim o’rin tutadi. Mazkur fan xususiyatidan kelib chiqib, uni o’qitishda an’anaviy metodlarga qo’shimcha ravishda raqamli texnologiyalar, interaktiv platformalar va grafik dasturlarni joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mustaqil ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarning ijodkorlik salohiyatini ochish, mustaqil ishlash ko’nikmalarini shakllantirish va vizual tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Har qanday jamiyat uchun yuqori bilimga ega bo’lgan malakali kadrlarni yetishtirish eng muhim vazifalardan biri bo’lib kelgan. Ayniqsa texnologiyalar

rivojlangan asrimizda pedagogik kadrlardan axborot texnologiyalardan foydalanib ta’limni tashkil etish dolzarb masala bo’lib qolmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoev ilm-ma’rifat va texnologiyalar rivojiga alohida ahamiyat qaratib: "Taraqqiyotga erishish uchun, raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo’lidan borish imkoniyatini beradi" deb ta’kidlagan edi.

Shuni ta’kidlash kerakki, bugungi kunda o’quvchilarning mustaqil talimini to’g’ri tashkil qilish va boshqarish mexanizmlari to’liq ishlab chiqilmagan. O’quvchi-yoshlarnilarning mustaqil bilim olish faoliyatida axborot texnologiyalari yetarli qo’llanilmayapti desak bu ham to’g’ri bo’ladi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish o’quvchining bilim olishida shunchalar muhimki, bugungi avlodlarimiz IT olamida, internet asrida ulg’aymoqda va yashamoqda. Ularning dunyoqarashiga mos manbaalar: jumladan, zamonaviy ko’rinishdagi interaktiv va kreativ axborot texnologiyalarini tayyorlash hamda uzatish juda dolzarb masaladir.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Rangtasvir fanidan mustaqil ta’limni tashkil qilishda axborot texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy oliy ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu yo’nalishda olib borilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar, metodik qo’llanmalar, normativ-huquqiy hujjatlar va xorijiy tajribalar tahlili ko’plab muhim jihatlarni ochib beradi.

Avvalo, ushbu mavzu bo’yicha qonun va qarorlar tahliliga e’tibor qaratamiz. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni (2020-yil, yangi tahrir)da mustaqil ta’lim shakllarini qo’llab-quvvatlash va raqamli vositalardan

foydalanishga alohida urg'u berilgan. Shuningdek, 2019-yilda qabul qilingan Prezident qarori – PQ–5847-sonli "Raqamli ta'lim konsepsiyasini amalga oshirish to'g'risida"gi hujjat ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etishni belgilaydi. Bundan tashqari, 2021-yil 6-apreldagi PQ–5032-sonli qarorda oliy ta'lim tizimiga innovatsion yondashuvlarni, shu jumladan axborot texnologiyalarini faol joriy qilish vazifasi yuklatilgan. Bu qarorlar talabalarning bilim olish jarayonini mustaqillikka asoslangan shaklda tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur huquqiy asoslar fonida pedagogik va metodik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'limning samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Jumladan, J. Yuldashevning "Pedagogik texnologiyalar asoslari" nomli asarida o'quvchi (yoki talaba) faoliyatiga yo'naltirilgan, individual yondashuv asosidagi ta'lim metodlari haqida so'z yuritiladi. A. Vahobovning "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" kitobida esa raqamli texnologiyalarning o'qitish jarayoniga ta'siri, ayniqsa, tasviriy fanlarda ulardan foydalanishning imkoniyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Rangtasvir faniga doir maxsus adabiyotlarda, xususan, Qodirov M.ning maqolalarida, tasviriy san'at va dizayn yo'nalishidagi ta'limda grafik dasturlar, vizual vositalar, multimediya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi yoritilgan. Ular orqali talabalar mustaqil ishlash, izlanish va o'z fikrini tasvir orqali ifodalash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, axborot texnologiyalariga oid adabiyotlar tahlili ham muhim o'rin tutadi. Moodle, Google Classroom, Edmodo kabi platformalar orqali dars materiallarini taqdim etish, baholash va muhokama qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Bundan tashqari, Photoshop, Canva, ArtRage kabi grafik dasturlar orqali talabalarning rang bilan ishlash, kompozitsiya yaratish, tasviriy tafakkurni rivojlantirishga imkon yaratiladi. Bu dasturlar haqida yozilgan qo'llanmalar ham rangtasvir fanida mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, xorijiy tajribalarda (AQSH, Janubiy Koreya, Germaniya, Yaponiya va boshqa davlatlar) tasviriy fanlarda raqamli texnologiyalar keng qo'llaniladi. Onlayn kurslar, virtual galereyalar, san'at dasturlari orqali talabalar mustaqil izlanish olib boradilar. Bu tajribalar o'zbek oliy ta'lim tizimi uchun ham dolzarb bo'lib, bizda ham bu yo'nalishda tajriba sinovlari boshlangan.

Yana bir muhim jihat shuki, adabiyotlarda mavjud ilmiy-tadqiqotlar orasida aynan rangtasvir fanini axborot texnologiyalari asosida mustaqil o'qitish

metodikasi hali to’liq ishlab chiqilmagan. Bu esa mavzuning yangiligini, ilmiy-amaliy ahamiyatini va izlanishlarga bo’lgan ehtiyojni yana bir bor tasdiqlaydi.

Adabiyotlarning tahlili shuni ko’rsatadiki, axborot texnologiyalarini rangtasvir faniga integratsiyalash orqali mustaqil ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Buning uchun mavjud manbalarni to’g’ri tahlil qilish, ulardagi ilg’or tajriba va yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish muhimdir.

Ushbu tadqiqot rangtasvir fanini zamonaviy axborot texnologiyalari orqali mustaqil o’qitish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan. Tadqiqotda asosiy e’tibor axborot texnologiyalari yordamida mustaqil ta’lim jarayonini tashkil qilish, talabalar ijodkorligini oshirish, ularning o’z fikrini tasviriy vositalar orqali ifoda etish ko’nikmalarini shakllantirishga qaratildi. Maqsadga erishish uchun bir necha metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

Birinchidan, tizimli yondashuv asosida rangtasvir fani mazmuni, mustaqil ta’lim shakli va axborot texnologiyalari o’rtasidagi bog’liqlik o’rganildi. Bu usul yordamida ta’lim jarayonidagi har bir elementning o’zaro ta’siri tahlil qilindi.

Ikkinchidan, taqqoslash va tahlil usuli orqali mahalliy va xorijiy tajribalar o’rganildi. Rangtasvir fanini boshqa mamlakatlarda qanday o’qitilishi, qanday raqamli vositalar qo’llanilishi tahlil qilinib, bizning ta’lim tizimimizga mos yo’nalishlar tanlandi.

Uchinchidan, pedagogik tajriba va amaliy kuzatishlar orqali real dars jarayonlarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning qanday natija berishi o’rganildi. Jumladan, ba’zi oliy ta’lim muassasalarida talabalarning mustaqil ishlari, ularning raqamli dasturlar bilan ishlash qobiliyati va darsga bo’lgan qiziqishi kuzatildi.

To’rtinchidan, anketalar va suhbatlar orqali talabalar va o’qituvchilarning fikrlari o’rganildi. Ular axborot texnologiyalari bilan ishlashdagi muammo va imkoniyatlar haqida o’z fikrlarini bildirishdi.

Bundan tashqari, ilmiy manbalar tahlili asosida mavzuga oid nazariy bilimlar chuqur o’rganildi. Rangtasvir fanini raqamli vositalar yordamida o’qitish bo’yicha mavjud maqolalar, qo’llanmalar, qonun va qarorlar tahlil qilindi. Bu manbalar tadqiqotga ilmiy asos bo’lib xizmat qildi.

Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlar asosida rangtasvir fanini axborot texnologiyalari orqali mustaqil o’rgatish bo’yicha samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu yondashuvlar nafaqat talabalar bilimini chuqurlashtirishga, balki ularning ijodiy fikrlashi, tanqidiy tahlil qilish ko’nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Natijalar. Bugungi kunda ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, tasviriy san’at yo’nalishidagi fanlar, jumladan rangtasvir fanida bu vositalar mustaqil ta’limni samarali tashkil etishda muhim rol o’ynaydi.

Rangtasvir fani – bu o’quvchilarda ranglar bilan ishlash, kompozitsiya tuzish, yorug’lik va soya, rang uyg’unligi kabi bilim va ko’nikmalarni shakllantiradigan amaliy fan. Ushbu fan doirasida talaba yoki o’quvchi o’zining tasviriy imkoniyatlarini rivojlantiradi, ijod qiladi, estetik didni shakllantiradi.

Mustaqil ta’lim esa o’quvchining o’zi mustaqil ravishda bilim olishi, topshiriqlarni bajarishi, qo’shimcha manbalarni o’rganishini anglatadi. Bu jarayonni samarali tashkil qilish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish katta qulayliklar yaratadi.

Misol uchun, o’qituvchi rangtasvir fanidan vazifalarni Google Classroom yoki Telegram guruhlari orqali yuborishi mumkin. Talaba o’ziga qulay vaqtda bu ishlarni bajaradi, natijani suratga olib yuboradi. Shuningdek, Photoshop, Krita, Canva kabi grafik dasturlar yordamida virtual rasm chizish, ranglar bilan ishlash imkoniyati yaratiladi.

Bundan tashqari, YouTube orqali rang ishlash usullari bo’yicha video darslarni ko’rish, onlayn galereyalar orqali mashhur asarlarni tahlil qilish, Google Arts & Culture kabi saytlar orqali san’at namunalarini o’rganish mumkin.

Bu kabi texnologik imkoniyatlar o’quvchini ijodkorlikka, mustaqil fikrlashga va o’z ustida ishlashga undaydi. Ustoz uchun ham o’quvchining ishi aniq ko’rinadi, baholash qulay bo’ladi, o’zaro aloqa mustahkamlanadi. Axborot texnologiyalari orqali rangtasvir fanini mustaqil o’rganish nafaqat samarali, balki zamonaviy ta’lim talablariga to’liq javob beradi. Bu esa ijodiy fikrlaydigan, texnologiyalarni biladigan va zamonaviy yoshlarni tayyorlashda muhim vositaga aylanmoqda.

Tadqiqot davomida o’tkazilgan kuzatuvlar, tajribalar va manbalar tahlili shuni ko’rsatdiki, rangtasvir fanini o’qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish juda samarali natijalar beradi. Eng avvalo, mustaqil ta’limni tashkil qilishning yangi imkoniyatlari yaratildi. Talabalar onlayn platformalar orqali topshiriqlarni mustaqil bajarish, grafik dasturlar yordamida rasm va loyihalar ishlab chiqish, o’z fikrlarini tasviriy vositalar orqali ifoda etish imkoniga ega bo’lishdi.

Darslarda zamonaviy texnologiyalar, masalan, Google Classroom, Moodle, Canva, ArtRage, Photoshop kabi dasturlardan foydalanilganda, talabalar darsga yanada qiziqish bilan qatnashganliklari kuzatildi. Ularning faolligi oshdi, topshiriqlarni o’z vaqtida va ijodiy yondashuv bilan bajara boshlashdi. Shu

bilan birga, o’quvchilarda kreativ va tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, erkin loyihalash kabi ko’nikmalar shakllandi.

O’qituvchilar uchun ham bu yondashuv qulaylik yaratdi. Ular darsni tayyorlashda ko’p vaqt tejadilar, dars materiallarini vizual va interaktiv shaklda tayyorlash imkoniyatiga ega bo’ldilar. Shuningdek, baholash jarayoni ham onlayn tarzda, aniq va shaffof o’tkazila boshlandi.

Tajribaviy darslar natijasida axborot texnologiyalari qo’llanilgan guruhda talabalar bilim darajasi, topshiriqlar sifati va ijodkorlik ko’rsatkichlari yuqori bo’lgani aniqlandi. Bu esa mavzuning dolzarbligini va taklif etilayotgan metodikaning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, rangtasvir fanini axborot texnologiyalari asosida mustaqil o’qitish nafaqat dars sifati va samaradorligini oshiradi, balki talabalarni mustaqil izlanishga, ijodiy fikrlashga va texnologik savodxonlikka o’rgatadi.

Munozara. Ushbu tadqiqot davomida olingan natijalar asosida olib borilgan munozaralar shuni ko’rsatdiki, rangtasvir fanini mustaqil o’rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta’lim talablariga to’liq javob beradi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida raqamli vositalar, interaktiv platformalar va vizual texnologiyalarning o’rni tobora ortib bormoqda. Xususan, rang bilan ishlash, shakl va kompozitsiyani anglash, tasviriy tafakkurni rivojlantirish kabi ko’nikmalarni shakllantirishda bu vositalar juda katta imkoniyat yaratadi.

Tadqiqot jarayonida ba’zi o’qituvchilar va talabalar o’rtasida axborot texnologiyalaridan foydalanishga nisbatan ikkita turlicha qarash kuzatildi. Bir tomon, texnologiyalar yordamida dars o’tish oson, qulay va zamonaviy deb hisoblaydi. Boshqa tomondan esa, texnik jihatdan qiyinchiliklar, barcha talabalar uchun teng sharoit mavjud emasligi, ba’zi dasturlarni o’rganishga vaqt kerakligi haqida fikrlar bildirildi.

Shuningdek, mustaqil ta’limda raqamli vositalar ko’proq erkinlik va ijodiy yondashuv talab qiladi. Bu esa barcha talabalar uchun birdek qulay bo’lmasligi mumkin. Shu sababli, axborot texnologiyalarini o’qitish jarayoniga bosqichma-bosqich, metodik yondashuv asosida joriy qilish lozim. O’qituvchilar bu yo’nalishda maxsus malaka oshirish kurslariga qatnashsa, dars sifati yanada oshadi.

Ayrim tajriba darslarida aniqlanishicha, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanganda, talabalarning darsga bo’lgan qiziqishi, topshiriqlarni bajarish sifati va fikrlash doirasi kengaygan. Bu esa ta’limda texnologiyalarni qo’llash faqat zamonaviylik emas, balki zaruriylik ekanligini ko’rsatadi.

Biroq, barcha holatda ham texnologiyalarni o’quv jarayoniga joriy qilishda ta’lim mazmuni, fan xususiyati va o’qituvchining tayyorgarligi inobatga olinishi

zarur. Rangtasvir fani ijodiylikka asoslangan bo'lgani uchun bu yo'nalishda texnologiyalarni to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llash kerak.

Xulosa qilib aytganda, rangtasvir fanini mustaqil o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi, biroq bu jarayonni bosqichma-bosqich, ilmiy asoslangan metodika bilan joriy etish lozim.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, rangtasvir fanini mustaqil o'rganish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Axborot texnologiyalarining keng imkoniyatlari tufayli talabalarda mustaqil ishlash, vizual fikrlash, kreativ yondashuv, ijodkorlik, estetik did va tanqidiy tahlil qilish kabi muhim kompetensiyalar shakllanadi.

Rangtasvir fanining xususiyati - tasviriy san'at elementlarini amaliy mashqlar orqali o'zlashtirishdan iborat bo'lib, bu jarayonda raqamli vositalar, grafik dasturlar va onlayn platformalar ta'lim mazmunini yanada boyitadi. Shuningdek, axborot texnologiyalarining dars jarayoniga tatbiq etilishi o'quvchilarda mustaqil izlanish, topshiriqlarni ijodiy bajara olish va o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tadqiqotda qo'llanilgan tajriba va kuzatuvlar asosida aniqlanishicha, axborot texnologiyalari orqali tashkil etilgan mustaqil ta'lim jarayoni an'anaviy uslubga nisbatan samaraliroq bo'lib, u o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, darsda faol ishtirok etishini ta'minlaydi hamda ularning zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kasbiy ko'nikmalarni egallashiga xizmat qiladi.

Shu sababli, rangtasvir fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda mustaqil ta'limni tashkil etish metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb hisoblanadi. Bu yo'nalishdagi faoliyatlar nafaqat ta'lim mazmunining yangilanishiga, balki talabalarning shaxsiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ortiqov R. – Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
2. Karimov Sh. – Raqamli pedagogika asoslari. – Toshkent: Iste'dod, 2022.
3. Solihov N. – Axborot texnologiyalari va ularning ta'limdagi o'rni. – Samarqand, 2020.
4. Rashidova N.K. – Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI TA’LIM YO‘NALISHLARIDA RANGSHUNOSLIKKA OID BILIM VA KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

Abdullayev S.F.
Buxoro davlat pedagogika instituti, p.f.d.(DSc)
Mardonova U.
Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti tasviriy san'at ta'lim yo'nalishi 1-kurs magistranti

Tayanch so‘zlar: rangshunoslik, tasviriy san’at, muhandislik grafikasi, pedagogik texnologiya, rang uyg‘unligi, kontrast, estetik tarbiya, ijodkorlik.
Ключевые слова: колористика, изобразительное искусство, инженерная графика, педагогические технологии, цветовая гармония, контраст, эстетическое воспитание, творчество.
Key words: color theory, fine arts, engineering graphics, pedagogical technology, color harmony, contrast, aesthetic education, creativity.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishlarida rangshunoslikka oid bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishning dolzarb masalalari o‘rganilgan. Bugungi kunda ijodiy tafakkurni rivojlantirish, estetik didni shakllantirish va amaliy loyihalash ishlarida rang bilan ishlash malakasining yuqori bo‘lishi zamonaviy kasb-hunar egalaridan talab etiladi. Shuning uchun ta’lim jarayonida rangshunoslikni o‘rgatish nafaqat nazariy bilimlar berish, balki amaliy mashg‘ulotlar, kuzatishlar va tajribalar orqali mustahkam ko‘nikmalar hosil qilishni ham nazarda tutadi. Maqolada ranglarning fizik va psixologik xossalari, ularning kompozitsion asarlardagi roli, ranglar uyg‘unligi va kontrasti, hamda yorug‘lik-soya munosabatlari kabi asosiy tushunchalar tahlil qilingan. Shuningdek, rangshunoslik darslarini o‘quvchilarning yosh va qiziqishlariga moslab tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali o‘zlashtirish darajasini oshirish usullari keltirib o‘tilgan. Tajriba natijalari asosida o‘quvchilarning ranglar haqida bilimlari sezilarli darajada kengaygani, ularning tasviriy ifoda va grafik tafakkuri yuksalgani kuzatilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматриваются вопросы развития знаний и навыков в области колористики в направлениях обучения изобразительному искусству и инженерной графике. В современных условиях умение работать с цветом играет важную роль как в формировании творческого мышления и эстетического вкуса, так и в выполнении практических проектных заданий. Поэтому преподавание колористики должно включать как теоретические основы, так и практические занятия, наблюдения и эксперименты. В статье проанализированы физические и психологические свойства цветов, их роль в композиции, цветовая гармония и контраст, а также соотношение света и тени. Особое внимание уделено современным педа-

гогическим подходам, таким как кластерные схемы, диаграммы Венна и другие интерактивные методы, направленные на повышение эффективности усвоения знаний.

SUMMARY:

This article explores the development of knowledge and skills related to color theory in the fields of fine arts and engineering graphics education. In today's context, the ability to work effectively with colors is essential not only for fostering creative thinking and aesthetic taste but also for practical design tasks in various professional fields. Therefore, the process of teaching color theory should combine both theoretical foundations and practical activities, including observation, experimentation, and artistic expression.The article analyzes the physical and psychological properties of colors, their role in compositional works, color harmony and contrast, and light-shadow relationships. It also discusses modern pedagogical strategies, such as using cluster maps, Venn diagrams, and other interactive methods to enhance student engagement and learning outcomes. Experimental findings reveal a significant improvement in students' understanding of color, their artistic expression, and visual-spatial thinking.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimiga bo'lgan e'tiborning ortib borayotgani, ayniqsa, kasb-hunar ta'limi va ijodiy yo'nalishlarda zamonaviy yondashuvlarga asoslangan o'quv dasturlarini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston — yangi ta'lim" tamoyili asosida ta'lim jarayonini tubdan isloh qilish, ijodiy tafakkur va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan fanlar salohiyatini oshirish dolzarb masalaga aylangan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "2021–2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida kasb-hunar ta'limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ–4884-son qarori, hamda 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida ijodiy va texnik yo'nalishlarda kadrlar tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarga e'tiborni kuchaytirish belgilab o'tilgan. Bu esa rangshunoslik kabi fanlarni zamonaviy metodlar asosida o'qitish zaruratini taqozo etadi.

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishlari ta'limning ikki muhim — estetik va texnik asoslarini birlashtirgan murakkab tizimdir. Ayniqsa, rangshunoslik bu ikki sohaning uzviy bog'lovchi bo'g'ini sifatida qaraladi. Ranglar nazariyasini chuqur o'rganish o'quvchilarda nafaqat san'at asarlarini yaratish, balki muhandislik loyihalarini estetik jihatdan mukammal rasmiylashtirish ko'nikmasini ham shakllantiradi. Bu esa ranglar uyg'unligi, kontrast, yorug'lik va soya munosabatlari, vizual kompozitsiyani anglash kabi kompetensiyalarni talab etadi.

Afsuski, hozirgi kunda ta'lim jarayonida rangshunoslik fani ko'pincha faqat nazariy yondashuvda o'qitiladi, amaliy mashg'ulotlar va tajriba asosida o'zlashtirish yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Shu bois, ushbu maqolada rangshunoslik fanini tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishlarida

samarali o‘qitish, interaktiv va amaliy usullar orqali bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, shuningdek, o‘quvchilarda estetik did va ijodiy tafakkurni rivojlantirish masalalari atroflicha yoritiladi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Rangshunoslik — bu ranglarning fizik, fiziologik, psixologik va estetik xususiyatlarini o‘rganuvchi kompleks fan bo‘lib, u tasviriy san’at va texnik grafikani o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Mazkur sohada amalga oshirilgan tadqiqotlar va chop etilgan ilmiy adabiyotlar tahlili, rangshunoslik fanining rivojlanish bosqichlari, asosiy konsepsiyalari hamda uni o‘qitish metodikasining takomillashib borayotganini ko‘rsatadi.

Mashhur olimlardan biri Itten Yoxannesning “San’atdagi rang” (The Art of Color) asari ranglar tizimi, kontrast turlari va rang uyg‘unligi qonuniyatlarini izchil ilmiy asosda bayon etadi. Uning “12 rangli aylana” nazariyasi bugungi kungacha rangshunoslik darslarida qo‘llanilib kelinadi. Ittenning psixologik yondashuvlari o‘quvchilarning shaxsiy sezgirliklarini hisobga olgan holda rang tanlash madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, A. Ostvaldning ranglarning fizik-kimyoviy xossalariga asoslangan klassifikatsiyasi, M. Lushin va S. N. Kondratevalarning san’atshunoslikka oid ishlari, o‘zbek mualliflaridan M. G‘aniyeva, Z. Karimova, X. Qudratov, R. Qurbonovlarning rangshunoslik va tasviriy san’at metodikasiga oid ishlarida ham bu fanning o‘ziga xosliklari va amaliy ahamiyati chuqur yoritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida esa rangshunoslik ko‘proq tasviriy san’at, amaliy bezak san’ati va muhandislik grafikasi fanlari doirasida o‘rgatilmoqda. Xususan, O‘quv-metodik qo‘llanmalarda (masalan, “Tasviriy san’at va chizmachilik” bo‘yicha texnikum o‘quvchilari uchun darsliklar) ranglar tasnifi, monoxrom va polixrom uslublar, yorug‘lik va soya bilan ishlash asoslari yoritilgan bo‘lsa-da, ularning ko‘pchiligida interaktiv metodlar va didaktik o‘yinlardan foydalanish kamroq aks ettirilgan.

Ravshan Qurbonovning "Rangshunoslik asoslari" nomli qo‘llanmasi O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari uchun muhim manba bo‘lib, unda ranglarning tabiati, issiq-sovuq, asosiy va ikkilamchi ranglar, ranglar uyg‘unligi, hamda amaliy mashqlar haqida aniq tavsiyalar berilgan. Shu bilan birga, uning tadqiqotida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan yondashuvlar ilgari suriladi.

Yuqoridagi tahlil shuni ko‘rsatadiki, mavjud adabiyotlar nazariy jihatdan yetarli asosga ega bo‘lsa-da, zamonaviy rangshunoslikni STEAM yondashuvi, raqamli texnologiyalar, va ko‘rgazmali vizualizatsiya imkoniyatlari bilan

uyg‘unlashtirish zarurati mavjud. Ayniqsa, ta’lim jarayoniga interfaol o‘yinlar, klaster va insert, Venn diagrammasi, T-jadval kabi innovatsion metodlarni tatbiq etish orqali rangshunoslik darslarining sifatini oshirish mumkinligi adabiyotlar tahlilida aniqlangan bo‘lib, bu maqolada taklif etilayotgan yangi metodik yondashuvlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek xalqining tarixi bilan uyg‘unlashib ketgan tasviriy san’atning ko‘p turlari va janrlari mavjud. Ammo o‘tgan yillar davomida ta’lim-tarbiya tizimida o‘quv mashg‘ulotlari sifatida to‘liq o‘rganilmasdan kelinib, ushbu sohaning tuzilishini, milliylik, mahalliy, etnografik, tarixiy xususiyatlarini yetarli yoritilmasdan qolishiga sabab bo‘lmoqda.Xalqda usta Shirin Murodov, usta Salimjon Xamidov, Toshpo‘lat Arslonqulov, Maxmud Usmonov, Umarjon Toxirov, Shamsiddin G‘ofurov, Tursunboy Ismoilov, Abdurasul Ibodov, usta Baxshillo Jumayev, akademik Alisher Nurillayev, Ismatulla Ne’matov, Abdurashid Jalilov, Ibrohim Shermuhammedov, Shoir Ibodov, Akrom Umarov, Arslonqul Nazarov, Saidahmad Maxmudov, Maxmudjon Qosimov, Baxriddin Axmedov, Saidmaxmuustalaridand Norqulov, Tohir To‘xtaxo‘jayev, Yoqubjon Raufov, Jalil Hakimov, Muxriddin Raximov, Olimjon Qosimov, Sulaymon Xo‘jayev, Maqsad Qosimov, Ortiq Fayzullayev, Ota Polvonov, Abdulla Boltayev, Qodirjon Haydar va G‘ulomjon Yo‘ldoshev, Ergash Aliyev va boshqa bir qator ustalarining ijodini,hayoti va faoliyatini, ular ishlagan nodir asarlarni o‘rganish, qolaversa yosh avlodga o‘rgatish bugungi kundagi dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda. Milliy hunarmandchiligimizning tarixiy rivoji, bugungi kundagi ahvoli, tasviriy va amalik bezak san’atining turli sohalarini tadqiq qilish bilan o‘zbek olimlardan S.F. Abdullayev, S.S.Bulatov, R.X. Hasanov, I.A. Avezova, M.Mirzaxmedov, O.Xudoyorov, R.Rasulov, B.Boymetov, N.Tolipov, E.Shavxiyev, Rossiya Federatsiyasi olimlaridan N.N. Rostovsev, V.S. Kuzin, A.S. Xvorostov, O.K.Opuxtin, P.A. Goncharova, M.B. Maksimova, V.I.Shoroxov, T.N. Shpikalova, N.S. Bogolubov, A.Morozova, I.P. Volkov va boshqalar shug‘ullanib kelmoqdalar.

Ushbu maqolada tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishlarida tahsil olayotgan o‘quvchilarda rangshunoslikka oid bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonini o‘rganish maqsad qilingan. Tadqiqot davomida rangshunoslik fanining o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi va estetik dunyoqarashini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilindi.

Tadqiqot asosan nazariy va amaliy yondashuvlar asosida olib borildi. Nazariy qismda rangshunoslik faniga oid ilmiy adabiyotlar, darsliklar, metodik qo‘llanmalar va soha mutaxassislarining fikrlari o‘rganildi. Shuningdek, so‘nggi yillarda ta’lim sohasida qabul qilingan qonun va qarorlar tahlil qilindi.

Amaliy qismda esa bir nechta texnikumlarda dars jarayonlari kuzatildi, rangshunoslik fanidan dars bergan o‘qituvchilar va o‘quvchilar bilan suhbatlar o‘tkazildi. Ba’zi darslarda interaktiv usullar qo‘llanildi va natijalari solishtirildi. Shuningdek, o‘quvchilarning darsdagi ishtiroki, qiziqishi va bilim ko‘rsatkichlari baholab chiqildi.

Olingan ma’lumotlar tahlil qilinib, qanday metodlar samaraliroq ekani aniqlandi. Tadqiqot natijalari asosida rangshunoslikni o‘qitishda foydalanish mumkin bo‘lgan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Bu yondashuv rangshunoslik darslarini yanada mazmunli, qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi.

Rangshunoslikda bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishning eng asosiy usullaridan biri - ranglarning och-to‘qligini, to‘yinganligini va rang tonlarini tushunishni rivojlantirishdir. Bu bilim va ko‘nikmalar tasviriy san’at, dizayn va boshqa sohalarda muhim rol o‘ynaydi.

Natijalar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishlarida tahsil olayotgan o‘quvchilar uchun rangshunoslik fanini an’anaviy, faqat nazariy usullarda o‘qitish ularning bilim va ko‘nikmalarini yetarli darajada shakllantirmaydi. Aksincha, interaktiv metodlar, amaliy mashg‘ulotlar, vizual materiallar, didaktik o‘yinlar va zamonaviy texnologiyalar yordamida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda ranglarga nisbatan qiziqish, estetik idrok, rang tanlash madaniyati va amaliy ishlash ko‘nikmasini ancha yuqori darajada shakllantiradi.

Tajriba darslari jarayonida:

- Interaktiv metodlardan foydalangan o‘quvchilar dars jarayonida faolroq ishtirok etdi;
- Ranglar haqida nazariy bilimlarni amaliy topshiriqlar bilan mustahkamlash o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirdi;
- Guruhli ishlar va loyiha asosidagi yondashuvlar ranglarni uyg‘unlashtirish bo‘yicha mustaqil fikrlashga undadi;
- Raqamli texnologiyalar, masalan grafik dasturlar orqali ishlash, ranglarni tahlil qilish va kombinatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Shuningdek, tajriba guruhida o‘tkazilgan yakuniy nazorat ishlari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv usullar asosida o‘qitilgan o‘quvchilar ranglar haqidagi bilimlarni nafaqat eslab qolgan, balki ularni amaliyotda to‘g‘ri va ijodiy qo‘llay olgan. Bu esa rangshunoslik fanini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish zarurligini isbotlaydi.

Munozara. Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar shuni ko‘rsatadiki, tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishida tahsil olayotgan o‘quvchilar

uchun rangshunoslik fanining amaliy va estetik ahamiyati juda katta. Biroq, bugungi kunda ko‘plab o‘quv dargohlarida ushbu fan asosan nazariy tarzda, an’anaviy metodlar asosida o‘qitilayotgani sababli o‘quvchilarda mustahkam bilim va ko‘nikmalar shakllanmayapti.

Ba’zi o‘quvchilar uchun ranglarning psixologik ta’siri, rang uyg‘unligi, yoki kompozitsiyada ranglarning o‘rni mavzulari mavhum ko‘rinadi. Bu holat, o‘z navbatida, ularning grafik loyihalar yaratish jarayonida ranglarni to‘g‘ri tanlay olmasligiga olib keladi. Bunga sabab sifatida:

- darslik va qo‘llanmalarda amaliy topshiriqlarning kamligi,
- zamonaviy o‘qitish texnologiyalarining yetarli qo‘llanilmasligi,
- rangshunoslik bo‘yicha vizual, interaktiv materiallarning yetishmasligi,
- o‘qituvchilarning rangshunoslikni mustaqil fan sifatida emas, balki boshqa fanlarga qo‘shimcha tarzda o‘qitayotgani kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Tadqiqot davomida qo‘llanilgan interaktiv metodlar, xususan, klaster, T-jadval, Insert, vizual taqdimotlar, grafik dasturlar bilan ishlash, o‘quvchilarning ranglarga bo‘lgan estetik munosabatini shakllantirishda samarali vosita bo‘la oldi. Bu usullar orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni egalladi, balki mustaqil fikrlash, tajriba qilish va o‘z uslubini topish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, rangshunoslik fanini STEAM yondashuvi asosida o‘qitish – ya’ni, san’atni texnologiya, muhandislik va dizayn bilan uyg‘unlashtirish – hozirgi davr talablariga javob beradi. Bu yondashuv yordamida o‘quvchilar rangni faqat estetik nuqtai nazardan emas, balki texnik va amaliy jihatdan ham tushunib, o‘z loyihalarida puxta qo‘llay boshlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, rangshunoslik fanining metodikasi va mazmunini takomillashtirish, uni interfaol, texnologik va ijodiy yondashuvlar bilan boyitish ta’lim sifati uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Rangshunoslik – bu ranglarning xossalari, ularning qanday hosil bo‘lishi, bir-biriga ta’siri va ularni amaliyotda to‘g‘ri qo‘llashni o‘rgatadigan fandir. Ranglar atrofimizdagi muhitni bezaydi, his-tuyg‘ularimizga ta’sir qiladi va san’at hamda texnikada muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishida o‘qiyotgan o‘quvchilar uchun bu fanni chuqur o‘rganish juda muhimdir.

Rangshunoslikka oid bilimlarni rivojlantirishda eng avvalo o‘quvchilarga ranglarning asosiy va qo‘shimcha turlari, ularning uyg‘unligi, issiq va sovuq ranglar, hamda ranglarning odam ruhiyatiga ta’siri haqida tushuncha beriladi. Bu bilimlar orqali o‘quvchilar har qanday tasvir yoki loyihani yaratishda ranglarni ongli ravishda tanlay oladi.

Ko‘nikmalar esa darsdagi amaliy mashg‘ulotlar orqali shakllanadi. Masalan, bo‘yash, turli ranglardan kollajlar yasash, rang uyg‘unligi asosida kompozitsiya tuzish kabi ishlar o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Ranglarni aralashtirib yangi ranglar olish, grafik dasturlarda ishlash, hamda loyihalarda ranglardan to‘g‘ri foydalanish ularning amaliy ko‘nikmalarini oshiradi.

Rangshunoslikni samarali o‘rgatish uchun darslarda ko‘rgazmali qurollar, interaktiv usullar, o‘yinlar va texnologiyalardan foydalanish kerak. Bunday darslar o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘ladi va ular ranglarni chuqurroq tushunishga harakat qilishadi.

Xulosa. Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishlarida rangshunoslik fanini o‘qitish o‘quvchilarda estetik tafakkur, ijodiy yondashuv va texnik bilimlarni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bu fanning mazmuni ko‘p hollarda nazariy yondashuvlar bilan chegaralangan bo‘lib, o‘quvchilarning ranglar haqidagi bilimlari yuzaki va noaniq shakllanmoqda.

O‘tkazilgan amaliy kuzatuvlar va tajriba darslari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv metodlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, didaktik o‘yinlar va vizual ko‘rgazmali materiallardan foydalanish rangshunoslik darslarini samaradorligini oshiradi. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirib, ularni amaliy faoliyatga jalb etadi, mustaqil fikrlash va rang uyg‘unligini to‘g‘ri baholash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Tadqiqot natijalariga tayanib aytish mumkinki, rangshunoslikni o‘qitishda faqat an’anaviy usullar emas, balki interfaol, integratsiyalashgan va ijodiy yondashuvlar asosida tashkil etish ta’lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo‘rayev M., Sobirova M. – Tasviriy san’at va rangshunoslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Sobirov Sh. – Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. Abdukarimov M. – Muhandislik grafikasi asoslari. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.
4. Raxmonqulova G. – Rangshunoslik asoslari: amaliy qo‘llanma. – Samarqand, 2022.

СОЦИАЛЛЫҚ ПЕДАГОГИКА

RISKOLOGIK MADANIYATNING KOMPONENTLARI, KO‘RSATKICHLARI VA MEZONLARI

Xalmuratova Sh.B.
Ajiniyoz nomidagi NDPI
“Pedagogika” kafedrasi 3-bosqich tayanch doktoranti

Tayanch so‘zlar: xavfsiz ta’lim muhiti, riskologik madaniyat, madaniyat, pedagogik madaniyat, bo‘lajak o‘qituvchi, komponent, mezon.
Ключевые слова: безопасная среда обучения, рискологическая культура, культура, педагогическая культура, будущий учитель, компонент, критерий.
Key words: safe learning environment, risk culture, culture, pedagogical culture, future teacher, component, criterion.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada zamonaviy ta’lim tizimida xavfsiz va barqaror muhitni shakllantirishda bo‘lajak o‘qituvchilarning riskologik madaniyatini rivojlantirish zarurati asoslab berilgan. Shuningdek, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida riskologik madaniyatni shakllantiruvchi kognitiv, motivatsion-irodaviy, aksiologik-konstruktiv, operativ-prognostik hamda refleksiv-baholovchi komponentlar aniqlashtirilgan va ularning funksional mohiyati yoritib berilgan. Pedagogik faoliyatdagi xavf-xatarlarni boshqarish zarurati, kasbiy va shaxsiy sifatlar, innovatsion ta’lim muhiti talablari asosida riskologik madaniyatni baholovchi mezonlar ishlab chiqilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье обоснована необходимость формирования рискологической культуры будущих учителей с целью создания безопасной и стабильной среды в современной системе образования. Также уточнены когнитивный, мотивационно-волевой, аксиологически-конструктивный, операционально-прогностический и рефлексивно-оценочный компоненты, формирующие рискологическую культуру у будущих учителей начальных классов, и выделена их функциональная сущность. Разработаны критерии оценки риск-культуры, исходя из необходимости управления рисками в педагогической деятельности, профессиональных и личностных качеств, требований инновационной образовательной среды.
SUMMARY:
The article substantiates the need to form a risk culture of future teachers in order to create a safe and stable environment in the modern education system. It also specifies the cognitive, motivational-volitional, axiological-constructive, operational-prognostic and reflexive-evaluative components that form a risk culture in future primary school teachers, and highlights their functional essence. Criteria for assessing risk culture have been developed based on the need for risk management in pedagogical activities, professional and personal qualities, and the requirements of an innovative educational environment.

Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri xavfsiz va barqaror ta’lim muhitini shakllantirish hisoblanadi. Bu jarayon bo‘lajak o‘qituvchilarning risklarni anglash, ularni boshqarish va oldini olishga oid kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan turli risklarni baholash va ularga munosib yondasha olish madaniyati, ya’ni riskologik madaniyat zamonaviy o‘qituvchining zaruriy kasbiy fazilati sifatida e’tirof etiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ushbu madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan asosiy komponentlarni aniqlash, ko‘satkichlari orqali baholash va tegishli mezonlar asosida tahlil qilish zarur.

Ta’lim jarayonidagi pedagogik risklarni bartaraf qilishda o‘qituvchining riskologik madaniyati ta’lim tizimini yanada mustahkamlash, xavfsiz va samarali ta’lim muhitini yaratish uchun zarur vosita hisoblanadi. Riskologik madaniyat nafaqat ta’lim tizimida, balki inson hayotida yuz berishi mumkin bo‘lgan risklarni idrok etish, tahlil qilish, ularni boshqarish va minimallashtirishning samarali usullarini tushunishga yordam beradi.

Madaniyat – insonlar o‘rtasida o‘rnatilgan qadriyatlar, me’yorlar, e’tiqodlar, urf-odatlar, bilim va ko‘nikmalar, o‘zaro ta’sir qilish va muloqot qilish usullari [7]. Antik davrda yashab o‘tgan faylasuflar madaniyatning tuzilmasini ikkita moddiy (hayotiy ehtiyojlarni qondirish uchun inson tomonidan yaratilgan moddiy qadriyatlar to‘plami) va ma’naviy (insonning ijodiy faoliyati natijasida yuzaga kelgan ma’naviy qadriyatlar to‘plami) komponentlardan iborat deb tushintiradi [8; 207-367].

Pedagogik madaniyat pedagogik faoliyatga ijodiy yondashuvlar va pedagogik xulq-atvorning bir butun tizimi bo‘lib, u uzluksiz kasbiy va shaxsiy rivojlanish hamda o‘z-o‘zini tarbiyalashga tayyorgarlikni nazarda tutadi. Tadqiqotchi olim E.V.Bondarevskaya [2; 37-43] mazkur yaxlit tizimning tarkibiy qismlari o‘qituvchining bolalarga nisbatan insonparvarlik pozitsiyasi, ta’limni loyihalashtirish qobiliyati, pedagogik va psixologik kompetensiyalari, yuqori darajadagi pedagogik tafakkur, ta’limiy va pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish, kasbiy xulq-atvor madaniyati, o‘z-o‘zini rivojlantirish usullari, kasbiy faoliyatini va muloqot madaniyatini tartibga solish qobiliyati, o‘zining o‘qituvchilik faoliyatini tizim sifatida asoslash qobiliyatidan iborat deb hisoblaydi.

U.B.Mamutov pedagogik madaniyatni, qadriyatlarning, pedagogik faoliyat usullarining va o‘qituvchining xulq-atvorining dinamik tizimi deb ta’kidlab, kasbiy bilimlar va pedagogik fikrlash madaniyatini, pedagogik pozitsiya va shaxs sifatlarini, kasbiy malakalar va pedagogik faoliyatning ijodiyligini, o‘z-

o‘zini boshqara bilish va pedagogning kasbiy xulq-atvorini ushbu tizimning tarkibiy qismlari sifatida ajratib ko‘rsatadi [6; 25].

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatining tarkibiy qismlarini aniqlash butun insoniyat madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Zero, insonning hayotdagi faol mavjudligi madaniyat bilan belgilanadi. Motivatsion-qiymatli, kognitiv va konativ ko‘nikmalar kasbiy madaniyatning tarkibini tashkil etuvchi asosiy komponentlar hisoblanib, ular shaxs, madaniyat va faoliyatning birligi tamoyiliga asoslanib ishlab chiqilgan [4; 14].

Tadqiqotimiz davomidagi izlanishlar natijasida aniq bo‘ldiki, bo‘lajak o‘qituvchilarning riskologik madaniyati va uning tarkibiy qismlari ilm-fanda yetarlicha tadqiq qilinmagan. Ammo, talabalarning riskologik kompetentligini rivojlantirish, bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy va innovatsion risklarni qabul qilishga tayyorlash, riskologik kompetentlikning komponentlari va ko‘rsatkichlari olimlar tomonidan ma’lum darajada o‘rganilgan. Shu sababli, tadqiqotimizga doir madaniyat, risk va riskologik kompetentlik tushunchalarining komponentlaridan kelib chiqqan holda riskologik madaniyatning tarkibiy qismlarini aniqlashtirishga to‘g‘ri keladi.

O.Kushnaryova texnika sohasida ta’lim olayotgan talabalarning riskologik kompetentligini, bo‘lajak mutaxassislarning shaxsiy fazilatlarini, umum madaniy va kasbiy kompetensiyalarini o‘z ichiga olgan tushuncha sifatida ta’riflaydi. Olima bo‘lajak mutaxassislarning xavfsizlikni ta’minlash va kasbiy risklarning oldini olish sohasidagi bilimlarida namoyon bo‘ladigan refleksiya, motivatsiya, xavfsizlik madaniyatining qadriyatlari, risklarga yo‘naltirilgan fikrlash va kasbiy faoliyatidagi riskli holatlarni bartaraf etish ko‘nikmalariga asoslangan xavfsizlikni ta’minlash qobiliyatini tavsiflovchi kognitiv, motivatsion-qadriyatli, operativ-faoliyatli va refleksiv-baholovchi komponentlarni aniqlashtirgan [3; 25-34].

N.N.Asxadullina o‘z ilmiy tadqiqoti davomida riskologik kompetentlikning tarkibiy mazmuni va yaxlitligini aniqlashga imkon beruvchi quyidagi tuzilmani aniqlashtirgan: aksiologik komponent, motivatsion-shaxsiy komponent, kognitiv komponent, faoliyatli komponent, kreativ komponent, refleksiv-**baholovchi** [1; 65-67]. Olima ushbu komponentlar bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion pedagogik faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni minimallashtirish qobiliyatini shakllantirishning ajralmas qismi deb hisoblaydi.

Bo‘lajak muhandislarning kasbiy xavsizligini shakllantirish va turli risklarni ongli tarzda qabul qilishda riskologik modellashtirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va asoslash yuzasidan tadqiqot olib borgan

A.A.Golovkina, talabalarning riskologik kompetentligini shakllantirishning tuzilmasini ishlab chiqqan. Mazkur tuzilma quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: 1) xavfni risk sifatida tushunish, ya'ni xavf darajasining oshish ehtimolini miqdor va sifat jihatdan baholash; 2) kutilayotgan xavfning zararli omillarini sub'ektiv va ob'ektiv nuqtai nazardan baholash; 3) zararli omillarning ta'siri va oqibatlariga qarshi kurashishning munosib usullarini va yo'llarini aniqlash; 4) ijtimoiy va kasbiy faoliyatdagi kutilmagan o'zgarishlar natijasida kelib chiqadigan zararlarni minimallashtirish choralarini ko'rishga tayyorgarlik [5; 15].

Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining riskologik madaniyati tuzilmasini ishlab chiqish va asoslash zaruriyatini taqozo etadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida riskologik madaniyatni rivojlantirishning quyidagi komponentlarini ajratib ko'rsatish mumkin: kognitiv, motivatsion-irodaviy, aksiologik-konstruktiv, kreativ-faoliyatli va refleksiv-baholovchi. Quyida riskologik madaniyatning asosiy komponentlariga to'xtalib o'tamiz.

Kognitiv komponent riskologik madaniyat tuzilmasida markaziy o'rin tutib, shaxsning xavf va risklar to'g'risidagi bilimlari, tushunchalari hamda fikrlash qobiliyatida namoyon bo'ladi. Ushbu komponent o'qituvchining kasbiy faoliyatida duch kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni anglash, baholash va ularga ongli tarzda yondashish orqali o'z ifodasini topadi. Kognitiv komponent pedagogik jarayondagi xavf turlarini aniqlay olish, ularning oqibatlarini oldindan ko'ra bilish, muayyan vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda riskologik madaniyatini rivojlantirishning **motivatsion-irodaviy komponenti** pedagogik faoliyat jarayonida yuzaga keladigan **noaniq, kutilmagan, stressli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, tashabbus ko'rsatish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyorlik**ni, shuningdek, irodaviy o'z-o'zini boshqarish kabi harakatlarni o'z ichiga oladi.

Aksiologik-konstruktiv komponent bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatida xavf-xatarli vaziyatlarga nisbatan ongli, mas'uliyatli va ijodiy yondashuvini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu komponent ikki asosiy yo'nalishda – qadriyatlar tizimini (aksiologiya) shakllantirish va konstruktiv (ijodiy-amaliy) faoliyatga tayyorlikni rivojlantirish orqali namoyon bo'ladi. Birinchidan, bu komponent o'qituvchi shaxsida kasbiy qadriyatlar tizimini qaror toptirishga yo'naltirilgan bo'lib, bunda inson hayoti va xavfsizligini ustuvor qadriyat sifatida qabul qilish, pedagogik faoliyatda mas'uliyat bilan

yondashish va xavfli vaziyatlarga befarq bo‘lmaslik tamoyillari asos qilib olinadi. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki xavfsiz va qulay ta’lim muhitini yaratuvchi shaxs sifatida harakat qiladi. Ikkinchidan, aksiologik-konstruktiv komponent riskli holatlarda mustaqil va mantiqiy qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, muqobil yechimlarni ishlab chiqish, emotsional barqarorlikni saqlash kabi amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Operativ-prognostik komponent. Pedagogik faoliyatda uchraydigan riskologik muhit stixiyali mazmunga ega bo‘lishi mumkin. Lekin pedagog-o‘qituvchilar uchun risklarni boshqarish va hak etishda tizimlilik, oldindan ko‘ra olish, tez va mustaqil qarorlar chiqarish va natijaga erishish malakalariga ega bo‘lish talab etiladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining riskologik madaniyatining operativ-prognostik komponenti – bu ularning kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan riskli vaziyatlarni operativlik bilan tahlil qilish, ularga innovatsion va samarali yechimlar topa olish, shuningdek, mustaqil qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etish qobiliyatini namoyon etadi. Mazkur komponent operativlik, ya’ni tezkor qarorlar qabul qilish qobiliyati, ijodkorlik va faollikdan tarkib topgan. Operativlik prognoz qilingan muammolarga nisbatan tezkorlik bilan yondashgan holda munosib pedagogik choralar ko‘rishni nazarda tutadi. Ijodiy fikrlash qobiliyati riskli vaziyatlarda noodatiy, yangi va samarali g‘oyalarni ishlab chiqishga, faollik esa riskli holatlarga befarq bo‘lmasdan, ularning oldini olish yoki yengib o‘tishda faollik ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Refleksiv-baholovchi komponent o‘qituvchining refleksiv faoliyatga tayyorligini, ya’ni o‘z tajribasini tahlil qilish, xatolardan saboq chiqarish va doimiy o‘sishga intilish kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning riskologik madaniyatini tashkil etuvchi komponentlarni aniqlovchi mezonlar pedagogik faoliyatdagi risklarni boshqarish zaruriyati, shaxsiy va kasbiy sifatlar va ta’lim jarayonidagi innovatsiyalardan kelib chiqadi. Ushbu mezonlar quyidagi omillarga asoslanadi:

1. Kasbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlariga, ya’ni: pedagogik jarayonning murakkabligi va turli xavf manbalari (psixologik, ijtimoiy, axborot va boshqalar) ning mavjudligi; ta’lim muassasalarida xavfsiz muhitni yaratish va boshqarish zarurati.

2. Risklarni boshqarishga qo‘yiladigan talablarga: risklarni aniqlash, baholash va minimallashtirish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni egallashga, muammolarni hal qilish va riskli (noaniq, muammoli) vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish ko‘nikmalariga bo‘lgan ehtiyoj.

3. Shaxsiy va kasbiy sifatlarga: bo‘lajak o‘qituvchining mas’uliyati, o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan motivatsiyasi, xavf-xatarlarga ongli yondashuvi, hushyorligi, stressga chidamliligi va o‘zini boshqara olish qobiliyati.

4. Ijtimoiy va kommunikativ ehtiyojlarga: ta’lim jarayonidagi barcha ishtirokchilar bilan samarali muloqot qilish va xavfsizlik masalalarida hamkorlik qilish zarurati; konfliktli vaziyatlarni hal qilishga kreativ yondashish va profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish.

5. Axborotlashgan va innovatsion ta’lim muhitiga: zamonaviy texnologiyalar (onlayn resurslar, interaktiv platformalar) ni, innovatsion yondashuvlar va metodlarni o‘zlashtirish va samarali qo‘llash.

Yuqorida sanab o‘tilgan komponentlarning har biri ma’lum bir funksiyani bajaradi va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida riskologik madaniyatni rivojlantirish jarayonining yaxlitligini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida riskologik madaniyatni shakllantirish ularning kasbiy tayyorgarligi, mas’uliyat hissi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, stressli vaziyatlarga bardoshliligi hamda innovatsion yondashuvlarni egallashi orqali ta’minlanadi. Ushbu madaniyatni shakllantiruvchi kognitiv, motivatsion-irodaviy, aksiologik-konstruktiv, operativ-prognostik va refleksiv-baholovchi komponentlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ta’lim jarayonidagi risklarni anglash, baholash, boshqarish va ularning oldini olishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Асхадуллина Н.Н. Сущность и структура рискологической компетенции будущих учителей. // Вестник ЧГПУ им. И.Я. Яковлева. – 2016. №1 (89). – С. 65-67.

2. Бондаревская Е.В. Педагогическая культура как общественная и личностная ценность. // Педагогика. – 1999. – №3. – С. 37-43.

3. Долинина И.Г., Кушнарёва О.В. Диагностика рискологической компетентности студентов политехнического вуза. // Вестник Пермского государственного гуманитарно-педагогического университета. Сер. №1. Психологические и педагогические науки. – 2020. №2. – С. 25-34.

4. Головина Е.С. Педагогическое содействие формированию профессиональной культуры будущих социальных педагогов в вузе: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Екатеринбург, 2005. – 28 с. – С. 14.

5. Головкина А.А. Рискологическая компетенция в формировании профессиональной безопасности бакалавров нефтегазовой отрасли: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Екатеринбург, 2016. – 27 с.

6. Mamutov U.B. Talabalarni kabiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning integrativ texnologiyasini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. – Nukus, 2023. – B. 25.

7. Межуев В.М., Константинов А.В. // Большая российская энциклопедия: [в 35 т.] / гл. ред. Ю.С.Осипов. – М.: Большая российская энциклопедия, 2004-2017. – 798 с.

8. Цицерон М.Т. Турскуланские беседы. // М.Т.Цицерон. Избранные сочинения. / Сост. и ред. М.Л.Гаспарова, С.А.Ошерова, В.М.Смирина. – М.: Художественная литература, 1975. – С. 207-367.

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV VA MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Ibraimova G.A.
Ajiniyoz nomidagi NDPI
“Pedagogika” kafedrasi 2-bosqich tayanch doktoranti

Tayanch so‘zlar: kommunikativ yondashuv, induktiv-ongli, kognitiv, integrativ, strukturaviy, funksional, interaktiv, madaniyatlararo muloqot, ijtimoiy-madaniy kontekst, til va madaniyat.
Ключевые слова: коммуникативный подход, индуктивно-сознательный, когнитивный, интегративный, структурный, функциональный, интерактивный, межкультурная коммуникация, социокультурный контекст, язык и культура.
Key words: communicative approach, inductive-conscious, cognitive, integrative, structural, functional, interactive, intercultural communication, sociocultural context, language and culture.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada chet tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuvning mazmuni, uning madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishdagi roli hamda ta’limiy jarayonda samarali joriy etish omillari tahlil qilinadi. Shuningdek, til o‘rgatishda madaniyatlararo tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladigan metodik vositalar va strategiyalarga ilmiy-nazariy yondashuv asosida baho beriladi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье анализируется содержание коммуникативного подхода в обучении иностранным языкам, его роль в формировании межкультурной компетенции, а также факторы эффективного внедрения данного подхода в образовательный процесс. Кроме того, на основе научно-теоретического подхода оцениваются методические средства и стратегии, способствующие формированию межкультурного мышления в процессе изучения языка.
SUMMARY:
This article analyzes the essence of the communicative approach in foreign language teaching, its role in developing intercultural competence, and the factors contributing to its effective implementation in the educational process. In addition, methodical tools and strategies that promote the formation of intercultural thinking in the language learning process are evaluated based on a scientific and theoretical approach.

Globalizatsiya sharoitida xorijiy til o‘rgatish jarayoni nafaqat lingvistik bilimlarni, balki o‘quvchilarning madaniyatlararo muloqotga tayyorligini shakllantirishni ham o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymoqda. Chet tilini samarali

o‘rgatish uchun o‘quvchilar o‘rganayotgan til sohiblarining madaniyatiga chuqur kirib borishi, ularning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini anglay olishi zarur. Shu jihatdan kommunikativ yondashuv zamonaviy ta’limda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishning asosiy metodik tamoyiliga aylanmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv asosida olib borilayotgan ta’lim islohotlari chet tilini o‘qitishda kommunikativ va madaniyatlararo yondashuvlarni uyg‘unlashtirish zaruratini tug‘dirmoqda. Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya – bu shunchaki til bilish emas, balki til orqali boshqa madaniyat vakillari bilan samarali, tolerant va ijobiy muloqotga kirisha olish qobiliyatidir. Bunday kompetensiyani shakllantirishda o‘qituvchining metodik yondashuvi, dars mazmuni, interaktiv usullardan foydalanish darajasi muhim omillar sirasiga kiradi.

Yondashuv – til o‘rgatish va o‘rganish xususiyatlariga taalluqli tushunchalar yig‘indisidir. Yondashuv aksiomaviydir. U o‘qitiladigan predmet mazmunini ifodalaydi. Yondashuv atamasiga lug‘atlarda biror masalani hal etish yoki muammoning yechimini topish uchun ma’lum nazariyaga asoslanish, degan mazmunda ta’rif beriladi. Ingliz tili o‘qitish metodikasida mazkur atama dastlab AQSHning Michigan universiteti professori Edvard Meyson Entoniy tomonidan til xususiyati va uni o‘rganish va o‘rgatish usullariga taalluqli qonuniyatlarni ifodalash maqsadida qo‘llanilgan bo‘lib, unga quyidagicha ta’riflar berilgan:

“An approach is a set of correlative assumptions dealing with the nature of language teaching and learning. An approach is axiomatic. It describes the nature of the subject matter to be taught”[1].

“Approach: Theoretically well-informed positions and beliefs about the nature of language, the nature of language learning, and the applicability of both to pedagogical settings”[2] .

Yondashuv til o‘qitish mazmuni va til o‘rganish xususiyati hamda ularni pedagogik jarayonga joriy etish imkoniyatlari haqidagi nazariy jihatdan yaxshi yoritilgan pozitsiya va nuqtaiy nazar. Entoniyning fikricha, yondashuv til haqidagi, uni o‘rganish va o‘rgatish xususiyatlarini inobatga olib takomillashtirilgan prinsip yoki tushunchalar yig‘indisi bo‘lib, u metodga moslashtiriladi yoki nazariy jihatdan unga asoslanadi. Ya’ni yondashuv atamasi orqali ingliz tili o‘qitish amaliyoti va prinsiplarining manbasi bo‘lib xizmat qiladigan til va til o‘rganish haqidagi nazariya ifodalanadi. Yondashuv til o‘qitish sistemasi zamiridagi fundamental komponent bo‘lib, o‘qitishning umumiy metodologik asosi sifatida gavdalanadi va (til) o‘quv fanining maqsadi, vazifalari hamda ta’lim jarayonida ularni amalga oshirish imkoniyatini ta’minlaydigan ta’lim mazmuni haqidagi mavjud nuqtaiy nazarlar bilan xarakterlanadi.

Metodikada yondashuvning yagona klassifikatsiyasi mavjud emas. Masalan, M.V.Lyaxovitskiy (1981) yondashuvlarni psixolingvistik nuqtaiy nazaridan quyidagicha klassifikatsiyalaydi: Induktiv-ongli – til nutq namunalarini tahliliy kuzatish natijasida til qonuniyatlari va ularni nutqda qo‘llash usullarini egallash orqali o‘rganiladi; Ongli (kognitiv) – til egallangan bilimlar asosida nutqiy malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish izchilligida o‘rganiladi; Integrativ – til o‘qitish jarayonida ongli va g‘ayrishuuriy komponentlarni tashkiliy muvofiqlashtiradi, ya’ni ingliz tili bilim, malaka va ko‘nikmalarni parallel egallash orqali o‘rganiladi.. A.N.Shukin yondashuvlarni tilga nisbatan o‘qitish ob’yekti va o‘qitish vositasi sifatida qaraydigan guruhlarga ajratadi [3].

Tilga o‘rganish ob’yekti nuqtaiy nazaridan qaraydigan: a) tilni o‘rganishga; b) nutqni o‘rganishga; v) nutq faoliyati turlaridan bilim, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar farqlanadi. Tilga o‘rganish vositasi nuqtai nazaridan qaraydigan: a) to‘g‘ri (intuitive); b) ongli (cognitive); d) shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlarni farqlash mumkin. Adabiyotlarda audilingual metod va audilingual yondashuv yoki kommunikativ metod va kommunikativ yondashuv atamalari ko‘p uchraydi.

Kommunikativ yondashuvning umumiy tasnifi Ingliz tili o‘qitishga 1960-yildan buyon rivojlanib kelayotgan kommunikativ metod asosida shakllantirilgan. Amerikalik va britaniyalik mutaxassislar ingliz tilini kommunikativ o‘qitish metod emas, balki yondashuv sifatida e’tirof etgan holda kommunikativ kompetensiya til o‘qitish maqsadi bo‘lishi lozimligini, til va kommunikatsiya o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlash uchun barcha nutq faoliyat turlaridan bilim, malaka va ko‘nikmalarni integrativ rivojlantirish zarurligini targ‘ib eta boshladilar [4].

Adabiyotlarda kommunikativ yondashuv oni katta yoshli til o‘rganuvchilarga va o‘rganilayotgan ingliz tilning tabiiy muhiti mavjud bo‘lgan sharoitda qo‘llash mumkinligi to‘g‘risidagi fikrlar uchraydi. Bizningcha, kommunikativ yondashuv ta’lim o‘zbek,russ va qaraqalpoq tillarida olib boriladigan boshlang‘ich sinflar sharoitiga moslashtirish mumkin. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yosh davrlarining yaqqol operatsiyalar bosqichida, ya’ni kommunikatsiya va interaksiya jarayonida kashf qilib o‘rganish bosqichida bo‘lishadi. Yosh davrlarining yaqqol operatsiyalar bosqichidagi o‘quvchilarga xos bo‘lgan muloqotchanlik va bilganlarini namoyish qilishga intiluvchanlik xususiyati inobatga olinsa, kommunikativ yondashuvni boshlang‘ich ta’limda ingliz tilini o‘qitish jarayoniga tatbiq qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yuqoridagilarga va mutaxassislar tomonidan berilgan turli ta’riflarga asoslanib, kommunikativ kompetensiya – ma’lum maqsadga erishish uchun

samarali muloqot qilish, axborot, fikr, nuqtayi nazar, o‘y, xayol va ichki kechinmalarni o‘zaro baham ko‘rish uchun tildan adekvat foydalana olishda suhbatdosh bilan muvaffaqiyatli raqobatlasha olishni ta’minlovchi zaruriy bilim, malaka va ko‘nikmalar majmuyidir, degan ta’rifni shakllantirish mumkin.

Kommunikativ kompetensiya – ingliz tili bo‘yicha egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo‘llash layoqatidir. Kommunikativ kompetensiyani egallanishi ingliz tili o‘qitishning asosiy maqsadi sifatida e’tirof etilayotgan bugungi kunda kommunikatsiyani asosiy o‘qitish vositasi, kompetensiyani ta’lim maqsadi sifatida tan olinishiga sabab bo‘ldi.

“Madaniyatlararo muloqot” tushunchasi ancha keng talqin qilinmoqda va u turli darajadagi shaxslararo muloqotlarga taalluqlidir, jumladan: turli ijtimoiy guruhlar vakillari, turli milliy madaniyatlar yoki sivilizatsiyalarga mansub kishilar o‘rtasidagi muloqotlar.

E.M.Vereshchagina va V.G.Kostomarov o‘zlarining mashhur “Til va madaniyat” asarida “madaniyatlararo muloqot” atamasini quyidagicha talqin qiladilar: bu – turli milliy madaniyatlarga mansub bo‘lgan ikki ishtirokchi o‘rtasida o‘zaro tushunish va muloqotning mos tushishi [7].

Madaniyatlararo muloqot va kompetensiya tushunchalari mohiyatini yanada ravshanroq tushunish uchun, bizning nazarimizda, bu terminlarni tashkil etuvchi asosiy tarkibiy qismlarni — til, madaniyat, muloqot va kompetensiyani alohida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Til vositasida inson nafaqat atrof-muhitni anglaydi, balki til – bu insonning ruhiy faoliyati vositasi hamdir; u psixik funksiyalarni o‘zgartiradi, insonning refleksiv qobiliyatlarini rivojlantiradi. Til shuningdek, shaxsning o‘zini anglashi ham shakllantiradi, bu esa tildagi madaniyatga, xatti-harakatlarga, insonlararo munosabatlarga va shaxsiy fazilatlar namunalariga yo‘naltiruvchi ma’no va qadriyatlar bilan bog‘liqdir.Har bir til muayyan etnosning rivojlanish tarixi asosida shakllangan bo‘lib, inson tomonidan yaratilgan narsalar olamini egallash yo‘lini, mehnat va shaxslararo munosabatlarni o‘zlashtirish yo‘lini aks ettiradi. Til faqat insonning ijtimoiy tabiati tufayligina rivojlanadi va o‘z navbatida insonning ijtimoiy tabiatiga ham ta’sir ko‘rsatadi. “So‘z avvalo – bu ramz, ideal; so‘z fikrni siqib, ifodalovchi vositadir .

Madaniyat va til – bu bir-biri bilan uzviy bog‘liq va bir-biriga bog‘liq tushunchalar bo‘lib, ikkalasi ham inson tomonidan yaratilgan. Inson esa o‘z navbatida madaniy-tarixiy jarayonning yagona subyektidir. “Madaniyatni jamiyat nima qiladi va qanday fikr yuritishini ifodalaydigan tushuncha sifatida ta’riflash mumkin. Til esa — bu qanday fikr yuritilishini bildiradi.

O‘z-o‘zidan ayonki, til mazmuni madaniyat bilan uzviy bog‘liq. Madaniyat konsepsiyasi orqali jamiyatda mavjud umumiy qadriyatlar, hayotga bo‘lgan qarashlar va sivilizatsiyaning o‘ziga xos namoyon bo‘lish shakllari yagona atama bilan qamrab olinadi. Bu esa muayyan xalqning dunyodagi o‘z o‘rnini anglashiga xizmat qiladi

Qissada erkaklik ideali Sherlok Holms obrazida namoyon bo‘ladi. Holms, odatdagidek, mantiqiy fikrlash, deduksiya va muammoni hal qilish qobiliyatiga ega. U, shuningdek, Irene Adlerga nisbatan hayrat va hurmat hissini his qiladi, bu esa uning erkaklik idealini yanada murakkablashtiradi. Holms Adlerning aqlliligini tan oladi va unga qarshi kurashda mag‘lubiyatga uchraydi, bu esa erkaklik idealining cheklanganligini ko‘rsatadi.

Qissada gender stereotiplari ham namoyon bo‘ladi. Adler, o‘zining qobiliyatlariga qaramay, erkaklarning nazoratidan qochishga harakat qiladi. Adlerning qarorlari va xatti-harakatlari jamiyatda ayollarga qo‘yiladigan cheklovlarni eslatib turadi. Qissada erkakning intellektual ustunligi va ayolning his-tuyg‘ularga beriluvchanligi kabi stereotiplar, bir tomondan, tanqid qilinadi, ikkinchi tomondan esa, qisman tasdiqlanadi.

Pragmatika tilning amaliy qo‘llanilishi va uning kontekstdagi ma’nosini o‘rganadi. Irene Adnerning Sherlok Holmsga yozgan xati pragmatik tahlil uchun boy manba hisoblanadi. Xat, perlokutsion akt sifatida, Holmsni o‘zining aldanganidan xabardor ekanligini bildirish bilan birga, vaziyatni nazorat qilish

va o‘z kuchini tasdiqlaydi. Ushbu tahlil asosiy pragmatik elementlarga e’tibor qaratadi: nutq harakatlari, implikatura, farazlar, xushmuomalalik va deiksis. Ushbu tushunchalar Irene Norton Adlerning tilni muayyan kommunikativ maqsadlarga erishish uchun qanday ishlatishini ko‘rsatib beradi.

Ushbu xat bir nechta aniq nutq harakatlarini amalga oshiradi. Birinchidan, u deklarativ vazifani bajaradi, Irene Holmsning niqobi va qirolning niyatlari haqida bilganini oshkor qiladi (“Siz buni juda yaxshi qildingiz. Meni butunlay aldadingiz.”). Ikkinchidan, u tasdiqlovchi bo‘lib, ketish sabablari va fotosuratga bundan so‘ng ham egalik qilishini bayon qiladi (“Bizningcha, eng yaxshi echim - qochish… Men uni faqat o‘zimni himoya qilish uchun saqlayman.”). Uchinchidan, xatda adressant o‘z oldiga majburiyat va cheklov qo‘yadi, qirolga hech kim xalaqit bermasligiga va’da beradi (“Qirol o‘zi xohlaganini qilsin, unga shafqatsizlarcha jabr qilgan odamdan hech qanday to‘siq bo‘lmaydi”). Xatning xulosa qismi, “Sizga chin dildan hurmat bilan,” odatiy xulosa sifatida ishlaydi, lekin avvalgi aldagani haqidagi ma’lumotni hisobga olgan holda yuqoridagi jumlalardan nozik ironik ohangni sezishimiz mumkin.

Norton implikaturadan strategik tarzda foydalanadi. Misol uchun, uning “Men yaxshiroq odamni sevaman va meni sevishadi” degan gapi nafaqat hozirgi romantik munosabatlarini ifodalaydi, balki qirolning xarakterini ham tanqid qiladi. U qirol yomon odam, deb ochiqchasiga aytmaydi, lekin taqqoslash uning axloqiy jihatdan pastligini anglatadi. Bundan tashqari, u fotosuratni “faqat o‘zimni himoya qilish uchun” saqlayotganini aytib, o‘zini axloqli odam sifatida ko‘rsatmoqchi bo‘ladi va o‘zini asrash uchun zarurat bo‘lmasa shantaj bilan shug‘ullanadiganlardan emasligini bildiradi. Bu o‘zini taqdim etishning aynan ayollarga xos bo‘lgan bir shakli bo‘lib, Holmsdan keladigan har qanday salbiy hukmni kamaytirishga harakat qiladi.

Xat bir nechta farazlarni o‘z ichiga oladi. Uning “yong‘in signaliga” havola qilishi Holmsning ushbu voqeani sahnalashtirishda ishtirok etganini taxmin qiladi. Xuddi shunday, uning “Siz haqingizda oylar oldin ogohlantirilgan edim” degan gapi Holmsning taniqli va zukko agent ekanligini taxmin qiladi, shu bilan o‘zining avvaldan barcha vaziyatdan habardor bo‘lganligini ochib berayotgan bo‘lsa ham, Holmsning o‘z ishining ustasi ekanligini shubha ostiga qo‘ymaydi. U, shuningdek, o‘zining professional tajribasidan Holmsning xabari borligini taxmin qiladi: “bilasiz, men aktrisa sifatida o‘qitilganman,” jumlasi orqali Adler biron sahna yaratish u uchun odatiy hol ekanligini tushuntiradi, chunki bu uning professional ta’lim jarayonining bir qismi edi.

Holmsning mahoratini tan olgan holda, Adler ayollarga xos xushmuomalalikni saqlab qoladi. Unga “Qimmatli janob Sherlok Holms” deb murojaat qilishi

va “Sizga chin dildan hurmat bilan” degan so‘zlar bilan yakunlashi odatiy xushmuomalalik belgilari hisoblanadi. Biroq, bu xushmuomalalikni strategik yondashuv sifatida qabul qilishimiz mumkin. Bu uning to‘satdan o‘zini oshkor etish zarbasini yumshatadi va uni nafratga to‘la va qasoskor ayol emas, balki aqlli va munosib raqib sifatida ko‘rsatadi. Shu bilan birga bilvosita til ishlatilishi, masalan, “ertaga qo‘ng‘iroq qilganingizda uy bo‘sh bo‘ladi,” degan jumla qochib ketganligi haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’lumot berishdan ko‘ra nozikroq ifodalangan.

Xat hikoyani asoslash uchun deiksisdan foydalanadi. “Men”, “sen”, “u” va “o‘zim” kabi olmoshlar xat kontekstidagi muayyan shaxslarga ishora qiladi. Vaqt deiksisi “oylar oldin” va “ertaga” kabi iboralarda yaqqol ko‘rinadi va voqealarni yozish va o‘qish vaqtiga nisbatan yo‘naltiradi. “Ushbu sayyora” demonstrativi, giperbolik bo‘lsa ham, erga deiktik ishora beradi.

Irene Nortonning xati pragmatik aloqaning yuqori namunasi hisoblanadi. U ma’lumotni etkazish, o‘z kuchini tasdiqlash va Holmsning unga bo‘lgan tasavvurini shakllantirish uchun nutq harakatlari, implikatura, farazlar, xushmuomalalik va deiksisdan mohirlik bilan foydalanadi. Xat shunchaki xabar emas; bu spektakl, Irene Adlerni buyuk Sherlok Holmsdan o‘tib ketgan “ayol” sifatida mustahkamlaydi. Ushbu xatni tuzishdagi pragmatik mahorati Adlerning aldash qobiliyati kabi hayratlanarlidir.

Kognitiv tahlil qahramonlarning bilimni qayta ishlash va qaror qabul qilish jarayonlarini o‘rganadi. Holmsning deduktiv usuli uning ish xotirasi (working memory) va uzun muddatli xotirasining (long-term memory) samarali ishlashiga asoslangan. Adlerning Xolmsning fikrlash usulini oldindan bilishi "mental modelar" va "aql nazariyasi" (theory of mind) tamoyillarini aks ettiradi. Uning Xolmsga qarshi ishlab chiqqan strategiyasi yuqori darajadagi kognitiv moslashuvchanlikni ko‘rsatadi. “Bohemiadagi janjal” hikoyasini kognitiv jihatdan tahlil qilish uchun qirol va Sherlok Holmsning suhbati muhim manbaalardan biri hisoblanadi.

Qirolning dastlabki jumlasi: “Qanday ayol, oh, qanday ayol!” (“What a woman-oh, what a woman) kuchli hissiy javobni ochib beradi (baholash nazariyasi, Scherer, 2009). Ushbu so‘zlar Adlerning aql-zakovatini va uning qirolicha bo‘lishga jamiyatdagi statusi sababli mos emasligi uchun biroz afsuslanishni ham o‘z ichiga oladi. Keyin esa u fikrini qayta tasdiqlashga urinadi va shunday deydi: “Men sizga uning qanchalik tez va qat’iyatli ekanligini aytmadimmi?” (“Did I not tell you how quick and resolute she was?“) Bu uning Adlerga bergan dastlabki bahosini tasdiqlash uchun xotirasidan ma’lumot olishga harakat qilishini ko‘rsatadi. Shuningdek hikoyadagi qirol obrazi “U ajoyib malika bo‘lmasmidi?” jumlasi

orqali qarama-qarshi fikrlashdan foydalanib, gipotetik fikrni ilgari suradi: “U ajoyib malika bo‘lmasmidi?” (“Would she not have made an admirable queen?”), bu uning kognitiv moslashuvchanligini va muqobil imkoniyatlarni ko‘rib chiqish qobiliyatini ta’kidlaydi. Uning: “Men bilaman, uning so‘zi buzilmas. Surat hozir olovdagi kabi xavfsiz”, degan xulosasi Adlerga nisbatan ishonch shakllanishidagi muhim o‘zgarishni ifodalaydi. Dastlab u janjalning oldini olish uchun fotosuratni olishga intilgan edi. Biroq, hozir u Adlerning kafolatini qabul qiladi va bu yangi dalillarga asoslangan holda o‘z fikrini yangilash qobiliyatini ko‘rsatadi. Ushbu ishonch, shuningdek, mavjudlik evristikasi deb nomlanuvchi kognitiv evristika orqali mustahkamlanadi, u suratning xavfsizligini tasavvur qilish osonroq bo‘lgani uchun xavfsiz deb hisoblaydi (“xuddi olovda bo‘lganday”).

Qiroldan farqli o‘laroq, Holms yanada ajralib turadigan analitik yondashuvni namoyish etadi. Uning: “Mening kuzatishlarimga ko‘ra, bu xonim, albatta, Hazrati oliylaridan ancha yuqori darajada”(“From what I have seen of the lady, she seems, indeed, to be on a very different level to your Majesty,”), degan gapi kuzatilgan xatti-harakatlarga asoslangan holda puxta o‘ylangan bahoni taklif qiladi. Hikoyaning asl nusxasidagi jumla, “From what I have seen of the lady, she seems, indeed, to be on a very different level to your Majesty,” so‘zma so‘z tarjima qilinganda “Mening kuzatishlarimga ko‘ra, bu xonim, albatta, Hazrati oliylari bilan farqli darajada (bir tabaqaga mansub emas)” ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Biroq bu so‘zlar Qirolning “U mening maqomimga loyiq bo‘lmagani juda achinarli, to‘g‘rimi?” (“Is it not a pity that she was not on my level?”) degan jumlasiga javob tariqasida aytilganini inobatga olsak, kontekstdan kelib chiqqan holda, Sherlok qirolning ushbu gaplarini kinoyali “tasdiqlagan”iga guvoh bo‘lamiz.

Sherlokning: “Afsuski, Hazrati oliylari, sizning ishingizni yanada muvaffaqiyatli yakunlay olmadim”, degan kechirim so‘rashi, uning muvaffaqiyatga erishish umidi va ishning haqiqiy natijasi o‘rtasida kognitiv dissonansni ta’kidlaydi. Bu dissonans uning keyinchalik Irene Adlerning fotosuratini so‘rashiga turtki beradi.

Holmsning fotosuratni so‘rashi maqsadga yo‘naltirilgan xatti-harakatni namoyish etadi. U Adlerning kuchi va aqlini tan olish uchun, shunchaki qirolning minnatdorchiligini qabul qilishdan ko‘ra, shaxsiy manfaat yo‘lida emas, Adlerning kognitiv qobiliyatlarini va uning mulohazalarini tushunish uchun fotosuratni so‘raydi. Ushbu kognitiv motivatsiya Holmsning inson xatti-harakatlarini tahlil qilish va aqlning ishlashini tushunishga asoslanganligini ko‘rsatadi.

Ushbu parcha kognitiv jarayonlarning boyligi hisoblanadi. Qirolning reaktsiyalari hissiy baholashlarni, e’tiqodni yangilashni va kognitiv evristikalardan foydalanishni ta’kidlaydi. Holms mantiqiy mulohazalarni, maqsadga yo‘naltirilgan xatti-harakatlarni va insonning bilishini tushunishga

qaratilgan strategik yondashuvni namoyish etadi. Ularning kognitiv uslublarini qarama-qarshi qo‘yish va ijtimoiy kognitsiyaning rolini tan olish orqali ushbu parchalar Doylning “Bogemiyadagi janjal” asarida inson xatti-harakatlarini shakllantiradigan murakkab aqliy jarayonlarga ishonchli nazar tashlash imkonini beradi.

Xulosa va amaliy tavsiyalar.“Bohemiyadagi janjal” qissasi Konan Doyl asarlarida gender diskursining namoyon bo‘lishini yorqin namoyish etadi. Irene Adler obrazining yaratilishi ayollarning murakkabligi va ularning jamiyatdagi an’anaviy rollaridan chetga chiqish qobiliyatini ko‘rsatadi. Holmsning Adlerga nisbatan munosabati erkaklik idealining cheklanganligini va gender stereotiplarining murakkabligini ko‘rsatadi. Ushbu qissa gender masalalarini adabiy tahlil qilish uchun boy material beradi va Konan Doylning asarlarini o‘rganishda gender diskursiga e’tibor berishning muhimligini ta’kidlaydi.

Artur Konan Doylning “Bohemiyadagi janjal” qissasi gender, pragmatika va kognitiv tahlil uchun boy manba hisoblanadi. Gender nuqtai nazaridan Adler obrazi ayollarning stereotiplardan tashqari qobiliyatlarini namoyish etsa, Holms obrazi erkaklik idealining cheklanganligini ko‘rsatadi. Pragmatik tahlil qahramonlarning nutqiy xatti-harakatlari va kontekstning ahamiyatini yoritadi. Kognitiv tahlil esa qahramonlarning fikrlash1. jarayonlari va qaror qabul qilish mexanizmlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu jihatlar qissaning nafaqat adabiy qiymatini oshiradi, balki o‘quvchilarga jamiyat, til va inson ongini tushunishda yangi nuqtai nazarlarni taqdim etadi. "Bohemiyadagi Janjal" asari gender diskursi, pragmatik va kognitiv jihatlarning uyg‘unligini namoyish etadi. Bu asar nafaqat badiiy adabiyotning, balki gender, tilshunoslik va kognitiv fanlarning ham qimmatli manbai hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Austin J. L. (1962). How to do things with words. Oxford University Press.
2. Baddeley A. (2007). Working memory, thought, and action. Oxford University Press.
3. Byrne R. M. J. (2005). The rational imagination: How people create alternatives to reality. MIT Press.
4. Doyle A. C. (1902). The hound of the Baskervilles. George Newnes, Limited.
5. Eysenck M. W., & Keane, M. T. (2015). Cognitive psychology. Psychology Press.
6. Fairclough N. (1992). Discourse and social change. Polity Press.
7. Leki M. (2003). Sherlock Holmes and the women. The Journal of Popular Culture.
8. Levinson S. C. (1983). Pragmatics. Cambridge University Press.
9. Scherer K. R. (2009). Emotions are functional: Appraisal theory. In D. Sander & K. R. Scherer (Eds.), The Oxford companion to emotion and the affective sciences (pp. 143-145). Oxford University Press.
10. Yule G. (1996). Pragmatics. Oxford University Press.

ТЕХНОЛОГИЯ ДАРСЛАРИНИ ИНТЕРФАОЛ УСУЛДА ТАШКИЛ ЭТИШ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Пўлатова М.
Чирчиқ давлат педагогика университети технологик таълим йўналиши талабаси

Tayanch so‘zlar: интерфаол, педагог, технология, амалий кўникма, мустақил таълим, ўқитиш, фаол усуллар.
Ключевые слова: интерактивный, учитель, технология, практические навыки, самостоятельное обучение, преподавание, активные методы
Key words: interactive, teacher, technology, practical skills, independent learning, teaching, active methods

РЕЗЮМЕ:
Ушбу мақолада технология фанини интерфаол усулларда ўқитишнинг механизми, самарадорлик омиллари, амалиётда қўллаш йўналишлари, таълим муҳити ва педагогик амалиёт жараёнидаги аҳамияти ёритиб берилган.
РЕЗЮМЕ:
В статье рассмотрены механизмы и особенности использования интерактивных методов в преподавании технологии, раскрыто их влияние на формирование профессиональных компетенций учащихся, а также освещена роль педагогической практики в подготовке будущих учителей.
SUMMARY:
This article discusses the mechanisms and principles of organizing technology lessons through interactive methods, emphasizing their impact on forming students' professional skills and the importance of pedagogical practice in preparing future educators.

Таълим тизимида ҳар бир фаннинг ўзига хос ўрни, мақсад ва вазифалари мавжуд. Технология фани эса ёш авлодни ҳаётга, меҳнатга тайёрлаш, уларда амалий кўникмаларни шакллантириш, ижодий фикрлашга ундашда муҳим аҳамият касб этади. Бу фанни самарали ўқитиш эса, унинг назарий-методик асосларини тўғри англаш ва тўғри дарс ташкил этиш билан боғлиқ.

Замонавий таълим тизимида технология фанини ўқитишда интерфаол усуллардан фойдаланиш – бугунги кун талабларидан бири ҳисобланади.

Ўқувчиларда амалий кўникма ва касбий компетенцияларни шакллантиришда анъанавий дарс шакллари етарлича самара бермасдан, янги, илғор ва инноватsion ёндашувларни жорий этиш зарурати ортиб бормоқда. Шу нуқтаи назардан, таълим жараёнида интерфаол усуллардан фойдаланиш нафақат билимни фаол ўзлаштириш, балки ўқувчининг мустақил фикрлашини, жамоа билан ишлашини, янгича ёндашувларни излашини ҳам таъминлайди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон фармони, шунингдек, 2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида таълим мазмунини янгилаш, интерфаол технологияларни жорий этиш, ўқув жараёнини креатив ва амалий асосга қуриш муҳим вазифа сифатида белгилаб берилган.

Технология фани мактаб таълимида фақат "амалий машғулот" сифатида эмас, балки тўлиқ шахс тарбияси, интеллектуал ва ижтимоий ривожланиш учун муҳим фан сифатида қаралиши керак. У болани ҳаётга, меҳнатга ва касбга тайёрлайдиган, ижодкорликни ривожлантирадиган, мултидисциплинар билимларни уйғунлаштирадиган фан ҳисобланади. Шунинг учун технология дарсларини янги педагогик технологиялар билан ташкил этиш мақсадга мувофиқдир.Бунда эса интерфаол методлардан фойдаланиш алоҳида ўрин эгаллайди.

Технология фанини ўқитиш жараёнида интерфаол методлар қўлланилиши:

ўқувчиларда амалий кўникмаларни шакллантириш;

ижодий ва мустақил фикрлашни рағбатлантириш;

гуруҳда ишлаш, мулоқот, бошқарув каби софт скилларни ривожлантириш;

фанга бўлган қизиқишни ошириш ва шахсий муносабатни шакллантиришга хизмат қилади.

Таълимда интерфаол усуллардан фойдаланиш механизмлари

Технология дарсларида самарали интерфаол ёндашувлар қуйидагилардан иборат:

“Ақл чархпалаги”, “Синквейн”, “Фикрлар тўфони” (Brainstorming) каби методлардан фойдаланиш;

Жамоавий ишлар, масалан, мини-лоиҳалар, макет ясаш, устафалар ташкил этиш;

Кейс-метод, яъни ҳаётий масалаларни ҳал этишда ўқувчиларнинг шахсий тажрибасидан фойдаланиш;

Масофавий таълим элементларини интегратsiялаш;

Симуляция ва ролли ўйинлар, маҳсулот яратиш жараёнини амалий равишда тасвирлаш.

Таълим муҳитининг ўрни

Интерфаол дарсларни самарали ташкил этишда ахборот муҳити ва замонавий инфратузилманинг мавжудлиги муҳим аҳамиятга эга. Мактабларда компьютер техникаси, интернет, мультимедиа воситалари, 3D моделлаштириш ускуналари мавжуд бўлиши дарс самарадорлигини бир неча баробар оширади.

Олий таълимда тайёргарлик ва педагогик амалиёт

Бугунги кунда педагог кадрларни интерфаол дарсларни ташкил этишга тайёрлаш педагогик амалиёт жараёнида амалга оширилиши керак. Бу жараёнда талабалар:

интерфаол методларни ўрганади;

мактаб дарсларини кузатади ва таҳлил қилади;

мустақил машғулотлар орқали амалий кўникма орттиради;

ўз лойиҳаларини ишлаб чиқади ва амалга оширади.

Хулоса.Технология фанини интерфаол усулларда ўқитиш нафақат фан мазмунини янгилайди, балки ўқувчиларда муваффақиятга йўналтирилган шахсий ва касбий сифатларни шакллантиради. Бунда олий таълим муассасалари зиммасига талабаларни интерактив, амалиётга йўналтирилган, инновatsion ёндашувлар асосида ўқитиш вазифаси юкланади. Мазкур мақсадга эришиш учун ўқув режалар, фан дастурлари, педагогик амалиёт мазмуни ҳамда таълим муҳитида замонавий ёндашувлар жорий этилиши зарур.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5847-сон Фармони. (2019).

2. Ибадуллаева Ш.Н. (2023). Педагогик амалиёт жараёнида бўлажак махсус педагогларни касбий фаолиятга тайёрлашнинг механизмларини такомиллаштириш. Муғаллим ҳем узликсиз билимлендируў, 2/1.

3. Ашуров А.А. (2022). Технологик таълимда инновatsion методлар. Таълим ва тараққиёт, №3.

4. Ҳайдаров Д. (2021). Педагогик технологиялар ва интерфаол усуллар. Ўқитувчи нашриёти.

OILADAGI NIZOLI VAZIYATLARDA IJTIMOIY MUHITNING TA'SIRI

Mirzasoliyev J.M.
Jamoat xavfsizligi universiteti tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: oila, nizo, ijtimoiy muhit, sabablar, oqibatlar, yordam, tavsiyalar.
Ключевые слова: семья, конфликт, социальная среда, причины, последствия, помощь, рекомендатsии.
Key words: family, conflict, social environment, causes, consequences, assistance, recommendations.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada oiladagi nizoli vaziyatlarga ijtimoiy muhitning ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot davomida oiladagi nizolarning sabablari va turlari, iqtisodiy, madaniy, demografik va huquqiy omillarning oilaviy munosabatlarga ta'siri aniqlangan. Olingan natijalar asosida oiladagi nizolarni kamaytirish va oilalarga yordam berish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье исследуется влияние социальной среды на конфликтные ситуации в семье. В ходе исследования были выявлены причины и виды конфликтов в семье, а также влияние экономических, культурных, демографических и правовых факторов на семейные отношения. На основе полученных результатов разработаны практические рекомендации по снижению конфликтов в семье и оказанию помощи семьям.
SUMMARY:
This article examines the impact of the social environment on conflict situations in the family. The study identifies the causes and types of conflicts in the family, as well as the influence of economic, cultural, demographic, and legal factors on family relationships. Based on the results obtained, practical recommendations are developed to reduce conflicts in the family and provide assistance to families.

Oilalar jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, uning barqarorligi va farovonligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Oiladagi sog'lom muhit shaxsning kamol topishi, uning jamiyatga moslashuvi va o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun zarur sharoit yaratadi. Biroq, so'nggi yillarda oilalarda nizolar, kelishmovchiliklar va zo'ravonlik holatlari kuzatilmoqda, bu esa nafaqat oila a'zolarining ruhiy va jismoniy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki jamiyatda ijtimoiy keskinlikni oshiradi.

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ajralishlar soni ortib bormoqda, oilaviy zo'ravonlik qurbonlari soni kamaymayapti, bolalarning qarovsiz qolishi va huquqbuzarlik sodir etishi holatlari uchramoqda. Bu kabi muammolarning ildizlari nafaqat oilaning ichki dinamikasida, balki tashqi omillar – ijtimoiy muhitning ta'sirida ham yotadi.

Ijtimoiy muhit – bu shaxsning o'zaro ta'sirda bo'ladigan ijtimoiy sharoitlar, munosabatlar, qadriyatlar va normalar majmuidir. Iqtisodiy beqarorlik, ishsizlik, qashshoqlik, madaniy qadriyatlarning o'zgarishi, axborot xuruji, migratsiya va boshqa ijtimoiy omillar oilaga bevosita ta'sir ko'rsatib, unda nizoli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, oiladagi nizolarni o'rganishda ijtimoiy muhitning rolini inkor etib bo'lmaydi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – oiladagi nizoli vaziyatlarda ijtimoiy muhitning ta'sirini o'rganish, ijtimoiy muhitning qanday omillari oiladagi nizolarni keltirib chiqarishini aniqlash, ularning oqibatlarini baholash va oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:

"Ijtimoiy muhit" va "oila" tushunchalarini aniqlashtirish. Maqolada foydalaniladigan asosiy tushunchalarning mazmunini ochib berish, ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsatish.

Oiladagi nizolarning sabablari va turlarini aniqlash. Oiladagi nizolarni keltirib chiqaruvchi psixologik, iqtisodiy, maishiy, madaniy va boshqa omillarni aniqlash, ularning turlarini (er-xotin o'rtasidagi, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi, aka-ukalar o'rtasidagi) tasniflash.

Ijtimoiy muhitning oiladagi nizolarga ta'sir etuvchi omillari (iqtisodiy, madaniy huquqiy). Ijtimoiy muhitning qaysi omillari oiladagi nizolarning yuzaga kelishi va rivojlanishiga turtki bo'lishini aniqlash.

Olingan natijalar asosida amaliy takliflar ishlab chiqish. Tahlil natijalari asosida oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish, oilaviy nizolarning oldini olish, ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Oila – shaxsning shakllanishi, rivojlanishi va ijtimoiy hayotga moslashuvi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy institut hisoblanadi. Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, o'zaro qo'llab-quvvatlash, tarbiya va boshqa funktsiyalar oilaning barqarorligini ta'minlaydi. Biroq, oila nafaqat ichki omillar, balki tashqi ta'sirlar – ijtimoiy muhitning ta'siri ostida ham rivojlanadi.

Oiladagi ijtimoiy muhit, shaxsning o'zaro ta'sirda bo'ladigan ijtimoiy sharoitlar, munosabatlar, qadriyatlar va normalar majmuidir. U shaxsning xulq-

atvori, fikrlash tarzi, qiziqishlari va hayotiy pozitsiyasiga ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy muhitni turli darajalarga bo‘lish mumkin:

Mikro-muhit – shaxsning bevosita o‘zaro ta’sirda bo‘ladigan eng yaqin muhiti (oila, do‘stlar, sinfdoshlar, hamkasblar). Mikro-muhit shaxsning shaxsiy xususiyatlari, qadriyatlari va munosabatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Mezzo-muhit – mikro-muhit elementlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir (oila va maktab o‘rtasidagi aloqa, do‘stlar va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar). Mezzo-muhit mikro-muhitning shaxsga ta’sirini kuchaytirishi yoki susaytirishi mumkin.

Ekzo-muhit – shaxs bevosita o‘zaro ta’sirda bo‘lmaydigan, lekin uning mikro-muhitiga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy institutlar (ota-onaning ish joyi, mahalliy hokimlik, ommaviy axborot vositalari). Ekzo-muhit oilaning iqtisodiy ahvoli, ta’lim olish imkoniyatlari va madaniy hayotiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Makro-muhit – jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va huquqiy tizimi. Makro-muhit shaxs va oilaning hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan keng ko‘lamli omillarni o‘z ichiga oladi (qonunchilik, davlat siyosati, iqtisodiy inqirozlar, urushlar, epidemiyalar).

Ijtimoiy muhitning oilaga ta’sir etuvchi funktsiyalariga - qo‘llab-quvvatlash, nazorat, ta’lim, ijtimoiy integratsiyalarni kiritish mumkin:

Qo‘llab-quvvatlash funktsiyasi – oilaga iqtisodiy, psixologik, ijtimoiy va boshqa yordam ko‘rsatishda o‘z aksini topadi. Qo‘llab-quvvatlash oilaning qiyinchiliklarni engishiga, stressni kamaytirishga va barqarorligini saqlashga yordam beradi. Qo‘llab-quvvatlashni mikro-muhit (oila a’zolari, do‘stlar), mezzo-muhit (qo‘shnilar, qarindoshlar) va ekzo-muhit (ijtimoiy xizmatlar, nodavlat tashkilotlar) ko‘rsatishi mumkin.

Nazorat funktsiyasi esa – oila a’zolarining xulq-atvorini tartibga solish, ijtimoiy normalar va qoidalarga rioya qilishini ta’minlashda ko‘rinadi. Nazorat oilaning ichki tartibini saqlashga, huquqbuzarliklarning oldini olishga va jamiyatga moslashuviga yordam beradi. Nazoratni oila a’zolari, maktab, mahalliy hokimlik va huquqni muhofaza qilish organlari amalga oshirishi mumkin.

Ta’lim funktsiyasi – oila a’zolariga bilim berish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, madaniy qadriyatlarni o‘rgatish. Ta’lim shaxsning intellektual rivojlanishiga, kasbiy tayyorgarligiga va ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi. Ta’limni oila a’zolari, maktab, OTM va boshqa ta’lim muassasalari berishi mumkin.

Ijtimoiy integratsiya funktsiyasi – oilaning jamiyatga integratsiyalashuvini ta'minlash, ijtimoiy aloqalarni o'rnatish va saqlash, jamoat hayotida ishtirok etishga ko'maklashish. Ijtimoiy integratsiya oilaning ijtimoiy izolyatsiyasining oldini olishga, o'zini jamiyatning bir qismi deb his qilishga va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ega bo'lishga yordam beradi. Ijtimoiy integratsiyani mahalliy hokimlik, nodavlat tashkilotlar, madaniyat markazlari va boshqa ijtimoiy institutlar ta'minlashi mumkin.

Ijtimoiy muhitning ushbu funktsiyalari oilaning barqarorligi va farovonligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy muhitning ijobiy ta'siri oila a'zolarining ruhiy va jismoniy salomatligini yaxshilaydi, ularning shaxsiy kamolotiga ko'maklashadi va jamiyatga foyda keltiradi. Aksincha, ijtimoiy muhitning salbiy ta'siri oilada nizolar, zo'ravonlik, huquqbuzarlik va boshqa muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish, oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish va oilaviy qadriyatlarni targ'ib qilish muhim ahamiyatga ega.

Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ular turli xil omillar ta'sirida o'zgarishi mumkin. Ba'zi hollarda, o'zaro tushunmovchiliklar, kelishmovchiliklar va qarama-qarshiliklar oilada nizolarni keltirib chiqaradi. Nizolar oilaning barqarorligiga, a'zolarining ruhiy va jismoniy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun oiladagi nizolarning sabablarini va turlarini o'rganish, ularning oldini olish va hal etish yo'llarini topish muhim ahamiyatga ega.

Oiladagi nizolarning sabablari juda xilma-xil bo'lishi mumkin, lekin ularni quyidagi asosiy guruhlarga bo'lish mumkin:

Shaxsiy xususiyatlar: Oila a'zolarining xarakteri, temperament, hissiyotlarni boshqarish qobiliyati, stressga chidamliligi kabi shaxsiy xususiyatlar nizolarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, tajang, asabiy, o'zini tuta bilmaydigan yoki o'z manfaatlarini boshqalarnikidan ustun qo'yadigan shaxslar nizoli vaziyatlarni yaratishi ehtimoli yuqori.

Muloqotning buzilishi: Oila a'zolarining o'zaro fikr almashish, his-tuyg'ularini ifoda etish, bir-birini eshitish va tushunish qobiliyatining etishmasligi nizolarga olib kelishi mumkin. Masalan, bir-birini tanqid qilish, ayblash, haqoratlash kabi muloqot uslublari nizolarni kuchaytiradi.

Qadriyatlarning mos kelmasligi: Oila a'zolarining hayotiy qadriyatlari, maqsadlari, e'tiqodlari va dunyoqarashlarining bir-biriga mos kelmasligi nizolarga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, er-xotinning pulga, tarbiyaga, dam olishga bo'lgan qarashlari bir-biridan farq qilishi nizolarni keltirib chiqaradi.

Rolning noaniqligi: Oila a’zolarining oiladagi roli va majburiyatlarining aniq belgilanmaganligi, ularning o‘z vazifalarini bajarishdan bosh tortishi yoki boshqalarning vazifalariga aralashishi nizolarga olib kelishi mumkin. Masalan, uy ishlarini kim bajarishi, bolalarni kim tarbiyalashi kabi masalalarda kelishmovchiliklar yuzaga keltiradi.

Ishsizlik: Oila a’zolaridan birining yoki ikkalasining ishsiz qolishi oilaning moddiy ahvolini yomonlashtiradi, stressni oshiradi va kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Ishsiz qolgan shaxs o‘zini keraksiz his qilishi, o‘ziga ishonchini yo‘qotishi, asabiylashishi va boshqa salbiy his-tuyg‘ularni boshdan kechirishi mumkin.

Qashshoqlik: Oilaning minimal ehtiyojlarini qondira olmaslik, oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqa zarur narsalarning etishmasligi oilada doimiy taranglikni yaratadi va nizolarni keltirib chiqaradi. Qashshoqlik bolalarning ta’lim olishi, sog‘ligini saqlashi va normal rivojlanishi uchun ham to‘siq bo‘ladi.

Moliyaviy qaramlik: Oila a’zolaridan birining moliyaviy jihatdan boshqalarga qaram bo‘lishi, o‘z daromadiga ega bo‘lmasligi nizolarga olib keladi. Masalan, erning xotiniga, ota-onaning bolalariga yoki aksincha moliyaviy qaramligi o‘zaro munosabatlarni murakkablashtirishi mumkin.

Pulni noto‘g‘ri taqsimlash: Oilaning daromadlarini taqsimlashda adolatsizlik, oqilona bo‘lmaslik yoki bir tomonning manfaatlarini ustun qo‘yish nizolarga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, pulni kim boshqarishi, qanday xarajatlarga pul sarflash kerakligi kabi masalalarda kelishmovchiliklar yuzaga keladi.

Uy-ro‘zg‘or ishlarining taqsimlanishi: Uy ishlarining adolatli taqsimlanmaganligi, bir tomonning ko‘p ishlashi, boshqasining esa beparvo bo‘lishi nizolarga olib kelishi mumkin. Masalan, ovqat tayyorlash, uy tozalash, kir yuvish, bolalarga qarash kabi ishlarni kim bajarishi kerakligi haqidagi kelishmovchiliklarda kuzatiladi.

Uy-joy sharoitining noqulayligi: Uyning kichikligi, qulayliklarning yo‘qligi, qo‘shnilar bilan munosabatlarning yomonligi oilada stressni oshiradi va nizolarni keltirib chiqaradi.

Dam olish va ko‘ngil ochishning tashkil etilishi: Oila a’zolarining dam olish va ko‘ngil ochishga bo‘lgan ehtiyojlarining qondirilmasligi, birgalikda vaqt o‘tkazishning etishmasligi nizolarga sabab bo‘ladi. Masalan, dam olish kunlarini qanday o‘tkazish, qayerga borish kerakligi haqida kelishmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Oilada sog‘liq bilan bog‘liq masalalarda, oila a'zolaridan birining surunkali kasalligi, nogironligi yoki ruhiy kasalligi oilada stressni oshiradi va nizolarni keltirib chiqaradi.

Oila a’zolarining qarindoshlari bilan munosabatlarining yomonligi, ularning oilaviy hayotga aralashishi nizolarga olib keladi.

Yuqoriga oiladagi nizolarning kelib chiqish sabablariga to‘xtalib o‘tildi. Endi ushbu nizolarning sababchilarini ko‘rib chiqamiz.

Er va xotin o‘rtasidagi nizolar oiladagi eng ko‘p uchraydigan nizolar turidir. Ularning sabablari yuqorida ko‘rsatilgan omillarning kombinatsiyasi bo‘lishi mumkin. Er-xotin o‘rtasidagi nizolar oilaning barqarorligiga eng katta ta’sir ko‘rsatadi va ajralishgacha olib kelishi mumkin.

Ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi nizolar tarbiya uslublari, qadriyatlar, erkinlik darajasi, do‘stlar bilan munosabatlar va boshqa masalalar bo‘yicha kelishmovchiliklar tufayli yuzaga keladi. Bu turdagi nizolar ayniqsa farzandlarning o‘smirlik davrida kuchayadi.

Oiladagi nizoli vaziyatlarning sababchilaridan yana biri aka-ukalar o‘rtasidagi nizolar hisoblanadi. Aka-ukalar o‘rtasidagi nizolar e’tibor, mulk, raqobat, hasad va boshqa sabablar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Bu turdagi nizolar bolalik davrida ko‘p uchraydi, lekin kattalar hayotida ham davom etishi mumkin.

Oiladagi nizoli vaziyatlarning sababchilari tomonidan qilingan hatti harakatlar natijasida ajralish, zo‘ravonlik va psixologik travmalar kelib chiqadi.

Er-xotin o‘rtasidagi nizolarning eng og‘ir oqibati ajralishdir. Ajralish nafaqat er va xotinning hayotiga, balki bolalarning psixologik holatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Nizolar ba’zi hollarda jismoniy, ruhiy yoki jinsiy zo‘ravonlikka olib kelishi mumkin. Zo‘ravonlik qurbonlari jiddiy psixologik travma olishi, sog‘ligini yo‘qotishi yoki hatto vafot etishi mumkin. Nizolar oila a‘zolarida stress, depressiya, qo‘rquv, xavotir, o‘ziga ishonchsizlik va boshqa psixologik muammolarda namoyon bo‘ladi. , Ayniqsa bolalar, ota-onalari o‘rtasidagi nizolarga juda sezgir bo‘ladi va buning natijasida jiddiy psixologik travma olishlari mumkin.

Nizolar oila a’zolarining ijtimoiy hayotga moslashuviga to‘sqinlik qilishi, ularning o‘qishi, ishi va do‘stlari bilan munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Oiladagi nizolarning oldini olish va ularni hal etish oila a’zolarining baxtli va farovon hayot kechirishlari uchun muhim ahamiyatga ega.

Ushbu omillarning barchasi oiladagi nizolarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin va ularning o‘zaro ta’siri oilaviy munosabatlarni yanada murakkablashtirishi mumkin. Shuning uchun, oiladagi nizolarni o‘rganishda va ularning oldini olish choralarini ko‘rishda ijtimoiy muhitning barcha omillarini hisobga olish zarur.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi oilalarga yordam berish, qiyinchiliklarni engish va nizolarni hal etish uchun mo‘ljallangan tashkilotlar, xizmatlar va dasturlarni o‘z ichiga oladi.

Oilalarga psixologik yordam ko‘rsatish, ularning stresini boshqarish, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish va nizolarni hal etish ko‘nikmalarini oshirish uchun muhimdir. Psixologik yordamni psixologlar, psixoterapevtlar va maslahatchilar ko‘rsatishi mumkin.

Bundan tashqari ijtimoiy xizmatlar oilalarga moddiy yordam, huquqiy maslahatlar, ta’lim olish imkoniyatlari va boshqa zarur xizmatlarni taqdim etadi. Ijtimoiy xizmatlar oilalarning qiyinchiliklarni engishiga, mustaqil hayot kechirishiga va jamiyatga integratsiyalashuviga yordam beradi.

Oilalarni o‘rganish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda statistik tahlil so'rovnomalar, intervyu va kuzatuvlar o‘tkaziladi va bu esa oilalarni mustahkamlashga qaratilgan echimlarni belgilab beradi.

Xulosa qilib aytganda oiladagi nizolarning sabablari psixologik, iqtisodiy, maishiy va boshqa omillarga bog’liq ekanligi aniqlandi.

Ijtimoiy muhid nizolarning turlari sabablari va oqibatlariga ko’ra farqlanadi.

Oiladagi nizolarning oqibatlari ajralish, zo’ravonlik, psixologik travma va ijtimoiy muammolarga olib keladi.

Iqtisodiy, madaniy, demografik va huquqiy omillar, shuningdek, ijtimoiy qo’llab-quvvatlash tizimining holati oiladagi nizolarga sezilarli ta’sir ko’rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida oiladagi nizoli vaziyatlarda ijtimoiy muhitning ta’sirini kamaytirish bo’yicha quyidagi amaliy tavsiyalar keltirib o‘tiladi:

1. Aholining bandligini ta’minlash, qashshoqlikni kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikni oshirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatni olib borish.

2. Oilaviy qonunchilikni takomillashtirish, oila a’zolarining huquq va majburiyatlarini aniq belgilab qo‘yish, nikohni mustahkamlash va ajralishlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rish.

3. Oilalarga psixologik yordam ko‘rsatish markazlarini tashkil etish va ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, oilaviy maslahat xizmatlarini kengaytirish va aholini ulardan foydalanishga rag‘batlantirish.

4. Zo‘ravonlik qurbonlari uchun reabilitatsiya markazlari va boshpanalar tashkil etish, ularga huquqiy, psixologik va tibbiy yordam ko‘rsatish.

5. Ijtimoiy xodimlarning malakasini oshirish, ularning oilalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

6. Oila, nikoh, ota-onalik va bolalikning ahamiyatini targ‘ib qilishga qaratilgan ko‘rsatuvlar, eshittirishlar, maqolalar va boshqa materiallar tayyorlash va efirga uzatish.

7. Oilaviy munosabatlarni yaxshilash, nizolarni hal etish, zo‘ravonlikning oldini olish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish bo‘yicha ma’rifiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

8. Oilaviy qadriyatlarni buzadigan, zo‘ravonlikni targ‘ib qiladigan va axloqsizlikni ommalashtiradigan materiallarni cheklash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2022.
3. Tuba Qilich. Mukammal bo‘lmagan juftlar ham eng baxtli oila qura oladi. – Toshkent: Misbah, 2024.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. To‘xliyev B., Abdullayeva D. Oilashunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
6. Rashidov R. Oilaviy nizolar va ularni bartaraf etish yo‘llari. – Toshkent: Fan, 2015.
7. Андреева Т.В. Семейная психология. – Санкт-Петербург: Речь, 2004.
www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik bazasi.

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING PROFESSIONAL KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Xurramov E.E.
CHDPU “Bolalar sporti” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Tayanch so‘zlar: professional, kompetensiya, innovasiya,modernizasiya, texnologiya, standart kompetensiya, shaxsiy qobiliyatlar.
Ключевые слова: профессионал, компетентность, инноватsiя, модернизатsiя, технология, стандартная компетентность, личные навыки.
Key words: professional, competence, innovation, modernization, technology, standard competence, personal abilities.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning dolzarbligi, muayyan bilim, sohasiga bo‘lgan qiziqish va uning bir qismi ta'lim sifatiga moslashish, ob'ektni o‘zlashtirish kabi qobiliyatlarning muhimligi yoritilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье подчеркивается актуальность формирования профессиональной компетентности будущих учителей, важность таких навыков, как интерес к определенной области знаний, адаптация к качеству образования, владение предметом.
SUMMARY:
This article highlights the relevance of developing professional competence of future teachers, the importance of certain knowledge, interest in the field and, as part of it, the importance of such abilities as adaptation to the quality of education, mastering the object.

Bugungi kunga kelib texnika taraqqiyoti juda tez rivojlanib bormoqda. Har bir soha uchun zamonaviy texnikalar kun sayin yangilanib, mutaxasisdan doimo izlanish talab qilmoqda. Bunday rivojlanish davrida oliy ta'lim muassasalari talabalarini zamon talablariga monand, ish beruvchilar talablariga mos, ishlab chiqarish texnikalarini amaliyotda qo‘llay olidagan va jamoaviy ishlay oladigan kadr qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu masalalarning echimini topish va oliy ta'lim muassasalarda uni amalga oshirish ustida ko‘plab islohatlar amalga oshirilib borilyabdi.

Oliy ta'lim muassasalarida umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘zaro integrasiyasini va kasbga yo‘naltirilgan ta'limni joriy etish bo‘lajak kadrlarni tayyorlashda muxim ahamiyat kasb etadi. Barcha fanlarni o‘qitish tizimli bo‘lishi, bu yagona maqsad – davr talablariga muvofiq kasbiy moslasha oladigan tarmoqli mutaxacsislarni tayyorlashga qaratilgan bo‘lmog‘i lozim. Ta'lim sifatini oshirish – bu bugungi kunda butun jahon hamjamiyatidagi eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Uni hal etish uchun esa, ta'lim mazmunini modernizasiyalash, ta'lim jarayoni texnologiyalarini va so‘zsiz ta'limning yakuniy maqsadini qayta ko‘rib chiqish talab etiladi. Shu kontekstda mutaxacsislarni kasbiy kompetentligini va kasbiy moslasha ola bilishi, o‘zlashtirgan bilimlarini kasbiy faoliyatida qo‘llay olishi va ish beruvchining talablariga moslasha olishini rivjlantirish zarur.

Hozirgi davrda ta'lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovasion faoliyatga yo‘naltirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o‘quv jarayoniga innovasion ta'lim va axborotkommunikasiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish va aniq maqsadga yo‘naltirish oliy ta'lim tizimini modernizasiyalashdagi dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Jamiyatni isloh qilish va uni tashqi dunyo uchun yanada ochiq hamda yangi texnologiya va bilimlarga yo‘naltirilgan jamiyatga aylantirishda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sohasidagi islohotlar jamiyatning rivojlanish istiqbolini belgilaydi. Bugungi kunda mehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish uchun bugungi zamon talabidan kelib chiqqan holda har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Inson kasbiy mahoratining zaruriy qismi kasbiy kompetensiya hisoblanadi. Agar kompetensiya kelajakdagi kasbiy faoliyatni amalga oshirishga yo‘naltirilgan bitiruvchining salohiyatli fazilatini tashkil etadigan mutaxassisni tayyorlashga qo‘yilgan xususiyatlar shaxsning tegishli kompetensiyasini egallash darajasini ko‘rsatadigan xususiyatdir.

Demak, shaxsning professionalligi muayyan kompetensiyalarni quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin: - Shaxs va hayot faoliyati sub'ekti sifatida o‘zi bilan bog‘liq kompetentlar; - Boshqa odamlar bilan aloqa qilish bilan bog‘liq kompetentlar. Kompetensiyani dastlab quyidagi turlarga ajratish mumkin: Birinchi: Standart kompetensiya – doimiy va odatiy vaziyatlarni bajarish qobiliyati (ertalab internet, OAV orqali dunyoda bo‘layotgan yangiliklar, kasbiga oid yangiliklar bilan tanishib borish, qurollanish – g‘oyaviy-siyosiy kompetentlik). Ikkinchi: Asosiy kompetensiya – egallab turgan lavozimiga oid innovasion vazifalarni bajarish qobiliyati (muayyan lavozim doirasida muammolarni individual yondashgan holda hal qilish). Uchinchi: Etakchi kompetensiya – kasb

faoliyatining yangi turlarini yarata olish qobiliyati (kasbi nuqtai nazaridan etuk bilimga ega bo‘lish, muammolarni ko‘ra olish, yangi turlarini yaratishga faollik ko‘rsatish hamda bosh bo‘lish qobiliyati).

Demak, dastlabki kompetensiyalarni egallash uchun quyidagi kompetensiyalarni bilish shart. Ular quyidagilar: 1.Lingvistik kompetensiya (kommunikativ muloqot layoqatiga ega bo‘lish). 2.Sosial kompetensiya (muayyan sosial qatlamlar, madaniyatlarni tushunish layoqati).

3. Pragmatik kompetensiya (muayyan vaziyatlardan ustalik bilan chiqib keta olish qobiliyatiga ega bo‘lish). Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan holatlarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik esa mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularning amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borish, yangi axborotlarni o‘rganish, muhim ijtimoiy talablarni anglay olish, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik murakkab jarayonlar, noaniq vazifalarni bajarish, bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanish, kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda, kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lgan mutaxassislar o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi, yangi axborotlarni o‘zlashtiradi, davr talablarini chuqur anglaydi, yangi bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlab uni o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi.

Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari kasbiy kompetentligini yuqori darajada shakllantirilishi bilan uzviy bog‘liq. Shu sababli, zamonaviy ta'lim texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish negizida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Shunga ko‘ra, integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini oliy ta'lim muassasasidagi faoliyatlarini faollashtirish bugungi kunda talab qilinayotgan

kasbiy kompetentlik darajasini ta'minlaydigan yangicha yondashuvlarni ilmiy asoslash dolzarb vazifa bo‘lib kelmoqda.

Kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi. U mehnat sub'ektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, sub'ektning aniq faoliyatning o‘ziga xos jihatlariga nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo‘llaniladi. Masalan, tadqiqotchi olim E.F.Zeer fikriga ko‘ra, kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish kasbiy kamolotga erishish chog‘ida kompetentlikning turli ko‘rinishlari integrasiyalashib borishini va ularning kasbiy muhim shaxs sifatlari bilan aloqasi kuchayib borishini ko‘rsatadi. Kompetentlikning rivojlanish bosqichlariga ta'sir etuvchi omillar, rivojlanish bosqichlari insonning ongi bilan bog‘liq holdagi shakllarining davrlari alohida-alohida tadqiqot ob'ektlari hisoblanib intergrasion asosda o‘rganishni talab etadi.

Xususan, integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o‘zini-o‘zi anglash, o‘z kuchiga ishonish, o‘zga insonlar tomonidan ko‘rsatilgan kamchiliklarni to‘g‘ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi pedagogik xususiyatlarini kiritadi. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakillantirish quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi: – har qanday muayyan vaziyatda, uning turli xil jihatlarini hisobga olgan holda bilimlarni o‘z o‘rnida va tezkorlik bilan to‘g‘ri qo‘llay bilish; – qarorlarni qabul qila bilishga qodirlik va tayyorlik, shu bilan birga, mazkur vaziyat uchun eng maqbul qaror variantini tanlay olish; – ijtimoiy harakatlarni tashkil etish va buning uchun barcha imkoniyatlarni ishga sola bilish; – faoliyat doirasida boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlarni aniq maqsadlarni ko‘zlagan holda va maqsadga muvofiq, maqbul tarzda o‘rnata olish imkonini beradigan kommunikativ ko‘nikmalar; – muayyan ma'naviy qadriyatlar, dunyoqarash, umummadaniy va axloqiy sifatlarga egalik, faoliyatga intilish hissining mavjudligi; – o‘zining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, faoliyatning yangi usullarini egallashga intilish.

Kasbiy kompetentlik negizida mazkur sifatlar aks etadi. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning maqsadi kasbiy va shaxsiy rivojlanish jarayonida ta'lim oluvchining o‘z-o‘zini anglash, baholash va boshqarish kabi tarkibiy qismlarni rivojlantirish hamda ta'lim muassasalarida ishlashga tayyorlash hisoblansada, shular bilan birgalikda ularning umumkasbiy va ixtisoslik fanlari asoslarini o‘rganish vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak: – pedagogning kasbiy faoliyatida pedagogik, umumkasbiy va ixtisoslikka oid bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishga erishish; – pedagogik va ishlab chiqarish

jarayonlariga xos bo‘lgan muammoli vaziyatlarda masalalarni ajratib olish hamda ularni hal qilish usuli sifatida pedagogik va texnik-texnologik tafakkurni rivojlantirish;

– pedagogning kasbiy faoliyatida individual ta'lim metodini qo‘llay olish, o‘quv-pedagogik va ishlab chiqarish harakatlarining reproduktiv hamda ijodiy usullarini shakllantirish;

– kasbiy faoliyatida muhim kasbiy-pedagogik sifatlarini ya'ni bolalarni sevish va boshqalarni rivojlantirish, kasbiy va shaxsiy o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojini yuzaga keltirish. Kasbiy (shu jumladan, pedagogik) kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda mehnat bozori nafaqat kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar bilan bog‘liq bo‘lgan salohiyatli yuqori talablarni qo‘ymoqda. Shu bilan birga, tez va samarali o‘rganish va qayta ta'limiy tayyorgarlikdan o‘tish, jamoa bo‘lib ishlash, yuqori moslashuvchanlik va stressga chidamlilik, ijodiy salohiyat va fikrlashga ega bo‘lishga imkon beradigan shaxsiy fazilatlari va xususiyatlarining rivojlanishiga ham bog‘liqdir. Shu munosabat bilan oliy ta'limda bir kanchadan buyon ta'lim tizimini yangi bosqichga ko‘tarish uchun ta'lim islohotlari olib borilmoqda.

Bizning fikriga ko‘ra, kompetentlik namoyon bo‘lishida muayyan sohada ma'lum bir harakatni amalga oshirish, jumladan, yuqori ixtisoslashgan bilim, ko‘nikma va malakalar, fikrlash usullari va o‘z harakatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish kabi xususiyatlar talab etiladi: − shaxs kompetentligi kasbiy motivasiya va kognitiv sohaga oid bilimlarning namoyon bo‘lishi bilan tavsiflanadi; − samarali faoliyat – bir nechta omillarning o‘zaro munosabatlariga bog‘liq bo‘lib, muayyan vaziyatda namoyon bo‘ladigan individual qobiliyat yoki qobiliyat darajasiga emas, balki maqsad sari intilish jarayonida turli xil vaziyatlarni qamrab oladigan bir qator mustaqil va qo‘shimcha kompetentliklarga ham bog‘liq bo‘ladi.

Bo‘lajak mutaxasislarning kasbiy kompetentligini shakillantirishda fanlar integrasiyasini amalga oshirish samarali usul bo‘lib, u fan mavzularini o‘zaro boo‘liqligi va fanlar aro bog‘lanishlarni talab etadi. Ta'lim tizimiga tatbiq etilganida, "integrasiya" konsepsiya ikki xil ma'noga ega: birinchi navbatda, talabalar atrofidagi dunyoni yaxlit ko‘rinishini hosil qiladi (bu erda integrasiya ta'limning maqsadi deb hisoblanadi), ikkinchidan, u mavzu bilimlarining yaqinlashishi uchun umumiy platformani topadi (bu erda integrasiya - o‘rganish vositasi). Amalda bilimlarni integrasiyalashuvidan maqsadga yo‘naltirilmaganholda foydalanish ko‘proq darajada amalga oshiriladi. Uzoq muddatli kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, talabalar fanlarni o‘rganishda bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘llashda qiyinchiliklarga duch keladi. Ularning mustaqil fikrlashga ega

emasligi, olingan bilimlarni o‘xshash bo‘lgan masalalarga tatbig‘i yoki boshqa holatlarga o‘tkazish qobiliyati kabilar shakllanmagan bo‘ladi.

Ta'lim faoliyatida umumiy motivasiya asosida talabalar turli mavzularga aniq munosabatda bo‘lishadi. Mavzuning kasbiy ta'limga yo‘nalgan bo‘lishi muayyan bilim sohasiga bo‘lgan qiziqish va uning bir qismi ta'lim sifatiga moslashish, ob'ektni o‘zlashtirish kabi qobiliyatlarning muhimligi bilan belgilanadi. Matematik va tabiiy-ilmiy fanlarini o‘qitish metodlari quyidagilarni ta'milash kerak: kasbiy va amaliy ahamiyatga bog‘liqlikni; matematik va tabiiy-ilmiy fanlarini umumkasbiy va ixtisoslik fanlar bilan birlashtirilishni; matematik dasturlar yordamida talabalarning kognitiv ishlashini; rag‘batlantirishni.

Bo‘lajak mutaxassislar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish maqisadida laboratoriya ishi va kompyuter dasturlarini integrasiya qilish amaliyoti quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradi: nazariy kurs bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash va amaliy tahlil qilish; mashg‘ulotga qiziqishni va mashg‘ulotning motivasiyasini kuchaytirish; axborot taqdim etish imkoniyatlarini kengaytirish (rang, animasiya, musiqa, ovozli nutq); talabalarning xotira, his qilish, fikrlash va hokazolarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, individuallashtirilgan ta'limni yaratish.

Matematik va tabiiy-ilmiy fanlarini umumkasbiy va ixtisoslik fanlar bilan integrasiyasi asosida amalga oshiruvchi o‘qitish shakllarini kombinasiyalash, turli daraja va yo‘nalishlarda integrasiyalashishni qo‘llash bo‘lajak mutaxasislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda aytish mumkinki, ta'lim muassasasida tahsil olayotgan talaba yoshlarning umumiy tahsil jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish muhim ahamiyat ega. O‘z navbatida mazkur jarayonda integrativ yondashuvlarga asoslangan holda, kasbiy va shaxsiy sifatlarga ega bo‘lishi, ixtiyoriy vaziyatlarda o‘zini-o‘zi nazorat qila olish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedova M. T. Pedagogik kompetentlik - T.: -2016. - 84 b.

2. Bayani M.N. Formirovanie kommunikativnoy kompetentnosti budushego uchitelya-bakalavra: Diss. kand. ped. nauk.- Almetevsk, 2006.-38s.

3. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari /. T.2015: «Sano-standart» 4-5-b. O‘quvmetodik qo‘llanma

4. Kolyagin Yu.M. Zadachi v obuchenii matematike. Chast I. Matematicheskie zadachi kak sredstvo obucheniya i razvitiya uchashixsya [tekst] / Yu.M. Kolyagin. -M.: Prosveshenie, 1977. - 110 s.

5. M.A.Innazarov. Malaka oshirish tizimida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini tashxislash texnologiyalarini takomillashtirish (Oliy ta'lim muassasalari misolida). Avtoreferat. ped.fan.fal.dok. – T. 2020. 11-b.

REFLEKSIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING MEDIYA FAOLIYATINI BAHOLASH MASALALAR

Xamidova F.Sh.
CHDPU tadqiqodchisi

Tayanch so‘zlar: refleksiv yondashuv, mediya faoliyati, talaba, mediasavodxonlik, o‘z-o‘zini baholash.
Ключевые слова: рефлексивный подход, медийная активность, студент, медиаграмотность, самооценка.
Key words: reflexive approach, media activity, student, media literacy, self-assessment.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada refleksiv yondashuv asosida talabalarning mediya faoliyatini baholashning nazariy asoslari va metodik usullari tahlil qilindi. Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va axborot makonida ongli ishtirokni ta'minlash uchun refleksiv baholashning ahamiyati asoslab berildi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье проанализированы теоретические основы и методические подходы к оценке медийной активности студентов на основе рефлексивного подхода. Обосновано значение рефлексивной оценки для развития критического мышления студентов и их осознанного участия в информационном пространстве.
SUMMARY:
This article analyzes the theoretical foundations and methodological approaches to assessing students' media activities based on the reflexive approach. The importance of reflexive assessment for developing students' critical thinking and ensuring their conscious participation in the information space is substantiated.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi XXI asr jamiyatining barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Ayniqsa, yosh avlodning raqamli makonda faol ishtirok etishi, ularda mediasavodxonlik va axborot madaniyatini shakllantirish masalasini dolzarb muammolardan biriga aylantirdi. Bugungi talaba – bu global media makonida faoliyat yuritayotgan, turli axborot oqimlari orasida harakatlanayotgan, raqamli kommunikatsiya vositalarining doimiy foydalanuvchisidir. Shu sababli ularning media faoliyatini nafaqat nazorat qilish, balki uni to‘g‘ri yo‘naltirish va reflektiv baholash orqali rivojlantirish masalasi pedagogik va psixologik tadqiqotlarda alohida e’tibor talab qilmoqda.

So‘nggi yillarda mediasavodxonlik nafaqat axborot bilan ishlash madaniyati, balki fuqarolik pozitsiyasi, tanqidiy fikrlash, axloqiy ong va ijtimoiy mas’uliyatning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Bu borada refleksiya vositasi ayni paytda eng samarali va chuqur ta’sir etuvchi yondashuvlardan biri hisoblanadi. Chunki refleksiya yordamida talaba o‘z media faoliyatini ongli ravishda tahlil qiladi, o‘z xatti-harakatlarini baholaydi, xatolar ustida ishlaydi va o‘zining media kompetensiyasini mustahkamlab boradi.

Pedagogik jarayonda refleksiv yondashuvni joriy etish esa o‘qituvchidan faqat bilim berishni emas, balki talabaning ichki fikrlash mexanizmlarini shakllantirishni ham talab qiladi. Bu yondashuv, ayniqsa, axborot tahdidlariga to‘la bo‘lgan zamonaviy mediamakon sharoitida talabalarni himoyalash, ularning axborotga nisbatan tanqidiy va mas’uliyatli yondashuvini shakllantirishda o‘zining ijobiy samarasini ko‘rsatmoqda.

Shunga ko‘ra, ushbu maqolada refleksiv yondashuv asosida talabalarning mediya faoliyatini baholash nazariy asoslari, amaliy usullari va ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarda o‘z-o‘zini tahlil qilish, axborotni qayta ishlash va media mahsulotlar ustida fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘llari yoritiladi.

Refleksiv yondashuv zamonaviy pedagogikada o‘quv jarayonining sifatini oshirishda, shaxsiy rivojlanishni faollashtirishda va ta’lim subyektining o‘z ustida ishlash kompetensiyasini shakllantirishda muhim metodik asos sifatida namoyon bo‘ladi. Refleksiya tushunchasi ilk bor klassik falsafada, xususan, Dekart, Spinoza, Kant falsafasida insonning o‘z fikrlari va harakatlarini anglash, baholash qobiliyati sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, zamonaviy pedagogikada u shaxsiy rivojlanish va o‘z-o‘zini tahlil qilish vositasi sifatida talqin qilinadi.

Refleksiya – bu shaxsning o‘z faoliyati, kechinmalari, qarorlari, bilim va harakatlari ustidan ongli tarzda mulohaza yuritishidir [7]. Bu yondashuv talabalarga o‘z o‘quv faoliyatiga tanqidiy nazar bilan qarash, xatolar ustida ishlash, muvaffaqiyatli strategiyalarni aniqlash va o‘zini o‘zgartirish imkonini beradi.

D. A. Kolbning tajriba asosida o‘rganish modeli refleksiyani o‘qitish jarayonida muhim bosqich sifatida ko‘rsatadi. Uning nazariyasiga ko‘ra, o‘quv faoliyati to‘rt bosqichda kechadi: konkret tajriba, reflektiv kuzatuv, abstrakt kontseptualizatsiya va faol tajribaning qayta qo‘llanishi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, refleksiya – bu tajribani anglash va undan yangi bilimlar chiqarish vositasidir[1].

Yana bir muhim pedagogik nuqtai nazar shuki, refleksiya orqali talaba o‘zini subyekt sifatida anglaydi, ya’ni o‘z o‘quv faoliyatiga mustaqil va mas’uliyatli yondashadi[8]. Refleksiya o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘zini anglash, shaxsiy pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, media muhit bilan ishlashda

bu yondashuv o‘ta dolzarb hisoblanadi, chunki raqamli axborot makonida tanqidiy fikrlash va tahliliy yondashuv talab etiladi.

Refleksiv yondashuv shuningdek, talabalarning axborot madaniyatini rivojlantirishda, mediasavodxonlik kompetensiyalarini shakllantirishda samarali asos bo‘lib xizmat qiladi. Ular media mahsulotlar ustida fikr yuritish, turli axborot manbalarini solishtirish va baholash, media axloq me’yorlariga rioya qilish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar [3,4]

Shu bilan birga, refleksiv yondashuv nafaqat individual o‘zgarishlarni, balki ijtimoiy moslashuv, kasbiy shakllanish va shaxsiy pozitsiyaning barqaror rivojlanishini ham ta’minlaydi. Refleksiya vositasida talaba o‘zining axborot makonidagi o‘rnini belgilaydi, axborotga ongli va mas’uliyatli yondashishni o‘zlashtiradi, bu esa ijtimoiy etuklik va fuqarolik faoliyatining muhim mezoni sifatida qaraladi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarning mediya faoliyati faqat axborot iste'molchiligi bilan cheklanib qolmaydi, balki ularning axborot yaratish, tahlil qilish va baholashdagi faolligi bilan ham ifodalanadi. Shu boisdan, talabalarning mediya faoliyatini baholashda an’anaviy usullar etarli emas; buning uchun refleksiv yondashuvdan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Refleksiv yondashuv mediya faoliyatini baholashda quyidagi asosiy imkoniyatlarni yaratadi:

Talabaning o‘z media faoliyatini ongli ravishda kuzatishi va tahlil qilishi;

Axborot manbalarini tanlash va ularga baho berishda tanqidiy yondashuvni shakllantirishi;

Axborot axloqi va media mas'uliyatini rivojlantirishi;

O‘z media mahsulotlarining ijtimoiy oqibatlari haqida fikr yuritish ko‘nikmalarini mustahkamlashi.

A.N. Leontyev ta’kidlaganidek, refleksiya shaxsning ongli faoliyatini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan asosiy vositalardan biridir. Shu ma'noda, media faoliyat refleksiyasiga ega bo‘lgan talaba o‘zining axborot bilan ishlashdagi pozitsiyasini mustaqil ravishda shakllantiradi va uni doimiy ravishda takomillashtirib boradi[6].

D.A. Kolb tomonidan ishlab chiqilgan tajriba asosida o‘rganish modeli, talabalarning mediya faoliyatini baholashda samarali mexanizm bo‘lib xizmat qiladi. Bu modelga ko‘ra, har qanday tajriba refleksiv tahlil orqali anglanadi va takomillashtiriladi. Talabalar mediamakon bilan ishlash tajribasini refleksiv tarzda tahlil qilganda, ular kelgusidagi faoliyatda ongli qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar[5].

Bundan tashqari, mediasavodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ham shuni ko‘rsatadiki, o‘z-o‘zini baholash va refleksiya qobiliyatiga

ega bo‘lgan talaba nafaqat axborotni passiv qabul qiladi, balki uni faol va mas’uliyatli ravishda qayta ishlaydi.

Refleksiv baholash jarayonida quyidagi amaliy yondashuvlar tavsiya etiladi:

Media kundaliklarini yuritish (har bir media faoliyat tajribasini yozib borish);

Mediya mahsulotlar tahlili uchun reflektiv savolnomalar tuzish;

O‘z yaratgan kontentga nisbatan tahliliy sharhlar yozish;

Axborot tanqidi va tahlilida “oqibatlarni baholash” metodikasini qo‘llash[3,4].

Refleksiv yondashuv talabalarning nafaqat axborot oqimiga nisbatan ongli munosabatini shakllantiradi, balki ularning media makondagi mustaqil va mas'uliyatli shaxs sifatida rivojlanishini ta’minlaydi. Bu esa zamonaviy jamiyat ehtiyojlari va axborot xavfsizligi talablariga to‘liq mos keladi.

Refleksiv yondashuv asosida talabalar mediya faoliyatini baholash quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

Refleksiv kundaliklar: talabalar har bir media faoliyatidan so‘ng o‘z tajribalarini yozma tarzda aks ettiradi.

O‘z-o‘zini baholash so‘rovnomalari: ma'lum ko‘rsatkichlar (axborot tanlash, tahlil qilish, axloqiy mezonlarga rioya qilish) bo‘yicha o‘zini baholash.

Peer review (o‘zaro baholash): talabalar o‘z sheriklarining mediya mahsulotlarini tahlil qiladi va mulohaza bildiradi.

Portfel usuli: talabalar o‘z media faoliyatlarini to‘plab, rivojlanish dinamikasini namoyish qiladi.

Bu usullar talabalarda tanqidiy fikrlash, o‘z faoliyatiga ob'yektiv baho berish, shuningdek, o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantiradi.

Refleksiv yondashuv talabalarning mediya faoliyatini baholashda nafaqat bilim va ko‘nikmalarni aniqlash, balki ularni o‘zgarish va rivojlanishga tayyor qilish imkonini beradi. Shunday ekan, ta’lim muassasalarida talabalarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishda refleksiyani o‘quv jarayoniga tizimli tarzda integratsiya qilish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Колб Д. Цикл обучения через опыт. - Москва: Смысл, 2018. - 256 с.

2. Dewey J. How We Think. - Lexington: D.C. Heath & Co., 1910. - 375 p.

3. Buckingham D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. - Cambridge: Polity Press, 2003. - 230 p.

4. Воскресенская Н.Е. Развитие рефлексивных умений студентов в образовательном процессе. - М.: Педагогика, 2016. - 192 с.

5. Колб Д. Обучение через опыт: опыт как источник обучения и развития. - М.: Смысл, 2018. - 256 с.

6. Leontyev A.N. Деятельность. Сознание. Личность. - М.: Смылсл, 2005. - 328 с.

7. Dyachenko V.K., Kandybovich L.A. Психология и педагогика рефлексивной деятельности. - Минск: Вышэйшая школа, 2003. - 272 с.

GEOGRAFIYA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH O'RNI VA AHAMIYATI

Shadiyeva N.Sh.
Buxoro davlat pedagogika instituti
"Geografiya" kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Tayancn so'zlar: munozara, trening, ishbilarmonlik o'yini, aql, fikrlash, o'z-o'zini hurmat qilish, bola rivojlanishi.
Ключевые слова: обсуждение, тренинг, деловая игра, интеллект, мышления, самооценка, развитие ребенка.
Key words: discussion, training, business game, intelligence, thinking, self-esteem, child development.

РЕЗЮМЕ:
Mamlakatimizda kechayotgan zamonaviy globallashuv jarayonlarida malakali kadrlar tayyorlash, demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslari konsepsiyasini hayotga tatbiq etish, ijodiy tafakkur, innovatsion fan va texnologiyalarni, innovatsion ta'lim yo'nalishlari asosida xalqaro pedagogik tajribani o'zlashtirish zarurati tug'ilmoqda. Ta'lim va tarbiya uzluksizligini ta'minlash doimo e'tiborda bo'lib kelgan masalalardan biridir. Buning uchun ta'lim jarayonida bolalarning nutqi, muloqot qobiliyatlari, hissiy, aqliy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish kerak, jumladan: toza joy, toza havo va yetarli darajada normal haroratli xona, yoritish, xavfsizlik choralari, sport, dam olish maydonchalari mos ravishda jihozlangan bo'lishi kerak.
РЕЗЮМЕ:
В современных процессах глобализации в нашей стране возникает необходимость подготовки квалифицированных кадров, углубления демократических преобразований и реализации концепции основ гражданского общества, творческого мышления, овладения инновационными науками и технологиями, международного педагогического опыта на основе инновационных образовательных тенденций. Обеспечение преемственности образования и воспитания является одним из вопросов, который всегда находился в центре внимания. Для этого необходимо создать благоприятные условия для развития речи детей, коммуникативных навыков, эмоционального, умственного, физического и социального развития в образовательном процессе в том числе: чистое пространство, свежий воздух, помещение с нормальной температурой и достаточным освещением, технику безопасности, занятия спортом, отдыха, детские площадки оборудованы соответствующим образом.
SUMMARY:
In the process of modern globalization in our country, there is a need to train qualified personnel, deepen democratic transformations and implement the concept of the foundations of civil society,

mastering international thinking based on creative thinking, innovative sciences and technologies, and innovative education. Ensuring the continuity of education and upbringing is one of the issues that has always been in the spotlight. To do this, it is necessary to create favorable conditions for the development of children's speech, communication skills, emotional, mental, physical and social development in the educational process, including: clean space, fresh air, a room with a normal temperature and sufficient lighting, safety precautions, sports, recreation playgrounds are equipped accordingly.

Kirish. Dunyoda fan va texnika rivojlanayotgan mamlakatlarda zamonaviy ijtimoiy o‘quv jarayonini virtual loyihalash muhitga daxldor global ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg‘unlashtirish; o‘quv jarayoniga Milliy kvalifikatsiya tizimini to‘laqonli joriy etish; tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o‘rin egallashlari uchun ta’lim mazmunini innovatsion loyihalash; innovatsion kasbiy kompetensiyalarini tarkibiy qismlarga ajratish; ta’limning yangi metodik modellarini yaratish va ularni muayyan ta’lim amaliyotida qo‘llash talab etilmoqda [1]. Taraqqiyot bosqichlarining dolzarb masalalari ta’limning ustuvor yo‘nalish sifatida bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda , innovatsion modellarini ishlab chiqish, bo‘lajak kadrlarning raqobatbardoshligini oshirish, dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda.

Dunyoda bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida mutaxassislarni tayyorlashda ta’lim berish jarayonini yuksak darajaga olib chiqish bo‘yicha xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ular bilan hamkorlik tadqiqotlarni olib borish, amaliyotga qo‘llash talab etilmoqda.

2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida “butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilandi[5]. Ushbu konsepsiya ta’lim tizimida pedagoglar, jumladan, bo‘lajak o‘qituvchilarni , kompetensiyaviy yondashuv asosida metodik tayyorgarlik darajasi hamda ijodiy taffakkurini rivojlantiradigan, jahon andozalariga mos keladigan innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy vositalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish bugungi kun uchgun ustuvorlik kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda bugungi globallashuv jarayonida oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan “Geografiya” ta’lim yo‘nalishi talabalarining innovatsion ta’limga tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish, raqamli texnologiyalar va dasturiy ta’lim ilovalaridan foydalanib ta’lim berish, shu yo‘nalishga tegishli metodikalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 9 oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston

Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” to‘g‘risida Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” [2], 2021-yil 1-apreldagi PQ-5047-son “Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 30-iyundagi “Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5099-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3151-son Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 824-son [3] qarorihamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi mustahkam poydevor qurishdan iborat bo‘lib, ushbu poydevor sog‘lom, har sohada rivojlangan barkamol mutaxassis kadrlarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Mazkur huquqiy me’yoriy hujjatlar doirasi alohida e’tiborga muhtoj bolalar ta’lim-tarbiyasini ham qamrab olgan. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunda “har bir bolaning ta’lim olishdagi teng huquqli” ligini ta’minlash, har qanday diskriminatsiya va kamsitishlarning oldini olishga qaratilgan “inklyuziv ta’lim” tushunchasi ham kiritildi. Shuningdek, mazkur qonunning 55-moddasida “rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchiliklarga ega bo‘lgan bolalar ta’lim olish huquqiga egadirlar”- deyiladi [5]. Demak, qonunga ko‘ra uzluksiz ta’lim tizimida barcha yengil darajadagi alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan yoshlarning ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta’minlashga hizmat qiladi.

Hozirgi zamon globallashuv jarayonida yetuk mutaxassis-kadrlarni tayyorlash zarurati, demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslari konsepsiyasini amalga oshirishda, kreativ fikrlovchi, innovatsion texnologiya hamda dasturiy ta’lim vositalarni mukammal egallagan, mutaxassis kadrlarning innovatsion ta’lim tendensiyalari asosidagi xalqaro pedagogik tajribaga ko‘ra, “Geografiya” ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy faoliyatga oid kreativligini rivojlantirishda birqancha dasturlar asosida ishlab chiqilgan dasturiy ta’lim vositalarining yangi avlodlarini takomillashtirish orqali majburiy

va tanlov fanlarini virtual reallik qonuniyatlari asosida talabalarni innovatsion kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida dasturiy ta'lim vositalarini samarali qo'llash orqali ularning imkoniyatlari to'liq ochib berilmaganligi, kompyuter dasturlaridan foydalanish metodikasi asosida o'qitishni mazmunan takomillashtirish jarayonini keng joriy etish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi [6].

Respublikamiz olimlaridan B.M.Abduraxmonovning ilmiy ishlarida, umumiy o'rta talim maktablari o'quvchilarining geografik madaniyatini shakllantirish jarayonining tasviriy-didaktik jihatlari ta'lim vositalari tasniflanishida ta'lim muhiti va ular orasidagi uzluksizlik va uzviylikni hisobga olish asosida metodik jarayonni amalga oshirish tizimi va modeli ta'lim vositalaridan foydalanish va model komponentlarining uzviy bog'liqligi asosida ishlab chiqilib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarining baholash darajalarini refleksiv tahlil qilish va tahliliy faoliyat natijalari orqali xaritagrafik savodxonlikning kafolatlangan samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan bo'lib, o'quvchilarning geografik madaniyatining shakllanishini ta'minlovchi ta'lim vositalari majmuasidan foydalanishning didaktik, ergonomik metodik talablari elektron darslik, interfaol xaritagrafik qo'llanmalar asosida takomillashtirilgan [6].

D.N.Abdullayevaning dissertatsiya ishida "Geografiya" fani o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayonida elektron ta'lim vositalaridan foydalanish asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish va o'qituvchilarning axborot kompetentlik ko'rsatkichlarini rivojlantirish mazmuni (metodik-tashkiliy, texnologik jarayonli, kreativ) raqamli texnologiyalar vositasida ta'limni axborotlashtirish talablari hamda didaktik maqsadlarini (motivatsion-qadriyatli, kognitiv-faoliyatli, shaxsiy-refleksiv) integratsiyalash asosida o'qitish metodikasi aniqlashtirgan.

Tadqiqot metodologiyasi. "Xorijiy oliy ta'lim muassasalarida sifat va raqobatbardoshlikni ta'minlash yo'llari" mavzusidagi dissertatsiya tadqiqotida xorijiy oliy ta'lim muassasalarida sifat va raqobatbardoshlikni ta'minlash omillari xalqaro tajribada keng tarqalgan «bilimlarning kommersiyalanishuvi» va «transnatsional ta'lim» faoliyat mazmuni asosida aniqlashtirilib, oliy ta'limda sifat va raqobatbardoshlikni ta'minlashning pedagogik mexanizmlari diagnostik (Diagnostic), metrik (Metric), ichki (Internal), tashqi (external), raqobat (competitive) benchmarking usullariga ustuvorlik berish asosida oliy ta'lim sifatini belgilovchi komponentlar o'zaro moslik va o'xshashlikni me'yoriy tavsiflashga yo'naltirilgan tyuning metodini kompetensiyalarga asoslangan ta'lim berish bilan maqbul uyg'unlashtirish asosida oliy ta'lim muassasalarida sifat va raqobatbardoshlikni ta'minlashning akademik va institutsional strategik jihatdan rejalashtirish mexanizmi oliy ta'limning xalqarolashuvi jarayoni xorijiy talabalar sonining oshirilishi, professor-o'qituvchilar almashinuvining ko'payishi, xalqaro

ta’limni tashkil etish orqali budjetdan tashqari mablag‘larning oshirilishi kabi ko‘rsatkichlarga tayangan holda takomillashtirilgan [6].

Bo‘lajak “Geografiya” fani o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik kompetensiyalar mazmuni Kasbiy-faoliyat yoki amaliy tarkibiy qism, shaxs tomonidan eng samarali sifatida o‘zlashtiriladigan, amalda sinab ko‘rilgan kasbiy bilim va ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Kasbiy-shaxsiy tarkibiy qism o‘qituvchining shaxs, shaxs va faoliyat sub’ekti sifatida pozitsiyasini va yo‘nalishini belgilaydigan kasbiy-shaxsiy fazilatlarni o‘z ichiga olib, quyida bo‘lajak “Geografiya” fani o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik kompetensiyalar mazmuni jadval ko‘rinishida izohlangan (1-jadvalga qarang).

Bo‘lajak “Geografiya” fani o‘qituvchilarni kasbiy-ijodiy faoliyat ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarning yetarli darajada o‘zlashtirilishini talab etadi [6].

Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan kreativ faoliyat va kreativ mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilanadi. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi taqozo etiladi. Bo‘lajak “Geografiya” fani o‘qituvchisining kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi, uning shaxsiy sifatlari, tabiiy va ijtimoiy sifatlarini samarali tashkil etishga yo‘naltiradi [8].

1-jadval

Bo‘lajak Geografiya fani o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik kompetensiyalar mazmuni

№	Bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik kompetensiyalari	
1	**Kreativ kompetensiya**	talabalarning bo‘lajak kasbiy pedagogik faoliyatlarida olib boradigan amaliy jarayonlardagi hatti-harakatlariga tanqidiy, ijodiy yondashish, tikuvchilikka oid dars mashg‘ulotlarida o‘zining ko‘nikma va malakalariga ega ekanligini namoyon eta olishi
2	**Intelektual kompetensiya**	talabalar o‘quv faoliyati jarayonida analitik fikrlash, intelektual g‘oyalarga ega bo‘lib, o‘zlashtirgan bilimlarini amaliy tajribada sinab ko‘rish, qayta ishlash, izlanuvchanlik, ijodkorlik qobiliyatlariga tayangan holda intellektual salohiyatini rivojlantirishi va muammolarni hal qila olishidir
3	**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi**	talabalarning umumkasbiy va ixixtisoslik fanlalariga oid geografiya bo‘yicha loyihalash va modellashtirish mashg‘ulotlarida o‘zlashtirishi va tushunishi murakkab bo‘lgan jarayonlarni dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanib, didaktik topshiriqlarni bajarish, axborot manbalaridan (televizor, radio, audio-video yozuv, telefon)dan foydalana olishdagi media-kompetentligini rivojlantirish

4	**Kommunikativ kompetensiya**	ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish
5	**Ijtimoiy kompetensiya**	ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish
6	**Psixologik kompetensiya**	pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish

Odatda pedagoglarning kreativlik sifatlarga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki amaliy loyihalarni bajarish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi. Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning kreativ sifatlari ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u astasekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak “Geografiya” fani o‘qituvchilarining kreativlik sifatlariga ega bo‘lishlari uchun innovatsion kasbiy faoliyatni tashkil etishda muntazam rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘z-o‘zini kreativ faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta’lim tizimi talabalarini o‘qish faoliyatida bo‘lgan kreativlik sifatlariga ega bo‘lishlari uchun o‘quv va tarbiya jarayonlarida an’anaviy yondashishdan farqli yangi g‘oyalar haqida fikr yuritishi, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik talab etiladi quyida bo‘lajak “Geografiya” fani o‘qituvchilarning kreativ sifatlarni rivojlantirish usullari (1-rasmga qarang).



1-rasm. Bo‘lajak Geografiya fani o‘qituvchilarning kreativ sifatlarni rivojlantirish usullari

Yuqoridagi izlanishlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak “Geografiya” fani o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash bo‘yicha ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Ularning innovatsion faoliyat olib borish sifatlarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarni samarali ta’lim jarayonida qo‘llashning ilmiy-pedagogik asoslari, ahamiyati va imkoniyatlari to‘liq ochib berilmaganligi bo‘lajak “Geografiya” fani o‘qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini tadqiq etishni taqozo etadi.

“Geografiya” ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi ixtisoslik fanlari nuqtayi nazaridan olib qaralsa, ushbu fan tabiiy hamda iqtisodiy yo‘nalishda ya’ni olib borilib, talabalar olgan nazariy bilimlariga tayangan holda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Ta’limda o‘qitish samaradorligini oshirish masalalari ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda yo‘lga qo‘yish va yangi dasturiy ta’lim vositalarini amalda qo‘llash bilan uzviy ravishda bog‘liq. Ta’lim muassasalarida innovatsion faoliyatni tashkil etish, ta’lim-tarbiya jarayonlariga yangilik kiritish va yangicha yondashuvlarni joriy etishdan asosiy maqsad o‘qituvchilar va talabalar jamoasi hamkorligi izchilligini ta’minlash hamda uni aniq reja asosida va maqsadga yo‘naltirilgan holda yo‘lga qo‘yishdan iboratdir. Bu ishda pedagogik-psixologik va tashkiliy masalalarning yechimi talab etiladi. Shuni qayd etish lozimki, pedagogik ishtirokchilarda innovatsion kasbiy faoliyatning yuzaga kelishi, namoyon bo‘lishi va ularni boshqarish jarayoni qonuniyatlari haqida metodologik, psixologik, pedagogik, bilimlarni puxta egallashlari lozim.

Xulosa va tahlillar. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion kasbiy faoliyatga ega bo‘lgan talabalarda quyidagilar namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak pedagoglarning xayoliga kelmagan g‘oyalarni bildiradi, o‘zlarini ifoda etishning o‘ziga xos uslubini tanlaydi, ba’zan mavzuga aloqasi yo‘q yoki g‘ayri oddiy savollar beradi, yechimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi, g‘oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko‘radi, muammoning yechimini topishda noan’anaviy yondashuvni tanlaydi.

1.5140600 – Geografiya ta’lim yo‘nalishi talabalarini o‘qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid jarayonini takomillashtirish muammosi, uzluksiz ta’lim tizimida yuqori malakali mutaxassis kadrlarni yetishtirish o‘ziga xos muhim ahamiyat kasb o‘rganildi. Ushbu muammoning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish, ularning nazariy va amaliy jihatdan asoslanishi, shuningdek kasbiy tayyorgarligidagi kreativligini takomillashtirishda innovatsion yondoshuvlar asosida, dasturiy ta’lim vositalarining ishlab chiqilishi, yuqorida izohlanayotgan jarayonning samarali tashkil etilishiga imkon berdi.

2. Geografiya ta’lim yo‘nalishi talabalarini o‘qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid kasbiy faoliyat turlari: tashkiliy, kommunikativ, informatsion, rivojlantiruvchi, mobilizatsion, nazorat, texnik va boshqalardan iborat ekanligi, pedagog mutaxassis faoliyatlaridagi amaliy jarayonlarni bajarishlariga qarab ularning vazifalari (umumiy) o‘qituvchi faoliyati tuzilmasi va (xususiy) faoliyat turlaridan iborat ekanligi aniqlandi.

3. Talabalarni innovatsion kasbiy faoliyatgatayyorlash jarayonini rivojlantirishning asosi sifatida kompyuter vositasida amalga oshiriladigan dasturlashtirilgan ta’lim metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi nazariy jihatdan asoslandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmani

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Qarori

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyun PF-82-son “Alohida sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlanish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son Farmoni.

6. Shadiyeva N.Sh. Talabalarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish (geografiya ta’lim yo‘nalishi misolida). Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. Samarqand: 2024-yil.125 b.

7. Shadiyeva N.Sh. Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida virtual ta’lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish. // Ilm-fan texnologoyalar. Buxoro sh. 2023-yil № 3 (1) son. 52-57 b.

8. Shadiyeva N.Sh. Dasturiy ta’lim vositalardan foydalanish asoida bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarining kreativligini rivojlantirishning ilmiy-metodik ahamiyati // “Pedagogik akmeologiya”. Ilmiy-nazariy, metodik jurnali. Buxoro sh. №4 (6). 2023 y.-B.

ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК НАСРИДА ТУШ МОТИВИНИНГ ИФОДАЛАНИШИ (ХУРШИД ДЎСТМУҲАММАД ҚИССАЛАРИ МИСОЛИДА)

Рахмонова Х.
ТошДЎТАУ катта ўқитувчиси,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Таянч сўзлар: эпик тур, туш мотиви, қаҳрамон руҳияти, рамзлар моҳияти, психологик контраст, психологик унсурлар.
Ключевые слова: эпический тип, мотив сна, психика героя, сущность символов, психологический контраст, психологические элементы.
Key words: epic genre, dream motif, heroic psyche, essence of symbols, psychological contrast, psychological elements.

РЕЗЮМЕ:
Мақолада насрий асарларда туш мотивининг бадиий вазифаси, унинг қаҳрамон психологияси, кечинмаларини ифодалашга хизмат қилиши ҳақида таҳлиллар мавжуд. Адиб Хуршид Дўстмуҳаммад қиссаларидаги туш ва ундаги рамзларнинг моҳиятини тадқиқ қилинди.
РЕЗЮМЕ:
В статье анализируется художественная функция мотива сна в прозаических произведениях, его использование для выражения психологии и переживаний героя. Изучена сущность сновидений и символы в рассказах писателя Хуршида Достмухаммада.
SUMMARY:
The article contains an analysis of the artistic function of the dream motif in prose works, its use to express the psychology of the hero, and his experiences. The essence of dreams and symbols in the stories of the writer Khurshid Dostmuhammad was studied.

Кириш. Эпик турдаги асарларда, хусусан, достон, қисса, романларда туш мотиви ўзига хос бадиий функция бажаради. Туш мотиви орқали келажакда рўй берадиган воқеа-ҳодисаларга ишора қилинса, баъзида қаҳрамон руҳий ҳолатларини ифодалашга хизмат қилган. Туш кўриш тасвири характерлар руҳиятини чуқур ва нозик ёритишда, воқеалар силсиласини жонлантиришда асосий вазифани бажаради.

Ғарб психологлари: Фрейд, Юнг, Фром ва бошқалар тушни инсон руҳиятини ўрганиш ва баҳо бериш учун энг муҳим воситалар сифатида баҳолаганлар. З.Фрейд тушни инсон руҳиятининг кўз билан кўриб, эшитиб бўл-

майдиган томонини акс эттирувчи кўзгу сифатида шарҳлаган. Фрейднинг фикрига кўра туш миянинг алоҳида функциясики, унда барча нарса рамз, ниқоб билан келади. Одам ўзи англамаган истак, хоҳиш, қўрқув, майл, умид, орзу, завқ, ҳайрат, ваҳм мияда ўрнашиб қолади. Тушда рамз сифатида вужудга келади.

Адабиётлар таҳлили. Ўзбек адабиётида ҳам туш қаҳрамонлар ички дунёсини, уларнинг кечинмаларини ифодалаш мақсадида ишлатилади. "Тушнинг бу хил шаклини, қаҳрамоннинг психик ҳолатларини очиб берувчи восита эканлигини ўзбек романчилигининг тўнғич асари – "Ўткан кунлар"да яққол кўриш мумкин. Асарда биргина туш тасвири бўлиб, у ҳам Отабекка тегишлидир", – дейди адабиётшунос олим Ҳ.Умуров ва Отабекнинг тушини у бошидан кечирган кечинмалар билан бирга изоҳлайди. Шунингдек, қаҳрамоннинг келажаги қоронғулик, зулматда эканлигини псхологик асослайди.

Ш.Исаева эса номзодлик диссертациясида "Улуғбек хазинаси" асари асосида Мирзо Улуғбек ва Абдулатиф характерларининг руҳиятини улар кўрган тушлари асосида кенг таҳлил қилади. "Романда бир неча ўринда туш мотиви қўлланилган ва улар орқали ўқувчига ёвузлик, зиён-заҳмат, душман таҳдиди каби воқеа-ҳодисалар ҳақида олдиндан башорат қилади, яъни туш – қисмат даракчиси вазифасини ўтайди", – дейди олима.

Муҳокама ва натижалар. Худди шунингдек, жаҳон ва ўзбек адабиёти дурдоналаридан хабардор Хуршид Дўстмуҳаммад ҳам устозлар изидан бориб, ўз асарларида қаҳрамонлар руҳияти очиб беришда туш мотивидан фойдаланади. Адибнинг "Нигоҳ" қиссасида Бек исмли йигит тушида бу дунёдан ўтиб кетган ота-онасини ўзидан норози ҳолда кўради. Шундан сўнг йигит ўз ҳатти-ҳаракатларини ўйлаб кўришга, қилаётган ишлари қанчалик тўғри ёки нотўғри эканлигини тафтиш қилишга уринади. Бек ҳаётида олдиндан рўй берадиган нохуш ҳодисаларга ишора берилгандир, эҳтимол. Муаллифнинг "Ҳижроним мингдир менинг" қиссасида эса туш мотиви анъанавийликни ёриб ўтиб, янгича услубда ифодаланган. Унда воқеликдан кўра тасвирийлик олдинги планга чиққан. "...ёп-ёруғ хона тўсатдан қорамтир тус олади, кўз олдингдан туман, туман эмас – қуюқ булут солланиб ўтади, ўтиб бораётган булут бошинг узра тўхтайди – устингдан кулаётганга, сени мазах қилаётганга ўхшайди. Қўлларингни алмойи-алжойи ҳаракатлантириб булутни тарқатиб юборгинг, эркин нафас олгинг келади, бироқ, аксинча, қандайдир юмшоқми... қаттиқми нарса муштдек бўлиб кўксинг ичига кириб олгандек... товушинг борича бақириб юборгинг келади. "Дод!" десанг, хонанинг бир томони энлаган кенг, ёруғ дераза чил-чил синиб, жарангги қулоғингни қоматга келтирса, майли ойна синиқлари тарновдан шовуллаб тушаётган ёмғир сувидек бошингдан қўйилса... бетинг, манглайинг, лабларинг қонга

беланса ва шиша ёмғири орасидан шундайин соғинч тегирмонига солиб азоблаётган Суврат кўринса...

Олам сукунат оғушига чўмади, сукунат ютиб юборай дейди. Сени ютиб юборишга ҳозиру нозир сукунат навосини тинглаб ором олгинг келади". Манзарадаги контраст ҳолат, яъни ёруғлик ва қоронғулик, босинқираш йигит қалбидаги руҳиятнинг товланишларига ишора. Тушдаги деталлар маълум маънода рамзийликка ишора қилган. Ёп-ёруғ хона – ошиқнинг тинч-осойишта ҳаёти, қорамтир қуюқ булут – ошиқ қалбидаги изтироб, суврат – нажот, яъни бу ўринда суврат маъшуқанинг сурати маъносида қўлланилган. Сукунат навоси – маъшуқа билан хаёлан суҳбат қилиш. Туш давом этади. Ошиқ йигит ва маъшуқа суҳбат қуради. Баъзида туш ўнгга, рўёга айлангандек, ўнг эса тушга эврилгандек таассурот уйғотади. "... хонтахта ёнида ёнбошлаганча ухлаб қолипман. Ярим кеча уйқум ўчди. Совқотибман. Кўзимни базўр очдим. Не кўз билан кўрайки, ёнимда чўк тушиб, тепамда менга қараб ўтирипсиз. "Туринг, бундай ётманг" дедингиз. Сўзингизни икки қилмай, ирғиб қад ростламоқчи эдим, кўнгилга оралаган хаёлдан юрагим орқага тортди. "Кетиб қолса-чи?"

Кўзимни очсам кетиб қоласиз, деган хаёлда қимир этмай ётавердим. Сизни тепамда кўриб шу қадар ором топдимки!..

"Туринг", дедингиз, "Кетиб қоласиз-да", дедим ичимда. Яна уйқу элитди...

Алламаҳал чўчиб уйғондим, тепамда менга термулиб ўтирганингизга қарамай, уйқуга кетганим учун ўзимдан норозиланиб сапчиб турдим. Йўқсиз... Шошиб ҳовлига чиқдим. Ҳовли саҳнига, бурчак-бурчакларига кўз югуртирдим – топмадим. Аламдан ичим ўртанди. Шошиб, зинадан пастладим. Шунда, қийғос гуллаган гилос шохларидан-да баландроқда деворга ёйилгандек осиғлиқ оппоқ матони кўрдим. Мисоли оқ, нурли дастурхон... Кўзимни узолмадим. Сутдек оқ мато – дастурхон сатҳида ундан-да оқроқ, ундан-да нурлироқ Сизнинг суратингиз пайдо бўлди.

Мўъжиза эди, бу!...

Маъюс, мунис, дилбар чеҳра... Турган жойимда нафас ололмадим, оёғимнинг учида чўзилдим. Вазним енгил тортди, сиз томон кўтарила бошладим... би-ир қучоқ оппоқ нур сузиб келди, келди ва мени осуда оғушига олди...". Туш ва тимсоллар ҳақида фикр билдирган адабиётшунос олим Ж.Эшонқул: "Тушда вақт ва макон чегараси йўқ. (шу туфайли ҳам адабиётда вақт ва макон чегарасини синдиришни истаган модернистлар туш ва тушдаги каби вақт ва макон чегараси йўқ рамзларга мурожаат қилишган) Ана шулар туфайли тушга таъбир изланади. Тушни текшириш ва унинг таъбир, рамз калитини топиш қаҳрамон руҳий ҳолатини ҳақида яққолроқ

тасаввур беради”, – деб ёзади. Юқоридаги туш тасвирида ҳам макон ва замон чегараси бузилган. Қаҳрамон тушларида ҳам ўнгидаги каби маъшуқага бўлган чексиз муҳаббат, соғинчи ифодаланган. Туш жараёни давом эта бориб ўнгга айлангандек бўлади. Аммо, биз уни ҳаётда, инсон ўнгида юз бераётган ҳодиса десак, рўёга ҳам ўхшамайди, яъни йигит вазниннинг енгиллашиб, тепага кўтарила бориши ва унинг олдига бир қучоқ оппоқ нур сузиб келиши реал ақлга унчалик ҳам тўғри келмайди. Лекин бу ҳодиса ошиқ қалбининг тобора покланиб, руҳнинг жисмдан узоқлашишига, ошиқ қалби тобора покланиб, оппоқ нурлар биан бирлашиб кетаётганлигига ишора қилади. Қиссада туш жараёни шунчаки ўткинчи ва маъносиз ҳолат эмас, инсон руҳиятининг бир қисми, инсон ички дунёсининг тимсоли сифатида намоён бўлади. Инсон руҳий олами ғоят сирли жараён эканлигини кўрсатади. “Асарлардаги тушни ва ундаги рамзни таҳлил этиш қаҳрамон руҳияти ҳақида бизга яққол тасаввур беради. Зеро, тушдаги рамзларни шарҳлаш, адабий асарлардаги рамзларни шарҳлашга олиб келадики, бундан адабиёт ютади”,– дейди адабиётшунос Ж.Эшонқул.

Хулоса. Демак, тушдаги рамзлар адабий асарнинг мазмун-моҳиятини, ёзувчининг ғоясини ифодалашда асосий муҳим омиллардан бири ҳисобланар экан. Асарда тасвирланган инсоний муҳаббат илоҳий ишққа йўғрилгандек таассурот уйғотади. Бундай туш манзаралари, мактублардаги туйғулар қаҳрамон руҳиятини ифодалашга хизмат қилган. Қиссанинг бошланиш қисмида муаллиф томонидан шундай жумлалар битиб қўйилган. “Азиз китобхон! Қиссадаги мактубларни Сиз ёзгансиз, уларнинг бари Сизники. Ишонаверинг, қиздир, йигитдир, исталган киши бундай ишқномани битишга қодир. Фақат бунинг учун, кўнгил беғубор севги сурурию бокира муҳаббат изтиробини бошидан кечирган бўлса, кифоя”. Эҳтимол, ёзувчи айтганидек, ўқувчи бу мактубларда ўзининг қалбини, табиатини, ўтмишини, бугунини, орзуларини, борингки, ўзлигини кўрар. Балки, ёзувчининг қалб кечинмалари, қалб оғриқлари ҳам шу қиссада намоён бўлгандир. Умуман олганда, адиб Хуршид Дўстмуҳаммад қаҳрамон психологиясини, унинг туйғулари, кечинмалари, кайфиятини ифодалашда туш мотиви ва ундаги рамзлар тасвиридан моҳирона фойдаланган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002.
2. Дўстмуҳаммад Х. Қиссалар. – Т.: Шарқ, 2011.
3. Исаева Ш. Ўзбек тарихий романларида характер руҳиятини тасвирлаш усуллари. Фил.фан. номз... дисс. – Т.: 2001.
4. Фрейд З. Введения в психоанализ. – М.: Наука, 1991.
5. Эшонқул Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Т.: Б. Насаф, 2008.

INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY-METODIK ASPEKTLARI

Matupayeva Sh.Z.
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tayancn so'zlar: inklyuziv ta'lim, qobiliyat, imkoniyati cheklangan bola, hamkorlik, baholash, individual, vosita, metodlar.
Ключевые слова: инклюзивное образование, способности, ребенок с ограниченными возможностями, сотрудничество, оценка, индивидуум, инструменты, методы.
Key words: inclusive education, abilities, child with disabilities, cooperation, assessment, individual, tools, methods.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada inklyuziv ta'limni tashkil etishning tashkiliy-metodik aspektlari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматриваются организационно-методические аспекты организации инклюзивного образования.
SUMMARY:
The article examines the organizational and methodological aspects of organizing inclusive education.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida har bir bolaga, uning salomatlik holati, rivojlanish darajasi yoki ijtimoiy ahvolidan qat'i nazar, sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan inklyuziv ta'lim (ya'ni barcha bolalar uchun bir xil ta'lim imkoniyatlarini yaratish) zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Mamlakatimizda inklyuziv ta'limni ta'lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida tashkil etishning huquqiy – me'yorlari ishlab chiqilgan. "Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish maqsadida ta'lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash, o'quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog'lomlashtiruvchi sifatli ta'lim xizmatlari hajmini oshirish hamda bu jarayo-

nga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash” kabi muhim vazifalar belgilandi. Boshlang‘ich ta’limda o‘qitish sifatini yaxshilash, o‘quvchilarning imkoniyatlariga mos, davlat ta’lim standartlari me’yorlari inobatga olingan o‘quv muhitini samarali tashkil etish, bu jarayonda tashkilotlar va jamoat institutlari hamkorligini kuchaytirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Inklyuziv ta'lim – bu imkoniyati cheklangan bolalarni oddiy maktablarda ta'lim olish imkoniyatini yaratuvchi tizim bo'lib, u barcha bolalar uchun teng huquqli va sifatli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan.

Inklyuziv ta’limni tashkil etishdagi asosiy tashkiliy jihatlar tahlil qilinadi:

1. Normativ-huquqiy asoslar

Inklyuziv ta’lim samarali faoliyat yuritishi uchun eng avvalo mustahkam huquqiy asoslar bo‘lishi zarur. Bu sohada qonunlar, qarorlar, nizomlar va boshqa hujjatlar ishlab chiqilishi va ularning ijrosi ta'minlanishi lozim O‘zbekiston Respublikasida bu borada bir qator qonun va qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun, Prezident qarorlari va boshqa me’yoriy hujjatlar inklyuziv ta’limni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

2. Ta’lim muassasalarini moslashtirish.Inklyuziv ta'lim muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun maktablar maxsus jihozlar, o'quv qo'llanmalari, reabilitatsiya vositalari va boshqa zarur resurslar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Inklyuziv ta’limni amaliyotga joriy qilish uchun maktablar va boshqa ta’lim muassasalari jismoniy jihatdan moslashtirilishi lozim. Binolar nogironlar aravachasida harakatlanuvchi bolalar uchun moslashtirilgan, maxsus liftlar, panduslar va hojatxonalar bilan jihozlangan bo'lishi muhim Bunga binolarga kirish uchun panduslar, maxsus hammomlar, liftlar, maxsus o‘quv qurollari kiradi. Bu imkoniyatlar barcha o‘quvchilarning teng ravishda ta’lim jarayonida ishtirok etishini ta’minlaydi.

3. Kadrlar tayyorlash.Inklyuziv ta’limda ishtirok etadigan o‘qituvchilar, psixologlar, defektologlar va boshqa mutaxassislarning malakasi juda muhim. Ular bolalarga individual yondashishni, sabr-toqatli va mehribon bo‘lishni, maxsus pedagogik uslublardan foydalanishni bilishlari lozim. Ular imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlarini tushunishlari, ular bilan ishlashning maxsus metodlari va usullarini bilishlari kerak. Shu sababli, pedagog kadrlar uchun maxsus kurslar va seminarlar tashkil etilishi kerak. Defektolog, logoped va psixolog kabi mutaxassislarning mavjudligi ham muhim ahamiyatga ega.

4. Moslashtirilgan o‘quv dasturlari.Har bir bola individual tarzda rivojlanadi. Shu sababli, inklyuziv ta’limda qo‘llaniladigan dasturlar bolalarning ehtiyojlariga mos bo‘lishi kerak. Bu yerda differensial yondashuv,

yengillashtirilgan darsliklar va qo‘shimcha materiallar asosiy vositalardan hisoblanadi.

5. Maxsus xizmatlar va texnik yordam.Inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish uchun maxsus xizmatlar – logopedik yordam, psixologik maslahatlar, reabilitatsiya mashg‘ulotlari muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, texnik vositalar – eshitish apparatlari, Braille alifbosi, audiokitoblar va boshqa yordamchi qurilmalar o‘quvchilarga katta yordam beradi.

6. Ota-onalar va jamiyat bilan hamkorlik.Inklyuziv ta’lim faqat maktab yoki muassasa doirasidagina cheklanib qolmasligi kerak. Inklyuziv ta'limni tashkil etishda maktab, oila, mahalla, tibbiyot muassasalari va boshqa tashkilotlar o'rtasida yaqin hamkorlik o'rnatilishi muhim. Ota-onalar ham bu jarayonga faol jalb etilishi lozim. Ular bolalarining ehtiyojlarini chuqur tushunishi va ularni qo‘llab-quvvatlashi kerak. Shu bilan birga, jamiyatda nogironlik haqida to‘g‘ri qarashlarni shakllantirish ham muhim. Bu bolaning rivojlanishi va ta'lim olishi uchun qulay sharoit yaratishga yordam beradi.

7. Monitoring va baholash tizimi.Inklyuziv ta’lim samaradorligini aniqlash uchun muntazam monitoring va tahlil zarur. Baholashda an’anaviy testlardan ko‘ra bolaning shaxsiy yutuqlari va rivojlanish sur’ati inobatga olinishi kerak.

Maxsus ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarni umumiy ta’lim tizimiga integratsiya qilishda inklyuziv ta’lim muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etish bilan bir qatorda, metodik yondashuvlar ham hal qiluvchi o‘rin tutadi. Metodik jihatlar:

Individual yondashuv. Inklyuziv ta’limda asosiy metodik prinsip – har bir o‘quvchiga individual yondashuvdir. Har bir bola o‘zining rivojlanish darajasi, qobiliyati va ehtiyojlariga ko‘ra o‘rganadi. Shuning uchun o‘qituvchi har bir o‘quvchi uchun individual o‘quv rejasi tuzishi, unga mos topshiriqlar va yondashuvlar ishlab chiqishi kerak.

Differensial ta’lim metodlari.Bu yondashuv turli darajadagi o‘quvchilarga bir xil mavzuni turli darajada tushuntirish imkonini beradi. Masalan:

Aqliy rivojlanishida sustkashlik bo‘lgan o‘quvchilarga mavzuni oddiy va sodda til bilan tushuntirish;

Yaxshi rivojlangan o‘quvchilar uchun esa mustaqil ishlar, qo‘shimcha materiallar orqali bilimlarini mustahkamlash.

Vizual va amaliy vositalardan foydalanish

Ko‘plab o‘quvchilar, ayniqsa eshitish yoki intellektual cheklovlarga ega bo‘lganlar, tasviriy va amaliy vositalar orqali yaxshiroq o‘zlashtiradi. Bu uchun quyidagi metodik vositalar foydali:

Rasmlar, jadvallar, sxemalar;

Audio va video materiallar;

Model va maketlar;

Didaktik o‘yinlar va rolli mashg‘ulotlar.

O‘yinli ta’lim elementlari

O‘yin orqali o‘rganish metodikasi, ayniqsa maktabgacha va boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun juda samarali hisoblanadi. O‘yin orqali o‘quvchilar o‘zini erkin tutadi, faollashadi, bilimlarni oson qabul qiladi. Bu uslub nogironligi bo‘lgan bolalar uchun ham ijobiy psixologik muhit yaratadi.

Ko‘maklashuvchi texnologiyalardan foydalanish

Zamonaviy metodik yondashuvda texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi. Maxsus ehtiyojli bolalar uchun:

Nutqni rivojlantirish dasturlari;

Braille alifbosidagi o‘quv materiallar;

Eshitish moslamalari;

Maxsus o‘yinlar va mobil ilovalar ishlatiladi.

Moslashtirilgan baholash usullari

Metodik yondashuvda baholash jarayoni ham o‘zgacha yondashuvni talab etadi. Oddiy testlar o‘rniga:

Rivojlanish dinamikasi asosida baholash;

Bolaning qilgan harakatlari, ijobiy o‘zgarishlari e’tiborga olinadi;

Mustahkamlovchi rag‘batlantirish ishlatiladi (masalan, "Sen bunga qodirsan!", "Yaxshi harakat qilding!" kabi).

Xulosa qilib aytganda inklyuziv ta’lim – bu faqat nogironligi bo‘lgan bolalar uchun emas, balki barcha o‘quvchilar uchun teng va adolatli sharoitlar yaratishga qaratilgan ta’lim shaklidir. Uni tashkil etish doimiy e’tibor, puxta rejalashtirish va hamkorlikni talab etadi. Agar ta’lim muassasalarida yuqorida ko‘rsatilgan tashkiliy jihatlar inobatga olinsa, inklyuziv ta’lim tizimi orqali har bir bola jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr:O‘RQ-637-son: httrs://lex.uz/doss/5013007

2. Matupayeva Sh.Z. Ta’lim klasteri sharoitida ta’lim klasteri sharoitida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini inklyuziv ta’limga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (Phd)Dissertatsiya. 2023

3. Xitryuk V.V. Инклюзивная готовность педагога: генезис, феноменология, концепция формирования: монография. - Барановичи: БарГУ - 2015. 276st.

4. Matupayeva Sh.Z. Teashing elementary teashers to use asademis sase slusters in the ssienses. Asian Journal of Multidimensional Researsh ISSN: 2278-4853, Vol. 11, Issue 11, November 2022, SJIF 2022 = 8.179

TABIIY FANLARNI O'QITISHDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Jo'rayeva Z.M.
RTM (Maxsus pedagogika bo'lim boshlig'i)

Tayancn so'zlar: STEAM texnologiyalari, ta'lim sifati, qobiliyat, xorijiy tarbiya, intergratsiya, fan, texnologiya, san'at, matematika.
Ключевые слова: STEAM-технологии, качество образования, способность, иностранный образование, интегратsiя, наука, технология, искусство, математика.
Key words: STEAM technologies, quality of education, ability, foreign education, integration, science, technology, art, mathematics.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada STEAM texnologiyalarining bugungi kundagi ahamiyati,uning imkoniyatlari va yutuqlari, tabiiy fanlarni o'qitishdagi afzalliklari haqida fikr-muloxazalar yuritilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматривается значение STEAM-технологий сегодня, их возможности и достижения, а также их преимущества в преподавании естественных наук.
SUMMARY:
The article discusses the importance of STEAM technologies today, their capabilities and achievements, as well as their advantages in teaching natural sciences.

Zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri - o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, muammolarni hal qilish ko'nikmalari va hayotiy bilimlarini rivojlantirishdir. Ayniqsa, tabiiy fanlar - fizika, kimyo, biologiya va geografiya kabi fanlarni o'qitishda yangicha yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda STEAM texnologiyasi ta'lim jarayoniga joriy qilinmoqda.

Respublikamizda ta'lim bosqichlarini modernizatsiyalash jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirishga qaratilgan fanlararo integratsiyasini ta'minlash, amaliy izlanishli faoliyatga yo'naltirilgan STEAM – ta'lim texnologiyasini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston

Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son farmonida “STEAM fanlarni va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqilishlash va tahlil qilish kompetentsiyalari hamda malakalarini rivojlantirishga alohida urg‘u berishini hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta’lim dasturlari va yangi davlat ta’lim standartlari joriy etish” kabi vazifalar aniq belgilab berilgan.

STEAM fanlarini tashkil etgan fanlarning har biri alohida bilimlar manbaiga ega bo‘lgan bir butun fanlardir. Bu fanlarning kelib chiqish tarixiga e’tibor beradigan bo‘lsak, bir fanning keskin rivojlanishi natijasida ikkinchi fanning paydo bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Bu fanlarni rivojlanishi, ilmiylik jihatidan o‘zaro bog‘langanligi, hamda amaliyotga tadbiq etilishi evaziga uchinchi va to‘rtinchi fanlar ya’ni texnologiya fani bilan muhandislik fanlarini vujudga keltirishga sabab bo‘ladi.

STEAM ta'limi (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics - Fan, Texnologiya, Muhandislik, San'at, Matematika) o'quvchilarni bunday qobiliyatlarga yaratish uchun labda eng yaxshi dasturdir: kritik o'ylash, muammo hal qilish, jamoa bilan hamkorlik, ijodiylik, muhandislik ko'nikmalari va texnologik savodxonlik. Bu borada STEAM ta'limining muhandislik va ijodkorlik ko'nikmalarni rivojlantirishdagi afzalliklari:

STEAM ta'limida, o'quvchilar bir necha fan va ssenariyalardan foydalanadi, bu esa kompleks o'ylashga yordam beradi. Jumladan, fan bilimi va muhandislik ko'nikmalari birgalikda muammolar uchun åchim topishga yordam beradi, u bilim va ko'nikmalar san'at va ijodiylik bilan uyg'unlashtiriladi. STEAM o'quvchilarga texnologiya va muhandislik bilimlarini qo’llab-quvvatlash imkonini beradi. Bu, asosiy texnologiya va muhandislik tushunchalarini, qanday ishlaydiganlarini va qanday yaratishga ishlatiladiganlarini tushunishni o'rganishni osonlashtiradi.

Tabiiy fanlarni o’qitishda STEAM texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarga nafaqat nazariy bilim beradi, balki hayotga yaqin, amaliy ko‘nikmalarni ham shakllantiradi. Quyida uning eng muhim jihatlari keltirilgan:

1. Nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog‘lanishi. STEAM yondashuvi orqali o‘quvchilar fan darslarida olgan bilimlarini real hayotdagi muammolarni hal qilishda qo‘llay boshlaydi. Masalan, biologiyada suv ifloslanishini o‘rganib, uni tozalash loyihasini yaratadi.

2. Muammolarni hal qilish ko‘nikmasi. O‘quvchilar mustaqil yoki guruhda ishlab, “Qanday qilib bu muammoni hal qilamiz?” degan savolga javob topishga

harakat qiladilar. Bu esa ularning tanqidiy fikrlashini va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

3. Ilmiy tadqiqot va tajriba qilish qiziqishini oshiradi. STEAM loyihalarida o‘quvchilar o‘zlari eksperimentlar o‘tkazadi, natijalarni kuzatadi va xulosalar chiqaradi. Bu esa tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi.

4. Jamoada ishlash va yetakchilik ko‘nikmasi. Ko‘pincha loyihalar guruh bo‘lib bajariladi. Har kim o‘z vazifasini bajaradi - bu esa jamoaviylik, mas’uliyat, va yetakchilik kabi yumshoq ko‘nikmalarni shakllantiradi.

5. Ijodkorlik va dizayn salohiyatini ochadi. STEAM modelida “Art” – san’at elementi ham bor. Bu o‘quvchiga nafaqat aniq fanlarni, balki go‘zallik, dizayn va vizual ta’sir haqida ham o‘ylashga yordam beradi.

6. Kasb tanlashga yo‘naltiradi. O‘quvchi erta yoshdan turli sohalarga - IT, muhandislik, biologiya, ekologiya - qiziqib, o‘zini shu sohalarda tasavvur qila boshlaydi.

Tabiiy fanlarda STEAM texnologiyasidan foydalanish, o'quvchilar va muhandislar boshqalar bilan hamkorlikda ishlash va o'z g'oyalarini boshqalarga yuklatish uchun shovqinli, muhandislik g'oyalari va texnikalarini qo’llab-quvvatlash ko'nikmalari rivojlanadi.

STEAM ta'limi o'quvchilarga nazariy bilimlarini amaliyotga keltirish uchun ko'plab imkoniyatlarni beradi. Jumladan, konstruktor fanidan olingan bilimlarni robot yasashda, yoki biologiya fanidan olingan ma'lumotlarni tabiatnigina protsesslar modelini yaratishda ishlatish mumkin.

STEAM darslari, o'quvchilarga bir jarayonning muntazam rivojlanishini tahlil qilishni, natijalarni baholashni va muammolar uchun yechimlarni takrorlashni o'rgatishga asosiy ahamiyat beradi. Qolaversa, fanlararo integratsiyani ta'minlaydi. STEAM orqali tabiiy fanlar boshqa sohalar bilan birlashtirilib, chuqur tushuncha hosil bo‘ladi. Masalan, biologiyada inson organizmining modelini yaratishda san'at va texnologiyadan foydalaniladi. Amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitishda STEAM loyihalari nazariy bilimlarni hayotiy muammolarni yechish orqali o‘rganishni ta'minlaydi, bu esa darslarni qiziqarli qiladi.

STEAM ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Jumaladan, san’atning kiritilishi o‘quvchilarning ijodiy yondashuvini oshiradi, hamda ilmiy fikrlash va muammolarga yechim topishni rivojlantiradi.

Tabiiy fanlarni o’qitishda STEAM texnologiyasi o‘quvchining faolligini oshiradi. STEAM darslari interaktiv bo‘lib, o‘quvchilarni guruhda ishlash va faol ishtirok etishga undaydi, bu esa motivatsiyani oshiradi.

STEAM ta’limi zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar 3D-printerlar, raqamli mikroskoplar va simulyatsiya dasturlaridan foydalanishni o‘rganadilar, bu esa ularga zamonaviy ko‘nikmalarni beradi. O’quvchilarda STEM sohalariga qiziqishni oshiradi. Tabiiy fanlarni o‘qitish orqali o‘quvchilarda ilmiy izlanishlarga va texnologik innovatsiyalarga bo‘lgan qiziqish ortadi, bu esa kelajakda STEM kasblarini tanlash imkoniyatini kengaytiradi.

Umumiy ravishda, STEAM ta'limning ijodkorlik va muhandislik ko'nikmalarini rivojlantirish afzalliklari, o'quvchilarni innovatsion, muhandislik va texnologiyadagi faoliyatlar uchun tayyorlaydi, va bu ko'nikmalar asr 21-ga mos keladigan ish bilan ta'minlanganlikning o'zgarmas bir qismidir.

Tabiiy fanlarni o‘qitishda STEAM texnologiyasidan foydalanish — o‘quvchilarni zamonaviy dunyo talablariga mos tarzda tayyorlash, ularning ijodiy va ilmiy salohiyatini ochib berish yo‘lida samarali vositadir. Bu borada o‘qituvchilarning malakasini oshirish, darslarni loyihalashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va amaliy mashg‘ulotlarga keng o‘rin berish zarurdir.

Xullas, tabiiy fanlarda STEAM yondashuvi – bu o‘rgatishdan ko‘ra ko‘proq rivojlantirish. U bolani kelajak hayotiga tayyorlaydi: bilimli, amaliyotchi va ijodkor inson qilib shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5712-son farmoni. - Elektron resurs https://lex.uz/docs/4312785

2. Z. Ashurova Maktabgacha ta’limda STEAM texnalogiyasidan foydalanish » Metodik qo‘llanma . Buxoro:2020.

3. Xamidova M. Sh. (2020). “O‘zbekistonda STEAM-ta’limni joriy etishning dolzarb masalalari.” Ta’lim innovatsiyalari jurnali, №3(10), 15–20.

4. Yakman G. (2008). STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education. https://www.academia.edu

FANLARARO YONDASHUV ASOSIDA TA’LIM JARAYONIDA MA’NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI TARBIYALASH METODIKASI

Anorboyev B. D.
CHDPU o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: sog‘lom, barkamol, intellectual, milliy, qadriyatlar, yuksak, kasb, mutaxassis,muhim.
Ключевые слова: здоровый, гармоничный, интеллектуальный, natsionальный, ценности, высокий, профессия, специалист, важный.
Key words: healthy, harmonious, intellectual, national, values, high, profession, specialist, important.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada fanlararo yondashuv asosida ta’lim jarayonida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni tarbiyalash metodikasi haqida qisqacha mazmuni yoritib berilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье кратко рассматривается методика воспитания духовно-нравственных ценностей в образовательном процессе на основе междисциплинарного подхода.
SUMMARY:
The article briefly discusses the methodology for educating spiritual and moral values in the educational process based on an interdisciplinary approach.

Mamlakatimizda Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, zamon talablariga javob beradigan mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo‘yicha maqsadli yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jamiyat taraqqiyotini ilm-fan rivojisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki ilm-fan ishlab chiqarish, uning moddiy asosini yaratish, texnologik rivojlantirish va eng asosiysi-kadrlar bilan ta’minlash vazifalarini o‘z zimmasiga oladi. Mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini amaliyotga keng joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, muxtaram birinchi

Prezidentimiz I.A Karimov ta'kidlaganidek "Bugungi kunda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni umumlashtirgan holda zamonaviy bilim, intellektual salohiyat va ilg'or texnologiyalarga ega kishilargina rivojlanishda o'z oldiga qo'ygan strategik maqsadlarga erisha oladi. Har qanday mamlakatning jahon bozorida raqobatbardoshligi nafaqat tabiiy resurslarning mavjudligi, balki birinchi navbatda, zamonaviy muntazam yangilanib turgan texnologiyalarni o'zlashtirishga qodir, yuksak bilim va intizomli ishchi kuchini muntazam tayyorlashga bog'liq". Ta'lim jarayonida yoshlarga taqdim etilayotgan bunday imkoniyatlar ertamiz egalari bo'lgan yosh avlodning o'z salohiyatini to'la namoyon etishi, o'zi tanlagan kasb bo'yicha o'qishi, ishlashi, hayotda o'z o'rnini topib olishi va jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo'shadigan mutaxassislar bo'lib etishishi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shuni nazarda tutib Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti jamoasi ham Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi buyruqlari hamda yo'riqnomalarida ko'rsatilgan me'yoriy tartiblardan kelib chiqib kadrlar tayyorlash vazifasini o'z faoliyatining bosh mezoni qilib belgilagan. Bu dolzarb masalani amalga oshirishda ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim o'rin tutadi. Chunki, bu ilmiy tadqiqotlar yosh mutaxassislarda sinchkovlik, yangilik izlash hissiyotlarini shakllantiradi hamda institut ilmiy salohiyatini oshiradi. Institutimiz arxitektura va qurilish sohalari uchun zamon talablari darajasida yuqori malaka va ilmiy salohiyatga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ygan. Kundan kunga rivojlanib borayotgan ilm-fan yo'nalishlari yutuqlaridan oqilona foydalanish, bu sohada aniq yo'nalishlarga ixtisoslashgan malakali mutaxassislarni tayyorlash mamlakat obodligi, xalq farovonligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Institutda ta'lim jarayonlari amaldagi dasturlar va zamonaviy uslubiy texnologiyalar yordamida nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirgan holda 4 amalga oshirilmoqda. Shuningdek, talabalar ishtirokida yirik korxona va tashkilotlarning muammolari echimiga qaratilgan bitiruv malakaviy ishlar, magistrlik dissertatsiyalari ko'rinishida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ilgarigi yillarga nisbatan institut miqyosida yosh olimlar va iqtidorli talabalar ilmiy – tadqiqot ishlarida faol ishtirok etishib, ularning soni joriy yilda 756 nafarni tashkil etdi. Bugungi kunda institutda 2 nafar talaba Beruniy nomli Davlat stipendiyasi, 5 nafar talaba T.Sh. Shirinqulov stipendiyasi, 4 nafar talaba R.R.Abdurasulov nomidagi stipendiyasi sovrindoridirlar. Iqtidorli talabalarimiz hozirgi kunda ingliz, fransuz va nemis tillarini mukammal o'rganmoqdalar. Talabalarimiz internet tizimiga ulangan kompyuter sinflari orqali o'zlari ta'lim olayotgan yo'nalishlar halqaro ilmiy izlanish ishlarida ham faol qatnashib kelmoqdalar. Yosh olimlar va talabalarning

«Ta’lim, fan va ishlab chiqarishda intellektual salohiyatli yoshlarning o‘rni» mavzusidagi respublika ilmiyamaliy konferensiyasi yoshlarimiz intilishlarini qo‘llab-quvvatlash doirasida o‘tkazilayotgan tadbir bo‘lib, uning asosiy maqsadi iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish, yoshlar o‘rtasida o‘zaro ilmiy-ijodiy hamkorlik muhitini, do‘stlik aloqalarini rivojlantirish, o‘zaro fikr-mulohaza va tajriba almashishlari uchun sharoit yaratib berish, yoshlarni fan-texnika taraqqiyoti yo‘lida birlashtirish hamda yosh olimlarning ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishdan iboratdir. Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutida bo‘lib o‘tayotgan «Ta’lim, fan va ishlab chiqarishda intellektual salohiyatli yoshlarning o‘rni» shiori bilan yosh olimlar, magistrant va talabalarning an’anaviy XII ilmiy-amaliy konferensiyasida respublikamizning 25 ta oliy ta’lim muassasalaridan 400 dan ortiq yosh olimlar, katta ilmiy xodim izlanuvchilar hamda iqtidorli talabalar o‘zlarining 300 dan ortiq maqolalari bilan ishtirok etmoqda. Ularning ilmiy-tadqiqot ishlari sho‘ba yig‘ilishlarida muhokama qilinadi va ular asosida tegishli taklif-tavsiyalar ishlab chiqiladi. Mazkur konferensiyaning 4 qismdan iborat materiallar to‘plami chop etildi va ushbu to‘plamlarda mamlakatimiz iqtisodiyot sohalarining ustuvor yo‘nalishlarida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar natijalarini yorituvchi maqola va tezislar mujassamlashgan. O‘ylaymanki, anjumanda berilgan taklif va tavsiyalar respublikamizda mazkur sohalarni rivojlantirishda hamda iqtidorli yoshlarni ilm-fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Men, konferensiya ishiga, Sizlarga omad va ilmiy izlanishlaringizga rivoj tilayman, kelajakda ilm fan sohasida ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritishingizga ishonaman.

Tashkillotchilik - bu birinchidan, boshqaruvning tarkibiy qismi bo‘lib, uning mohiyati tizimning alohida elementlari harakatlarini muvofiqlashtirish, uning qismlarining amal qilishida o‘zaro ta’sirga erishishdan iborat; ikkinchidan, muayyan tuzilma doirasida birgalikda faoliyatni amalga oshirish uchun shaxslar birlashishining shaklidir.

Ta’lim jarayonini tashkil etish - bu birinchidan, ta’lim muassasasi va dasturlarini shakllantirish hamda ularni turli ta’lim ehtiyojlarini ta’minlaydigan yagona tizimga rasmiylashtirish bo‘yicha maqsadga muvofiq faoliyatdir; ikkinchidan, ta’limning tarkibiy tuzilishi, shuningdek uning muassasalarini boshqarish va ularning faoliyatini moliyalashtirish tizimi, jamiyatning boshqa tarkibiy bo‘linmalari bilan o‘zaro ta’sirining xarakteri, mehnatning taqsimlanishidir.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, rivojlangan oliy pedagogik ta‘lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning tashkilotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning

pedagogik-psixologik xususiyatlari hamda ularning tashkilotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning amaliyotdagi holati hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan biridir. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash nuqtai nazaridan kompetensiya - oliy ta’lim tizimida o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan va kasbiy tayyorgarlikka qo‘yiladigan ijtimoiy talablar (me’yorlar) dan o‘zib ketishdir. Tahlillar asosida tadqiqot ob’ekti bilan bog‘liqlikda “kompetensiya” va “kompetentlik” ni quyidagi ta’rifi shakllantirildi: kompetensiya - mehnat bozori sharoitidagi o‘zgarishlar va innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarlikni o‘zida ifodalaydi. Amaliy-sog‘lomlashtiruvchi mashg`ulotlarni o‘qitishga doir tashkilotchilik vazifalarini hal etishga qobiliyatlilikdir; kompetentlik - noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan holatlarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikdir.

Tashkilotchilik kompetensiyasi - bu bo‘lajak o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatida bilim, ko‘nikmalar va tashkilotchilik harakatlarini bajarish usullarini safarbar qilish qobiliyatidir.

Tashkilotchilik qobiliyati - pedagog tomonidan ta’limiy va tarbiyaviy jarayonlarni ilmiy-nazariy, metodik va hissiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishini anglatuvchi sifatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Т.: Ўзбекистон, 2017. - 488 б.

2. Павлова Л.Н. Управленческая компетенция педагога / Л.Н. Павлова // Профессиональное образование. Столица. – 2013. – №2 – С. 30-31.

3. Виноградов С.А. Развитие управленческой компетентности руководителя учреждения физкультурного образования: автореф. дис. канд. пед. наук: 13.00.08 / Виноградов Станислав Александрович. – Челябинск, 2013. – 24 с.

4. Фефелова В.Н. Формирование управленческой компетентности специалиста по рекреatsii и туризму: дис. … канд. пед. наук: 13.00.08 / Фефелова Вера Николаевна. – Москва, 2010. – 187 с.

МАХСУС ПЕДАГОГЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Ибадуллаева Ш.Н.
Чирчиқ давлат педагогика университети
“Махсус педагогика” кафедраси ўқитувчиси

Tayanch so‘zlar: педагог, касб, инновацион, олий таълим, мустақил, машғулот, кўникма.
Ключевые слова: учитель, профессия, инновация, высшее образование, самостоятельный, занятие, навык.
Key words: teacher, profession, innovation, higher education, independent, occupation, skill.

РЕЗЮМЕ:
Ушбу мақола педагогларни касбий амалиётга тайёрлаш мақсадида олий таълим амалиётига инноватsion таълим технологиялари ва оптимал мехнизмларни тадқиқ этиш, педагогик амалиёт жараёнида ахборот муҳитини яратиш ҳақида маълумотлар берилган
РЕЗЮМЕ:
В статье представлена информация по изучению инновационных образовательных технологий и оптимальных механизмов практической деятельности высшей школы в целях подготовки педагогов к профессиональной деятельности, а также по созданию информационной среды в процессе педагогической практики.
SUMMARY:
This article provides information on the study of innovative educational technologies and optimal mechanisms for higher education practice in order to prepare teachers for professional practice, and on the creation of an information environment in the process of pedagogical practice.

Махсус педагогларни касбий амалиётга тайёрлаш мақсадида олий таълим амалиётига инновацион таълим технологиялари ва оптимал мехнизмларни тадқиқ этиш, педагогик амалиёт жараёнида ахборот муҳитини яратиш, талабаларнинг мустақил тареториясини самарали ташкил этиш, улар эришган натижаларни баҳолашнинг халқаро мезонларини амалиётга татбиқ этиш каби масалалар давлатнинг қатор ҳужжатларида алоҳида вазифалар сифатида белгилаб қўйилган. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармонида, жумладан, “...таълим-

нинг узлуксизлигига эришиш мақсадида умумий ўрта, ўрта махсус ва олий таълим дастурларининг уйғунлиги ва изчиллигини таъминлаш; индивидуал таълим траекторияларига асосланган, талабаларда креатив фикрлаш, амалий кўникмаларни шакллантиришга қаратилган ўқув режалар ишлаб чиқиш; талабаларнинг мустақил таълим соатларида, назарий ва амалий машғулотлар ўқув жараёнида компетенцияларни кучайтиришга қаратилган методика ва технологияларни жорий этиш"- каби вазифаларга алоҳида эътибор қаратилган. Мазкур вазифалар олий таълимнинг барча йўналишлари қаторида махсус педагогика йўналишида ҳам ўқув жараёнига замонавий педагогик технологиялар, вариатив ўқув режаларсиз, касбий йўналган дастурларсиз ва адаптивлаштирилган ўқув-методик материалларни манзилли жорий этишсиз, профессор-ўқитувчиларнинг инновацион фаолиятини ташкил этишсиз амалга ошмайди. Қачонки, олий таълим педагогида янгиликка интилиш, етакчи тенденцияларни ўрганиш ва жорий этишга йўналганлик, ижтимоий буюртма талабларини қадрият даражасига кўтариш ҳисси шаклланмас экан, бўлажак мутахассис-педагогларда касбий мотивация, ўқитиш методикаларини ўрганиш, педагогик-психологик диагностика инструментларини қўллашга интилиш, модулларни тўлиқ ўзлаштиришга масъулиятни таркиб топтириб бўлмайди. Бундан ташқари давлатимиз раҳбарининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2017 йил 20 апрелдаги ПҚ-2909-сон «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» , 2018 йил 5 июндаги ПҚ-3775-сон «Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Қарорлари ҳамда бошқа олий таълимга доир норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларнинг аксарияти, асосан, олий таълим мазмунини жаҳон тенденциялари асосида модернизatsiялашни, кадрлар тайёрлаш амалиётига илғор халқаро тажрибаларни олиб киришни, назария ва амалиёт уйғунлигига асосланган таълимни ташкил этишда самарали технологиялардан фойдаланишни кўзда тутади.

Маълумки, инклюзив таълим, коррекцион таълим, уйдаги таълим ва бошқа имконияти чекланган болалар учун мўлжалланган таълимга интегратив компетенцияларга эга кадрларни тайёрлашга диор ислоҳотлар нафақат Ўзбекистонда, балки етакчи мамлакатларда ҳам тез суръатларда амалга оширилмоқда. Чунки узлуксиз таълимнинг ҳар бир бўғинида трансформация жараёни тезлашмоқда. Бу вазият замон талаби, ахборотлашган муҳит,

инсон ва жамият тафаккури имкониятларининг кенгайиб, кўп қирралилик тавсифга эга бўлиб бораётганлиги билан боғлиқдир.

Ҳозирги кунда педагогик ёндашувлар, жамоатчилик дунёқарашидаги ўзгаришлар ҳамда кундалик ҳаёт фаолиятини ахборотлаштириш шароитида XXI аср талабасининг академик-ижтимоий эҳтиёжларига мослашувчан инновацион ёндашувлар татбиқ этилмоқда. Жумладан, ўқитиш жараёнида замонавий технологияларнинг қўлланилиши, аввало, талаблар ўзгариши, талаба ҳамда педагог ўртасидаги фаолиятнинг дўстона муносабатга асосланиши, мустақил қарор қабул қилишга ундовчи муҳит яратишга эҳтиёжнинг кучайиши билан боғлиқдир. Бундан ташқари давлат ва жамият ҳаётидаги иқтисодий ва ижтимоий ўзгаришлар интервалининг қисқалиги ва мунтазамлилиги талабаларни мустақил таълим олиш, касбий амалиёт моделларини яратишга имкон берувчи ўқитиш шакли ва ёндашувларидан фойдаланишга ундамоқда. Айнан мана шундай ёндашувларнинг кенг қамровли қўлланилиши учун ҳамда талабаларда касбий компетенцияларни назария ва амалиёт уйғунлигида шакллантириш учун мос ва қулай муҳит педагогик амалиёт жараёнидир. Педагогик амалиёт мазмунини такомиллаштириш, оддий хисоботлар учун мўлжалланган тизимдан, амалий йўналган ва касбий йўналганликни намоён этишга мотивацияловчи жараёнга ўтиш биз танлаган муаммонинг бош илмий мўлжали ҳисобланади. Шунинг учун махсус педагогика йўналишида сифатли кадрлар тайёрлаш имконини берувчи индивидуал йўналган таълимий фаолиятни педагогик амалиёт жараёнида ташкил этишнинг шакл ва усулларини танлашда олий таълим педагогларидан касбий сезгирлик ва педагогик масьулият тақозо этиляпти. Биз олий таълимда талабаларнинг академик-ижтимоий траекториясини самарали ташкил этишнинг дидактик ҳамда психологик имкониятларини алоҳида ўрганиш мақсадга мувофиқ деб ҳисобладик. Чунки педагогик амалиёт даврида талабаларнинг жараёнга психологик тайёр бўлиши муҳим шартлардан ҳисобланади. Педагогик амалиётда талабалар касб эгалари билан, ўзлаштириши турлича ва ўзига хос индивидуал ҳусусиятларга эга ҳамда ривожланишида муаммолари бўлган ўқувчилар (мактабгача ёшдаги болалар) билан мулоқотга киришадилар. Ушбу мулоқот асосида улар касбий фаолият моделларини бевосита ўзлаштирадилар. Шунинг учун биз тадқиқот доирасида турли давлатларнинг бу борадаги тажрибаларини ўрганишга эътибор қаратдик.

Маълумки, охирги ўн йилликда Англия, Германия, Франция, Жанубий Корея, Япония ва Америка Қўшма Штатлари ва бошқа ривожланган давлатларнинг олий таълимида қўлланилувчи кредит-модуль тизими мазмунан ва шаклан такомиллаштирилди. Жаҳон олий таълим амалиётида самарали

ва етакчи тенденция сифатида Европа ягона таълим муҳитининг Болонья тизими устуворлик қилмоқда. Ҳозирги кунда жаҳон миқёсида кредит-модул тизими кенг қўлланилиб келинмоқда. Буннинг бош сабаби замонавий, инновацион фаолиятга тайёр мутахассисдан касбий компетентлик ва турли вазиятларда тезкор қарор қабул қилиш, жамоавий ҳаракатланиш ва унда ўзини намоён этиш, касбий ва ижтимоий ахборотларни мустақил излаш, топиш, олиш, таҳлил қилиш, қайта ишлаш, манзилли фойдаланиш, трансформацион вазиятларга мослашувчанлик талаб этилишидир. Санаб ўтилган касбий, шахсий, махсус сифатларга эга мутахассисни тайёрлаш эса, олий таълим муассасалари олдида турган долзарб ижтимоий-педагогик масалалардандир.

Олий таълимда ўқитишнинг кредит-модул тизимидан фойдаланиш санаб ўтилган жиҳатларга эга кадрларни тайёрлашда кенг имкониятлар яратади. Касбий етилиш жараёнини қулайлаштириш ва самарадорлаштиришда ҳамда меҳнат бозорининг ўзгарувчан эҳтиёжларини қоплашда мазкур тизим энг оптимал механизм сифатида намоён бўлмоқда. Яъни кредит-модул тизими олий ўқув юртлари битирувчиларининг академик мобиллигини таъминлайди. Кредит тизимининг аҳамияти шундаки, академик дастурлар меҳнат бозори талабларига мос ҳолда тузилади. Айниқса, мустақил таълим ва амалиётнинг алоҳида компонент сифатида ажратилишида ҳам талабаларни касбий фаолиятга эрта тайёрлашни кўзда тутувчи механизм эканлигини намоён этади.

Мазкур тизим доирасида ўқув режадаги фанларнинг 50 фоизи танлов фанларига ажратилади. Бундан ташқари, таълим олувчиларни ўқитиш ва меҳнат бозорига комплекс тайёрлашга индивидуал ёндашилади. Талабалар мустақил таълим олишга мақсадли йўналтирилади. Бунинг учун олий таълимда назарий ва амалий машғулотлар ҳамда педагогик амалиёт интеграциясини мазмунан таъминлаш мақсадида ахборот муҳити тақозо этилади.

Бўлажак махсус педагогларни касбий фаолиятга тайёрлашнинг амалий йўналган жараёнида индивидуаллашган ва дифференциаллашган ёндашувлардан фойдаланиш таълим муассасаларининг муқобиллиги, ўқув-дастурий ҳужжатларнинг тизимлараро ҳаракатчанлиги, трансформацион ижтимоий-иқтисодий шароитга мослашувчанлигини оширади.

Педагогик амалиёт жараёнида талаба йўналган педагогик таъсир инструментларидан фойдаланиш ҳар бир киши учун тенг равишда таълимни таъминлаш, интеллектуал, маданий, ижтимоий, илмий ва технологик салоҳиятни шакллантириш ва мустаҳкамлаш, таълим сифатини такомиллаштириш имконини беради. Бу тизимнинг олий таълимга жорий қилиниши субъектлар фаолиятида шаффофликни таъминлаш, коррупция ҳолатла-

рига барҳам бериш ва олдини олиш, ўқитиш-тарбиялаш сифатини ошириш, талабаларнинг ҳаққоний потенциалини юзага чиқаришга имкон беради ва уларни мустақил ўқиб-ўрганиш, ўз устида ишлашга йўналтириш учун замин яратади.

Ҳозирги кунда Европа кредит-модуль тизими қитъанинг деярли барча олий таълим муассасаларида қўлланилмоқда. Кредит-модуль тизимида олий таълим ўқитувчиси ва талабаларнинг ҳамкорликда-бир чизиқда иш олиб боришлари муҳим омил саналади. Ушбу таълимда ўқитувчи талабаларнинг ўзлаштириш жараёнини мувофиқлаштиради, йўналтиради ва амалий йўналган тарзда ташкил этади, узликсиз равишда маслаҳат беради, бошқаради ва текширади. Талаба эса, ўз ўрнида академик-ижтимоий йўналтирилган, креатив ёндашган ҳолда мустақил ҳаракат қилади. Асосий эътибор талабаларнинг мустақил таълим олишига, қарор қабул қилишига, креатив фикрлашига, касбий компетенцияларни намоён этишига қаратилади.

Педагогика фанида билим билан амалиётнинг ўзаро боғлиқлиги масаласи тасодифий эмас. Мазкур масала шахс ривожланишининг турли босқичларида ўрганиш (кашф этиш, тақлид...) га бўлган ижтимоий эҳтиёж билан боғлиқ равишда ойдинлашади. Касбий билимларни ўрганиш, соҳага оид кўникма ва малакаларни эгаллашга мақсадли йўналганлик натижаларини намоён этишда амалиёт муҳим шартлардан ҳисобланади. Бунда талаба турли хил ижтимоий, иқтисодий ва маданий шароитларда фаолият юритиш учун тайёрланиши, дунёқарашлари, ўқитиш ва ўрганиш имкониятларини кенгайтириши жуда муҳим. Чунки у ўқитиш ва ўргатишга доир зарур ҳаракатларни турли вазиятларда, кутилган ва кутилмаган ҳодисалар оқимида бажаришига тўғри келади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ибадуллаева С. Н. (2023). Педагогическая практика в процессе комплексной подготовки студентов для профессиональной деятельности. Журнал педагогических изобретений и практик 20, 9-12.

2. Ибадуллаева С. Н. (2023). Бўлажак махсус педагогларни касбий фаолиятга тайёрлашда малакавий амалиёт даври. Европейский журнал междисциплинарных исследований и развития, 14, 347-350.

3. Ибадуллаева Ш.Н. Педагогик амалиёт жараёнида бўлажак махсус педагогларни касбий фаолиятга тайёрлашнинг механизмларини такомиллаштириш// Муғаллим ҳем узликсиз билимлендируў. Илимий-методикалық журнал 2023. 2/1.105-110 б.

4. Ибадуллаева Ш.Н. Педагогик амалиёт талабаларни касбий фаолиятга комплекс тайёрлаш жараёнида// Муғаллим ҳем узликсиз билимлендируў. Илимий-методикалық журнал 2023. 3/3.156-161 б.

MULOQOTNING MADANIY FENOMEN SIFATIDAGI FUNKSIYALARI

Aymatov A.Q.
Falsafa fanlari doktori(Dsc)
Samarqand davlat universiteti
Turayeva D. Sh.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: muloqot,jamiyat,axborot, ixtiyoriy xotira,kommunikatsiya, interaktiv funksiya, perseptiv muloqot,madaniyat.
Ключевые слова: коммуникация, общество, информация, произвольная память, коммуникация, интерактивная функция, перцептивная коммуникация, культура.
Key words: communication, society, information, voluntary memory, communication, interactive function, perceptual communication, culture.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada, muloqot madaniyatining falsafiy fenomen sifatidagi turlari, darajalari va asosiy funksiyalarini tadqiq etish uning jamiyat taraqqiyoti qonunlariga muvofiq rivojlanishi ifodalangan. Zero, muloqot madaniyatining shakllanishi jamiyatning moddiy ishlab chiqilishi hamda ma'naviy hayoti bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Muloqot madaniyatida bilimlar ziddiyat ichida tomonlarni bir-biriga yaqinlashtirish, ular orasidagi muloqotni yangitdan bir tizimga tushirish, tomonlarning o'zaro axborot olishlarini yengillashtirish uchun xizmat qiladi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматриваются виды, уровни и основные функции культуры общения как философского явления, ее развитие в соответствии с законами общественного развития. Ведь формирование культуры общения тесно связано с материальным развитием и духовной жизнью общества. В культуре общения знания служат сближению сторон конфликта, реорганизации диалога между ними в единую систему, облегчению обмена информацией между сторонами.
SUMMARY:
This article examines the types, levels and main functions of the culture of communication as a philosophical phenomenon, its development in accordance with the laws of social development. After all, the formation of a culture of communication is closely connected with the material development and spiritual life of society. In the culture of communication, knowledge serves to bring the parties to the conflict closer together, reorganize the dialogue between them into a single system, and facilitate the exchange of information between the parties.

Yurtimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab, ilm-fan, ma’naviyat va ma’rifat masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu islohotlar bugungi kunda ham muntazam davom ettirib kelinmoqda. Zero ta’lim va tarbiya, ma’naviyat va ma’rifat, axloq va madaniyat har bir mamlakat taraqqiyotining muhim ustunlari sanaladi. O‘zbekiston Perzidenti Sh.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Rennesans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Bobur va Navoiylarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz lozim. Bunda avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish sog‘lom turmush tarzini qarot toptirish, ilm–fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim” dir. Albatta, bu jarayon o‘z-o‘zidan sodir bo‘lib qolmaydi. Bunda qattiq ishonch, samarali ta’lim va tarbiya, yuksak ma’naviy muhit lozimdir. Shuningdek, ta’lim va tarbiyaning ratsionallligi hamda ma’naviy muhit shakllanishida oqilona muloqot madaniyati muhim hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, bu jarayonda insonning o‘zi sub’yekt sifatida faoliyat ko‘rsatsa, jamiyat va boshqa kishilar uchun uning axloqiy faoliyatining obyekti bo‘lishi mumkin. Biroq har bir inson ayni vaqtda boshqa odamlar, jamiyat axloqiy faoliyatining obyekti hamdir. Muloqot madaniyati tarkibidagi axloqiy faoliyatda inson yoki jamiyatning axloqiy ongi, axloqiy munosabatlari amaliy jihatdan yaxlit namoyon bo‘ladi, axloqiy talablar, yuksak fazilatlar gumanistik mohiyat kasb etadi.

Bizga ma’lumki, muloqot madaniyatining tarkibiy qismini tashkil etadigan qarashlar va tamoyillar, me’yorlar va qoidalar hamda axloqiy fazilatlar mohiyatan o‘zida konkret tarixiy mazmun va muayyan ijtimoiy ma’noni ifodalaydi. Muloqot madaniyati inson xulqining konkret shakli sifatidagina mavjud bo‘ladi. U yuqorida ko‘rsatganimizdek, faqat kishilarning axloqiy ongidan iborat bo‘lmay, aynan ularning xulqi orqali reallashadi. Insonning muloqot madaniyati u yoki bu axloqiy tamoyillar va talablardan emas, balki uning o‘zi tomonidan o‘zlashtirilgan axloqiy qarash va tasavvurlar, tuyg‘u va odatlar yig‘indisidan iboratdir. Shaxsning axloqiy fazilatlariga faqatgina aytgan so‘zlariga qarab emas, balki qilayotgan amallaridan kelib chiqib ham baho berish maqsadga muvofiqdir.

Muloqot san’ati inson mehnati, aql-idroki, shuuri bilan yaratilgan, vujudga kelgan, asrlar osha shakllangan, ijod qilingan madaniy hodisadir. Muloqot madaniyati keng ma’noda yuksak qadriyat bo‘lib, san’atning badiiy bilish-anglash jarayoni o‘ziga xos doirasida sodir bo‘ladi. Umuman olganda, muloqot madaniyati bizda insonning o‘zini tasvirlash orqali ham, uning atrofidagi hodisalarni aks ettirish orqali ham muayyan tuyg‘ular uyg‘otadi. Muloqot madaniyati voqelikka

qadriyatli munosabatlar timsoli sifatida ayni vaqtda u bilishning ham o‘ziga xos alohida turini anglatadi.

B.F.Lomov, L.A.Karpenko va boshqalar muloqotning funksiyalari, ichki tuzilishi va xususiyatlari borasida jiddiy tadqiqotlar olib borishgan.

Bizga ma’lumki, shaxs hayotining tarkib topishida muloqot madaniyati o‘ziga xos alohida ahamiyat kasb etadi. Muloqot madaniyatining yuksalishida axloq va ongning ahamiyati beqiyosdir. O‘zida umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishda shaxs ishonch, haqiqat, yolg‘on, tuhmat, aldov kabi nuqtai-nazarlarning qarama-qarshiliklariga duch keladi. Bundan kelib chiqadiki, shaxsning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatida uning atrof-muhitga ijtimoiy voqea-hodisalarga, kishilarga munosabatini ham hisobga olish lozim.

Muloqot madaniyatida yuqori funksiyalar sifatida quyidagilar keltirib o‘tiladi:

ixtiyoriy xotira;

mantiqiy tafakkur;

nutq.

Elementar funksiyalarga esa sezish, his qilish kabilar kiradi. L.S.Vigotskiy nazariyasiga ko‘ra, yuqori funksiyalarga qaraganda elementar funksiyalar ko‘proq naslga bog‘liq bo‘ladi. E.G‘oziyev muloqot tuzilmasi to‘g‘risidagi tadqiqotlarida muloqotning 3 ta muhim funksiyasini ko‘rasatib bergan:

1. Kommunikativ funksiya - bir tomonlama axborot uzatish;

2. Interaktiv funksiya - ikki tomonlama o‘zaro ta’sir ko‘rsatish;

3. Perseptiv funksiya - o‘zaro bir-birini idrok etish.

M.S.Kagan fikricha, kommunikatsiya va muloqot kamida ikki jihatdan farqlanadi. Uning fikricha: “muloqot amaliy, moddiy va ma’naviy axborot almashinuvidir va u amaliy-ma’naviy xarakterga ega, kommunikatsiya esa u yoki bu xabarlarni uzatish bilan bog‘liq sof axborot jarayonidir” . Muloqotning kommunikativ jihatida tilga va uning amaliy ifodasi bo‘lgan nutq faoliyatiga alohida e’tibor qaratiladi. Kommunikativ muloqot individlarning o‘zaro ma’lumot almashinishidir.

Interaktiv muloqotda muloqotga kirishivchilarning o‘zaro ta’siri, ularning nutq faoliyatida nafaqat so‘z orqali fikr almashinuvi, balki xatti - harakati va xulq-atvori bilan o‘zaro ta’sir o‘tkazish, ta’sirlanishidan iborat. Shu bois unga axborot uzatish jarayonida manfaati, maqsad va xohishini inobatga olish maqsadga muvofiq sanaladi.

Perseptiv muloqotda muloqotga kirishuvchilar o‘zaro bir-birlarini idrok qilish jarayoni namoyon bo‘ladi, insonni inson tomonidan idrok qilish yuzaga keladi . Muloqotning yuqorida qayd etilgan tuzulma va funksiyalarini alohida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Muloqotning kommunikativ jihati bu uning substansional, eng asosiy jihati hisoblanadi. Bunda nutq vositasida kishilar o‘zaro aloqaga kirishishadi va bu jamiyatning ijtimoiy mohiyatini tashkil etuvchi qonuniyat ham hisoblanadi. Bunda insonlar o‘zaro turli xil tasavvurlar, g‘oyalar, manfaatlar, tuyg‘ular va hokazo munosabatlar orqali fikr almashadilar. Bunda kommunikativ jarayonning har bir a’zosi o‘zi bilan hamkorlik qilayotganning ham faolligini ko‘zlaydi. Bu jarayonda hamkor ishtirokchi subyekt sifatida qo‘yiladi. Badiiy adabiyot shaxslararo, avlodlararo, millatlararo muloqot madaniyatining amalga oshishiga yordam beradi. Badiiy asarlarni yaratish davomida ijodkor tasavvurdagi o‘quvchi bilan muloqotga kirishsa, uni o‘qish jarayonida o‘quvchi ijodkor bilan muloqotga kirishadi. Muloqot jarayonida keng kitobxonlar ommasiga badiiy informatsiya yetkaziladi, bu esa o‘quvchining bilim va dunyoqarashini kengaytiradi hamda qiziqishlariga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi. Badiiy adabiyot vositasida amalga oshuvchi muloqot qarshisida davriy yoki hududiy chegaralar mavjud emas: uning vositasida o‘quvchi bir necha asrlar ilgari yashagan shaxs bilan ham, o‘zidan olisda yashovchi shaxslar bilan ham muloqot qiladi.

Bugungi kunda ko‘p kitob o‘qiyotgan kitobxon ota - bobolarimizning turmush tarzi, ularning fikrlash doiralari, orzu-intilishlari, olis dengiz ortidagi xalqning turmushi, dunyoqarashlari bilan ham yaqindan tanish bo‘la oladi. Bundan xulosa qila olamizki, inson ilmi orqali butun dunyoni zabt etishi mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, insonlararo kommunikasiya shunchaki axborot almashinuvi emas. Chunki o‘zaro muloqot jarayonida axborot nafaqat uzatiladi, balki shaklan tiriladi, rivojlantiriladi va aniqlashtiriladi. Bundan shuni xulosa qilamizki, inson muloqotni shuchaki axborot almashinuvi jarayoni deb hisoblashi mumkin emas. Muloqot jarayonida axborot bir tomondan ikkinchi tomonga shunchaki harakatlana olmaydi, balki faol almashinadi. Bu jarayonni oddiy qilib tushuntirganda, kommunikativ jarayon ishtirokchilari o‘zaro axborot alishiyotganda bir-birining motivlari, maqsadlari va boshqalarni tahlil qiladilar. O‘zaro muloqot jarayonida axborot almasha turib insonlar belgilar orqali bir-biriga ta’sir etishi mumkin. Bunda albatta, suhbatdoshning xulq-atvoriga muayyan tarzda ta’sir o‘tkaziladi.

Muloqot jarayonida kommunikator (axborot yuborayotgan shaxs) va resipient (axborot qabul qilayotgan shaxs) bir xil kodlashtirish tizimiga ega bo‘lishi kerak. Bunda til muloqotga kirishuvchilar o‘rtasidagi kommunikatsiyani ta’minlaydi. Uning boisi, axborot beruvchi ham, axborot qabul qiluvchi ham birdek tushunadi. Til so‘z belgilari yig‘indisidan iboratdir. Tilning qudrati to‘g‘risida buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning hikmatini keltirib o‘tishimiz joiz: “Til buncha sharaf bilan nutqning olatidur va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo‘lsa, tilning ofatidur . Bu jumladan shuni xulosa qilishimiz joizki, tilning

ahamiyati juda ham yuksak bo'lib, har doim nutq so'zlovchi dilidagi fikrni to'g'ri aks ettirishi lozim.

barcha chora tadbirlar malakali kadrlar tayyorlash maqsadini amalga oshirishga qaratilgandir. Bugungi ta'lim-tarbya jarayonlariga zamon talablariga mos imkoniyatlaridan ustuvorlik bilan foydalanib, ta'lim oluvchilarning aqliy potensialini o'sishini ta'minlashni nazarda tutadi. Bu borada mamlakatimizda ta'lim va sport tizimidagi islohotlarni uyg'un tarzda jismonan sog'lom, aqlli va bilimli yoshlarni tarbiyalash maqsadiga yo'naltirish bo'yicha ko'pgina amaliy ishlar qilinmoqda. Jumladan, jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish va o'tkazish usullarini tadqiq etish muammosini o'rganilishi ta'lim tarbiya masalalariga yanada chuqurroq kirib borishga va bu muammoga ilmiy-amaliy jihatdan oydinlik kiritishga asos bo'la oladi.

Jismoniy tarbiyaning kelib chiqishi haqidagi masala jismoniy tarbiya tarixining eng muhim muammolaridan biri bo'lib, prinsipial metodologik ahamiyatga ega ekanligiga e'tibor qaratilgan. Jismoniy tarbiya tarixi qadimgi zamonlardan boshlab, hozirgi kungacha bo'lgan davrlarda jahon xalqlarining jismoniy tarbiya va sport tarixi, xalqaro sport va olimpiya harakati tarixini o'rganadi. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi turli davrlarda jismoniy tarbiyaning vujudga kelishi, rivojlanishi va taraqqiy etishining umumiy qonuniyatlarini aniqlash, ulami tahlil qilish bilan shug'ullanadi.

Ma'lumki, maktab bu - ta'lim-tarbiya o'chog'idir. Ammo, tarbiyaviy vazifalar asosan odobnoma darslari yoki darsdan tashqari sharoitlarga mo'ljallab amalga oshiriladi, to'g'ri, bu pedagogik shart-sharoitlar, tarbiya vositalari muhim ahamiyatga ega ekanligini bildiruvchi jarayonlardir. Vaholanki, tarbiyaning maqsad va vazifalarini hal etishda asosiy tashkiliy shakl – bu darsdir.

O'quvchilarni tarbiyalash vazifalarini faqat odobnoma darslarida emas, har qanday fanni o'tish jarayonida amalga oshirish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim va tarbiya bu yaxlit, bir butun pedagogik jarayondir.

Boshlang'ich sinflarda barcha fanlarni o'qitishda didaktik maqsadlar bilan bir qatorda o'qituvchi tarbiyaviy maqsadini ham aniq belgilab olishi va ularni hal etishi lozim. Masalan, jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarni faqat jismoniy sifatlarini emas, balki bir vaqtning o'zida ularning ham ma'naviy, ham axloqiy, ham estktik sifatlarini tarbiyalash vositasi sifatida amalga oshiriladi. Shuningdek, boshqa tarbiyalar bilan ham yaqin aloqador bo'lib, bir-birlarini to'ldiradilar.

Jismoniy tarbiya jarayonida bolalar kuchli irodali fazilatlarni rivojlantiradilar (qat'iyatlilik, chidamlilik, jasorat, qat'iyatlilik va boshqalar). Bunga jasorat talab etadigan jismoniy mashqlar (gimnastika devoriga ko'tarilish, yugurishni boshlashdan baland sakrash, pastga tushish va hokazo) yordam beradi. Shu bilan birga, qoidalarga rioya qilish zarurati, o'rtoqlarning namunasi, bolalarni qo'rquvni engishga, vazminlikni namoyon etishga undaydi.[2]

Boshlang‘ich maktab yoshining boshlanishi. Bu davr - bu bolaning psixofiziologik rivojlanishi, maktabda tizimli ta'lim olish imkoniyatini beradi. Avvalo, miya va asab tizimining ishi yaxshilanmoqda. Fiziologlarning fikriga ko‘ra, 7 yoshga kelib, miya yarim korteksi allaqachon etuk bo‘lgan. Shu bilan birga, ushbu yoshdagi bolalarda aqliy faoliyatning murakkab shakllarini dasturlash, tartibga solish va nazorat qilish uchun javob beradigan miyaning eng muhim, xususan inson bo‘limlari hali shakllanishini tugatmagan, buning natijasida korteksning subkortikal tuzilmalarga tartibga soluvchi va inhibe qiluvchi ta'siri etarli emas. Korteksning tartibga solish funktsiyasining nomukammalligi bu yoshdagi bolalarga xos bo‘lgan xulq-atvor, faoliyatni tashkil qilish va hissiy sohada namoyon bo‘ladi: yosh maktab o‘quvchilari osongina chalg‘ishadi, uzoq vaqt konsentratsiya qila olmaydilar, hayajonli, hissiy.

Boshlang‘ich maktab yoshida turli bolalarda psixofiziologik rivojlanish notekis bo‘ladi. O‘g‘il va qizlarning rivojlanish sur'atlaridagi tafovutlar davom etmoqdi Tizimli (o‘quv mashg‘ulotlarini oddiydan murakkabga qarab) ta'limga o‘tish bolalarning aqliy rivojlanishiga yuqori talablarni qo‘yadi, bu hali yosh o‘quvchilarda beqaror va charchoqqa qarshilik darajasi past bo‘ladi.

Boshlang‘ich maktab yoshida bolaning aqliy rivojlanishida ham muhim o‘zgarishlar ro‘y beradi: bilim sohasi sifat jihatidan o‘zgartiriladi, shaxs sifatida shakllantiriladi, tengdoshlar va kattalar bilan munosabatlarning murakkab tizimi shakllanadi.

Maktabda o‘qishni boshlash bolaning rivojlanishidagi ijtimoiy vaziyatni tubdan o‘zgartirishga olib keladi. U "jamoat" subektiga aylanadi va hozirda ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan majburiyatlarga ega bo‘ladi. Uni amalga oshirgan ishlar jamoatchilik tomonidan baholanadi.

Boshlang‘ich maktab yoshidagi etakchi o‘quv faoliyati. Tizimli ta'limga o‘tish bolalarning yangi bilim ehtiyojlarini rivojlantirish, atrofdagi voqelikka faol qiziqish va yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun sharoit yaratadi.

Kichik maktab yoshi - bu intensiv rivojlanish va bilim jarayonlarining sifatli o‘zgarishi davri: ular bilvosita xarakterga ega bo‘lishni boshlaydilar va ongli va o‘zboshimchalik bilan harakat qiladi. Bola asta-sekin uning aqliy jarayonlarini o‘zlashtiradi, idrokni, e'tiborni, xotirani boshqarishni o‘rganadi.

Ushbu davrda xatti-harakatlarni ixtiyoriy ravishda tartibga solish qobiliyati sifat jihatidan o‘zgaradi.

Boshlang‘ich maktab yoshida atrofdagi odamlar bilan munosabatlarning yangi turi boshlanadi va shakllanadi. Voyaga etgan kishining shartsiz obro‘si asta-sekin yo‘qoladi, tengdoshlar bola uchun tobora muhim ahamiyat kasb etib va bolalar jamoasining roli tobora o‘sib boradi.

Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolarda quyidagilar seziladi:

- o‘rganish motivlarini shakllantirish, barqaror bilim ehtiyojlari va qiziqishlarini rivojlantirish;

- samarali ish uslublari va amaliy ish ko‘nikmalarini, tarbiya ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- individual xususiyatlar va qobiliyatlarni ochib berish;

- o‘zini o‘zi boshqarish, va o‘z jamoadoshlarini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- o‘zini o‘zi munosib baholashni o‘rgatish, o‘ziga va boshqalarga nisbatan tanqidiylikni rivojlantirish;

- ijtimoiy me'yorlarni o‘zlashtirish, axloqiy rivojlantirish;

- tengdoshlar bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, kuchli do‘stona aloqalarni o‘rnatish.

Ushbu jarayonda o‘quv faoliyatining etakchi roli yosh o‘quvchining boshqa mashg‘ulotlarga (o‘yin, mehnat elementlari, sport o‘ynash, san'at va boshqalar) faol ravishda qo‘shilishini istisno etmaydi, bu davrda bolaning yangi yutuqlari yaxshilanadi va mustahkamlanadi.

Jismoniy tarbiya bu bolalarning jismoniy va sport faoliyatining maqsadli, aniq tashkil etilgan va tizimli ravishda amalga oshiriladigan tizimi. Bu yosh avlodni jismoniy tarbiya, sport, harbiy va amaliy faoliyatning turli shakllarida o‘z ichiga oladi, bolani aqli, his-tuyg‘ulari bilan uyg‘unlikda barkamol rivojlantiradi.

Jismoniy tarbiya maqsadi - bu bola organizmining aqliy, mehnat, hissiy - axloqiy, estetik tarbiya bilan yaqin, organik birlikda uyg‘un rivojlanishi.

To‘g‘ri jismoniy tarbiya, sport tadbirlarida ishtirok etish sheriklik, kollektivizm, o‘zini o‘zi tarbiyalash, irodani mustahkamlashga yordam beradi.

Jismoniy tarbiya o‘quvchilarga pedagogik ta'sirning kengroq doirasini qamrab oladi.

Jismoniy tarbiya mazmunida o‘quvchilarning jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirish va ularning jismoniy kuchlari va sog‘lig‘ini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.Jismoniy tarbiya darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalashda umumiy tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 3 июндаги “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3031-сон Қарори.

2. Возрастная и педагогическая психология: Хрестоматия: Учеб. пособие для студ. сред. пед. учеб. заведений / Сост. И.В.Дубровина, А.М.Прихожан, В.В.Зацепин. – М.: Издательский центр «Академия», 1998. – 231 с.

3. Botirov X.A. Jismoniy tarbiya va sport tarixi. T. “O‘qituvchi” 1993 y.;

4. Djalilova L.A. Jismoniy tarbiya v sport tarixi. O‘quv uslubiy qo‘llanma. T: 2013.;

5. Ernazarov E. Olimpiada – jahon sporti bayrami. T.: “Sharq”, 2008.;

6. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. T.: 2008.

MAKTAB O'QUVCHILARINI JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA AMALIY MASHQLARNING SAMARADORLIGI

Abduraximov S.D.
CHDPU "Jismoniy madaniyat" o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: sport, pedagogik texnologiyalar, uslublar, mezonlar, amaliy darslar, didaktik qonuniyatlar,gimnastika mashqlari.
Ключевые слова: спорт, педагогические технологии, методика, нормативы, практические занятия, дидактические правила, гимнастические упражнения.
Key words: sports, pedagogical technologies, methods, standards, practical lessons, didactic rules, gymnastics exercises

РЕЗЮМЕ:
Gimnastika mashqlarini o'rgatishga, shu jumladan gimnastika bo'yicha iste'dodli sportchi bolalarni etishtirish, o'quv-mashg'ulot jarayonini takomillashtirishga qaratilgan. Gimnastika mashqlarini o'rgatishda noan'anaviy vositalardan foydalanish va didaktik qonuniyatlarga asoslangan tayyorgarlikni olib borish kerak.
РЕЗЮМЕ:
Она направлена на обучение гимнастическим упражнениям, в том числе на подготовку талантливых детей-гимнастик, и совершенствование тренировочного процесса. При обучении упражнениям гимнастики необходимо использовать нетрадиционные средства и проводить обучение на основе дидактических законов.
SUMMARY:
It is aimed at teaching gymnastic exercises, including training talented gymnastic children, and improving the training process. In teaching gymnastics exercises, it is necessary to use non-traditional tools and conduct training based on didactic laws.

Ixtisoslashgan amaliy gimnastika-shug'ullanuvchilarning umumiy jismoniy rivojlanishiga va ularning o'z ixtisoslariga xos mehnat harakatlarini tezroq o'zlashtirishga mo'njallangan ixtisoslashgan amaliy jismoniy tayyorgarlikning tarkibiy qism hisoblanadi.

Ixtisoslashgan amaliy tayyorgarlik asosan turli kasbdagi ishchlarni tayyorlaydigan ixtisoslashgan texnika bilim yurtlarida, shuningdek oliy o'quv yurtlari hamda texnikumlarda o'tkaziladi. Bu tayyorgarlik uch qismdan iborat: umumiy ixtisoslashgan amaliy va maxsus jismoniy tayyorgarlik.

Umumjismmoniy tayyorgarlik shug‘ullanuvchilarni har tomonlama, garmonik rivojlantirish va sog‘lomlashtirishga qaratilgan. Bu tayyorgalik turli sport turlari mashg‘ulotlarni: engil atletika, chang‘i, suzish sporti va hokazolarni o‘z ichiga oladi. Bu tayyorgalikda ayniqsa quyidagi gimnastika mashqlari katta o‘rin tutadi:

1. Buyumsiz va buyum bilan umumrivojlantiruvchi mashqlar
2. Ommaviy tusdagi asboblar (gimnastika devori skameyka, arqon yakkacho‘p va boshqalar)dagi mashqlar
3. Oddiy akrabatika mashqlari
4. Oddiy va tayanib sakrashlar.

Bo‘lajak kasbni tezroq egallab olishga mo‘njallangan, hamma uchun yagona bo‘lgan umumjismoniy tayyorgarlikdan farqli o‘laroq ixtisoslashgan amaliy tayyorgarlik bo‘lajak ishlab chiqarish faoliyatini hisobga olgan holda o‘tkaziladi. Uning programmasiga ixtisoslashgan amaliy gimnastika kiradi, uning hajmi va harakteri o‘quvchilarning ixtisosi va shug‘ullanuvchilar mehnatinig sharoiti va hususiyatiga bog‘liqdir.

Ixtisoslashgan amaliy gimnastika shug‘ullanuvchilarning ishlab chiqarish faoliyatida asosiy ishni bajaradigan muskul guruhlarni rivojlantirishga, shuning bo‘lajak kasbga zarur bo’lgan harakatlarni o‘stirishga mo‘njallangan. Bundan tashqari mehnat jarayoniga o‘xshash bo‘lgan mashqlar yordamida konkret kasb sohasida muvoffaqiyatliroq ishlash uchun zarur bo‘lgan jismoniy sifat va harakat malakalari rivojlanadi.

Ixtisoslashgan amaliy gimnastikada qo‘yilgan vazifalarga muvofiq ravishda hamma mashqlar: umumrivojlantiruvchi va erkin, asboblardagi, saf va amaliy, akrobatika va badiiy gimnastika mashqlari, qo‘llanilishi mumkin.

Keyingi vaqtlarda duradgor, bo‘yoqchi va suvoqchilarning ixtisoslashgan amaliy jismoniy tayyorgarlik mashqlari ishlab chiqarilib sinovdan o‘tkazilgan edi. Ularning jismoniy tayyorgarlik programmasining ko‘p qismni ham amaliy gimnastika egallaydi.

Tadqiqotlar tajribali havaskorlarning jismoniy tayyorgarligi II-sport razryadiga ega bo‘lgan gimnastikachilarning jismoniy tayyorgaligiga teng kelishini ko‘rsatadi. Demak, ixtisoslashgan amaliy gimnastika dasturi shuday o‘tkazilishi kerakki, mashg‘ulotlarning oxiriga kelib shug‘ullanuvchilarning jismniy tayyorgarlik darajasi malakali ishchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasiga yaqinlashsin. Bu masalani hal qilish uchun umumrivojlantiruvchi mashqlar, turnik va qo‘shpoyalarda bajariladigan mashqlar, narvon va arqonlarga tirmashib chiqish mashqlari, tayanib sakrashlar maxsus tayinlab olingan edi.

Havaskorlar ishlayotganda va tor joylarda yurganda, turli sharoitlarda muvozanat saqlashni o‘rganishlari uchun, dasturga to‘sinlar kengligidagi buyumlardan yurush va boshqa turli mashqlar kiritilgan edi. To‘sinning balandligi asta-sekin oshirila boriladi (0.5m dan5.5m gacha) muvozanat saqlash malakalari ayniqsa, balandlikda muvozanat saqlash fazoda mo‘ljal ola bilishga, vestibulyar apparatining turg‘unligiga bog‘liqdir. Bu vazifalar balandlikda tura olish ko‘nikmalariga bog‘liqdir. Bu vazifalar yo‘lakdan, akrobatika sakrashlar, batutda sakrashlar va baland inshoatda bajariluvchi, huddi ishchi bajariladigan operatsiyalarga o‘xshash mashqlar yordamida hal qilinadi. Balandlikka nisbatan muhofaza reaksiyasini kamaytirish va o‘z kuchiga ishonch hosil qildirish uchun shug‘ullanuvchilar montaj tasmasini taqib, baland havoda pastga sakrash mashqlarini bajarishgan.

Mashg‘ulotlar dars shaklida haftasiga ikki marta 90 minutdan o‘tkazilgan. Birinchi 30 minutda o‘quvchilar hammalari birgalikda chigil yozish, buyum bilan va buyumsiz umumrivojlantiruvchi mashqlarni bajarishgan. Keyinchalik ular uchta buyumga ajratilgan va doira boylab almashinib, programmaning ayrim turlari bilan shug‘ullanishgan (turnikdagi mashqlar, batutdan sakrash, baland havodagi mashqlar yoki aktobatika sakrashlari, tayanib sakrashlar va hokazolar shular jumlasidandir).

Maxsus jismoniy tayyorgarlik yuqorida bayon qilib yozilgan turlridan farqli o‘laroq darsdan tashqari seksiya mashg‘ulotlarida o‘tkaziladi. U kasb faoliyatining yaxshilanishiga yordam berish uchun biron bir sport turida takomillashishni nazarda tutadi. O‘quvchi istagan sport turi bilan shug‘ullanishi mumkin, biroq har bir muayyan ixtisos uchun u yoki bu kasb ishchilariga foydaliroq sport turini tavsiya qilish mumkin chunonchi, mantajchi havaskorlar uchun batutda sakrashlar, sport gimnastikasi mashqlari, akrabatika sakrashlari, suvga sakrash, shuningdek chang‘ida tranplindan sakrashlar katta yordam ko‘rsatadi. Ko‘rsatib o‘tilgan sport turlarida takomillashib va ularni muayyan sport natijalariga erishgandan so‘ng havaskorlar maqsadiga muvofiq ravishda o‘z mehnat yutuqlariga ta‘sir qiladilar.

Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida o‘quvchilarning jismoniy tarbiya umumiy programma mashg‘ulotlari va fakultativ mashg‘ulotlardan iborat. O‘quvchi qaysi sport turi bilan shug‘ullanmasin, u mashg‘ulotga kiradigan va sportchilarni maxsus tayyorgarligi uchun qo‘llaniladigan gimnastika mashqlarini albatta bajaradi ko‘rsatilgan mashg‘ulotlarga ixtisoslashgan amaliy gimnastika hos bo‘lgan mashqlarini kiritish tavsiya qilinadi. Shunday qilib ixtisoslashgan amaliy gimnastika jismoniy tayyorgarlik ko‘rinishidagi ahamyati juda kattadir.

Organizmning fuksional imkoniyatlarini oshirish va harakat sifatlarini takomillashtirish uchun qo‘llaniladigan jismoniy tayyorgarlikni turli vosita hamda metodlari orasida gimnastika muhim ro‘l o‘ynaydi.

Sport amaliy gimnastika qo‘llaniladigan mashqlar muskul zo‘riqishini tuzilishi va harakteri bo‘yicha u yoki bu sport turiga hos bo‘lgan mashqlarga o‘xshashdir.

Gavdaning turli qismlari aylanma harakat qiladigan sport turlarida yuqori sport natijalariga erishish uchun (figurali uchish, kurash, futbol, suvga sakrash, hokkey, basketbol va boshqalar) akrobatika mashqlari keng qo‘llaniadi, ular yordamida tayanch harakatlantiruvchi apparat va vestibulyar analizatorlarining funksiyasi takomillashadi.

Sport amaliy gimnastika mashg‘lotlari asosiy ko‘rinishlariga quyidagilar kiradi.

20-40 minut davomida bajariladigan kundalik ertalabki gimnastika. Unga ertalabki badantarbiyadan ko‘ra ancha jadalroq bajariladigan tanani qizdirish mashqlari. Buning uchun tanlab olinadigan sport turining asosiy funksional va muskul faoliyatini harakteriga mos keladigan mashqlar tanlanadi. Tanani qizdirish mashqlari jarohatlarning oldini olishning ishonchli vositasidir.

Jismoniy tayyorgarlik jarayonida shug‘ullanuvchilarning harakat sifatlari takomillashadi (mashg‘ulot paytida va maxsus mashg‘ulotlarda).

Sport amaliy gimnastika uchun mashqlar tayyorlanganda ularning o‘z vazifasiga to‘g‘ri kelishi ertalabki gimnastika, tanani qizdirish, jismoniy tayyorgarlik, shuningdek shug‘ullanuvchilarning yoshiga, ularning tayyorgarligi va mashg’ulot davriga mos kelishini hisobga olish kerak.Kompleksga kiritilgan mashqlar sportchilarning organizmga har tomonlama ta‘sir ko‘rsatishi kerak. Ularning navbatlashtirilganda muskul guruhlarini ishga ketma-ket kirita borish va asta sekin jadallikni oshirib borish zarur.

Mashg‘ulotlar kichik amplitudali asta sekin bajariladigan oddiy mashqlardan boshlanadi. Asta-sekin ularning miqdori va bajarilish me’yori oshib boradi, alohida muskul guruhlarining ishiga e’tibor ko‘paytiriladi. Jadalroq mashqlar kompleksining oxrida bajariladi. Vaqt–vaqti bilan 2-4 mashqlardan iborat seriyalar takrorlanadigan, maxsus mashqlar tavsiya qilinadi.

Maxsus jismoniy tayyorgalik mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan mashqlarning salmog‘i sport turiga va muayyan harakat vazifalarining hal qilishga bog‘liqdir.

Sport amaliy gimnastika mashg‘ulotlarida quyidagilar: buyumsiz va gimnastika tayog‘i bilan gantellar, to‘ldirma to‘p, arg‘amchi, rezina amartizator, dastak bilan bajariladigan umumrivojlantiruvchi mashqlar: gimnastika devori, skameyka (o‘rindiq) arqon hamda shuningdek bruslarda (qo‘shpoya) halqa,

konda (dastakli ot), kazyollarda (ot) bajariladigan umumrivojlantiruvchi mashqlar: akrobatika mashqlari (shu jumladan, batutda, tramplinda, irg‘itma taxtada) qo‘llaniladi.

Xulosa qilib maktab o’quvchilarini jismoniy rivojlanishning yosh hususiyatlari va boshlang'ich tayyorgarlik vazifalarini hisobga olish negizida ishlab chiqilgan mashg'ulot jarayonini tuzilish tuzilmasi va mazmuni dars mashg’ulotlarida o'z tasdig'ini topdi. Yosh gimnastikachilarining sog'lig'i va morfo-funktsional rivojlanish dinamikasiga hamda jismoniy tayyorgarligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, bu esa o'z navbatida, ularni sport gimnastikasi bo'yicha bolalar va o‘smirlar sport maktablarining ish amaliyotiga tavsiya qilinishiga imkon berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2654-son “O‘zbekistonda gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirsh chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori 2016 yil 7 noyabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3031-son “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori 2017 yil 3 iyun.

3. Postanovleniye Kabineta Ministrov Respubliki Uzbekistan ot 13 fevralya 2019 goda №118 «Ob utverjdenii Konsepsii razvitiya fizicheskoy kulturы i massovogo sporta v Respublike Uzbekistan na period 2019-2023 godы».

4. Arkayev L.Ya., Suchilin N.G. Kak gotovit chempionov. /Teoriya i texnologiya podgotovki gimnastov vыsshey kvalifikasii. M.: FIS 2004.- 326 s.

5. Anfimov A.B. Effektivnost uprajneniy dlya sovershenstvovaniya navыkov ustoychivыx prizemleniy gimnastov vыsokoy kvalifikasii / A.B. Anfimov, G.V. Indler // Aktualnыye problemы fizkulturno-sportivnogo dvijeniya: mater. nauch. konf. 1-2 dekabrya 1987g. – Minsk, 1988. – S. 120-123.

6. Abduraximov Sardor Dilmurot o‘g‘li. Bolalarning muvozanat qobiliyatini shakllantirishda maxsus jismoniy mashqlar komplekslaridan foydalanish. Miasto Przyszłości, 49, 2024-yil 469–471.

GANDBOL SPORT TURINI TAYYORLASH TIZIMINING ASOSIY QOIDALARINI SHAKLLANTIRISH

Juraboyev M. M.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: qo'l to'pi, federatsiyalar, sport, musobaqa, mahorat, hamkorlik,murabbiy, o'quv mashg'ulot, sport maktablari, sport turlari,texnologiyalar, professional sport, taktik tayyorgarlik, texnika tayyorgarlik, motivatsiya, jismoniy tayyorgarlik, hujum,himoya.
Ключевые слова: ручной мяч, федерации, спорт, соревнования, мастерство, сотрудничество, тренер, тренинг, спортивные школы. Виды спорта, технологии, профессиональный спорт, тактическая подготовка, техническая подготовка, мотивация, физическая подготовка, атака, защита.
Key words: handball, federations, sports, competitions, skills, cooperation, coaching, training, sports schools. Sports, technology, professional sports, tactical training, technical training, motivation, physical training, attack, defense.

РЕЗЮМЕ:
Gandbolchilarning sport mashg'ulotlari tizimi sportchilarning ushbu o'yinda yuqori natijalarga erishishiga yordam beradigan turli jihatlarni o'z ichiga oladi. Sport mashg'ulotida sportchilar jismoniy tayyorgarlik,taktik tayyorgarlik,texnik tayyorgarlikka ega bo'ladilar.
РЕЗЮМЕ:
Система спортивной тренировки гандболистов включает в себя различные аспекты, которые помогают спортсменам достигать высоких результатов в этой игре. В спортивной тренировке спортсмены имеют физическую подготовку, тактическую подготовку, техническую подготовку.
SUMMARY:
The system of sports training for handball players includes various aspects that help athletes achieve high results in this game. In sports training, athletes have physical training, tactical training, and technical training.

Tadqiqotning dolzarbligi. Jismoniy tayyorgarlik: Qo'l to'pi o'yinchilardan yaxshi jismoniy shaklda bo'lishni talab qiladi, chunki o'yin tez harakatlar, sakrash, manevrlar va boshqa o'yinchilar bilan aloqani o'z ichiga oladi. Jismoniy tarbiya kuch, chidamlilik, moslashuvchanlik, tezlik va muvofiqlashtirish mashqlarini o'z ichiga oladi. Qo'l to'pi o'yinning shiddati va jismoniy talablari tufayli o'yinchilardan jismonan sog'lom bo'lishni talab qiladi. Gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligining

bir necha asosiy jihatlari:Chidamlilik: Gandbol uzoq vaqt davomida faol o'yinni o'z ichiga oladi, shuning uchun o'yinchilar o'yin davomida yuqori darajadagi faollikni saqlab qolish uchun yaxshi chidamlilikka ega bo'lishlari kerak.Tezlik va chaqqonlik: hujumda ham, himoyada ham tezkor harakatlar gandbolning ajralmas qismidir. O'yinchilar maydon bo'ylab tez harakatlana olishlari, yo'nalishni keskin o'zgartirishlari va vaziyatlarga tezkor munosabatda bo'lishlari kerak.2. Texnik tayyorgarlik: Gandbolchilar yaxshi o'yin texnikasiga ega bo'lishi kerak, shu jumladan to'pni qabul qilish va uzatish, darvozaga tashlash, himoyalanish va o'yinning boshqa asosiy elementlari. Texnik tayyorgarlik o'yin mahorati va texnikasini yaxshilashga qaratilgan mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. Gandbolchilar yaxshi o'yin texnikasiga ega bo'lishi kerak, shu jumladan to'pni qabul qilish va uzatish, darvozaga o'q otish, himoyalanish va o'yinning boshqa asosiy elementlari. Mana ulardan ba'zilari: To'pni qabul qilish va uzatish: Gandbolchilar jamoaning samarali hujumini ta'minlash uchun to'pni aniq qabul qilish va uzatishni bilishlari kerak.[1] Bunga qo'l va tanani to'g'ri joylashtirish, to'pning traektoriyasini baholash va to'g'ri qaror qabul qilish kiradi.Darvozaga otish:

Tadqiqotning maqsadi. Gandbolchilar gol urish uchun yaxshi zarba berish texnikasiga ega bo'lishlari kerak. Bunga tananing to'g'ri pozitsiyasi, qo'lning tebranishi, aniqligi va otish kuchi kiradi. Himoya: Gandbolchilar o'z darvozalarini samarali himoya qila olishlari va raqiblarining hujum harakatlariga to'sqinlik qila olishlari kerak. Bunga to'g'ri joylashish, faol harakat, zarbalarni to'sish va to'pni ushlab olish kiradi. O'yinning boshqa asosiy elementlari: Qo'l to'pida to'psiz harakat qilish, raqibni to'sish, to'p uzatish va hujum qilish uchun joy yaratish, jamoadoshlar bilan muloqot qilish ko'nikmalari ham muhim ahamiyatga ega.[2] Qo'l to'pi o'ynash texnikasi o'yinchilardan doimiy ravishda mashq qilish va mahoratini oshirishni talab qiladi. Muntazam mashg‘ulotlar va mashg‘ulotlar gandbolchilarga texnikasini yaxshilashga va maydonda samaraliroq bo‘lishga yordam beradi.3. Taktik tayyorgarlik: Qo‘l to‘pi jamoaviy o‘yin bo‘lib, o‘yinchilar o‘yin taktikasi va strategiyasini yaxshi bilishlari kerak. Bu turli hujumchilar va himoyani tushunishni o'z ichiga oladi.To'g'ri, gandbolda o'yinchilar o'yin taktikasi va strategiyasini yaxshi tushunishlari kerak. Bunga turli hujum va himoya taktikalarini bilish, shuningdek, maydondagi mavjud vaziyatdan kelib chiqib qaror qabul qilish qobiliyati kiradi.Hujum taktikasi kombinatsiyalangan o'yin, aylanishlar, to'p uzatish va otish joylarini yaratish va tezkor qarshi hujum o'yin uslubidan foydalanish kabi elementlarni o'z ichiga olishi mumkin.[3] Qo'l to'pidagi himoyalar odamdan odamga himoyadan tortib zona himoyasigacha bo'lishi mumkin. O'yinchilar raqibning harakatlari va maydondagi vaziyatga qarab taktikani o'zgartirishga tayyor bo'lishlari kerak.O'yinning taktikasi va strategiyasini tushunish gandbolchilarga tez va samarali qarorlar qabul qilish, jamoadoshlari bilan hamkorlik qilish va muvaffaqiyatga erishish uchun o'z mahoratini

eng yaxshi tarzda ishlatish imkonini beradi.Taktika va strategiyaning barcha bu jihatlari odatda mashg'ulotlarda va musobaqaga tayyorgarlik jarayonida o'rganiladi vaqo'llaniladi.[4] Gandbolchilarning taktik fikrlash va mahoratini rivojlantirishda tajriba, o‘yin tahlili va jamoaviy ish ham muhim o‘rin tutadi.Tajriba, o'yinni tahlil qilish va jamoaviy ish gandbolchilarni rivojlantirishda o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Bu jihatlar qanday o'zaro ta'sir qiladi:1. Tajriba: gandbolchi qanchalik ko'p tajribaga ega bo'lsa, u o'yin dinamikasi, taktikalari va strategiyalarini shunchalik yaxshi tushunadi. Tajriba o'yinchiga oldingi vaziyatlar asosida ma'lumotli qarorlar qabul qilishga, raqiblarning harakatlarini oldindan bilishga va o'zgaruvchan o'yin sharoitlariga tezda moslashishga yordam beradi.2. O'yinni tahlil qilish: o'yinni tahlil qilish gandbolchilarga o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini o'rganishga, shuningdek raqiblarning o'yinlarini tahlil qilishga imkon beradi.[5] Bu yaxshilanish sohalarini aniqlashga, yanada samarali taktika va strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Tahlil, shuningdek, xatolardan saboq olish va ularni tuzatish choralarini ko'rish imkonini beradi.3. Jamoaviy ish: gandbol jamoaviy o'yin bo'lib, yaxshi jamoaviy ish muvaffaqiyatning asosiy omilidir.

Xulosa. Jamoa ishini rivojlantirish har bir o'yinchining roli va majburiyatlarinitushunishni, hamkorlik qilish, muloqot qilish va jamoaviy qarorlarqabul qilish qobiliyatini talab qiladi. Jamoa ishi, shuningdek, taktik fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, chunki o'yinchilar sheriklarning harakatlariga moslashishni va birgalikda hujum va mudofaa sxemalarini yaratishni o'rganadilar.Tajriba, o'yin tahlili va jamoaviy ish o'zaro ta'sir qiladi va bir-birini to'ldiradi. O'yin tajribasi va tahlili o'yinchilarga taktik fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi va jamoaviy ish ularga ushbu taktik ko'nikmalarni amalda qo'llash imkonini beradi. Natijada gandbolchilar o'yinda yanada samarali va muvaffaqiyatli bo'lishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Акрамов Ж.А. Гандбол (учебник для УзГИФК) –Т. Lider Press 2008. 2.Павлов Ш., Абдурахманов Ф. Подготовка гандболистов –УзГИФК Т.: 2006г. 299с.

3. Павлов Ш.К., Абдурахманов Ф.А., Акрамов Ж.А. Гандбол. Дарслик. Тошкент, ЎзДЖТИ нашриёт-матбаа бўлиши 2005й.

4. Павлов Ш.К., Абдурахманов Ф.А., Азизова Р.И. Гандбол. (мусобака койдалари, уларни ташкил этиш ва ўтказим тизими) Тошкент, “Lider Press” нашриёти, 2007 й.

5. Pavlov Sh.K, Abdurahmanov F.A, Raxmanova M.M. “Gandbol” o‘quv uslubiy qo‘llanma, 2010y.

6. Pavlov Sh.K, Abdalimov O.X., Yusupova Z.Ye. “Gandbol nazariyasi va uslubiyati” darslik, 2017 y.

7. Tulaganov Sh.F, Raxmanova M.M “Gandbol nazariyasiva uslubiyati” o‘quv qo‘llanma, 2020 y.

8. Pavlov Sh.K, “Sport pedogogik mahoratini oshirish (gandbol)” (Gandbolchilarning Jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish) o‘quv qo‘llanma, 2021y.

9. Mo‘minov A.Sh. “Sport pedogogik mahoratini oshirish (gandbol)” o‘quv qo‘llanma, 2021 y. 10.Isroilov R.I. “Gandbolni o‘rgatish metodikasi” o‘quv qo‘llanma, 2021 y.

MASHG‘ULOT JARAYONIDA MALAKALI KURASHCHILARNING MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Xo‘janiyozov B. I.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: o‘zini o‘zi massaj qilish, tiklanish, ish qobiliyati, massaj, jismoniy yuklama, sportchilarni tayyorlash.
Ключевые слова: самомассаж, восстановление, работоспособность, массаж, физическая активность, подготовка спортсменов.
Key words: training athletes, recovery, performance, massage, self-massage, physical activity

РЕЗЮМЕ:
O‘quv-mashg‘ulotlar jarayonida malakali kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini baholash, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni nazorat qilish uchun belgilangan mashqlarni qo‘llash metodikasi takomillashtirilgan.
РЕЗЮМЕ:
Усовершенствована методика применения специалных упражнений для оценки физической подготовленности и контроля общей и специалной подготовленности квалифицированных курашистов в учебно-тренировочном процессе.
SUMMARY:
The methodology for the use of a complex of general and special exercises for assessing the physical training of qualified wrestlers in the process of training is improved.

Dolzarbligi. Kurash milliy sport turida sport natijalarining o‘sishi malakali kurashchilarni tayyorlashning samarali tizimini oqilona tuzishga bog‘liq. Musobaqa va mashg‘ulot vositalarining to‘g‘ri taqsimlanishi, rejalashtirilishi va musobaqa faoliyatida nazorat qilinishi malakali kurashchilarni tayyorlashni boshqarishning samaradorligi oshishiga qay darajada yordam berishini aniqlash hamda ilmiy asoslab berish muhim ahamiyatga ega.

Kurashchilarning mashg‘ulot jarayonini pedagogik nazorat qilish vositalari va metodlarini nazariy asoslash zamirida yakkakurash turlarida sportchilar tayyorgarligini boshqarishning uch pog‘onali funksional tizimi yotadi (unda uchta asosiy pog‘ona ajratilgan bo‘lib, u butun tayyorgarlik tizimini to‘liq hajmda

tasavvur qilishga va tizimning boshqaruv va boshqariluvchi elementlari orasidagi optimal nisbatlarni aniqlashga imkon beradi) [A.A.Novikov].

A.A.Novikovning uch pog‘onali tizimiga asoslanib, malakali kurashchilarning tayyorgarligini pedagogik kompleks nazorat qilish sxemasi ishlab chiqildi. Malakali kurashchilarni tayyorlashda pedagogik nazorat asoslarini rivojlantirishda, birinchi navbatda, organizmning yosh bilan bog‘liq rivojlanishi, shuningdek, funksional tizimlarning individual rivojlanishi, tabiiy o‘sish jarayonida sifat va xususiyatlarning o‘zgaruvchanligi va o‘zgarmas darajasi, yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar ta’sirida o‘ziga xos ko‘nikmalarni rivojlantirishda individual xususiyatlarni hisobga olish zarur.

Tadqiqotning maqsadi malakali kurashchilarning musobaqa va mashg‘ulot jarayonini pedagogik nazorat qilishning nazariy-metodik asoslarini yanada takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot usullari: Maqolada ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili, so‘rovnoma, pedagogik kuzatuv, pulsometriya, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, matematik statistika metodlaridan foydalanilgan

Tadqiqotni tashkillashtirish. Malakali kurashchilarning mashg‘ulot va musobaqa yuklamalarini hisobga olish hamda tahlil qilish tizimi asoslanib, o‘quv-mashg‘ulot jarayonining samarali vositalari va metodlari aniqlangan. Malakali kurashchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda mashg‘ulot va musobaqa faoliyatining model tavsiflari ishlab chiqilib, unifikatsiyalashgan tizimning musobaqa va mashg‘ulot faoliyati natijadorligini oshirishda samaradorligi aniqlab berilgan.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi: Mazkur maqola jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi sohasidagi respublikamiz va xorijiy olimlarning fikr-mulohozalariga asoslanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi. Olingan ma’lumotlar va natijalar kompyuter texnikasi yordamida to‘g‘ri qayta ishlab chiqilgan. Mazkur ishda berilgan xulosalar va ilmiy tavsiyalarning ishonchliligi malakali kurashchilarning mashg‘ulot va musobaqa faoliyatini pedagogik nazorat qilish nazariyasi va metodikasining konseptual muammolarini hal etish zarurati bilan asoslanadi.

Milliy sport turi kurashda, agar amaliyotchi murabbiy kurashchining holati to‘g‘risida kerakli axborot minimumiga ega bo‘lmasa, mashg‘ulot jarayonini boshqarish to‘g‘risida gapirish mumkin emas. Shu sababli asosiy e’tiborni umumiy boshqaruv tizimidagi aynan shu bo‘g‘inga qaratish lozim. Bugungi kunda zamonaviy sport turlari bo‘yicha uchta nazorat turi: bosqichli, joriy va tezkor nazorat va nazoratning uchta yo‘nalishi mavjud: musobaqa faoliyatini nazorat qilish, tayyorgarlik tomonlari nazorati va organizm tizimini nazorat

qilish. Kurashchilarni tayyorlashda pedagogik nazorat faqat barcha yo‘nalishlar va turlar rivojlanishi bilan mavjud bo‘lishi mumkin (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Kurashda pedagogik nazoratni tashkil etish xususiyatlari

Назорат йўналиши Назорат турлари	Мусобақа фаолиятини назорат қилиш (МФН)	Тайёргарлик томонларини назорат қилиш (ТТН)	Organizm tizimlarini nazorat qilish (OTN)
Bosqichli nazorat (BN)	1	4	7
Joriy nazorat (JN)	2	5	8
Tezkor nazorat (TN)	3	6	9

Ushbu sxemali jadvaldan ko‘rinib turibdiki, pedagogik nazoratni tashkil qilishda nazorat turlari kombinasiyalariga qarab test va nazorat mashqlarini tanlash kerak:

MFN– BN – JN – TN (1, 2, 3)

TTN – BN – JN – TN (4, 5, 6)

OTN – BN – JN – TN (7, 8, 9)

O‘quv-mashg‘ulot jarayonida pedagogik nazoratning barcha turlarini qo‘llash kurashchilar tayyorgarligini nazorat qilish samaradorligini oshiradi.

Ushbu sxema bo‘yicha kurashning barcha turlari va miqiyosini hisobga olgan holda kurashchilarni tayyorlashda kompleks pedagogik nazorat qilish dasturi ishlab chiqildi.

Hujum harakatlarining tahlili bellashuvni olib borish manzarasini hujumning asosiy lahzalarini aniq ajratib olgan holda aniqlashtirish imkonini beradi. Bu tahlil murabbiyga qiziq bo‘lishi mumkin, chunki u bundan bellashuvni olib borishning turli tuzilmalarini ishlab chiqish, shuningdek, kurashchi organizmining energiya ta’minoti samaradorligini oshirish maqsadida funksional tayyorgarlik dasturini tuzish uchun foydalanishi mumkin.

Kurash milliy sport turida pedagogik nazoratni tashkil qilish va o‘tkazish uchun har bir sanab o‘tilgan nazorat turlari bo‘yicha ob’ektiv mezonlarni aniqlab olish zarur. Biz kurashda kompleks pedagogik nazorat sxemasini ishlab chiqdik. Bu erda jismoniy yuklamalar, jismoniy tayyorgarlik va musobaqa faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish xususiyatlari yoritilgan (1rasmga qarang).

Kurash milliy sport turida pedagogik kompleks nazorat sxemasi

Yuqorida tilga olingan kurashchilarni tayyorlash tizimida eng asosiylaridan biri nazorat qilish kichik tizimi bo‘lib, unga, texnik-taktik mahoratni tahlil qilish, musobaqa faoliyatini o‘rganish metodikalaridan tashqari, harakat qobiliyatinining rivojlanishi va ularning maxsus faoliyatga o‘xshash sharoitlarda amalga oshirilishi



darajasini baholash testlari batareyasi kiritildi. Xususan, ushbu testlar batareyasi kurash sport turida qo‘llash uchun mo‘ljallangan

Tadqiqot natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, mashg‘ulot va musobaqa faoliyatining tahlili asosida tanlangan testlar yanada axborotli va ishonchli bo‘lib, bu o‘quv-mashg‘ulot jarayonini samarali tashkil etishga yordam berdi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Malakali kurashchilarning harakat qobiliyatini baholovchi testlarning barqarorlik va axborotlilik omili

T/r	Ko‘rsatkichlar	Barqarorligi	Axborotlilik omili
1	30 m ga yugurish (s)	0,912	0,598
2	Turnikda tortilish (marta)	0,927	0,731
3	Yotgan holatda qo‘llarni bukib-ëzish (marta)	0,347	0,721
4	Brusda qo‘llarni bukib-ëzish (marta)	0,616	0,524
5	Teng vaznli sherik bilan o‘tirib-turish (marta)	0,754	0,498
6	Gimnastika devorida osilgan holda oëqlarni 900 gacha ko‘tarish (marta)	0,907	0,651
7	Parallel o‘rindiqda tik turib, teng vazndagi sherikni ko‘tarib tushirish (marta)	0,376	0,408
8	Oëqlar ërdamisiz arqonga ko‘tarilish, 4 m.(s)	0,734	0,508
9	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	0,691	0,597
10	Turgan joydan balandlikka sakrash (sm)	0,554	0,347
11	To‘ldirma to‘pni bosh ustidan oldinga otish (3 kg) (m)	0,437	0,517
12	To‘ldirma to‘pni orqaga otish (3 kg) (m)	0,911	0,727
13	Kurakda ëtgan holda tanani egish,20 s (marta)	0,718	0,521
14	3000 m. masofaga yugurish (m, s)	0,511	0,608
15	Mokisimon yugurish, 3x10 m(s)	0,918	0,641
16	Beldan oshirib tashlashlar, 10 marta (s)	0,695	0,545
17	Ko‘prik holatda bosh atrofida aylanishlar: 5 - chapga, 5 - o‘ngga (s),	0,601	0,607
18	Ko‘prik holatda bosh atrofida aylanishlar: 10 marta (s)	0,607	0,718
19	Elkadan oshirib tashlashlar,10 marta (s)	0,719	0,711
20	Bordor usulida manekenni 10 marta tashlash (s)	0,476	0,702

2- jadvaldan ko‘rinib turibdiki, testlar ishonchliligi 20 tadan 9 tada-yuqori korrelyaцiya koэффiцientlari (0,7-0,9) va 7 tada - korrelyaцiya koэффiцientining o‘rtacha qiymati (0,5-0,7). Bu shundan dalolatki, asosiy testlar bajarilish holati bo‘yicha ishonarli va baholash tizimini ishlab chiqishda foydalanish mumkin. 2-jadvaldagi natijalarni tahlil qilish uchun quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlandi: 6 ta yuqori korrelyaцiya koэффiцienti (0,7-0,9) va 10 ta chegara (0,5-0,7) ichida bo‘ldi, bu o‘rtacha korrelyaцiya koэффiцientidan guvohlik beradi. Axborot testlari,

shuningdek, sinash testlari kabi, kurashchilarning jismoniy sog‘lig‘ini aniqlash uchun ham ishlatilishi mumkinligini ko‘rsatdi.

Ishonchli va axborot berish uchun sinovdan o‘tgan testlar natijalarini baholash uchun yangi tizim ishlab chiqildi (3-jadvalga qarang). Jadvalda kurashda baholash tizimini joriy qilishda yangi vazn toifalari va besh ballik tizim qo‘llanildi. Barcha ko‘rsatkichlar kurashchilarning uchta vazn toifasiga bo‘lingan (60-66 kg) , (73-81kg) va (90-100 va +100 kg).

3- jadval

Malakali kurashchilarning UJT va MJT ko‘rsatkichlari

T/r	Nazorat mashqlari va o‘lchov birliklari	Vazn toifalari va ballar														
		60-66 kg					73-81 kg					90-100 +100 kg				
		1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5
1	30 m ga yugurish (s)	5,2	5,1	5,0	4,9	4,8	5,3	5,2	5,1	5,0	4,9	5,8	5,7	5,6	5,5	5,4
2	Turnikda tortilish (marta)	10	14	18	25	30	10	13	17	20	25	4	8	10	12	15
3	Yotgan holatda qo‘llarni bukib-yozish (marta)	35	40	50	60	70	35	40	45	50	55	20	25	30	35	40
4	Brusda qo‘llarni bukib-yozish (marta)	10	20	30	40	50	20	25	30	35	40	5	8	12	15	20
5	Teng vaznli sherik bilan o‘tirib-turish (marta)	6	8	10	12	14	8	10	12	14	15	4	6	8	10	12
6	Gimnastika devorida osilgan holda oyoqlarni 90oga ko‘tarish (marta)	8	10	15	20	25	8	10	15	20	25	4	6	8	12	15
7	Parallel o‘rindiqda tik turib, teng vaznda-gi sherikni ko‘tarib tushirish (marta)	6	8	10	12	15	6	8	10	11	13	2	4	6	8	10
8	Oyoqlar yordamisiz arqonga ko‘tarilish 4m (s)	11,0	10,5	10,0	9,5	9,0	12,0	11,5	11,0	10,5	10,0	13,0	12,5	12,0	11,5	11,0
9	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	220	230	240	250	260	200	220	230	240	250	160	170	180	200	220
10	Turgan joydan balandlikka sakrash (sm)	60	65	70	75	80	50	55	60	65	70	25	30	35	40	45
11	To‘ldirma to‘pni bosh ustidan oldinga otish (3 kg) (m)	11,0	11.5	11,0	12,5	13,0	12,0	12,5	13,0	14,5	15,0	15,0	15,5	16,0	16,5	17,0
12	To‘ldirma to‘pni orqaga otish (3 kg) (m)	11,0	11.5	11,0	12,5	13,0	12,0	12,5	13,0	14,5	15,0	15,0	15,5	16,0	16,5	17,0
13	Kurakda yotgan holda tanani egish, 20 s (marta)	40	45	50	55	60	30	35	40	45	50	10	15	20	25	30
14	3000 m. masofaga yugurish (m.s)	12,45	12,30	12,15	12,00	11,45	13,00	12,45	12,30	12,45	12,00	13.30	13,15	13,00	12,45	12,30
15	Mokisimon yugurish, 3x10 m(s)	8,3	8,1	7,8	7,5	7,0	9,0	8,8	8,5	8,1	7,8	9,2	9,0	8,8	8,6	8,4
16	Beldan oshirib tashlashlar,10 marta (s)	17,0	16,0	15, 0	14,0	13,0	18,0	17,0	16,0	15,0	14,0	19,0	18,0	17,0	16,0	15,0
17	Ko‘prik holatda bosh atrofida aylanishlar:5 - chapga, 5 - o‘ngga (s),	24,0	23,0	22,0	21,0	20,0	25.0	24,0	23,0	22,0	29,0	28,0	27,0	26,0	25,0	24,0
18	Ko‘prik holatda bosh atrofida aylanishlar: 10 marta (s)	26,0	24,0	22,0	20,0	18,0	28,0	26,0	24,0	22,0	20,0	30,0	29,0	28,0	26,0	24,0
19	Elkadan oshirib tashlash ,10 marta (s)	25,0	20,0	17, 0	15,0	13,0	25,0	20,0	18,0	16,0	14,0	30,0	25,0	23,0	20,0	18,0
20	Bordor usulida manekenni 10 marta tashlash (s)	28,0	25, 0	21,0	19,0	17,0	30,0	28,0	25,0	23,0	20,0	40,0	38,0	35,0	32,0	30,0

Yangicha yondashuv yordamida malakali kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini ob'ektiv baholash mumkin. Jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining koэффициентларга aylantirilishi turli xil malakali kurashchilarning ko‘rsatkichlarini taqqoslashga, shuningdek, har bir kurashchining harakat qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Ushbu testlar batareyasining afzalligi shundaki, murakkab uskunalardan foydalanmasdan kurashchilarni mashg‘ulot faoliyatining deyarli har qanday sharoitlarida sinovdan o‘tkazish imkonini beradi. Shu bilan birga, kurashchining harakat qobiliyatlari rivojlanishi darajasini ob'ektiv ravishda aks эttiruvchi ma'lumotlarni taqdim эtadi.

Malakali kurashchilarning UJT va MJT integral ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun 4-jadval ishlab chiqilgan, bu maxsus jismoniy tayyorgarlikning barcha 20 ta testlari uchun umumlashtirilgan ko‘rsatkichni aniqlash imkonini beradi. 4- jadvaldan ko‘rinib turganidek, barcha ballar yig‘indisining maksimal qiymati 100 ball, bu sportchilar jismoniy tayyorgarligining yuqori darajasi. 80 ball maxsus jismoniy tayyorgarlikning yaxshi ko‘rsatkichidir, ammo siz darhol bir yoki bir nechta testda qaerda kechikish borligini ko‘rishingiz mumkin. 60 ball maxsus jismoniy tayyorgarlikning o‘rtacha ko‘rsatkichi bo‘lib, kurashchi kam tayyorgarlikka эga эkanligini ko‘rsatadi.

4-jadval

Malakali kurashchilarning UJT va MJT ko‘rsatkichlari

Shartli birliklar	**Sinovlar uchun yig‘ilgan ballar**				
Pedagogik baholash	**100-80**	**80-60**	**60-40**	**40-20**	**20-10**
	A'lo ko‘rsatkich	Yaxshi ko‘rsatkich	O‘rta ko‘rsatkich	Bo‘sh ko‘rsatkich	Juda bo‘sh ko‘rsatkich

40 ball va 20 ball kurashchi tayyorgarligining bo‘sh эkanligini ifodalaydi. Ushbu jadvaldan foydalanib, murabbiy kurashchilarning tayyorgarligidagi kuchli va zaif tomonlarni ko‘ra oladi, olingan natijalarga asoslanib, maqsadga muvofiq o‘quv-mashg‘ulot jarayonini tashkil qiladi.

Kurashchilar tayyorgarligini boshqarish tayyorgarlikning individual model tavsiflari asosida amalga oshiriladi. Tayyorgarlikning model tavsiflari jismoniy tayyorgarlikni testlash ma'lumotlari, texniktaktik mahoratning эkspert baholari va musobaqa faoliyati ayrim tarkibiy qismlarining miqdoriy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish asosida tuziladi. Shuningdek, kurashchilar tayyorgarligini boshqarish bunday bashorat qilinayotgan model tavsiflarning birbiriga muvofiqligi darajasi, shuningdek, sport mahoratining ayrim parametrlari orasidagi o‘zaro kompensator bog‘liqliklarni aniqlash asosida amalga oshiriladi (ular yuqori sport natijasiga эrishishni ta'minlaydi).

Xulosa: Taklif ətilayotgan mazkur yondashuv malakali kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik holatini o‘rganish, ko‘rsatkichlarni o‘zaro taqqoslash hamda har bir kurashchining harakat qobiliyatlari rivojlanishini nazorat qilib borish imkonini beradi. Bu kompleksning afzalligi uning texnologiyasidadir: u, murakkab apparaturadan foydalanmay turib, kurashchilarni mashg‘ulot faoliyatining deyarli har qanday sharoitlarida testlash imkonini beradi. Ayni paytda u kurashchi harakat qobiliyatlarining rivojlanish darajasini aks əttiruvchi axborotni beradi, bu yuqorida bayon qilingan tahliliy va statistik amallar bilan asoslanadi

Tadqiqotda har birida 18 nafardan sportchi bo‘lgan ikkita guruh tajriba va nazorat guruhlari shakllantirildi. Kurashchilar tayyorgarlik darajasining dastlabki ko‘rsatkichlari sifatida tayyorgarlik davrining birinchi oyi davomida amalga oshirilgan testlash natijalari olindi. Tajriba oxirida yana ikkita nazorat test sinovlari o‘tkazildi. Tayyorgarlikni nazorat qilish avval aniqlangan kurashchilarning musobaqalar sharoitlaridagi harakat faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini aks əttiruvchi va oldindan tanlab olingan test vazifalari bo‘yicha amalga oshirildi. Tajriba guruhining tayyorgarligi ishlab chiqilgan dastur asosida o‘tkazildi. Bu dasturda musobaqa faoliyati shiddati, shuningdek, malakali kurashchilarning texniktaktik va jismoniy tayyorgarliklarini ifoda ətuvchi miqdoriy ma’lumotlar ə’tiborga olingan.

Kurashchilar musobaqa faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, asosiy texniktaktik harakatlarning individual xususiyati o‘quvmashg‘ulot jarayonida kurashchilarning sport tayyorgarligini individuallashtirishga metodik jihatdan urg‘u berishimizni belgilab berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4881-son qarori 2020-yil 4-noyabr.

2. Керимов Ф.А. Теория и методика спортивной борбы //Учебник. Т., 2001, - 245 с.

3. Mirzaqulov Sh.A. Belbog‘li kurash nazariyasi va uslublari //O‘quv qo‘llanma T.: 2014 - 216 b

4. Мирзанов Ш.С., Ишмухамедов Т.Р. Методика силовой подготовки юных белбогли курашистов //Фан - спортга , 2014, №3, стр. 3-9

5. Панасюк Т.В. , Тамбовцева Р.В. – Конституционалные особенности физической работоспособности подростков. В ИИ Международный научный конгресс «Современный олимпийский спорт и спорт для вцех», Том ИИ, Москва, 2003. – 135 с.

6. Сафарова Д.Д., З.Ю.Газиева, Н.Г.Гулямов Морфогенетические маркеры скоростных качеств в практике прогнозирующего отбора // Научно – теоретический журнал «Наука и спорт: современные тенденции», 2015, №3, том 8, стр. 32-38

7. Carter J.L. – “Somatotype characteristics of champion athletes”, Rep, Antrop-Cong. ed. A. Hrdica, Praha, Humpolec. 1969.

8. Timility D. Protocols for Physiological assessment of male and tamale soccer players. In Physiological tests for Elite Athletes, Human Kinetics, 2000, 17, 356-362.

STOL TENNISI BO'YICHA O'QUV MASHG'ULOTLARIDA SHIKASTLANISHLARNING OLDINI OLISH

Boltayev Sh.E.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Jismoniy madaniyat va sport kafedrasi o'qituvchisi,

Tayanch so‘zlar: texnik xavfsizlik, sport jarohatlari, texnik-taktik harakatlar, yuqori malakali sportchilar, charchoq.
Ключевые слова: техническая безопасность, спортивные травмы, технико-тактические действия, высококвалифицированные спортсмены, усталость.
Key words: technical safety, sports injuries, technical-tactical actions, highly qualified athletes, fatigue.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada stol tennisi bilan shug‘ullanadigan sportchilar tomonidan mashg‘ulotlar va musobaqalar davrida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va jarohatlarni oldini olish bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, ushbu jarayonlar bilan bog‘liq ko‘plab kerakli ma’lumotlar keltirilgan.
РЕЗЮМЕ:
В этой статье представлена аналитическая информатsiя о соблюдении правил техники безопасности и предотвращении травм спортсменами, занимающимися настольным теннисом, во время тренировок и соревнований. Также предоставляется много необходимой информатsiи, связанной с этими процессами.
SUMMARY:
This article provides analytical data on compliance with safety rules and injury prevention during training and competition periods by table tennis athletes. There is also a lot of necessary information related to these processes.

Mavzuning dolzarbligi. Stol tennisi eng kam shikastlanadigan sport turlaridan biri deb hisoblansa-da, sportchi mushaklarga zarar etkazadigan va uzoq vaqt davomida o'ynay olmaydigan holatlar mavjud. Ko'pgina jarohatlar tananing o'yin jarayonida eng ko'p ishtirok etadigan qismlariga ta'sir qiladi. Stol tennisida o'yinchi boshqa sabablarga ko'ra turli xil jismoniy jarohatlarga duch kelishi mumkin: o'yin maydoniga moslashish xususiyatlari, raketka turi va boshqa omillar tufayli. O'yindan oldin to'g'ri isinish orqali bu jarohatlarning oldini olish mumkin.

Professional stol tennisi ko'pincha oddiy jarohatlar, o'tkir jarohatlar, kasbiy (surunkali charchoq) kasalliklar va skelet-tendon muvozanati kabi fiziologik buzilishlarga olib keladi.

O'tkir jarohatlarda mushak-skelet apparati ko'pincha zo'riqadi (shikastlanishlar burmalar va dislokatsiyalardir).

Qoida tariqasida, isitilmagan yoki aksincha, juda charchagan mushaklar zarar etkazishi mumkin. Stol tennisi o'yinchilarida burmalar birinchi navbatda muskul to'qimalarga ta'sir qiladi:

Triceps (mushaklarning eng kuchli faolligi raketka bilan to'pni kuzatish bosqichida sodir bo'ladi).

Masalan, to'satdan to'xtab turganda, oyoqning tizzadan past qismi (pastki oyoq) to'xtaydi, yuqori qismi esa: son va butun tana harakatda davom etadi.

Yelka atrofidagi mushaklar va ligamentlar guruhiga kelsak, elka bo'g'imi pastki bo'g'imlari kabi stresslarga duch kelmaydi, ammo unga yuk tana vaznining 90% ga etadi. Bunday yuk yuqori tezlashuv, harakatning katta amplitudasi va bir xil harakatning takroriy takrorlanishi bilan birgalikda surunkali tendon kasalligining rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Surunkali tendon kasalligi deb, pay to'qimasining yallig'lanishi va shikastlanishi, agar davolanish bo'lmasa, surunkali shaklga o'tishi mumkin bo'lgan kasalliklarga aytiladi.

Yelka bo'g'imining shikastlanishi, birinchi navbatda, elkani qo'l bilan bog'laydigan tendonlarning cho'zilishi yoki shikastlanishini anglatadi. Tendon yoki mushaklarning yorilishi ham tez-tez uchraydi, bu esa qo'l va elkaning harakatchanligi saqlanib qolishiga qaramay, sportchining juda qattiq og'rig'iga sabab bo'lishi mumkin. Biror kishi qo'lini harakatga keltira olmasa, bu shikastlanish jiddiy ekanligini anglatadi.

Ayrim o'yinchilar odatda bilakni haddan tashqari oshirib yuborishadi, chunki ular faqat qo'l mushaklari yordamida zarba berishadi, professionallar esa buni butun tanasi bilan qilishadi. Shuning uchun, o'ynash paytida yukni to'g'ri taqsimlash uchun tananing barcha mushaklarini kuchaytirishga katta e'tibor berish juda muhimdir. Bilak jarohatini davolashning eng samarali usuli bu dam olishdir. Agar bilak taranglashmasa, bu holat yo'qoladi, shuning uchun bilak mushaklari va tendonlariga ortiqcha qo'yish tavsiya etilmaydi.

Ko'pincha, qattiq qoplamada uzoq vaqt o'ynagandan so'ng yoki haddan tashqari kuchlanish tufayli kuchli bel og'rig'i, ko'pincha bel umurtqasida paydo bo'ladi. Jarohatlar va yoqimsiz his-tuyg'ularni oldini olish uchun ko'plab stol tennisi o'yinchilari maxsus kamardan foydalanadilar, ammo shifokorlarning fikriga ko'ra, muntazam ravishda bajarilishi kerak bo'lgan mashqlar eng yaxshi yordam beradi.

Stol tennisi cho'zilishi - sport ko'rsatkichlarini yaxshilash, sport jarohatlarini oldini olish va cho'zilish va kuchlanish jarohatlarini to'g'ri tiklash uchun eng kam qo'llaniladigan usullardan biridir. Cho'zish kabi oddiy narsa samarali bo'lmaydi, deb xato qilmang.

Har qanday sport yoki faoliyatda bo'lgani kabi, ularning xavfsizligini ta'minlash uchun qoidalar va ko'rsatmalar mavjud. Stretching ham bundan mustasno emas. Agar noto'g'ri bajarilgan bo'lsa, cho'zish zararli va shikastlanishga olib kelishi mumkin. Xavfsizlik uchun ham, quyidagi cho'zishlarning afzalliklarini maksimal darajada oshirish uchun quyidagi cho'zish bo'yicha ko'rsatmalarga rioya qilish juda muhimdir.

Quyida stol tennisi uchun eng yaxshi 3 ta mashq mavjud; Shubhasiz, yana ko'p narsa bor, lekin bu boshlash uchun ajoyib joy. Iltimos, har bir cho'zilishda ko'rsatmalarga alohida e'tibor bering va agar sizda surunkali yoki takrorlanuvchi mushak yoki bo'g'im og'rig'i bo'lsa, quyida keltirilgan cho'zilishlarni bajarishda ehtiyot bo'ling yoki quyidagi cho'zilishlardan birini bajarishdan oldin shifokoringiz yoki fizioterapevtingiz bilan maslahatlashing.

Stol tennischilari tizza jarohatlaridan tez-tez shikoyat qilmaydilar, chunki bu bo'g'inlardagi ligament(muskul to'qima)lar juda kuchli. Biroq, o'yin paytida yukning asosiy qismi tiz cho'kadi. Ular sakrashni amortizatsiya qiladilar, ularning yordami bilan burilishlar amalga oshiriladi. Shunday qilib, o'yinchi odatdagi mashg'ulot paytida juda ko'p kuch sarflab tizzasidan jarohat

olishi mumkin. Bunday muammolarni oldini olish uchun mashg'ulotlar yoki o'yinlardan keyin ko'proq dam olish tavsiya etiladi.

Stol tennisi o'yinchilari orasida juda keng tarqalgan narsa bu oyoq boldir (bilagi) mushagi shikastlanishdir. O'yin davomida sportchi tepishi mumkin, bu esa ligamentlarning cho'zilishi yoki yirtilishiga olib keladi, odam bir zumda o'tkir og'riqni his qiladi va oyog'i shishib, ko'k rangga aylanadi. Ko'pincha to'piq shikastlanishining sababi yaxshi qilinmagan cho'zilish mashqidir. Ushbu muammoni oldini olish uchun siz juda ehtiyot bo'lishingiz kerak.

Agar shikastlanishning oldini olishning iloji bo'lmasa, uni davolashning quyidagi usullaridan foydalanish tavsiya etiladi. Avvalo, shikastlangan joyning dam olishini ta'minlash, unga muz surtish, ustiga bandajni qo'yish va jarohatlangan a'zoning qulay holatini ta'minlash kerak. Shuni esda tutish kerakki, jarohatdan so'ng darhol shikastlangan joyni isitish mumkin emas, aksincha, unga sovuq muz surtish yaxshiroqdir va bir necha kundan keyin siz isitishni boshlashingiz mumkin. Shikastlangan a'zoni isitishning hojati yo'q, agar o'simta tushmasa, bu yallig'lanish borligini anglatishi mumkin. Shunday qilib, muz oldini olishga yordam beradi shish jarohatdan keyin darhol va issiqlik uzoq muddatli davolanish bilan foyda keltiradi, shish allaqachon uxlab qolganidan keyin regeneratsiya jarayonlarini yaxshilaydi.

Xulosa. Cho'zilishning oldini olishning muhim omili tanani qizitishdir. Isitish har qanday sport turida mashg'ulot jarayonining muhim qismidir va stol tennisi ham bundan mustasno emas. Tanani qizitishning asosiy maqsadi isinish va sportchini mashg'ulot yoki musobaqaga tayyorlashdir. Ko'pgina stol tennisi o'yinchilari isinish muhimligini e'tiborsiz qoldiradilar, bu ko'pincha jarohatlarga olib keladi. Shuning uchun, isitishning yana bir vazifasi suyaklarni isitish va jarohatlarni kamaytirish. Sportchilarning bo'g'imlari stol tennisida ayniqsa og'ir zo'riqishga duchor bo'ladi, shuning uchun isinish paytida bo'g'inlarni isitishga katta e'tibor berilishi kerak. Har bir stol tennischisi mashg'ulot jarayoniga isitish kompleksini kiritishi kerak. Bu sizga mushaklarni isitish, ularning qisqarish tezligini oshirish, bo'g'imlarni cho'zish va shikastlanish ehtimolini kamaytirish imkonini beradi. Stol tennisini isitish, qoida tariqasida, umumiy jismoniy va maxsus mashqlardan iborat. Ushbu mashqlar ro'yxati murabbiy tomonidan mashg'ulot vazifalariga qarab tuziladi. Isitish davomiyligi juda katta bo'lmasligi va 20 daqiqadan oshmasligi kerak, shu bilan birga uning intensivligi oshishi kerak.

To'g'ri o'rnatilgan stol tennisi raketkasi stol tennisi jarohatlaridan qochishga yordam beradi. Raketkani derazalarga, eshiklarga, to'rga va o'yin sherigiga

tashlashga yo'l qo'yilmaydi. To'pni doimiy ravishda kuzatib borish zarbalarni to'g'ri bajarish va vaziyatni nazorat qilishning eng muhim shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Холодов Ж. К. Теория физического воспитания и спорта: учеб. пособие для студентов высш. учеб. заведений / Ж. К. Холодов, В. С. Кузнецов. – 2-еизд., испр. и доп.
– М. : Академия, 2001. – 480 с.

2. М.Ю. Ғаниева Стол тенниси билан шуғулланувчи талаба-ёшларни жисмоний ривожланишининг тузизлиши ва таҳлили // Спортда илмий тадқиқотлар. Илмий-назарий журнал – 2023. - № 4. – 42-45 б.

3. G‘aniyeva M. Y., Yo‘ldashaliyeva M. I. Development of the technique introduction of the ball into the game at different points with the help of special exercises //World Bulletin of Social Sciences. – 2023. – Т. 23. – С. 1-3.

4. Yo‘ldoshaliyeva M. I., G‘aniyeva M. Y. Psychological significance of studying the priority qualities of table tennis players //British Journal of Global Ecology and Sustainable Development. – 2023. – Т. 16. – С. 81-84.

5. G’aniyeva M. Yosh stol tennischilarning muvozanat saqlash qobiliyatlarini o’rganish va uni rivojlantirish samaradorligi //Центральноазиатский исследовательский журнал междисциплинарных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 11.

6. Йўлдошалиева М. И., Ганиева М. Ю. Важность использования подвижных игр при обучении технико-тактическим движениям юных игроков в настольный теннис //INNOVATIONS In technology and science education. scientific journal.–ISSN. – 2023 – Т. 2. -№. 9

7. Barchukova G.V.A.N. Mizin. Nastolьnыy tennis. Nashriyot Divizion.2015

8. Yeremenko K. Mastera maloy raketki K.Eremenko, A. Silinkov Toshkent Yosh gvardiya 1988,128 bet.

9. Ne’matullayev I.I “Stol tennisi bilan shug‘ullanuvchi talabalarlarning psixologik pedagogik mahoratlarini shakllantirish” Международный научный журнал № 8(100), часть 1 «Научный Фокус» Декабря, 2023. 246-250 ст.

10. Ochilov J.A. Yosh stol stol tennischilarni musobaqalarga tayyorlashda murabbiyning o‘rni. Journal of new century innovations. Volume–54 _ Issue-5 _ Iyun-2024. Pp-144-148.

11. Умаралиева Ф. Стол тенниси бўйича мусобақаларни ўтказишда мусобақа қоидаларининг аҳамияти. Central asian research journal for interdisciplinary studies (CARJIS). Volume 2. Issue 1.| 2022. Pg 413-418

12. Boltaev Sh. Abdunabiev B. The sport of table tennis between students of higher educational institutions both popular type of actual problems. Golden brain. 2023 june. 151-153 pg.

“TURLI XIL YOSHDAGI BOLALARNI SOG‘LOMLASHTIRUVCHI JISMONIY MASHQLAR” MODULINI O‘RGATISH METODIKASI

Yusupbayeva A.S.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: jismoniy tayyorgarlik, sog’lomlashtiruvchi jismoniy mashqlar, keys, muvozanat, koordinatsiya, chidamlilik, aqliy hujim, bahs, insert.
Ключевые слова: физическая подготовка, оздоровительные физические упражнения, кейсы, равновесие, координация, выносливость, ментальная атака, дебаты, вставка.
Key words: physical training, health physical exercises, cases, balance, coordination, endurance, mental attack, debate, insert.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada Talabalarga “Turli xil yoshdagi bolalarni sog‘lomlashtiruvchi jismoniy mashqlar” modulini o‘rgatish metodikasi mavzusi nazariy jihatdan keng yoritilgan hamda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida tayyorlangan. “Ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish va o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta’minlash” umumiy o‘rta ta’limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Darhaqiqat, ilg‘or pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini unumdorligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматривается тема методики обучения студентов модулю «Оздоровительные физические упражнения для детей разного возраста» в широком теоретическом плане и на основе передового зарубежного опыта. «Создание передовых педагогических технологий обучения, современных учебно-методических комплексов и дидактическое обеспечение образовательного процесса» определено в качестве одной из основных задач общего среднего образования. Действительно, передовые педагогические технологии повышают продуктивность образовательного процесса, формируют у учащихся самостоятельность мыслительных процессов, повышают их энтузиазм и интерес к знаниям, формируют умения и компетенции прочно владеть знаниями и свободно использовать их на практике.
SUMMARY:
This article examines the topic of methods of teaching students the module "Health-improving physical exercises for children of different ages" in a broad theoretical context and based on advanced foreign experience. "Creation of advanced pedagogical teaching technologies, modern

educational and methodological complexes and didactic support of the educational process" is defined as one of the main tasks of general secondary education. Indeed, advanced pedagogical technologies increase the productivity of the educational process, form students' independence of thought processes, increase their enthusiasm and interest in knowledge, form skills and competencies to firmly possess knowledge and freely use it in practice.

Ta’lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama etuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoiy va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e’tibor berilmoqda. Bu borada ta’lim turlari to‘g‘risidagi mutlaqo yangi qoidalar hayotga joriy etildi. Kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilishning huquqiy –me’yoriy asosi yaratildi.

Davlatimiz jismoniy tarbiya va sportning kelajak avlodni sog‘lom qilib tarbiyalashdagi o‘rnini hisobga olib sport ishlarini yanada takomillashtirish, uning zamon talablari darajasida o‘quv va moddiy-texnik bazasini yaratish xamda aholining sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish yo‘lida maqsadli davlat miqyosidagi tadbirlar ishlab chiqilib hayotga tatbiq etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasida “So‘nggi besh yilda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, shuningdek, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun byudjetdan 1 trillion 230 milliard so‘m ajratilgan. Bu – Milliy olimpiya qo‘mitasi mablag‘laridan tashqari. Bizda bolalar sporti, oliy sport mahorati va olimpiya rezervlarini rivojlantirish bo‘yicha qudratli baza yaratilgan. Yana qanday baza, qo‘shimcha shart-sharoit va vositalar kerak?”.

Barcha sohalar kabi jismoniy tarbiya va sport ham tamomila yangicha maqom yo‘nalishida shakllanib, yuksak cho‘qqi sari qanot yozmoqda. Darhaqiqat, yurtboshimizning tashabbusi va bevosita rahbarligi ostida jismoniy tarbiya va sport millat genofondini shakllantirish hamda barkamol avlodni tarbiyalash vositasi sifatida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari doirasidan joy oldi.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiy, moliyaviy inqirozni boshidan kechirayotgan bir vaqtda jamiyatga etuk, malakali mutaxassislar tayyorlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Bo‘nga Respublikamizda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» (1997), «Sog‘lom avlod davlat dasturi» (1999), «Davlat ta’lim standartlari» (1999), «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari (2000), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 11-apreldagi PQ–201-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini tahlil qilish,“Yoshlarning sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi Prezident qarori (PQ-443-son, 18.12.2024-y.) qabul qilindi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qator qarorlari qabul qilinishi aholi salomatligini yaxshilash, o‘quvchi-yoshlar va

talabalarning jismoniy barkamolligini tarbiyalash bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muhim muammolarni xal etishga qaratilgan.

Respublikamizda barcha sohalarni yangilash, rivojlantirish izlanishlar jarayoni faollik bilan amalga oshirib borilmoqda, bu yo‘lda jismoniy tarbiya va sport ilmiga katta ahamiyat berilmoqda. Bejiz emaski hukumatimiz qarorlarida jismoniy tarbiya va sportni aholining keng qatlamlari o‘rtasida yanada keng yoyish umumdavlat ishi, barcha joylarda maktabgacha ta’lim kasb hunar va akademik litsey oliy o‘quv yurtlari va mehnat jamoalari burchi ekanligi ta’kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya tizimida jismoniy tarbiya darsini o‘qitishda ilg‘or innovatsion texnologiyalardan foydalanish kelgusida ulardan yuqori malakali sport murabbiylarini tayyorlash imkonini beradigan iqtidorli sportchi yoshlarni qidirib topish va tayyorlash tizimini tobora takomillashtirish ko‘zda tutilgan.

“Ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish va o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta’minlash” umumiy o‘rta ta’limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Darhaqiqat, ilg‘or pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini unumdorligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta’limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko‘rsatiladi.

“Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasida, ayniqsa, bolalar sportini yanada rivojlantirish, har bir shahar va qishloqda zamonaviy talablarga javob beradigan, zarur anjomlar bilan jihozlangan sport maydonchalari, inshoot va majmualarni barpo etish bo‘yicha amalga oshirayotgan ishlarimiz o‘zining ijobiy samarasini bermoqda”.

Shu ma’noda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni amalda joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’limda texnologik yondashuv pedagogik jarayonga faol ta’sir etuvchi va uning samaradorligini, bir butunligini va muvaffaqiyatini belgilab beruvchi omillardan hisoblanadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimining insonparvarlashuvi, demokratlashuvi va yangi texnologiyalarning kiritilishi pedagogika fani oldiga ta’limning mazmuni, tuzilishi, rivojlanish darajasi, imkoniyatlari va texnologiyasini aniqlashdek murakkab vazifalarni qo‘ydi. Bu vazifalarni hal qilish bir qancha muammolarni keltirib chiqardi.

Hozirgi davrda yangi pedagogik texnologiya asosida o‘qitish haqida matbuotda turli-tuman fikrlar bildirilmoqda. Ta’limga yangicha, texnologik yondashish haqida fikr yuritilishi tasodifiy hol emas.

Yangi pedagogik texnologiya asosida o‘qitishni yo‘lga qo‘yish, ta’lim jarayonini o‘quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli sohalarini yaratish uchun tinimsiz izlanish o‘qituvchining muhim vazifasi bo‘lib qolmoqda. Shunday qilish kerakki, o‘quvchilar pedagogik jarayonning faol sub’ektlariga aylansinlar.

Barcha ta’lim turlari kabi jismoniy tarbiya darslarida ham pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyatga egadir. Chunki jismoniy tarbiya darslari o‘quvchilarning nafaqat jismoniy, balki aqliy rivojlanishini ta’minlaydi, o‘quvchilarni faollashtirish, mustaqil ishlashga o‘rgatish, ta’limning keyingi bosqichlarida o‘quvchilarning ta’lim jarayonining faol sub’ektlariga aylanishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, pedagogik adabiyotlarda jismoniy tarbiya darslari ta’lim texnologiyasi masalalariga kam e’tibor berilgan. Pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda jismoniy tarbiya ta’limining o‘ziga hos xususiyatlarini hisobga olish muhimdir.

Hozirgi kunda ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interfaol usullarni qo‘llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda. Bunday usullarni qo‘llash ta’lim samaradorligi va ta’sirchanligini oshiradi, o‘quvchilarda dars mazmunini teran anglash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Innovatsiya ingliz tilidan olingan bo‘lib, “yangilik yaratish”, “yangilik” kabi ma’nolarni anglatadi. Demak, an’anaviy ta’limdagi kabi bir hil qoidalar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta’lim jarayonining ta’sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiya demakdir. Ta’limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o‘quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interfaol uslublardan foydalanish ta’lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Ta’limni texnologiyalashtirish g‘oyasi yangilik emas. Bundan 400 yil avval chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ta’limni texnologiyalashtirish g‘oyasini ilgari surgan. U ta’limni “texnikaviy” qilishga undagan, ya’ni hamma narsa, nimaga o‘qitilsa, muvaffaqiyatga ega bo‘lsin. Natijaga olib keluvchi, o‘quv jarayonini, u “didaktik mashina” deb atagan.

Bunday didaktik mashina uchun: aniq qo‘yilgan maqsadlar; bu maqsadlarga erishish uchun, aniq moslashtirilgan vositalar; bu vositalar bilan qanday foydalanish uchun, aniq qoidalarni topish muhimligini yozgan.

Ta’lim nazariyasi va amaliyotida o‘quv jarayoniga texnologik xususiyatni berish uchun 50-yillarda birinchi urinishlar qilib ko‘rilgan. Ular o‘z ifodasini an’anaviy o‘qitish uchun majmuali texnik vositalarni yaratishda topgan.

Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiya “o‘qitishning texnik vositalari yoki kompyuterlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmaydi, balki bu ta’lim samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish, ishlab chiqish hamda usul va materiallarni qo‘llash, shuningdek qo‘llanilayotgan usullarni baholash yo‘li orqali ta’lim jarayonining asoslari va uni maqbullashtirish yo‘llarini ishlab chiqishni aniqlash maqsadidagi tadqiqotdir”.

Birinchi guruh ta’lim usullari- (I guruh)

Birinchi guruh ta’lim usullari: tayyor o‘zlashtiruvchilik o‘quv faoliyati va ta’lim oluvchilarga bilimlarni 1- darajada o‘zlashtirishni ta’minlovchi usullar.

Ma’ruza.Ma’ruza – davomli vaqt ichida o‘qituvchi tomonidan katta hajmdagi o‘quv materialining monologik bayon qilishi

Usulning asosiy vazifasi - ta’lim berish. Belgilari: qat’iy tuzilma, og‘zaki-mantiqiy bayon qilish, berilayotgan axborotning ko‘pligi.

Ma’ruzalar muhim lahzalarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

Ta’lim oluvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkillashtirish usulining samaradorlik shartlari quyidagilardan iborat:

ma’ruzaning batafsil rejasini tuzish;

ta’lim oluvchilarga ma’ruza mavzusining maqsadi, vazifalari va rejani eshittirish;

har bir rejani yoritgandan so‘ng qisqa umumlashtiruvchi xulosalarni shakllantirish;

ma’ruzaning bir qismidan boshqa qismiga o‘tganda mantiqiy bog‘liqlikni ta’minlash;

yozib olish uchun zarur joylarni ajratib ko‘rsatish (aytib turish);

uning alohida holatlari batafsil ko‘rib chiqiladigan seminar, amaliy mashg‘ulotlar bilan ma’ruzaning to‘g‘ri kelishi.

Texnologik va yo‘riqnomaviy–texnologik xaritalar o‘quv–ishlab chiqarishli ishlarni bajarishda qo‘llaniladi. Ular texnologik izchillikdan tashqari, texnologik talab, tartib, umumiy ishlarni bajarish vositalari, ishlarni bajarish qoidasining yo‘riqnomali bayonidan iborat bo‘ladi. Harakatlar xaritasi va ishlar tartibidan yozma yo‘riqnoma berish: xizmat ko‘rsatish, nosozliklarni tashxislash, murakkab jihozlarni sozlashni o‘rgatishda foydalaniladi. Ular ishlab chiqarish faoliyatida bajariladigan turli ishlab chiqarishli ko‘rsatma va qoidalarni o‘z ichiga oladi. Ish o‘rnida har bir talabani yozma yo‘riqnomadan foydalanishi eng samarali hisoblanadi.

Ikkinchi guruh ta’lim usullari (II guruh)

Ikkinchi guruh amaliy ta’lim usullari: esda qolganlarni tasvirlovchi o‘quv faoliyati va ta’lim oluvchilarga bilim va ko‘nikmalarni 2-darajada o‘zlashtirishni ta’minlovchi, usullar

Kitob bilan ishlash.Kitob bilan ishlash usuli: ta’lim berish, tarbiyalash, rivojlantirish va qiziqtirish vazifalarini bajaradi.

Ta’lim oluvchilar kitob bilan ishlashlari mumkin:

o‘quv mashg‘ulotida sizning rahbarligingiz ostida;

uyda mustaqil.

Uyda kitob bilan ishlash vazifasini o‘quvchilar oldiga qo‘yishdan avval kitob bilan mustaqil ishlash usullariga ega ekanliklariga ishonch hosil qiling:

uning tuzilishi bilan tanishish;

ko‘z yugurtirib chiqish;

alohida boblarni o‘qish;

savollarga javob qidirish;

referat yozish;

tayanch konspektlar tuzish;

mantiqiy tuzilmaviy chizmalarni tuzish;

misol va topshiriqlarni echish, mashqlarni bajarish;

nazorat testlarini bajarish;

materialni xotirada saqlash.

Agarda ish o‘quv mashg‘ulotida olib borilsa, unda kitob bo‘yicha o‘rganadigan materialni biz alohida qismlarga bo‘lamiz va ularni nazorat qilamiz.

Uchinchi guruh ta’lim usullari- (III guruh)

Uchinchi guruh ta’lim usullari: muhokama qiluvchi, qisman-izlanuvchilik o‘quv faoliyati va ta’lim oluvchilarga bilim va ko‘nikmalarni 3-darajada o‘zlashtirishni ta’minlovchi, usullar.

Usulning etakchi vazifasi - qiziqtirish: maqsadga yo‘naltirilgan va mohirona qo‘yilgan savollar yordamida ta’lim oluvchilarda berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini eslash va bayon qilishga harakat qilinadi, o‘qituvchi rahbarligida boshqa ta’lim oluvchilar bilan muhokama qilinadi. Ta’lim oluvchilar o‘qituvchi bilan birga qadamma-qadam mustaqil fikrlash, yakunlash, xulosalash va umumlashtirish yo‘li bilan yangi bilimlarni anglaydilar va o‘zlashtiradilar.

Suhbatning afzalligi yana shundaki, u ta’lim oluvchilar fikrlashini faollashtiradi va bilim kuchini rivojlanishiga yordam beradi.

Suhbatlar vazifasiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

kirish yoki tashkillashtiruvchi (didaktik vazifasi: ta’lim oluvchilarni mashg‘ulotdagi ishga tayyorlash);

yangi bilimlarni etkazish (didaktik vazifasi: ta’lim oluvchilarni yangi material bilan tanishtirish);

sintezlovchi yoki mustahkamlovchi (didaktik vazifasi: ta’lim oluvchilar bilimlarini tizimlashtirish, “mustahkamlash”, eslab qolishi va fikrlashi).

Suhbatlar tashkiliy shakli bo‘yicha o‘quv va “davra suhbatiga” bo‘linadi.

“Davra suhbati” o‘quv suhbatidan erkin holatda ishtirokchilar joylashish tartibi va asosiysi, ular fikrini navbat bilan bildirishi bilan farqlanadi.

Eng muhimi savollarni to‘g‘ri shakllantirish va berish. Ular o‘zaro mantiqiy bog‘liqlikka ega bo‘lishi kerak, o‘rganilayotgan savol mohiyatini ochib berishi, tizimda bilimlarni o‘zlashtirishga yordam berishi kerak. Savollar mazmuni va shakliga ko‘ra ta’lim oluvchilarning rivojlanish darajasiga mos kelishi lozim.

Esda tuting: oson savollar faol bilish faoliyatini rag‘batlantirmaydi, jiddiy munosabat esa bilishga rag‘batlantiradi.

Bahs (munozara).Bahs (munozara) - aniq muammo bo‘yicha fikr almashish, muhokama shaklidagi ta’lim berishning faol usuli. Munozara usuli hamma vazifalarni bajaradi.

Bu usuldan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

yangi bilimlarni shakllantirishda;

ta’lim oluvchilar u yoki bu savollarni chuqur o‘ylab ko‘rish, ularning mohiyatiga kirishni ta’minlashda;

ta’lim oluvchilarni dalil va dalillarga asoslangan xulosalar orasidagi farqni tushunib etishga o‘rgatishda;

o‘zaro fikr almashinuv ko‘nikmalarni shakllantirishda;

ta’lim oluvchilarga shaxsiy fikrida mustahkam turish va uni himoya qilishiga yordam berish.

Munozara erkin bo‘ladi, qachonki, u erkin rivojlansa, boshqaruvchan bo‘lishi mumkin. U faqat o‘zlashtirish lozim bo‘lgan mavzu va savollarga taalluqli bo‘lishi kerak.

Aqliy hujum usuli.Aqliy hujum (breynstroming-aqllar to‘zoni) - amaliy yoki ilmiy muammolar echish g‘oyasini jamoaviy yuzaga keltirish. Ishtirokchilar aqliy hujum vaqtida murakkab muammoni hal etishga harakat qiladilar: ularni tanqid qilishga yo‘l qo‘ymay uni hal etishning ko‘proq shaxsiy g‘oyalarini yuzaga keltiradilar, so‘ngra ko‘proq oqilona/samarali/maqbul va boshqa g‘oyalarni ajratadilar, ularni muhokama qiladilar va rivojlantiradilar, ularni isbotlash yoki qaytarish imkoniyatlarini baholaydilar.

Bu usul hamma vazifalarni bajaradi, lekin uning asosiy vazifasi - ta’lim oluvchilarni o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish, ularni muammoni mustaqil tushunish va echishga qiziqtirish va ularda muomala madaniyati, fikr almashinish malakalarini rivojlantirishi, tashqi ta’sir ostida fikrlashdan ozod bo‘lish va ijodiy topshiriqni echishda birlamchi yo‘l fikrlarini engib o‘tishni tarbiyalaydi.

An’anaviy ta’limda vazifani echish vaqtida ko‘pgina ta’lim oluvchilar o‘z g‘oyalarini aytishga botina olmaydilar. O‘z takliflarining xatoligi va ta’lim beruvchining salbiy munosabatidan, boshqa ishtirokchilarning yo‘q qilib yuboruvchi tanqidi va kulgisidan asosli qo‘rqadilar.

Insert.

Insert – samarali o‘qish va fikrlash uchun matnda belgilashning interfaol tizimi.

Insert – avvalgi bilimlarni faollashtirish va matnda belgilash uchun savollarning qo‘yilish muolajasi. Shundan so‘ng matnda uchraydigan, har turdagi axborotlarning belgilanishi.

Insert - matn bilan ishlash jarayonida ta’lim oluvchiga o‘zining mustaqil bilim olishini faol kuzatish imkonini ta’minlovchi kuchli asbob.

Insert - o‘zlashtirishning majmuali vazifalarini echish va o‘quv materialini mustahkamlash, kitob bilan ishlashning o‘quv malakalarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan o‘qitish usulidir.

Matnda belgilash tizimi

(√) - men bilaman deganni tasdiqlovchi belgi;

(+) - yangi axborot belgisi;

(-) - mening bilganlarimga, zid belgisi;

(?) - meni o‘ylantirib qo‘ydi.

Pinbord.

Pinbord (inglizchadan: pin- mahkamlash, board – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o‘quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat.

Ta’lim beruvchi:

→ Taklif etilgan muammoni echishga o‘z nuqtai nazarini bayon qiladi.

→ Ommaviy to‘g‘ri aqliy hujumni tashkillashtiradi.

Ta’lim oluvchilar quyidagi g‘oyalarni:

→ Taklif etadilar, muhokama qiladilar, baholaydilar eng ko‘p maqbul (samarali va boshqa g‘oyalarni tanlaydilar va ularni qog‘oz varag‘iga asosiy so‘zlar ko‘rinishida (2 so‘zdan ko‘p bo‘lmagan) yozadilar va yozuv taxtasiga biriktiradilar.

→ Guruh a’zolari (ta’lim beruvchi tomonidan belgilangan 2-3 talaba yozuv taxtasiga chiqadilar va boshqalar bilan maslahatlashib:

aniq xato yoki qaytariluvchi g‘oyalarni saralaydilar;

tortishuvlarni aniqlaydilar;

g‘oyalarni tizimlashtirish mumkin bo‘lgan belgilar bo‘yicha aniqlaydilar;

shu belgilar bo‘yicha hamma g‘oyalarni yozuv taxtasida guruhlaydilar (kartochka/ varaqlar).

Ta’lim beruvchi:

→Umumlashtiradi va ish natijalarini baholaydi.

Ta’limiy o‘yin.Ishbilarmon va rol (holat)li o‘yinlar muammoli topshiriqning bir turi. Faqat bunday holatda matnli material o‘rniga, ta’lim oluvchilar tomonidan o‘ynaladigan sahnalashtirilgan hayotiy holatlar ishlatiladi

O‘qitish usuli sifatida u quyidagi vazifalarni bajaradi:

o‘rgatuvchi: umumo‘quv malakalarni shakllantirish; ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, shu jumladan, tushunish, yangi holatlarni shakllantirish va tahlil qilish;

rivojlantiruvchi: mantiqiy fikrlash, nutq, atrof-muhit sharoitiga o‘rganish qobiliyatini rivojlantirish;

motivatsiyali: ta’lim oluvchilarni o‘quv faoliyatiga undamoq, mustaqil xulosa qabul qilishini rag‘batlantirmoq;

tarbiyalovchi: mas’uliyatlilikni, fikr almashishlikni shakllantirish.

O‘yin usullari va dars shaklidagi mashg‘ulot holatlarini amalga oshirish quyidagi asosiy yo‘nalishlarda sodir bo‘ladi:

didaktik maqsad ta’lim oluvchilar oldiga vazifa ko‘rinishida qo‘yiladi;

o‘quv faoliyat o‘yin qoidalariga bo‘ysunadi;

o‘quv material o‘yinning vositasi sifatida ishlatiladi;

o‘quv faoliyatiga didaktik vazifani o‘yinga aylantiradigan musobaqa bo‘lagi kiritiladi;

didaktik vazifani muvaffaqiyatli bajarish o‘yin natijalari bilan bog‘lanadi.

Ishbilarmon o‘yinni rolli o‘yindan farqi nimada?

Ishbilarmon o‘yin ishtirokchilariga hayotiy holatda qurilgan o‘yinli syujet taklif qilinadi, bunda ishtirokchilar oldiga yagona umumiy maqsad: taklif etilayotgan muammoni echish qo‘yiladi.

Shu bilan bir vaqtda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi lozim. Shuning uchun echimni ishlab chiqish jarayonni alohidali-guruhli xususiyatga ega: har bir ishtirokchi avval o‘zining vazifali maqsadiga muvofiq qaror qabul qiladi, undan so‘ng esa uni guruh bilan kelishadi. Alohida vazifali maqsad bajarilishi butun guruh qaror qabul qilish natijalariga bog‘liq. Odatda, ishbilarmon o‘yin davomidagi muaommoni echish bir nechta bosqichda (2 dan 10 gacha va bir o‘yin ko‘p).

Ishtirokchilar harakatini baholash yakuniy va oraliq natijalar bo‘yicha amalga oshiriladi: oraliq baholash belgilangan maqsadni amalga oshirishda ularning anglab etishini oshirish maqsadida bizga o‘yin davomida ishtirokchilar harakatiga ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi, yakuniy natijani baholashda ishtirokchilarning tashkiliy faoliyatlari va ular tomonidan vazifali rolli maqsadni bajarish hisobga olinadi.

Rolli o‘yin, ishbilarmonlik kabi vaziyatda ko‘rsatilgan, muammoni echishda ishtirokchilarning faol birgalikdagi harakatlariga asoslanadi. Mavzu qatnashchilarining bitta majburiy maqsadlari bor - muammoni echish. Lekin alohidali maqsadlar, ishbilarmon o‘yindagi kabi kelishib olinmaydi. Rolli o‘yinning har bir ishtirokchilar maqsadlari - g‘alaba qozonish, o‘zini ko‘rsatish.

Vaziyatli o‘yin yakunlarini nafaqat umumiy maqsadga erishish natijalari bo‘yicha emas va balki har bir ishtirokchining rolli maqsadlarini amalga oshirish bo‘yicha baholanadi.

Siz tomondan ishlab chiqilgan o‘yin haqiqiy hayotga mumkin qadar yaqin bo‘lishi, lekin ishtirokchilar uchun juda murakkab va qiyin bo‘lmasligi kerak.

Vaziyatlar usuli.Vaziyatlar usuli – ta’lim beruvchining muammoli vaziyatlarni yaratishga va ta’lim oluvchilarning faol bilish faoliyatlariga asoslangan. U aniq vaziyatni tahlil qilish, baholash va keyingi qarorni qabul qilishdan tuzilgan

Usulning etakchi vazifalari quyidagilardan iborat:

O‘rgatuvchi – bilimlarni faollashtirishga asoslangan;

Rivojlantiruvchi – tahliliy tafakkurni, alohida hodisalarning dalillari qonuniylikni ko‘ra bilishini shakllantirish;

Tarbiyalovchi – fikr almashinish ko‘nikmalarni shakllantirish.

Muammoli vazifalardan foydalanish usuli bizga, nazariyani amaliyot bilan bog‘lash, imkonini beradi, bu materialni ta’lim oluvchilar uchun yanada ko‘p dolzarbli qiladi. O‘quv muammosining muhim belgilari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

noma’lumning borligi, uni topish yangi bilimlarni shakllanishiga olib keladi;

noma’lumni topish yo‘nalishida qidiruvni amalga oshirish uchun ta’lim oluvchilarda ma’lum darajada bilim manbalari borligi.

Muammo 3 tarkibiy qismdan tashkil topadi:

ma’lum (ushbu berilgan vazifadan).

noma’lum (topish yangi bilimlar shakllanishiga olib keladi).

noma’lumni topish yo‘nalishida qidiruvni amalga oshirish uchun kerak bo‘lgan, avvalgi bilimlar (ta’lim oluvchilar tajribasi).

Shunday qilib, o‘quv muammosini ta’lim oluvchilarga oldindan noma’lum bo‘lgan natija yoki bajarish usuli vazifasi sifatida aniqlash mumkin. Lekin ta’lim oluvchilar ushbu natija qidiruvini amalga oshirish yoki hal etish yo‘li uchun dastlabkiga egadirlar. Shunday qilib, ta’lim oluvchilar hal etish yo‘lini biladi, vazifasi o‘quv muammosi bo‘lmaydi. Boshqa tomondan, agar ta’lim oluvchilar u yoki bu vazifani echish yo‘lini bilmay uni echish qidiruvi uchun vositaga ega bo‘lmasalar, unda u ham o‘quv muammosi bo‘lishi mumkin emas.

Muammoli vazifaning murakkabligi (vaziyat “o‘quv” muammo) bir qator dalillar bilan aniqlanadi, bu jumladan ta’lim oluvchilar darajasiga mos qilishi kerak. Agarda tanishtiruvchi material juda ham hajmi katta yoki murakkab bo‘lsa, ular hamma akborotni qabul qila olmaydilar, echimini topishni bilmaydilar va o‘quv faoliyatida bo‘lgan har qanday qiziqishlardan mahrum bo‘ladilar.

Muammoli vazifani ishlab chiqish katta mehnat va pedagogik mahoratni talab etadi. Qoidaga binoan, vazifani bir necha marotaba tajribadan o‘tkazgandan

so‘ng o‘quv guruhida omadli variantini tuzishga ega bo‘linadi. Shunga qaramay, bunday vazifalar nazariyani haqiqiy vaziyat bilan bog‘lash imkonini beradi. Bu ta’lim oluvchilar ongida o‘qitishni faollashtirishga imkon beradi, kelajakdagi kasbiy faoliyatlari uchun o‘rganilayotgan materialning amaliy foydasini anglab etishga yordam bo‘ladi.

To‘rtinchi guruh ta’lim usullari - (IV guruh)

To‘rtinchi guruh ta’lim usullari: mustaqil izlanuvchilik faoliyati hamda 4 darajada bilimlarni o‘zlashtirishni ta’minlovchi usullar.

Loyihalar usuli.Loyihalar usuli bilim va malakalarni amaliy qo‘llash, tahlil va baholashni nazarda tutuvchi majmuali o‘qitish usulini amalga oshiradi. Ta’lim oluvchilar yuqori darajada, boshqa o‘qitish usullaridan foydalanishga qaraganda, rejalashtirishda tashkillashtirishda, nazoratda, tahlil qilish va vazifani bajarish natijalarini baholashda ishtirok etadilar. Loyihalarda o‘qitish nafaqat natijalar, balki jarayonining o‘zi ham qimmatli. Loyiha fanlararo, bir fan yoki fan tashqarisida bo‘lishi mumkin.

Keys-stadi.Ta’lim berish vaziyati keys-stadi (case ingliz-to‘plam, aniq vaziyat, stadi-o‘rganish) – bu usul, odatiy hayotni tashkillashtiruvchi vaziyatlarni yaratuvchi va ta’lim oluvchilardan maqsadga muvofiqroq echim izlashni talab qiluvchi, hayotdan olingan odatiy vaziyatlarni tashkillashtirish yoki sun’iy yaratilgan vaziyatlarga asoslanadi.

Keys - ta’lim oluvchilarni muammoni ifodalashni va maqsadga muvofiqroq echim izlashga yo‘naltiruvchi, bir guruh insonlar yoki alohida shaxslarni hayotiy tashkillashishidan olingan ma’lum sharoitlarini bayonli taqdim etilishidan iborat.

(2) qo‘shimcha axborotlardan, jumladan audio, video va elektron etkazuvchilar va o‘quv-uslubiy materiallardan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I. Karimov. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevoridir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so‘zlagan nutqi. Toshkent. 1997 yil 29 avgust.

2. Raximov M.M. Sport trenirovkasining nazariyasi va metodikasining asoslari.- T., 2000

3. Abdiev A.N, Jumanov O.S, Ne’matov B.I. Sport alifbosi. -T.,2008.

4. Xolmirzaev E.J., Nematov B.I., Xo‘janiyozov B.I. Sport anjomlari va jihozlari – T., 2010.

5. YusupbayevaA.S. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jsmoniy rivojlanshda harakatli o‘ynlarni tashkil etish usullari.‘‘Xalq ta’lm’’lmiy-metodik jurnal. 2021-yil.

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINING INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH

Tursunaliyeva G.B.
CHDPU

Tayanch so‘zlar: innovatsiya, innovatsion faoliyat, modernizatsiya, deontologiya, tendensiya, novatsiya.
Ключевые слова: инновация, инновационная деятельность, модернизация, деонтология, тенденция, нововведение.
Key words: innovation, innovative activity, modernization, deontology, tendency, innovation.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada innovatsion faoliyat va uning shakllanish omillari, zaruriyati va o‘qituvchidan yangiliklarni o‘zlashtirib borish bilan birga ularni o‘z faoliyatida qo‘llashi va pedagogik jamoa o‘rtasida targ‘ib qilishi haqida fikrlar yoritilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье рассматривается инновационная деятельность и факторы ее формирования, необходимость и способность педагога усваивать инновации, применять их в своей работе и продвигать среди педагогического коллектива.
SUMMARY:
This article discusses innovative activity and its factors of formation, necessity and the teacher's ability to master innovations, as well as apply them in his work and promote them among the pedagogical team.

Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yO‘naltirilishi talab qilinmoqda. O‘zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta‟lim shaxsga yO‘naltirilgan ta‟lim deb nomlanadi. Sportda shaxsga yo‘naltirilgan ta‟lim – sportchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, O‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yO‘naltirilgan O‘quv-trenerovka ta‟limi.

Ta’lim tizimini mazmunan isloh qilish jarayonida pedagog kadrlar obro‘-e’tibori, mas’uliyati va kasb ko‘nikmasini oshirish yuzasidan sobitqadamlik bilan davlat siyosati olib borilmoqda. Bu borada o‘qituvchi faoliyatini yangilash

va innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga kiritish asosiy vazifa hisoblanadi. Har qanday boshqa soha mutaxassislari kabi o‘qituvchilarning ham kasbiy tayyorgarlik darajasi ularning bilim, ko‘nikma va malakalari, ijodiy salohiyati hamda nostandart tafakkurlarida o‘z aksini topuvchi kasbiy layoqati bilan baholanadi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatini tahlil qilib, uning shakllanish bosqichlarini quyidagicha belgilash mumkin: Birinchi bosqich -tayyor metodik tavsiyanomalar aniq qilib ko‘chiriladi.

Ikkinchi bosqich -mavjud tizimga ayrim yangi moslama (modifikatsiya)lar, metodlar kiritiladi. Uchinchi bosqich - yangi g‘oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari va shakli to‘la ishlab chiqiladi. To‘rtinchi bosqich - o‘qituvchi o‘qitish va tarbiyalashning o‘z konsepsiyasini va metodikasini ishlab chiqadi. O‘qituvchi innovatsion faoliyatning shakllanishidagi birinchi bosqichda quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

-pedagogik faoliyatda ijodiy yo‘nalishni shakllantirib borish; -pedagogik jarayonda sub’ekt-sub’ekt hamkorligini yo‘lga qo‘yish;

-pedagoglik kasbini rivojlantirish va bunga qiziqishni orttirib borish; -keng qiziqish doirasini shakllantirish, pedagogik muloqotda ochiqlikni ta’minlash;

-«men-g‘oyalar» ijodiy fikrlash yo‘nalishini rivojlantirib borish;

-pedagogik vazifalarni hal qilishga ijodkorlik bilan yondashuv, tahlil qilish malakalarini rivojlantirib borish;

-ijodiy ishlash texnologiyasini shakllantirish. Bu jarayonda shaxsiyatni o‘stirish treningi, muammoli o‘qitish texnologiyasi, faol ta’lim metodikasidan foydalanish va yangilik kiritish jarayoni bilan tanishtirib borish lozim. Birinchi bosqichning asosiy mazmunini umumiy psixologik-pedagogik bilimlarni egallash, o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish tashkil etadi. Mazkur bosqich oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayonida shakllantirilishi lozim. O‘qituvchilarda innovatsion faoliyatni shakllantirishning ikkinchi bosqichida quyidagi vazifalar bajarilishi lozim: -pedagogik faoliyatni variativ rivojlantirish; -ma’naviy-madaniy bilimlarni oshirish; -pedagogik yangiliklarni o‘zlashtirish ehtiyojini shakllantirish; -pedagogik refleksni rivojlantirish; -yangi turdagi faoliyat sifatida innovatsion axborot fondini shakllantirish. O‘qituvchilarni mazkur vazifalarni bajarishga tayyorlashda muammoli o‘qitish, o‘zini anglash bo‘yicha treninglar tashkil etish, o‘qitishning rivojlantiruvchi texnologiyalari bilan tanishtirib borish, o‘qitishning shaxsga mo‘ljallangan texnologiyalaridan foydalanish, mualliflik konsepsiyalarini izohlash, o‘qitish metodlarini tanlashga o‘rgatish, darsni kompozitsiyalash, pedagogik texnika va texnologiya treninglarini, mustaqil ishlarni tashkil etish orqali pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib

borish lozim. Innovatsion faoliyatni shakllanishining 3-va 4-bosqichlarida quyidagi vazifalarni bajarish lozim: - pedagogik faoliyat va bir butun holatda pedagogik muloqot texnologiyasini zamonaviylashtirish; -innovatsion faoliyat texnologiyasini o‘zlashtirib olish.

Pedagogik jarayonda innovatsion faoliyat muhim o‘rin egallaydi. Ayni bir vaqtda, bir xil sharoitlarda o‘qitish sifat-samaradorligi har bir o‘qituvchida turli xil bo‘lishi mumkin. Bilimning barcha sohalaridagi jadal jarayon tufayli amalda qo‘llanilayotgan o‘quv materiallarida keltirilgan axborotning ma’lum bir qismi tezda o‘z dolzarbligini yo‘qotadi va yangilashni taqozo etadi. Ayniqsa, bu ijtimoiy-gumanitar fanlarga taalluqli. Asosiy maqsad talabaga beriladigan bilim sifatini oshirish va samaradorlikka erishishdan iborat ekan, o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonida pedagogika va texnologiya sohasidagi so‘nggi yutuqlarga, o‘quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash mexanizmiga katta e’tibor berish kerak.

SHunday qilib, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga va innovatsion jarayonlarga tayyorlash ishlarining ancha murakkabligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Bu bir qancha ob’ektiv va sub’ektiv sabablar, eng avvalo, o‘qituvchilarning axborot texnologiyalari bo‘yicha boshlang‘ich tayyorgarlik darajasining pastligi, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish borasida malakasining etarli emasligi, zaruriy o‘quv axborotlarini mustaqil holda o‘zlashtira olish malakasi yo‘qligi bilan bog‘liq. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining innovatsion faoliyati haqida gapirganda bu faoliyatning ilmiy-metodik o‘ziga xosligi haqidagi savol paydo bo‘ladi. Bu faoliyatning imkoniyatlari ta’lim tizimi ko‘lamida innovatsion g‘oyalar, loyihalar, texnologiyalarni joriy qilishda va shaxsni rivojlantirishda namoyon bo‘ladi. Bu faoliyat imkoniyatlari o‘zida quyidagilarni jamlaydi: - o‘qituvchining yangilikni qo‘llashga tayyorgarligi;

- o‘qituvchining pedagogik yangilikni qabul qilishi;
- jamoada o‘qituvchining novatorlik darajasi;
- o‘qituvchi kommunikativ qobiliyatining rivojlanganligi;
- o‘qituvchining ijodkorlik darajasi. O‘qituvchilarning yangilikni o‘zlashtirishga tayyorgarlik mezonlari esa o‘qituvchi motivatsiyasi, malaka tayyorgarligi, pedagogik tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishborasidagi bilim va malakalari, innovatsiya yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf eta olish mahorati bilan belgilanadi.

O‘qituvchi innovatsion faoliyatining asosiy belgilaridan biri uning ijodiy faolligi, ijodkorligi hisoblanadi. O‘qituvchidan yangiliklarni o‘zlashtirib borish bilan birga ularni o‘z faoliyatida qo‘llashi va pedagogik jamoa o‘rtasida

targ‘ib qilishi talab etiladi. Innovatsion faoliyat pedagogik mahoratning yuqori bosqichi bo‘lib, bunda jamoa a’zolari bir-birini qo‘llabquvvatlashi, kiritilayotgan yangilikning maktabda o‘z o‘rnini topishiga ishonch bilan qarash, qiyinchiliklarga duch kelganda ruhan tushkunlikka tushmasdan, o‘z xatolarini ko‘ra bilish va ularni tuzatishga harakat qilish talab etiladi. O‘z-o‘zini tarbiyalab borish, o‘z ustida tinmay ishlashga harakat qilish innovatsion faoliyatning asosiy sharti hisoblanadi.

Ta’lim sifatini oshirish jamiyatning barcha jabhalarida hayotni yaxshilashga olib keladi. Yangilik kiritish ta’lim sifatini oshirishning samarali vositasi bo‘lganligi uchun ham rivojlangan davlatlar ta’lim jarayoniga uzluksiz yangilik kiritishga harakat qiladilar. Ko‘pgina mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimidagi barcha bo‘g‘inlar ishtirok etishi lozim. Ammo innovatsion jarayonlar yuqoridan pastga qarab harakatlansa va bunda o‘qituvchi bo‘ysunuvchi, ya’ni yangilikning faqat iste’molchisi bo‘lib qolsa, u holda bu jarayon byurokratik tus oladi. Innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonida maqsad aniq belgilanib, o‘qituvchining oldingi faoliyatini tashxislash asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. O‘qituvchi innovatsion faoliyatining natijasi quyidagilarda ko‘rinadi: -bajarilishi lozim bo‘lgan ishning maqsadini aniqlay olishida; -nostandart vaziyatlarni tahlil etib, tezkor xulosalar chiqara bilishida;

-o‘quv jarayoni bilan bog‘liq masalalarni echish usullarini egallaganligida; -muammolarni hal etishning maqbul vosita va usullarini izlab topish, kuzatish va tajriba natijalarini tizimlashtirishda; -o‘z ustida mustaqil ishlashni rejalashtira olishida; -o‘z ishi natijasini nazorat va tahlil qila olishida; -yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasining mavjudligida; -yangi g‘oyalarni izlab topa olishi, pedagogik masalalarni algoritmlashtirish malakasiga egaligida.

Innovatsion faoliyatning shakllanganlik darajasi o‘qituvchida o‘z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish ko‘nikma va malakalari tarkib topganligi, o‘qituvchi o‘z faoliyatida innovatsiyalarni, pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olish mahoratiga egaligi bilan tajriba-sinov ishlari rejasini va dasturini tuzishi va uni amalga oshirish malakasiga egaligi, o‘zidan boshqa pedagoglar tajribalarini tahlil qilib, uni amaliyotda qo‘llay olishi, fikr va tajriba almashib, metodik yordam ko‘rsata olishi, mualliflik konsepsiyalarini yarata olish mahoratiga egaligi, ziddiyatlar oldini olish, pedagogik vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishi bilan belgilanadi. O‘qituvchining yangilikni o‘zlashtirib olishga tayyorligi o‘ziga xos mezonlarga ega bo‘lib, ular quyidagilarda o‘z ifodasini topadi: -o‘qituvchining yangilik haqidagi ma’lumotlarga egaligi; -o‘qituvchi motivatsiyasi; -o‘qituvchining malakaviy tayyorgarligi;

-pedagogik tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga egaligi;

-innovatsiyaga qarshi bo‘lgan to‘siqlarni bartaraf eta olishi.

Yuqorida bayon etilgan mulohazalarga asoslanib, quyidagi xulosaga kelish mumkin: innovatsion faoliyat bir necha bosqichlarda tarkib topadigan faoliyat bo‘lib, o‘zining nazariy va amaliy asoslariga ega bo‘lgan pedagogik faoliyatning alohida bosqichi.

Innovatsion faoliyat infratuzilmasini shakllantirish, ya’ni innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan xizmatlarni taklif etuvchi tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish taqozo etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva Sh.A., Xurramov E.E. Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining innovatsion faoliyatga tayyorlash. //Zamonaviy ta’lim jurnal. – 2018. . 1. – №. 01 son.

2. Xurramov E.E. Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy pedagogic faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish. //disirtatsiya. – 2021. – т. 1. – №. B3. – c. 80-96.

3. Уринова Ф. У. Особенности развития психологии ребёнка дошкольного и младшего школьного возраста //science and innovation. – 2022. – т. 1. – №. B2. – c. 68-71.

4. Uljayevna O. R. F. Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy pedagogik kompetensiyani takomillashtirish xususiyatlari //science and innovation. – 2022. – т. 1. – №. B2. – c. 88-91.

5. Uljayevna O. R. F., Saydamatovna S. Z. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning o’quv-uslubiy ta’minoti //science and innovation. – 2022. – т. 1. – №. B3. – c. 349-355.

6. Feruzaxon Uljayevna O’rinova, Dilyora Iskandarovna Uuldashboyeva. Bo’ajak tarbiyachilarda aqliy faoliyat madaniyatini shakllantirish. Central asian academic journal of scientific research. Issn: 2181-2489. Volume 2 | issue 3 | 2022. Www.caajsr.uz

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR UCHUN GIMNASTIKA VA UNI O'QITISH METODIKASI

To'lqinova F.
CHDPU

Tayanch so'zlar: gimnastika, jismoniy vositalar, metod, asiklik harakat, siklik harakat, tarbiya, shaxs.
Ключевые слова: гимнастика, физические средства, метод, atsiклическое движение, циклическое движение, воспитание, личность.
Key words: gymnastics, physical means, method, acyclic movement, cyclic movement, education, personality.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada gimnastika jismoniy tarbiya vositasi va metodi sifatida va umumrivojlantiruvchi va amaliy mashqlar suv muolajalari, massaj hamda organizmni chiniqtirish gimnastika turlari va ularning xarakteristikasi, asosiy harakat turlarini rivojlantirish,asosiy harakat turlarining ta'rifi tanishtirish masalasining ilmiy nazariy ahamiyati, uni o'rganilganlik darajasi va xozirgi vaqtdagi ahamiyati yoritilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье рассматривается научно-теоретическое значение гимнастики как средства и метода физического воспитания, виды гимнастики для общеразвивающих и практических занятий, водных процедур, массажа и закалки организма, их характеристика, освоение основных видов движений, определение основных видов движений, уровень ее изученности и современная значимость.
SUMMARY:
This article discusses the scientific and theoretical significance of gymnastics as a means and method of physical education and general developmental and practical exercises, water procedures, massage and body conditioning, types of gymnastics and their characteristics, development of basic types of movements, definition of basic types of movements, the level of its study and current significance.

Gimnastika tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishning maxsus vositalariga ega: u harakatlarni oldindan shartlashilgancha aniq bajarilishini talab kiladi; mashg'ulotlarning kun tartibiga, harakatlarning ongliligi va mustaqilligini, ijodiy tashabbusni ko'zda tutadigan ta'lim jarayonini tashkil etishning o'ziga xos uslubiga ega. Bularning hammasi intizomni, diqqatni tarbiyalashga xizmat qiladi, iroda va xarakterni mustahkamlashga yordam beradi. Gimnastika umumiy jismoniy

tayyorgarlik vazifalarini hal etishga, jismoniy mashqlarni shug‘ullanuvchilarning yoshi va tayyorgarligiga muvofiq qo‘llashga hamda jismoniy tarbiyaning sog‘lomlashtirish va ta’lim-tarbiyaviy vazifalarni muvafaqqiyatli amalga oshirishga imkon beradi.

Umumrivojlantiruvchi gimnastikaning vazifasi salomatlik, umumjismoniy tayyorgarlikni mustahkamlashdan iboratdir. U harakat ko‘nikmalarini takomillashtirish va mustahkamlashga, to‘g‘ri qad-qomatni tarbiyalashga, yurak-tomir va nafas olish faoliyatini yaxshilash hamda organizmni chiniqtirishni ta’minlashga qaratilgan. a) Asosiy gimnastika tarkibiga saflanish, umumrivojlantiruvchi va asosiy harakatlar kiradi. Mashqlarni bajarishda jismoniy jihozlardan foydalaniladi.

Asosiy gimnastika kishi organizmidagi funksional jarayonning kuchayishiga, uning jismoniy rivojlanishiga, xilma-xil harakat ko‘nikmalarining takomillashuviga, jismoniy sifatlarning tarbiyalanishiga, o‘zlashtirilgan harakat faoliyatidan turli hayotiy vaziyatlarda mustaqil va ijodiy foydalana olishga, o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay bilishga, harakat faoliyatining asosiy qonuniyatlarini anglashga, egallangan bilim va ko‘nikmalarning hayot va faoliyat uchun ahamiyatini tushunishga yordam beradi. B) Gigienik gimnastika – kishi salomatligini mustahkamlash va saqlashga, to‘g‘ri qadqomatni tarbiyalashga, organizmning asosiy tizimlar funksiyasini (nafas olish, qon aylanish, almashinish jarayonlarining faollashishi) takomillashtirishga qaratilgandir. Umumrivojlantiruvchi va amaliy mashqlar suv muolajalari, massaj hamda organizmni chiniqtirish bilan qo‘shilgan holda gigienik gimnastika vositalari sifatida foydalaniladi. Gigienik gimnastika barcha yoshdagi bolalarga tavsiya etiladi. Sport yo‘nalishidagi gimnastika. Sport gimnastikasining vazifasi umumiy jismoniy tayyorgarlikni oshirish va saqlashdan iboratdir.

Badiiy gimnastika – harakatlarni takomillashtirishni ko‘zda tutadi va u sport xarakteriga egadir. Badiiy gimnastikaning asosiy mashqlari yuksak plastiklik, xarakatlar koordinasiyasi va ifodaliligini egallashga yordam beruvchi musiqa bilan organik bog‘liqdir. Amaliy gimnastika. Professional-amaliy gimnastika muayyan mutaxassislikni (balandlikda ishlovchi montajchi, konchi, transport haydovchi…) egallashga yordam beruvchi harakat ko‘nikmalari va sifatlarini rivojlantiradi va takomillashtiradi. Ishlab chiqarishdagi gimnastika. Ishlab chiqarishdagi gimnastika – kishilarning ish qobiliyatini oshirish va saqlash maqsadida tashkil etiladi.

U ish kuni tartibiga kiradi: kirish gimnastikasi ish oldidan, jismoniy pauza ish kuni jarayonida, tanaffuslarda o‘tkaziladi. Davolash gimnastikasi – davolash fizkulturasiga mansub bo‘lib, sog‘liq va ish qobiliyatini tiklashga qaratilgandir. U barcha kasalliklarda qo‘llaniladi va noixtisosli funksional terapiya vositasi

hisoblanadi. Masalan, harakat apparati funksiyalarini jarohat va kasalliklardan so‘ng tiklash, gavda tuzilishidagi nuqsonlar (turli deformasiyalar) ni tuzatishda qo‘l keladi. Davolash gimnastikasi bemor kishilarning nerv tizimi holati va ahvolini yaxshilashga, ular kayfiyatini ko‘tarish hamda salbiy emosiyalardan xalos etishga qaratilgandir.

Shunday qilib, gimnastika jismoniy tarbiya vositalari biri sifatida turli o‘quv-tarbiyaviy davolash muassasalarida va jamoalarda (korxonalar, muassasalar, fabrikalar, zavodlarda) hamda individual mashg‘ulotlarda bolalar, o‘smirlar va kattalarni jismoniy tarbiyalashning barcha davlat dasturlarining ajralmas qismini tashkil etadi. Gimnastika har tomonlama jismoniy tarbiyalash ishining asosiy vosita va metodlaridan biri sifatida belgilanadigan keng tushunchadir. U baza sifatidagi jismoniy tarbiyaning zaruriy komponentidir.

Gimnastika kishi organizmiga har tomonlama ta’sir etadigan, uning asosiy fiziologik jarayonlarini kuchaytiradigan, garmonik rivojlanishiga yordam beradigan maxsus tanlangan mashqlar tizimdir. Gimnastika mashqlari tufayli hayotiy zarur harakat ko‘nikmalari, xarakatlarning go‘zalligi va aniqligi shakllanadi, asosiy jismoniy sifatlar — chaqqonlik, tezkorlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik rivojlanadi. Gimnastika ilk bolalik chog‘idan qo‘llaniladi va kishi hatyotining barcha yosh davrida davom ettiriladi. Kishi sog‘lig‘ini mustahkamlash jismoniy kamolotini takomillashtirish va uning rangbarang faoliyati uchun har tomonlama jismoniy tayyorgarlik ko‘rishini ta’minlash gimnastikaning vazifasi hisoblanadi bundan tashqari gimnastika oldida quyidagi maxsus vazifalar ham mavjud: to‘g‘ri qad-qomatni shakllantirish, gavdadagi turli nuqsonlarni to‘g‘rilash va oldini olish, jarohatlardan so‘ng harakat apparatinpng ish qobiliyatini tiklash, o‘z harakatlarini boshqara olish malakasini tarbiyalash.

Gimnastikada har tomonlama jismoniy tarbiyalash vazifalarini hal etishga yordam beradigan xilma-xil jismoniy mashqlardan foydalanish mumkin. Unda pedagogik vazifalar va organizmning psixologik xususiyatlariga mos keluvchi istalgan harakat va harakat faoliyati qo‘llanilishi mumkin. Gimnastikada organizm qurilishi va funksiyasiga nisbatan aniqroq tanlanma ta’sirni amalga oshirish mumkin. Gimnastikaga xos metodik usullar jismoniy mashqlar yordamida ayrim organlar va ayrim muskul guruhlariga, shuningdek turli jismoniy sifatlarning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi.

Gimnastikada jismoniy yuklamani nisbatan aniq dozalash mumkin: hilma-xil mashqlar shug‘ullanuvchilarning tayyorgarligi va bu mashqlarning organizmga ta’sirini qat’iy hisobga olgan holda belgilanadi va foydalaniladi. Mashg‘ulotlarning emosionalligini oshirish, estetik hisnn tarbiyalash, harakatlarning ritmliligini, aniqligi va ifodalanishiga erishish maqsadida gimnastika vaqtida musiqadan: foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim jarayonida o‘z harakat imkoniyatlarini baholash, harakat faoliyatining umumiy qonuniyatlarini tushuna olish malakasi tarbiyalanadi. Bunga o‘quv topshiriqlarini taqsimlash, harakatlarning analiz va sintezini qo‘llash, harakatlarni yangi harakat faoliyatiga qo‘shish va hilma-xil jismoniy mashqlarni o‘rganish orqali erishiladi. Gimnastika tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishning maxsus vositalariga ega: u harakatlarii oldindan shartlashilgancha aniq bajarilishini talab qiladi; mashg‘ulotlarning reglamentlangan kun tartibiga, xarakatlarning ongliligi va mustaqilligini, ijodiy tashabbusni ko‘zda tutadigan ta’lim jarayonini tashkil etishning o‘ziga xos uslubiga ega. Bularning hammasi intizomni, diqqatni tarbiyalashga xizmat qiladi, iroda va xarakterni mustahkamlashga yordam beradi.

Shunday qilib, gimnastika metodlari umumiy jismoniy tayyorgarlik vazifalarini hal etishga, jismoniy mashqlarni shug‘ullanuvchilarning yoshi va tayyorgarligiga muvofiq qo‘llashga hamda jismoniy tarbiyaning sog‘lomlashtirish va ta’lim-tarbiyaviy vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi. Gimnastika turlari va ularning xarakteristikasi: Jismoniy tarbiya tizimning rivojlanish jarayonida gimiastikaning vazifalari asta-sekin aniqlandi va uning asosiy turlari belgilandi, Chunonchi: 1) umumrivojlantiruvchi gimnastika, bunga asosiy, gigienik gimnastika va boshqalar kiradi; 2) sportning ko‘rinishlaridan biri sifatidagi sport yo‘nalishidagi gimnastika. U umumiy jismoniy tayyorgarlikning ommaviy darajaga erishuvini, o‘sishi va saqlanishini ta’minlaydi. Bu turga sport gimnastikasi, atletika, badiiy gimnastika va boshqalar kiradi; 3) amaliy turi — profession-alamaliy, davolash gimnastikasi va boshqalar.

Umumrivojlantiruvchi gimnastikaning vazifasi sog‘lomlashtiruvchi bo‘lib, umumjismoniy tayyorgarlikni mustahkamlashdan iboratdir. U harakat ko‘nikmalariki takomillashtirish va mustahkamlashga, to‘g‘ri qad-qomatni tarbiyalashga, yurak-tomir va nafas olish faoliyatini yaxshilash hamda organizmni chiniqtirishni ta’minlashga qaratilgan. Asosiy gimnastika tarkibiga saflanish, umumrivojlantiruvchi va asosiy harakatlar kiradi.

Mashqlarni bajarishda gimnastika snaryadlari va mayda jismoniy tarbiya inventarlaridan foydalaniladi. Asosiy gimnastika kishi organizmidagi funksional jarayonning kuchayishiga, uning jismoniy rivojlanishiga, hilma-xil harakat ko‘nikmalarining takomillashuviga, jismoniy sifatlarning tarbiyalanishiga, o‘zlashtirilgan harakat faoliyatidan turli hayotiy vaziyatlardamustaqil va ijodiy foydalana olishga, o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay bilishga, harakat faoliyatining asosiy qonuniyatlarini anglashga, egallangan bilim va ko‘nikmalarning haYot va faoliyat uchun ahamiyatini tushunishga yordam beradi, Gigienik gimnastika kishi salomatligini mustahkamlash va saqlashga, to‘g‘ri qad-qomatni tarbiyalashga, organizmning asosiy sistemalari funksiyasini (nafas olish,

qon aylanish, almashinish jarayonlarining aktivlashishi) takomillashtirishga qaratilgandir.

Umumrivojlantiruvchi va amaliy mashqlar suv muolajalari, uqalash hamda organizmni chiniqtirish bilan qo‘shilgan holda gigienik gimnastika vositalari sifatida foydalaniladi. Gigienik gimnastika barcha yoshdagi bolalarga tavsiya etiladi. Badiiy gimnastika harakatlarni takomillashtirishni ko‘zda tutadi va u sport xarakleriga egadir. Badiiy gimnastikaning asosiy mashqlari yuksak plastiklik, harakatlar koordinasiyasi va ifodaliligini egallashga yordam beruvchi muzika bilan organik bog‘liqdir. Badiiy gimnastika tarkibini saflanish, umumrivojlantiruvchi mashqlar va ba’zi asosiy harakatlar, shuningdek musiqa ostida buyumlar bilan hamda buyumlarsiz bajariladigan turli raqs kombinasiyalari tashkil etadi.

Profession-alamaliy gimnastika muayyan mutaxassislikni (balandlikda ishlovchi montajchi, konchi, transport haydovchi va boshqalar) egallashga yordam beruvchi harakat ko‘nikmalari va sifatlarini rivojlantiradi va takomillashtiradi. Ishlab chiqarishdagi gimnastika kishilarning ish qobiliyatini oshirish va saqlash maqsadida tashkil etiladi. U ish kuni tartibiga kiradi: kirish gimnastikasi - ish oldidan, jismoniy tarbiya pauzasi - ish kuni jaraYonida, tanaffuslarda o‘tkaziladi. Davolash gimnastikasi davolash jismoniy tarbiyasiga mansub bo‘lib, sog‘liq va ish qobiliyatini tiklashga qaratilgandir. U barcha kasalliklarda qo‘llaniladi. Masalan, harakat apparati funksiyalarini jarohat va kasalliklardan so‘ng tiklash, gavda tuzilishidagi nuqsonlar (turli deformasiyalar) ni tuzatishda qo‘l keladi. Davolash gimnastikasi bemor kishilarning nerv tizim holati va ahvolini yaxshilashga, ular kayfiyatini ko‘tarish hamda salbiy emosiyalardan halos etishga qaratilgandir.

Shunday qilib, gimnastika jismoniy tarbiya vositalari va metodlaridan biri sifatida turli o‘quv-tarbiyaviy davolash muassasalarida va muassasalarda (korxonalar, fabrikalar, zavodlarda) hamda individual mashg‘ulotlarda bolalar, o‘smirlar va kattalarni jismoniy tarbiyalashning, barcha davlat dasturlarining ajralmas qismini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлаш тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. “Ўзбекистон”

2. Umarov M.N., Ishtayev D.R. Kasbiy-pedagogik bilim va ko‘nikmalami gimnastika darsida shakllantirish (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). 0 ‘zDJTI nashriyot-matbaa bo‘limi, -T.: 2010

3. D.R. Babaeva. “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” T.: “Barkamol avlod fayz” 2018 y. Darslik.

4. Takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, T- 2022 y.

5.Eshtayev A.K. Sport gimnastikasi mashgulotining nasariy asoslari (uslubiy qo'llanma). 0 ‘DJTI nashriyot-matbaa boiimi. -T.: 2009.

6. Eshtayev A.K. Karabaeva D.S. Xasanova N. R. Badiiy gimnastikada buyumsiz bajariladigan mashqlarni o‘rgatish uslubi. O‘quv qoilanma. “Fan va texnologiya nashiriyoti” -T.: 2013

YOSH VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Jumayev A.T.
ChDPU katta o`qituvchisi

Tayanch so'zlar: klaster, voleybol, metodika, sifat, rivojlantirish, jismoniy madaniyat, kuch, tezkorlik, chaqqonlik , sport,voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligi.
Ключевые слова: направление, качество, акмеология, магистр, отличник, результативность, профессионализм, продвижение по службе.
Key words: direction, quality, acmeology, master, excellence, productivity, professionalism, promotion.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada Klaster yondashuv asosida yosh voleybolchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish metodikasi bo'yicha ko'rsatma va takliflar keltirilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье содержатся указания и предложения о дидактических возможностях и этапах акмеологии для руководства и подготовки магистров к научной и профессиональной деятельности.
SUMMARY:
This article contains instructions and suggestions on the didactic possibilities and stages of acmeology for guiding and preparing masters for scientific and professional activities.

Mutaxassislarning fikricha asosan shu jismoniy sifatlar va hayotiy zarur harakat malakalari harakatli o’yinlar yordamida yanada samaraliroq rivojlanishi isbotlab berilgan . Oilada, maktabgacha tarbiya muassasalarida, turli bosqichdagi ta`lim maskanlarida ushbu muammoga har doim ham rejali va ilmiy jihatdan yondashilmaydi. Jismoniy mashqlarni to’g’ri qo’llash, ularni bolalar qanday o’zlashtirayotganligini nazorat qilib borish shu bolalardagi jismoniy sifatlarni, uning qaddi-qomati, jismoniy va funktsional taraqqiyoti to’g’ri yo’nalishda tarbiyalanib borishiga imkon yaratadi. Ma`lumki, insonning jismoniy sifatlari uning tug’ilishidan boshlab shakllana boradi. Lekin, uning bolaligida shu sifatlar qanday darajada shakllanishi, oddiy yoki murakkab harakatlarni o’zlashtirib olishi nafaqat uni o’sib yashab kelayotgan muhitiga bog’liq, balki bolaning muayyan sifatini qanday vositalar yordamida rivojlantirishi bilan ham

belgilanadi. Shu bilan bir qatorda harakatning turi, yo'nalishi va qanday maqsadga qaratilganligiga (kasb, ro'zgor ishi, sport, harbiy faoliyat va h.) qarab, har bir jismoniy sifatni shu harakat ijrosidaga o'rni turlicha bo'ladi. Shunday bo'lsada, turli kasb faoliyatlarida yoki sport turlarida shu jismoniy sifatlarning integral ahamiyati o'ziga xos ulushga ega bo'ladi. Ammo qanday bo'lmasin, ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha, barcha harakat faoliyatida ayrim jismoniy sifatlarning ustivorliga darhol ko'zga tashlanadi. Zamonaviy sport amaliyotida yuqori natijalarga erishish sportchining uzoq muddat davomida yuqori sifatli va samarali ish qobiliyatini saqlay olish imkoniyati bilan bog'liqdir. Turli sport turlari bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalar muddati xalqaro musobaqalar qoidalari bilan belgilanadi. Shu musobaqalar muddatida qaysi sportchi o'z ish qobiliyati sifati va samaradorligi jihatidan qanchalik uzoq vaqt saqlay olsa yoki uni oshira olish «kuchi»ga ega bo'lsa, unga muvaffaqqiyat shunchalik kulib boqishi muqarrar. Boshqacha qilib aytganda ish qobiliyatining sifat va samaradorlik darajasini ko'p yoki kam vaqt davomida saqlanishi tezlik sifatlarining turlari (sakrovchanlik, tezlik-kuch, tezkor sakrash, «texnik-taktik sakrovchanlik» va hokazo) qanchalik rivojlanganligi bilan belgilanadi [1]. Ma`lumki, ish qobiliyati haqida gap ketganda, ayniqsa so'z uning sifati va samaradorligiga tegishli bo'lsa, masalaning mohiyati «mag'izi» boshqa jismoniy sifatlarning shakllangan yoki shakllanmaganligiga borib taqaladi. Ya`ni samarali natijaga mos umumiy va maxsus chidamkorlik, kuch, tezkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik sifatlarini o'zida mujassam qilgan bo'ladi. Ushbu sifatlarning o'zaro uzviy bog'liqligi va ularning yuksak darajadagi integral natijasi mahoratining muayyan taqdirini belgilab beradi [1]. Maqsadga muvofiq rejalashtirilgan jismoniy tayyorgarlik sport mahoratini shakllantirish va musobaqa davomida yuksak sport natijaga erishishda nihoyatda muhim omillardan biridir. Lekin, sport amaliyotida har doim ham rejalashtirilgan jismoniy mashqlar muvofiq harakat sifatlarini rivojlantirishda kutilgan natijani bermaslik holatlari tez-tez uchrab turadi. Buning asosiy sabablaridan biri mashg'ulotlarda qo'llanilgan u yoki bu jismoniy mashqlarning xajmi va shiddati hamda ushbu ko'rsatkichlarni shug'ullanuvchilar organizmiga ta`sir etish darajasi (organizmni yuklamaga bo'lgan aks javobi (reaktsiyasi) ob`ektiv ravishda baholanmasligidadir. Shuning uchun ham o'quv-mashg'ulot jarayonida qo'llanilayotgan jismoniy yuklama (jismoniy mashqlar) ning shug'ullanuvchilar organizmining funktsional imkoniyatlariga muvofiqligi e`tiborga olinishi shu yuklamani maqsadga muvofiq rejalashtirish imkoniyatini yaratadi . Umumiy jismoniy tayyorgarlik tushunchasi bu sportchining harakat sifatlarini har tomonlama (garmonik ravishda) rivojlanganlik darajasini

anglatadi. Masalaga shu tarzda yondoshish oddiy inson sog'ligini (sportchini ham) shakllantirish nuqtai nazaridan maqsadga muvofikdir. Albatta, «katta» sportda bu ham zarur. Lekin, bunday amaliyot va shunga asoslangan mashg'ulot uslubiyati malakali sportchilarni tayyorlash hamda yuksak musobaqa natijasiga erishish samarasini susaytirishi ehtimoldan holi emas. Chunki, har bir sport turining o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari mavjudligi tufayli bir sport turida ko'proq kuch-tezkorlik sifati ustun tursa, ikkinchi bir sport turida chidamkorlik sifati etakchi rolni o'ynaydi yoki uchinchi bir sport turida egiluvchanlik sifati asosiy ahamiyatga ega bo'ladi. Ammo, qayd etilgan fikrdan muayyan sport turida ma`lum jismoniy sifat juda zarur, boshqasi esa muhim emas degan xulosa kelib chiqmaydi. Aksincha, har bir sifatning muayyan sport vaziyatida ozmi-ko'pmi, lekin muhim «ulushi» mavjud bo'ladi . So'nggi yillarda malakali sportchilarni olimlar o'rtasida kelib tayyorlashda jismoniy tayyorgarlikni o'rni, jumladai jismoniy sifatlarning bir-biriga uzviy bog'liqligi hamda ularni sport mahoratiga bo'lgan ta`siri haqidagi muammolar tobora katta qiziqish uyg'otib bormoqda . Uzoq yillar davomida malakali voleybolchilar sakrovchanligi va tezkor sakrashning o'sishini kuzatib kelgan olimlar ilmiy va amaliy ahamiyatga ega qator xulosalar qilishga muvaffaq bo'ldi. Jumladan, ularning fikricha yuqori malakali voleybolchilar bir o'yin mobaynida zarba berish va to'siq qo'yish uchun 306 martadan 600 martagacha sakrar ekanlar. Ushbu malakalarni ijro etish uchun eng ko'p marta sakrash 4-partiyaga to'g'ri keladi- (142 marta). To'siq ko'yish uchun sakrash (122), zarba berish uchun sakrashdan ko'proq qaytarilar ekan- (113 marta). Kuzatuvlarga ko'ra bitta mashg'ulot davomida bajariladigan sakrash soni, bitta musobaqada sakrash sonidan kam ekanligi aniqlangan . Yuqori malakali sportchilarni erishgan yutuqlari ma`lum ma`noda ularning fundamental tayyorgarligiga bog'liqdir. Shunday ekan, yuqori malakali voleybolchilarni tayyorlash va ularning sport mahoratini yuksak darajaga olib chiqish dastlabki o'rgatish jarayoni samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. L.R. Ayrapetyants, M.A. Godik (2009) larning fikricha voleybolga ixtisoslashgan mashg'ulotlar bilan ilk bor shug'ullanishni 10-12 yoshdan boshlash maqsadga muvofiqdir. U o'zining tadqiqotlarida aynan shu yoshdaga bolalarni jismoniy va texnik tayyorgarligini jadal sur`atlar bilan o'stirish imkoniyatlarini ochib berdi . Isbot qilinganki, dastlabki tayyorgarlik bosqichida yosh voleybolchilarning kelajakdagi iste`dodini aniqlashga yordam beruvchi test mashqlarini tanlay bilish va qo'llash katta ahamiyatga ega. A.A. Po'latov (2008) bunday mashqlar qatoriga navbatda sakrovchanlik va chaqqonlikni baholovchi mashqlarni kiritish muhimligini ta`kidlaydi. Tayyorgarlikning keyingi bosqichlarida asosiy

jismoniy sifatlarni, shu jumladan maxsus sifatlarni baholash imkoniyatini beruvchi test mashqlarini oshirish tavsiya etiladi . Albatta, sakrovchanlik va tezkor sakrashni tayyorgarlikning qaysi bosqichida amalga oshirilishidan qat`iy nazar, bu masala umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik jarayonini qanday darajada rejalashtirilishiga bog'liq. Shuning uchun ushbu jarayonning malakali voleybolchilarni tayyorlashdagi ahamiyati, qolaversa asosiy o'yin malakalarini (zarba berish, to'siq qo'yish) ijro etish samarasi sakrovchanlik va tezkor sakrashga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqliga xaqidagi ma`lumotlar tahlili alohida ahamiyatga egadir. Maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT) sport faoliyatidagi dolzarb muammolardan biridir va barcha sport turlarida yuksak sport natijalarga erishish uchun muhim ahamiyatga ega.. Demak, bu sifatlarni rivojlantirish" haqida gap borganda muayyan tezkor sakrash turi va uni o'ziga munosib mashqlariga alohida e`tibor berilishi o'ta muhim masaladir [2]. So'nggi o'yinlarda voleybol musobaqasi qoidalarining tubdan o'zgarishi o'yin faoliyati va o'yin malakalarining ijro etilishiga batamom yangicha tus berib yuborgan. Hozirgi kunda deyarli barcha o'yin malakalari aksariyat vaziyatlarda «havoda», ya`ni sakrab ijro etiladi (zarba, to'siq ko'yish, to'p kiritish, uzatish, to'pni qabul qilish, yiqilib qabul qilish. Ushbu holatni yuzaga kelishi voleybol amaliyotida sakrovchanlik sifatiga e`tabor qaratishni nafaqat kuchaytirayapti, balki bu, sifatlarni jadal rivojlantirishga qaratilgan yanga ilmiy texnologiyalar yaratishni taqozo etmokda . Shuning uchun ko'p yillik sport tayyorgarligi jarayonida malakali voleybolchilarni tayyorlash samarasi sakrovchanlik sifatini har tomonlama mukammal tarbiyalash ustivorligiga bevosita bog'liq bo'lib boryapti. Voleybolchilar tezkorligi va tezkor sakrashini rivojlantirish muammolarini yorituvchi ilmiy tadqiqot hamda ilmiy adabiyotlar doirasi juda keng. Hozirgi jahon sportidaga ko'rsatkichlarning jadal ravishda yangilanib borayotganligi, yosh sportchilarni tayyorlashning yangi, yanada samarali vositalarini, uslublarini va shakllarini izlashni taqozo etadi. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, voleybolchilarning sport mahoratini yuksalishi aksariyat hollarda tezlik-kuchlilik sifatlari bo'yicha belgilanadi. Ushbu sifatlarni rivojlantirish malakali voleybolchilar tayyorlashning muhim vazifalaridan biridir. Ma`lumotlar shuni ko'rsatadiki, yosh voleybolchilarni maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish, ularning texnik malakalarini shakllantirish muhim ahamiyat kashf etadi. Binobarin, dastlabki tayyorgarlik bosqichidan boshlab jismoniy sifatlarni sport turi xususiyatiga moslab rivojlantirish texnik malakalarga o'rgatish jarayonini ancha engillashtiradi. Yuqorida qayd etilgan ilmiy ma`lumotlar tahlili shuni isbotlamoqdaki, yuqori malakali sport

zahiralarini tayyorlashda umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni dastlabki o'rgatish bosqichidan boshlab shakllantira borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Voleybol o'zining musobiqalarda hammabopligi, kamxarajatligi, go'zal o'yini,, mazmuni, kattayu kichik diqqatini o'ziga rom qiluvchi hujum va himoya kombinatsiyalari bilan yurtimiz shahar-qishloqlarida, mahallayu maskanlarda, bayramlarda bahs-raqobat, jismoniy va ruhiy barkamollik vositasi sifatida xizmat qilib kelmoqda. Voleybol - o'quv fani sifatida barcha oliy ta'lim va umumtalim maktab muassasalari o'quv rejasiga kiritilgan, darsdan va ishdan tashqari vaqtlarda faoliyat ko'rsatadigan sport to'garaklari, BO'SMlar, sport klublarida maxsus rejalashtiruv hujjatlariga asoslangan o'quv-trenirovka jarayoniga joriy etilgan. Shu bilan bir qatorda, ayni kunda voleybol bo'yicha iste'dodli sport zaxiralari va yuqori malakali, raqobatbardosh sportchilami tayyorlash hamda ommaviy voleybol geografiyasini yanada kengaytirish, mashg'ulot va musobaqalarni ilmiy asosda tashkil qilish zaruriyati yuksak kasbiy-pedagogik salohiyatga ega mutaxassis-kadrlar yetishtirish muhimligiga e'tibor qaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xaydarov I. (2021). Zamonaviy voleybol o'yinida sakrovchanlikni rivojlantirishning dolzarbligi
2. Jismoniy tarbiya va sport jurnali. 2018.
3. Jumayev A.T. Янги давурда спортнинг ижтимоийлаштирувчи мавқеи 2020 1-сон Муғаллим ҳем узликсиз билимлендириў.
4. Shukurllayev J.M."Maktab o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda akmeologik yondashuvning didaktik asoslari (voleybol turi misolida)" PhD dissertatsiyasi Chirchiq-2023.
5. Жумаев А.Т., Турдиев Ф.А. Ёшлар-ўсмирларга муафиқ тавсия этиладиган жисмоний маданият турлари 2021 3-сон Муғаллим ҳем узликсиз билимлендириў.

KICHIK VOLEYBOL SPORT TURIGA TAYYORLASH AKMEOLOGIYASINI VOLEYBOLGA INTEGRATSIYALASH MEXANIZMINING VARIATIVLIK DETERMINANTLARI

Shukurllayev J.M.
ChDPU p.f.f.d. (PhD), dotsent v/b.

Tayanch so‘zlar: voleybol, kichik voleybol, mashg‘ulot, jismoniy yuklama, sog‘lomlashtirish, vosita, sifat,natija, integratsiya.
Ключевые слова: волейбол, мини волейбол, тренировка, физическая нагрузка, реабилитация, инструмент, качество, результат, интеграtsiя.
Key words: volleyball, small volleyball, training, physical load, rehabilitation, tool, quality, result, integration.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada Kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash mexanizmining variativlik determinantlari bo`yicha ko‘rsatma va takliflar keltirilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье приведены рекомендации и предложения по детерминантам вариативности механизма интеграции акмеологии подготовки к малому волейболу в волейбол.
SUMMARY:
This article provides instructions and suggestions on the determinants of variativity of the mechanism for integrating the acmeology of preparation for the sport of small volleyball into volleyball.

Shug`ullanuvchilarning talab darajasida jismoniy faoliyatini yuritish uchun etarli bo‘lgan jismoniy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish zarur. Shu bilan bir qatorda jamoali sport turlari va xususan voleybol bo‘yicha erishilayotgan natijalar markaziy osiyodan ham nari o‘tmayapti desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Malumki, 2024 yil 19 iyulda O‘zbekiston respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan “Voleybol sport turlarini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” PQ–274–sonli qaror qabul qilindi. Xalq ta’limi hamda Oliy ta’lim vazirligining 2017 yil 26 martdagi 126-27qb – sonli qo‘shma buyrug‘ida ta’lim mazmunini integratsiyalash ishlarini amalga oshirish belgilangan.

V.D. Shadrikov mehnat faoliyatini quyidagi uch jihatning birligida qarab chiqishni taklif etgan:

instrumental – inson mehnat vositalari yordamida mehnat predmetida oldindan mo‘ljallangan o‘zgarishlarni vujudga keltiradigan jarayon qobiliyatida;

fiziologik – inson organizmi funktsiyasi qobiliyatida;

psixologik – ongli maqsadni amalga oshirish, mutaxassisning irodasi, diqqati, intellektini namoyon qilish va boshqalar qobilivatida.

Shug`ullanuvchi salomatligi holatini baholashda biz ikkita muhim jihatni ajratamiz, ulardan biri inson hayotining samarali sohasini aks ettiradi, ikkinchisi V.R.Kaznasheevning nuqtai nazariga to‘g‘ri keladi. U salomatlikni fiziologik, biologik va aqliy funktsiyalarni saqlash va rivojlantirish jarayoni, faol ijodiy hayotning maksimal davomiyligi bilan optimal mehnat va ijtimoiy faoliyat, deb hisoblaydi [4].

Integrativ yondashuv zamonaviy ilm-fan rivojlanishidagi yetakchi yo`nalish bo`lib, uning integrativ xususiyatini aks ettiradi. Sport va ta`lim darajasida Mini voleybol ta`limida voleybol sport turiga integratsiya mexanizmi va vositasi sifatida barcha tegishli texnika va taktika aloqalarni o`rnatishni o`z ichiga oladi. Bunday holda, integrativ yondashuv vertikal va gorizontal integratsiya orqali amalga oshirildi.

Vertikal integratsiya mini voleybol aloqalarni o`rnatish orqali Voleybol sportining alohida bo`limlari va tarkibiy qismlarining uzviyligini ta`minladi.

Gorizontal integratsiya Voleybolning mashqlar aloqalarini amaliy jismoniy qobiliyatlarini va texnik-taktik harakatlarining Mini voleybol elementlari bilan amalga oshirish orqali amalga oshirildi.

Integrativ yondashuv dunyoning ilmiy bir qismi sifatida sportning klaster manzarasi to`g`risida yaxlit g`oyalarni shakllantirishga yordam beradi.

Yuksalishga asoslangan Integrativ yondashuv ta`limi jarayonida talabalarda nafaqat asosiy va ikkilamchi sport turiga oid vakolatlar, balki umumiy harakatlarni shakllantirishni ham ta`minlaydi. Shu bilan birga, talabalar o`rtasida voleybol harakatlarini shakllantirish, mini voleybol bilan bog`liq ijodiy faoliyatda ko`nikma va tajribani rivojlantirishga a`lohida e`tibor qaratadi.

Determinant – bu aniqlovchi hisoblanib, o‘rganilayotgan har bir jarayonni yoki yondashuvni turli datallarini ham yodda tutish lozimligi bilan belgilanadi. Bu voleybol mashg‘ulotlarida shug`ullanuvchilarni akmeologik yondashuv orqali jismoniy qobiliyatlarini shakllantirishda amalga oshirilayotgan harakatlar majmui, pedagogik va psixologik, shuningdek, anotomik hamda fiziologik jihatlarni ham bir vaqtning o‘zida qiyoslash imkoniyatini yaratib beradi. Buning natijasida shug`ullanuvchilarni akmeologik yondashuv asosida jismoniy qobiliyatlarini bir maromda kechishini, unda qo‘llanilgan metod, vosita, shakl va tamoyillarni bir butun qolipga solish imkonini beradi.

Voleybol mashg‘ulotlarida shug`ullanuvchilar jismoniy qobiliyatlarini takomillashtirish samaradorligi bir qator akmeologik determinantlarga bog‘liq:

tashkiliy-funktsional, mini voleybol mashg‘ulotlarida shug`ullanuvchilarning sub’ektiv tajribasi darajalarini aniqlashni ta’minlash;

shug`ullanuvchilarga o‘z-o‘zini bilish va o‘z taqdirini o‘zi belgilashda tabaqalashtirilgan va individual yordam ko‘rsatish;

jismoniy tarbiya va sport faoliyatini aks ettirish;

ta’lim mazmunini shug`ullanuvchilarning Voleybol elementlari darajalariga moslashtirishga qaratilgan mazmunli komponenti;

jismoniy qobiliyatlar rivojlanishning shaxsan muhim natijalariga erishish;

voleybol mashg‘ulotlarida shug`ullanuvchilarning sub’ektiv tajribasini hisobga olgan holda individual shakllantiruvchi yoki korreksion-rivojlantiruvchi pedagogik faoliyatni amalga oshirish;

shug`ullanuvchilarga jismoniy madaniyat qadriyatlarini o‘zlashtirishda tabaqalashtirilgan yordam ko‘rsatish (jismoniy qobiliyatlari shakllanishida muammolari mavjud shug`ullanuvchilar) uslubiy ta’minotidan foydalanish;

differensial yondashuvni amalga oshirish samaradorligini baholash mezonlarini tanlash, mini voleybol mashg‘ulotlariga sub’ektiv munosabat dinamikasini hisobga olgan holda shug`ullanuvchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish vektorini aniqlash.

Variativlik atamasi ma`lum bir muammoni hal qilishning bir necha yo`li mavjudligini anglatadi. Bu atama bizga lotin tilidan variatus so`zi, "o`zgaruvchanlik" va varius–"turli" degan ma`noni anglatadi. C.I.Ojegov va T.F.Efremova lug`atlarida bu so`zning ma`nosi bir narsaning bir necha variantlari

mavjudligini tushuntiradi.

Sportning variativligi

1) zamonaviy sport tizimini rivojlantirishning asosiy yo`nalishlaridan biri;

2) rivojlanish, xilma-xilligini amalga oshirish natijasi tizimining talablarni yetarli darajada xilma-xil to`laqonli, sifat jihatdan ta`minlay olish xususiyati, qobiliyati mashg`ulot traektoriyalarining o`ziga xos va jozibali variantlari, oxirida bunday traektoriyani tanlash uchun bir qator imkoniyatlar (mazmunli va yehtiyojlariga mos) ta`limni individualizatsiya qilishning maksimal darajasini ta`minlashga qaratilgan.

Mini Voleybolda Variativlik nafaqat tarkibni, balki o`quv jarayonining o`zini ham Voleybolga yo`naltirishning asosiy usullaridan biridir.

Variativlik mashg`ulot olib borish usullari, Mini voleybol elementlarining Voleybol texnika va taktika kabi qo`llaniladigan mashqlar shakllarida namoyon bo`ladi. Variativlik zamonaviy ta`lim tizimida amalga oshirilayotgan innovatsion o`zgarishlarning asosiy tendensiyasidir. Shu bilan birga, har bir shug`ullanuvchining nafaqat harakatlariga, balki tanlash uchun haqiqiy mashqlarga ega bo`lishini ta`minlash muhimdir.

“Mashg`ulot piramidasi” (1-rasm). Bu mashg`ulot shug`ullanuvchilarning olingan mashqlar yuqumlilik darajasi asosida tashkil qilishga asoslanadi. Berilgan mashqlar tarkibi, tuzilishi, xossalari, tasniflanishi, bajarilishi kabi jihatlarni umumlashtirgan holda amalga oshirishni taqozo etadi. Masalan, quyidagi piramidalardan birida mashlarning umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlariga, ikkinchisida maxsus mashqlarning klassifikatsiyasiga va uchinchisida esa Mini voleybol va Voleybol elementlarning mashg`ulotlarda birlashishi bilan bog`liq topshiriqlar berilgan. Mavjud mashqlar asosida piramidaning pastki qismidan to uning uchigacha “zinama-zina” tutash (qo`shni) mashqlar orqali “Progres” holatiga erishish lozim.



1- rasm.

Masalan, “Mini voleybol qoidalariga asoslangan holatlar bilan bog`liq piramida”. Ushbu piramida asosidagi qatorning mashg`ulotlari) orqali ikkinchi qatorga (zinaga) “chiqiladi”. U yerdagi maxsus mashqlar orqali uchinchi qatorga (zinaga) “chiqiladi”. Xuddi shu zaylda 4- va 5-qatorlarga (zinalarga) “chiqiladi”, ya`ni piramida zabt etiladi:

1-piramida:

Umumrivojlantiruvchi mashqlar. Bunda shug`ullanuvchilar Umumiy jismoniy tayyorgarliklarini oshirib boradi. Maxsus mashqlarga adaptatsiya qilinadi.

2-piramida:

Yondashtiruvchi va maxsus mashqlar. Bunda aynan Mini voleybol hamda Voleybol elementlariga moslashtirilgan va asoslangan mashqlar tizimi amalga oshirilib, to`pni uzatish, qabul qilish, to`pni o`yinga kiritish, hujum va himoya harakatlari bilan xarakterlanadi.

3-piramida:

Ikki tomonlama o`quv o`yin mashqlari. Bunda Mini voleybol o`yini jarayonida mashg`ulotlarda amalga oshirilgan mashqlarni amalda bajaradi va samaradorligiga ishonch hosil qiladi.

4-piramida:

Musobaqa va achkolar sifati mashlari. Mazkur jarayonda asosan achkolar unumdorligiga erishishni va musobaqalarda galaba qozonishga muvofiqlashtiriladi.

5-piramida:

Tadqiqot Akmeologiyasi. Bunda “akme” –“ch`oqqi” yani, eng yuqori pog`onaga erishish tushuniladi. Mini voleybol (3 ta o`yinchi) + Mini voleybol (3 ta o`yinchi) = Voleybol (6 ta o`yinchi). Mini voleybol elementlari voleybolga nisbatan qiyin va ko`p harakat talab qilganligi bois mini voleybol o`ynagan shug`ulanuvchi voleybol o`yinini yuqori saviyada o`ynay olishi nazarda tutildi va amalda o`z isbotini topdi. Bu degani 2 ta mini voleybol jamoasini birlashtirsak yuqori saviyali 1 ta voleybol jamoasi tayyor holatga kelishini ifodalaydi.

Ushbu piramidada Mini voleybol hamda voleybol shug`ullanuvchilarining klassifikatsiyasiga doir topshiriqlar amalga oshirilib, uning asosidan uchigacha “chiqib borish” uchun mini voleybol mashqlaridan foydalanish lozim bo`ladi.



Maydon o’lchamlari (2-rasm). Maydon to’g’ri to’rtburchak shaklida bo’lib, uzunligi 14 m, eni 7 m. Maydon tashqarisida birinchi chiziqdan 3 m uzoqlikda bir chiziq tortilib, bu oraliq xavfsizlik zonasi deyiladi. Xavfsizlik zonasi ochiqda joylashgan maydonda 3 m, yopiqlikda esa 2 m bo’ladi. Maydon tuzilishi



2-rasm. “Kichik voleybol” o’yini maydoni

Oyinchilarning joylashishi (3-rasm). O`yin jarayonida 3 nafar o`yinchi ishtirok etadi, zahira o`yinchilar soni 3 nafar, jami har bir jamoada 6 nafar ishtirokchidan iborat.



3-rasm. O‘yinchilar joylashishi va harakatlanishi

Agar to`p hujum zonasiga tushsa 2 achko, himoya zonasiga tushsa 1 achko beriladi (3- rasm). To`pni o`yinga kiritishda xatolok yuz bersa raqib jamoaga 1 achko beriladi, o`yin jarayonida hujum zonasidan to`p raqib jamoaga o`tkazilsa ham 1 achko raqib jamoaga beriladi.



4- rasm. Achkolar taqsimlanishi.

Piramidada Mini voleybol hamda voleybol shug`ullanuvchilarining klassifikatsiyasiga doir topshiriqlar amalga oshirilib, uning asosidan uchigacha “chiqib borish” uchun mini voleybol mashqlaridan foydalanish lozim bo`ladi.

Kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash tadqiqoti jarayoni Chirchiq davlat pedagogika universiteti Sport pedagog klubida tashkil etilgan voleybol to`garagi talaba qatnashuvchilari orasida amalga oshirildi. Tajriba-sinov ishlariga jami 23 nafar shug`ullanuvchi jalb etildi, ya’ni 12 nafari o`gil bolalar, 11 nafari esa qizlarni tashkil etdi.

Mazkur tadqiqotimizda shug`ullanuvchilarning jismoniy qobiliyatlarini maqsadli va ehtiyojga yo‘nalgan hamkorlik shakllari va SMART mezonlarini, ya’ni aniqlik, o‘lchamlilik, erishimlilik, resurs bilan ta’minlanganlik, reglament kabilar maqsad belgilash va natijaga mo‘ljal olish tamoyillariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga erishildi.

Kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash mashg‘ulotlarida shug`ullanuvchilar jismoniy qobiliyatlarini baholash parametrlari

Voleybolchilarning maxsus jismoniy qobiliyatlarini oshirishda kichik voleybol sport turiga tayyorlash elementlaridan foydalanish natijalari muhokamasi bo`yicha quyidagi me`yorlar belgilandi (1-2-3 kurs ChDPU talabalari).

1. Hujum zarbasi. Voleybol to`pini himoya zonazidan obruch ichiga urgan holatda tushirish ( 10 ta imkoniyat me`yor-9-7-5 ta). Mazkur me`yor hujumni aniq amalga oshirish darajasini aniqlash imkonini beradi.

2. Turgan joyda uzunlikka sakrash. (O`g`il bolalar-255 sm, Qizlar -230 sm). Oyoq orqa qismi hisoblanadi. Me`yorlar Alpomish va Barchinoy maxsus test sinov me`yorlari bo`yicha belgilandi.

Mazkur me`yor sakrovchanlik darajasini aniqlash imkonini beradi.
3. 2 achkoli hujum. Bunda himoya zonadan urilgan to`pni 1 chi zonaga tushirish talab etiladi. Bu jarayon kaft bilan to`pni boshqarishga o`rgatadi. 10 ta imkoniyat. (Me`yor-7-5-3)
4. Turnikda tortilish. Past turnikda tortilish. Mazkur me`yor kuch qobiliyatini aniqlash imkonini beradi (15 ta).
5. Arg`amchida sakrash (1 daq). Mazkur me`yor tezlik qobiliyatini aniqlash imkonini beradi (70 ta).
6. Voleybolcha turish holatida o`ng va chap tarafdan pastdan to`pni qabul qilish. (me`yor 10 ta). Bu maxsus mashq orqali egiluvchanlik va to`pni boshqarish qobiliyati darajasini aniqlanadi.

1.-jadval

Kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash me'yorlari					
	Baho		5	4	3
1.	Hujum zarbasi. Voleybol to`pini himoya zonazidan obruch ichiga urgan holatda tushirish (marta)		8-9-10	5-6-7	3-4-5
2.	Turgan joyda uzunlikka sakrash.(sm)	O`g`il	255+	245-254	230-244
		qizlar	230+	220-229	200-219
3	2 achkoli hujum		7+	5-6	3-4
4	Turnikda tortilish.	O`g`il	15+	12-14	9-11
	Past turnikda tortilish.	qizlar	15+	12-14	9-11
5.	Arg`amchida sakrash (1 daq)		70+	60-69	50-59
6.	Voleybolcha turish holatida o`ng va chap tarafdan pastdan to`pni qabul qilish.		9-10	7-8	5-6

Mazkur ko`rsatkichlar shkala ko`rinishida diagrammasi
2-jadval



Keltirilgan ma'lumotlarni matematik formulalar orqali foizlarda ifodalaymiz. Tajriba–sinov ishlarida reprezentativ asosida tanlangan Shug`ullanuvchilarning har bir o'zlashtrish darajalarini foiz koeffisientlarini quyidagi formula orqali aniqlaymiz:

$Kq\frac{J}{Q}\cdot 100\%$ (1)

Bunda: J – o'tkazilgan tajriba – sinov ishlarida so'rovnomalarga o`quvchilar tamonidan berilgan to'g'ri javoblar soni;
Q – tajriba – sinov ishlarida natijalari hisobga olinayotgan guruhdagi talabalarning umumiy soni.
St'yudent – Fisher kriteriyasiga asosan natijalarni matematik – statistik tahlillarini o'tkazdik.
Xulosa o`rnida shuni e`tirof etish joizki, olingan natijalardan ma`lumki, tadqiqotdan oldingi natijalarga qaraganda tadqiqotdan keyingi natijada o`sish darajasi samaradorligi yuqorililigi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2022 yil 28 yanvardagi Maktab ta'limini rivojlantirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi nutqi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, https://www.yuz.uz/uz/news/maktab.

2. Деркач А.А. Акмеологические основы развития профессионала. – М.: Издателство Московского психолого-социального института; Воронеж: НПО.: МОДЭК.: 2004. – 752с.

3. Педагогик таълим инновацион кластери: таъриф, тавсиф, тасниф. Илмий рисола. Ғ.И. Мухамедов, У.Н. Ходжамқулов. ЧДПИ 2019.

4. Богданов Е.Н. Введение в акмеологию / Е. Н. Богданов, В. Г. Зазыкин. Калуга: КГПУ.: 2000. - 97с.

5. Shukurllayev J.M."Maktab o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda akmeologik yondashuvning didaktik asoslari (voleybol turi misolida)" PhD dissertatsiyasi Chirchiq-2023.

6. Кузмина Н.В. Акмеологическая теория повышения качества подготовки специалистов образования / Н. В. Кузмина. Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2001. 144 с.

GIMNASTIKA MASHQLARI ORQALI MAKTAB O‘QUVCHILARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Tagayev R.M.
O‘zDJTSU

Tayanch so‘zlar: boshlang‘ich sinf, jismoniy tayyorgarlik, gimnastika vositalari, mushak kuchi, muvozanat, koordinatsiya, chidamlilik.
Ключевые слова: начальный класс, физическая подготовка, гимнастические инструменты, мышечная сила, баланс, координация, выносливость.
Key words: elementary grade, physical fitness, gymnastics, muscle strength, balance, coordination, endurance.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini gimnastika vositalari orqali jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish jarayoni va uning ahamiyati o‘rganiladi. Bolalar uchun jismoniy faoliyatning ahamiyati, ularning sog‘lom rivojlanishi va umumiy salomatlikka ta’siri ko‘rsatiladi. Gimnastika vositalari, jumladan, tramplinlar, to‘siqlar, muvozanat taxtalari va gimnastik matlar yordamida bolalarning mushak kuchi, muvozanat, koordinatsiya va chidamliligini oshirishga qaratilgan mashg‘ulotlar taklif etiladi. Shuningdek, jismoniy faoliyatni qiziqarli va samarali qilish maqsadida o‘yinlar va musobaqalar tashkil etish, xavfsizlik choralariga rioya qilish va ota-onalar bilan hamkorlik qilish muhimligi ta’kidlanadi. Ushbu tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligini yaxshilashga, ularni faol hayot tarziga jalb qilishga va ularning sog‘lom rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматривается процесс развития физической подготовленности учащихся начальных классов средствами гимнастики и его значение. Показано значение физических нагрузок для детей, их здоровое развитие и влияние на общее состояние здоровья. Предлагаются занятия, направленные на развитие мышечной силы, баланса, координации и выносливости детей с использованием гимнастических инструментов, включая трамплины, барьеры, балансировочные доски и гимнастические коврики. Также подчеркивается важность организации игр и соревнований, соблюдения техники безопасности и сотрудничества с родителями с целью сделать физическую активность интересной и продуктивной. Результаты этого исследования служат для улучшения физической подготовки учащихся начальных классов, вовлечения их в активный образ жизни и обеспечения их здорового развития.
SUMMARY:
This article will study the process of developing physical fitness of Primary School students through gymnastics tools and its importance. For children, the importance of physical activity, their healthy

development and impact on overall health are indicated. Gymnastic tools are offered, including springboards, fences, balance boards, and gymnastic mats, to increase children's muscle strength, balance, coordination, and endurance. It is also emphasized that it is important to organize games and competitions, comply with security measures and cooperate with parents in order to make physical activity interesting and effective. The results of this study serve to improve the physical fitness of Primary School students, attract them to an active lifestyle and ensure their healthy development.

Bugungi kunda, O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni, shu jumladan, gimnastikaning rivojlanish tarixi hamda uning taraqqiyotini har bir ta’lim muassasasi, yoshlar markazlari va yosh avlod uchun tashkillashtirilgan sport to‘garaklarida his qilishimiz mumkin.

Gimnastikani juda katta gigiyenik-sog‘lomlashtirish ahamiyati bor. Qadimgi zamonning atoqli mutafakkirlaridan Gelen, Gippokrat, Plutarx, Beruniy, Abu Ali ibn Sino gimnastikaning davolash va sog‘lomlashtirish vositasi sifatiga yuqori baho berishgan. O‘z o‘rnida rus olimlari I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, I.N.Mechnikov, P.F.Lesgaftlar jismoniy mashqlarga, jumladan, gimnastika mashqlariga katta ahamiyat berib, «bu mashqlarni hayotiy faoliyat hamda ish unumdorligini oshirishini, organizmning kasallikka chidamliligini tarbiyalash va faol dam olishning eng yaxshi vositasi», deb tan olishgan.

Gimnastikaning pedagogik jarayondagi o‘rni yuksakdir. U bilan shug‘ullanuvchilar ongli ruhda, faollik va mehnatga ijodiy munosabatda bo‘lishi bilan ajralib turishadi. Mashg‘ulotlarni qat’iy, bir tartibda olib borilishi, ta’lim jarayonini shug‘ullanuvchilarning maksimal faolligini tashkil etish ularni intizomli qilib tarbiyalaydi. Gimnastika aqliy ta’lim bilan jismoniy tarbiya birligining yorqin namunasidir. Qo‘llaniladigan uslublar sportchilarning intellektual faoliyati faolligini rag‘batlantirish imkonini beradi. Markaziy asab tarmoqlarining moyilligini, uning mushak faoliyatini turli holatlariga moslasha olish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi[1].

Rus pedagogi va tibbiyot fanlari bo‘yicha olim P.F.Lesgaft [1; 41-b.] aqliy va jismoniy rivojlanish bir-biri bilan uzviy bog‘liq ekanligi, aqlning o‘sishi va rivojlanishi o‘z navbatida jismoniy rivojlanishni taqozo qilishini ta’kidlab o‘tadi. Bu orqali jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanuvchilar jismoniy mashqlarni ongli ravishda, qiziqish, tashabbuskorlik bilan ijodiy yondashilsa organizmda harakat malakalari to‘g‘ri shakllanadi, funksional qobiliyatlari rivojlanadi.

Jismoniy tarbiya vazifalari bilan ko‘plab tadqiqotchilar shug‘ullanishgan. Jumladan, Mars va Engels[2; 146-b] shunday ta’kidlagan: “tarbiya deganda biz uchta narsani tushunamiz. Birinchidan: aqliy tarbiya. Ikkinchidan: jismoniy tarbiya. Uchinchidan: barcha ishlab chiqarish jarayonlarining asosiy tamoyillari

bilan tanishadigan va shu bilan birga bola yoki o‘spiringa barcha sohalarning eng oddiy vositalari bilan ishlash ko‘nikmalarini beradigan texnik trening.

Gimnastika mashqlarini o‘rgatish — mashg‘ulotlarda asosiy o‘rin egallaydi. Ayni bir vaqtda yoshlarda vatanparvarlik hissi, o‘z faoliyatiga ijodiy yondashish, intizom va axloq kodeksi tamoyillariga muvofiq xatti-harakat mezonlariga rioya qilish hislari tarbiya topadi. Sportning bu turi o‘sib kelayotgan aviodga ta’lim va tarbiya berish tizimidagi pedagogik ilm sohasi, o‘tilishi shart bo‘lgan o‘quv mashg‘ulotlari hisoblanadi. O‘zida ma’naviy boylikni, axloqiy poklikni va jismoniy kamolotni garmonik holda mujassamlashtiradigan insonni tarbiyalashda jamiyatga xizmat qilayotgan fandir. Sportning mustaqil turi va alohida fan sifatida gimnastika jismoniy tarbiyaning gimnastika mashqlariga xos bo‘lgan vositalar, uslublar va mashg‘ulotlarni tashkillashtirish shakllari yordamida insonning jismonan tarbiyalash, rivojlantirish va kamol topishini tarbiyalaydi. Bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlari ko‘proq sport fiziologiyasi, metrologiya, anatomiya, sport pedagogikasi, sport psixologiyasi, valeologiya, biomexanika va matematikada olib boriladigan tadqiqotlar bilan aloqadordir.

Gimnastika pedagogik va o‘quv intizomi oldida turgan vazifalar turli xil mashqlar va ularning kombinatsiyalaridan foydalangan holda hal qilinadi.

Safda turish mashqlari gimnastika mashg‘ulotlarining barcha shakllarida qo‘llaniladi. Ushbu mashqlar tuzilmalar, joyida va harakatda burilishlar, yurish va yugurishning turli usullari, ochish va yopish, turli shakllda yurishdan iborat. Ushbu mashq harakatlari yordami bilan o‘qituvchi o‘quvchilarni mashg‘ulot zalida yoki maydonchalarda tartib bilan joylashtirish, harakatlantirishni qiyinchiliklarsiz qulay tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Umumiy rivojlanish mashqlari mushak-skelet tizimini va umuman butun tanani yaxshilashga yordam beradi, elka va belni to‘g‘ri va tik holatda turishini ta’minlaydi bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchisini partada to‘g‘ri o‘tirishiga ta’sir qiladi. Gimnastikaning mashqlari umumiy jismoniy rivojlanish va yanada murakkab motorli harakatlarni o‘zlashtirishga tayyorlashga qaratilgan. Ushbu guruhga kuch, moslashuvchanlik, tezlikni rivojlantirish, mushaklarni kuchaytirish va bo‘shashtirish qobiliyati va umurtqani tik va tog‘ri shakllanish, nuqsonlarni bartaraf etish uchun turli xil mashqlar kiradi. Umumiy rivojlanish mashqlari (vazifalarga qarab) obyektlarsiz va turli xil narsalar (to‘plar, tayoqlar, arqonlar, gantellar, shtangalar) bilan bajarilishi mumkin..), shuningdek, ommaviy turdagi moslamalarda (gimnastika dastgohlari, zinapoyalar, ustun, arqon)[4].

Gimnastika mashg‘ulotlarida hayotiy zarur malaka hamda ko‘nikmalar orttiriladi va takomillashtiriladi. Gimnastikaning ta’limiy ahamiyati ham juda

katta. O‘quv topshiriqlari aniq taqsimlanishining shartliligi, harakatlar analizi va sintezining keng ishlatilishi o‘rganilgan harakat faoliyatlarining xilma-xil ijro variantlarida murakkablashtirilishi, harakatlarni cheksiz kombinatsiyalash, forma va koordinatsiya jihatidan xilma-xil bo‘lgan juda ko‘p jismoniy mashqlarni o‘rganish – bularning hammasi shug‘ullanuvchilarga o‘zlarining harakat imkoniyatlarini baholashni va harakat faoliyati umumiy, qonuniyatlarini aniqlab olishni o‘rganish imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini gimnastika vositalari orqali jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish bolalarning jismoniy faoliyatini oshirish, mushaklarni mustahkamlash va umumiy salomatlikni yaxshilashga yordam beradi. Quyidagi usullar orqali bu maqsadga erishish mumkin[3]:

1. Gimnastika vositalarini tanlash
   - Gimnastik to‘siqlar: Bolalar uchun mos bo‘lgan past to‘siqlarni tanlash. Ular ustidan sakrash va o‘tish qobiliyatini rivojlantiradi.
   - Kichik tramplinlar: Bu vosita bolalarning muvozanatini va koordinatsiyasini yaxshilashda yordam beradi.
   - Gimnastik to‘plar: Ular yordamida turli mashqlar bajarish, muvozanatni saqlash va kuchni oshirish mumkin.
   - Gimnastik matlar: Xavfsizlikni ta’minlash va turli mashqlarni bajarish uchun qulay.
2. Mashg‘ulotlar dasturi
   - Isinish: Har bir mashg‘ulotdan oldin isinish muhim. Oddiy harakatlar, cho‘zilishlar va qizdirish mashqlari bilan boshlash.
   - Mashqlar:
   - Sakrash: tramplinda yoki to‘siqlar ustida sakrash mashqlari.
   - Muvozanat: yog‘och yoki maxsus muvozanat taxtalarida yurish.
   - Cho‘zilish: gimnastik matlarda turli cho‘zilish mashqlarini bajarish.
   - Jismoniy o‘yinlar: raqqoslik, to‘p o‘yinlari va boshqa interaktiv mashg‘ulotlar.
3. O‘yinlar va musobaqalar
   - Bolalarni jismoniy faoliyatga jalb qilish uchun turli o‘yinlar va musobaqalar tashkil etish. Bu ularning motivatsiyasini oshiradi va jamoaviy ruhni rivojlantiradi.
4. Xavfsizlik
   - Har doim xavfsizlik qoidalariga rioya qilishlik. Bolalarni kuzatib borish va zarur hollarda yordam berish muhimdir.
5. Natijalarni baholash

- O‘quvchilarning yutuqlarini monitoring qilish va ularning rivojlanishini baholash. Bu ularni yanada ko‘proq harakat qilishga rag‘batlantiradi.

6. Ota-onalar bilan hamkorlik

- Ota-onalarni ham jismoniy faoliyatga jalb qilish, ularga bolalarining yutuqlari haqida ma’lumot berish va uyda ham jismoniy faoliyatni davom ettirishlarini tavsiya qilish muhimdir.

Bu usullar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligini samarali ravishda rivojlantirish imkonini yaratadi. Natijada, ushbu faoliyat bolalarning jismoniy faoliyatini oshirishga, ularning ruhiy va jismoniy salomatligini yaxshilashga yordam beradi hamda kelajakda sportga qiziqishlarini rivojlantirishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kurbashev A.X. Jismoniy tarbiya jarayonida ta’lim va tarbiyaning rivojlanish asoslari // Zamonaviy ta’lim jurnali, 6-son, 2014. – B. 49-55.
2. Лесгафт П.Ф. Избранные педагогические сочинения /сост. И.Н.Решетень. – М.: 1990. – С. 41 (112).
3. Ковалько В.И Поурочные разработки по физкультуре «ВАКО» Москва 2003г. – 301 с.
4. Петров П.К. Методика преподавания гимнастики в школе. – М., 2003.
5. Смолевский В.М. Гимнастика и методика преподавания. – М.: ФиС, 1987.
6. Филиппович В.И. Теория и методика гимнастики. – М.: Просвещение, 1971
7. Мартовский А.Н. Гимнастика в школе. – М.: ФиС, 1976.
8. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. – М.: ФиС, 1991.
9. Менхин Ю.В., Волков А.В. Начала гимнастики. – Киев, 1980.

JISMONIY TARBIYA VA SPORT O‘YINLARINING RIVOJLANISHI TARIXI

Nazarov A.I.
CHDPU o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: jismoniy tarbiya, sport o‘yinlari, gimnastika, agonistika, Olimpiya o‘yinlari, sport tarixi.
Ключевые слова: физкультура, спортивные игры, гимнастика, агонистика, Олимпийские игры, история спорта.
Key words: physical education, sports games, gymnastics, agonistics, Olympic Games, sports history.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada jismoniy tarbiyaning ta’lim tizimidagi ahamiyati, sport o‘yinlarining sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi roli va yosh avlodni tarbiyalashdagi o‘rni alohida e’tiborga olinadi. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sportning global miqyosdagi rivojlanishi, xalqaro musobaqalarning paydo bo‘lishi va ularning jamiyatdagi ta’siri ham tahlil qilinadi. Ushbu ish, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi tarixiy jarayonlarni chuqur o‘rganish orqali, kelajakda bu sohada amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan yangiliklar va takliflar uchun asos yaratadi. Maqola jismoniy tarbiya va sportning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.
РЕЗЮМЕ:
В статье особое внимание уделяется значению физической культуры в системе образования, роли спортивных игр в формировании здорового образа жизни и роли в воспитании подрастающего поколения. Также анализируется развитие физической культуры и спорта в глобальном масштабе, появление международных соревнований и их влияние на общество. Эта работа, углубленно изучая исторические процессы в области физического воспитания и спорта, закладывает основу для инноваций и предложений, которые могут быть реализованы в этой области в будущем. Статья служит дальнейшему повышению значимости физической культуры и спорта в жизни человека и общества.
SUMMARY:
The article pays special attention to the importance of physical education in the education system, the role of sports games in the formation of a healthy lifestyle and the role in the upbringing of the younger generation. It also analyzes the development of physical education and sports on a global scale, the emergence of international competitions and their impact on society. This work, in-depth study of historical processes in the field of physical education and sports, lays the foundation for innovations and proposals that can be implemented in this area in the future. The article serves to further enhance the importance of physical education and sports in the life of a person and society.

Yoshlarni tarbiyalash va ularga zamonaviy bilimlar berishning sifatini oshirish hamda jamiyatimiz uchun barkamol shaxsni shakllantirish ta'lim tizimining eng asosiy maqsadlardan hisoblanadi. Uzluksiz ta'lim jarayonida olib borilayotgan barcha chora tadbirlar malakali kadrlar tayyorlash maqsadini amalga oshirishga qaratilgandir. Bugungi ta'lim-tarbya jarayonlariga zamon talablariga mos imkoniyatlaridan ustuvorlik bilan foydalanib, ta'lim oluvchilarning aqliy potensialini o'sishini ta'minlashni nazarda tutadi. Bu borada mamlakatimizda ta'lim va sport tizimidagi islohotlarni uyg'un tarzda jismonan sog'lom, aqlli va bilimli yoshlarni tarbiyalash maqsadiga yo'naltirish bo'yicha ko'pgina amaliy ishlar qilinmoqda. Jumladan, jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish va o'tkazish usullarini tadqiq etish muammosini o'rganilishi ta'lim tarbiya masalalariga yanada chuqurroq kirib borishga va bu muammoga ilmiy-amaliy jihatdan oydinlik kiritishga asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 5-sentabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to`g`risida"gi 394-sonli Qonuni[1] va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi PQ-3031-sonli Qarori [2] mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish va uni ommaviyligini oshirishga katta turtki bo'ldi. Shuningdek Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-fevraldagi 118-son 2019-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish Kontseptsiyasi[3], O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning[4] yangi talqini tasdiqlandi, ushbu sohani rivojiga katta hissa qo'shayotgan me'yoriy huquqiy xujjatlar sifatida xizmat qilmoqda.

Jismoniy tarbiyaning kelib chiqishi haqidagi masala jismoniy tarbiya tarixining eng muhim muammolaridan biri bo'lib, prinsipial metodologik ahamiyatga ega ekanligiga e'tibor qaratilgan. Jismoniy tarbiya tarixi qadimgi zamonlardan boshlab, hozirgi kungacha bo'lgan davrlarda jahon xalqlarining jismoniy tarbiya va sport tarixi, xalqaro sport va olimpiya harakati tarixini o'rganadi. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi turli davrlarda jismoniy tarbiyaning vujudga kelishi, rivojlanishi va taraqqiy etishining umumiy qonuniyatlarini aniqlash, ulami tahlil qilish bilan shug'ullanadi.

Jismoniy tarbiya va sport tarixini o'rganishda mutaxassis olimlar, H.A.Botirov[6], L.A.Djalilova[7], B.B.Ma'murov, G'.M.Salimov va boshqalarning o'quv qo'llanmalari, ilmiy-ommabop risolalaridan foydalaniladigan. Ularning asarlariga asosan insoniyat taraqqiyotining ilk davridan boshlab to hozirgi kungacha bo'lgan jismoniy tarbiya tarixining rivojlanish yo'llarini o'rganish mumkin.

Jismoniy tarbiya va sportining mohiyatini tushuntirish, ularni targ‘ibot qilish, barcha sport turlari tarixi, xalq milliy o‘yinlari tarixi bilan tanishtirish muhim ahamiyatga egadir. O‘zbekistonda «Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi» fanining ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o‘rganish maqsadida ishlangan darslik va o‘quv qo‘llanmalari kam. Sobiq Ittifoq davrida R.Ismoilov va Yu.Sholomitskiy ilk bor (1969) «O‘zbekistonda fizkultura tarixi» o‘quv qo‘llanmasini yaratganlar. Unda qadimgi Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekiston hududida yashagan xalqlar jismoniy tarbiyasi haqida ma’lumotlar berilmagan. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik-yillarida X.A.Botirov (1993) va A.K.Akramov (1997) «Jismoniy tarbiya va sport tarixi» o‘quv qo‘llanmalarida ajdodlarimiz jismoniy tarbiyasi tarixi qisqa va umumiy tarzda yoritildi. R.Abdumalikov, J. Eshnazarov «Ajdodlar jismoniy tarbiyasi tarixini o‘rganish masalalari» (1993) o‘quv qo‘llanmasida fanning ayrim mavzulari yoritilgan. J. Eshnazarov 8 «Jismoniy tarbiya tarixi va boshqarish» (2008) darsligida jismoniy tarbiya tarixi hamda jismoniy tarbiya va sportni boshqarish fanlarining asoslari mujassam ravishda ilk bor keng va atroflicha bayon etilgan. E.Ernazarovning “Olimpiada – jahon sporti bayrami” (2008) nomli ilmiy-ommabop kitobida xalqaro olimpiya harakati va O‘zbekistonda zamonaviy sportning rivojlanish tarixiga doir ma’lumotlar olimpiya muzeyidagi ashyoviy dalillar asosida keng yoritilgan.

Jismoniy tarbiyaning avvali qadimgi Yunoniston, Afinaga taqaladi. Bu davrda jismoniy tarbiyaning pedagogik va ilmiy nazariyasi paydo bo‘lgan. Qadimgi faylasuf olimlar - Platon, Aristotel va boshqalarning asarlarida tarbiya ta’lim tizimidagi jismoniy tarbiyaga yuksak baho berilgan.

Platon (miloddan avvalgi 427-347 y.y.) Afina zodagonlari vakili, faylasuf-idealist, insonning ma’naviy va jismoniy sifatlari haqidagi nazariyaning asoschisidir. U Sparta tizimiga moyillik bildirib, harbiyjismoniy tarbiyani aqliy tarbiya va ta'lim bilan qo'shib olib borishni ko'zda tutdi. Platon o‘zining asarida shunday degan: «Yaxshi gimnastika ham oddiy bo‘ladi, lekin eng avvalo, harbiy gimnastika bo‘lishi lozim».

Aristotel (miloddan avvalgi 384-322 y.y.). Yirik olim va faylasuf, Platonning o‘quvchisi va Aleksandr Makedonskiyning ustozi bo‘lgan. Aristotel shakl va mazmun birligi haqidagi g’oyani ilgari surgan. Shu bilan birga borliqning rivojlanishini isbotlagan. Insonning ruhi va tanasi ajralmas holda bog’liq ekanligini tushuntirib bergan. Jismoniy tarbiyaning aqliy tarbiya bilan hamohangligini ta’kidlagan[9]. Aristotel o‘g’il bolalarni jismoniy jihatdan mustahkam qilib tarbiyalash tarafdori bo‘lgan. U Platondan farqli o‘laroq tarbiyada ko‘proq ta’lim-tarbiyaga o‘rin berishni, gimnastika mashqlari hajmini kamaytirishni tavsiya

etgan. Chunki gimnastikada ko'proq harbiy jismoniy tarbiya va ta'lim ko‘zda tutilgan va u bolalar uchun juda murakkab jarayon, deb hisoblagan.

Demokrit (miloddan avvalgi 460-370 y.y.) jismoniy mashqlar insonning shakllanishida muhim o‘rin tutadi, ya'ni tabiiy holatni rivojlantirishda ustunroqdir, deb ta'lim bergan. Sokrat (miloddan avvalgi 469-399 y.y.) aytishicha, mustahkam sog'liq ko‘pgina illatlardan saqlashga kafolatdir. Qadimgi grek shifokori Gippokrat (miloddan avvalgi 460-375 y.y.) ta'biri va ta'limi bo‘yicha, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish turli xil kasalliklarni oldini olish va davolashda muhim ahamiyatga egadir[8].

Qadimgi Gretsiya va Rimning o'zaro aloqalari tufayli Rimga jismoniy tarbiya vositalari ham kirib kelgan. Miloddan avvalgi II asida ba'zi rimlik faollar yunonlarning jismoniy tarbiya tizimidagi turlar va usullarni o'zlariga tatbiq etishga harakat qildilar.

Qadimgi greklarda jismoniy tarbiya asosan gimnastika va agonistikadan iborat bo‘lgan. Gimnastika umumiy jismoniy tarbiyada qo‘llanilgan. Agonistika tizimida esa maxsus tayyorgarlik va boshqa musobaqalarda qatnashish ko‘zda tutilgan. Gimnastika maxsus tizim sifatida palestrika (kurash), orxestrika (raqs) va o‘yinlarni o‘z ichiga olgan. Palestrika pentatlon (besh kurash: yugurish, uzunlikka sakrash, nayza va lappak uloqtirish, kurash) va pankration (kurash va qo‘l jangi) dan iborat bo'lgan. Shuningdek, suzish, mushtlashish, otda yurish, kamondan o‘q otish va boshqa mashqlar ham kiritilgan[5]. Orxestrika asosan musiqa jo‘rligidagi raqslardan tashkil topgan. O‘yinlar esa tayoqlar, g‘ildiraklar, chavgon, shar, to‘plar bilan gimnastika qilishdan iborat bo‘lgan. Bu turlardan Olimpiya bayramlarida (agonlarda) ko‘proq foydalanilgan. Olimpiya bayramlari va boshqa gimnastika o‘yinlari - agonlar. Qadimgi Gretsiyaning shon-shuhratini ko‘tarishda Olimpiya va gimnastika agonlari alohida o‘ringa ega bo‘lgan.

Alfey daryosi vodiysining Peloponiyes yarim orolida joylashgan Elida shahrining Olimpiya qishlog'ida o‘tkazilgan. Odatga ko‘ra, hozirgi davrda Olimpiya mash'alasi Kronos tog'i etagidagi Olimpiya shahrida yoqiladi va Olimpiya o‘yinlari o‘tkaziladigan shaharlarga etkaziladi. Gomerning «Iliada» asarida tasvirlanishicha, Troya urushida halok bo‘lgan Patrokl xotirasiga bag'ishlanib, uning do‘sti Axill aravalar qo‘shilgan otlar poygasi, mushtlashish, kurash, yugurish, kamondan o‘q otish, nayza va disk uloqtirish bo‘yicha musobaqa o‘tkazgan[7]. Olimpiya qishlog‘i muhim madaniy tadbirlar o‘tkazish markaziga aylangan. Bu erda miloddan avvalgi VII asrning ikkinchi yarmida Gera xudosiga bag'ishlangan ibodatxona Yer onasiga bag'ishlab katta ibodatxona qurilgan. Keyinchalik esa, ya'ni 200 yilda, greklarning Olimpiya qishlog'idan eronlar ustidan g'alaba qilishiga bag'ishlab Zevs xudosi sharafiga katta namoyish

markazi qurilgan. Bu joyda Elida davlati oliy kengashi binosi joylashgan. Olimpiya shaharchasida juda ko‘p ibodatxonalar, ularda son-sanoqsiz haykallar mavjud bo‘lib, ular turli xudolar, afsonaviy qahramonlar, Olimpiya o‘yinlari g’oliblari, podsholar, sarkardalarga bag’ishlangan. Bu joyda boshqa turli xil madaniy, qurilish maskanlari qatorida sport inshootlari majmuasi ham joylashtirilgan. Bunda stadion, ippodrom, palestra binolari mavjud bo‘lgan. Dastlab, Olimpiya o‘yinlarining ilk bor tashkil etilishi greklarining bosh xudosi Zevsning o‘z otasi Kronos ustidan qozongan g’alabasi sharafiga bag’ishlab katta an’anaviy bayramlar o‘tkazishi bilan bog’liq bo‘lib, ular Olimpiya o‘yinlari deb atalgan[6].

Boshqa rivoyatlarga ko‘ra esa tashkil etilgan o‘yinlar afsonaviy qahramon Geraklga bag’ishlangan. Elida podshosi Avdiy ustidan qozongan g’alabasi sharafiga Gerakl o‘yinlari tashkil etilgan. Gerakl o‘yinlarni o‘tkazish uchun masofalarni o‘z oyoq izlari bilan o‘lchab bergan. Geraklning 600 ta oyoq izi bir stadiy, ya’ni 192 m 27 smni tashkil etgan[10]. Bu yugurish masofasi stadiodrom deb nomlangan. Eng avvalgi musobaqalarda g’oliblar ana shu tur bilan belgilangan. Gerakl pankration musobaqasida qatnashib g’olib bo‘lgan. Keyinchalik o‘yinlardagi g’oliblarga «Ikkinchi Gerakl» unvonini berish odatga aylantirilgan. O‘yinlar urish qahramonlari, jasur va botir sarkardalar sha’niga bag’ishlab o‘tkazilgan.

Shunday qilib, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi tarixiy jarayonlarni chuqur o‘rganish orqali, kelajakda bu sohada amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan yangiliklar va takliflar uchun asos yaratadi. Maqola jismoniy tarbiya va sportning inson hayotidagi ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 5-sentabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport to`g`risida”gi 394-sonli Qonuni;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-3031-sonli Qarori;Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-fevraldagi 118-son 2019-2023 yillarda O‘zbekiston

3.Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish Kontseptsiyasi; O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni;

4. Akramov A.K., O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi. O'quv qo‘llanma. T.: O'zDJTI nashr, 1997.;

5. Botirov X.A. Jismoniy tarbiya va sport tarixi. T. “O‘qituvchi” 1993 y.;

6. Djalilova L.A. Jismoniy tarbiya v sport tarixi. O‘quv uslubiy qo‘llanma. T: 2013.;

7. Ernazarov E. Olimpiada – jahon sporti bayrami. T.: “Sharq”, 2008.;

8. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. T.: 2008.

9. Энциклопедия Олимпийского спорта. Под редакцией В.Н.Платонова. Киев: Олимпийская литертура, 2004.

БОЛАЛАР СПОРТИДА МАШҒУЛОТЛАРГА ЎРГАТИШНИНГДАСТЛАБКИ БОСҚИЧ ВА УСЛУБЛАРИ

Атаханов Ҳ.К.
ЧДПУ ўқитувчиси

Таянч сўзлар: техник ҳаракатлар, спорт, кураш, тизимлаштириш, усуллар, таснифлаш.
Ключевые слова: технические усилия, спорт, борьба, организация, методы, классификация.
Key words: technical efforts, sport, struggle, organization, methods, classification.

РЕЗЮМЕ:
Мазкур маколада болаларни спорт машғулотларига саралаб олиш ҳамда улар билан ташкил этиладиган машғулотларда қўланиладиган усул, воситалари ёритиб берилган.
РЕЗЮМЕ:
В статье описаны методы и средства, используемые при отборе детей для спортивной подготовки и организуемых с ними тренировок.
SUMMARY:
This article describes the methods and tools used in selecting children for sports activities and organizing activities with them.

Кириш. Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришиши шарофати билан болалар ўртасидаги жисмоний маданият ва спортга эътибор юқори даражада кучайди.бунга мисол Ўзбекистон Республикаси президенти томонидан Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Болалар спортини ривожлантириш жамғармасини тузиш тўғрисида» 2002 йил 24 октябрдаги ПФ-3154-сон Фармонини бажариш юзасидан ҳамда Жамғармага юкланган асосий вазифаларни амалга ошириш учун белгиланган вазифаларвазаруршарт-шароитлар яратиш инобатгаолинган. Натижада ўзбек олимлари томонидан болалар спортини ташкиллаштириш, оммавий спортни янада юкори чўққиларга кўтариб, спортни ҳозирги давр андозаларига мос ҳар томонлама асослаб, жисмоний маданият услубиятига Ўзбекистонга хос янгиликни киритмокдалар. Бола тарбияси педагогик жамоа аъзолари фаолиятининг асосий йуналишларидан бири булиб, бу спорт турларидан тугаракларни, умумий жисмоний тайёргар-

лик, согломлаштириш гуруҳларини ташкил килиш билан боглик булган вазифаларни ҳал қилиш орқали амалга оширадилар. Бу машғулотларнинг максади шундан иборатки, унда болаларни аниқ режа асосида спорт мусобақаларига қатнашишлари учун тайёрлаш билан боғлиқ бўлган ишларни амалга ошириш назарда тутилади. Болалар спортида машғулотларга ўргатишнинг бутун жараёнини шартли равишда "Таълим" ва "Машғулот" қисмларига бўлиш мумкин. "Таълим" бу шуғулланувчилар билим, кўникма ва эгаллаб олиш жараёни тушинилади. Таълимнинг асосий мазмуни - ўйин ва машғулотларнинг техник элементларини, тактикадаги оддий индивидуал ва гуруҳ қизиқишларини, ҳаракатларини шакллантириб боришдан иборат. "Машғулот" бу олинган билим, кўникма ва малакаларни мустаҳкамлаш ҳамда такомиллаштиришга қаратилган тайёргарликнинг кейинги босқичи ҳисобланади.

Асосий қисм. Машгулотнинг асосий мазмуни-техник усулларни, тактикадаги индивидуал, гуруҳ ва жамоа ҳаракатларини такомиллаш-тиришдан, таълимий, жисмоний, ахлоқий ва иродавий фазилатларни ривожлантиришдан иборат. Таълим" ва "Машғулот" тушунчаларига махсус ташкил килинган кўп йиллик ягона педагогик жараён деб хам караш зарур. Уларни бир-биридан кескин суратда ажратиб бўлмайди, чунки биз таълим бера туриб, спорт машғулотларига ўргатамиз ва айни чогда спорт машғулотларига ўргата туриб таълим ҳам берамиз. "Таълим" ва "Машғулот" тушунчалари бир-бири билан чамбарчас боглик жараёнлардир.

"Таълим" ва "Машғулотни тушунчаси фатида ажратиш эса ўқув-машғулот ишининг ўзига хос визифалари, мақсадлари борлигини яққолроқ аниқлаш имконини яратади. Спорт машғулотларига тайёрлаш жараёнининг турли босқичларида таълим ва машғулотнинг салмоги табиий равишда ўзгариб ҳам туради. Биз юкорида "Таълим" ва "Машғулот" тушунчаларига бежиз тўхталиб ўтмадик. Чунки, биз ҳар қандай машғулот ўтказишимиздан қатьий назар, таълимий, тарбиявий, ахлоқий мезонларга таянамиз, улар воситасида болаларни спорт машгулотларга ўргатиш жараёнларининг босқич ва услубларини ишлаб чиқамиз.

Биринчи боскичда ўрганиладиган машғулот (ҳаракат) техникаси батафсил таништириш. Бу билан танишиш, шуғулланувчиларни босқичда, айтиб бериш, кўрсатиш ва тушунтириш услублари қўлланилади.Ўқитувчи шахсан кўрсатиш билан бирга кўргазмали қуроллардан фойдаланади: кинофильм, тасвирий фильм, схема, спорт майдонлари макети ва ҳоказо. Намойишни тушунтиришлар билан қўшиб олиб бориш мақсадга му-

вофикдир. Ўқитувчиларнинг дастлабки уринишлари шуғулланувчиларда бирламчи машғулот (ҳаракат) сезгисини шакллантиради.

Иккинчи боскичда ўргатилаётган машғулот техникаси соддалаш-тирилган (оддийлаштирилган) ҳолатда ўргатилади. Мазкур ўрганиш босқичида муваффақият кўп ҳолатларда ёндоштирувчи машқларнинг тўғри танланганлигига боғлиқ бўлади. Улар ўзининг тузилиши, шаклига кўра ўрганилаётган машғулот техникасига яқин ва ўкувчилар бажара оладиган бўлиши керак. Мураккаб тузилишга эга бўлган ҳаракатларда (ҳужум зарбаси), уни ташкил килувчи ижро этувчи асосий қисмларга (звеноларга) ажратиб берилади. Бу босқичда бошқариш услубларидан фойдаланилади, яъни буюриш, кўрсатма бериш, кўриш ва эшитиш, кўриб илғаш, техник воситалар ва ҳоказо.

Шунингдек кўргазмали ҳаракат ўқитувчи-мураббийларнинг бевосита ёрдами, ёрдамчи жиҳозларни қўллаш, тўпга бўлган зарба кучи, тушиш аниқлиги, ахборот, овозни белгилаш каби услублар алохида аҳамиятга эга бўлади. Учинчи босқичда техникани мураккаблаштирилган шароитда ўргатиш жараёни кузатилади ҳамда қўлланилади: такрорий усул, машғулот ҳаракатларини мураккаб шароитларда бажартириш, ўйин ва баҳолаш услуби, қўшимча услуб, давра, айлана машқлари. Такрорлаш услуби бу босқичда энг асосийдир. Кўп маротаба такрорлашгина машғулотга бўлган малакани шакллантиради. Малака ҳосил қилиш учун такрорлаш шароитларда машқ бажаришни ҳаракат шароитини ўзгартиришни, аста-секин мураккаблашишни тақазо этади,хатто чарчаганда ҳам машқлар бажартирилади, қўшма ва ўйин услублари бир вақтнинг ўзида техникани сайқаллаштиришга ҳамда махсус жисмоний сифатларни ўстириш масалаларини ҳал қилишга, техник-тактик тайёргарлик ва ўйин маҳоратини такомиллаштиришга қаратилган бўлади. Тўртинчи боскичда ҳаракатни ўйин жараёнида мустаҳкамлаш кўзда тутилади.

Бунда бажарилган ҳаракатларни талқин қилиш услуби кулланилади (расмлар, жадваллар, ўқув фильмлари, тасвирий фильмлар). жараёнида техник-тактик, махсус тайёргарлик топшириқлари, "уйин" ва "беллашиш" услублари. Тайёргарлик ва ўқув ўйинларида ҳарбир услубни (малакани) ўрганиш, уни такомиллаштириш ва мукаммаллаштириш кўзда утилади. Малакани мустаҳкамлашнинг энг юқори воситаси бу мусобақалашишдир.

Машғулотларга ўргатишда фаол услублар катта аҳамиятга, имкониятларга эгадир. Уларнинг орасида муаммоли ўқитиш (муаммоли вазифаларни қўйиш, юзага келтириш) ва ўзининг ўзлаштиришини баҳолаш услуби алоҳида ахамиятга эга. Муаммоли вазиятларни қўйиш, унинг ечимини

қидирувчи ҳолатни, вазиятни вужудга келтиради, ўзини баҳолаш эса ҳаракатланиш фаолиятини яна ҳам фаоллаштиришга олиб келади. Бу ўқувчи кишини яна ҳам орттиради ҳамда ижодий фикрлаш орқали машғулотларни моҳирона бажаришга ўргатади Юкорида айтилганларни қўл тўпи, баскетбол, футбол спорт тури машғулотларида қўллаш муҳим аҳамиятга эга булиб, пировардида асосий мохияти шундаки, натижаларни куриб туриш, тушуниш, Мақсадга яқинлашаётганлигини аник сезиб туриш имконини яратади.

Биз юқорида болалар спортида машғулотларга ўргатишнинг дастлабки босқич ва ҳар бир босқич камраб олган услублари хусусида тўхталиб ўтдик. Ўйлаймизки, кўриб,ўрганиб чиққан босқичва услубларимиз таълим истеъмолида ўзининг амалий аҳамияти ва натижасини кўрсатади. Болаларнинг соғлигини мустаҳкамлаш ва ҳар томонлама жисмоний ривожоланишини таъминлаган ҳолда ҳар томонлама ривожланган юқори малакали ўсмир спортчиларни тайёрлашни амалга оширшда шуғулланувчилар орасидан ўқув гуруҳ ажратилади .

-Бошланғич таёйргарлик гуруҳлари(3-йиллик)

-Ўқув тренировка гуруҳлари (4-йиллик)

-Спорт такомиллашув гуруҳлари(3-йиллик)

-Олий спорт маҳорати гуруҳлари(3-йиллик ва ундан ортиқ)

Шуғулланувчилар қайси ташкилотта қарашли бўлса шу ташкилот томонидан тасдиқланган спорт тадбирларининг календар режасига мувофиқ спорт машғулотлари ҳамда мусобақаларида иштирок етиш бутун йил давомида машғулотларга қатнашиш ёзги ва қишги таътил даврларида ёш шуғулланувчилар фаол дам олишлари ва спорт соғломлаштириш оромгоҳларида дам олишлари мақсадга мувофиқ бўлади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Саидов Г. Миллий кураш - миллий қадриятлар булаги. Тошкент. 2022.
2. Умаров Т. Кураш турлари ва уни уқитиш методикаси. Самарқанд. 2021
3. Тастанов Т. Кураш турлари назарияси ва услубияти. Тошкент. 2015.
4. Умиров Ш. Курашчилар жисмоний фазилатларини ривожлантириш. Научный прогресс. 2021.
5. Таймуратов А. Спорт педагогик маҳоратини ошириш. Тошкент. 2017.
6.А.Атоев Кураш дарслиги 1987 й.

FUTBOL SPORTINI SHAKLLANISH BOSQICHLARI HAMDA MAQSAD VA VAZIFALARI

Shadiyev A.Y.
CHDPU dotsenti

Tayanch so‘zlar: rivojlanish tendensiyasi, sog’lom turmush, xorijiy davlatlar, professional futbolchi, futbol akademiyalarida, shuningdek, futbolchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida futbol bo‘yicha agentlar (vositachilar) professional faoliyatini yo‘lga qo‘yish.
Ключевые слов: тенденция развития, здорового образа жизни в зарубежных странах, профессиональный футболист, налаживание профессиональной деятельности футбольных агентов (посредников) в футбольных академиях, а также в целях защиты прав и интересов футболистов.
Key words: the trend of development, healthy lifestyle in foreign countries, professional footballer, the establishment of professional activities of football agents (intermediaries) in football academies, as well as in order to protect the rights and interests of football players.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada, mamlakatimizda futbolning ommaviyligini yanada oshirish, istiqbolli va iqtidorli futbolchilarni tanlash hamda professional darajada tayyorlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish, trener va hakamlarni xalqaro talablar asosida tayyorlash va mahoratini yuksaltirish, futbol infratuzilmasini yaxshilash hamda o'rnatilgan standartlarga moslashtirish haqida ma’lumot berilgan.
РЕЗЮМЕ:
В этой статье представлена информация о дальнейшем повышении популярности футбола в нашей стране, подборе перспективных и талантливых игроков и создании новой системы профессиональной подготовки, подготовке и повышении квалификации тренеров и судей на основе международных требований, улучшении футбольной инфраструктуры и приведении ее в соответствие с установленными стандартами.
SUMMARY:
This article provides information on further increasing the popularity of football in our country, the selection of promising and talented players and the creation of a new system of professional training, training and advanced training of coaches and referees based on international requirements, improving the football infrastructure and bringing it in line with established standards.

Zamonaviy futbolning bugungi rivojlanish tendensiyasi unga faqatgina ommalashgan sport turi sifatida emas, balki mamlakat aholisi, ayniqsa, yoshlarni sog’lom turmush tarziga o‘rgatuvchi, ruhiy-ma’naviy jihatdan ona Vatanga

sadoqat tuyg'ularini shakllantiruvchi noyob vosita, keng ko'lamli islohotlar davrida mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish ko'rsatkichini belgilovchi muhim omil sifatida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Futboli rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinganda, aksariyat hollarda, yoshlarni professional futbolchi sifatida tayyorlash orqali futbol klublarining biznes tuzilma sifatida shakllanganligini ko'rishimiz mumkin.

Misol uchun, futbol rivojlanish istiqbollari jihatidan O'zbekistonga yaqin bo'lgan Xorvatiya so'nggi o'n yillikda futbol sohasida shiddatli o'zgarishlarni amalga oshirib, Angliya, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Germaniya kabi futboli yo'lga qo'yilgan mamlakatlar bilan raqobatlashish darajasiga chiqdi.

Xorvatiya futbol akademiyalarida tarbiyalangan mahoratli sportchilar aynan yuqorida nomlari keltirilgan futboli rivojlangan mamlakatlarning futbol klublari safini to'ldirdi. Bu esa Xorvatiya tomonidan futbol akademiyalarini tubdan rivojlantirish orqali mahoratli futbolchilarni tarbiyalab, mamlakat daromadlarini oshirishga hamda futbolchilar va ularning oila a'zolari manfaatdorligi oshishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida salohiyati yuqori, muayyan tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lgan futbolchilarni tayyorlash, ularni innovatsion yondashuvlar asosida ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash, futbolni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida quyidagi muhim yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

birinchidan, mamlakatimizda beshta muhim tashabbus hamda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar orqali yoshlarimizni jismoniy chiniqtirish va sportga faol jalb qilish, jumladan O'zbekistonda futbolni umummilliy sport turiga aylantirish;

ikkinchidan, yuqori iqtidorga ega bo'lgan yosh futbolchilarni tanlash va saralab olish (selektsiya) tizimini tubdan takomillashtirish;

uchinchidan, iqtidorli futbolchilarni saralab olish, ularni bosqichma-bosqich professional tayyorgarlikdan o'tkazib borish orqali futboli rivojlangan davlatlarning yetakchi klublariga "futbolchilar eksporti"ni amalga oshirish tizimini yo'lga qo'yish;

to'rtinchidan, ayollar futboli, futzal (mini-futbol) va sohil futbolini ommaviylashtirish va rivojlantirish;

beshinchidan, futbol sohasiga xususiy investitsiyalarni keng jalb etish va ularni rag'batlantirish;

oltinchidan, futbol bo'yicha hakamlik faoliyatida erishgan muvaffaqiyatli tajribani ommalashtirish, uni yangi pog'onaga ko'tarish orqali futbol sohasida O'zbekiston trenerlik va hakamlik maktabini takomillashtirish;

yettinchidan, salohiyati yuqori futbolchilarni professional darajada tayyorlash, ularni xorijiy davlatlarning nufuzli futbol klublarida professional faoliyat olib borishini ta’minlash, shuningdek, futbolchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida futbol bo‘yicha agentlar (vositachilar) professional faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

sakkizinchidan, respublikaning har bir hududida faoliyat olib borayotgan futbol klublarini Osiyo Futbol Konfederatsiyasi talablari asosida faoliyat yuritishini ta’minlash, moliyalashtirish bo‘yicha samaradorlikka erishish maqsadida futbol sohasida monetizatsiya tamoyillarini yo‘lga qo‘yish;

to‘qqizinchidan, professional futbol klublarining aksariyati davlat ulushi mavjud bo‘lgan yirik korxona va tashkilotlar tomonidan moliyalashtirilishini qisqartirib borish va klublarda boqimondalik kayfiyatiga barham berish maqsadida futbol sohasini bozor mexanizmlari asosida boshqarish, futbol klublarini xususiy sektorga bosqichma- bosqich o‘tkazish;

o‘ninchidan, futbol musobaqalari tomoshabopligini oshirish hamda futbolni rivojlantirishning yangi tizimini samarali yo’lga qo’yish orqali O’zbek futboli maktabini yaratish;

o‘n birinchidan, professional futbol klublarining zaxirasini tayyorlash va ularning samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi futbol mahorat maktablarini tegishlicha hududiy professional futbol klublariga biriktirish.

Ushbu Konsepsiyaning maqsadi O’zbekistonda futbolni 2030-yilgacha yanada ommalashtirish hamda mazkur sport turini tizimli rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish va amalga oshirish hisoblanadi:

birinchisi, ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish;

ikkinchisi, istiqbolli va iqtidorli futbolchilarni tanlash va saralab olish (selektsiya), ularni professional darajada tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish;

uchinchisi, futbol infratuzilmasini moddiy-texnik jihatdan yanada yaxshilash hamda xalqaro talablarga moslashtirish;

to‘rtinchisi, davlat ta’lim muassasalari, shu jumladan sport ta’lim muassasalarini futbol uchun zarur bo‘lgan anjomlar va jihozlar bilan ta’minlash, sport anjomlari va jihozlari ishlab chiqarishni mahalliylashtirish;

beshinchisi, futbol sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga ilg’or ilmiy-metodik va innovatsion texnologiyalarni joriy etish;

oltinchisi, futbol sohasidagi me’yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

yettinchisi, futbolni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish va tijoratlashuv mexanizmlarini joriy etish;

sakkizinchisi, futbol bo‘yicha terma jamoalar va ularning zaxirasini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar va qat’iy reglament talablarini joriy etish.

Modulli o‘qitish– o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u odam bosh miyasining o‘zlashtirish tizimga eng yaxshi moslashgandir. Modulli o‘qitish asosan inson bosh miyasi to‘qimalarining modulli tashkil etilganligiga tayanadi.

O‘qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta 1972 yil, YUNESKOning Tokiodagi Butunjahon Konferensiyasida so‘z yuritilgan edi. Modulli o‘qitish texnologiyasi funksional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi, pedagogika va psixologiyalarning umumiy nazariyasidan kelib chiqadi.

Ta’lim tizimida ilg’or innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy qilish asosida talaba yetarli bilimlarga ham, ko‘nikmaga ham, o‘quvga ham ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining -Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risidagi

2. O’zbekiston Respublikasida futbolni rivojlantirishni davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to’g’risida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori.03.12.2009 y. № 304.

3. Nurimov R.I. “Futbol”. Darslik. – T. 2005 yil.

4 Nurimov R.I., Iseev P. Futbolchilarni tayyorlashda pedagogik nazorat (Pedagogik tavsiyalar).- T. 1990 yil.

5. Sergeev G.M., Nurimov R.I. – Futbol bo’yicha bolalar va o’smirlar sport maktabi olimpiya o’rinbosarlari, bolalar va o’smirlar maxsus maktabi, olimpiya o’rinbosarlari bilim yurti o’quv-mashq qilish va sport kamolotiga erishish guruhlari uchun dastur.- T. 1997 yil

6. Кошбахтиев И.А. Управление подготовкой футболистов.-Т. 2001

7. Кошбахтиев И.А. Управление подготовкой футболистов высокой квалификатсии. -Т.: 1998 год.

8. С.В.Голомазов, Б.Г.Чирва. Футбол. “Унверсалная техника атаки”. –М. Спорт Академ Пресс. 2001.

9. R.I.Nurimov, Abidov Sh.U, Nurimov Z.R, S.R.Davletmuradov. ―Sport va milliy o’yinlar (Futbol). Darslik.ITA-PRESS. Toshkent. 2015 yil

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA VOLEYBOLCHILARNI TAYYORLASH JARAYONINING INDIVIDUAL VA PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Nigmanov M.M.
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Jismoniy madaniyat va sport faoliyati"
kafedrasi katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: jismoniy tarbiya, musobaqa, gimnastika, sport, seksiya, shakl, voleybol, anjom.
Ключевые слова: физическая культура, соревнования, гимнастика, вид спорта, секция, форма, волейбол, инвентарь.
Key words: physical education, competition, gymnastics, sport, section, form, volleyball, equipment.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada umumta'lim maktablarida voleybolchilarni tayyorlash jarayonining individual va pedagogik xususiyatlari haqida qisqacha ma'lumot bayon etilgan
РЕЗЮМЕ:
В статье кратко изложены индивидуально-педагогические особенности процесса подготовки волейболистов в общеобразовательных школах.
SUMMARY:
The article briefly describes the individual and pedagogical features of the process of training volleyball players in secondary schools.

Jismoniy tarbiya va ta'lim kursi umumiy o'rta ta'limda quyidagilardan tarkib topadi: Jismoniy tarbiya darslari.

Harakat faoliyatining darsdan tashqari shakllari: darsdan oldin o'tkaziladigan gimnastika, jismoniy daqiqalar, uzaytirilgan tanaffuslardagi dinamik pauzalar, o'yinlar.

Jismoniy mashq mashg'ulotlarining sinfdan tashqari shakllari: sport seksiyalari, fakultativlar, sport turlari bo'yicha musobaqalar va boshqalar.

Jismoniy tarbiya o'quv dasturiga sport o'yinlari materiallari kiritilgan (voleybol, basketbol, qo'l to'pi va alohida futbol).

Voleybol bo'yicha dastur materiallarini o'rgatish uchun zarur bo'lgan mashqlar, texnik va taktik usullar hamda o'yinning nazariy va amaliy qoidalari kiritiladi. Mashg'ulotlarning samaradorligi o'qituvchining darsni to'g'ri rejalashtirishi va tashkil etishiga, ko'proq foydali harakatlarni o'rgatishning koeffisiyentiga bog'liq bo'ladi. Jihoz va asbob - anjomlardan foydalanish muhim ro'l o'ynaydi. (E.K. Axmerov, 1985).

Voleybol bo'yicha mashg'ulotni muvaffaqiyatli o'rgatish uchun bir necha to'p va maydoncha bo'lishi etarli emas. Albatta, to'ldirma to'p, osib qo'yilgan to'plar, amortizatorli to'p va boshqa shu kabi jihozlar bo'lishi zarur. Dasturda voleybol uchun ajratilgan soat (yiliga 20 soat) harakat texnikasi va taktikasini zarur va etarli darajada o'zlashtirib olishga etmaydi. Shuning uchun umumta'lim maktablarida voleybol sporti bo'yicha seksiya mashg'ulotlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Voleybol sport seksiyasini tashkil etish yosh voleybolchilarni tayyorlashdan boshlanadi. O'quv guruhlarida shug'ullanuvchilarning tarkibiy uyg'unligi hamda yosh jihatdan bir hilligi trenirovka mashg'ulotlari shakliga mos tushadi. Umumiy faoliyatda muntazam ravishda ishtirok etish shug'ullanuvchilarni yagona jamoa qilib jipslashtiradi, bu ham jismoniy tarbiyaning o'quv hamda tarbiya vazifalarini samarali hal etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Voleybol seksiya mashg'ulotlarini o'tkazishda ham qabul qilingan qator umumiy talablarni bajarish kerak bo'ladi.

Birinchidan, shug'ullanuvchilarni o'qitish va tarbiyalash butun mashg'ulot davomida amalga oshirib borilishi kerak.

Ikkinchidan, mashg'ulot o'tkazishda har qanday yo'llar bilan bo'lsa ham usuliy shablonlardan qochish kerak.

Mashg'ulot mazmuni va usuliyatini hilma-hil qilish kerakligini vazifalarning doimiy ravishda murakkablashib borishi, shug'ullanuvchilarning organizmi va psixikasida sodir bo'ladigan siljishlar dinamikasi, tashqi sharoitning o'tkazuvchanligi taqozo etadi.

Uchinchidan, shug'ullanuvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni bir tekisda o'quv faoliyatiga jalb etish kerak. Faqat shu yo'l bilan shug'ullanuvchilar uchun uzoq vaqt davomida bir butun o'quv - tarbiya jarayoniga erishish mumkin va shug'ullanuvchilarning mashg'ulotni tashlab ketishlari yoxud qoloqlar paydo bo'lishini oldi olinadi.

To'rtinchidan, har bir mashg'ulotdagi o'quv faoliyatini usuliy tamoyillarga qat'iy rioya qilgan holda olib borish kerak. Mashg'ulotning ta'siri har tomonlama sog'lomlashtiruvchi, bilim va tarbiya beruvchi bo'lishi kerak.

Beshinchidan, mashg'ulot oldiga mazkur darsda hal etish mumkin bo'lgan mutlaqo aniq vazifalar qo'yish kerak. O'quv - tarbiya jarayonining umumiy masalalari (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, egiluvchanlik) hal etilishiga alxoida aniq vazifalar tizimini bajarish orqali erishiladi.

Voleybol - mashg'ulot darslari kabi uch qismga: tayyorgarlik, asosiy va yakuniy qismlarga bo'linadi. So'ngra belgilangan qismlarning oldiga qo'yilgan vazifalarni hisobga olgan holda darsning aniq ustalashgan tuzilmasi ishlab chiqiladi.

Mashg'ulotning tayyorgarlik qismida boshlanadigan asosiy faoliyatga funksional tayyorgarlik markaziy o'rinni egallaydi. Bunga me'yorlash oson, tayyorlanish va bajarishga ko'p vaqt ketmaydigan mashqlar yordamida erishiladi. Yugurish, sakrash, o'yinlar va o'quvchilarga yaxshi tanish bo'lgan harakatlar shular jumlasiga kiradi. Umumiy rivojlantirish mashqlari kompleksini birin-ketinlik tamoyiliga rioya qilgan holda, ko'pgina hollarda quyidagi tartibda bajariladi: kirishish mashqlari; qo'l va elka kamari uchun mashqlar; oyoqlar uchun mashqlar; cho'nqayishlar; gavda uchun mashqlar; sakrashlar; mushaklarni kuchaytirish mashqlari (Yu.D.Jeleznyak, 1989).

Xulosa va takliflar. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, 9–11 yoshli gandbolchilarni dastlabki tayyorgarlik bosqichida jismoniy tayyorgarlik darajasini monitoring qilish samarali metodika bo‘lib, u sportchilarning jismoniy rivojlanishini kuzatish, baholash va individual yondashuv asosida takomillashtirish imkonini beradi. Monitoring tizimi faqatgina baholash vositasi bo‘lib qolmay, balki murabbiy ishining aniqligi, sportchilar rivojining barqarorligi va sport dasturlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Monitoring asosida tuzilgan mashg‘ulotlar natijasida sportchilarning jismoniy ko‘rsatkichlari yaxshilanadi, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi, sportga bo‘lgan qiziqishi mustahkamlanadi. Shu boisdan bu tizimni sport maktablarida, sport maktab-internatlarida va maktab jismoniy tarbiya to‘garaklarida keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-dekabrdagi “Jamoaviy sport turlarini rivojlantirish va iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-421-son qarori. Lex.uz

2. Гончарова О.В. Ёш спортчиларнинг жисмоний қобилиятларини ривожлантириш. Ўқув қўлланма. ITA-Press nashriyoti -T., 2005. 172 б.

3. Игнатьева В.Я. Теория и методика гандбола, Учебник. – М.: Спорт, 2016. – 328 с.

4. Pavlov Sh.K., Abdalimov O.X., Yusupova Z.Ye. Gandbol nazariyasi va uslubiyati. Darslik. –T.: “Fan va texnologiya”, 2017. – 448 b.

5. Павлов Ш.К, Абдурахманов Ф.А. Подготовка гандболистов. – Т.: УзГИФК, 2006. – 299 с.

6. Sharipov A.K. Gandbol nazariyasi va uslubiyati. Darslik. – T:. Lesson Press. 2024 y. – 460 b.

7. Шестаков М.П., Шестаков И.Г. Гандбол. Тактическая подготовка. – М.: Спорт Академ Пресс, 2001.

VOLEYBOL SPORT MASHG‘ULOTLARIDA YONLAMA HARAKATLANISH TEZKORLIGI VA TO‘P UZATISH ANIQLIGINI O‘RGANISH NATIJALARINING TAHLILI

Saporboyev M.Sh.
Urganch Davlat pedagogika instituti katta o’qituvchisi

Tayanch so‘zlar: jismoniy madaniyat, voleybol tizim, murabbiy, sport, jismoniy tarbiya, texnik-taktik, charchoq, tezkorlik, to’p uzatish, harakatlanish.
Ключевые слова: физическая культура, волейбольная система, тренер, спорт, физическая культура, технико-тактические, утомляемость, быстрота, передача мяча, движение.
Key words: physical culture, volleyball system, coach, sport, physical education, technical and tactical, fatigue, agility, passing the ball, movement.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada maktab yoshidagi bolalar uchun voleybol sport mashg’ulotlari va bolalar va o’smirlar sport maktablarida o’tkazilayotgan to’g’araklari, o’rgatish va uni takomillashtirish jarayonining barcha bo’g’inlarining, yonlama harakatlanish tezkorligi va to’p uzatish aniqligini qo’shma usulda shakllantirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratish borasida fikr va mulohazalar yuritiladi.
РЕЗЮМЕ:
В этой статье основное внимание будет уделено вопросу формирования волейбольных клубов для детей старшего школьного возраста и всем этапам процесса обучения и совершенствования, ускорения боковой подвижности и точности передачи мяча совместным способом, которые проводятся в детских и юношеских спортивных школах.
SUMMARY:
In this article, the main attention will be paid to the formation of volleyball clubs for high school children and all stages of the learning and improvement process, acceleration of lateral mobility and accuracy of passing the ball in a joint way, which are held in children's and youth sports schools.

Kirish. Mamlakatimizda futbolni rivojlantirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘zining say harakatlari va qaror va farmoyishlari samara bermoqda.

Bu borada millat genafonini shakllantirish va sog‘lom, barkamol avlodni tarbiyalash vositasi bo‘lmish jismoniy tarbiya va sport sohasini yanada rivojlantirish, uni xalqaro me’yor bosqichlariga olib chiqish, millatimiz hamda

yurtimiz shuhratini yuksak cho‘qqilarga olib chiqishga qodir sportchilar tayyorlovchi mutaxassis kadrlar, o‘qituvchi-murabbiylar yetishtirish masalalariga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ana shu progressiv strategiyani izchillik bilan amalga oshirish maqsadida yurtimiz rahbari tomonidan bir qator konseptual farmon va qarorlar, jumladan, 2017-yil 3-iyunda “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-sonli Qaror, 2018-yil 5-martda “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli Farmoni qabul qilindi. Voleybol – jismoniy tarbiya va shaxs rivojlanishining samarali va ko‘p qirrali vositasidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Voleybol bilan shug‘ullanish organizmning ko‘plab muhim tizimlariga samarali ta’sir ko‘rsatadi va ularni yuqori darajada takomillashtiradi. Shu sabablarga ko‘ra voleybol ko‘plab mamlakatlarning jismoniy tarbiya tizimida salmoqli o‘ringa ega.

Voleybol BO‘SMlar (Bolalar o‘smirlar sport maktabi), umumta’lim maktablari, oliy o‘quv yurtlarining jismoniy madaniyat fani dasturlariga kiritilgan. O’rta maktab yoshidagi voleybol to’garaklari va BO’SMlarda o’tkazilayotgan mashg’ulotlarni kuzatish natijasida shu narsa ma'lum bo’ldiki, o’rgatish va takomillashtirish jarayonining barcha bosqichlarida yonlama harakatlanish tezkorligi va to’p uzatish aniqligini qo’shma usulda shakllantirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmas ekan.

Tahlil va natijalar. Ana shu “jumboqni” o’rganish va uning asl holatini rasman aniqlash maqsadida biz voleybol bilan muntazam shug’ullanuvchi 32 nafar yosh sportchilar va 18 nafar o’qituvchi-murabbiylar o’rtasida ekspress – so’rovnoma o’tkazdik.

So’rovnoma natijalari 1-jadvalda aks ettirilgan. Jadvalda qayd etilgan savollarga berilgan javoblar dastlab o’tkazilgan kuzatuv natijalarini tasdiqlab bermoqda. Jumladan, "Tezkorlik, uning tarkibiy komponentlari va mohiyati haqida aniq tasavvurga egamisiz?" – deb nomlangan birinchi savol o’qituvchi-murabbiylarga berilgan bo’lib, natijada 18 nafar murabbiy respondentdan faqat 8 tasi "ha" deb javob berdi. Ularning 10 nafari bu savolga aniq javob berishga ojiz ekanliklarini bildirdilar.

Albatta, murabbiy-respondentlar beriladigan javoblarni o’z foydasiga mo’ljal qilib yozib berishlari mumkin edi. Lekin, ekspress-so’rovnomani o’tkazishdan avval respondent murabbiylar va respondent bolalar bilan tuman xalq ta’limi bo’limi vakili, 4 ta o’rta maktab direktorlari o’rinbosarlari ishtirokida alohida suhbat o’tkazilgan edi. Suhbatda so’rovnomani o’tkazishdan maqsad sport to’garaklarida mavjud muammolarni bartaraf etish, o’qituvchi-murabbiylar

nazariy bilimlarini ishdan ajralmagan holda oshirish, ularga beminnat maslahatlar berish bo'lganligi sababli savollarga beriladigan javoblar asl holatga loyiq bo'lishi zarur ekanligi eslatib o'tilgan edi. qolaversa, so'rovnomada ishtirok etgan respondentlar og'zaki savol-javoblarda (ekspress-intervyu) ham qatnashishi mumkinligi ogohlantirilgan edi.

Ma'lumki, sport ko'nikmalariga o'rgatish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish va ularni takomillashtirish jarayonida qator pedagogik (didaktik) prinsiplar bilan bir qatorda onglilik va faollik prinsipini qo'llash muhimligi isbot talab qilmaydi. Chunki, sport to'garaklarida shug'ullanayotgan har bir bola o'rgatilayotgan texnik-taktik ko'nikma yoki rivojlantirilayotgan jismoniy sifat haqida zarur va yetarli tasavvurga ega bo'lmog'i lozim . U shundagina ko'nikma yoki sifatni ongli, ularning anotomik, biomexanik, kinematik va fiziologik qonuniyatlarini tushungan holda o'zlashtirishi mumkin. Faqat ongli, yetarli nazariy bilim asosida o'zlashtirilgan harakat sifati yoki ko'nikmalarini ijro etishda bola unga ijodiy yondasha boshlaydi, ana shundagina bola shu texnik usullarni yoki harakat ko'nikmasini yangi avlodini ixtiro qilishi mumkin. Juda bo'lmaganda, shu harakatlarni eng samarali va qulay (kam energiya sarflanadigan) usullarini o'ylab topishiga asos yaratiladi. Lekin afsuski, yuqorida qayd etilganidek, so'rovnomada ishtirok etgan o'qituvchi-murabbiylar ham, shug'ullanuvchi bolalar ham na texnik ko'nikma, na jismoniy sifatlar haqida yetarli nazariy bilimga ega emas ekanlar. Mashg'ulotlarda jismoniy sifatlar haqida nazariy bilimlar berilmasligi bolalarning javoblari bilan ham tasdiqlanadi: 32 nafar respondent- bolalardan faqat 9 tasi "ha", 23 tasi esa "Yo'q" javobini taqdim etdilar.

1-jadval

Respondentlar bilan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari

T/r	Savollar	Javollar			
		Bolalar - 32		Murabbiylar–18	
		Ha	Yo'q	Ha	Yo'q
1	Tezkorlik, uning tarkibiy komponentlari va mohiyati haqida aniq tasavvurga egamisiz? (murabbiyga)	-	-	8	10
2	Mashg'ulotlarda jismoniy sifatlar haqida nazariy bilim beriladimi? (bolalarga)	7	25	-	-
3	Jismoniy sifatlarni rivojlantirishda voleybolning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinadimi? (murabbiyga)	-	-	9	9

4	Tezkorlik sifati va texnik-taktik usullar integral tartibda shakllantiradimi? (murabbiyga)	-	-	4	14
5	Tezkorlik sifati va texnik ko'nikmalarning shakllanish dinamikasi nazorat qilinadimi? (ikkalasiga ham)	8	24	12	6
6	O'quv-mashg'ulot jarayonida o'tkazilgan test sinovlari natijalaridan amalda foydalaniladimi?	13	19	13	5
7	Mashg'ulotlar davomida charchaysizmi?	16	16	11	7
8	Charchashni bartaraf etuvchi va ish qobiliyatini tiklovchi mashqlar qo'llaniladimi? (ikkalasiga ham)	16	18	14	4
9	Mashg'ulotlardan qoniqish hosil qilasizmi? (ikkoviga ham)	12	20	11	7
10	O'zingiz shaxsan ertalabki gimnastika bilan shug'ullanasizmi? (ikkoviga ham)	11	21	6	12

Demak, o'quv-mashg'ulot jarayonining yillik rejasida nazariy tayyorgarlikka ajratiladigan alohida o'quv soatlaridan maqsadli foydalanmasligi ko'rinib turibdi.

Jismoniy tarbiya va sport trenirovkasi nazariyasi va uslubiyati fanlari doirasida faoliyat ko'rsatib kelayotgan ko'plab mutaxasis- olimlarning fikr - mulohazalari va xulosalariga ko'ra, ko'p yillik sport mashg'ulotlarining barcha bosqichlarida jismoniy sifatlarni rivojlantirish strategiyasi doimo tanlangan sport turining xususiyatlariga mos bo'lish muhim va shart ekanligi ta'kidlanadi.

Qayd etilgan mantiqqa xos bo'lgan uchinchi savolga, murabbiy-respondentlarga berilganda, olingan javoblar 50 foiz "ha", 50 foiz "yo'q" ma'nosi bilan ifodalandi. Demak, taxmin qilish mumkinki, bu borada murabbiylarda mukammal shakllangan fikr, yondashuv va yo'nalish sayqal topmagan.

Boz ustiga murabbiylarga berilgan to'rtinchi savol javoblaridan xulosa qilsa bo'ladiki, voleybolda o'ta muhim va ustivor jismoniy sifatlardan biri bo'lgan tezkorlik texnik-taktik usullar asosida shakllantirilmas ekan. har holda bu savolga faqat 4 nafar respondent ijobiy javob yo'lladi xolos.

O'quv-mashg'ulotlar jarayonida o'zlashtirilayotgan texnik-taktik ko'nikmalar yoki shakllanib borayotgan jismoniy sifatlarni me'yoriy test mashqlari yordamida muntazam nazorat qilish va olingan natijalar asosida tayyorgarlik dasturiga muvofiq o'zgartirishlar kiritish yoki mashg'ulot yuklamalarini muvofiqlashtirish sport mashg'ulotining ustuvor shartlaridan biridir.

Ana shu ma'noda ikki toifaga mansub respondentlarga yo'llangan 5 va 6 savollarga muvofiq ravishda quyidagi javoblar olindi: - shug'ullanuvchi bolalar – 5-savol – "ha" 8 ta, "Yo'q" – 24 ta; 6-savol – "ha" 13 ta, "Yo'q" – 19 ta;

murabbiylar – 5-savol – "ha" 12 ta, "Yo'q" – 6 ta; 6-savol – bolalar: "ha" – 13 ta, "Yo'q" – 19 ta; murabbiylar – "ha" – 13 ta, "Yo'q" – 5 ta.

Ushbu ikki savolga berilgan javoblar nisbatidan shunday fikrga kelish mumkinki, agar shug'ullanuvchi respondent bolalarning javoblari murabbiylar tajribasidagi asl holatni aks ettiradi deb ishonch bildirsak, respondent murabbiylarning o'z foydalarini (obro'si, mansabi, "men" ligi) o'ylab bergan javoblarini haqiqatga loyiq deb bo'lmaydi.

"Mashg'ulotlar davomida charchaysizmi?" degan ma'noda ikki respondentlar guruhiga berilgan savol mantiqan ikki bir-biriga qarama-qarshi jismoniy va ruhiy xususiyatlarga egadir. Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan yuklamalarni o'zlashtirishda shug'ullanuvchilar u yoki bu darajada toliqadilar, hatto ayrim hollarda o'ta toliqish yoki zo'riqish alomatlari ham yuzaga kelishi mumkin.

Charchash, toliqish sport trenirovkasiga xos va fiziologik jihatdan o'ta foydali jarayondir. Tayyorgarlik jarayonida mashg'ulotlarni boshqarish yuklamalar hajmi va shiddatini oshira borish "yuklama – charchash – dam – tiklantiruvchi mashqlar – yuklama" shaklidagi strategik tizim asosida amalga oshirilmog'i lozim. Boshqacha qilib aytganda yuklamalar yildan-yilga "to'lqinsimon" prinsipda oshira borilishi darkor. Shug'ullanuvchi ham, mashg'ulotni boshqaruvchi ham "o'z ishidan" charchash emas, balki qoniqish hosil qilish, o'tkazilgan jarayondan manzur bo'lish, motivasion his va emotsional tonusning kuchayishini sezishi lozimdir. Ana shu xissiyot "charchashning" ikkinchi belgisidir.

Respondentlarga taqdim etilgan 7-savol ana shu masalaga qaratilgan edi. Javoblar: bolalar – "ha" – 16, "Yo'q" – 16; murabbiylar – "ha" – 11, "Yo'q" – 7. Ustuvor aniqlik bilan ehtimol qilish mumkinki, shug'ullanuvchi respondent bolalar javoblari jismoniy charchash hissi bilan bog'liq bo'lsa kerak, lekin murabbiylarning javobi asosan ruhiy charchashni anglatadi.

O'quv-mashg'ulot jarayonida yo'l qo'yiladigan va eng keng tarqalgan uslubiy kamchilik-muammo – bu yuklamalar oralig'ida va mashg'ulotlar yakunida charchash yoki o'ta toliqish alomatlarini oldini olishga qaratilgan va ish qobiliyatini tiklashga bag'ishlangan maxsus reaksion mashqlarni deyarli qo'llanmasligi bilan bog'liqdir. Agar bunday tiklovchi mashqlar qo'llansa ham tik turgan, o'tirgan yoki yurgan holda qo'llanishi odat tusiga kirgan. Ma'lumki, uslubiy jihatdan noto'g'ri qo'llanilgan tiklovchi mashqlar foydadan ko'ra, ko'proq zarar keltirishi mumkin. Shu ma'noda berilgan sakkizinchi savolga bolalarning 16 nafari "ha", 18 tasi "Yo'q" deb fikr bildirishdi. Murabbiylar esa – "ha" 14 ta, "Yo'q" – 4 ta.

Alohida ta'kidlash joizki, respondent bolalarning 32 tadan 20 nafari mashg'ulotlardan qoniqmasligi biroz tashvishga soladi. Demak, o'tkazilayotgan mashg'ulotlar hajm, shiddat yoki mazmun jihatlaridan bolalarda qiziqish uyg'otmaydi, motivasiyani kuchaytirishga qodir emas deb faraz qilish mumkin.

Ma’lumki, jismoniy tarbiya va sport jarayonida, umuman insoniyatning turmush tarzida jismoniy mashqlar bilan shug’ullanish, ayniqsa ertalabki badantarbiya mashg’ulotlarini o’ziga odatiy ehtiyoj qilib olish sihat-salomatlik garovidir. Lekin afsuski, amalda, hatto soha mutaxasislari, jismoniy tarbiya o’qituvchilari, professional sport murabbiylari va sportchilar nafaqat ilmiy asoslangan, balki eng elementar mazmunli ertalabki "zaryadka" bilan shug’ullanishmaydi. Bunday holat biz tomonimizdan o’tkazilgan so’rovnoma natijalari bilan tasdiqlandi. Binobarin, ushbu so’rovnoma va olingan natijalar sport to’garaklarida olib berilayotgan mashg’ulotlar maqsadi, mazmuni va strategik yo’nalishlarini qayta ko’rib chiqishga asos bo’ladi. So’rovnoma jarayoni tugaganidan so’ng olingan natijalar ochiqchasiga barcha respondentlar, boshqa pedagoglar va mas’ul xodimlar bilan muhokama etildi. Aynan so’rovnoma natijalari va ularning tahlili shu ilmiy-uslubiy yo’nalishda tadqiqot hamda pedagogik tajriba o’tkazish imkoniyatlarini kuchaytirdi.

Xulosa va takliflar. Bo’lajak tadqiqotlarning dasturi, ularni o’tkazish tartibi, tadqiqot ob’ektlari va muddati, olingan natijalar asosida ishlab chiqiladigan amaliy tavsiyalarning maktab voleybol to’garagiga joriy etilish tartibi maktab rahbariyati bilan kelishib olindi.

Kuzatuv va ekspress-so’rovnoma natijalaridan ma’lum bo’ldiki, yosh voleybolchilar tayyorlash amaliyotida, jumladan o’rta maktab voleybol to’garaklarida shug’ullanuvchi bolalarga jismoniy va texnik tayyorgarlikning uzviy bog’liqligi, maxsus jismoniy sifatlar va texnik ko’nikmalarni bir vaqtni o’zida integral xususiyatga xos vaziyatli hamda ixtisoslashtirilgan mashqlar asosida shakllantirish zarurligi haqida nazariy bilimlar berilmas ekan.

Maydon bo’ylab harakatlanish tezkorligi va to’p uzatish aniqligi muntazam nazorat qilinmasligi hamda olingan natijalardan unumli foydalanish choralari ko’rilmasligi aniqlandi.

FOYDANANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish to’g’risida”gi 2017 yil 3 iyundagi PQ-3031-son Qarori.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martda “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli Farmoni.

3. Boltayev Z.B. “Voleybol nazariyasi va uslubiyati” Oliy o’quv yurtlari uchun darslik. Samarqand-2019 5 b.

4. Pulatov Sh.A., M.A.Kadirova “Voleybol mashg’ulotlarida harakatlanish tezkorligi va to’p uzatish aniqligini shakllantirish uslubiyati” nomli uslubiy qo’llanma Toshkent-2013 17 b.

YOSHLARNI JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA STOL TENNISINING MUHIM AHAMIYATI

Avazbadalov Sh.M.
Andijon davlat universiteti sport va san`at fakulteti fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport kafedrasi katta o`qituvchisi

Tayanch so‘zlar: stol tennisi, jismoniy faollik, yoshlar salomatligi, sport tarbiyasi, sog‘lom turmush tarzi, ijtimoiy moslashuv.
Ключевые слова: настольный теннис, физическая активность, здоровье молодежи, спортивное воспитание, здоровый образ жизни, социальная адаптация.
Key words: table tennis, physical activity, youth health, sports education, healthy lifestyle, social adaptation.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada yoshlar orasida jismoniy faollik darajasini oshirishda stol tennisining ahamiyati ilmiy-nazariy va amaliy asosda tahlil qilingan. Maqolada sportning ushbu turi orqali sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ijtimoiy faollikni rivojlantirish hamda aqliy va jismoniy salomatlikni mustahkamlash imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqotda so‘rovnoma, kuzatuv va tajriba metodlari asosida natijalar keltirilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье анализируется значение настольного тенниса в повышении уровня физической активности молодежи на научной, теоретической и практической основе. В статье раскрываются возможности формирования здорового образа жизни, развития социальной активности, укрепления психического и физического здоровья посредством данного вида спорта. В исследовании представлены результаты, основанные на анкетных, наблюдательных и экспериментальных методах.
SUMMARY:
This article analyzes the importance of table tennis in increasing the level of physical activity among young people on a scientific, theoretical and practical basis. The article reveals the possibilities of forming a healthy lifestyle, developing social activity, and strengthening mental and physical health through this type of sport. The study presents results based on questionnaire, observational and experimental methods.

Kirish. Yoshlarlarda jismoniy tarbiya jarayonining maqsadi asta-sekinlik bilan ularni jismoniy kamolotga erishishi va shu asnoda hayotga, ijodiy mehnatga va vatan mudofaasiga tayyorlashni nazarda tutadi. Talabalar jismoniy tarbiyasi

jarayonida umumiy va xususiy vazifalar hal qilinadi. Umumiy vazifalar – bilim berish, jismoniy tarbiyalash va soglomlashtirishdan iborat bo‘lib, xususiylari esa jismoniy tarbiyadan Davlat ta'lim standarti dasturidagi maxsus vazifalar tarzida hal qilinadi. Xususiy vazifalarga quyidagilar kiradi:

1) o‘quvchilar organizmining sogligini mustahkamlash, rivojlantirish va chiniqtirish;

2) turli xildagi mehnat faoliyatiga tayyor bo‘lish uchun shu yoshga xos bo‘lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirish;

3) hayot uchun kerakli harakat malakalari va ko‘nikmalarini rivojlantirish va keyinchalik kerak bo‘ladiganlari bilan qurollantirish;

4) o‘quvchilarga umumiy o‘rta ta’lim me’yorida jismoniy madaniyatga oid yangi nazariy bilimlarni berish va ularni yildan yilga takomillashtirish;

5) o‘quvchilarni jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanishga qiziqtirish va ularda qat’iy odatni shakllantirish;

6) o‘quvchilarni jismoniy madaniyat faollari qilib tarbiyalash va bu bilan ularda tashkilotchilik qobiliyatini tarbiyalash;

7) jismoniy tarbiyani ma’naviy tarbiyaning elementlari: ahloqiy, ruhiy, estetik va mehnat tarbiyasi bilan bog‘lash, qadriyatlarimizga oid vazifalar bilan birgalikda o‘quvchilar yoshining ulg‘ayishi, jismoniy tayyorgarligining ortishini e’tiborga olib, o‘qitishning ayrim bosqichlariga aniqliklar kiritish va boshqa qator vazifalar.I

Bu vazifalar ma'naviy tarbiyaning elementlari xisoblangan axloqiy ruhiy estetik va mehnat tarbiyalarining vazifalari bilan birgalikda o‘quvchilarni yoshini ulg‘ayishi, jisman tayyorgarligiga qarab o‘qitishning ayrim etaplarida aniqliklar kiritiladi.

Yosh avlodni sog‘lom va har tomonlama barkamol etib tarbiyalash har bir jamiyatning ustuvor vazifasidir. So‘nggi yillarda yoshlar orasida jismoniy faollikning kamayib borayotgani sog‘liq muammolariga, ruhiy beqarorlik va ijtimoiy muammolarga sabab bo‘layotgani kuzatilmoqda. Bu borada jismoniy tarbiya va sportning roli beqiyos. Ayniqsa, har qanday sharoitda tashkil etilishi mumkin bo‘lgan stol tennisi sporti yoshlarni jismoniy faollikka jalb qilishda o‘ziga xos afzalliklarga ega.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy adabiyotlar tahliliga ko‘ra, jismoniy faollik darajasining oshishi yoshlar salomatligi, stressga chidamliligi va o‘z-o‘zini anglashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi (Ismoilov, 2018). Stol tennisi esa koordinatsiya, tezkorlik, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda samarali sport turi sifatida tan olinmoqda (Kurbanov, 2020). Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti

(WHO, 2021) hisobotida esa stol tennisi tavsiya etilgan sog‘lom faoliyat turlaridan biri sifatida qayd etilgan.

Metodlar. Tadqiqot davomida quyidagi usullardan foydalanildi:

- So‘rovnoma: 100 nafar 15–20 yosh oralig‘idagi respondentlar ishtirokida ularning sportga qiziqishi va jismoniy faollik darajasi o‘rganildi.
- Kuzatuv: 2 oy davomida sport to‘garaklarida stol tennisi bilan shug‘ullanayotgan yoshlarning holati kuzatildi.
- Tajriba: Ikki guruhga bo‘lingan yoshlar ustida (1-guruh: stol tennisi bilan shug‘ullanuvchilar, 2-guruh: shug‘ullanmaydiganlar) psixofiziologik ko‘rsatkichlar tahlil qilindi.

Natijalar.Zamonaviy jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va jismoniy faollikni oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yosh avlod orasida sog‘lom hayot tamoyillarini keng targ‘ib qilish, ularning jismoniy faolligini ta’minlash orqali kelajakda sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, sportning ommaviy va qulay turlari, xususan stol tennisi, yoshlar jismoniy faolligini oshirishda muhim o‘rin egallaydi.

Stol tennisi – ommabop va foydali sport turi

Stol tennisi (ping-pong) — har qanday yoshdagilar, ayniqsa o‘smirlar va talabalar uchun mos sport turi hisoblanadi. Bu o‘yin minimal jihozlar bilan, yopiq va ochiq joylarda o‘tkazilishi mumkin. U yengil va qiziqarli bo‘lib, raqobat ruhini rivojlantiradi, sog‘liq uchun esa juda ko‘p ijobiy ta’sirlarga ega.

Jismoniy sog‘lomlikka ta’siri

Stol tennisi yurak-qon tomir tizimi faoliyatini yaxshilaydi, mushaklar va suyak tizimining kuchayishiga xizmat qiladi. O‘yin davomida tana harakati, muvozanat va koordinatsiya rivojlanadi. Bu yoshlar uchun o‘sish va rivojlanish jarayonida ayniqsa muhimdir.

Shuningdek:

- Ko‘z bilan qo‘l muvofiqligi rivojlanadi.
- Harakatlarning tezligi va aniqligi ortadi.
- E’tibor va konsentratsiya kuchayadi.

Aqliy va psixologik salomatlik

Stol tennisi faqat jismoniy emas, balki intellektual sport turi hisoblanadi. Har bir zarba va harakatni oldindan rejalashtirish, raqib harakatini tahlil qilish va unga javob qaytarish zarur bo‘ladi. Bu esa yoshlarning:

- Tez fikrlash,
- Strategik qarorlar qabul qilish,
- Muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, stol tennisi stressni kamaytiradi, psixologik yengillik beradi va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

Ijtimoiylashuv va tarbiyaviy ahamiyati

Stol tennisi guruhda yoki juftlikda o‘ynaladi. Bu esa o‘zaro muloqotni rivojlantiradi, do‘stona muhitni yaratadi va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Turnir va musobaqalarda ishtirok etish esa:

- Raqobatbardoshlik,
- Intizomlilik,
- G‘alabaga intilish,
- Mag‘lubiyatni yengil qabul qilish kabi fazilatlarni yoshlar qalbiga singdiradi.

Ayollar va jismoniy imkoniyati cheklanganlar uchun ham mos

Stol tennisi universal sport turi bo‘lib, jismoniy imkoniyatlari cheklangan yoshlar, qizlar va hatto keksa yoshdagilar uchun ham mos keladi. Shu bois maktablarda, kollej va universitetlarda, shuningdek, mahallalarda ushbu sport turini rivojlantirish orqali keng qatlamlarni jismoniy faollikka jalb etish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, stol tennisi yoshlar orasida jismoniy faollikni oshirishda muhim vosita bo‘la oladi. U nafaqat sog‘liqni mustahkamlashga, balki intellektual va ijtimoiy rivojlanishga ham xizmat qiladi. Shu sababli, ta’lim muassasalari, sport markazlari va mahallalarda stol tennisini rivojlantirish, uning ommaviyligini ta’minlash zarur. Bu orqali biz sog‘lom, faol va har tomonlama yetuk yoshlarni voyaga yetkazishga erishamiz.

Munozara. Stol tennisi oddiy sport turlaridan biri bo‘lib, maktab, kollej, oliygoh va mahalla miqyosida tashkil etilishi mumkin. Bu esa uni keng ommalashtirish imkonini beradi. Shuningdek, bu sport turi orqali raqobatbardoshlik, mehnatsevarlik va jamoada ishlash ko‘nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga, stol tennisi yoshlarni bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga yordam beradi. Ammo hozirgi kunda ko‘pgina o‘quv muassasalarida ushbu sportga e’tibor yetarli emas. Sport anjomlari, malakali murabbiylar yetishmovchiligi mavjud.

Xulosa. Stol tennisi yoshlarning jismoniy faolligini oshirish, sog‘lig‘ini mustahkamlash va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashda samarali vosita hisoblanadi. U stressni kamaytiradi, psixologik barqarorlikni oshiradi va faol hayot tarziga undaydi.

Maktab va oliygohlar sport zallarida stol tennisi to‘garaklari tashkil etilsin.

Mahallalarda bepul stol tennisi joylari yaratilsin.

Stol tennisi bo‘yicha murabbiylar tayyorlash va ularni moddiy rag‘batlantirish tizimi ishlab chiqilsin.

Yoshlar o‘rtasida muntazam turnirlar tashkil etilib, eng faol ishtirokchilar mukofotlar bilan rag‘batlantirilsin.

FOYDANANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ya.S.Vaynbaum. Jismoniy tarbiya gigienasi. Toshkent, O’qituvchi, 1988. B.13.

2. Аулик И.В. Определение физической работоспособности в клинике и спорте // – Москва. «Медицина». 1990. – С.34-56.

3. Богатырев В.С., Циркин В.И.. Антропометрические и физиометрические подходы оценке репродуктивного здоровья девушек // – ВГПУ, 1999. – С.75-218.

4. Дворкина Н.И. Взаимосвязь силовых и психических качеств дошкольников 3–6 лет // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. – Волгоград, 2002. – №3. – С.23-28.

5. Головина Л.Г., Копылов Ю.А., Полянская Н.В. Сила мышц кисти детей 7-10 лет с различной длиной и массой тела // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. – Тула, 2004. – №2. – С.23-32.

6. Циркин В.И., Свинар Е.В. Влияние образовательной деятельности различной интенсивности на развитие двигательных качеств у первоклассников // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. – Москва, 2007. – Вып. 6. – С.51-55.

7. Холчураев Ботир Холиқович (2020). Жисмоний тарбия дарсларини ташкил этишда таълим услубларининг аҳамияти. Science and Education, 1 (3), 752-756.

8. Васильева Виктория Руслановна, & Коробейникова Елена Ивановна (2021). Применение innovatsionных технологий на уроках физической культуры. Наука-2020, (6 (51)), 131-136.

9. Абдуллаев А., Хонкелдиев Ш.Х. Жисмоний тарбия назарияси ва усулияти. 2000 й. Тошкент.

10. Саломов Р.С Спорт машғулотларининг назарий асослари. Ўқув қўлланма Т.:2005.-261 б.

YOSH KURASHCHILARDA TAKTIK TAYYORGARLIGINI OSHIRISH USULLARI

Matniyazov X.K.
Ma'mun universiteti dotsenti

Tayanch so'zlar: kurash, sport, taktik tayyorgarlik, metod, mashg'ulot, jismoniy sifat, kuch, chaqqonlik, musobaqa, texnika.
Ключевые слова: борьба, спорт, тактическая подготовка, метод, тренировка, физические качества, сила, ловкость, соревнование, техника.
Key words: wrestling, sport, tactical training, method, training, physical quality, strength, agility, competition, technique.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada yosh kurashchilarda taktik tayyorgarligini oshirish usullari o'rgatish. Yosh kurashchilarning taktik tayyorgarliklarni tekshirish uchun bir qator pedagogik tajriba va kurashchilarini mashg'ulot davomida taktik hujumlarini o'rgatish, uni bajarish va ularni mustahkamlab olish usullari bo'yicha dolzarb masalalari va jihatlari bayon qilingan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье преподаются методы повышения тактической подготовленности юных борцов. Описан ряд педагогических опытов юных борцов по проверке их тактической подготовки, а также актуальные вопросы и аспекты обучения их борцов тактическим приемам в ходе тренировки, их выполнения и закрепления.
SUMMARY:
In this article, methods of improving tactical readiness of young wrestlers are taught. A series of pedagogic experiences of young wrestlers to check their tactical preparation and actual issues and aspects of teaching their wrestlers tactical attacks during training, performing them and strengthening them are described.

Kirish. Bugungi kunda sportning rivojlangan turlaridan biri sifatida xalqaro miqyosda ham o'z o'rniga ega bo'lmoqda. Bundan tashqari hozirgi kunda Oliy ta'lim muassasalarida talaba yoshlarning kurash bilan muntazam shug'ullanishiga, ularni professional sportchilarga aylantirish imkonini berib kelmoqda. Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish maqsadida qabul qilinayotgan Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, mamlakatimizda ko'pdan-ko'p xalqaro miqyosdagi musobaqalarning tez–tez o'tkazilishi, o'zbek sportchilarining Osiyo, jahon va Olimpiya o'yinlari

musobaqalarida yuksak natijalarga erishishi mustaqil yurtimiz shuhratini jahon hamjamiyati oldida tarannum qilmoqda. Bunga ko‘ra kurash sportining “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada” sport musobaqalari dasturiga kiritilishi ham bunga bir yaqqol misol bo‘la oladi. Hozirgi kunda barkamol avlodni sog‘lom qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportning o‘rnini hisobga olib, sport turlarini yanada takomillashtirish, uning o‘quv va moddiy-texnik bazasini yangilab, zamon talablari darajasiga hamda aholining sportiga bo‘lgan qiziqishni oshirish usulida davlat miqyosidagi maqsadli tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq qilinmoqda. Bunda texnik-taktik mahorat deganda yuqori toifadagi turli kurashchilariga xos bo‘lgan harakatlarni bajarishning asosiy qonuniyatlari va tamoyillari anglatiladi.

Tadqiqotning maqsadi: Yosh kurashchilarning bir yillik tayyorgarlik jarayonining, musobaqa faoliyatining ko‘rsatkichlarni e’tiborga olgan holda, yosh kurashchilarni taktik tayyorgarliklarini jarayoni rivojlantirish metodini ishlab chiqish.

Tahlil va natijalar: yosh kurashchilarning taktik tayyorgarliklarni tekshirish uchun bir qator pedagogik tajribalari amalga oshiriladi. Tadqiqot yosh kurashchilarini mashg‘ulot davomida taktik hujumlarini o‘rganish, uni bajarish va ularni mustahkamlab olish usullarga o‘rgatish uchun ajratilgan soatlar hajmi doirasida 45% gacha oshirish, shuningdek, musobaqa faoliyati xususiyatlarni aniqlashtirishga qaratilgan. Farazlarning to‘g‘riligini tajribalar asosida tekshirishda 14 dan 16 yoshgacha bo‘lgan kurashchilaridan iborat bo‘ladi.

Yosh kurashchilarni ikki guruhga bo‘linishidi, birinchi–guruh nazorat guruhi (10 kishi) bo‘lib, ushbu guruh tarkibiga kiruvchilar 2024-yilning 25 sentyabr kuni, yuqorida qayd etilgan nazorat sinov mashqlar yordamida tekshiruvdan o‘tkazildi hamda kuzatuvining birinchi kunidan boshlab mashg‘ulotlarda ishtirok etishni davom qilishdi. Ikkinchi – guruh pedagogik tadqiqot guruhida (10 kishi) – bo‘lib u ham 1-guruh bilan yonma – yon nazoratdan o‘tkazildi. Tadqiqot guruhida 3 oy davomida (2024 yil 25 sentyabr oyidan shu yilning 15 dekabr kuniga qadar) taktik tayyorgarliklarni rivojlantirish maqsadida yo‘naltirilgan vositalar bajarildi. Mashg‘ulotlarning tayyorgarlik qismidagi (yosh kurashchining maxsus mashqlari bilan birgalikda) mashqlar: bular yugurish, umumrivojlantiruvchi mashqlar (turgan joyda bajarish va yurib bajarish), maxsus rivojlantiruvchi mashqlar (ko‘prik holatida yurish va aylanib yugurish mashqlari, oyoq paylarini cho‘zish va yelkalarni qizdirish mashqi). Tadqiqot mobaynida 2-guruhga yosh kurashchilarga boshqa turlaridan usullar tushintirilib, ushlash holatlari, qo‘l va oyoq harakatlarini o‘rgatilib borildi.

1-jadval

Tadqiqot davomida nazorat va tadqiqot guruhlaridan tadqiqot boshida olingan test natijalari

№	Nazorat testlari	naz	gur		tadq	gur	o‘x
		$\bar{X}$	σ	V%	$\bar{X}$	σ	V%
1	4x10 metr masofaga mokisimon yugurish	12.6	0.4	3.83%	12.6	0.5	4.77%
2	Beldan oshirib tashlash (10 soniya)	5.6	0.5	9.49%	5.7	0.6	9.69%
3	Yelkadan oshirib tashlash (10 soniya)	5.6	0.6	9.29%	5.5	0.7	13.14%
4	Turnikda tortilish	10.9	0.6	5.28%	10.8	1.3	12.86%

Tadqiqot oxiriga kelib o‘rgatilgan usullar: 4 xil ushlash usullari, qo‘l harakatlari bo‘yicha 4 xil usuli, oyoq harakatlari bo‘yicha 4 xil usuli. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, 2–guruh o‘rgatilgan usullarni juda tez o‘rganib olishdi va boshqa sheriklariga ham tushintirishga harakat qilishdi, 1–guruh o‘z mashg‘ulotlarida o‘rgangan usullarini takrorlab, o‘z malakasini rivojlantirar edi.

Sport maktablarining yosh kurashchlari mashg‘ulotlari, bellashuv vaqtida 1 guruh vakillarida o‘zgarish aytarli sezilmadi lekin, 2–guruh vakillarida ayrim holatlarida tadqiqotda o‘rgatilgan hujum holatida va ushlash holatlari va qarshi usullarida qo‘l bilan bajariladigan va oyoq bilan bajariladigan usuli element harakatlari ishlatilganligi amin bo‘lishdi.

Demak, ikkinchi – guruh vakillari hujum qilishida, kurash usullarini elementlaridan foydalanishdi, yani o‘zlari yaratgan taktik harakatni shu elementlar bilan rivojlantirganlar.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, nazorat guruhining taktik tayyorgarlik darajasi va ular tuzgan metodlar ketma-ketligida sezilarli o‘zgarish kuzatilmadi. Tadqiqot guruhida usullar ketma-ketligida sambo kurashi harakatlaridagi ayrim elementlarini kuzatdik, bu – ularga musobaqa davomida raqibni chalg‘itish va raqibga noqulaylik tug‘dirdi. Nazorat guruhining taktik tayyorgarlik darajasi 2,6% dan 3,6%ga oshgan bo‘lsada, tadqiqot guruhida bu ko‘rsatkich esa 2,5% dan 5,8% ga oshdi. Bu foizlar kurashchilar musobaqada ishlatgan taktik hujumlari asosida tuzib chiqildi.

2-jadval.

Nazorat va tadqiqot guruhlaridan tadqiqot boshida olingan test natijalari

№	Nazorat testlari	Nazorat	Guruhi		test	R	Tadqiqot	Guruhi		test	P
		X̄	Σ	V%			X̄	σ	V%		
1	3x10 metr masofaga moksimon yugurish.	10.1	0.2	1.98%	1.33	≤0.2	9.9	0.5	5.05%	3.5	< 0.001
2	Beldan oshirib tashlash (10 soniya).	5.8	0.8	13.70%	1.5	≤0.1	6.6	0.8	12.1%	5.5	< 0.001
3	Yelkadan oshirib tashlash (10 soniya).	5.8	0.8	13.79%	1.5	≤0.1	6.6	0.8	12.1%	4	< 0.001
4	Turnikda tortilish	14.6	0.5	3.42%	10	≤0.001	15.2	1.2	7.89%	8.8	< 0.001

Xulosa qilib aytganda ikki xil sport kurash turlari bilan shug‘ullangan yosh sportchilar asosiy sport turlarida taktik harakatlarini tuzishda albatda ikkinchi sport turlardagi ma’lum bir usullardan yoki elementlardan foydalanib turishligi ma’lum bo‘ladi, bu esa taktik hujumni yanada kuchaytirib yubordi. Yakkakurash sport turlari bilan shug‘ullangan yosh sportchilar, boshqa kurash turlaridan xabardor bo‘lishsa, taktik hujum harakatlarini shakllantirishni oshirib borar ekan.

Kurash bilan shug‘ullanuvchi sportchilarga, boshqa kurash turi usullarini ham o‘rgatish ularni taktik tayyorgarligini kuchaytirib borishini isbot qiladi. Bundan tashqari yosh kurashchilarning jismoniy sifatlardan kuch va chaqqonliklari bilan birga ularni texnikalari ham rivojlanib boradi. Kurash bilan shug‘ullanuvchi yosh sportchilar uchun ko‘p yillik tayyorgarlik rejasi o‘z ichiga jismoniy, texnik-taktik, psixologik va nazariy tayyorgarlikni olishi kerak bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning 2015-yil 5-sentyabrda qabul qilingan “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi” yangi tahrirdagi Qonuni. “Sport” gazetasi, 23.09.2015 y.

2. F.A.Kerimov. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati,T.,2001.

3. Юсупов К. – Кураш халқаро қоидалари, техникаси ва тактикаси. Тошкент 2005 й.

4. Bayturayev E.I. – Sambo kurashi nazariyasi va uslubiyati. Toshkent 2016 y.

5.A.R. Taymurodov, M.N. Shukurov, Q.Q. Rasulov.Sport pedagogik mahoratini oshirish.Kurash usullarini o‘rgatish metodikasi,T.,2024.

6.Juraev A. Kurashchilarning musobaqaga tayyorgarlik bosqichlari. Toshkent: O‘zDJTI,2015.

7.Mahmudov M. Talaba kurashchilarning psixologik tayyorgarligi. Samarqand: SamDU,2018.

8.Murodov R. Yosh sportchilar tayyorgarligining zamonaviy uslublari. Toshkent: O‘zR FVS nashriyoti,2020.

DASTLABKI TAYYORGARLIK BOSQICHIDA 9-11 YOSHLI GANDBOLCHILARNI JISMONIY TAYYORGARLIK DARAJASINI MONITORING QILISH METODIKASI

Karimboyev O.Q.
Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchi-stajyor.

Tayanch so'zlar: gandbol, monitoring, dastlabki tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik, sport sinovlari, nazorat, metodika, baholash.
Ключевые слова: гандбол, мониторинг, начальная подготовка, физическая подготовка, спортивные испытания, контроль, методика, оценка.
Key words: handball, monitoring, preliminary training, physical training, sports tests, control, methodology, assessment.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada 9–11 yoshli gandbolchilarni dastlabki tayyorgarlik bosqichida jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash va monitoring qilish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari, monitoring elementlari va ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llari yoritilgan. Monitoring orqali yosh sportchilarning tayyorgarlik holatini aniqlash, ularning jismoniy rivojlanish dinamikasini kuzatish hamda samarali mashg'ulot jarayonini individual yondashuv asosida takomillashtirish metodlari asoslab beriladi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье освещены научно-теоретические основы методики оценки и мониторинга уровня физической подготовленности гандболистов 9-11 лет на этапе начальной подготовки, элементы мониторинга и пути их внедрения в практику. С помощью мониторинга обосновываются методы определения состояния подготовленности юных спортсменов, наблюдения за динамикой их физического развития и совершенствования эффективного тренировочного процесса на основе индивидуального подхода.
SUMMARY:
This article elucidates the scientific and theoretical foundations of a methodology for assessing and monitoring the physical fitness levels of 9-11 year old handball players during the initial training stage. It outlines monitoring elements and approaches for their practical implementation. The article substantiates methods for determining young athletes' preparedness through monitoring, observing the dynamics of their physical development, and enhancing the effectiveness of the training process based on an individualized approach.

Kirish. Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasida yosh avlodni sog'lom va jismoniy rivojlangan holda voyaga yetkazish davlat siyosatining

ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-dekabrdagi PQ-421-sonli qarorida jamoaviy sport turlarini rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini takomillashtirish masalalari alohida e’tirof etilgan. Mazkur hujjatda yosh sportchilarni erta bosqichda aniqlash, ularning jismoniy tayyorgarligini baholash va seleksiya asosida saralash zarurligi ta’kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasida sport sohasida olib borilayotgan islohotlar, ayniqsa, jamoaviy sport turlarini ommalashtirish va selektsiya tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar yosh sportchilarni ilmiy asosda tayyorlashni talab etmoqda [1]. Yosh davrda to‘g‘ri yo‘nalishda berilgan jismoniy yuklama ularning kelajakdagi sportdagi muvaffaqiyatlarini belgilaydi. Shuningdek, Goncharova O.V. (2005) tomonidan yosh sportchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar, Ignatyeva V.Ya. (2016) ning gandbol nazariyasi va metodikasiga oid ishlari, Pavlov Sh.K. va boshqalarning (2017, 2006) darsliklari va Shestakovlarning (2001) taktik tayyorgarlikka oid tavsiyalari bu yo‘nalishda monitoring zarurligini ilmiy asoslab bermoqda.

Gandbol sport turi ham ana shunday jamoaviy, yuqori harakat faolligiga asoslangan o‘yinlardan biri bo‘lib, bolalarda tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik va koordinatsiyani rivojlantiradi [3,4,6]. Ayniqsa, 9–11 yosh davri sportchilarni dastlabki tayyorgarlikka jalb etishning eng muhim bosqichidir. Bu bosqichda sportchining jismoniy sifatlarini baholab borish, ularning rivojlanish tendensiyasini aniqlash uchun monitoring tizimidan foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda [3,6,7].

Monitoring orqali sportchining joriy holati aniqlanadi, mashg‘ulot dasturlariga tuzatish kiritish imkoniyati yaratiladi va yutuqlar hamda kamchiliklar tizimli tahlil qilinadi. Shu sababli, monitoring qilish metodikasini ilmiy asosda ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bu sohadagi muhim tadqiqot yo‘nalishidir.

Shunday qilib, bolalarda dastlabki bosqichdayoq jismoniy tayyorgarlik darajasini muntazam monitoring qilib borish orqali ularning sport salohiyatini to‘g‘ri yo‘naltirish, sog‘lom raqobat muhitini yaratish va mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish mumkin. Shuning uchun, ushbu davrda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar va nazorat faoliyatlari ilmiy asoslangan bo‘lishi, individual yondashuv va sog‘lom raqobat ruhida olib borilishi zarur. Aynan shunday yondashuvlardan biri bu – jismoniy tayyorgarlik darajasini monitoring qilish tizimidir [2,3,5,6].

Monitoring deganda, sportchilarning jismoniy holati, ularning rivojlanish dinamikasi va mashg‘ulot samaradorligini tizimli tarzda kuzatish va baholash

tushuniladi. U sportchilarda mavjud salohiyatni aniqlash, mashg‘ulotlar natijasini solishtirish va sportchilarni seleksiya qilish uchun asosiy vositalardan biridir. Monitoring natijalari sport murabbiylariga sportchilarning individual xususiyatlarini chuqur o‘rganish, ularga mos yondashuvlar ishlab chiqish va ularning sport rivojlanish yo‘lini to‘g‘ri belgilash imkonini beradi [2,5].

Tadqiqotning maqsadi. 9–11 yoshli gandbolchilarning dastlabki tayyorgarlik bosqichida jismoniy tayyorgarlik darajasini monitoring qilish metodikasini ishlab chiqish, uning samaradorligini aniqlash hamda amaliyotga tatbiq etish.

Bu orqali sportchilarning jismoniy holati bo‘yicha individual profil tuzish, mashg‘ulot jarayoniga ilmiy asoslangan yondashuv kiritish, hamda jismoniy sifatlarning shakllanishini nazorat ostida olib borish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot vazifalari. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi ilmiy-vazifaviy yo‘nalishlar belgilab olindi:

1. 9–11 yoshdagi sportchilarning jismoniy rivojlanish va moslashuv xususiyatlarini o‘rganish; Bolalik yoshidagi sportchilarning anatomo-fiziologik va psixomotor rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish orqali monitoring mezonlarini asoslash.

2. Dastlabki tayyorgarlik bosqichida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan monitoring testlarini tanlash va ularni tizimlashtirish;Tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik va moslashuvchanlik kabi jismoniy sifatlarni baholovchi sinovlarni tanlab olish va ular bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqish.

3. Monitoring o‘tkazishning metodik asoslarini ishlab chiqish; Har bir test uchun o‘tkazish shartlari, baholash mezonlari va natijalarni qayd etish metodlarini standartlashtirish.

4. Monitoring natijalarini tahlil qilish orqali sportchilarning rivojlanish dinamikasini baholash; Oraliq va yakuniy testlar natijalarini solishtirish orqali sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasidagi o‘zgarishlarni aniqlash.

5. Monitoring natijalaridan kelib chiqib, mashg‘ulotlar uchun individual yondashuv asosida takomillashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqish; Har bir sportchi uchun individual rivojlanish xaritasini tuzish va unga mos yuklama, reja va mashq komplekslarini ishlab chiqish.

6. Monitoring tizimining samaradorligini eksperimental va nazariy jihatdan asoslash. Monitoring asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarning natijaviyligini an’anaviy yondashuv bilan qiyoslash.

Tadqiqot mazmuni. 9–11 yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlar hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, ularning har biri individual rivojlanish tezligiga ega. Shu sababli, gandbolchilarni tayyorlashda barcha sportchilarni yagona mezon bilan

baholash noto‘g‘ri natijalarga olib kelishi mumkin [2,4,5,6]. Tadqiqotda ushbu yosh toifasidagi sportchilar uchun moslashtirilgan monitoring tizimi ishlab chiqiladi.

Jismoniy tayyorgarlik monitoring bosqichlari

Bosqich nomi	Maqsadi	O‘tkazilish vaqti	Asosiy faoliyatlar	Natijasi
1. Dastlabki diagnostika	Sportchining boshlang‘ich jismoniy holatini aniqlash	Mavsum boshida (sentyabr)	- Antropometrik o‘lchovlar - Jismoniy testlar (tezkorlik, kuch, chidamlilik va h.k.) - «Jismoniy tayyorgarlik kartasi» tuzish	Boshlang‘ich tayyorgarlik darajasi aniqlanadi, individual profil shakllanadi
